QUNDUZXON HUSANBOYEVA, ROZA NIYOZMETOVA

ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI

IKKINCHI KITOB

QUNDUZXON HUSANBOYEVA, ROZA NIYOZMETOVA

ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI

Pedagogik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari uchun darslik

IKKINCHI KITOB

Toshkent
"Innovatsiya-Ziyo"
2022

.....6
asalalari.
.....9
akllanish
.....21
lar bilan
.....46
muni va
.....61
illari va
.....81
ntirishda
og‘a-ini
.....103
Oltovlon
.....118
akorlikda
.....148
uammoli
.....174
iy ta'lim
.....202
adabiyot
.....220
a'limdagi
.....238
a'limdagi
.....258
ng o‘rni.
.....273
adabiyot
.....288

ORLIK
KA
BT

UO'K: 82(072)(07)
KBK: 83.3ya7
H 84

Qunduzxon Husanboyeva, Roza Niyozmetova
Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 392 b.

Mazkur "Adabiyot o'qitish metodikasi" darsligi amaldagi o'quv rejasi asosidagi o'quv dasturiga tayanib yaratilgan. Unda adabiyot o'qitishning eng dolzarb masalalari bugungi kun talablari nuqtai nazaridan yoritib berilgan. Darslik pedagogik ya'nalishdagi oliy o'quv yurtlari o'zbek tili va adabiyoti fakultetlari talabalariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:
Q. Yo'ldoshev,
pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
S. Matchonov,
pedagogika fanlari doktori, professor
S. Qambarova,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 28-avgustdagi 375-sonli qarori bilan (guvohnoma raqamiN№ 375-053) nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8233-9-6

Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova, 2022.
"Innovatsiya-Ziyo", 2022.

MUNDARIJA

1 KITOB

Kirish 6
1-mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari. (Maqollar) 9
2-mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasi ilmi tarixi va shakllanish taraqqiyoti. (Kichkina shahzoda) 21
3-mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi va adabiyot darslarida Integratsiya. (Yurt qayg'usi) 46
4-mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasi kursining mazmuni va qurilishi. (Susambil) 61
5-mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasi asosiy tamoyillari va yondashuvlari. (Oygul bilan Baxtiyor) 81
6-mavzu. Bo'lajak o'qituvchilar kompetentliligini shakllantirishda adabiyot o'qitish metodikasi fanining o'rni va roli. (Uch og'a-ini botirlar) 103
7-mavzu. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashning ahamiyati (Oltovlon va yettinchi) 118
8-mavzu. Ta'lim texnologiyalari. Adabiy ta'limda hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanish. (M. Yusuf she'riyati) 148
9-mavzu. O'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni. (Hellados) 174
10-mavzu. Pedagogik innovasion texnologiyalar va adabiy ta'lim. (Mahbub-ul qulub) 202
11-mavzu. Modulli ta'lim texnologiyasi xususiyatlari va adabiyot o'qitishda undan foydalanish. (Nido) 220
12-mavzu. Didaktik o'yinlar texnologiyasi va uning adabiy ta'limdagi o'rni. (Urushning so'nggi qurboni) 238
13-mavzu. Sinov darslari texnologiyasining adabiy ta'limdagi ahamiyati. (Naqorat) 258
14-mavzu. Adabiy ta'limda erkin tarbiya texnologiyasining o'rni. (Go'zal) 273
15-mavzu. Axborot-kommunikativ texnologiyalar va adabiyot darslarida ko'rsatmalilik. (Qiyomatga qolmagan qasos) 288

DEMOV TADQIQOTLAR VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM № 30610

16-mavzu. Adabiyot o'qitishda multimedia texnologiyasining o'rni va roli. (Kuntug'mish) 311
17-mavzu. Adabiy ta'lim metodlari va usullari hamda ularning o'zaro aloqadorligi. (Oq kema) 324
18-mavzu. Blum taksonomiyasi va adabiy ta'lim. Adabiyot o'qitish metodikasi fanida motivatsiya. (Yovvoyi yo'rg'a) 354
19-mavzu. Badiiy asar ustida ishlashning shakli va mazmuniga ko'ra turlari. (Tog'ay Murod ijodini o'rganish) 372
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 391

II KITOB

20-mavzu. Asarlarni janri va obrazlar tizimiga ko'ra o'rganish. (Muzqaymoq) 6
21-mavzu. Epik turga mansub asarlar ustida ishlash yo'llari. (Haqiqatdan tug'ilgan afsona) 28
22-mavzu. Lirik turga mansub asarlarni o'rganishdagi o'ziga xosliklar. (T. Sulaymon she'rlari) 43
23-mavzu. Dramatik tur va janrdagi bitiklar bilan ishlashning xususiyatlari. (Temir xotin) 59
24-mavzu. Mumtoz adabiyot namunalarini o'rganish metodikasi (Sariq devni minib) 75
25-mavzu. Adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish. (Bemor) 98
26-mavzu. Asarlar yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar ustida ishlash. (Ming bir jon) 117
27-mavzu. Adabiyot o'quv fanidan beriladigan uy vazifalari. (Adabiyot muallimi) 131
28-mavzu. Yozuvchi tarjimai holining berilishiga xos xususiyatlar. (O'tmishdan ertaklar. Sarob) 157
29-mavzu. Adabiyot darslarida o'quvchilarni asar qahramonlarini baholashga o'rgatish. (Mening o'g'rigina bolam) 175
30-mavzu. Adabiyotdan dars shakllari. (Shum bola) 193
31-mavzu. Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish yo'llari. (Oqbo'yin) 206
32-mavzu. Adabiy ta'limda tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatish amaliyoti. (dars ishlanmasi). 220

33-mavzu. Adabiyot o'qitishda inshoning o'rni va uni tashkil etish yo'llari. (Hayotga muhabbat) 242
34-mavzu. O'qish turlari va ularning xususiyatlari. O'qishning adabiy ta'limdagi ahamiyati (Go'ro'g'lining tug'ilishi) 269
35-mavzu. Virtual laboratoriyalar va ularning adabiyot o'qitishdagi o'rni. (Afandining qirq bir pashshasi) 292
36-mavzu. Sun'iy intellekt va adabiy ta'lim. (Ravshan) 313
37-mavzu. Adabiyot darslarini kuzatish va tahlil qilish (Vaqt. Sog'inch) 331
38-mavzu. PIRLS, PISA, TIMSS va Flash Index tadqiqotlari hamda ularning adabiy ta'lim bilan bog'liqlik darajasi (Odil Burgutshoh va «Zamburug'» laqabli josus haqida ertak) 351
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 382

20- MAVZU. ASARLARNI JANRI VA OBRAZLAR TIZIMIGA KO'RA O'RGANISH

Reja:

1. Adabiyotshunoslikdagi tur va janrlar.

2. Har bir tur va janrning o'ziga xos xususiyatlari.

3. So'z, musiqa va tasviriy san'atdagi obraz tushunchasi.

4. Didaktik tahlilda janrlar va obrazlar ustida ishlashning o'ziga xos xususiyatlari.

5. Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.

"Adabiyotshunoslikka kirish" kursida sinchilikka xos bo'lgan barcha xususiyatlar maydalab o'rganilsa, "Badiiy tahlil asoslari" kursida bitiklarning filologik tahlili bilan bog'liq bilimlar ham batafsil o'zlashtiriladi. Adabiyotshunoslik fanining har ikkala yo'nalishida ham badiiy asarlarga xos bo'lgan tur va janrlar, har birining o'ziga xos xususiyatlari, obrazlar tizimi bilan o'z yo'nalishi doirasida tanishiladi. Mazkur "Adabiyot o'qitish metodikasi" kursida ham bu mavzularga ma'lum darajada murojaat qilmaslikning iloji yo'q. Chunki adabiy ta'limda, u o'qitishning qaysi bosqichi (maktabgacha adabiy ta'lim, boshlang'ich sinflar adabiy ta'limi, o'rta va yuqori sinflar, hatto oliy adabiy ta'limda ham)da bo'lishidan qat'i nazar badiiy asarlar didaktik tahlilga tortilar ekan, badiiy matn, surat va musiqiy bitiklarga murojaat qilinadi hamda ularning janrlari, obrazlar tizimi haqida so'z yuritiladi. Adabiy ta'limni busiz tasavvur etish mumkin emas. Bu jarayonda har ikkala kursda o'rganilgan bilimlarga tayaniladi. Shu ma'noda mazkur masalalar bilan bog'liq ayrim bilimlar (adabiyot darslarida o'rganilishi nazarda tutilgan qismi)ni qisqacha eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Janr (fransuzcha – *genre*, lotincha - *genus* so'zlaridan olingan bo'lib o'zbek tilida – jins, tur ma'nolarini anglatadi) adabiyot va san'atda tarixan shakllangan ichki bo'linish hamda mazkur bo'linishni ifodalovchi tushuncha, shakl va mazmun birligidagi o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan asarlarning alohida turlarini ifodalaydi. San'at asarlarining janr guruhlariga bo'linishi turli (tanlangan mavzu, badiiy-g'oyaviy mazmun, shakl jihatlari va bq.) mezonlarga tayanib amalga oshiriladi. Har bir san'at turida janr tasnifi o'ziga xos tizimni tashkil etadi.

Masalan, adabiyot (badiiy-adabiy ijod)da asarning janr xususiyati u qaysi adabiy turga taalluqliligi, hajmi va obrazlar qurilishi usuli (ramziyligi, majoziyligi, hujjatliligi) bilan belgilanadi. Adabiyotda janrlar uchta asosiy turda birlashadi:

- epik tur (qahramonlik dostonlari, roman hikoya, ertak va hk.);
- lirik tur (qasida, elegiya, she'r, qo'shik va bq.);
- dramatik tur (tragediya, drama, komediya).

Mazkur turlardagi janrlar asar mavzusiga ko'ra yanada mayda qismlarga ham bo'linadi: maishiy, psixologik mavzudagi romanlar; hajviy, lirik komediyalar, vodevil va bq.

"Janr" tushunchasi tasviriy san'at asarlariga ham xos bo'lib, avvalo, tasvirlanayotgan narsaga, ba'zan tasvir xususiyatiga ko'ra asosiy janrlar belgilanadi (portret, manzara va bq.). Ichki mayda bo'linishlar badiiy ijodda bilish, g'oyaviy baholash, badiiy obraz bo'laklari aralashuvi bilan aniqlanadi. Shunga ko'ra, portretchi rassomning nuqtai nazari umumiy portret yaratish bo'libgina qolmay, istehzoli (sharj) va qahrli fosh etuvchi (karikatura) shakllariga ham ega bo'lishi mumkin.

"Janr" atamasi musiqa asarlariga ham xos bo'lib, unda asarlarning hayotdagi o'rni, ijro etilish joyi va sharoitiga ko'ra, maishiy, marosim, bazm-bayram, harbiy musiqa, konsert, kamer musiqasi kabi (ijro xususiyatlariga qarab) vokal va cholg'u musiqasi, shuningdek, yakka, ansambl, xor, orkestr musiqasi va bq.lari ajratiladi.

Mazmun va badiiy mohiyati nuqtai nazaridan musiqada ham epik (kitobxonlik yo'llari, doston termalari, ballada va bq.), lirik (ashula, ariya, madhiya, poema va bq.) hamda dramatik (musiqiy tomosha, musiqali drama, opera va simfoniya kabi) janrlarini farqlash mumkin.

Adabiyotshunoslikda janrlar adabiy jarayon taraqqiyoti davomida turli-tuman o'zgarishlarga uchragan, ixchamlashib yoki kengayib borgan, ijtimoiy, ma'naviy taraqqiyotga mos holda ba'zilar (milliy mumtoz adabiyotda g'azal) yetakchilik qilgan, ba'zisi iste'moldan (muammo) chiqib ketgan, ba'zilari (sonet, roman, tragediya) yangi paydo bo'lgan va hk. Ayniqsa, epik turda ixchamlashish hamon davom etmoqda. Bu xususiyat epopeya, doston, roman, qissa janrlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Lekin, baribir, bu o'zgarishlarga qaramay, janrlarning o'zgarmas qonunlari ham (g'azalning aruzda yozilishi, a-a, b-a, v-a, d-a... tarzda qofiyalanishi) saqlanib qolgan va ularga amaliyotda hamon bo'ysuniladi.

Adabiyot va san'atda sof adabiy tur bo'lmaganidek, sof adabiy janr ham bo'lmaydi. Bir janrning xususiyati ikkinchisida ham yashashi mumkin. Faqat u yetakchilik, belgilovchilik xususiyatiga da'vogarlik qilmaydi. Shu asoslarga ko'ra janrlarning o'xshash va farqli tomonlarini hisobga olgan holda, ularni turlarga birlashtirish va janrlararo o'ziga xos o'zgarmas qonuniyatlarini ochish asoslroqdir.

Masalan, voqealarni hikoya qilishdek ustuvor asosga qurilgan barcha asarlarning jami epik turni vujudga keltiradi. Shu sababli, epos, doston, ballada, masal, ertak, hikoya, qissa, povest, roman, novella, poema, ocherk feleton, esse, rnif, rivoyat, afsona, sayohatnoma, muhabbatnoma, safarnoma, xamsa, hikmatli so'z, cho'pchak, marsiya, madhiya, metal, aforizm kabi janrlar epik turning mulki sanaladi. O'z navbatida ularni ham bir necha guruhlarga ajratish mumkin.

Epos (qadimiy grek tilidan – ἔπος – olingan bo'lib o'zbek tilida so'z, nutq, hikoya ma'nolarini ifodalaydi). Eposning eng yirik janri *epopeya* (qadimgi grek tilidagi ἐποποιΐα + ποιέω so'zlaridan yasalgan bo'lib rivoyatlar, qo'shiqlar majmui, «yarataman» degan ma'nolarni anglatadi)dir. Eposda xalq, millat, qabila taqdirini hal qiladigan buyuk tarixiy voqealar o'z tasvirini topgani sababli, uning bosh qahramoni tarix sanaladi. Eposda voqea hukmron bo'ladi va u "tabiatning o'zgarmas qismi" tarzida, "taqdirning irodasi" sifatida namoyon bo'ladi. Eposga xos bo'lgan bu yetakchi xususiyatlarni inson o'zgartira olmaydi, balki u (taqdir) insonni o'zining irodasiga bo'ysundiradi. Masalan, Homerning "Iliada" va "Odessiyasi"si, hindlarning "Mahobhorat" va "Ramayana"si, qirg'izlarning "Manas"i, o'zbeklarning "Alpomish"i yuqoridigi mulohazalarga isbotdir. Masalan, "Alpomish" klassik epos shaklidagi asar. U bu shaklga kirgunicha tarixiy qo'shiq – arxaik epos – xalqaro ideal (syujet) – klassik epos jarayoni bosqichlaridan o'tganligi mutaxassislar tomonidan isbotlangan.

Roman zamonaviy epopeyadir. Eposning hamma asosi, muhim xususiyatlari romanda bordek. Faqat romanda boshqa elementlar, boshqa manzara hukm suradi. O'zbek romanchiligiga 1922 yilda A. Qodiriy ning "O'tkan kunlar" romani bilan asos solingan. Olamning yaxlit falsafiy konsepsiyasi: "O'tkan kunlar" (A. Qodiriy); "Sarob" (A. Qahhor); "Qutlug' qon", "Navoiy" (Oybek); "Yulduzli tunlar" (P. Qodirov); "Ulug'bek xazinasi" (O. Yoqubov); "Girdob" (O'. Usmonov); "Tolazor" (Murod Muhammad Do'st): "Otamdan qolgan

dalalar" (Tog'ay Murod) kabi bir qator romanlarda o'z aksini topgan. Romandagi epik xarakterlar tasviri ikki kitobdan nihoya topsa – *dilogiya*, uch kitobda tugallansa – *trilogiya*, to'rt kitobga sig'sa – *tetralogiya* va besh kitobga yetsa – *pentalogiya* deb ataladi.

Doston – forscha so'z bo'lib uning ma'nosi: nazm yoki nasr bilan yozilgan hikoya, poema, epik asar, sarguzasht, kechmish voqealar ma'nosini anglatadi. Doston olamni birvarakayiga ehtiroslar tug'yonida tasvirlovchi, g'oyatda muo'quvchig'ali sarguzashtlarga boy, romantik bo'yoqdor yirik hajmdagi asar. O'zbek xalq og'zaki ijodida birgina doston tasnifining o'ziyoq epos janrlari va ko'rinishlarining ko'p qirraliligini isbotlay oladi:

1. Qahramonlik dostonlari ("Go'ro'g'li", "Ravshanxon").
2. Jangnomalar ("Yusuf va Ahmad", "Alibek va Bolibek").
3. Tarixiy dostonlar ("Shayboniynoma", "Jizzax qo'zg'oloni").
4. Ishqiy-romantik dostonlar ("Malikai ayyor", "Rustamxon").
5. Kitobiy dostonlar ("Farhod va Shirin", "Tohir va Zuhra").

Qissa (arabcha so'z bo'lib, voqyeiy hodisa yoki afsonalar bayon qilingan epik asar. Syujetning murakkabligi jihatidan romandan ko'ra soddaroq badiiiy bitik) – eng qadimgi janrlardan biri hisoblanadi. Qissada, asosan, ishqiy mazmun yetakchilik qiladi. Ayniqsa, "muayyan payg'ambar yoki avliyo, dono shaxs yoki tengsiz pahlavonlar obrazlarining ibratomuz xatti-harakatlari misolida butun xalqning tarixini ideallashtirib ko'rsatish" qissalarning mohiyatini tashkil qiladi. Bularga "Ibrohim Adham qissasi", "Amiri Axtam qissasi", "Bobo Ravshan qissasi", "Qissasi Rabg'uziy", "Hazrati Ali haqida o'n to'rt qissa" kabi qissalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Povest (ruscha so'z bo'lib, hikoya, rivoyat qilish demakdir)ning asosiy belgisi - unda «hayotiy qamrovning romanga nisbatan torligi, hikoyaga nisbatan kengligi asos bo'ladi». Bundan tashqari, povestda syujet va kompozitsiya ham romanga nisbatan soddaligi, hikoyaga nisbatan murakkabligi bilan ajralib turadi.

Romanda «olamning yaxlit falsafiy konsepsiyasi" bo'lishi shart bo'lsa, bu hodisaning bir qismi (parchasi)ning bir-ikki qahramon taqdiri misolida yechilishi povest uchun yetarlidir. V. Belinskiy: "Povest ham ayni romanning o'zginasi, faqat kichikroq hajmda, asarning hajmi mazmunning hajmi va mohiyatiga qarab belgilanadi", - degan edi. O'zbek adabiyotida: G'. G'ulomning "Yodgor", "Shum bola"; S. Ayniyning "Sudxo'rning o'limi"; A. Qahhorning "Sinchalak"; O'.

Hoshimovning "Dunyoning ishlari", Ne'mat Aminovning "Bir asr hikoyati" kabi asarlarni povest janrining yetuk namunalari deyish mumkin.

Poema (yunoncha "poima" – ijod)da hayot va odamlar qalbi epik (voqea) va lirik (kechinma, tuyg'u) hamohangligida kashf etiladi. Poemada epiklik va lirika birlashgan holda, yaxlit liro-epik oqimni vujudga keltirib, hayotiy voqea-hodisalarning va qahramon xarakteridagi kuchning ruhi ochiladi, tahlil qilinadi, hayajonli ifodalanadi.

Poema lirik, epik, liro-epik, dramatik bo'lishidan qat'i nazar, ularning barchasida hayot (davr)ning epik qiyofasi shoir shaxsiyati (lirik qahramon) qalbi orqali ochiladi. Voqea hukmronlik qiladi, uning hukmiga asosan qalb «qo'shig'i» kuylanadi. Lekin bu qo'shiq doston janriga nisbatan ixcham, anchayin kichik, ayni paytda, o'ta real va lirikdir. "Zaynab va Omon" (Hamid Olimjon), "Toshkentnoma" (Maqsud Shayxzoda), "Surat" (Mirtemir), "Ruhlar isyoni" (Erkin Vohidov), "Jannatga yo'l" (Abdulla Oripov), "Xalil Sulton" (Usmon Azim) kabi asarlar poema janriga mansubdir.

Ballada (fransuzcha "ballade" so'zi kelib chiqqan bo'lib, tovushga taqlid qilish, raqs tushish ma'nolarini anglatadi) janridagi bosh xislat – kutilmagan syujet (voqea)ning kutilmagan final (xotima) bilan tugashiga, qahramon qalb kechinmalari va ruhiyatining dramatik izhoriga bag'ishlangan asardir. Balladadagi bu ikki (epik va lirik) holat – davr va qalb dramasi kashfi birlashib, qalb faryodi izhoriga aylanganda ballada tug'iladi. Unda epik tasvir yetakchi va lirik tasvir (ichki tug'yon) ikkilanchi nisbati buzilmasligi, lirizm voqeaning ichida yashashi shart. Bu balladaning bosh qonuniyatidir.

Masal (arabcha – namuna) voqealikni allegorik (kinoyaviy) va simvolik (ramziy) obrazlar yordamida ifodalovchi, real turmush va odamlarning ko'rinishlari, xarakter qirralarini kinoya, kesatish, kulgu, g'azab, nafrat kabi hissiyotlar vositasida ochuvchi epik janrdir. Masal janrining asoschisi Ezop bo'lgani sabab, unga nisbatan "ezop" atamasi ham ishlatiladi. Masal tilini "Ezop tili" ham deyishadi. Ezopdan keyin bu janrni Lafonten (fransuz), Krilov (rus), Gulxaniy (o'zbek)lar yangi bosqichga ko'tardilar. Masal, ko'pincha, voqealik va odamlar to'g'risidagi haqiqatni ochiqchasiga aytishning imkoniyati yo'q paytlar ko'plab yaratiladi va ramzli tarzda (pardali qilib) bu haqiqatlarga isbora etiladi.

Latifa (arabcha – nozik, yoqimli, zarif) xalqning o'tkir mushohadasi asosida qurilgan yoqimli va nozik kulgili, kichik va nodir "hikoya" ("zarifa", "ajiba"). Unda eng qisqa shakldagi qiziq voqeaning bir epizodi nasriy yo'lda kulgili qilib aytiladi, epizod qiziqarli umumlashgan muhim fikrga, yorqin ifodaga boy bo'ladi. Latifaning bu xususiyati topqirlik va mahorat bilan yaratilgan bo'lsa, kishi xotirasida uzoq saqlanadi. Ayni paytda, og'izdan og'izga tez o'tib, yanada sayqallashadi. Latifaning eng muhim xususiyatlaridan yana biri undagi konfliktning ikki (ijobiy va salbiy) qutbliligi va uning yorqin, bo'rtib ko'rinishidir. Bundan tashqari, "boshqacha bo'lishi mumkin", degan tushunchaga o'rin qoldirmasligi ham latifaning asosiy xususiyati sanaladi. Latifaning eng kichik ko'rinishi matbuotda "xanda" nomi bilan yuritiladi. Xandalar biron-bir epizodning "qaymog'ini" – mohiyatini birdaniga kulminatsion cho'qqiga chiqaradi va dialogik nutq vositasida uni kulgili tarzda yechimga olib keladi.

Hikoya (arabcha so'z bo'lib, biror narsaning, og'zaki bayoni, tafsiloti, nasriy yo'l bilan yozilgan kichikroq badiiy asar). Latifa mazmuniga kirgan voqeadan kattaroq, ammo povestga mazmun beruvchi voqeadan kichikroq sarguzashtni, ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvirlaydi. Kishilik taqdirining payonsiz hodisalaridan bir epizod, voqea yoki hodisa tanlab olinadi va tor doirada ifoda etiladi.

Ertak – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri bo'lib, to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo'lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi. Syujet chizig'idagi dinamik harakat konflikt yechimini ta'minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta'limiy-estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o'ziga xos badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqea va hodisalarni hayotda bo'lishi mumkin bo'lmagan yoki mavjud bo'lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi.

Novella (ital. "novella"– yangilik) hikoyaning eng ixcham ko'rinishi deb yuritiladi. "Xarakterning muayyan vaziyatdagi holatini voqeaning keskin burulish nuqtasida, dinamik syujet, kuchli dramatizm, kutilmagan yechim asosida ko'rsatish – novella uchun eng xarakterli xususiyatdir" (T. Boboev). Abdulla Qahhorning "Anor", "Bemor", "O'g'ri" kabi asarlari hajman kichkina bo'lishiga qaramay

hikoya janri talablariga to'liq javob berishi bois, ular mumtoz hikoyalar sanaladi.

Novella janri inson hayotining tipik bir lahzasini tasvirlagani uchun, unda biror lahza shunchalar yorqin ifodalanishi kerakki, unda hamma so'zlar badiiy "yuk" tushishi, "so'z isrofgarchiligi»ga sabab bo'ladigan ortiqcha detallar bo'lmasligi asosiy mezon hisoblanadi.

Lirika (qadimgi trek tilidagi – λυρικός – liri (cholg'u asbobi) ohangiga mos, hayajonli, lirik) adabiy tur sifatida qadimdan shakllangan bo'lib, o'zining bir qator xususiyatlariga ega. Lirikaning belgilovchi xususiyati sifatida uning tuyg'u-kechinmalarni tasvirlashi olinadi. Ya'ni, epos va dramadan farq qilaroq, lirika voqelikni tasvirlamaydi, uning uchun voqelik lirik qahramon ruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahamiyatlidir. Shu bois ham lirik asarda voqelik lirik qahramon qalb prizmasi orqali ifodalanadi, yana ham aniqrog'i, lirikada kechinmani tasvirlash uchun yetarli miqdordagi voqelik «parchalari» – detallargina olinadi. Lirikaning asosiy obrazi — lirik qahramon (ba'zan u lirik subyekt deb ham yuritiladi).

Lirik turga mansub asarlarni janrlarga ajratishda ham turlicha prinsiplar mavjudligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Adabiyotshunoslikda ulardan ikkitasi — shakl xususiyatlaridan kelib chiqib hamda mazmun xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tasniflash kengroq tarqalgan. Jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotiga nazar solinadigan bo'lsa, unda she'rlarning ko'proq shakl xususiyatlaridan kelib chiqilgan holda janrlarga ajratilishiga guvoh bo'lish mumkin. Masalan:

ruboiy o'zining to'rt misradan tashkil topishi, hazaj bahrining axrab va axram shajaralarida yozilishi, ko'proq a-a-b-a (kamroq a-a-a-a) tarzida qofiyalanishi kabi shakl ko'rsatkichlari asosida ajratiladi;

tuyuq ham to'rt misradan tarkib topishi, ramali musaddasi maqsur vaznida yozilishi, ko'proq a-a-b-a tarzidagi va tajnisli qofiyaga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi;

qit'a ikki yoki undan ortiq baytdan tarkib topadi, juft misralari o'zaro qofiyalangani holda, toq misralari ochiq qoladi. Vazn va mazmun jihatlaridan cheklanmaydi.

Ko'rinadiki, bularning barida shakl xususiyatlari janrni belgilovchi asos bo'lib xizmat qiladi. Bu narsa, ayniqsa, musammat (masnaviy, musallis, murabba' va hk.)larda, mustazod, tarkiband, tarjeband kabi janrlarda yana ham yorqinroq ko'rinadi. Ma'lum bo'ladiki, o'zbek

mumtoz she'riyatida o'zining muayyan shakliy belgilariga ega bo'lmish turg'un she'riy janrlar yetakchi o'rin tutgan. Shunisi ham borki, badiiy tafakkur taraqqiyotining muayyan bosqichida turg'un janr shakllarining yetakchi mavqye egallashi umuman jahon adabiyotida kam kuzatiladigan hodisadir.

Drama adabiyotdagi yetakchi turlardan yana biri (qadimgi grek tilidagi – δρᾶμα – harakat, faoliyat ma'nolarini anglatadi) bo'lib, uning asosiy tasvir predmeti – harakat. U obyektning plastik obraz'ini yaratadi. Dramada subyekt – ijodkor shaxsi obyekt (yaratilayotgan obraz)ga singdirib yuboriladi. Agar bular dramaning turga xos belgilovchi xususiyati bo'lsa, dramatik asarning qurilishi, poetik o'ziga xosligini belgilovchi eng muhim xususiyat uning sahna uchun yaratilishidir.

Dramatik turning asosiy janrlari sifatida tragediya, komediya va drama ("drama" atamasi ham adabiy tur ma'nosida, ham o'sha turning bir janri ma'nosida qo'llaniladi) ko'rsatiladi. Dramatik asarlarni janrlarga ajratishda ularning asosiy estetik belgilariga tayaniladi.

Tragediya (nemis tilida *tragödie*, lotincha *tragoedia*, qadimgi grek tilidagi τραγῳδία so'zidan olingan bo'lib "echki qo'shig'i" tarzida tarjima qilinadi. Badiiy adabiyotning sahnada namoyish etish uchun yaratilgan janri sifatida syujeti personajlar fojiasiga olib keladi) qadimda shakllangan dramatik janr bo'lib, genetik jihatdan u ma'bud Dionisning o'limi va qayta tirilishi munosabati bilan ijro etilgan marosim qo'shiqlari asosida yuzaga kelgan. Tragediyaning janr xususiyatlari tragik konflikt, tragik holat va tragik qahramon tushunchalari bilan belgilanadi.

Tragediyaning asosiy estetik belgisi – tragiklik, komediyaning asosiy estetik belgisi – komiklik, dramaning asosiy estetik belgisi esa dramatiklik sanaladi. Adabiyotshunoslikda "asosiy estetik belgi" deb atagan narsa ko'proq «pafos» atamasi bilan ifodalanadi. «Pafos» deganda tasvirlanayotgan xarakterning milliy va umuminsoniy ahamiyatini e'tiborda tutgan holda g'oyaviy-hissiy idrok etish hamda baholash natijasi o'laroq yuzaga kelgan, asarning butun to'qimasiga singdirib yuborilgan ruh tushuniladi. Bu jihatdan qaralsa, tragediya

---

[illegible]

tragik pafos bilan, komediya satirik yoki yumoristik pafos bilan, drama dramatik pafos bilan yo'g'rilgan bo'ladi. «Pafos» atamasini qo'llashdagi ma'no turlichaligini e'tiborga olib uni "asosiy estetik belgi" shaklida qo'llash maqsadga muvofiq keladi.

Tragediya janr problematikasi nuqtayi nazaridan turlicha: bu janrga mansub asarlarda ma'naviy-axloqiy ("Shoh Edip", "Qirol Lir"), millatning tarixiy taqdiri ("Jaloliddin Manguberdi") yoki romaniy problematika ("Mirzo Ulug'bek") badiiy talqin qilinishi mumkin. Tragediya janri hozirda o'zining faolligini yo'qotgan sanalib, zamonaviy dramaturgiyada bu janr deyarli ishlanmaydi, biroq tragiklik badiiy adabiyotda estetik kategoriya sifatida saqlanib qolgan.

Drama turli mavzularni, xarakter va ziddiyatlarni badiiy talqin qilishga keng imkoniyatlar ochishi, real hayotga yaqinligi bilan dramatik janrlar orasida alohida o'rin tutadiki, uning realistik adabiyotda yetakchi mavqe egallashi shu bilan izohlanadi.

Yuqoridagi asosiy janrlardan tashqari kichik dramaturgik janrlar, shuningdek, turli janr modifikatsiya (turlanish – ko'rinishi va shaklini o'zgartirish, o'zgargan shakl, o'zgargan holat)lari ham mavjud. Jumladan, janr modifikatsiyasi sifatida musiqali drama, musiqali komediyalar ko'rsatilishi mumkin. Musiqa jo'rligida ijro etishga mo'ljallangani, dialog va monologlar o'rnini qisman vokal (ariya va duetlar) egallashi ularning o'ziga xosligini, sintetik san'at namunasi ekanligini ko'rsatadi.

Komediya (qadimgi grek tilida κωμ-ωδία, κῶμος – "Dionis sha'niga qo'shiqlar + ἀοιδή/ᾠδή, ᾠδά ommaviy qo'shiq, oda) dramatik turning komiklikka asoslangan janridir. Komediyaning markazida komik xarakter turadi. Odatda komik xarakter deganda o'zida idealga tamoman zid illatlarni jam etuvchi yoki ulardan ayrimlarini namoyon etuvchi personajlar asos qilib olinadi. Bu o'rinda asosiy shartlardan biri shuki, komik personaj o'zining mavjud holatini idrok etmaydi, o'ziga real baho berishdan ojiz.

Ayrim san'at turlarining, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi natijasida dramatik turning yangi janrlari paydo bo'ldi, borlari faollashdi. Masalan, estrada san'atining rivoji natijasida monolog janri dunyoga keldi, qo'g'irchoq teatrlari rivoji va modernizatsiya(zamonaviylashuvi)si uning uchun yoziladigan

pyesalarni faollashtirdi, televideniening rivoji esa intermediya, teleminiatyuralar janrini faollashtirdi va hk.[1].

Xuddi adabiyotshunoslik ilmidagi singari adabiyot o'qitish metodikasi ilmida ham "obraz" atamasi juda ko'p qo'llaniladi. Adabiyot darslarida badiiy matnlar didaktik tahlilga tortilar ekan, har qanday vaziyatda ham bu tushunchaga murojaat qilinadi.

Obraz, badiiy obraz – voqelikni faqat san'atga xos usulda o'zlashtirib va o'zgartirib xarakterlovchi estetik kategoriya. Badiiy asarlarda o'ziga xos xarakter-xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar timsoli ham obraz deb yuritiladi. Shuningdek, badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqea ham obraz tarzida ifodalanadi.

Obrazda obyektiv anglash bilan subyektiv ijodiy tafakkur qorishib ketadi. Badiiy obrazning o'ziga xos xususiyatlari real voqelikka va fikrlash jarayoniga bo'lgan munosabatda aniq namoyon bo'ladi. Obraz voqelikning badiiy in'ikosi sifatida real mavjud obyektning hissiy aniq, tayin zamon va makonda davom etgan, moddiy tugal, o'zicha yetuk xususiyatlariga ega bo'ladi. Badiiy obrazni real obyekt bilan chalkashtirmaslik kerak. U shartlilik, ramziylik xususiyati bilan real voqelikdan farq qiladi va asarning ichki "illyuziyali" (xayoliy) olamini tashkil qiladi. Obraz voqelikning oddiy in'ikosi bo'lmay, balki uni umumlashtirib, alohida, o'tkinchi, tasodifiy hodisaning eng mohiyatli, o'zgarmas muqim adabiy jihatlarini ochib beradi.

Mavhum tushunchadan farqli ravishda obraz ko'rgazmalilik xususiyatini ham namoyon etadi. U voqealarni mavhum mulohazalar bilan emas, balki hissiy yaxlit, bir butun takrorlanmas tarzda aks ettiradi. Obrazning badiiyligi mavjud voqelikni aks ettirish va uni anglash xususiyati bilan belgilanmaydi, balki badiiylik obrazning misli ko'rilmagan, yangi o'ylab chiqarilgan dunyo yarata olish imkoniyatida yuzaga chiqadi. Obrazda obyektiv mavjud va muhim jihatlar bilan birga, bo'lishi mumkin bo'lgan, mo'ljaldagi, xohishdagi, ya'ni turmushning emotsional-irodaviy tomonlariga munosabat, uning ko'rinmas, ichki imkoniyatlari bilan bog'liq xususiyatlar ham muhrlangan bo'ladi. Shuningdek, badiiy obrazda xayolot, bo'yoq, tovush, so'z va boshqalarni ijodiy ishlash yo'li bilan san'at asari yaratiladi.

[1] https://qomus.info/encyclopedia/uz-lj/janr-uz/

Adabiyotshunoslikda badiiy asar qahramonlariga ham bir obraz sifatida qarash ustuvorlik qiladi. Lekin adabiy ta'limda, adabiyot darslarida har bir adabiy qahramonga obraz deb emas, inson deb qarash yetakchilik qiladi. Har bir adabiy personaj o'z hayoti, turmush tarzi, o'y-fikrlari, tuyg'ulari bilan tahlilga tortiladi, o'rganiladi, muhokama qilinadi, munosabat bildiriladi. Adabiy qahramon adabiyot o'qitish kechimida o'ziga xos tarbiya obyekti hisoblanadi va ma'lum vazifalarni bajaradi.

Obraz murakkab tuzilish va murakkab ko'rinishga ega. U borliq bilan ruhiy dunyoning bir-biriga o'tishidagi lahzalarni qamrab oladi. Badiiy obraz vositasida subyektivlik bilan obyektivlikning, yakka holat bilan umumiylikning, idеallik bilan reallikning o'zaro muvofiq munosabatlari ijodiy ishlab chiqiladi. Badiiy asarda obraz so'z vositasida yuzaga chiqariladi. Adabiy asarning materiali ashyoviy asosdan emas, balki belgilar tizimi, til, so'z materialidan iborat bo'lgani uchun ham so'z bilan ifodalangan obrazda ko'rgazmalilik tomoni plastik obrazga nisbatan kamroq aks etadi. Shoir hatto konkret tasviriy so'zlardan foydalanganda ham, predmetning ko'zga ko'rinadigan qiyofasini emas, assotsiativ (birlashtirilgan, umumlashtirilgan) aloqadagi mazmuniy ko'rinishini yaratadi. Badiiy obrazning muhim vazifasi uning hayotdagidek salmoqdorlik, yaxlitlik va jonlilikka ega bo'lishidir[1].

Xulosa qilib aytganda, adabiyot o'qitish metodikasi ilmida ham, adabiy ta'lim amaliyotida ham adabiy tur, janr va obraz singari tushunchalarga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan emas, balki badiiy asarlarning didaktik tahlili ehtiyojidan kelib chiqib murojaat qilinadi. Bo'lajak adabiyot o'qituvchisining bu boradagi bilimdonligi ham uning kasbiy kompetentliligi asosidir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

"Muzqaymoq" hikoyasini o'rganish

Oltinchi sinf "Adabiyot" darsligida ulug' yozuvchi Odil Yoqubovning hayoti va ijodi haqida ixcham ma'lumot berilgan. O'rganilishi lozim bo'lgan "Muzqaymoq" hikoyasi ham xuddi Erkin

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Obraz

Vohidovning "Nido" dostoni singari qaysidir darajada avtobiografik xarakterga ega. Shuning uchun ham bu maqolani o'qib kelish avvalgi darsning oxirida uy vazifasi sifatida topshiriladi. Birinchi darsda adib shaxsini ochishga, uning og'ir o'quvchilik yillari haqida tasavvur paydo qilishga ozgina vaqt ajratiladi. O'quvchilar e'tibori "Muzqaymoq"da aks etgan tarixiy sharoit, adibning bolaligidagi qatag'on yillarida yuz bergan adolatsizlik va yovuzliklar uning shaxsi shakllanishiga, yozuvchilik taqdirida qanday iz qoldirganiga qaratilishi maqbul bo'ladi.

"Muzqaymoq" hikoyasini o'rganishga ikki soat ajratilgan va asarni o'rganishning dasturiy talqini quyidagicha: *«Muzqaymoq» hikoyasida yolg'on e'tiqod tufayli o'quvchi ruhiyatida ro'y bergan ma'naviy evrilishlarning haqqoniy aks ettirilganligi. Noto'g'ri e'tiqod, ko'r-ko'rona siyosiy aqidaparastlik do'stdan dushman, halol odamdan tuhmatchi yasashi mumkinligining hikoyada ishonarli tasvir etilganligi. Hikoyachi xotirasida chuqur iz qoldirgan o'quvchilik davri joylarining ko'rsatilishi. O'quvchining nog'oralar marshini eshitgandagi holatining mahorat bilan ko'rsatilganligi. Hikoyada odam tuyg'ularini buyoqlama tushunish va tushuntirish mumkin emasligining aks etganligi*[1]. Hikoya darslikda ancha qisqartirib berilgan[2].

. Bu hol o'qituvchini darslikdagi "Muzqaymoq" hikoyasi haqida" nomli nazariy-filologik yo'nalishdagi maqolaga ko'proq urg'u berib, o'quvchilarni darslik mualliflarining asar haqidagi fikrlariga ergashtirishga, ular chiqargan tayyor xulosalarni qabul qilishga yo'naltirishga majbur qiladi. Qolaversa, darslikdagi qisqartirilgan hikoya matni ustida batafsilroq ishlashning imkoni ham yo'q. Chunki O. Yoqubov biografiyasi, hikoya va u haqdagi maqola yuzasidan bori-yo'g'i o'n bitta savol-topshiriq (ulardan faqat beshtasi bevosita hikoya matniga daxldor) taqdim etilgan. Shu narsa ham borki, darslikda badiiy matn ustida ishlash uchun taqdim etilgan: *"Hibsga olgan otaning holatini so'zlab berish"* yoki *"Hikoya qahramoni nima uchun maqtov eshitdi?"* singari oltinchi sinf yoshidagi o'quvchidan asar matnini qayta hikoyalashni talab qiluvchi savollar o'quvchining yoshi va intellektual imkoniyatlaridan orqada. Bunday savollar axborot oqimi rivojlangan davrning 12–13 yoshli o'quvchisiga aks ta'sir ko'rsatib, uning fikriy va

[1] Ўқиш дастури. Адабиёт. 1–4 синфлар. – Т.: ЎТМИ, 2013.
[2] Абдуллаев Ш. ва бошқ. Адабиёт. 1 синф ўқувчилари учун дарслик. 2-қисм. Қайта ишланган ва тўлдирилган 4-нашри. – Т.: Ma'naviyat, 2017. – 120–134-б.

DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM № 3018

ruhiy faoliyatini tormozlashi, adabiyotdan, adabiyot darslaridan bezdirishi mumkin. Bugun bunday savollar boshlang'ich sinflar adabiy ta'limining dastlabki bosqichi – 1-2-sinflar "O'qish kitobi" darsliklaridagi badiiy matnlar ustida ishlash jarayoniga mos keladi. Ta'lim jarayoni o'quvchilarning umumiy aqliy-ruhiy holatini hisobga ola bilishi kerak.

Shu ma'noda, tashabbuskor, o'quvchilarining ertasi uchun bezovta bo'lgan o'qituvchilar hikoyaning asl matnini topishlari va darsda shu asosda ish olib borishlari adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Hikoya hajmi kattaroq bo'lib, uni bir soatda o'qib chiqish mushkul. Shuning uchun birinchi dars adibning o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda o'qib kelingan tarjimai holi yordamida uning shaxsini kashf qilish bilan boshlanib, hikoyaning *"...tengdoshlarim yonidan katta ko'chaga otildim..."* jumlasigacha bo'lgan qismini o'qish bilan yakunlanadi. Uning shu qismi bilan tanishishga 25–28 daqiqa kerak bo'ladi. Qolgan qismi, agar o'quvchilarga ishonilsa, uyda o'qib kelish uchun topshiriladi. Yoki o'qituvchi boshqa mavzular hisobidan ortib qolgan soatlardan shu o'rinda foydalanishi mumkin. Keyingi dars to'liq asar matni ustida ishlashga bag'ishlanadi. Asar matniga doir bir qator savol-topshiriqlarga tayanib, u didaktik tahlilga tortiladi.

O'quvchilarga yozuvchi tarjimai holiga doir darslikda berilgan ma'lumotlarni qaytarishga vaqt sarflab o'tirmay, quyidagi xotiralarni keltirish o'quvchilarning adib shaxsi haqidagi tasavvurlarini boyitadi, asarni chuqurroq anglash imkonini beradi: *"...Qishloqqa kelgach, men oltinchi sinfga qatnay boshladim. Bu safar ham omad yor bo'lib, hayot meni o'z kashlarini nihoyatda sevgan, nihoyatda ziyoli adabiyot muallimlariga ro'para qildi. Ular – Mamatamin Mahmudov va Sulaymon Amirov – o'ta bilag'on, o'ta ziyoli, shoirtabiat kishilar edi.*

Birinchi adabiyot darsi hyech esimdan chiqmayd. Sinfga juda sipo kiyingan, qoimadan kelgan xushqad, xushsurat odam kirib keldi. U doska oldida to'xtab, birdan sukutga cho'mgan sinfga bir zum tikilib turdida, qisqa qilib: "Pushkin. "Kavkaz asiri",- dedi. So'ng dostonni yoddan o'qiy ketdi. Keyinchalik men she'rni yoddan o'qiydigan ko'p shoirlar va artistlarni ko'rdim, ularning she'r o'qish uslublaridan zavqlandim, ammo, nazarimda, butun bir dostonni boshdan-oyoq yod o'qigan o'qituvchini uchratmadim, she'rni bunchalik tiniq-

[1] https://ziyouz.com/xrestomatiya/adabiyot/yaqinovdd-yaqinov-xotiralar

san'atkorona o'qiydigan muallimni ko'rmadim. Ikkinchi adabiyot o'qituvchim Sulaymon aka esa, o'zi ham she'r yozadigan, Cho'lpon, Hamid Olimjon, Mirtemirlar bilan ko'p yillar muloqotda bo'lgan, mumtoz adabiyotni yoddan o'qiydigan, nihoyatda soddadil, pok, halol inson edi. Ular menga ona tilimizning butun nafosati va nazokatini, o'ziga xos betakror latofatini, inson qalbining eng nozik tebranishlarini ifoda eta olish qudratini, matal va naqollarga boyligini, qo'yingki, barcha go'zal xislatlarini ochib berdilar, ona tiliga mehr – bu insonga, ona Vatanga mehr ekanini o'rgatdilar, uni yosh qalbimga toabad muhrladilar.

...1945 yilning yanvar oyida qishlog'imizdan bir yo'la qirq yigit frontga ketadigan bo'ldi. Bular urush yillari birga o'roq o'rgan, birga mashoq tergan, "eshak karvonlar"da birga g'alla tashigan bo'z o'quvchilar edi.

Men asli 1927 yilda tug'ilganman. Lekin urush yillari etik bilan suv kechib, hamma qiyinchiliklarni o'rtoqlashgan yor-birodarlarimdan ayrilib, qishloqda bosh ko'tarib yurishga or qildimu, tuman harbiy komissariatiga borib: "Qishloq soveti kitobida yoshim noto'g'ri yozilgan, aslida yigirma oltinchi yilda tug'ilganman" deb arz qildim. Harbiy komissarimiz urushdan bir oyog'ini yo'qotib kelgan, qo'ltiqtayoq bilan arang yuradigan shiddatli bir odam edi. Unga mening arzim shu qadar yoqdiki, armiyaga chaqirilgan yigitlarni safga tizib (ular orasida yoshini yashirib, allaqachon uylangan, hatto o'quvchi-chaqali bo'lib olgan "o'spirinlar" ham oz emas edi), meni hammaga ibrat qilib ko'rsatdi.

Xullas, shu tarzda sho'rlik oyim va opamlarni zor yig'latib, urushga ketdim. O'rol daryosi sohillaridagi o'rmonzorlarda tizzadan qor kechib harbiy maktabni o'tadik. Bir kechada eshelonlarga o'tqazib, Uzoq Sharq tomon olib ketishdi. Mo'g'ulistonning Gobi sahrosi va Xingan toshlaridan yayov o'tib, qariyb bir oy deganda, mashhur Kvantun armiyasining orqasiga chiqib oldik. Yapon imperialistlariga qarshi urush e'lon qilinganda, biz allaqachon Kvantun armiyasining orqasida shay turardik. Oqibatda, urush ko'pga cho'zilmadi, bir oyga bormasdanoq Kvantun armiyasi tor-mor qilinib, taslimga mahkum etildi.

...U chog'larda harbiy xizmat hozirgidek, ikki yil emas, allaqanday muddatsiz edi. ...Nihoyat, 1950 yilning kech kuzida xizmatdan bo'shab,

qishloqqa qaytib keldim va o'rta maktabning o'nnchi sinfiga o'qishga kirdim..."

Asar tahlil jarayonida, zarurat bo'lganda (garchi o'quvchilar uning matni bilan to'liq tanish bo'lsalarda), o'qituvchi hikoyaning e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan o'rinlarini qayta o'qib berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar e'tibori hikoyaning ikkinchi xatboshisida qopga solib bekitib tashlagan kitoblarga tortiladi. "Yosh kitobxon"lar hikoyani o'qiganlarida o'sha davrdagi tarixiy sharoit haqida qisman tasavvurga ega bo'ldilar. Ularni shu bilganlari asosida mazkur tasvirga munosabat bildirishga undash lozim. Hikoya qahramonining dadasi kitoblarni nima uchun yashirib qo'yganligi haqida o'quvchilar o'ylab ko'rishsin. Kitoblardagi suratlarning ayanchli holati savolga aylantirilsa va o'quvchilar matnga tayangan holda buning sabablarini ochib berishga urinsalar, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu tariqa, beixtiyor hikoya mazmuniga kirib boriladi.

O'quvchilar asar qahramoni bo'lgan o'quvchining mehmon kelishidan oldingi ko'ngil notinchligiga diqqat qilishsa, hikoya tasviridagi tabiiylik namoyon bo'ladi. Inson ko'ngli ba'zan sodir bo'ladigan xursandchilik yoki noxushlikni oldindan sezib, bezovtalanadi. Bunday holat bilan o'quvchilar ham o'zlarining qisqagina hayotiy tajribalarida, agar o'zlarini kuzatgan bo'lsalar, to'qnashgan bo'lishlari mumkin. Faqat bunga hamisha ham e'tibor beraverilmaydi.

Hidakoyada uylariga mehmon kelganining xabarini yetkazishga borgan bolasiga otaning: "*Yur, bolam! Senga bitta muzqaymoq olib beray!*", – degan gapi keltirilgan. O'quvchilar otaning chehrasi yorishib, bolasi boshini silab shunday deyotgani sababini ochishga urinib ko'rganlari maqsadga muvofiqdir. Buning uchun: "Ota uylariga mehmon kelganidan xursand bo'lib o'g'liga muzqaymoq olib bermoqchi bo'ldimi yoki tabiatan shunaqa mehribon, yumshoq odammidi?" savolini muhokamaga qo'yish kifoya. "Hikoyaning "Muzqaymoq" deb nomlanishiga sabab otaning mana shu taklifimi yoki boshqa biror asos bormi?" tarzidagi savolning qo'yilishi ham o'quvchilarni asar ustida jiddiy mulohaza yuritishga undaydi.

O'quvchilar hikoyaning boshqacha nomlanishi maqsadga muvofiq emasligini muallimlariga asoslab berishga urinishlari, shunday asosni matndan qidirib topishlari, asarning bundan boshqacha nomlanishi kutilgan ma'naviy-ruhiy ta'sirni bermasligini isbotlashga harakat

qilishlari juda muhim. Darsda bu savollarga hammani qoniqtiradigan javob darhol topilmasligi aniq, lekin javobsizlik o'quvchilarni shu haqda keyin ham o'ylab yurishga undashi ham bor gap. Bu bilan o'quvchilar mantiqiy mushohada yuritishga yo'naltiriladi. O'qituvchining o'z qat'iy, hal qiluvchi fikrini aytishi adabiy ta'limning bugungi maqsadiga aslo muvofiq kelmaydi. Asarni o'quvchi o'zi uchun o'zi kashf qilmog'i lozim.

"Diydasi qattiq" dadaga munosabatni mushohada qilishga undovchi: "Bolaning dadasini o'ta badjahl odam deb tasavvur qilishi to'g'rimi?" – degan savol o'rtaga tashlanib, imkon qadar ko'proq o'quvchilarning fikrlari eshitilishi kerak. Bu savolga javobni mavhum mulohazalar orqali emas, balki hikoya matniga asoslanib topishga urinish lozim. Shunda ular bu holat aslida otaning tinimsiz davom etayotgan: "*... ur-kaltak, sur-kaltak tagidan chiqolmay, ishdan haydala-haydala, oxir pirovardida, qishloqqa qaytib, uyda ko'kragini zaxga berib yotgan paytlar*"dagi kayfiyatidan ekanini ilg'aydilar. O'quvchilar inson kayfiyati hamisha bir xil bo'lavermasligi, hayot hodisalari inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatishini anglaydilar. O'quvchilarning o'z fikrini lo'nda, aniq ifodalashlariga, takrorlarga yo'l qo'ymasliklariga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi buni hamisha nazorat qilishi kerak.

Hikoya tahlili asnosida o'quvchilarning oldiga qo'yilgan: "Grafinni sindirib qo'ygan o'g'liga bergan jazosi otaning asl qiyofasini bildiradimi?" tarzidagi savolga ularning javob topishlari muhim. Buning uchun o'quvchilar matndan otaning asl qiyofasini namoyish etuvchi o'rinlarni, uning asabiy holati sabablarini ochib beruvchi tasvirlarni qidirib topishlari kerak bo'ladi. Savolga javob qidirish asnosida o'quvchilar o'zlari sezmagan holda o'z fikrlarinig asosini ham aniqlab boradilar. O'quvchilar otaning bu jarayondagi faoliyatini taftish qiladilar, uning xatti-harakatlarini o'z nuqtai nazarlari bilan baholaydilar. Otaning o'g'liga qilgan ortiqcha qattiqqo'lligidan pushaymoni, uning badjahlligiga onaning munosabati, qahramonning o'z xulosalari ham kichik sinchilarning nazaridan o'tadi.

O'quvchilar oila uchun shunday tahlikali sharoitda uyda tintuv o'tkazayotgan harbiylardan biriga "*malla sochlarining uchlari qoshlariga nafis egilib tushgan xushsurat o'rta kapitan...*", – deb baho bergan hikoya qahramoni shaxsiga xos ruhiy xususiyatlarga munosabat bidirganlari ma'qul. Uylariga bostirib kirib, yaqinlarini qaqshatib,

dodlatib, tintuv o'tkazayotgan o'ris kapitanning xushsuratligini payqaganligi o'quvchining go'zallikka, ezgulikka tashnaligi tufaylimi yoki bo'lajak yozuvchiga xos sinchkovlikning ibtidoiy kurtaklarimi ekanligi borasida o'quvchilar jiddiy mulohaza yuritganlari foydali. Ular darhol jo'yali fikr aytolmasalar, savollarni ochiq qoldirish, ularga keyin bo'lsa ham javob topish aytilishi lozim.

Oltinchi sinf o'quvchilari hikoya matni asosidagi "Uylarini tintiyotgan harbiylarga yordam bergan va ulardan birining maqtovidan yayrab ketgan bolaning tabiati haqida o'ylab ko'ring va buni baholang". – tarzidagi topshiriqni o'rinlatish jarayonida asar qahramoni tabiatiga teranroq nazar tashlaydilar. Bolakay ruhiyatiga xos alohida jihatlar xususida o'z fikrlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Topshiriq berilgandan keyin o'quvchilarni yo'naltirib yuborish uchun hikoyaning shu o'rnini qayta o'qib berish mumkin. Tahlil jarayonida o'qituvchining ko'magiga muhtojlik sezilganda fikr aytishga juda ehtiyot bo'lish zarur. O'qituvchining fikri sinfda hokim bo'lib, hamma uchun umumiy xulosaga aylanmasligi kerak. O'qituvchi o'quvchilarga faqat qo'shimcha savollar bilan yo'nalish berishi yoki o'z fikrini bir mulohaza sifatida o'rtaga tashlashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ma'lumki, inson, u kattami, kichikmi, tabiatan shirin so'z gadosi. Maqtov – shirin so'zning bir ko'rinishi. Hikoya qahramoni – hali do'st bilan dushmanni farqlab ulgurmagan, uydagi vaziyatning mohiyatini anglab yetmagan o'quvchikay. Faqat inson tabiatiga xos bo'lgan hoyagi jihat unda ustuvorlik qilgan, xolos.

O'quvchilarda Pavlik Morozov kimligi, uning "xizmati" nimalardan iboratligi haqida savol paydo bo'lishi mumkin. P. Morozovning tarixini o'qituvchi gapirib berib, o'quvchini otaga qarshi qo'ygan tuzum haqida tasavvur uyg'otishi ham mumkin. Lekin buni bir topshiriqqa aylantirishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar internet orqali bu haqda ma'lumot olishlari mumkin[1].

"*Keyinchalik, katta bo'lganimda, men uydagi dod-faryodga qaramasdan otamni qamashga kelgan jallodlar maqtovidan bir zumgina bo'lsada, yayrab ketganimni har eslaganimda o'zimdan ijirg'anib yurdim. Ammo o'sha daqiqada, afsus-nadomatlar bo'lsinkim, uning so'zlaridan g'ururlanib ketganim ham haqiqat. mudhish haqiqat!*" – degan iqror bor. O'quvchilar diqqati bolaning

[1] https://news.zamblar.ru/obzor/3796823-chto-skrytoe-pod-maskoy-na-samom-dele/

keyinchalik o'zidan ijirg'anishiga sabab bo'lgan holatning tahliliga jalb etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar tomonidan qanday fikr aytilsa ham, ular qay darajada mantiqli yoki mantiqsiz, asosli yoki asossiz bo'lishiga qaramay, o'quvchilar fikr aytganliklari uchun dashnom eshitmasliklari shart. Faqat mantiqli fikr bildirganlarga rag'bat ishorasi qilinsa, kifoya. O'quvchilar bundan o'zlari uchun tegishli xulosani chiqarib oladilar, bir-birlarining fikrlari haqida darsdan keyin ham o'ylab ko'radilar, o'ziniki bilan taqqoslaydilarki, bu – adabiyot o'qitish uchun katta natija.

Tahlil jarayonida, navbatdagi savollar ustida ishlayotganda o'qituvchi "shaxsga sig'inish", "Stalin shaxsi", "qatag'on qilinganlar" singari tushunchalar haqida muayyan ma'lumotlar ham berishi kerak bo'ladi.

Asar qahramoni tabiatini anglashda, uning o'ziga xos alohida yaratiq ekanligini his etishda uning: "*...gumbur-gumbur sadolaru otashin qo'shiqlar qulog'imga chalinishi bilan xuddi nog'oraga o'rgangan harbiy otday oyoqlarim o'z-o'zidan raqsga tushib, yuragim xapriqib ketaverardi*",- degan iqrorini taftish qilish yaxshi samara berishi mumkin. O'quvchilar o'zlarini o'sha bolaning o'rniga qo'yib ko'rsalar, ham qahramonni anglash, ham o'zlarini bilish nuqtai nazaridan bir pog'ona yuksalishga erishishlari mumkin. Bu holatni taftish etishga urinish o'quvchilarni o'yga toldirishi tabiiy. Ular o'quvchikayning xarakteri namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari tasvirlangan bir qancha o'rinlarni qayta o'qib, ularni bir-biriga taqqoslab, matnda qahramon ruhiyati chizgilari aks etgan o'rinlarni qaytadan ko'rib chiqishadi. O'qituvchi ularga ko'maklashish maqsadida o'quvchining har qanday sharoitda ham, avvalo, o'quvchi ekanligini, uni tushunmoq uchun o'quvchilarga xos mezonlar bilan yondashish lozimligini uqtirishi kerak.

Hikoyaning eng so'nggi jumlasini o'qish, bolaning o'shandagi xatti-harakati bilan harbiyning maqtovidan yayrab ketgandagi holatini o'zaro qiyoslash qahramonning tabiatini to'liqroq ochish imkonini beradi. Ayni bir bolaning ayni bir odamlarga ikki xil vaziyatdagi tamomila qarama-qarshi munosabati o'quvchilarda odam degan yaratiqning juda murakkab va anglash mushkul mavjudot ekani haqida qanoat uyg'otadi. Asar nihoyasida bolaning alamli chinqirig'i tasvirlanishi sababini aniqlashga urinish hikoya tahlilini chuqurlashtirish imkonini beradi. Asar qahramoni ko'nglidan alamli

chinqiriq chiqishiga turtki bo'lgan, *"NKVD xodimlarining maqtovi ham, aksilinqilobchilar kirdikorlarini fosh etgan xushyor pioner ekanligim ham – hari yodimdan chiqib "Dadajon", degancha otamning tizzasini quchoqlab oldim"* tarzidagi holatni yuzaga keltirgan hayotiy-ruhiy sabab nimaligi haqida o'quvchilar jiddiy o'ylab ko'rganlari ma'qul. O'quvchilar bunga "diydasi qattiq" otaning ko'z yoshi yoki uning afsus-nadomatlari yoxud otaning o'g'liga, o'g'ilning otaga bo'lgan mehri sabab bo'lganligini topish uchun izlanishlari, matnni shu maqsadda qayta idrok etishga urinishlari g'oyat muhimdir.

"Komsomol qo'mitasining kotibi tabiatiga xos sifatlarni asar matniga tayangan holda izohlab bering. U qanday odam?" savol-topshirig'i qo'yilganda o'qituvchi avval "komsomol" tushunchasiga izoh berib o'tadi. Komsomol sho'rolar davridagi yoshlar qo'mitasi bo'lib, bugungi "Yoshlar ittifoqi"ga o'xshashroq tashkilot. O'quvchilar komsomol qo'mitasi kotibi tabiatiga munosabat bildirayotganlarida ularning fikrlariga diqqat qilish, qarashlarini asoslashga undash o'rinli bo'ladi. O'quvchilar o'z aytganlarini asar matniga asoslanib isbotlaganlarida, fikrlari qat'iylashadi, ehtimol, insonlarga xos illatlarga ruhiyatlarida o'ziga xos munosabat shakllanadi. Tarbiyalanuvchilar diqqati hikoya qahramonining shu o'rindagi holatini tasavvur qilishga yo'naltirilishi kerak.

"Muzqaymoq" hikoyasining o'ziga xos jihati shundaki, u qahramonlar tabiatini ochib beradigan turli lavhalar tasviridan tashkil topgan. U aksariyat hikoyalar singari bir voqea natijasida tug'ilgan holatlar tasviriga bag'ishlangan emas. Shu bois o'qituvchi asarning har bir alohida lavhasi chuqur tahlil etilishiga ahamiyat berishi joiz. Pushkinning daftarga chizilgan suratidan go'yo mamlakatdagi tuzumga qarshi yashirin yozilgan chaqiriqni topishga doir tasvirni tahlil qilish uchun o'qituvchi matnning shu qismini qayta o'qib berish zarur. Shu tariqa hikoyachi bolaning holatiga o'quvchilarning diqqati qaratiladi. Otasi qamalgani tufayli o'ksik bolaning tiyiqsiz hayajoni, o'zini o'rtoqlari singari bexijolat, xotirjam ko'rish istagi, shu vatanning farzandi bo'lish sharafiga erishish xohishi pok qalbli o'smirning cheksiz xayolotini o'zi istagan yo'nalishlarda parvoz etishga undaganini o'quvchilar anglasalar, qahramonni tushunadilar.

Bolaning birinchi bo'lish istagi sabablarini o'quvchilar tushunishga urinishlari kerak. Asar qahramoni yo'q narsani birinchi bo'lib topishni juda qattiq istaganligini matnga tayangan va

qahramonning harakatlarini baholagan holda izohlash o'quvchilar uchun ma'naviy o'sishning vositasi bo'ladi. O'g'lining hovliqishi bilan onaning yozg'irishi sabablarini o'quvchilar bilishlari kerak. Surati hurmat taxtasiga osilmaganini ko'rgan hikoyachi kelgan xulosaga o'quvchilar munosabat bildirishlari lozim. O'quvchilar "Muzqaymoq" qahramonining shu o'rindagi istagi bilan "Nido" dostonidagi bolaning istagi o'rtasidagi umumiylik haqida o'ylab ko'rishlari ularning tasavvurlari tiniqlashishiga ko'maklashadi. Shunda hodisalarni solishtirish asnosida ulardagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash ko'nikmasi ham shakllanadi.

Asarni didaktik tahlil etishda: "Odamlarning o'zaro ishonchini yo'qotishga intilgan, ularni bir-biriga yov qilishni mo'ljallagan tartib haqida qanday fikrdasiz? Odamlar bir-birlariga ishonganlari yaxshimi yoki shubhalanganlari?" qabilidagi savollarga javob topish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu savollarga o'qituvchining ko'nglidagiday javob qaytaradigan o'quvchi sinfda ko'p bo'lmasligi mumkin. Lekin istalganiday bo'lmagan javobning ham javob va u ham fikriy izlanish mahsuli ekaniga ko'nikish lozim.

Hikoyadagi boshqa bir tasvirga: qamoqdagi otaning Stalin nomini biron marta tilga olmaganiga, uning ayoli va farzandlaridan, ayniqsa, muzqaymoq olib berolmagani bois o'g'lidan kechirim so'rashi manzarasiga o'quvchilarning diqqati tortiladi. O'quvchilar otaning ko'nglida Stalinga, jamiyatga bo'lgan e'tiqodu ishonchning so'nib qolgani sabablarini tushuntirishga urinib ko'rishlari lozim. Bir so'zli, diydasi qattiq otaning vidolashuv chog'ida ayolidan pulni qiynalib olishiga diqqat qaratish, uchinchi sinf o'quvchisi zimmasiga «oilaning eng katta erkagi» degan mas'uliyatning yuklanishi, chinakam ayriliqni ruhan his qilgan o'quvchining holatini anglashga urinish o'quvchilar ma'naviyati shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Hikoyaning didaktik tahliliga bag'ishlangan dars yakuniga yetganda uyga vazifa sifatida "Qatag'on qurbonlari" mavzusida tadqiqot-insho yozishni topshirish mumkin. O'quvchilar qo'shimcha adabiyotlar va internet materiallari asosida bir qator shaxslar haqida ma'lumot to'playdilar. Kashfiyotlarini keyingi darsda o'rtoqlari bilan bo'lishadilar.

Savol va topshiriqlar:

1. O'ylab ko'rib aytingchi, adabiyotshunoslik va adabiyot o'qitish metodikasi ilmida tur, janr va obrazlarning ahamiyatlilik darajasi va farqi nimadan iborat?

2. Nima deb o'ylaysiz, adabiyot o'qitish metodikasi ilmining sinchilik ilmiga aloqadorlik jihati qanday? Adabiy ta'lim uchun qay biri ustuvor ahamiyat kasb etadi? Nima uchun? Fikringizni asoslang.

3. Adabiy janrlar va adabiy turlar bir-biridan qanday farqlanishini bildingiz. Bilganlaringizni misollar bilan asoslang.

4. Har bir janrga mos badiiy butik yaratishga urinib ko'ring. Siz bo'lajak adabiyot o'qituvchisi sifatida o'z qobiliyatlaringizni sinab ko'ring.

5. O'qiganlaringiz zamonaviy adabiyotda bugun mavjud bo'lgan asarlarning har bir janrga mos va xos vakillarini sanab ko'rsating. Asarlarning shu janrga mosligini nazariy asoslariga tayanib dalillang.

6. "Drama" atamasining tur va janrga xos xususiyatlarini farqlab aytib bering. Har biriga alohida misol keltiring. O'z haqiqatingizni misollar bilan isbotlang.

7. Adabiyot va tasviriy san'atdagi obrazlarning ikki xil shaklini farqlab ajratib bering. Shaxsni ifodalovchi obrazlar bilan tasvirni ifodaloqvchi obrazlarning asarlardagi o'rni va rolini ochib bering. Fikringizni kursdoshlar bilan o'rtoqlashing.

8. Kumushbibi, Bo'ri polvon, Qo'chqor singari shaxs obrazlari bilan shiroljinlar ("Oq kema"), gilos ("Oydinda"), och to'lqin ("Seni izlab...") timsollarini taqqoslang. Har bir obrazning asardagi o'rni va rolini asoslashga urinib ko'ring.

9. Badiiy asarlardagi shaxs obrazlarining didaktik tahlilida nima ustuvorlik qiladi? Didaktik tahlilda qanday sifatlarga va nima uchun katta e'tibor qaratiladi?

10. Badiiy bitiklardagi narsa va hodisalar obrazlariga didaktik tahlilda qanday yondashiladi, Sizningcha? Bunday obrazlar talqini o'quvchiga nima berishi mumkin? Bu borada nima deb o'ylaysiz? Fikringizni adabiy timsollar misolida asoslang.

11. Odib Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasida o'quvchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan lavhalarni bir o'qituvchi sifatida savol yoki topshiriqqa aylantiring.

12. Hikoya matni yuzasidan taqdim etilgan savol va topshiriqlar ko'magida auditoriyada uni didaktik tahlilga torting. Fikrlaringizni

o'zingiz ham asar matnidan dalillar keltirgan holda asoslang. Faoliyatning bu turi ertaga amaliy ish jarayonini tasavvur qilishingizga ko'maklashadi.

13. "Muzqaymoq" hikoyasi mazmuni asosida o'zingizga xos bo'lgan ijodkorlik hissiga tayangan holda dramatik asar ssenariysini yaratishga urinib ko'ring.

14. Odil Yoqubov xotiralaridagi: *"Birinchi adabiyot darsi hyech esimdan chiqmaydi. Sinfga juda sipo kiyingan, qotmadan kelgan xushqad, xushsurat odam kirib keldi. U doska oldida to'xtab, birdan sukutga cho'mgan sinfga bir zum tikilib turdida, qisqa qilib: "Pushkin. "Kavkaz asiri".- dedi. So'ng dostonni yoddan o'qiy ketdi. Keyinchalik men she'rni yoddan o'qiydigan ko'p shoirlar va artistlarni ko'rdim, ularning she'r o'qish uslublaridan zavqlandim, ammo, nazarimda, butun bir dostonni boshdan-oyoq yod o'qigan o'qituvchini uchratmadim, she'rni bunchalik tuyq, san'atkorona o'qiydigan muallimni ko'rmadim"* e'tirofga diqqat qiling. Har bir o'quvchingiz Sizni ertaga shunday hurmat bilan eslashini istaysizmi? Buning uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?

15. "Muzqaymoq"qa ilmiy taqriz yozing. Bunda mutaxassislar maqolalariga tayaning.

21-MAVZU. EPIK TURGA MANSUB ASARLAR USTIDA ISHLASH YO'LLARI

Reja:

1. *Epik asarlarning xususiyatlari.*
2. *Epik asarlarni o'rganishdagi o'ziga xosliklar.*
3. *Epik asarlarni didaktik tahlil qilishning metodik talablari.*
4. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

O'tgan mavzu ustida ishlanganda adabiyotshunoslik ilmida epik turga mansub janrlar ham batafsil xotirlandi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari "Adabiyot" darsliklarida epik turga mansub: Sh. Xolmirzaevning "O'zbeklar", N. Dumbadzening «Hellados», A. Qahhorning «Bemor» va «O'g'ri» hikoyalari, O. Yoqubov qalamiga mansub «Muzqaymoq», va «Yaxshilik» hikoyalari, S. Ahmadning «Qoplon», «Laylak keldi», Umar Sayfiddinning «Naqorat»i, Gabriel Garsia Markesning «Atirgulning tikoni» kabi bir qator hikoyalar; A. Qodiriy ijodiga mansub "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", Ch. Aytmatovning "Asrga tatigulik kun", Cho'lponning "Kecha va kunduz", Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanlari; Sh. Xolmirzaevning «Qora kamar» dramasi, Sofoklning «Shoh Edip» fojiasi va Sh. Boshbekovning «Temir xotin» komediyasi singari bir qator asarlar har xil sinflarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va intellektual imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqdim etilgan.

Epik turning ertak janriga mansub "Uch og'a-ini botirlar", "Susanbil" kabi xalq va "Epchil tikuvchi", «Hurishni eplolmagan kuchukcha» kabi adabiy ertaklar; "Oygul bilan Baxtiyor", «Odil Burgutshoh va «Zamburug'» laqabli josus haqida ertak» singari ertak-dostonlar; «Yovvoyi echkilar», «Kiyik bilan tokzor», «Bo'ri bilan laylak», «Eshak bilan baqalar», «Ustiga tuz yuklangan eshak», «Burgut, zag'cha va cho'pon» kabi masallar; X. To'xtaboev qalamiga mansub «Sariq devni minib», Pirimqul Qodirovning «Avlodlar dovoni» romani«Nizomning tantiligi»dan parchalar; G'. G'ulomning «Shum bola», O'. Hoshimovning «Dunyoning ishlari», N. Norqobilov qalamiga mansub «Oqbo'yin» va T. Murod ijodidan «Yulduzlar mangu yonadi» singari bir qator qissalar o'rganish uchun taqdim etilgan.

Ko'rinadiki, maktab adabiy ta'limida epik turga mansub deyarli barcha janrlarga murojaat qilingan.

Umumta'lim tizimida o'rganish uchun tavsiya etilgan epik turga mansub bu asarlarning barchasi: voqealarning izchil bayoniga, tasvirda tafsilotlarning ustuvorligi va har biri o'z mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda bir qator obrazlar tizimiga ega. Mazkur badiiy bitiklar qay janrga mansubligidan qat'i nazar ularning har biri mazmunida muayyan miqdorda personaj-obrazlar mavjud va ular ma'lum voqealar rivojida tasvirlanadi. Har bir timsolga xos bo'lgan xarakter-xususiyatlar voqealar rivoji tasvirida ochilib boradi.

Hikoya janriga mansub bitiklar o'quvchi uchun tushunarli, ixcham asarlar hisoblanadi. Hikoyaning qulayligi hajmi uncha katta bo'lmagani holda bayonning yorqinligi, kompozitsiyaning unchalik murakkab emasligi, personajlar sonining kamligi, yozuvchi diqqatining bir qahramon shaxsiga qaratilganligi va hokazo jihatlar bilan ajralib turadi.

"Adabiyot" darsliklarida hajman katta bo'lgan asarlar ulardan olingan parchalar shaklida taqdim etiladi va o'rganiladi. Ayrim hajman kichik bo'lgan hikoyalargina to'liq shaklda yoki qisqartirib taqdim etilishi mumkin. Lekin hikoya bilan qissadan yoki romandan olingan parchaning shakliy elementlari o'zaro farqlanadi, ayrim elementlari o'xshashlik kasb etishi ham mumkin. Yirik epik asarlardan olingan parchalar ham o'zaro alohida yaxlitlik kasb etishi, bir qismining mazmuni ikkinchisini rad etmasligi, keltirilgan parchalar umumiy yaxlitlikni kasb etishi maqsadga muvofiqdir.

O'z mazmun-mohiyati va shakliga asosan epik turga mansub bo'lgan hikoyalarda ko'pincha bir kichik voqea va uning tafsiloti bayon qilinadi. Tabiiyki, roman yoki qissadan olinib darsliklarga kiritiladigan parchalar ham shunday umumiylik kasb etishi taqozo etiladi. Adabiyotshunoslikda ta'kidlanganidek, syujet asar muallifi o'ylagan niyatining qahramonlar xarakteri, xatti-harakati mantig'iga muvofiq yuzaga keluvchi, o'zaro aloqada, rivojlanishda bo'lgan qirralarini ochishga xizmat qiluvchi voqealar zanjiridir. Hajman katta asarlardan olingan parchalar ham ma'lum darajada shu shu tizimga yaqinlashtirilishi kerak. Muhimi, o'quvchi syujetni shunchaki voqealar bayoni deb tushunmasligidadir. Buning uchun o'qituvchidan epik asar tahlili ustida ishlanganda o'quvchilarni ana shu aloqadorliklarni, dinamikani ilg'ashga yo'naltira bilish ham talab qilinadi. Boshqacha aytganda, o'qituvchi asar mazmuni yuzasidan taqdim etadigan savol va

topshiriqlari bilan o'quvchilarni uning syujetiga xos bo'lgan voqealar, qahramonlar xarakteri va xatti-harakatidagi oqibatning kelib chiqish sabablarini aniqlashga yo'naltirishi, shundan keyingina hodisani baholashga undashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Epik janrga mansub ertak xalq og'zaki poetik ijodining epik turga mansub asosiy janrlaridan biri sifatida to'qima va uydirmalarga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asardir. Asosan, nasr shaklida yaratiladi. Bu janr M. Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida "etuk" shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida "matal", Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda "ushuk", Xorazmda "varsaqi", Toshkent shahri va uning atrofida "cho'pchak" atamasi bilan ishlatiladi. Ertak hayot haqiqatining hayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi.

Ertaklarda uydirma muhim mezon bo'lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig'idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta'minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta'limiy-estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o'ziga xos badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqea va hodisalarni hayotda bo'lishi mumkin bo'lmagan yoki mavjud bo'lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi.

Xayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroki, syujet chizig'ida tutgan o'rni va vazifasiga ko'ra ertaklarni ikki guruhga – xayoliy uydirmalar asos bo'lgan ertak, hayotiy uydirmalar asos bo'lgan ertaklarga ajratish mumkin. Xayoliy uydirmalar asosidagi ertak syujeti mo'jizali, sehrli; hayotiy uydirmalarga asoslangan ertak syujeti esa hayotiy tarzda bo'lib, unda real voqea-hodisalar tasvirlanadi.

Ertaklarda, asosan, uch maqsad ustuvorlik qiladi:

- ideal qahramonning jasorati, yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatini himoya qilishi;
- bosh qahramonning o'zga yurt malikalariga yoki parizodlariga oshiq bo'lib uylanishi, kasalga dori topishi, ajdar va devlar olib qochgan kishilarni ozod qilishi;
- adolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi.

Ertaklar yaratilishida nazarda tutilgan bu kabi maqsadlarning birinchisi pahlavonning faol harakati va g'ayritabiiy kuch-qudrati bilan amalga oshsa, ikkinchisi tabiatan zaifroq qahramonga yordam beruvchi tilsim vositalari yordamida, uchinchisi esa bosh qahramonning aql-idroki, tadbirkorligi bilan amalga oshadi.

Ertak janri obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o'rni va vazifasi, tili va uslubiga ko'ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo'linadi. Hayvonlar haqidagi ertaklarning bir turi majoziy ertaklardir. Majoziy ertak («Susanbil», «Bo'ri bilan tulki», «Tulkining taqsimoti», «Ikki boyqush» va bq.)larning syujeti asosida ko'chma ma'no, allegorik obrazlar yotadi. Masalan, laqmalik va qonxo'rlik bo'ri orqali, ayyorlik va tilyog'lamachilik tulki orqali ifodalanadi va hk.

Sehrli ertaklarda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan bo'ladi. Bularda pahlavonlik va qahramonlik madh etiladi («Yalmog'iz», «Semurg'», «Devbachcha», «Kenja botir» va hk.). «Quloqboy», «Handalak polvon», «Uch yolg'onda qirq yolg'on» va boshqa ertaklar komik, ba'zilari hatto hajviy xarakterga ega. Masalan, «Uch yolg'onda qirq yolg'on»da bosh qahramon xalq orasida shuhrat topgan kal bo'lib, bu komik qahramonning «yolg'on to'qishi»dan zulm va jaholat, adolatsizlik kabi mavjud tuzumga xos illatlar qoralanadi, kishilardagi donishmandlik, tadbirkorlik kabi fazilatlar ulug'lanadi. Maishiy ertaklar («Uch og'aini botirlar», «Oygul bilan Baxtiyor», «Tohir va Zuhra», «Farhod va Shirin», «Zolim podsho» va hk.) da ko'proq zulm va adolatsizlik qoralanadi[1].

Masalan, beshinchi sinflar «Adabiyot» darsligida o'rganish uchun taqdim etilgan «Uch og'a-ini botirlar» ertagi odatdagidek ota nasihati bilan boshlanadi. Bunda ota kambag'al, lekin hayot tajribalariga boy bo'lgan shaxs. Ertakning boshqa bir variantida asosiy obrazlar shoh va uning o'g'illari shahzodalardir. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi, odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar yuksak namunasi, odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar ko'rinsa, shahzodalar qiyofasida mol-mulk to'plash yo'lida har qanday yomon niyatlardan qaytmaydigan yolg'onchi, johil kishilar obrazi gavdalangan.

[1] Qarang: qozoq xalq ertaklaridan «Ikki g'alamis».

Epik asarlarning asosiy xususiyatlaridan biri konfliktdir. Bo'lajak adabiyot o'qituvchilari bu kabi nazariy ma'lumotlarni adabiyottanuv kurslarida batafsil o'rganadilar, albatta. Adabiyot o'qitish metodikasi kursi badiiy asarlarning bevosita o'quv tahlili bilan aloqadorligi tufayli mazkur bilimlar ixcham holda eslatib o'tilmoqda. Konflikt badiiy asarda tasvirlangan xarakterlar, ifoda etilgan g'oyalar, kayfiyatlarning kurashidir. Konflikt butun asar syujeti va mazmunining yo'nalishini ta'min etadi. O'z-o'zidan ravshanki, hikoya ko'pincha konflikt asosiga quriladi. Roman yoki qissadan olingan parchada u qaysi darajasiga ko'ra aks etgan bo'lishi ko'pincha noaniq bo'ladi.

Epik asarlar sirasiga mansub roman janri inson hayotini muayyan badiiy makon va zamonda butun murakkabligi bilan, jamiyat va tabiat bilan aloqadorlikda har tomonlama to'liq tasvirlashga qaratilgan ko'p planli syujetga ega bo'lgan asardir. Romanda shaxs va jamiyat hayoti bir butunlikda, mustaqil hodisalar sifatida tahlil hamda talqin qilinadi. Romanda muayyan shaxs taqdiri oilaviy-maishiy, milliy, ijtimoiy, madaniy muhit bilan o'zaro uzviy aloqadorlikda tasvirlanadi. Roman janri markazida inson obrazi turadi[1].

Adabiyot darslarida epik janrlarga mansub asarlar didaktik tahlilga tortilar ekan, ularning badiiy-estetik xususiyatlarini o'rganishga ham alohida e'tibor qaratilishi joiz. Epik asarlar hayotni, atrofdagi kishilarnig turli xil munosabatlarini bevosita tasvirlaydi. Qahramon taqdirini butun murakkabliklari bilan aks ettiradi. Lirik va epik turdagi asarlar o'rtasida farq bo'lsa-da, har bir epik asarda lirika elementlarning bo'lishi qahramon ichki dunyosini chuqurroq his etishga va asar ta'sirchanligining oshishiga sabab bo'ladi.

Professor Q. Yo'ldoshev epik asarlarning badiiy tahlili borasida: *"Ko'pincha epik asarlar tahlil qilinayotganda undagi qahramonlardan g'oya qidirishga tutinishadi va shu bois turli asarlardagi mutlaqo boshqa-boshqa personajlar ikki tomchi suvday bir xil talqin etilib, birday baholanadi. Chunki g'oyalar o'xshash bo'ladi, mutlaqo bir xil g'oyalar ham ko'p, lekin cheksiz olamda bir-biriga to'liq o'xshash bo'lgan ikki kishi yo'q. Badiiy asar va undagi qahramonlar tasviri esa, ayni shu o'xshamaslikning, o'ziga xoslikning badiiy ifodasi sifatida yaratilishi lozim. Shuning uchun ham adabiyotshunoslik amaliyotida Yo'lchi va G'ofir, Jamila va Gulnor, Saida va Zaynab, Otabek va Anvar, Kumush va Ra'no timsollariga uzoq vaqt mobaynida bir xil baho berib kelingan. Bunga sabab adabiyotshunoslikda bu qahramonlarga individual qiyofaga ega jonli odam sifatida yondashilmagan va ulardan faqat g'oya qidirilib, ijtimoiy xulosa chiqarishga urinilgan"*[1] tarzidagi fikrni ilgari surgan.

[1] Сатаев Ф., Кубаенбаева Г. Адабиётшуносликка кириш (ўқитиш методикаси курси). – Т.: "Янги аср авлоди", 2010. 202-бет

Umumta'lim tizimining barcha bosqichlarida epik asarlar didaktik tahlilga tortilar ekan, bu jarayon o'quv tahlilining maqsad va vazifalaridan kelib chiqishi, adabiy ta'limga badiiy asarlardan g'oya qidirish ishi mutlaqo begana ekanligini adabiyot o'qituvchisi anglab olishi kerak.

Adabiyot darslarida o'rganish uchun dasturga kiritilgan bir qator epik asarlarning hajman yirik ekanligi, ularni ko'pincha lirik asarlar singari bir zarb bilan o'qib chiqib bo'lmasligi, binobarin, bir o'quv soati ichida ham matn bilan tanishish ham tahlil qilish mumkin bo'lmagan hodisa ekanligini ta'kidlash o'rinlidir. Maktab adabiy ta'limi amaliyotida epik asarlarni tahlil qilishning o'ziga xosligini keltirib chiqargan omillardan biri ham ayni shu hajm masalasiga borib taqaladi.

Rus metodisti M. A. Ribnikova: «Metodik usullarni asar tabiati taqazo qiladi... Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, biroq lirik she'rni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi.

Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olinadi... Topishmoqlarning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi. Masal esa mazmunda ko'zda tutilgan bosh maqsadga tayangan holda tahlil qilinadi»[2], deydi.

Maktab adabiy ta'limi amaliyotida epik asarlarni didaktik tahlilga tortishda matnning hajmi, obrazlar tutumlari va voqealar tasvirining murakkablik darajasini oldindan inobatga olib ish ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda, avval, badiiy matn ma'noli qismlarga ajratib olinishi, qaysi qismi uyda o'qishga, bir qismi darsda o'qituvchi tomonidan o'qilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Asarlarning didaktik tahlilida matndagi muhimni nomuhimdan farqlash, asardagi timsollarga ijobiy yoki salbiy obraz deb emas, jonli odam tarzida munosabatda bo'lish taqozo etiladi.

[1] Йўлдошев Қ. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: "Камалак", 2016. – 92-б.
[2] Рыбникова М. А. Очерки по методике литературного чтения. – Москва: Педагогика, 1955. – С. 58.

Shunday qilinganda timsolning odamlikka xos xususiyatlari, asar muallifi ularda ilgari surgan hayotiy haqiqatlar va ularning asl mohiyati namoyon bo'ladi.

Adabiy asarning badiiy estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, ya'ni undagi turli-tuman qahramonlar, bir-biriga o'xshamaydigan sahnalar, alohida joy, manzara, vaziyat tasvirlari, monolog, dialoglar, o'y, xayol, tush va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o'rganish, sharhlash orqali o'zlashtiriladi. Tahlil jarayonida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalaniladi.

Professor B. To'xliev epik asarlar tahlili borasida: *"O'rganish uchun taqdim etilgan epik asarlar tahlilga tortilganda adabiyot o'qituvchisi matn hajmidan kelib chiqqan holda uning bir qismini uyda o'qib kelishga topshirishiga to'g'ri keladi. Asardagi personajlarning qat'iy va haqqoniy tasviriga jiddiy e'tibor qaratishi kerak bo'ladi. Tahlil shunday yo'lga qo'yilgandagina timsolning o'ziga xosligi, adibning san'atkorligi namoyon bo'ladi. Har ikkisining shakllanib kelayotgan shaxsning ma'naviy kamolotiga o'ziga xos ta'siri bo'ladi"*[1] tarzidagi fikrni ilgari surgan.

Epik asarlarda muallifning kechinmasi, tuyg'usi lirikadagi kabi ochiq va oshkora tasvirga tortilaverilmaydi. Ba'zi asarlarda qahramonlar xatti-harakatiga muallifning munosabati yaqqol ko'zga tashlanib turishi, ba'zilarida esa muallif butunlay xolis turgani, voqealar rivojiga aralashmagani nazarga tashlanadi. Bu tur asarlarda hissiyot voqealar qa'riga berkitilgan bo'ladi. Qahramonlarni hayotiy voqealar zamirida ko'rsatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni tasvirlar jarayoniga joylash imkonini beradi va o'quvchidan bu sezimlarni ilg'ab olish talab qilinadi. Adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilarida epik asar zamiridagi badiiy ma'noni ilg'ay olishi va mantiqiy xulosaga kela bilish malakasini shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi[2].

Epik asarlarni tahlil qilishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning adabiy tayyorgarligini to'g'ri hisobga olish muhim o'rin tutadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–6-sinflarida asosan epik turning kichik janrlari: ertak, hikoya, qissalardan parchalar o'rganiladi. Yirik epik asarlarni o'rganishni yuqori sinflarda, shuningdek, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy adabiy ta'limda amalga oshirish

[1] To'xliev B. Adabiyot [illegible] metodikasi. – T.: "Sharq" nashriyoti, 2006. – 34-b.
[2] Ҳолбоев Ш. Адабиёт [illegible] асосида ўқитиш асослари. – Т.: "Ўқитувчи", 1998. – 126–129-б.

rejalashtirilgan. Ularning har birini o'rganishda o'ziga xos metod, usul va shakllardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Prof. S. Matjonovning ta'kidlashicha: *"Ayrim o'qituvchilar epik asarlar tahlilini jo'nlashtirib, yozuvchini o'quvchi bilan yonma-yon qo'yib qo'yadilar. Holbuki, o'quvchilarni yozuvchining badiiy-ijodiy olamiga boshlash zarur. Buning uchun asar tahliliga oid mustaqil ishlarni o'tkazishda o'quvchilar oldiga "Qahramonning bu ishi to'g'rimi?", "Uning o'rnida bo'lganda nima qilar eding?" kabi ijodiy, keng fikrlashga qaratilmagan savollar o'rniga: "Shu vaziyatda qahramon o'zini boshqacha tutishi mumkinmidi? Siz buni qanday tasavvur qilasiz?", "Yozuvchi uni nima uchun aynan shu holatda tasvirlaydi?" singari savollar qo'yilsa, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi bilan chuqurroq tanishishga imkon tug'iladi"*[1].

Darslikda har bir mavzudan keyin taqdim etilgan dars ishlanmalari bo'lajak o'qituvchilarning epik, lirik, va dramatik turlarga mansub asarlarning didaktik tahlili borasidagi tasavvurlarini tiniqlashtirish, bilimlarni amaliyotga tatbiq etish borasidagi ko'nikmalarini qat'iylashtirish maqsadini nazarda tutgan. Bo'lajak o'qituvchilarning adabiyot o'qitish metodikasi kursi amaliy mashg'ulotlarida o'zlari o'qituvchi-o'quvchi sifatida mazkur dars ishlanmalaridan amalda foydalanishlari olingan nazariy bilimlarning amaliy isboti bo'ladi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Haqiqatdan tug'ilgan afsona

Shoir, nosir va dramaturg sifatida tanilgan Shuhrat (G'ulom Alimov)ning "Mardlik afsonasi" balladasi umumta'lim maktabining 7-sinfida o'rganish ko'zda tutilgan. Shuni aytish lozimki, balladaning 7-sinfda o'rganilishi pedagogik-psixologik jihatidan bir oz noto'g'ri bo'lgan. Bugungi yettinchi sinf o'quvchilari uchun balladaning badiiy-estetik yuki yengillik qiladi. "Mardlik afsonasi" balladasi mazmun-mohiyati bilan 5-sinf o'quvchilarining intellektual, ruhiy imkoniyatlariga juda mos keladi. Shuning uchun o'qituvchi dasturga 10–15 foizgacha o'zgartirish kiritish huquqi borligidan foydalanib, sinfning saviyasi va imkoniyatidan kelib chiqqan holda balladani

[1] Матжонов С. Мактабда адабиётдан [illegible] методи. – Т.: "O'qituvchi", 1996. – 22-23-б.

o'rganishga ajratilgan ikki soatni uning "Shinelli yillar", "Oltin zanglamas" yoki "Jannat qidirganlar" romanlaridan boblar bilan tanishishga qaratishi mumkin.

Mazkur mavzuni o'rganishning dasturiy talqini quyidagicha: *"Shuhrat hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot. "Mardlik afsonasi" balladasida o'zbek xalqining eng qadimgi zamonlarda mustaqillik uchun olib borgan kurashi tasviri. To'maris obrazi. To'maris boshchiligidagi xalq jasoratining ballada janriga xos poetik vositalar orqali tasvirlanishi. M. Osimning "To'maris" hikoyasi bilan "Mardlik afsonasi" balladasi o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlar. Balladaning tarbiyaviy ahamiyati"*[1]

O'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida ham, darsni tashkil etishda ham mana shu talqinga asoslanishi talab etiladi.

Agar adabiyot o'qituvchisi dasturdan chiqishni istamay, 7- sinfning o'zida shu balladani o'rganishga qaror qilgan bo'lsa, "Mardlik afsonasi" asarini o'rganishga ajratilgan ikki soatning birinchisida o'quvchilar Shuhrat shaxsi, hyoti va ijodi bilan bir qadar tanishtiriladi. Darslikda taqdim etilgan biografik ma'lumot bilan tanishishga, garchi u asosan bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsada, ma'lum vaqt ajratilishi kerak bo'ladi. Chunki o'quvchilar adabiyot darslarida Shuhrat bilan birinchi marta tanishadilar. Shuning uchun o'qituvchi adibning rasmi, kitoblari, zamondoshlarining xotiralari hamda adabiyotshunoslar: I. Yoqubovning "Til va adabiyot ta'limi" jurnalining 2008 yil 3-sonida chop etilgan "Badiiy-estetik so'z qudrati", Sh. Normatovaning ushbu jurnalning shu sonida bosilgan "Otashqalb adib" maqolalariga tayanishi mumkin.

O'quvchilarda Shuhrat shaxsi haqida ma'lum tasavvur paydo qilgan o'qituvchi ballada matnini ifodali qilib o'qib beradi[2]. Mutolaa jarayonida o'qituvchining muallif nutqiga jiddiylik, To'maris nutqiga qat'iylik, Kayxusrav nutqiga qahr ohangini berishga harakat qilish matnning ta'sir kuchini oshiradi. Balladani o'qishga darsning 10–12 daqiqasi sarflanadi. Shu bilan ushbu mavzuga ajratilgan birinchi dars tugaydi.

O'qituvchi o'quvchilarga uy vazifasi sifatida maktab kutubxonasidagi "O'zbek Milliy ensiklopediyasi"ning 5-tom 501-

[1] Yuqorida ilgari surilgan talqinlarimizni T. Qosimjon yozuvchilarga bag'ishlangan darslarga ham tatbiq etish mumkin. – T.: FDK, 2013.

[2] Yo'ldoshev Q. Yo'laq. Adabiyot. Ijtimoiy o'zlik to'g'risida tushunchalarning [illegible] uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 2-nashri. – T.: «Sharq» tahririyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2017. – 29-32-b.

betidan massagetlar haqida, 9-tom, 8-betida va "O'quvchilar ensiklopediyasi"ning 543-sahifasidan o'rin olgan To'maris to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirib olishni, M. Osim qalamiga mansub "To'maris" hikoyasini hamda "Mardlik afsonasi" balladasini qayta o'qib kelishni topshiradi.

Ikkinchi dars uy vazifasini kim, qaysi adabiyotdan foydalanib bajarganini aniqlab olishdan boshlanadi. Vaziyatga qarab, o'quvchilar rag'batlantiriladi va ballada matni qayta o'qib beriladi. O'quvchilar o'z darsliklaridan o'qituvchilarini kuzatib boradilar. So'ngra **suhbat metodi**dan foydalangan holda birgalikda matn ustida ish boshlanadi.

O'rni kelganda shuni aytish lozimki, suhbat metodi, ko'pchilik o'ylaganidek, juda ham jo'n usul emas. Zamonaviy adabiy ta'lim maqsadiga xizmat qiladigan suhbat metodida o'quvchilar tomonidan mantiqli mulohaza, mustaqil fikr, badiiy, ilmiy, va hayotiy xulosalar chiqarilishi talab qilinadi. Toki, o'quvchi berilgan savollarga javob berarkan, matn mazmunini qaytib hikoyalamasligi, o'qituvchi yoki o'rtoqlarining fikrini takrorlamasligi kerak.

Tafakkur mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan bunday suhbatning asosiy talablaridan biri savollarning shakl tomonidan ham, mazmun jihatidan ham puxta o'ylangan bo'lishidir.

O'quvchini o'ylashga, mustaqil ravishda mulohaza yuritishga undaydigan savollarni tayyorlayotganda o'qituvchi sinfdagi barcha o'quvchining rivojlanganlik, ijodkorlik darajasini nazarda tutishi lozim bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar hamisha ham mantiqiy asoslangan javoblarni bera olmasliklari mumkin. Savolga o'quvchilarning javoblari to'laqonli bo'lishida o'qituvchining yordamchi savollari qo'l keladi. Bunday vaziyatlarda bitta fikrga aniqlik kirituvchi bir necha yoki o'sha fikrni rivojlantiruvchi turkum qo'shimcha savollar beriladi.

Yana shuni ham unutmaslik kerakki, suhbat so'ngida o'quvchi bilimini baholashda javoblarning silliqligi birinchi o'ringa chiqarilmagani ma'qul. O'quvchining javoblarini o'qituvchi to'xtovsiz tuzatib, to'ldirib turishi ham noto'g'ri. Albatta, o'quvchining fikri o'qituvchining qarashlaridek to'kis bo'lmaydi. Adabiyot darslari uchun o'quvchining o'z mustaqil nuqtai nazari qanchalar to'mtoq, jo'n, jaydari, tarqoq bo'lsada, o'qituvchinikidan qimmatli sanaladi. Chunki

adabiyot darslarining vazifasi o'quvchi tafakkurida mustaqillik, ijodiylik, mantiq va izchillikni tarbiyalashdan iboratdir.

Shu ma'noda Shuhratning "Mardlik afsonasi" balladasi matni ustida ishlaganda, matn mazmuni yuzasidan taqdim etiladigan savol-topshiriqlar suhbat metodining zamonaviy talablarigi mos bo'lishi taqozo etiladi. Darslikdagi savol-topshiriqlarning birinchisi bevosita o'qituvchining o'ziga ham tegishli bo'lgani uchun unga alohida to'xtalish shart emas. Bu topshiriq ballada o'qishi davomida o'z-o'zidan bajariladi. Unga o'qituvchi ham, o'quvchi ham uyda tayyorlanadi.

Massagetlar haqida so'ralganda o'quvchilar o'zlari tayyorlab kelgan uy vazifalari asnosida bilganlarini gapirib berishlari mumkin. Massagetlar Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'i, Orol dengizi atroflari, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida miloddan avvalgi 8-4-asrlarda yashagan ko'chmanchi qabilalardir. Gerodotning (yunon tarixchisi) yozishicha, ular ko'chmanchi xalq bo'lib, piyoda va otda jang qilganlar, otlarining ko'kraklariga sovut kaydirganlar. Kamon, nayza va sagariy (oybolta) singari qurollar bilan jang qilgan. Ularning barcha jihoz va qurol-aslahalari mis va oltindan ishlangan. Ro'zg'or buyumlarini bo'yoq bilan bo'yab ishlatganlar. Massagetlarning malikasi To'maris nomli ayol bo'lgan. Massagetlar Xorazm davlatining asosiy harbiy kuchini tashkil etgan bo'lib, O'rta Osiyoga Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) bostirib kelganida ham katta kuch sifatida urushda qatnashganlar. Massagetlarning yashagan joyi balladada ham quyidagicha ko'rsatilgan:

Amudan suv ichganmiz, cho'lda mol boqib,
Bobotog'da yurganmiz lolalar taqib...

Suhbat qatnashchilari dars jarayonida mana shular haqida bilganlarini o'rtoqlashganlaridan so'ng o'quvchilar e'tibori *"Axir qancha chuqurdan qaynasa buloq. Suvi shuncha pok bo'lar, shuncha totliroq!"* misralariga qaratiladi. Buloq chuqurligining afsonaga qanday daxli bo'lishi mumkin? Xalqning tarixi qancha uzoqqa borib taqalsa, avlodlar uchun shuncha yoqimli, shuncha faxrli tuyuladi. Qadim xalqning avlodi bo'lish kishiga g'urur hissini beradi. O'quvchilar kimlarning avlodi ekani, olis bobolari qanday yashagani, erk va mustaqilligini saqlab qolish uchun qanday kurashganliklari haqida qancha ko'p bilsa, shuncha g'ururli bo'lib shakllanadilar. Darsliklarga bunday tarixiy qahramonlar tasvirlangan asarlarning kiritilishi ham

o'quvchilarning milliy iftixor hissini tuyishlari zarurligidandir. Shoir ham:

Tariximiz ko'p ulkan, keksa, beqiyos,
Har yili yuz dostonga bo'lar bir asos!

deya faxrlanadi. Balladada buloq qancha chuqur bo'lsa suvining shuncha pok va totli bo'lishi tasvir millatning tarixi qancha uzoqqa borib taqalsa, shuncha qudratli, faxrli tuyulishi bilan bog'liqligini o'quvchilar o'z so'zlari bilan, o'zlari anglaganlaricha bayon etganlari ma'qul.

"Haqiqatdan tug'ilar ba'zan afsona! Ulush qo'shsa ne ajab ertakchi ona" misralarining mohiyatiga kirgan har qanday kitobxon afsonalar haqida o'ylab ketadi. Ma'lumki, massagetlar ham, To'maris ham tarixda yashagan. Bu haqda tarixiy ma'lumotlar ham yetarli. Lekin o'sha tarixiy haqiqatlarni keyingi avlodlarga yetkazib berishda badiiy adabiyot, xususan, xalq og'zaki ijodi muhim rol o'ynagan. Yozuv bo'lmagan davrlarda og'zaki ijod namunalari yaratilgan va avloddan avlodga o'tib, sayqallanib, silliqlangan. Bu o'tishlarda momolarning "ulush"lari kattagina. Chunki ertaklarni, odatda, buvilar aytib beradilar-ku! *"Baxshi unga bog'lasa qanot va quyruq, Qalbi bergach, ko'ksidan shunday bir buyruq!"* misralarida ham shu fikr davom ettiriladi. Ma'lumki, o'zbek xalqida dostonlar aytuvchi baxshilar bor. Qadimda Alloh bergan iste'dod sohiblari millat qahramonlarining ulkan ishlaridan g'ururlanib ular haqida afsonalar, doston va ertaklar yaratganlar, yaratiqlarini musiqa asboblari ko'magida kuyga solib ijro etganlar. Shu tariqa millat o'z qahramonlarining nomi va ishlarini avlodlarga yetkazganlar.

Suhbatdoshlar fikr almasha borib, Kayxusrav bostirib kelayotgani aniq bo'lganda massagetlar orasida qanday holat yuz berganiga e'tibor qaratadilar. O'qituvchi shu misralarni yana qayta o'qib bergani tuzuk:

Tinch bir o'lka oromin yo'qotdi shunda.
Hatto go'dak ko'ksiga o'q otdi shunda!..
Elu yurtni qopladi motam libosi.
Qon yig'ladi hattoki, ko'lida g'ozi.
Qon yig'ladi el, elat, urug' va aymoq,
Qon yig'ladi dala-tuz, sahro, qir va bog'.
Qon yig'ladi beshikda tilsiz norasta,
Qon yig'ladi chol-kampir, dillari xasta.
Qon yig'ladi bog'da gul, qirda chechaklar,

Qon yig'ladi nomus deb, qiz, kelinchaklar.
Qon yig'ladi qo'zi-qo'y taqir o'tloqda,
Qon yig'ladi: "Suv! Suv!" deb dehqon qirg'oqda.

Ushbu misralarni ifodali o'qib berish o'quvchilardan talab qilinsa, yanada to'g'riroq bo'ladi. Tinchligi, erkiga daxl qilingan xalqning bezovta bo'lishi tabiiy.

Turkiy xalqlar – cho'llarda shamolday erkin yurgan ellar uchun o'z mustaqilligini yo'qotish o'limdan battar. Shuning uchun bu tuproqdagi el-yurt urush xabarini eshitgach "motam libosi"ni kiydi, nafaqat xalqi, hatto ko'ldagi g'ozi, qo'y-qo'zi-yu o't-o'lanlari, gul-chechaklari-yu qir-bog'lari ham "qon yig'ladi".

Agar yurtini Kayxusrav bosib olsa, mamlakat qanday ahvolga tushib qolishini, massagetlar qanday xalq ekanini, ular kimgadir bosh egib yasholmasliklarini malika To'maris shunday tushuntiradi:

Bizni sahro burguti, lochini derlar,
Bizga aziz, muqaddas bu ona yerlar.
Dushman oti nag'alin izi tushmasin!
Bog'imizdan biror qush bevaqt uchmasin!
Uyat bizga – dushmanga bosh egib yashash!

Shu o'rinda suhbatdoshlar To'marisning shaxsiyatini, mardligini ko'rsatuvchi misralarga e'tibor qaratishlari lozim. Yovqur yurtboshining shaxsiyatiga baho berishda uning o'z elini dushmanga qarshi kurashga undovchi chaqiriqlari tasvir qo'l keladi. Malikaning har bir so'zi tahlilga tortiladi. "*O'lim yovga! Bukmaymiz hech iz*" deya xalqini erk uchun kurashga undagan To'maris bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar haqida o'quvchilarning bilganlari so'raladi.

To'maris miloddan avvalgi oltinchi asrda yashagan massagetlar podshosining xotini bo'lib, u eri vafotidan so'ng davlatni boshqargan. Eron qo'shini bostirib kelganda massagetlar Amudaryo bo'ylari va Qizilqumda yashashgan. Eron qo'shini bilan massagetlar o'rtasida shiddatli jang bo'lgan. To'marisning o'g'li Spargalis (Sparangis) asir olingan. Nomusiga chiday olmagan Spargalis o'zini o'ldirgan. So'ngra To'maris jangga kirgan. Uzoq jangdan so'ng u g'olib chiqqan. To'maris haqida ko'p asarlar yaratilgan. Mazkur ballada ham shulardan bittasidir. Mirkarim Osim tomonidan yaratilgan "To'maris" hikoyasi ham mana shu xalq qahramoniga bag'ishlangan asar[1]. Hikoya nasriy

[1] Iqtibos: ziyouz.com/xet-xotirnoki/mirkarim-osim/mirkarim-osim-tomonidan-qisqa

asar bo'lsa, ballada nazmda bitilgan. Har ikkala asar ham bir qahramonning tarixiy ishiga bag'ishlangan. Hikoyada ham, balladada ham To'maris Kayxusravning boshini qonga to'ydiradi. Faqat ifoda boshqacharoq: birida Kayxusravning boshi qon to'la meshga, ikkinchisida qonli ko'lmakka tashlanadi.

Kayxusrav mag'lubiyati va massagetlarning g'alabasi haqida gapirib shunday xulosaga kelish mumkinki, bosqinchi hech qachon mutlaq g'olib bo'lolmaydi. G'alaba hamisha haqlar tomonida bo'ladi. O'quvchilar asar tahlili jarayonida mana shu haqiqatlarni anglab yetsalar, adabiy ta'lim o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarini ilmiy, badiiy va hayotiy haqiqatlarni o'zlari anglab yetishlariga yo'naltirishdan iboratdir.

Uyga vazifa sifatida To'maris qahramonligi tasviriga bag'ishlangan ikki asar mazmuni misolida qiyosiy-insho yozishni topshirish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Hikoya janriga mansub biror asarni tanlab oling. Asar matnidagi o'zingiz muhim deb bilgan detallarni savol-topshiriqqa aylantiring. Ularga o'zingiz javob bering. Shu javoblaringiz asosida hikoyaning o'quv tahlilini amalga oshiring.

2. Maktab "Adabiyot" darsliklarida taqdim etilgan ertaklarni "xayoliy" va "hayotiy uydirmalar" tarzida bo'laklarga ajrating. Fikringizni asoslang.

3. S. Matjonovning badiiy asarlar ustida ishlash borasidagi qarashlarini mazkur adabiyot o'qitish kursida ilgari surilgan yetakchi qarashlar asosida to'ldiring, davom ettiring. Siz domlaning fikriga nimalarni qo'shgan bo'lardingiz?

4. B. To'xliev qalamiga mansub "Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmadagi "Epik asarlarni o'rganish" mavzusi ostida berilgan bilimlarni o'rganib chiqing. Unda ilgari surilgan qarashlar bilan mazkur mavzuda aks etgan qarashlarni taqqoslang. O'xshash, farqli va umumiy jihatlarni ajrating. Bilimlaringizni to'ldiring.

5. M. A. Ribnikova ilgari surgan fikrlarni har xil janrga mansub asarlar misolida amaliy ishlanmasini tayyorlang. Qarashlaringizni kursdoshlar bilan almashing. Faoliyatingizdagi yutuq va kamchiliklarni farqlang. Bilimlaringizni amaliy shaklda takomillashtiring.

6. Professor Q. Yo'ldoshevning epik asarlar badiiy tahlili borasidagi qarashlarini mazkur adabiyot o'qitish metodikasi kursida o'zlashtirgan bilimlaringizga tayangan holda badiiy matnning didaktik tahlili bilan taqqoslang. O'xshash va farqli jihatlarni aniqlang. Qarashlaringizni asarlardan misollar keltirgan holda isbotlang.

7. Epik turga mansub barcha janrlardagi asarlarni o'rganish bilan bog'liq alohida xususiyatlarni topib adabiyot daftaringizga yozib oling. Seminar va amaliy mashg'ulotlarda shu bilimlaringizga asoslangan holda asarlarning didaktik tahlilini amalga oshiring.

8. Siz badiiy tahlil asoslari kursi amaliyotida o'rganganingiz badiiy tahlil bilan adabiyot o'qitish metodikasi kursida o'rganganlaringiz didaktik tahlil xususiyatlarini epik turga mansub bir asar misolida taqqoslang. O'xshash va farqli jihatlarni aniqlang.

9. Epik turdagi asarlar badiiy tahlilida qanday qarashlar ustuvor bo'ladi-yu ularning didaktik tahlilida qanday maqsadlar yetakchilik qiladi? Qarashlaringizni birorta epik asar misolida kursdoshlaringizga asoslab bering.

10. Epik turning kichik janrlariga mos mazmun va shaklda birorta badiiy asar yaratishga urinib ko'ring. Unda o'rganganingiz bilimlarga tayaning.

11. O'qituvchingiz bilan kelishgan holda birorta epik asar tahliliga bag'ishlangan dars tashkil eting.

12. "*O'quvchi qalbida o'qishga intilituvchi ichki ehtiyoj hissini shakllantirish uchun adabiyot darslarida zarur sharoit, imkoniyat vujudga keltirilmog'i lozim*" degan fikrga qanday qaraysiz? Sizningcha, uni qanday tashkil etish mumkin? Bir asar misolida qarashlaringizni dalillang.

13. Shuhratning "Mardlik afsonasi" balladasi didaktik tahlilini amalga oshirish uchun undagi yetakchi qarashlarni savol yoki topshiriqqa aylantiring. O'quvchi nazaridan o'tsa, uning ruhiyatida ijobiy iz qoldiradigan birorta ham detalni nazardan qochirmaslikka harakat qiling.

14. Epik turga mansub bir asar misolida "Badiiy va didaktik tahlil xususiyatlari" nomli maqola tayyorlang. Yaratig'ingizni o'qituvchingiz va kursdoshlar orasida muhokama qiling. Fikrlar asosida bitigingizni takomillashtiring.

22-MAVZU. LIRIK TURGA MANSUB ASARLARNI O'RGANISHDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR

Reja:

1. *Lirik asarlarda kayfiyat va tuyg'ular tasvirining ustuvorligi.*
2. *Lirik asarlar inson ichki dunyosi, ruh va qalb hodisalarining tasvir obyekti ekanligi.*
3. *Lirik asarlarda ijodali o'qishning ahamiyati.*
4. *Lirik asarlarni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.*
5. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

She'riy asarlarni o'rganishga bag'ishlangan darslarning maqsadi va vazifasi o'quvchilardagi badiiy idrokning to'g'riligi, teranligini ta'minlash, ularni poetik mahorat sir-asrorlari bilan tanishtirish bilan birga asarning mohiyatiga kirish, qahramonni his qilishga erishishdan iboratdir.

Lirik turga mansub janrlar haqida gapirilganda Yevropa adabiyotidagi sonet, rondo, rondel, tersina, oktava kabi shakllarni ham eslatib o'tish o'rinlidir. Badiiy tafakkur rivojining keyingi bosqichlarida jahon adabiyotida turg'un shakllarni inkor qilish, she'riyatning qat'iy ramkalar doirasida erkinlik tomon intilishi kabi umumiy tendensiya kuzatiladi. Buning natijasi o'laroq, lirik asarlarni janrlarga ajratishda endilikda shakl xususiyatlaridan, aniqrog'i, tashqi shakldan kelib chiqish imkoni yo'q.

Shuningdek, lirikani janrlarga ajratishda faqat mazmundan kelib chiqish (ishqiy lirika, falsafiy lirika, siyosiy lirika qabilida ajratish) ham unchalar to'g'ri ish emas. Boz ustiga, bu holda janr mohiyatini buzib tushungan bo'lib chiqiladi. Zero, janr ma'lum bir mazmunni shakllantirish va ifodalashga xizmat qiluvchi shakl hodisasi ekanligi ayon haqiqatdir. Ma'lumki, milliy klassik she'riyatda faol ishlatilgan ayrim turg'un janrlar (g'azal, ruboiy, qasida va bq.), shuningdek, xorijiy adabiyotlardan o'zlashgan turg'un she'riy shakllar (sonet, rondo, tanka, xokku va bq.) hozirgi she'riyatda ham oz bo'lsa-da qo'llaniladi. Buning ustiga, adabiyotshunos yoki adabiyot o'qituvchisi faqat hozirgi adabiyotni o'rganish bilan cheklanmaydi, u, ayniqsa, nazariy masalalarni o'rganish va xulosalar chiqarish jarayonida umuman jahon adabiyoti materialiga tayanadi. Shunga ko'ra, o'zbek she'riyatida qo'llanilgan she'riy janrlarni, tubandagicha turlarga ajratish mumkin:

1) shakl xususiyatlariga ko'ra (bandning tarkiblanishi, qofiyalanish tartibi va hk.) ajraluvchi janrlar: g'azal, mustazod, tuyuq, ruboiy, tarjiband, tarkibband, musammatlar;

2) anjumanga mo'ljallangan janrlar: nazira, badiha, muammo, chiston (lug'z);

3) xorijiy adabiyotlardan o'zlashgan janrlar: sonet, xokku, tanka, oktava, oq she'r, epigramma va hk.;

4) hozirgi she'riyat janrlari: avtopsixologik lirika (uning ko'rinishlari sifatida meditativ lirika (lotincha *meditation* so'zidan olingan bo'lib – aks ettirish ma'nosini anglatadi) lirikaning bir turi sifatida she'riy tafakkurning ko'ngil naqshlarini anglashga va ifodalashga qaratilgan)[1], intellektual lirika (aql va analitik fikrlash asnosida yaratilgan she'r)[2], ijroviy lirika, tavsifiy lirika, voqeaband lirika va hk.

Adabiyotshunoslik ilmida ta'kidlanishicha, «lirik qahramon» deganda ko'pincha muallif tushuniladiki, bu har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Zero, shoir o'zining kechinmalarini tasvirlashi ham, o'zganing ruhiyatiga kirgan holda o'sha "o'zga shaxs" kechinmalarini ifodalashi ham mumkin. Bu o'rinda yana bir muhim masala shuki, she'rda hatto shoir o'z kechinmalarini tasvirlagan holda ham lirik qahramon bilan real shoir orasiga tenglik alomatini qo'yib bo'lmaydi. Ma'lumki, bir inson qalbida vujudga kelgan tuyg'ular barchaning ruhiyatida u yoki bu tarzda mvjuddir. Shunga ko'ra, shoir o'zganing holatiga kirishi, ma'lum hayotiy vaziyatlardagi istalgan insonning kechinmasini his qilishi va ifodalashi mumkin.

Masalan, Cho'lponning «Men va boshqalar» she'rida ifodalangan tuyg'ular garchi lirik «men» tilidan berilgan bo'lsa-da, uning lirik qahramoni shoir emas, balki o'zbek qizining umumlashma obrazi ekanligi oyday ravshan. Lirik qahramon, epik asar qahramonlaridan farqli o'laroq, noplastik (ya'ni lirikada epik turga mansub asarlardagi kabi tasviriylik emas, ifodaviylikning kuchliligi. Bu xususiyati bilan u musiqaga yaqin turadi) obraz sanaladi. Lirik asarda subyektning noplastik obrazi yaratilgani bois ham u o'qirman tasavvurida tashqi ko'rinishi bilan gavdalanmaydi, mavhumligicha qoladi, aniqrog'i, she'rxon o'zini uning o'rnida ko'radi, o'z kechinmalariga turtki bergan

[1] https://uzgen.ru/literature/text-21979009
[2] https://ru.wikipedia.org/wiki/

holatni his qiladi, ko'nglidan kechgan hislarni tuyadi, lekin o'zini ko'rolmaydi.

Shoir va lirik qahramon munosabatini asosga olgan holda lirik asarlarni ikkiga: avtopsixologik va ijroviy lirikaga ajratish mumkin[1].

Avtopsixologik lirika deganda lirik qahramon bilan shoir shaxsiyati mos tushgan, ikkalasi bir-biriga yaqin bo'lgan she'rlar tushuniladi. Ya'ni, avtopsixologik she'rlarda shoir o'z qalbiga murojaat qiladi, o'z-o'zining kechinmalarini ifodalaydi. Agar avtopsixologik lirikaga mansublik uchun shoir shaxsiyati va lirik qahramon orasidagi yaqinlik (moslik emas) kifoya deb qaralsa, u holda lirik asarlar aksariyati avtopsixologik xarakterga ega ekanligi ma'lum bo'ladi.

Shoir shaxsiyati bilan lirik qahramonning mos tushmasligi ochiq ko'rinib turgan she'rlarni *ijroviy lirika* (rus adabiyotshunosligida "rolevaya lirika") deb yuritiladi. Bu xil she'rlarning ijroviy lirika deb nomlanishiga sabab shuki, ularda shoir o'zga shaxs ruhiyatiga kiradi, go'yo uning rolini o'ynaydi va asarida uning qalbini suvratlantiradi. Shuni yodda tutish lozimki, mazmun jihatidan ajratiluvchi janrlar (falsafiy, ishqiy, siyosiy va hk.) bularning har biriga birdek singishib ketaveradi (ya'ni, avtopsixologik lirika ham, ijroviy lirika ham mazmunan falsafiy, ishqiy, siyosiy va hk. bo'laverishi mumkin)[2].

Professor Q. Yo'ldoshevning: "*Lirik turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg'u va hissiyotga yo'g'rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Lirikada voqealar tasviri, xarakter mantig'i emas, ruhiy holat tasviri, hissiyot ifodasi, tuyg'ular samimiyati muhimdir. Chunkam lirik she'r tinglovchi yo o'quvchiga faqat zavq beribgina qolmay, uning emotsional-axloqiy imkoniyatlarini tuyg'otadi, faoliyatga undaydi. Samimiy lirik so'z hatto real voqelik hodisalariga qaraganda ham inson ruhiyatiga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin ekanligi psixologiya ilmi xulosalaridan ma'lum*". - deganı bejiz emas[3].

Ma'lumki, lirik she'rdagi mazmun shaxsning tuyg'ulari bilan qorishiq holda ifodalanadi. Adabiyot darslarida nazmiy matnni ifodali o'qishga, har bir so'z zimmasiga ortilgan yukka, tuyg'ular ifodasiga o'quvchi e'tiborini qaratadigan savol-topshiriqlar tuzishga katta e'tibor qaratiladi. Adabiy ta'limda o'qituvchi o'quvchilarning she'r matnini

[1] http://qarnaq.narod.ru/sozg5.html
[2] https://qarnaq.info/encyclopedia/cat-j/janr-az/
[3] Ўзбек адабиётшунослиги тарихидан лавҳалар. Ўқитувчи. Тошкент: 1993. 255-бет.

qayta hikolashlariga aslo yo'l qo'yilmasligi maqsadga muvofiqdir. Chunki mazmun aytib berilganda she'rning ta'sir kuchi umuman yo'qoladi.

Professor B. To'xliev ham bu borada fikr yuritib: *"Aslida adabiyot o'qitishning bosh yo'nalishi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilar ongiga badiiy asarning mo'jizakor ta'sir kuchini amaliy jihatdan ta'minlashga qaratilgan"*[1], - deydi. So'z o'quvchining ruhiyatiga ta'sir ko'rsatgandagina unda zavq uyg'otadi, bu bilan so'z insonni tarbiyalaydi ham. To'g'rirog'i, so'zdan ta'sirlangan inson o'zini-o'zi tarbiyalaydi. She'r his-tuyg'uni junbushga keltirib, faol estetik kechinmalar uchun zamin yaratadi, shaxs dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lmish e'tiqodga sayqal beradi, olijanob xatti-harakatlarga yo'naltiradi.

Professor M. Mirqosimova: *"She'r orqali shoir olamni go'yo ichdan yoritishi, narsalar va hodisalar ichiga yashiringan mazmunni ochib berishi, ularning yashirin ichki "qiyofa"sini sezdirishi, ya'ni ma'nolar kashf etishi mumkin"*[2], deydi. Ta'kidlash joizki, tuyg'ular, fikrlar ba'zan ochiq, ba'zida esa metaforik yo'l bilan bayon etiladi. Shoir voqea yoki holatni tasvirlarkan, ayni paytda obrazlar yaratadi, shu orqali turli hissiy kechinmalarga yo'l ochadi. Tuyg'ular esa tinglovchining ko'nglini tozalaydi, fazilatlar shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'ladi.

S. Ahmedov ham lirik asarlar haqida gapirib: *"Lirika ijodkor qalbi oniy bir tezlikda his etgan sezgining, mavjud muhitga estetik munosabatning mevasidir. Shoir tashqi olamdan olgan taassurotlari natijasida vujudga kelgan fikrini his-tuyg'ularga o'rab yana yuzaga chiqaradi, kitobxonda fikr tug'ilishiga sabab bo'ladi"*[3], - deydi. Adabiyot mashg'ulotlari, u ta'limning qaysi boschqichida bo'lishidan qat'i nazar, ko'ngil darslari sifatida shoirning asariga singdirilgan ana shu hislarini o'qirmanga tuydirish, uni ruhan muvozanatdan chiqarish, o'zgani tuyish va tuyganlarini so'z bilan ifodalab bera olishga yo'naltirishdan iboratdir. Bunday ishlar asar matni yuzasidan tuzilgan

[1] Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. (Олий ўқув юртлари филология йўналиши талабалари учун ўқув қўлланма). Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 5-6.
[2] Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таълим жараёнини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. Т.: "Ўқитувчи", 2006. – 39-б.
[3] Ахмедов С. Адабиёт дарсларини янги концепция ўргатиш: Адабиёт ўқитувчиларига ёрдам. Т.: Ўқитувчи, 1980. – 4-б.

savol va topshiriqlar ko'magida amalga oshiriladi. Bu, bevosita, adabiyot o'qituvchisining vazifasi hisoblanadi.

She'riy matnni maromiga yetkazib ifodali o'qish, ya'ni muallifni tuyib o'qish va bu mutolaadan huzur ola bilish she'r qay darajada idrok etilganiga baho berishning bosh omilidir. She'rxon she'rni ifodali o'qiy olmadimi yoki undan ta'sirlanmadimi, demak, nimanidir etarli tushunmagan, qaysidir obrazli ifodalarni hisobga ololmay qolgan bo'ladi. Bu, o'z-o'zidan, she'riy matnning mohiyatiga kirishga ham ma'lum darajada aks ta'sir ko'rsatadi.

Lirik asarlar ustida ishlash darslarining mas'uliyatli lahzalaridan biri matnni, albatta o'qituvchi tomonidan yoddan ifodali o'qilishi va o'quvchilarning uni tinglay olishidir. Lirik bitiklar mutolaa qilinganda o'quvchi ham, tinglovchi ham so'zni tuyishi, so'zchining holatiga kirishi, u bilan ruhan uyg'unlashib ketishi taqozo etiladi. Shunda sinfdagi hamma o'quvchilar bir necha daqiqa she'rdan olingan estetik ta'sir og'ushida qoladi. Mutolaadan keyingi bir necha soniyalik tin olish o'qituvchiga shunday imkoniyatni beradi.

Shu o'rinda prof. Q. Yo'ldoshevning quyidagi ogohlantirishi nihoyatda o'rinlidir: *"Ko'pchilik o'qituvchilar ham, hatto ayrim usuliyotchi olimlar ham ifodali o'qish deganda baland ovoz bilan tinish belgilariga rioya qilib, ko'tarinki ruhda qiroat qilishni tushunadilar. Holbuki, asl lirik asarlarni aksariyat hollarda bor ovoz bilan o'qib bo'lmaydi. Hatto baland, ko'tarinki, hinobarin, nosamimiy ifoda she'rdagi mayin liriznni yo'qqa chiqarishi mumkin. Xullas, ifodali o'qish bu ijodkorning holatini tuyib, asarga muhrlangan ruhiy manzaralar bag'rida turib o'qiy bilish demakdir"*[1].

She'riy matnni ifodali o'qish badiiy idrokning yuqori cho'qqisiga etganidan dalolat ekanligini B. To'xliev ham: *"She'riy asarni anglash, undagi muallif ko'zda tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib etish, she'r g'oyasining mag'zini chaqish uni uqishdan, yanada aniqrog'i, ifodali o'qishdan boshlanadi"*[2], - tarzida ifodalaydi.

Shu o'rinda ko'chirmadagi: *"she'r g'oyasining mag'zini chaqish"* fikri bir oz e'tirozlidek tuyuladi. To'g'ri, ijtimoiy yo'nalishda bitilgan she'rlarda ma'lum g'oya tashilgan bo'lishi mumkin. Lekin lirikada,

[1] Йўлдошев Қ. Ижтимоий-педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Пед. фан. доктори ... дисс. – Т.: 1997. – 235-236-бетлар.
[2] Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. (Олий ўқув юртлари филология йўналиши талабалари учун ўқув қўлланма). Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 80-б.

g'oyalar, siyosiy, ijtimoiy yoki hayotiy qarashlar emas, tuyg'ular tasviri ustuvorlik qilar ekan, undan g'oya qidirish emas, balki bir kishining tuyganlari va tuyg'ulari ifodasini his qilish, unga darddosh va dildosh bo'lish hissi ustuvorlik qiladi.

She'riy asarga, odatda, o'quvchilar tomonidan beriladigan baho ko'proq mazmunga, uni qayta hikoyalashga tortib ketadi. Shoir voqelikni badiiy obrazlar orqali tasvirlaganda, o'z-o'zidan mazmun shakllanadi. She'riy asarlar ustida ishlanganda o'quvchi ham qalbini junbushga keltirgan mazmunga, ham she'rning yuksak san'at asari sifatida yozilganiga, ham tasvirga, ham tuyg'ular ifodasiga diqqatini qaratishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktab "Adabiyot" darsliklarida: Lutfiy lirikasi: «Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma», «Nozuklik ichra belicha yo'q ton gisuyi», «Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul», «Agar sen bo'lmasang, guldek chamanda», «Ayoqingg'a tushar har lahza gisu» g'azallari; Alisher Navoiy lirikasidan: «Kimga qildim bir vafokim...», «Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas.. », «Qoshi yosinma deyin...», «Kecha kelgumdur debon...», «Yordin ayri ko'ngul...» g'azallari; Zahiriddin Muhammad Bobur, Atoiy lirikasi namunalari: Zulfiyaning «Oydinda», «Ko'rganimiding ko'zlarimda yosh», «Sen qaydasan, yuragim», «Ne baloga etding mubtalo», «Sensiz», «Bahor keldi, seni so'roqlab»; Uvaysiyning «Sog'indim», Cho'lpoming «Ko'ngil», «Binafsha», «Go'zal»; Sergey yeseninning «Xurosonda bir darvoza bor», «Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan», «Oy yuzida tillarang jilo»; Mirtemirning «Men tug'ilgan tuproq», «Onaginam», «Toshbu», «Betobligimda»; Iqbol Mirzo qalamiga mansub «Singlimga», «Yigit», «Yomonlama», «Horg'in rohat», «Nazar», «Me'yor"; To'ra Sulaymonning ko'ngil iztiroblari aks etgan «Iltijo», «Armon», «Tavallo», «Gul bir yon, chaman bir yon»; Muhammad Yusuf "men"ining: «Osmon cho'kib qoldi bu oqshom», «Suvrat», «Lolaqizg'aldoq», «Biz baxtli bo'lamiz»; Shavkat Rahmon qalamiga mansub: «Savol», «Bo'rilar», «Tutzor xotiralari», «Jangda o'lgan emas...», «Tariqat», «Qasam», "Munojot", "Kutilmagan siyliqlar", "Xomashyo xususida" she'rlari; Omon Matjon ijodidan «Yonayotgan daraxt», «Ko'rdim Shukur Burhon», «Ogahiy g'azaliga muxammasi muloqot», «Avvalgilarga o'xshamas», «Seni yaxshi ko'raman», «Eng so'nggi xazina», «Qaysi yil ko'klamda...», "G'alati orol", "Mangulikning o'lchovi" she'rlari, Abduvali Qutbiddinning

"Tongdan", "Izladim", "Hissiy she'r" "Qasam", "Bas, osmonga qarama ma'yus", "Ohang" she'rlari; Sirojiddin Sayyid qalamiga mansub "Vatan yodi", "Ko'ngil", "Surxon sog'inchi", "Vatan ozoda bo'lsin" she'rlari; Halima Xudoyberdievaning «Ayol o'tib borar», «Begim, sizni tabiat», «Yo'ldadirman», «Ohista sham», «Shunchaki», «Kuning kulsin», "Inshaolloh", "Ko'nglimdagi arslon" kabi yuzlab lirik bitiklar o'quvchilarning yoshi va intellektual imkoniyatlaridan kelib chiqib sinflar kesimida o'rganish uchun taqdim etilgan.

Bu bitiklarning har biri o'ziga xos o'qilish ohangiga, turfa tuyg'ular tafsifiga ega. Adabiyot o'qituvchisi darslarda ularning har birini yoddan, lirik asarlar mutolaasi talablariga rioya qilgan holda o'qiy bilishi taqozo etiladi. Ularning matni ustida ishlash, tuyg'ular ifodasini didaktik tahlilga tortish, har birida ilgari surilgan ma'naviy go'zallikni anglash va anglatishga urinish savol va topshiriqlar ko'magida amalga oshiriladi. Har bir lirik bitikda o'ziga xos tarzda ifodalangan, o'quvchi ko'nglidan o'tishi, uning ruhiyatida ma'lum ijobiy iz qoldirishi mumkin bo'lgan birorta ham detal o'qituvchining nazaridan chetda qolmasligi kerak.

Adabiy ta'lim uchun ularni o'qituvchining o'zi ochib yoki ifodalab berishi emas, har birini savol yoki topshiriqqa aylantirib o'quvchilarning diqqatiga havola qilishi, shu hislarni o'quvchilarning o'zlari tuyishlariga sharoit va imkoniyat yaratishi adabiyot o'qituvchisining eng oliy vazifasidir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Men seni topgandim...

Lirik turga mansub asarlar ustida ishlashni shoir Halima Xudoyberdievaning "Men seni topgandim..." she'ri misolida quyidagicha ko'rish mumkin:

Men seni topgandim, ammo yaxshi qol,
Sen: "Yaxshi qol!" – degil, "ko'rishguncha"mas.
Bul quyosh hali ko'p ol bo'ladir, ol,
Bul oy ham umrimga ko'p qiladir qasd.
Sen sherik bo'lmaysan endi g'amimga,
Darvoqe, hech qachon sherik qilmadim.
Xayr endi, ma'zur tut ortiq-kamimga.

Men seni Layliday seva olmadim

O'rtanma bul xato mushkullaridan,
Yo rabbiy, lahzada bor orzular puch.
Men ham qaydan bilay ishq yo'llarida –
Majnun emas, senga kelarimni duch... [1]

Asar matni ustida ish boshlashdan avval she'rning matni yoddan ifodali aytib beriladi. So'ngra quyidagi savol va topshiriqlar ko'magida o'quvchilar asar matni mohiyatiga kirishga yo'naltiriladi. «Sizningcha, she'rning bosh qahramoni kim? Qanday odam? Asar qahramoni kimga murojaat qilayotir deb o'ylaysiz? She'rning dastlabki satridagi birinchi jumla: *"Men seni topgandim"*ga diqqat qarating. Nega "topdim" emas "topgandim" fe'li ishlatilgan deb o'ylaysiz? Ikkala so'z ham o'tgan zamonni anglatadi-ku. "Topgandim" so'zining mohiyatida qanday haqiqat, qanday tuyg'ular yashiringan, sizningcha? Fikringizni matnga tayangan holda asoslang. Ilk misradagi ikkinchi jumla *"ammo yaxshi qol"*dan siz nimani angladingiz? Nima deb o'ylaysiz, nega she'r qahramoni "Xayr" demay *"yaxshi qol"* deyapti, buning zamirida biron haqiqat bormi? Satrdagi *"-gandim"* qo'shimchasi bilan *"ammo"* zidlov bog'lovchisi orasida qanday aloqa bo'lishi mumkin? Siz bundan nimani tushundingiz? Bandning ikkinchi misrasi: *"Sen: "Yaxshi qol!" degil, "ko'rishguncha"mas"*ga e'tibor qiling. Misrada xayrlashuvning ikki turi qo'llanilgan. Jumladagi *"yaxshi qol!"*, *"ko'rishguncha"* so'zlari bilan "xayr" so'zi orasida qanday tafovut bor, nazaringizda? Nima deb o'ylaysiz, nega she'r qahramoni suhbatdoshidan aynan "yaxshi qol" deyishini o'tinmoqda? Satrdagi *"degil"* so'ziga diqqat qiling: nega "degin" emas, aynan *"degil"* qo'llanilgan? Sizningcha, bu nimani anglatadi? *"Bul quyosh hali ko'p ol bo'ladir, ol"*ni,sizningcha, qanday tushunish mumkin? Nega "bu" emas "bul" ko'rsatish olmoshi ishlatilgan deb o'ylaysiz? Muallif "l" tovushining zimmasiga qanday vazifani yuklagan, nazaringizda? Quyosh ol bo'lishining qahramonga nimaaloqasi bo'lishi mumkin, sizningcha? *"Bul oy ham umrimga ko'p qiladir qasd"* misrasini qanday sharhlaysiz? Nega "qiladi" emas *"qiladir"* deyilgan? Sizningcha, "l" va "r" tovushlarining zimmasida qanday yuk bo'lishi mumkin? Ne sababdan *"Bul oy ham"* deyilyapti?

[1] Хамидуллаев Х. Сайланма. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 98б.

Oldin boshqa biror jonzod qahramonning umri-joniga qasd qilganmidi? Misralardagi *«bo'ladir»* va *«qiladir»* so'zlarida «r» harfining orttirilishi nimadan dalolat beradi? Ikkinchi to'rtlikdagi *«Sen sherik bo'lmaysan endi g'ammga"* tarzidagi iqrorning zamirida qanday haqiqat yashiringan deb o'ylaysiz? To'rtlikning ikkinchi misrasiga e'tibor qiling:*"Darvoqe, hech qachon sherik qilmadim"*ga asoslanib she'r qahramoniga tavsif bering: u qanday odam? Keyingi misra: *"Xayr endi, ma'zur tut ortiq-kamimga"* e'tibor qiling. Nima deb o'ylaysiz, yuqoridagi bandda *"yaxshi qol"* degan qahramon endi nega "xayr" deyapti? *"Ma'zur tut"* va *"ortiq-kam"*ni qanday tushundingiz? Sizningcha, bandning so'nggi misrasi: *"Men seni Layliday seva olmadim"*da afsus va o'kinish bormi yoki oddiy e'tirof ifodalanganmi? Fikringizni matnga tayangan holda asoslang. Qiz yigitni *«Layliday seva olma"*ganining boisi nimada deb o'ylaysiz? O'ylab ko'ringchi, qiz bilan yigit bir-biriga kim bo'lishi mumkin? So'nggi bandning dastlabki misrasi: *"O'rtanma bul xato mushkullaridan"*ga diqqat qiling. Yana *"bul"*. Buning vazifasi nimadan iborat, sizningcha? Nazaringizda, xato kimniki? *"Xato mushkullari"* nimalardan iborat bo'lishi mumkin? Bu xatoning mushkullaridan she'r qahramoni ko'proq iztirob chekyaptimi yoki uning suhbatdoshimi? Buni nimalardan angladingiz? Fikringizni asarga tayangan holda asoslab bering. *"Yo, Rabbiy, lahzada bor orzular puch"* deyilganda qaysi lahza nazarda tutilayotir deb o'ylaysiz? Sizningcha, kimning orzulari haqida gap ketayotir? Bu orzular nimalardan iborat ekanligi haqida fikr ayta olasizmi? *"Men ham qaydan bilay ishq yo'llarida Majnun emas, senga kelarimni duch..."* misralarida insonga xos bo'lgan qanday tuyg'ular aks etgan deb o'ylaysiz? Nima deb o'ylaysiz, "Majnun" bilan "Sen"ning orasida qanday tafovut bor?"

Asar matni yuzasidan taqdim etilgan mazkur savol va topshiriqlar ko'magida uning mohiyatiga kirishga urinilarkan, o'qituvchining vazifasi alohida e'tiborga loyiq javoblarni rag'batlantirish, kichik-kichik qo'shimcha savollar yoki yo'naltiruvchi fikrlar bilan vaziyatgaaniqlik kiritish, kemtik fikrlarning to'ldirilishini boshqalardan so'rash kabilardan iborat bo'ladi. O'qituvchi imkon qadar o'z fikrini o'rtaga tashlamasligi, agar bunga zarurat tug'ilganida ham hal qiluvchi xulosa yoki hokim fikr shaklida emas, shunchaki bir variant sifatida aytishi mumkin. Agar u yoki bu savollargaauditoriyada javob topilmasa, uni ochiq qoldirgan, keyingi dargacha u haqda o'ylab

ko'rishni taklif etgan ma'qul. Aks holda o'quvchilarni o'qituvchisining fikr aytishini kutadigan, o'ylamaydigan tanballarga aylantirib qo'yish mumkin.

"O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdieva qalamiga mansub "Men seni topgandim..." she'ri mazmun-mohiyati bilan ko'ngil bitigi hisoblanadi. Unda baland orzular dunyosida kezgan yosh bir qalbning iztiroblari samimiy tasvirlangan. Bu asarning qahramonini barcha she'rlarga "egalik" qiluvchi qiyofasiz "lirik qahramon" deyish unchalar o'rinli emas. U hyech kimga o'xshamagan, o'z qalbi va o'zgacha tuyg'ular sohibi, shuning uchun she'r qahramonini oddiygina qilib qiz deb atash mumkin. Unda, avvalo, qizning yoshlikda bilib-bilmay qilib qo'ygan xatolaridan chekkan iztirobi, buning ustiga shu xatolar tufayli ikkinchi bir qalbning jabrlanganini his qila turib ko'nglidan kechayotgan ruhiy qiynoqlari tasvirlangan. Ushbu bitikdagi har bir misra rost. Bor-yo'g'i uch banddan iborat bu she'rning har bir satridan ko'ngil dardining zardobi sizib turibdi.

Bu she'rga adabiyottanuv ilmidagi nazariy o'lchovlardan ko'ra ruhiyat mezonlari bilan yondashish ma'qulroq bo'ladi. Unda qahramon tuyg'ulari ifodasi ko'ngil kishisi bo'lgan she'rxonni muvozanatdan chiqaradi, qalbini junbushga keltiradi. Bunday bezovta vaziyatda she'rxon ham samimiy bo'ladi.

Shuni aytish joizki, shu she'r asosida yaratilib, Hilola Hamidova tomonidan ijro etilgan qo'shiq so'zning ta'sir kuchini yanada oshirgan. She'r so'zi bilan kuyi bir-biriga monand qo'shiqqaaylanib, har ikkisi tinglovchi va o'quvchi ko'nglidagi tuyg'ularga hamohang bo'lganda, so'zning ta'sir qudrati yanada ortadi. Ba'zi qo'shiqlar musiqasi yoqimsiz bo'lganidan go'zal so'zning ta'sir kuchi ham yo'qolib ketadi. H. Xudoyberdievaning ushbu she'riga kuy yozgan bastakor so'zni shunchalar nozik his qilgan, unga monand kuyni ko'ngli bilan topganki, qo'shiq samimiy ijrosi bilan tinglovchiga huzur bag'ishlaydi.

She'rning birinchi misrasidayoq qahramonning romantik tuyg'ular egasi ekanligini ko'rish mumkin:

Men seni topgandim, ammo yaxshi qol,
Sen: "Yaxshi qol!" – degil, "Ko'rishguncha"mas.
Bul quyosh hali ko'p ol bo'ladir, ol,
Bul oy ham umrimga ko'p qiladir qasd.

[1] X. Xudoyberdieva. Qalbim. T.: Fafur Fulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. 99-b.

Misradagi "topgandim" so'zi shundan dalolat beradi. Inson "topdim" degan so'zni qidirgan, istagan yoki orzu qilgan narsasiga erishganda qo'llaydi. Demak, Qiz yigit timsolida orzusidagi muhabbatni, ishqida telbavor Majnunni topdim deb o'ylagan. Shu misraning o'zidayoq "ammo" so'zining keltirilishi uning adashgani, muhabbat borasida xatoga yo'l qo'yganini ko'rsatadi. Tiyiqsiz tuyg'ular etovida yurgan, xayolan oq otlik shahzodani kutgan bo'y qiz o'z nazdida orzulariga erishgan edi, lekin u visoldan kutilgan natijani – baxtdan mastlik lazzatini tuyolmadi. Orzulari sarob bo'lib chiqqanini tezda payqadi.

Albatta, she'rda ko'ngildagi muhabbatning topilishi bilan uning sarob ekanini anglash va bu muhabbatdan voz kechgungacha bo'lgan oraliqdagi hayot mashaqqatlari, "yaxshi qol" degan qarorga kelgungacha ruhiyatda ro'y bergan kurash hamda bu jarayondagi qiynoqlar haqida hech so'z deyilmaydi. Oradagi butun boshli hayot "topgandim" va "ammo" so'zlari hamda ular orasidagi vergulga joylashtirilgandek tasavvur paydo bo'ladi kishida: *"Men sen topgandim, ammo yaxshi qol"*. Buni ruhi bezovta she'rxon o'zi anglab oladi.

Ko'rinadiki, Qiz –katta jur'at egasi. Ayollar Allohning itoatkor, taqdir yetoviga bo'ysunuvchan yaratig'i, degan tasavvur mavjud. Haqiqatdan ham ayollar tabiatan orqasida suyanchig'i bo'lishiga moyil xalq. Shoiraning qahramoni esa isyonkor. U taqdirga qarshi chiqa olgan, uzul-kesil qarorni qabul qilishga o'zida kuch topa bilgan ayol. Bunga hamma ayol ham qodir emas. Qiz ertaga hayotida nimalar bo'lishini, kelajakda uni qanday sinovlar kutayotganini bilmaydi, lekin muhabbatsiz yashashni, aybsiz bir odamni aldashni istamaydi. Qolaversa, nega shunday qilayotganini asoslab ham o'tirmaydi. Uning asosi she'rxonga butun matnni o'qish davomida ayon bo'ladi.

Bandning ikkinchi misrasida qahramon jabrlanuvchiga hech qanday umid qoldirmaydi, u bilan abadiy xayrlashishini ma'lum qiladi: *«Sen: "Yaxshi qol!" – degil, "Ko'rishguncha"mas"*. Qizning qarori o'tinch emas, hukm. Lekin bu hukm she'rda o'ta yumshoqlik bilan bayon etilgan. Agar bu fikr "yaxshi qol" degin" yoki "yaxshi qol" de" tarzida ifodalanganda edi, talab, buyruq ohangi yuzaga kelgan bo'lardi. *"Sen "yaxshi qol" degil"* – ya'ni "n" tovushi o'rniga "l" tovushining qo'llanilishi ifodani ancha yumshatgan. Chunki Qiz ko'ngil og'rig'ining hisob-kitobi borligini juda yaxshi biladi. Shuning uchun

imkon qadar og'riqni yumshatishga, ikkinchi bir qalbni ayashga harakat qilingan.

Keyingi ikki misra shoira bilgichligining isbotidir: *"Bul quyosh hali ko'p ol bo'ladir, ol, Bul oy ham umrimga ko'p qiladir qasd"*. Quyoshning "ol bo'l"ishida Qiz uchun tabiatning jazosi bor. Ma'lumki, Quyosh o'z nurlari bilan ba'zi yaratiqlarni yayratib-yashnatsa, ba'zilarini qovjiratib-quritib yuboradi. Bu o'rinda qizning o'z xatti-harakatini ikkinchisiga daxldor sanashi ko'rinadi. Qolaversa, oy ham quyoshga sherik. U ham jafokor qizning umriga qasd qiladi. Qiz bu isyoni uchun yuqoridan jazolanishini biladi. Ma'lumki, dardkash inson kechalari bedor bo'ladi. Bedorlik esa kishini o'ylashga, o'z xatti-harakatlarini taftish qilishga majbur qiladi. Bu taftish jarayonida Qiz xatolari uchun o'zini o'zi "yeb" boradi va bu, pushaymon va hijolatlik, o'z-o'zidan uning umrini egovlaydi – jonga qasd qiladi. Ushbu misralarni o'qigan kishida qiz ushbu vaziyatda aqlining emas, ko'nglining etovida ish tutgani uchun tabiat ham uni jazolaydi, jabrlangan bir ko'ngil uchun undan o'ch oladi, deganga o'xshash tasavvur paydo bo'ladi. Ayni zamonda she'rxon inson hamisha ham aqlining etovida yura olmasligi, ba'zan ko'ngli g'olib kelib, dil amri bilan ish ko'rgani sabab jazolanishi haqida o'yga toladi. Hayotda shunday vaziyatlar bo'ladiki, ba'zan ko'ngil tilaklarini bosishga inson aqlining kuchi etmay qoladi. Odam aqlda ixtiyorli bo'lsada, ko'ngilda beixtiyor bo'ladi. Ayni vaqtda, ko'ngil etovida yurgani bois ko'p turtki yeydi, azob tortadi. Odam bu holni tushunolmaydi vaadolatsizlik sanaydi. Inson har qanday intilish visol bilan yakun topishini istaydi. Adabiyotshunos Q. Yo'ldoshevning: *"... har qanday ayriliq ham insonni uchrashuv tomon, visol sari etaklaydi. Biz hayot va inson tuyg'ularining unga aksi bo'lmish she'riyatda ham tasvir nishabi, albatta, shu tomonga burilishiga ko'nikkanmiz"*[1], – degan fikri ham shundan dalolat. Lekin qarangki, visol hamisha ham, hammaga ham kutilgan natijani beravermas ekan. Har bir inson o'zicha betakror yaratiq bo'lgani kabi uning taqdiri ham qaytarilmasdir. Hamma ham umumiy mezonlarga tushavermaydi. Alloh insonga hamisha, har qanday muammoli vaziyatdan chiqish yo'lini unga tanlash imkoniyati bilan taqdir qilarkan. Tanlash esa o'sha odamning xarakteri va ma'naviy

[1] K. Ярашев. Поэтическая вязь чувств. «Халқ сўзи газетаси», 2020 йил 11 июнь.

olamiga bog'liq bo'ladi. She'rning qahramoni ham o'z taqdir yo'lini o'zi tanlaydi.

Bandning so'nggi misrasida "bu" ko'rsatish olmoshi "bul" shaklida qo'llanilgan. Bittagina "l" tovushi qizning isyoni darajasini bir qadar yumshatib, ikkinchi bir dilni og'ritgani uchun o'zi kechayotgan iztirobining balandligini ifodalagan. Misralardagi «bo'ladir», «qiladir» so'zlarida oxirgi «r»ning orttirilishi ham ifodani ma'lum darajada yumshatgan, ham ikkinchi dilning iztirobini engillatishga moyillik bordek tuyuladi. Jazo ko'lamining kengligini yaxshi anglab turgan isyonkorning xatti-harakati oshiqqa og'ir botmasligi uchun shunday qilinganday tasavvur paydo bo'ladi, o'quvchida. She'rning bu misralaridagi ifoda *"Bu quyosh hali ko'p ol bo'ladi, ol, Bu oy ham umrimga ko'p qiladi qasd"*dan ko'ra ancha yumshoq ekanligi ham ko'rinib turibdi.

She'rning ikkinchi bandida g'amga botgan «aybdor» o'z yog'iga o'zi qovurilayotgani tasvirlangan:

Sen sherik bo'lmaysan endi g'aminga,
Darvoqye, hyech qachon sherik qilmadim.
Xayr endi, ma'zur tut ortiq-kaminga,
Men seni Layliday seva olmadim.

Qiz dard-iztiroblarini hyech kim bilan bo'lisholmaydi, jabrdiyda yigit bilan-ku, inchunun. Chunki u bilan avvallari ham hyech narsani o'rtoqlashmagan, na g'amiga, na shodligiga uni sherik qila olgan. Boisi, ular aslida boshqa-boshqa dunyoning odamlari. Qiz yigitni kamsitmaydi, lekin yigit uni hyech qachon tushunolmasligini ham yaxshi biladi. U oshig'idan yozg'irmaydi ham. Bu yigitning ham aybi emas. Balki mana shu haqiqat qizning dardini yengillashtirar?! Vijdoni oldida o'zini oqlashga asos bo'lar?! Bularning hammasini anglab yetgan, faqat kechroq tushungan qiz oshig'iga bor vaziyatni tushuntirishga harakat qilarkan, hamma-hammasi uchun uni kechirishini so'raydi: "... *ma'zur tut ortiq-kaminga*".

Yigitning aslida kimligiga aqli yetib turgan qiz qanday qilib oshig'ini Laylidek seva olsin? Laylidek sevish – oshiq uchun o'zlikdan kechish-ku! She'rda oshiq va uning tabiati haqida hech narsa deyilmagan. Lekin qizning nazarida u Laylidek sevishga munosib emas, tuyg'ulari jo'sh urgan, orzular qanotida uchib yurgan qiz istagan odam emas. Shundan kelib chiqib, yigitning kimligini taxmin qilish mumkin. Agar u tuyg'ular kishisi bo'lganida shoiraning qahramoni: uni

"Layliday sev"ib qolishi tabiiy ham edi va "Layliday seva olma"gani uchun hijolat chekishga o'rin qolmasdi. Qolaversa, sevish yoki sevmaslik insonning ixtiyorida emas. Sevish – ko'ngilning ishi. Uni odam aqli bilan boshqarolmaydi. Agar muhabbat ishiga aql aralashsa, u muhabbat emas, hisob-kitobga aylanadi. Demakki, bu tuyg'u rost bo'lmaydi. She'rning qahramoni – Qiz esa yolg'onlarga qodir emas. O'zini ham, o'zgani ham aldagisi yo'q. Shuning uchun mardonavor kechishga o'zida kuch topa olgan. U –boshqacha yashashga buyurilgan odam. Shu bois oshig'idan chinakamiga rozi-rizolik tilamoqda, abadul-abad vidolashmoqda: "*Xayr endi...*".

She'rning uchinchi bandida asar qahramonining yigitga achinayotgani ham yaqqol seziladi:

O'rtanma bul xato mushkullaridan,
Yo rabbiy, lahzada bor orzular puch.
Men ham qaydan bilay ishq yo'llarida –
Majnun emas, Senga kelarimni duch...

Har ikkovi tushib qolgan holat xatoning oqibati. Bu xatoda, balki har ikki tarafning ham aybi bordir. Balki, ikkalasi ham bir-birini sevmas. Faqat taqdirlarida shu ko'rgilik borligi uchun yo'liqishgandir. Yo'l qo'yilgan bir xato sabab kishining boshiga olam-olam tashvishlar yog'ilishi mumkin. Oshiq ham fikr kishisi ekanini qiz biladi. Shuning uchun undan qiynalmaslikni o'tinadi. O'rtanmaslikning, albatta, iloji yo'q. Ma'nan sog'lom odam taqdiridagi, hayotidagi muammolardan, ayniqsa, bu kabi nomutanosiblikdan, o'ylamay bosib qo'yilgan qadamlardan qiynalmasligi mumkin emas, albatta. "*Yo rabbiy, lahzada bor orzular puch*" misrasi ushbu vaziyatdan qiz larzaga tushayotganini ko'rsatadi. Bu misradagi "lahza" so'zida "ammo yaxshi qol" degan vidolashuv iborasining aytilgunigacha bo'lgan oraliq nazarda tutilgan. Bu so'zni aytish qizning o'zini ham qo'rqitib yuborgan. Lekin aytilgan gap, otilgan o'q – hammasi tamom bo'ldi.

Bandning so'nggi ikki misrasida she'r qahramonining armonlari ham o'z aksini topgan. U "*ishq yo'llarida*" o'z Majnuniga duch kelishni istagan, Laylidek sevilishni, sevishni orzu qilgandi. Taqdirlarida bunday burilish bo'lgani uchun, albattaqizaybdor emas, lekin insofli bir odam sifatida u o'zini gunohkor his qilyapti. "*Men ham qaydan bilay ishq yo'llarida – Majnun emas, Senga kelarimni duch...*". Bu Qizga bir umrlik armon bo'lishi ham mumkin. Kim biladi, endi umrining qolgan qismida u o'z Majnunini balki topar, balki topmas. Balki shu baxtdiru,

qahramonimiz buning qadriga etmay, uning baxt ekanligini bilmay kiyasiga qolar?! Buni kelajak ko'rsatadi. Inson oldida nimalar borligini, hayotda uni nimalar kutib turganini bilmaydi.

Islomiy qarash bo'yicha, tikon ham insonga Allohning amri bilan kirarkan. Demak, hammasi Yaratgan tomonidan nazoratda. Fazilatlar uchun rag'bat, gunohlar uchun jazo tayin. She'r qahramonlarining boshiga tushgan bu ko'rguliklar ham ularning taqdirida bo'lgan. Ulug'bek Hamdam: "*Nimasini aytay, qodir Egam insonga bir ko'chadan o'tishni taqdir qilgan esa, qarshisida son-sanoqsiz boshqa ko'chalarning darvozalari lang ochiq va u ming urinib shulardan biriga kirmoqchi bo'lsada, niyatiga yetmas ekan*"[1], – deganida haq edi. Qiz ham, uning sevgisiga sazovor bo'lolmagan yigit ham kelajakda nimalarga mustahiq ekanliklarini boshlariga tushganda ko'radilar. Bilib-bilmay taqdirlari sari boradilar.

Xullas, shoira Halima Xudoyberdieva bu she'rida o'z fikri va qarashiga ega bo'lgan ko'ngil kishisining chin tuyg'ularini uning o'zidek his qilgan hamda samimiy ifodalay bilgan. Bunga o'quvchisini ham ishontira olgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Lirik she'rlarning avtopsixologik yoki ijroviy turiga misollar keltiring. Qarashlaringizni asoslang.

2. Q. Yo'ldoshevning she'rni ifodali o'qish haqidagi fikrini qayta o'qing. Munosabat bildiring. O'z qarashlaringizni taftish qiling.

3. Adabiyotshunoslik fanidan olgan bilimlaringizga tayanib lirik turning janrlari va ularning xususiyatlarini aytib bering.

4. S. Ahmedovning. "*Lirika ijodkor qalbi ony bir tezlikda his etgan sezgining, mavjud muhitga estetik munosabatning mevasidir. Shoir tashqi olamdan olgan taassurotlari natijasida vujudga kelgan fikrini his-tuyg'ularga o'rab yana yuzaga chiqaradi, kitobxonda fikr tug'ilishiga sabab bo'ladi*" tarzidagi qanoatiga munosabat bildiring. Fikringizni biror lirik asar misolida isbotlang.

5. Professor B. To'xlievning: "*She'riy asarni anglash, undagi muallif ko'zda tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib etish, she'r g'oyasining mag'zini chaqish uni tahlildan, yanada aniqrog'i, she'r g'oyasining mag'zini chaqish uni tahlildan boshlanadi*" tarzidagi fikrida ilgari surilgan "she'r ifodali o'qishdan boshlanadi" tarzidagi fikrida ilgari surilgan

[1] Худойбердиева Халима. Сабо ва Самарқанд. Роман. Т.: Муҳаррир, 2019. 32-б.

g'oyasining mag'zini chaqish" masalasiga siz qanday qaraysiz? Maktab adabiy ta'limi uchun asarlarning g'oyasi qanchalar ahamiyatli deb o'ylaysiz?

6. Shoira H. Xudoyberdieva qalamiga mansub "Men seni topgandim..." she'ri tahlili bilan bog'liq savollarga javob bering. Javoblaringizni asar tahlilidagi qanoatlar bilan solishtiring. O'xshash va farqli jihatlarni aniqlang. Har ikkala holatga o'z munosabatingizni bildiring.

7. Boshqa biror lirik asarni tanlab oling va uning o'quv tahlilini amalga oshiring.

8. Adabiyotshunos olimlarning asarlaridan lirik tur haqidagi qarashlaridan iqtiboslar oling.

9. Lirik asarlar tahliliga bag'ishlangan maxsus dars tashkil eting.

10. H. Xudoyberdievaning "Men seni topgandim..." she'rini lirik she'rning qaysi turi (avtopsixologik yoki ijroviy lirika)ga mansub deb hisoblaysiz? Fikringizni asoslang.

11. H. Xudoyberdieva qalamiga mansub "Begim, sizni tabiat..." she'ri mazunidan kelib chiqqan holda "Ayol va muhabbat" mavzusida insho yozing. Har biringizning ishingizni birgalikda muhokama qiling.

23-MAVZU. DRAMATIK JANRDAGI BITIKLAR BILAN ISHLASHNING XUSUSIYATLARI

Reja:

1. *Dramatik asarlarning o'ziga xos xususiyatlari.*
2. *Dramatik asarlarning turlari.*
3. *Dramatik asarga xos nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash.*
4. *Dramatik asarlarni didaktik tahlilga tortish metodikasi.*
5. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Adabiyotshunoslikda "dramatik tur"ga mansub bo'lgan drama janri ham san'atining bir turi bo'lib, qadimgi yunon tilida harakat, amal-faoliyat degan ma'nolarni anglatadi. Dramatik asarlar, asosan, sahnada ijro etishga mo'ljallangan bo'lib, suhbat-dialog shaklida yoziladi.

Dramatik turga drama, komediya, tragediya (fojea) singari janrlar mansubligi ma'lum. Bunday bitiklarda voqelik asarda bevosita ishtirok etuvchi shaxslarning xatti-harakatlari va nutqi orqali ochiladi. Dramatik asarlar sahnaga moslab yoziladi. Yozuvchining fikrlari asarda ishtirok etuvchilarning so'zi va faoliyati vositasida namoyon bo'ladi. Lirik yoki epik turdagi asarlarda muallif nuqtai nazari, ba'zan ochiq, ba'zan yashirin-pardali tarzda bildiriladi. Dramatik asarlarda ayni mana shu holatning mavjud emasligi o'quvchi uchun qo'shimcha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shunga ko'ra dramatik asarlarda munosabatlarning o'ziga xos tarzda aks ettirilishini o'quvchi yoki tomoshabin ongiga, idrokiga yetkazish masalasi turadi. Sahna asaridagi har bir harakat va har bir so'zning katta ma'no tashishi o'quvchi yoki tomoshabinlar tomonidan anglab yetilishi kerak. Dramatik asarlarning didaktik tahlili jarayonida uning mana shu xususiyatlariga alohida urg'u berishga to'g'ri keladi.

Drama sahnaga mo'ljallab yozilgan asar sifatida uning ijrosi ham ko'zda tutiladi. Shunga ko'ra, dramadagi harakat – syujet voqealari makon va zamonda cheklangan bo'ladi. Ijro vaqtiga sig'ish uchun asarning keskin konflikt asosida shiddat bilan rivojlanuvchi sujetga qurilishi taqozo etiladi. Ravshanki, bu xil sujetning rivojlanish vaqti ham chegaralangan. Shu sababli ham syujet voqealari sabab-natija munosabatlari asosida bir-birini to'ldiradi (konsentratsiyalanadi). Voqealar orasidagi sabab-natija munosabatlari esa ularning makoniy va zamoniy jihatlardan ham yaqin bo'lishini taqozo qiladi.

Dramaturg asarni yaratish jarayonidayoq uning sujet voqealari ijro vaqtiga sig'ishi masalasida ham qayg'uradi. Shunga ko'ra, dramatik asarda syujet voqealarining keskin konfliktlar asosida, shiddat bilan rivojlanishi zaruratga aylanadi. Bundan tashqari, dramatik asardagi syujet voqealari yuz beradigan makon ham cheklangan, voqealar sahnada shartli qayta yaratish mumkin bo'lgan (ya'ni, sahna ustalari, rassom tomonidan o'sha joy illyuziyasini hosil qila oladigan bezak (dekoratsiya)larning ishlanishi mumkin bo'lgan) makonda kechadi. Boz ustiga, harakat makoniy o'zgarishlar jihatidan ham cheklangan, ya'ni dramatik asar voqealari ko'pi bilan to'rt-besh joydagina kechishi mumkin.

Dramaturg asarda jonlantirmoqchi bo'lgan hayot materialining barcha unsurlarini ham sahnada qayta yaratish imkoniyati mavjud emas. Shunga ko'ra, dramatik asar avval-boshdanoq «shartlilik» kasb etadi. Ya'ni, muallif mavjud ijro imkoniyatlaridan foydalanib, ayrim ishoralar orqali tomoshabin (o'quvchi) tasavvurida ko'p narsalarni uyg'otishi, bevosita sahnada jonlantirilishi mumkin bo'lmagan voqealarni shartli ravishda to'ldirishi zarur bo'ladi. Masalan, muallif ogohlantirish (remarka)larida «sahna ortida otlar dupuri, qilichlar jarangi», «sahna ortidan keskin to'xtagan mashina ovozi eshitiladi» qabilidagi ishoralar beriladi, ularning yordamida sahnada jonlanmagan narsani shartli (ya'ni, o'quvchi yoki tomoshabin tasavvuridagina) jonlantirish mumkin bo'ladi.

Shunga o'xshash, syujetga kiritishning imkoni bo'lmagan voqeani personajlar tilidan muxtasar hikoya qilinishi ham shartlilikning yana bir ko'rinishidir. O'z navbatida bu shartlilik personaj nutqiga ham ta'sir qiladi. Aytaylik, ikki personajning har biri asarda yoritilayotgan biron bir voqea-hodisa yoki holatdan xabardor. Shunga qaramay, ularning «suhbati» o'quvchi (tomoshabin)da o'sha voqea yoki holat haqida tasavvur hosil qilishi zarur. Bu asar mazmunining o'quvchi tomonidan anglanishi uchun ahamiyatli. Shu zarurat suhbatni tabiiylikdan chiqaradi, uning muayyan darajada shartlilik (ma'lum darajada sergaplilik) kasb etishiga olib keladi.

Gap shundaki, kundalik muloqotda biz «tejash» prinsipiga amal qilamiz, sahna esa bu prinsipni inkor qiladi. Natijada sahna dialoglari shartlilik, «sahnaboplik» xususiyatini kasb etadi. Umuman, tafsilotlarni ko'proq shu yo'sin (personajlar tilidan)da berish majburiyati dramatik asar personajlari nutqining bir oz «sun'iy»lashishiga olib keladi. Asosiy

nutq shakli bo'lmish dialogik nutq bilan bir qatorda, dramatik asarda monologik nutq ham qo'llanadi. Monologik nutq shaklida ko'pincha personajlarning mushohadalari beriladiki, haqiqatda kishining ongida kechuvchi bu jarayonning sirtga chiqarilishi — ovoz chiqarib o'ylash ham shartlilikning bir ko'rinishidir.

Ayni paytda, dramadagi monologik nutq qurilishida muayyan o'ziga xosliklar mavjud. Zero, bu nutq ko'proq personajning o'zi bilan o'zi yoki xayolidagi kim bilandir suhbati, bahsi, kimgadir murojaati tarzida quriladi. Ya'ni, bitta personaj tilidan aytilgani holda ham dramadagi monologik nutq qisman dialogik asosga ega bo'ladi.

Dramatik asarning o'qilishi va ularning sahna talqinida bir qator o'ziga xosliklar mavjud. Dramani o'qiyotgan o'quvchining ijodiy faolligi bilan shu asar asosidagi spektaklni tomosha qilayotgan tomoshabinning ijodiy faolligi bir-biridan tubdan farqlanadi. O'quvchi o'qish jarayonida "rejissiyor" vazifasini ham zimmasiga oladi, dramani tasavvuridagi sahnada jonlantiradi. Ayni paytda u «aktyor» sifatida har bir personajning rolini xayolan o'ynashi ham kerak bo'ladi. Dramada obyektiv ibtidoning ustuvorligi uning turli o'quvchilar tasavvurida turlicha «sahnalashtirilishi»ga asos bo'ladi. Sahnalashtirilgan dramatik asarda badiiy muloqot zanjiri uzayadi. Ya'ni tomoshabin va dramaturg orasida rejissyor (aktyorlar, rassom, bastakor va hk.) o'rin egallaydi. Boshqacha aytsak, sahnalashtirilgan dramatik asar so'z san'ati doirasidan chiqib sun'iylik kasb etadi. Ya'ni, endi unda teatr, rassomlik, musiqa san'atlari uyg'unlashib ketadi. Bundan ayon bo'ladiki, drama boshqa san'at turlari bilan o'zaro aloqada yashaydi va rivojlanadi.

Zero, dramaning tabiati, ya'ni uning sahnada ijro uchun mo'ljallangani, uning shu san'at turlari bilan uzviy aloqada bo'lishini taqozo etadi. Drama eposga ta'sir qilganidek, zamonaviy dramaga epos ham sezilarli ta'sirini o'tkazgan. Dramatik tur takomili jarayonida uning epik elementlar hisobiga boyib borishi kuzatiladi. Zamonaviy dramada, xususan, eposga xos voqealar yuz beradigan joylar ko'lamining kengayishi, syujet vaqtining uzayishi kuzatiladi. Masalan, «Yorqinoy» dramasi voqealari kechadigan joylarning olti bora o'zgarishi unda epik elementlar «Nurxon» spektakliga nisbatan sahnoqliroq ekanidan dalolatdir.

Realizm bosqichiga yaqinlashgan sari dramaturgiyada tragediya o'rnini, uning yetakchilik mavqyeini drama egallay boshlaydi. Drama o'zining mavzu jihatidan turfaligi, turfa hayotiy ziddiyatlarni badiiy

talqin qilish imkoniyatlarining kengligi bilan xarakterlanadi. Dramaning tragediyadan farqi shundaki, tragik konflikt qahramon ruhiyatida kechsa, dramatik konflikt qahramon bilan tashqi kuchlar orasida kechadi. Ayni paytda, dramadagi konflikt ham juda keskin bo'lishi, qahramonni iztirob-u qiynoqlarga solishi va oxir-oqibat halokatga olib borishi mumkin. Biroq bularning barı tashqi quchlar bilan to'qnashuv natijasi o'laroq sodir bo'ladi, asar markazida dramatik konflikt turadi. Masalan, «Nurxon» musiqali dramasida eskilik va yangilik orasidagi kurash qahramon ruhiyatida emas, uning boshqa personajlar bilan to'qnashuvida namoyon bo'ladi va ayni shu ziddiyatlar Nurxonning o'limiga olib keladi.

Tragik konflikt deganda mohiyatan yechimi yo'q, mavjud sharoitda hal qilib bo'lmaydigan ziddiyat tushuniladiki, u har vaqt qahramon ongida kechadi. Qadimgi tragediyalarda konflikt shaxs va taqdiri azal o'rtasida («Shoh Edip») kechgan bo'lsa, keyinroq bu konflikt tomonlarining ikkinchisi o'zgardi: taqdiri azal o'rnini endi shaxsdan yuqori turuvchi oliy ma'naviy kuchlar (bunda yozilmagan, biroq inson hayotini muayyan tartibga soluvchi ma'naviy qonun-qoidalar, masalan, burch hissi kabilar nazarda tutiladi) egallaydi. Tragik konflikt asosida yuzaga keluvchi tragik holatning mohiyati shundaki, qahramon tashqi kuchlar bilan emas, o'zi bilan o'zi olishadi, mana shu olishuv oqibati o'laroq chuqur ma'naviy iztirob, ruhiy qiynoqlarga duchor bo'ladi.

O'zining foje holatida ham maqsad sari intilishlik, ruhiy iztiroblar-u qiynoqlarga qobillik tragik qahramonga xos xususiyatdir. Tragik qahramon qarshisida erkin tanlov imkoniyati mavjud – u maqsaddan voz kechishi, oson yo'lni tanlashi mumkin, biroq u bunday qilmaydi. o'zining jisman yoki ma'nan halokatga uchrashi mumkinligini bilgan holda ham maqsadidan, e'tiqodidan qaytmaydi. Xuddi shu asosda tragik qahramonning xarakter kuchi, uning favqulodda shaxsligi namoyon bo'ladi.

Masalan, Edip yoki Gamletni olaylik. Ularning ikkisi ham yuqorida tavsif etilgan yo'ldan boradi. Deylik, Edip yurt boshiga kelgan ofatning sababchisi o'zi bo'lishi mumkinligini sezganidayoq taftishni to'xtatishi, «yopiqliq qozon yopiqligicha» qolaverishi mumkin edi. Biroq u – tragik qahramon, chekiga tushgan iztirob-u qiynoqlar qadahini tubigacha sipqoradi. Realizm bosqichigacha yaratilgan tragediyalarda tragik qahramon sifatida ko'proq mifologik personajlar,

shohlar, shahzodalar, malikalar-u sarkardalarning olinishi ham bejiz emas. Zero, o'zining foje holatini idrok eta olish, qalbi-yu ongida ma'naviy-ruhiy iztiroblarni kechira bilish, shunda-da simmay maqsad tomon yurishlikka o'rtamiyona odamlarning chog'i kelmaydi. Shu bois ham XX asr o'rtalarida yaratilgan milliy tragediya janri talablariga to'la javob berishga yaroqli "Mirzo Ulug'bek", "Jaloliddin Manguberdi" nomli klassik tragediyalar markaziga shoh va sarkarda obrazlari markazga chiqarilgan[1].

O'quvchi yoki tomoshabinga bayon va tasvirlashga xos usullar yot bo'lganidan u personajlar xatti-harakatini, voqealar rivojini bevosita tahlil etish imkoniyatiga ham ega emas. Bunday vazifalar dialoglar yetakchiligida, monolog, remarka va pauzalar yordamida muayyan vaqt ichida tomoshabin yoki kitobxon ko'z o'ngida sodir bo'layotgan qismatlar shaklida amalga oshiriladi. Har bir voqeaga yo'nalish beriladi. Dramatik asar tanaffuslar bilan ko'rsatilganligi sababli, har qaysi qismi parda deb yuritiladi. Parda ichida ko'rinishlar bo'ladi. Bir ko'rishga mo'ljallanganligi sababli dramatik asar hajman cheklangan bo'ladi[2].

Dramatik asarlar kompozitsion tuzilish jihatidan boshqa janrlardagi asarlardan farq qiladi. Shuning uchun drama janri so'z san'atiga mansub bo'lsa ham, sahnada ijro etilishi bilan roman va qissa janridan farq qiladi. Dramada har bir obraz o'z xarakteriga xos xislatlarni jonli tili, xatti-harakati orqali namoyish qiladi. Shunga ko'ra dramada proza va poeziyaga xos bo'lgan bevosita muallif nutqi bevosita ishtirok etmaydi. «Nosir va shoirlar hikoya qilish, voqealarni izohlash, hodisalarni ifodalash, xarakterlarni tasvirlash yo'lidan borishsa, dramaturg so'zlarni harakatga solish, qahramonlarni so'zlatib qo'yib, xarakterlarini ochish usulidan foydalanadi»[3]

Kitobxon yoki tomoshabin dramada sodir bo'layotgan voqea va qahramonlarni ularning o'zidan – xatti-harakati, gap-so'zi va tutumlaridan payqab oladi. Binobarin, dramaturg o'z qahramonlarining hayoti haqida hikoya qilmaydi, balki ularni harakatda ko'rsatadi.

Dramatik asarlarda ohang, pauza va ovozning baland-pastligi katta ahamiyatga ega bo'lib, nutqning o'ziga xos bu xususiyati sahnada yorqinroq namoyon bo'ladi. Dramada dramaturg tashqi voqea-

[1] https://qamus.tdpu.uz/encyclopedia/article/...
[2] Қаюмов К., Юсупов Ш., Хамидов З. Ўзбек драматургияси тарихи. Т.: «Ўқитувчи», 1995. – 5-бет.
[3] Абдуғафуров Ў. Драма назарияси. I – II китоб. Ўзбек ва жаҳон театри. Т.: «Фан», 2000. 210-бет.

hodisalar, hayotiy masalalar, ishtirok etuvchi shaxslarni o'z-o'zini namoyon qilish vositasida aks ettiradi. Har qanday hodisa ham dramatik bo'lavermaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot o'qitish kechmida o'quvchi-tarbiyalanuvchilar bir necha: Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" yoki "Jaloliddin Manguberdi" fojiasi; Sharof Boshbekovning "Temir xotin" dramasi; Uilyam Shekspirning "Hamlet" yoki "Makbet" fojiasi; Homer qalamiga mansub "Iliada" yoki "Odissiya" tragediyalarini; Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" dramatik dostoni; Erkin A'zamning "Jannat qaydadir yoki Jiydalidan chiqqan Jo'raqul" singari dramatik asarlar bilan tanishadilar. Ular orasida qadimgi Yunon dramaturglarining asarlaridan boshlab, xorijiy mamlakatlardagi adiblar qalamiga mansub bo'lgan sahna asarlari, o'zbek dramaturglari bitiklarigacha qamrab olingan.

Adabiyot darslarida dramatik asarlar ustida ishlash o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Buni Q. Yo'ldoshev shunday ifodalaydi: *«...dramatik asarni o'qish boshqa turdagi asarlardan tubdan farq qilib, muayyan nazariy tayyorgarlikni talab etadi. Shu xildagi tayyorgarlik hammada ham bo'lmagani uchun dramatik asarlar ko'p o'qilmaydi"*

"Adabiyot" dastur va darsliklarida dramatik asarlar o'rganish uchun taqdim etilgan ekan, o'qituvchi buning uchun alohida tayyorgarlik ko'rishi, har bir obrazga xos bo'lgan ovoz ohangi, ifoda uslubini aniqlab olishi kerak bo'ladi. Adabiyot darslarida dramatik asarlarni o'quvchilar bilan rollarga bo'lib o'qish (hatto yuqori sinflarda ham) metodik jihatidan mutlaqo noto'g'ri tadbir. Adabiyot o'qituvchisi bunga aslo yo'l qo'ymasligi kerak.

Gap shundaki, avvalo, har bir o'quvchining o'qish tezligi har xil. Qolaversa, o'qish uslubini, personajning shaxsiga xos sifatlarni ovozda ifodalab berish o'quvchidan maxsus aktyorlik mahoratini talab qiladi. Bunday mahoratni o'quvchi mutolaa jarayonida ifodalab berolmaydi va dramaning ta'sir kuchi yo'qqa chiqadi. Shuning uchun o'qituvchi alohida tayyorgarlik bilan dramatik asarlarni o'zi o'qib berishi taqozo etiladi. Bu tadbir o'qituvchini ham anchagina zo'riqtirishi tabiiy albatta. Lekin, shunga qaramay o'qituvchi o'z vazifasini o'rinlatib bajarishi maqsadga muvqofiqdir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Temir xotin

Quyida dramaturg Sharof Boshbekov qalamiga mansub «Temir xotin» komediyasi matni ustida ishlash namunasi tavsiya etiladi.

Adabiyotga XX asrning 70-yillarida kirib kelgan Sharof Boshbekov badiiy adabiyotning murakkab turlaridan bo'lgan dramaturgiyada ijod qiladi. Shu paytgacha adibning „Taqdir eshigi", „Tikansiz tipratikanlar", „Eski shahar gavroshlari", „Eshik qoqqan kim bo'ldi?", „Temir xotin", „Tushov uzgan tulporlar", „Charog'bonlar" kabi dramalari chop etilgan va sahnalashtirilgan. Dramaturgning „Temir xotin" komediyasi hozirgi kungacha tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda.

Sh. Boshbekov o'z ijodidagi xususiyatlar haqida gapirib: *"Mening eng yaxshi ko'rgan qurolim – yumor. Asar qanday janrda yozilmasin, voqealar qanchalik jiddiy, qahramonlarimning taqdiri qay darajada fojiali bo'lmasin, yumor, hazil-mutoyiba, askiya unsurlari, so'z o'yinlaridan unumliroq foydalanishga harakat qilaman, bu birinchidan, asarni o'qishli qiladi, tomoshaviyligini oshiradi, ikkinchidan, boshqa nuqsonlarni „yopib" ketadi. Masalan, „Temir xotin" asarimda aytiladigan „gap" jiddiy, lekin vaziyat, qahramonlarning so'zi kulgili yoki aksincha bo'lishi mumkin"*, - deb yozadi[1].

Ta'lim amaliyotida dramatik asarlarni o'rganishda avval ularning matni bilan tanishish amalga oshiriladi, albatta. Agar imkoni bo'lsa sahnada ko'rish, yoki tasmaga yozilgan varianti bilan tanishish juda samarali ish turi hisoblanadi. Chunki sahna asarini sahnada ko'rish kutilgan natijaning maksimal samarasini ta'minlaydi.

Avvalo, Sharof Boshbekov qalamiga mansub "Temir xotin" haqida yumor bilan aytgan jiddiy *„gap"* haqida mulohaza yuritish kerak bo'ladi. O'quvchilarni bu haqiqatni kashf etishga yo'naltiruvchi ilk savol; "Boshdan oxir yengil yumorga yo'g'rilgan, bir oz fantaziya ham aks etgan bu asarda qanday jiddiy gap bo'lishi mumkin?" tarzida o'rtaga tashlanadi. Asar mutollasi asnosida hali o'z taassurotlari ta'siridan chiqib ulgurmagan "yosh sinchi"lar e'tibori: birinchi sahna

[1] https://kh-davron.uz/tag/sharof-boshbekov

tasviridagi Qo'chqorning ro'zg'origa taalluqli har bir jihozda nimaningdir yetishmasligiga; Qumri obrazining odam, ayol, xotin va ona sifatidagi jamiki xususiyatlariga; Qo'chqorning: *„ Bir qarasang, qo'ylarga qarab „ko'p tug'" deydi, bir qarasang, o'zbekka qarab „kam tug'" deydi...*" iborasiga; uning Olimtoyga qarata: *„Xotinlarning qorniga osilguncha paxta teradigan mashinani to'g'rila*" tarzidagi luqmasiga; "*Mana, biz ham „paxta terimiga" degan gapni eshitishimiz bilan hamma ishimizni yig'ishtirib qo'yib, dalaga chiqib ketamiz. O'quvchilarimiz o'qishini tashlaydi, xotinlarimiz emizikli o'quvchisini...*" degan e'tirofiga; "*Butun o'zbekning dardini dasturxon qilib o'tiribman. Doim shu, bizga o'xshagan odam gapirsa, yo hyech kim eshitmaydi, yo eshitadigani temir chiqadi...*" tarzidagi noroziligiga; Qo'chqorning Alomatga qarata: *„Yo'g'-e, endi yig'lashni ham qog'ozga qarab yig'lasak, uyat bo'lar?*" kabi so'zlariga; Alomatning Qo'chqorga qarata aytgan: *„Shu darajaga yetgansizki, hora-hora undaylarga havas ham qilmay qo'ygansiz! Havas qilaverib, orzu qilaverib, charchagansiz, holdan toygansiz*", *„G'urur, qadr-qimmatingiz-chi? Mundoq o'ylab ko'ring, biron tirik jon siz bilan hisoblashadimi? Yo'q, axir! To'y-ma'rakalarda poygakda o'tirasiz*" singari achchiq haqiqatlariga; Qo'chqorning og'ir hayotidan nolimasligi sababi haqida Alomatning: *„Hamma gap shunda-da, nolimaysiz! Ko'nikib ketgansiz. Yaralar toshga aylangan og'riq sezmaydi. Dod solib baqirish-ku, qo'lingizdan kelmas, hyech qursa ingrabqo'yishga ham qodir emasmisiz, Qo'chqor aka! Qalbingizning unutilib ketgan, o'zingiz ham bilmaydigan burchaklarida miltillayotgan ushoqqina norozilikdan qo'rqasiz, uni sezmaslikka olasiz!*" tarzidagi izohlariga; Qo'chqorning hayron bo'lib: *„Xo'sh, nima ish qilipti! Hali qatorlashtirib o'quvchi tuqqani yo'q, kechalari uyqudan qolib, beshik quchoqlab chiqqani yo'q, har bir farzandi bilan ming bor kasal bo'lib, ming bor sog'aygani ham yo'q. Bitta o'zbek ayoli nima ish qilsa, shuning yarmini qildi, xolos...*" singari mulohazalarga qaratiladi. O'qituvchi tomonidan qo'yilgan savolga javob berish yoki topshiriqni bajarish asnosida o'quvchilar bu haqiqatlarning barchasini o'zlari matndan topishlari, fikrlarini asoslashda bularga tayanishi kerak bo'ladi.

Zamondosh avlod kechagi jamiyatda ustuvor bo'lgan qishloq hayotining bu kabi turmush tarzini tasavvur qila olmasligi mumkindir, lekin qishloqlarning buguni ham avlo emasligi hyech kimga sir emas.

Umuman, sovet davridagi turmush tarzini tasavvur qilish uchun tarbiyalanuvchilar har bir detal, jumla, ibora, luqma va tasvirni tahlilga tortishlari kerak bo'ladi. O'qituvchi yuqorida sanalgan jihatlarni savol va topshiriqqa aylantirishi talab etiladi. Mana shu tahlil asnosida komediyada ilgari surilgan "jiddiy gap"ning mohiyatiga kiriladi.

Masalan: "*Sahnadagi har jihoz, har bir buyumda nimadir yetishmaydi: eshik-deraza romlarining yarmi bo'yalgan, qolganining rangi o'chib ketgan, yog'och karavotning bitta oyog'i yo'q, ko'rpa-yostiqlarga yamoq tushgan, piyolalarning labi uchgan yoki chegalangan, choynakning jo'mragiga tunuka kiygizilgan*" tarzidagi tasvirga diqqat qilinadi va qishloqdagi oddiy oilaning turmushi tasavvur qilinadi.

Keyin Qumrining hech qachon, hech narsadan nolimaganiga, arazlab onasinikiga ketayotgan holatida ham eriga achinishiga, qo'llarining qavargani, kiyimlaridan tappi va kerosin hidi anqib turishi kabi bir qancha xususiyatlariga tayanib qishloq ayollarining turmush tarzi tasavvur qilinadi. Muallif aytmoqchi bo'lgan jiddiy gapning mohiyatiga kiriladi.

Yoki o'quvchilar Qo'chqorning: "*Bir qarasang, qo'ylarga qarab "ko'p tug'" deydi, bir qarasang, o'zbekka qarab "kam tug'" deydi...*" iborasiga diqqat qaratsalar, o'sha davr hukumatining odamlar turmush tarzini ko'tarish, hayotini yaxshilash o'rniga muhim deb bilgan narsalarga, odam atalmish hilqat qadr-qimmatining paxta, hatto qo'ydan ham past baholanganiga, juda tasavvur qilolmasalar ham, aqllari yetadi va hk.

Bundan tashqari, Olimjonning Alomat halokati munosabati bilan aytgan quyidagi iztirobli e'tirofiga ham o'quvchilar diqqati qaratiladi: "*Ekspluatatsiya! Ertalabdan kechgacha tindirmadingiz-a! Bir minut dam olgani yo'q, bechora! Yuv, tozala, tik, yama, supur! Bir chaqirim naridan suv olib kelib, kir yuvadi! Manavi tezak yoqiladigan la'nati o'chog'ingizda ovqat qiladi! yeb to'ymaydigan ochofat mollaringiz bor: ertalabdan kechgacha o't ber, suv ber, yem ber! Xamir qoradi, sigir sog'adi, kavi pishadi! E, bu uyingizning ishi tugaydimi, o'zi! Bundan tashqari, dalaga chiqadi! Ming chanoqqa ming egilib, paxta teradi! Qirq-ellik kilo narsani ko'tarib, xirmonga olib boradi! Shunaqayam qiynaydimi, Qo'chqor aka?! Bu do'zax azobiga qanday dosh bersin, qanday chidasin?! (Mehr bilan.) Axir u temir-ku, Qo'chqor aka, temir. Uni ehtiyot qilish kerak, avaylash kerak. U o'zini*

*o'ylamaydi, „qiynalib ketdim" deydigan tili yo'q. Indamas ekan, deb eshakday ishlataveradimi axir! „Paq" etib jon chiqib ketguncha ezaverish kerakmi?! Yo'q, yuragi tosh odamsiz, Qo'chqor aka!"*dan ular qishloq ayolining turmush tarzini ma'lum darajada tasavvur qiladilar. Muallif ko'targan masalaning mohiyatiga kiradilar. Ayniqsa, qishloq o'quvchilari kundalik hayotida ko'rib yurgani va shunday bo'lishi kerakdek qabul qilgani bu ishlarning yukini ma'lum darajada his etadilar.

"Jiddiy gap" masalasi hal bo'lgandan keyin tahlil yo'sini xatti-harakati va gap-so'zlaridan o'ta sodda, topqir, gapga chechan, hazilkash, maqtanchoq va boshqa jihatlari bilan qishloq ahlining vakili sifatida tasvirlangan Qo'chqor timsoliga qaratiladi.

Qo'chqorning nima uchun ichib kelgani o'quvchilarga asar matni bilan tanishish asnosida ma'lum darajada ayon bo'lgan. Dastlab birgalikda mana shu holat muhokamaga tortilgani tuzuk. Spirtli ichimlik ichib mast bo'lish Qo'chqorga nima beradi? Qo'chqorning o'z hayotidan noroziligini qaysi sahnalarda ko'rish mumkin? Bu kabi savollar har qanday o'qirmanni matn mohiyatiga qayta-qayta murojaat qilishga undaydi.

Ko'rinadiki, Qo'chqor ertayu kech tinim bilmay ishlaydi, lekin biri ikki bo'lmaydi. Chunki u eng kam haq to'lanadigan ishchi kuchi. Qancha ishlagani bilan ro'shnolik ko'rmaydi. Erkak kishi bo'la turib oilasining, hyech bo'lmasa, moddiy ehtiyojlarini qondirolmaydi, o'zining otalik, erkaklik burchlarini bajarolmaydi. Sirtdan qaraganda bularga e'tibor bermagandek ko'ringani bilan u ruhan iztirobda yashaydi, shuning alamidan bir oz bo'lsada qutulish uchun ichadi. Bu unga hech qanday yordam berolmaydi, faqat bir-ikki soatga shu iztiroblarini unutadi, ozgina chalg'iydi, xolos. Aslida, uning boshqa yo'li ham yo'q, qo'lidan hech narsa kelmaydi. U shunday yashashga mahkum bo'lgan shaxs timsoli.

O'quvchilar Qo'chqorning nutqi va so'zlash tarzi asosida uning ichki dunyosini ochishga urinib ko'rganlari ma'qul. Uning nutqidan ma'lum darajada yumorga moyilligini, anchagina bilimsizligini, ayni zamonda, o'zining darajasida nimalardandir xabardorligini va nelarnidir bilishga ozgina moyilligi borligini ham payqash mumkin. Uning Olimjonga o'z uyidan joy bergani mana shu bilishga bo'lgan ehtiyojining o'ziga yarasha bir ko'rinishi. Bo'lmasa, jo'jabirday jon,

o'quvchilarining qornini zo'rg'a to'ydirib, ustini baholi qudrat butlab yashayapti. Lekin bag'rikeng.

Qo'chqor *„ko'p o'qishi"* bilan maqtanganda, erining ahvolini juda yaxshi bilgani holda ayolining nega rostini aytmay so'z o'yini qilganlari lavhasiga o'quvchilarning diqqati qaratiladi. O'zbek ayoli, eri qanday bo'lishidan qat'i nazar, uni "pir" deb bilishi, o'zi qanchalar og'ir mehnat ostida ezilganiga qaramay erini ayashi, unga achinishi o'ta samimiy aks ettirilgan. Mazkur vaziyatlarda o'quvchilar o'z onalari timsolini ko'radilar.

Olimjon bilan suhbatda Qo'chqorning: *"Bir qarasang, qo'ylarga qarab "ko'p tug'" deydi, bir qarasang, o'zbekka qarab "kam tug'" deydi..."*, - degan gapi zamiridagi tagma'noga o'quvchilarning diqqati qaratiladi. Bu gap, asli, yuqorida "jiddiylik"ning bir ko'rinishi sifatida keltirilgan. Endi uning mohiyatiga kiriladi. Nega qo'y bilan o'zbek timsollari yonma-yon keltirilayotganligini tushuntirishga uriniladi. Gap shundaki, sovetlar zamonida mamlakatimiz paxta, ipak, qorako'l va hk. qimmatbaho xom ashyolarni yetishtirib beradigan respublika deb qaralgan. Bu mahsulotlar uchun juda-juda kam haq to'langan. Shuning uchun na dehqonning, na chorvadorning, na pillakorning kosasi oqarmagan. Lekin hyech kim xuddi Qo'chqorga o'xshab hyech qachon hayotidan nolimagan, boriga shukur qilib yashayvergan. Chunki, xalq qishlog'idan chiqmasa, boshqalar qanday yashayotganini bilmasa, atrofidagi hamqishloqlarining bir-biridan deyarli farqi bo'lmasa odamzodning nima deb e'tiroz bildirishga ham aqli yetmaydi-da. Shunday bo'lgach qo'ydan farqi bo'ladimi, odamning. Masalan, hozir Afrikada yoki junglida yashayotgan odamlar ham xuddi shunday...

Olimjonning robotni maqtab: *"U faqat ishlaydi! Ishlayveradi, ishlayveradi!"* degani bilan Qo'chqorning: *"Biz ham ishlayveradi, ishlayveradi!"* degani zamiridagi haqiqatni anglashga urinib ko'ring" *ishlayveramiz..."* degani zamiridagi haqiqatni anglashga urinib ko'ring" topshirig'i berilganda o'quvchilar o'ylashi mumkin: to'g'ri, hamma jamiyatda, hamma zamonda, hamma odam ham ishlaydi. Odam mehnat qilmasa, turmush tarzi yaxshilanmaydi. Hayotda mehnat qilmay hech narsaga erishib bo'lmaydi. Barcha muvaffaqiyatlarning garovi halol mehnatdir.

Lekin gap shundaki, robotning ishlayverishi bilan odamning ishlayverishi orasida farq bor. Odam Allohning eng aziz yaratig'i sifatida mehnatiga yarasha yashashi, madaniy dam olishi, o'qib o'rganishi, dunyo ko'rishi kerak. Farzandlar tarbiyalashi kerak. Buning

uchun unga bilim, keng dunyoqarash, baland saviya kerak bo'ladi. Ma'naviy kamolot sari intilish ehtiyoji bo'lmog'i muhimdir. U jamiyatni tebratadigan kuch. Mehnat insonni ezishi mumkin emas. Yana muhim bir jihat shundaki, odam mehnatidan zavq ola bilishi zarur. Shunday asoslarga qurilgan mehnatgina odamni mukammallashtiradi. Aks holdagi mehnat odamni qullikka mahkum etadi. O'quvchilarning tafakkur yo'nalishi mana shularga qaratilsa, ta'lim jarayonidan kutilgan samaraga erishish mumkin.

Qo'chqor tilidan aytilgan: *„... Doim shu, bizga o'xshagan odam gapirsa, yo hyech kim eshitmaydi, yo eshitadigan temir chiqadi...“* tarzidagi noroziligi qanday ijtimoiy ma'noga ega deb bilasiz?" tarzidagi savol ustida o'ylash bilan o'quvchilar dramaturg ilgari surgan hayotiy haqiqatlar haqida izlanadilar. Mazkur asarda sovetlar zamonidagi oddiy mehnatkash xalqning holati aks ettirilgan va Qo'chqorning gapida jon bor. Jamiyatning eng quyi pog'onasi bo'lgan paxtakor yoki chorvador xalqning turmush tarzi, xohish-intilishlari bilan hyech kim qiziqmagan. Ularga xom ashyo yetkazib beradigan ishchi kuchi deb qaralgan xolos. Dramaturg Qo'chqorning tilidan mana shu haqiqatni anglatishga harakat qilgan.

O'quvchilar komediyadagi Alomat obraziga ham alohida munosabatlarini bildirsinlar. Dramaturg qishloqdagi haqiqiy holatni, qishloq ayollarining turmush tarzini aks ettirishda „temir xotin“ obrazidan qanday foydalangani haqida mulohaza yuritsinlar. Shu asnoda Alomat bilan Qumri o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarga o'quvchilarning diqqati qaratiladi.

Qo'chqorning: *„Qumri bilan desangiz, jim o'tirib ham gaplashaverardik. Ichimizda“*, degan gaplari bu holni izohlashga asos bo'ladi. Inson insonni, ayniqsa o'n olti yil birga yashagan yostiqdoshini tuyishi tabiiy hol. Chunki qanday yashashidan qat'i nazar, insonda ko'ngil bor, mehr, muhabbat singari tuyg'ulari bor. Ularni bir-birlari bilan bog'lab turadigan bir olam ismli-isnsiz hislar bor. Qo'chqorning Alomat bilan "chiqishib" ketolmayotganining boisi ham shundandir. O'quvchilar o'ylab ko'rishsin, o'z haqiqatlarini o'rtoqlashishsin.

Qo'chqorning: *„Qumrining qo'llari qadoq bosib, yorilib ketgan bo'lsayam, bir nimasi bor edi-da... O'sha nima ekan-a? Bo'lmasam, barmoqlarini ko'sak tilib, g'adir-budur qilib tashlagan. Qo'lidan doim kir sovun aralash tappi hidi kelib turadi. Lekin nimasidir bor edi...“* tarzidagi nadomati o'quvchilarning nazaridan chetda qolmasligi kerak.

Ular o'sha „nimadir“ haqida o'ylab ko'rishsin. Shu nimadir yuqorida aytilgan fikrlar bilan bog'liq. Buni o'quvchilarning o'zlari kashf etganlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilar asardagi: *„G'urur, qadr-qimmatingiz-chi? Mundoq o'ylab ko'ring, biron tirik jon siz bilan hisoblashadimi? Yo'q, axir! To'y-ma'rakalarda poygakda o'tirasiz“* singari achchiq gaplarga Qo'chqorning vaziyatidan kelib chiqib munosabat bildirishsin. Bu gaplarning qanchalik haqiqatga yaqinligi haqida o'ylab ko'rishsin. Nima deb o'ylasharkin, Qo'chqorda rostdan ham hech qanday g'urur, qadr-qimmat yo'qmi? Agar bor bo'lsa, ular nimalarda ko'rinishini asardan misollar keltirib ko'rsatishga harakat qilishsin. O'z ruhiyatlarini taftish qilishsin, ichlarida Qo'chqorga nisbatan qanday hislar paydo bo'ldiykin? Bu tuyg'ularni nomlashga urinib ko'rishsin. Bularning barchasi ularda shaxslik sifatlarining shakllanishiga ko'maklashadi.

O'quvchilar Qo'chqorning hayotidan hech nolimasligi sabablari haqida o'ylab ko'rishsin. Alomatning: *„Hamma gap shunda-da, nolmaysiz! Ko'nikib ketgansiz. Yaralar toshga aylangan — og'riq sezmaydi. Dod solib haqirish-ku, qo'lingizdan kelmas, hyech qursa ingrabqo'yishga ham qodir emasmisiz, Qo'chqor aka! Qalbingizning ingrabqo'yishga ham qodir emasmisiz, Qo'chqor aka! Qalbingizning unutilib ketgan, o'zingiz ham bilmaydigan burchaklarida mujmalayotgan ushoqqina norozilikdan qo'rqasiz, uni sezmaslikka olasiz!“* degan gaplarini asoslashga urinib ko'rishsin. Buning uchun matnga murojaat qilish shart emas. Bu borada har bir o'quvchining matn mazmunidan kelib chiqqan o'z xulosasi bo'ladi. Shunda ular mazkur asarning komediyadan ko'ra muhimroq bir jihatlari borligini anglab yetadilar.

Bunday vaziyatdan chiqish uchun Qo'chqor nima qilishi mumkinligi haqida ham o'ylab ko'rishsin. Muammoning yechimini topishga urinib ko'rishsin. Balki bu borada biror jo'yali fikr chiqmas, lekin asarga munosabatlari o'zgarishi aniq. Endi asarni qayta tomosha qilganda avvalgidek kula olmasliklari tayin. Yana buning ustiga „Davron suraylik“ ashulasining berilishi o'quvchilarning ruhiyatiga bir mubhamlik, og'riq soladi. Bu ham asar muallifining topqirligi, odamlarni o'ylashga undash yo'lidagi bir izlanishidir.

Olimjonning: *„Axir u temir-ku, Qo'chqor aka, temir. Uni ehtiyot qilish kerak, avaylash kerak. U o'zini o'ylamaydi. „qiynalib ketdim“ deydigan tili yo'q. Indamas ekan, deb eshakday ishlataveradimi axir!“*

tarzidagi noroziligi ham o'quvchilarning diqqatidan chetda qolmasligi kerak. Olim o'zining yaratig'i bo'lmish robotni ayayapti. Lekin jamiyat o'z a'zolarini ayash kerakligi haqida o'ylab ham ko'rmayapti. O'quvchilar mana shular haqida mulohaza yuritishlari kerak. muallif tomoshabin va o'quvchilarnining e'tiborini shularga qaratmoqchi bo'lgan.

Tarbiyalanuvchilar temir xotin Alomat bilan o'zbek ayollari hayotini solishtirib ko'rishga undalishi kerak. Alomatning halokati sabablari borasida o'ylayotgan Qo'chqorning quyidagi mulohazalariga ularning e'tibori qaratiladi: *„Xo'sh, nima ish qilipti! Hali qatorlashtirib o'quvchi tuqqani yo'q, kechalari uyqudan qolib, beshik quchoqlab chiqqani yo'q, har bir farzandi bilan ming bor kasal bo'lib, ming bor sog'aygani ham yo'q. (Hayron.) Bitta o'zbek ayoli nima ish qilsa, shuning yarmini qildi, xolos...“*. Qo'chqorning hayron bo'lishi, o'zining ayoli qilayotgan mehnatning yarmisinigina bajarib tutab ketgan temirga ajablanishi o'quvchilarni o'ylashga undashi kerak. Demak, inson temirdan qudratli. Lekin bu qudrat nazokat ramzi bo'lgan ayolni maydalab yo'q qilib borayotgani muallifni iztirobga solgan.

Komediyaning: *„Yana o'ynaylik, yana kulaylik, iqbolimiz porloq ekan, davron suraylik“* qo'shig'i bilan yakunlanishi o'z ahvolini, turmushini taftish va tahlil qila olmaslik, o'zining aslida qanday hayot kechirayotganligini bilmaslik, jamiyat ahlida mustaqil fikr va munosabatning yo'qligidan dalolat beradi. Bu insonga xos bo'lgan eng kechirib bo'lmaydigan nuqson ekanini o'quvchilar o'ylab ko'rishlari adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq keladi.

Haqiqatdan ham, kechagi jamiyatda, o'tgan asrning 60–70-yillarida shunday qo'shiq bor edi. Uning so'zini ham kimdir yozgan, yana kimdir kuy bastalagan, kimlardir ijro etgan. Ko'rinadiki, millatning ziyolilari ham shunday fikrlashgan yoki bori haqiqatni bila turib shunday yozishga va kuylashga majbur bo'lishgan.

Xullas, "Temir xotin" komediyasi kulgidan ko'ra o'ylashga, komediyadan ko'ra fojiaga, ya'ni hayotiy fojeani kulgi orqali ifodalashga yo'naltirilgan asardir.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyottanuv fanidan o'zlashtirgan bilimlaringizni xotirlagan holda dramatik turga mansub asarlarning o'ziga xos xususiyatlarini

sanab bering. Ular orasidagi umumiylik va farqli jihatlarni alohida ajratib ko'rsating.

2. Nima deb o'ydaysiz, daramatik asarlarning badiiy tahlili bilan o'quv tahlili orasida qanday tafovut bor? Fikringizni bir asar misolida asoslang.

3. Matndagi: *« ... dramatik asar personajlari nutqining bir oz «sun'iylashishi»*ni qanday tushunasiz? Qarashlaringizni asoslang.

4. *"Dramaning tragediyadan farqi shundaki, tragik konflikt qahramon ruhiyatida kechsa, dramatik konflikt qahramon bilan tashqi kuchlar orasida kechadi"* degan fikrni bir asar misolida asoslab bering.

5. Dramatik asarlarning mutolaasi haqidagi fikrga munosabat bildiring. O'zingizni bo'lajak o'qituvchi sifatida tasavvur qilib dramalardan parchalarni o'qishni mashq qiling. Tafsilotlarini o'rtoqlashing.

6. "Temir xotin" o'z mazmun-mohiyati bilan dramatik turning qaysi janriga mansub, Sizningcha? Bu asarning boshqa janrlardan farqini nimalarda ko'rish mumkin deb o'ylaysiz?

7. Tragik qahramonlar bilan dramatik yoki komik qahramonlarning har biriga xos bo'lgan xususiyatlarni ajrating va taqqoslang. Munosabat bildiring.

8. *«Dramada obyektiv ibtidoning ustuvorligi uning turli o'quvchilar tasavvurida turlicha «sahnalashtirilishi»ga asos bo'ladi"* tarzidagi qanoatni o'z so'zlaringiz bilan ifodalab bering. Fikringizni asoslang.

9. Maqoladagi: *"Boshdan oxir yengil yumorga yo'g'rilgan, bir oz fantaziya ham aks etgan bu asarda qanday jiddiy gap bo'lishi mumkin?"* degan savolni o'zingiz yanada to'ldiring. Keltirilgan namunalarga, sizningcha, yana nimalarni qo'shish mumkin?

10. Alomatning: *„Hamma gap shunda-da, nolimaysiz! Ko'nikib ketgansiz. Yaralar toshga aylangan — og'riq sezmaydi. Dod solib baqirish-ku, qo'lingizdan kelmas, hyech qursa ingrabqo'yishga ham qodir emasmisiz. Qo'chqor aka! Qalbingizning unutilib ketgan, o'zingiz ham bilmaydigan burchaklarida miltillayotgan ushoqqina norozilikdan qo'rqasiz, uni sezmaslikka olasiz!“* degan gaplarida qanchalik haqiqat bor deb o'ylaysiz? Uning fikriga qo'shilasizmi? Nega? Fikringizni asoslang.

11. Qo'chqorning hayron bo'lib: *„Xo'sh, nima ish qilipti! Hali qatorlashtirib o'quvchi tuqqani yo'q, kechalari uyqudan qolib, beshik*

quchoqlab chiqqani yo'q, har bir farzandi bilan ming bor kasal bo'lib, ming bor sog'aygani ham yo'q. Bitta o'zbek ayoli nima ish qilsa, shuning yarmini qildi, xolos..." degan gaplari bilan muallif nazarda tutgan "jiddiy gap" orasida aloqadorlik bormi, nima deb o'ylaysiz? Bor bo'lsa, u nimalarda aks etgan, Sizningcha?

12. "Temir xotin" bilan bog'liq tavsiya etilgan barcha savol va topshiriqlarga o'zingiz javob bering. Shunda ertaga o'quvchilaringizni nazorat qilish imkoniyatingiz konkretlashadi.

13. Asarda ilgari surilgan haqiqatga o'z munosabatingizni bildiring. Bu haqiqat sizni kuldirdimi yoki ta'bingizni xira qildimi? Nega shunday deb o'ylaysiz?

14. "O'tgan kunlarimiz mening taqdirimda" mavzusida insho yozing. Auditoriyada har biringizning ishingizni muhokamaga torting. Yutuq va kamchiliklarini o'rganing.

24-MAVZU. MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI O'RGANISH METODIKASI*[1]

Reja:

1. O'zbek mumtoz adabiyotining xususiyatlari va uni o'qitishdagi murakkabliklar.

2. So'fiyona ruhdagi asarlarni o'rganish ma'naviyatni tozartish garovi.

3. Mumtoz lirika va uni o'qitishdagi o'ziga xosliklar.

4. Mumtoz nasr va nasriy asarlar ustida ishlash yo'llari.

5. Liro-epik asarlarni tahlillash metodikasi.

6. Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.

O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari jahon adabiyotining eng yetuk, eng sara asarlari sirasidan joy olgan. Dunyo estetik tafakkuri taraqqiyotiga o'z ijodlari bilan ulkan hissa qo'shgan ajdodlar asrlar davomida bashariyatga ma'rifiy yuksalish, ma'naviy tozarish borasida ham saboq berib kelmoqda. Ana shu nodir adabiy bitiklarni, eng avvalo, xalq orasida targ'ib etish, kelajak avlod vakillariga o'qitish ularda jo bo'lgan badiiy yuksaklik, g'oyaviy teranlikni kishilar tushunchasiga yetkazish yo'riqlarini ishlab chiqish, takomillashtirish har doim ham muhim vazifa bo'lib kelgan.

Mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishdagi murakkabliklarning ichki va tashqi omillari mavjud. Ichki omillarga mumtoz adabiyotning shakli, mazmuni va tabiatida mavjud bo'lgan xususiyatlar kiradi. Tashqi omillar esa qarash, munosabat va yondashuvlarning turlichaligidan iboratdir.

Mumtoz adabiyot namunalarni tushunish va tushuntirishdagi murakkablik, avvalo, asarlarning lug'aviy tarkibidagi qiyinchilikda ko'rinadi. Haqiqatan, mumtoz asarlarda arxaik va o'zlashgan so'zlar ko'p qo'llangan. Olinma so'zlarning aksariyati arab va fors tillariga tegishli bo'lib, ularning lug'aviy hamda matniy (kontekstaul) ma'nosini aniqlash lozim bo'ladi. "*Agar forscha so'zlar o'zbek tiliga so'zlashuv tili orqali, adabiyot orqali va boshqa yo'llar bilan kirgan bo'lsa, arab so'zlari, birinchidan, kitob, madrasa, din orqali... kirgan. Ayrim*

[1] *** Бу чизиқ тўлдирилган проф. Бозорбой Қодировнинг "Адабиётшунослик ўқитиш муаммолари ва стратегияси" (Андижон, 2009 – 196-б.) номли монографик тадқиқот асосида тайёрланган

mutaxassislarning fikricha, hozirgi o'zbek adabiy tilida arabcha so'zlar bundan 20–25 yil ilgari lug'at tarkibining 13%idan 20%gacha bo'lgan miqdorini tashkil etgan"[1].

Ilm-fan, ta'lim, adabiyot va san'atda arab va fors tillarining mavqeyi asrlar davomida baland bo'lgan. Bir necha yuz yillar davomida ilmiy asarlarning aksari arab tilida, badiiy asarlar turkiy til bilan bir qatorda fors tilida yaratilgan. Shu bois bu ikki tilga mansub lug'aviy birliklar o'zbek so'zlashuv hamda kitobiy tilidan mustahkam joy olib, ko'plab so'zlar o'zbek tilining faol lug'at boyligiga aylangan.

Mumtoz shoirlarning deyarli barchasi arab va fors tillari mukammal o'rgatiladigan madrasalarda o'qiganlar, bu tillarda yaratilgan juda ko'p asarlarni o'qiganlar. Shoirlarning badiiy tafakkuri shu tillarda yozilgan mumtoz asarlar ta'sirida shakllangan. Ijodiy ong, badiiy tafakkurdagi tayyor forsiy, arabiy adabiy qoliplar, shakl va iboralar asarlarni yaratish jarayonida o'z- o'zidan quyilib kelavergan. Natijada o'zbek tilining faol lug'at boyligidan joy olmagan, so'zlashuv tiliga o'zlashmagan talay so'zlar mumtoz asarlarda qo'llanilgan. Ayni shu faqat badiiy asarlardagina uchrab, og'zaki tilga o'zlashmagan so'zlar mumtoz asarlarning "qiyin"ligiga sabab bo'layotgan ichki omildir. Haqiqatan ham o'qilayotgan asardagi har uch-to'rt so'zning bittasi notanish, nutqiy faoliyatda qo'llanilmagan bo'lsa, kishining ishtiyoqi so'nadi.

Mumtoz matnlarni tushunishga ularda arab va fors tillardan o'zlashgan affiks, perefiks va affiksoidlarning ko'p qo'llanishi to'siq bo'layotganligi ham haqiqat. Adabiyot o'qituvchisi mumtoz matnlarda faol qo'llanadigan qo'shimcha, qo'shimcha xarakteridagi morfemalar bilan ishlash, ularni o'quvchilarga tushuntirish bo'yicha ham izlanishi lozim bo'ladi. Keyingi murakkablik umumturkiy arxaik so'zlar, qo'shimchalarning hozirgi zamon o'zbek tilidagi muqobilini bilmaslik tufayli yuzaga chiqmoqda.

Mumtoz matnlarda qo'llangan ayrim umumturkiy va o'zlashgan so'zlarning asar yozilgan davrdagidan shakli o'zgarganligi, ma'nosi kengaygan yoki toraygani ham ularni tushunishda muayyan qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. O'quvchilar bu so'zlarning o'sha davrdagi ma'nolaridan bexabarliklari bois matn ma'nosini noto'g'ri tushunadilar.

[1] Аалиев А., Сулаймонов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан... – Т.: "Ўзбекистон", 1994. – 27-бет.

Mumtoz matnlardagi gap qurilishi ko'p hollarda o'quvchi tugul o'qituvchini ham o'ylantirib qo'yayotganligi hech kimga sir emas. Masalan: *"Elining lafzi qalam bilan rostur. Aning uchunkim, amir Alisher Navoiyning musannafoti bovuqudkim, Hirida nash'u namo topibdur, bu til biladur"* parchasidagi jumlalarning tuzilishi, ifodasi bugungi kun kitobxoniga anchayin begona. Qolaversa, ko'makchining bog'lama olib kesim bo'lib kelishi juda kam uchraganligi bois oxirgi "bu til biladir" ifodasini "bu tilni biladi" deb tushunilishi mumkin.

Shuningdek, *"Hazrati risolat zamonidin beri ul miqdor aimmai islomkim, Movarounnahrdir paydo bo'lubtur, hech viloyatin ma'lum ermaskim, muncha paydo bo'lmish bo'lg'ay"* kabi sintaktik qurilmalar notanish so'zlar lug'ati berilganda ham tarbiyalanuvchilarda boshqotirma kabi taassurot qoldiradi.

Maktabda mumtoz lirik asarlar ko'p o'rganiladi. Ular ichida tili o'ta og'ir, tasavvufiy ramzlari o'ta quyuq, ifoda tarzi murakkab bo'lgan Turdining "yod mandin kim berur yaxshi zamonlar ko'rdiman" muxammasi[1], Navoiyning tahlil va talqin borasida bir to'xtamga kelinmagan, hatto olimlarning bir-birini inkor etuvchi munozaralariga sabab bo'lgan "O'n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur" g'azali[2], mohiyati o'zbek falsafasi, adabiyotshunosligida to'liq ochib berilmagan vahdat ul-vujud ta'limoti[3] kabilar jiddiy chigalliklarga sabab bo'lmoqda. Mashrabning "Dilim daryoi nurdur, mavj urub dunyog'a sig'mamdur", "Rizo mulkidaman, halqumni tuttim tig'i Akbarga", "Junun bozorida mastmanki istig'nog'a sig'mamdur" kabi iqrorlarini tushunish uchun tasavvuf haqidagi jild-jild kitoblarni o'qish kerak bo'ladi, bu satrlarning har birini izohlashga soatlar kerak bo'ladi.

Tasavvuf ta'limoti vujudga kelib, tarqala boshlagandan buyon turli munosabatlarga, bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Buning sababi uning aql bilan idrok etilishidan ko'ra ko'ngil bilan his qilinishi, qalb bilan kashf etilishi lozim bo'lgan ruhiy amaliyot ekanligiga borib taqaladi. Qarashlar shu qadar chigal va xilma-xilki, bir qator mashhur tasavvuf namoyandalari, buyuk adiblar e'tirof etgan so'fiylik ta'limoti olimlari yoki vakillarini boshqa tariqat rahbarlari, islom olimlari inkor etadilar[4]. Ta'limotni tushunishdagi bu turfalik uning negizida vujudga

[1] Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V. Adabiyot. 7-sinf darsligi. – T.: "Sharq", 2005. – 225-b.
[2] Қосимов Б., Жўраев Н., Сулаймонова Сайёра. Ўзбек адабиёти. 10-синф, мактаб... – Т.: "Ўқитувчи", 1993. – 8-б.
[3] Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshev J. Adabiy sohalar. 9. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: "Yangiyo'l poligraph service", 2006. – 125-b.
[4] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаррам Юсуф. Тасаввуф ҳақиқати. – Т.: "Movarounnahr", 2008. – 17-бет.

kelgan tasavvuf adabiyotini tushunish, talqin qilish, tushuntirishda ham har xillik, qarama-qarshilikka sabab bo'lmoqda.

Tasavvuf – musulmon olamida keng tarqalgan va islom diniga asoslangan buyuk ta'limot. Tasavvuf orqali insoniyat Islom dinining ichki va tashqi go'zalligini, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetdi.

O'rta maktablardan tortib oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan bosqichlarda so'fiyona asarlar o'ta jo'n, ilmiy asosdan yiroq tarzda o'rgatilmoqda. Masalaning mohiyati olimlar va adabiyot muallimlarining bu ta'limotni yaxshi tushunmasliklaridadir. Muammoni bartaraf etishni quyidagilardan boshlash kerak:

1. Tasavvuf ta'limotiga oid adabiyotlar bilan tanishish va u haqdagi bilimlarni doimiy orttirib borish adabiyot o'qituvchisining o'z ustida ishlash rejasidan muqim joy olmog'i lozim. Mustaqillik sharofati bilan tasavvuf manbalari o'z tilimizda chop etila boshlandi, uning mohiyati ochib berilgan ilmiy-ommabop asarlar kitob do'konlarida. borligi mutaxassislar uchun katta imkoniyatdir.

2. Tasavvufning amaliyoti ham, unga asoslangan adabiyot ham ramzu ishoralarga boy. Ramzlarning mohiyatini anglash badiiy asarlarni to'g'ri tushunish va tushuntirishga yo'l ochadi. Bu borada Sultonmurod Olimning "Naqshband va Navoiy" kitobi alohida ahamiyatga ega. Undagi "Po'choq yegan shogird" hikoyasi orqali bu ta'limot asosida yashashning o'zi ramzlarga to'la ekanligi aks etgan[1]. Shu birgina lavhadan kitob muallifi bir nechta ishoralarni uqqan. Asarni o'qish asnosida kitobxon Navoiy asarlaridagi ko'plab ramz va ishoralar mohiyati bilan tanishadi.

3. Tasavvuf ta'limoti va adabiyoti munosabatini to'g'ri anglagan holda uni didaktik va estetik maqsadlarga yo'naltira bilish ham o'zak vazifalardan sanaladi. Ta'limot va adabiyotning chambarchas bog'liqligi S. Olimning eslatilgan asaridagi "Janoza oldidan o'qilgan bayt" bobida yaqqol aks etgan[2]. Bunda, bir tomondan, adabiyot tasavvuf ta'limotining targ'ibi uchun vosita bo'lganligini hisobga olish, ikkinchi tomondan, bu vazifani ado etish asnosida buyuk ta'limot mazmuniga mos oliy shakl yaratishga intilish natijasi o'laroq dunyo ahlini lol qoldiradigan darajada yuksak badiiy namunalar maydonga kelganini diqqat markazida tutish talab qilinadi.

[1] Султонмурод Олим. Наманган ва Нақшлар. – Т.: "Ўзбекистон", 1995. – 20–33-б.
[2] Султонмурод Олим. Наманган ва Нақшлар. – Т.: "Ўзбекистон", 1995. – 40–41-бетлар.

Ta'limning barcha bosqichlarida kuzatiladigan holat shuki, ba'zida asar mazmuni, uning zamiriga yashiringan ma'noga berilib ketib, uning badiiy asar ekanligi unutiladi, mashg'ulot diniy didaktikaga aylanib ketadi. Ko'p hollarda esa faqat shakl tahlil qilinadi, badiiy san'atlar izlanadi, vazn va qofiyaga e'tibor qaratiladi. "*Filolog o'qituvchilar bu borada ikki kategoriyaga bo'linadilar: birinchilari butunlay "estetika"ga beriladilar va bu bilan u yoki bu tarzda ijtimoiy-tarbiyaviy, ya'ni axloqiy jihatdan darsning pedagogik yo'nalganligini sun'iy ravishda kamaytiradilar; boshqalari, aksincha, adabiy asarning badiiyatini sustlashtirib, darsni didaktikaga aylantirib yuboradilar*"[1]. Buning oldini olish uchun esa o'qituvchi badiiy konstruktiv vazifalarni to'laqonli uddalashi kerak.

4. Islom dunyosining yirik allomasi Abu Homid G'azzoliy "*zohir ilmi po'st va haqiqat ilmi mag'izdur*"[2] deb yozar ekan, zohir ilmi deganda shariatni, haqiqat ilmi deganda tariqatni (tasavvufni) nazarda tutgan. Har bir narsani bilish uchun avval uning po'stiga nazar tashlanishi, ushlab ko'rilishi va uning ichida mag'iz borligini anglash talab qilinadi. So'ng bu po'st chaqilib, mag'izga qo'l uzatiladi. Po'stini chaqmay yeyishga harakat qilinsa, tish sinadi. Bu majozni keltirishdan maqsad mumtoz adabiyotni tasavvufsiz tushunish va tushuntirish mumkin emas ekan, bu ta'limotning po'sti bo'lmish shariat ilmini, hech bo'lmaganda uning asosiy tushuncha va qoidalarini muayyan darajada o'rganish har bir adabiyot o'qituvchisi uchun farz bo'lib qoladi.

5. Adabiyot o'qituvchisi davriy adabiy nashrlarda, ilmiy-adabiy to'plamlarda e'lon qilinayotgan mumtoz namunalar, xususan, tasavvuf bitiklari talqin va tahlil qilingan maqolalarni muntazam ravishda o'qib, o'rganib borishi lozim.

6. Adabiyot muallimi mutaxassis sifatida tasavvufiy istilohlarni: yor, oshiq, raqib – bosh obrazlar; gul, bulbul, sabo, tikan, may kabi poetik obrazlar; ko'z, qosh, lab, og'iz, soch, qadah, mayxona singari badiiy detallar zamirida yashiringan haqiqatni yoddan bilishi va asarlar tahlilida ularning mohiyatini o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasiga muvofiq ochib bera olishi darkor. Istilohlar amaldagi darslik hamda o'qituvchilar uchun nashr etilgan metodik qo'llanmalarda ham berilgan.

[1] Кан-Калик В.А., Хачев В.П. Психолого-педагогические основы преподавания литературы в школе. – Москва: "Наука", 1995. – С. 3.
[2] Абу Хомид Газзолий. Кимёи саодат. – Т.: "Адолат", 2005. – 56-бет.

Tasavvuf haqida qaysi sinfdan boshlab ma'lumot berish borasidagi ilk qadam tasavvuf atamasi ishlatilmagan holda 5-sinfdan boshlab qo'yilishi kerak. Dastur bo'yicha bu sinf darsligiga kiritilgan hadislar bunday deyishga asos bo'ladi. Negaki hadislar (Qur'ondan keyingi) tasavvufning asos manbasidir. Payg'ambarimizdan vorid bo'lgan barcha fikrlar, ko'rilgan harakatlar va ko'rsatmalar tasavvufning bosh g'oyasi bo'lmish komil inson sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Hadislardagi tasavvufning bag'riga jo bo'lgan axloqiy poklik, yuksak ma'naviyat targ'ibi o'quvchilarning yoshiga mos ravishda olib borilishi kerak.

Shuningdek, hadislar faqat dasturda ajratilgan soatlardagina o'qitilmaydi, ularga adabiyot, til, ma'naviyat darslarida muntazam murojaat qilinadi. Yana 5-sinfda o'qitiladigan mumtoz adiblar ijodi, shuningdek, yangi davr adabiyoti hamda folklor namunalari misolida ham tasavvufiy qarashlarga hamohang g'oyalarning o'quvchilar ongiga singdirib borilishi asta-sekin bu murakkab ta'limotni qabul qilishlari, tushunishlariga ularni ham aqlan, ham ruhan tayyorlab boradi.

XX asrgacha bo'lgan o'zbek adabiyotida she'riyat asosiy, yetakchi adabiy tur bo'lganligi tufayli adabiy ta'limda ham o'rganiladigan mumtoz namunalarning katta qismini lirik asarlar tashkil etadi. Dasturlarga kiritilgan she'rlarga nazar tashlansa, asosan asrlar davomida klassik shoirlar tomonidan keng qo'llangan janrlardan namunalar o'rganilishi nazarda tutilganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Amaldagi dasturga ko'ra: 5-sinfda Bobur ruboiylari, 6-sinfda Avaz O'tar g'azallari; 7-sinfda Turdi, Uvaysiy g'azallari va chistonlari; 8-sinfda Lutfiy g'azallari va tuyuqlari, Alisher Navoiy g'azal va qit'alari, Nodira muashsharlari; 9-sinfda Bobur g'azal, ruboiy, qit'alari, Boborahim Mashrab g'azallari, Ogahiy g'azallari, tuyuq, tarix, tarafayn, qit'a va tarji'bandi o'rganish uchun taqdim etilgan.

Ko'rinadiki, to'qqizta lirik tur janri o'rganilishi belgilab qo'yilgan: g'azal (6-, 7-, 8- va 9- sinflarda); ruboiy (5- va 9-sinflarda); tuyuq va qit'a (8- va 9- sinflarda); chiston (7-sinfda); muashshar (8-sinfda); tarix, tarafayn va tarji'band (9- sinfda). Shuningdek, mazkur janrlar hamda murabba', muxammas va musaddas 10–11-sinflar darsliklariga ham kiritilgan. Adabiy ta'lim amaliyoti bugungi kunda har bir janrning o'qitilishi yuzasidan aniq amaliy tajribalarda tasdig'ini topgan, ilmiy asoslangan metodik tavsiyalarga muhtojligi barchaga ayon bir haqiqat.

Darsliklarda g'azal janri haqidagi nazariy ma'lumotlarda quyidagi tushunchalar berilgan:

a) "g'azal" atamasi arabcha so'z bo'lib, "ayollarni maqtash, ta'riflash" ma'nosini berishi. bu janr qadimdan eng ahamiyatli va e'tiborli she'r shakli bo'lib kelganligi, deyarli barcha shoirlar unga murojaat qilganlar;

b) g'azalning shakliy tuzilishi, ya'ni baytlardan tashkil topishi, matla', maqta' va shoirning taxallusi asosan maqta'da beriladi;

v) qofiyalanishi, radifi asosan a-a, b-a, v-a, g-a... tarzida belgilanadi ma'nosi izohlanadi;

g) g'azalda qalamga olinadigan mavzularga to'xtaniladi;

d) bu she'r shaklida barcha mavzular: ijtimoiy-siyosiy, didaktik, peyzaj, narsa-buyumlar ta'rifi, biror voqea yoki shaxslarga tavsif va hokazolar talqin qilinadi;

e) g'azal asosan ishqiy mavzuda yozilganligi bois bosh obrazlar: oshiq, ma'shuqa, raqib to'g'risida ma'lumot beriladi.

G'azalning to'laqonli o'quv tahlili quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Avvalo, g'azal o'qituvchi tomonidan maromiga yetkazib (imkon qadar yoddan) o'qib eshittiriladi. Shuningdek, sinfdagi she'rni yaxshi o'qiy oladigan o'quvchilardan biriga yod oldirib o'qitsa ham bo'ladi. O'qishda albatta aruz vazni qoidalariga rioya qilgan holda she'rda ifodalangan mazmunga muvofiq ohang ham tanlanishi kerak. O'qish texnikasiga ko'ra birinchi misra oxirida ohang ko'tariladi, ikkinchi misra avvalida shu ohang ushlab turiladi va asta-sekin pasayib, bayt oxiri tugallanish ohangi bilan yakunlanadi.

2. G'azalni tinglagach, birgalikda uning qanday mavzuda yozilganligini aniqlash lozim. O'qituvchi avval boshdan g'azal mavzusini o'zi aytib qo'ymasdan, o'quvchilardan so'rashi maqsadga muvofiq. Ular ishqiy mavzu yozilgan g'azallarni darrov ilg'ay oladilar. Lekin didaktik, falsafiy, ba'zan peyzaj g'azallar mavzusini belgilashda qiynalib qolishlari mumkin. Shunda muallim she'r mavzusini qanday aniqlash lozimligini uning belgilaridan – bosh qahramon, tasvir obyekti yoki kechinmalar bayonidan kelib chiqib, tushuntirmog'i kerak.

3. G'azal qofiyasi aniqlanadi. O'quvchilarning o'zlari qofiyadosh so'zlarni topadilar. Agar g'azalda radif ishtirok etgan bo'lsa, u ham qayd etiladi. Ba'zi o'quvchilar qofiya bilan radifning farqiga bormaydilar. Doimiy ravishda she'r qofiyasi bilan ishlash bu muammoni bartaraf etadi. O'qituvchi bu jarayonda qofiyadosh

so'zlardagi raviyni ham topa olish malakasini shakllantirsa, yana ham yaxshi.

4. G'azalda ishtirok etayotgan asosiy obrazlar aniqlanadi. Ishq-muhabbat mavzusida asosiy uch obraz bor: oshiq, ma'shuqa (yor), raqib. Obrazlarga qarab g'azalning tasvirga ko'ra turi aniqlanadi: a) unda oshiqning ichki kechinmalari, oshiqona tuyg'ulari ifodalangan bo'ladi; b) agar ma'shuqa (yor) go'zalligi yoki uning xarakter xususiyatlari ifoda etilgan bo'lsa, ma'shuqa vasf qilingan g'azal sanaladi; v) aksar hollarda ushbu ikki xususiyat o'zaro aralashgan yoki uyg'unlashgan holda keladi.

O'quvchi ishqiy she'rning turini aniqlab olsa, uning didaktik tahlili xiyla osonlashadi, eng asosiysi, u ongli tarzda olib boriladi. O'quvchiga shuni tushuntirish lozimki, g'azalda oshiq kechinmalari, ma'shuqa vasfi muhabbat mavzusidagi g'azallarning asosiy mazmuni bo'ladi, lekin hech bir g'azalda raqib mavzuni ochuvchi obraz bo'lolmaydi. Hech bir g'azalda raqibning kechinmalari, uning portreti tasvir obyekti bo'lgan emas.

Didaktik g'azallarda bosh obraz hayot haqiqatlari, inson hayoti mohiyati to'g'risida fikr yuritayotgan donishmand shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ko'p hollarda bu shoirning o'y-mulohazalari sifatida olinadi.

Peyzaj g'azallarda bosh obraz tabiat bo'ladi. Unda biror yilning fasli (qish, bahor, kuz, yoz), tabiat hodisasi (yomg'ir, shamol), daraxt, meva kabilar tasvir obyekti sifatida olinadi va lirik qahramon kechinmalari ifodasi uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ko'p hollarda tabiat timsoli ishqiy kechinmalar izhori yoki jamiyat voqeliklari talqini bilan uyg'unlashib ketishiga tarbiyalanuvchilar e'tiborini qaratish kerak bo'ladi.

Rindona g'azallarda markaziy qahramon rind yoki may bo'ladi. Unda ba'zan soqiy ham bosh obraz bo'lishi mumkin. Bu obrazlar ko'pincha ramz bo'lib, ularning haqiqiy ma'nosini bilish uchun yuqorida keltirilgan tasavvufiy istilohlar to'g'risida tushuncha bo'lishi kerak. Yo'qsa, o'quvchi bunday g'azallarning, undagi obrazlarning faqatgina zohiriy ma'nosini o'zlashtiradi xolos.

5. Asosiy obrazlar aniqlab olingach, har bir bosh obraz atrofida guruhlangan poetik obrazlarni ajratib olmoq kerak bo'ladi. Poetik obrazlar bosh obrazning qay jihati, xarakter xususiyatining qaysi qirrasi

yoritilayotganini aniq, ravshan his etish, anglash va shoir mahoratini idrok qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida g'azaldagi har bir poetik obrazning qanday badiiy vazifa bilan xoslanganligini aniqlab olishi va tahlili davomida o'quvchilarni ana shu vazifani anglashlari tomon yo'naltirmog'i g'oyat muhim didaktik yumushlardan biri sanaladi.

6. Voqelikni majoz va haqiqat yo'li bilan tasvirlashga ko'ra o'rganilayotgan g'azalning qaysi guruhga mansubligi belgilab olinadi. Shoir yoki uning o'rganilayotgan g'azali qay usulda ekanligini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu vazifa, avvalo, o'qituvchi uchun bo'lib, tahlilni qay yo'sinda olib borish kerak ekanligini aniqlab oladi. Ko'p darsliklar va ularning mazmuni asosida yaratilgan metodik qo'llanmalarda g'azallarning faqat zohiriy ma'nosigina talqin etilgan, botiniy ma'nosi to'g'risida so'z yuritilmagan.

O'qituvchi o'z imkoniyatidan kelib chiqib, agar g'azallarining botinidagi mohiyatni ochib bera olsa, tahlilda bunga qo'l urishi kerak, yo'qsa, kitoblardagi sharh bilan kifoyalanishi mumkin. Lekin ular ham juda qisqa, mavhum bo'lib, ko'p qo'shimcha izoh, tahlilni talab qiladi.

7. Shundan so'ng har bir bayt alohida olinib o'qiladi, mazmuni sharhlanadi. Sharhda avval bayt mazmuni aniqlanadi. So'ng fikrning qanday ifoda etilayotganligi, bu boradagi shoir mahorati nimada ko'ringaniga diqqat qaratiladi. O'quvchilar oddiygina fikr shoir tomonidan qay tarzda va qanday shoirona berilganligini anglab his etishlari va bundan zavqlanishlari darkor. Shundagina ko'zlangan maqsad amalga oshgan bo'ladi.

8. Baytlarni tahlillash asnosida yoki g'azalni to'liq tahlil qilib bo'lgach, ularda qo'llangan badiiy san'atlar ham sharhlanadi. Faqat shunga diqqat qaratish lozimki, she'riy san'atlarni shunchaki fakt sifatida qayd etib qo'yish noto'g'ri yondashuv. Har bir qo'llangan badiiy tasvir vositasi she'r badiiyatiga nima beryapti, uning fikrni ifodalashdagi ahamiyati nimadan iborat bo'lmoqda kabi savollarga javob topish talab qilinishi lozim.

9. Agar o'qituvchi bungacha aruz vazni to'g'risida o'quvchilarga tushuncha bergan bo'lsa, o'rganilayotgan g'azal vaznini topishni topshiriq qilib bersa bo'ladi. Agar o'quvchilar vaznni aniqlashga qiynalishsa, o'qituvchining o'zi yordam berishi kerak. Qiyin va murakkab vaznda yozilgan g'azallarni o'qituvchi faqat qaysi o'lchovda yozilganligini qayd etib qo'yish bilan cheklanishi mumkin.

10. Tahlil tugagach, adabiyot muallimi o'quvchilaridan g'azaldan olgan taassurotlarini so'raydi.

11. Vaqt bo'lsa, bir necha o'quvchiga g'azalni ifodali o'qitib ko'rish kerak. O'qishda ularning vazn talablariga rioya qilayotganliklari muhim. G'azal tinglangach, muallim o'quvchining o'qishdagi yutuq va kamchiliklarini ko'rsatib berishi shart, toki boshqalarga ibrat bo'lsin.

Ruboiy ham Sharq adabiyotida keng tarqalgan, qalam ahli orasida baland nufuzga ega janrdir. O'zbek mumtoz shoirlarining bir qanchasi bu janrda barakali ijod etganlar. Shu sababli adabiy ta'limda ruboiyda ilgaridan davomli tarzda o'qitib kelingan. Mustaqillik yillari adabiy ta'limida 5–11-sinflar "Adabiyot" darsliklarida (8-sinf darsligi bundan mustasno) Navoiy, Bobur, Umar Xayyom, Pahlavon Mahmud, Munis, Ogahiy ruboiylari joy olgan. Ruboiy haqida o'zbek adabiyotshunosligida talay ishlar qilingan, ko'plab maqolalar yozilgan, ilmiy risolalar chop etilgan.

Nasr mumtoz adabiyotda unchalik katta o'rin egallamaydi. Adabiyot tarixida bu adabiy turda qalam tebratgan adiblar ko'p emas. Aksariyati diniy didaktika bilan yo'g'rilgani bois sho'rolar davrida ularning aksariyati adabiy ta'limda o'rganish obyekti qilib olinmagan edi. Faqat "Boburnoma" va "Zarbulmasal"dan parchalar o'rganilgan xolos. Mustaqillikdan keyin umumta'lim maktablari adabiyot dasturlariga almashinib bo'lsa-da, mumtoz nosirlarning deyarli barchasi kiritildi. Dasturlardan asrlar davomida sevib o'qib kelingan quyidagi o'n adibning badiiy-didaktik jihatdan yuksak nasriy ijod namunalari: Kaykovusning "Qobusnoma"si; Sa'diy Sheroziyning "Guliston" "Bo'ston"; Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy"; Sayfi Saroyi qalamiga maensub "Guliston bit-turkiy"; Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Tarixi muluki ajam", "Muhokamat ul-lug'atayn"; Boburning "Boburnoma"; Xoja qalamiga mansub "Mifloh ul-adl", "Gulzor"; Mashrab qalamiga mansub "Qissasi Mashrab"; Gulxaniyning "Zarbulmasal" va Almaiy ijodidan "Kalila va Dimnayi Turkiy" kabilar har xil o'quv yillaridagi "Adabiyot" darsliklaridan o'rin olgan.

Darsliklarga kiritilgan nasriy asarlar mazmunini mumtoz hikoyalar, qissadan parchalar, masallar, ilmiy hamda ilmiy-badiiy asarlardan parchalar va pandlar tashkil etadi. Ularning aksariyatida diniy-didaktika, diniy tushunchalar, islom tarixi bilan bog'liq dalillar tasviri yetakchilik qiladi.

Sharqda keng tarqalgan mumtoz nasr janri hikoyadir. Badiiy va ilmiy adabiyotlarda ko'pincha hikoyat tarzida istifoda etiladi. Mumtoz hikoyatning janr belgilari:

a) asosan didaktik mavzuda yaratilib, ibrat, nasihat asosiy maqsad qilib qo'yiladi;

b) bosh obraz sifatida aksar hollarda tarixiy shaxslar olinadi, to'qima obrazlar juda kam bo'ladi va bo'lsa ham ularga ism qo'yilmay, "bir kishi", "odil bir podsho", "piri komil", "taqvodor zohid" kabi umumiy tarzda beriladi;

v) hajmi kichik, muxtasar bo'ladi, asosan bir, ba'zan undan ortiq hayotiy lavha qisqa dialoglar bilan ko'rsatilib, muhim bir hayotiy haqiqatni, ibratni ochiq yoki ramz bilan bayon etadi;

g) o'ziga xos siqiq kompozitsiya va tugal mazmunga ega bo'lib, hikoyat oxirida nasriy yoki she'riy tarzda "qissadan hissa" chiqariladi;

d) hikoyatlarning tili murakkab bo'lmasligi, ifoda xalq og'zaki ijodiga yaqin turmoqligi lozim. O'qituvchi janrning bu xususiyatlarini yaxshi bilishi, tahlil davomida ularni inobatga olib, tegishli sinflarda nazariy ma'lumot sifatida o'tishi kerak bo'ladi.

Hikoyatlar ustida ishlash tajribasi masallarni o'rganishda qo'l keladi. Bu ikki janrning xususiyatlari bir-biriga yaqin. Farqi shundaki, hikoyatning timsollari asosan tarixiy shaxslar bo'lsa, masalda hayvonlar, qushlar, ba'zan predmetlar bosh obraz sifatida ishtirok etadi. Shu jihati bilan ular majoziy ertaklarga yaqin turadi. Masalni hikoyat bilan ertakning xususiyatlarini o'zida jamlagan janr desak, xato bo'lmaydi. Masallar ustida ishlash ham quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. *Matn bilan tanishuv*. Masaldagi har uch yoki to'rtta gap bittadan o'quvchiga o'qittiriladi va shu o'qilganlar mazmuni o'zlashtirilib boriladi. Har bir o'quvchi o'zi o'qiyotgan gaplarni darslikda berilgan lug'at yordamida tushuntirib, izohlab boradi. O'qituvchi va boshqa o'quvchilar uni kuzatib boradilar, yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni tuzatadilar. Matn hajmi uncha katta bo'lmasa, uni bir yoki ikki o'quvchi o'qib, sharhlaydi.

2. *Mazmunni qayta so'zlatish* (quyi sinflarda). Ba'zi o'quvchilarga to'liq yoki ikki, uch bo'lib syujetni so'zlab berish topshirig'i beriladi. Shunda matn mazmunini to'liq tushunolmagan o'quvchilarga kemtiklikni to'ldirish imkoniyati tug'iladi. Qolaversa, o'quvchilarning og'zaki nutqi ham rivojlanadi.

3. *Obrazlar ustida ishlash*. Bosh obrazlarni tahlillash uchun o'qituvchida oldindan tayyorlangan savol va topshiriqlar bo'lishi kerak.

4. *Qissadan hissa chiqarish*, ya'ni xulosalash. Bu vazifa ham sinfga berilgan savollar vositasida bajariladi.

5. *Masaldan hayotiy umumlashmalar chiqarish*. Masaldan qanday ibrat olingani, hayotda, o'qigan biror asar, ko'rilgan kino yoki sahna asarlarida masaldagi obrazlarga o'xshash odamlar, ular o'rtasidagi kechmishga monand voqealar aniqlanadi.

6. *Masal badiiyati ustida ishlash*. O'qituvchi asar badiiyatini his qilishga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar qo'yadi.

Mumtoz adiblarning liro-epik asarlaridan namunalar o'rta maktabda barcha (V–XI) sinflarda o'qitiladi. Bu turdagi ko'rkam bitiklar o'quvchilarning hayotni epik ko'lamda idrok etish, odam, olam va Yaratgan oldidagi burch, mas'uliyatni anglash, har bir hodisa, tasvir, narsa zamiridagi botiniy haqiqatlarni his etish qobiliyatini shakllantiradi, rivojlantiradi. Ma'lumki, Sharq mumtoz adabiyotida ramziylik tasvirning yetakchi usuli sanaladi. Shuning uchun hayot voqeliklari epik ko'lamda hissiy munosabat tarzida tasvirlangan asarlarni o'qitishda syujet voqealarining zohiriy mazmunini bayon etish bilangina cheklanib qolmay, ular vositasida talqin etilgan, ramz tili bilan bayon qilingan mohiyat sharhlanishi lozim.

Mustaqillikdan keyin yaratilgan darsliklarda liro-epik asarlarni o'qitish yuzasidan yaxshi bir tajriba qo'llab ko'rildi va amaliyotda kutilgan natijalarni berdi. Unga ko'ra asardan olingan parchalar keltirilar ekan, asar syujeti haqida to'liqroq tasavvur uyg'otish uchun avval nasriy boshlanma va turli o'rinlardan olingan qismlarini o'zaro bog'lash maqsadida nasriy izohlar berib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy ta'limda liro-epik asarlarni o'qitish o'quvchilarning hayotni epik ko'lamda idrok etish, odam, olam va Yaratgan oldidagi burch, mas'uliyatni anglash, har bir hodisa, tasvir, narsa zamiridagi ishoralar bilan bayon etilgan, ramz vositasida tasvirlangan botiniy haqiqatlarni anglash, his etish qobiliyatini shakllantiradi, rivojlantiradi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Sariq devni minib

O'quvchilarning sevimli yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboevning «Sariq devni minib» romanidan berilgan parchani o'qib o'rganish uchun dasturda to'rt soat ajratilgan va uni o'rganishga yondashuv quyidagicha belgilangan: *"Roman qahramoni — Hoshimjon sarguzashtlarining obraz tabiati bilan uyg'unligi. Hoshimjondagi yolqovlik va intizomsizlik qusurlarining qahramon taqdirini nojoiz yo'lларga solib yuborganligi va bu holning ta'sirchan ifodalanishi.*

Roman qahramon tabiatidagi quvnoqlik, topqirlik, hozirjavoblik, qo'rnmsizlik singari xislatlarning asar voqealari rivojidagi o'rni. Qalpoqcha yordamida "ulg'aygan" va turli ixtisoslikni "egallagan" Hoshimjonning har safar chuv tushishi sabablari, qahramon tabiatining yoqimli va noxush jihatlari hamda ular o'rtasidagi aloqadorlik. Asar tilining o'ziga xosligi[1].

Bu darsni «Sariq devni minib» romanini kimlar oldin o'qib chiqqanini aniqlashdan boshlagan maqsadga muvofiq ko'rinadi. Shunda asarni mutolaa qilgan o'quvchilar romanning syujetini, bosh qahramon Hoshimjonni, uning sarguzashtlarini xotiralarida tiklaydilar. Bu shubhasiz, ularni oz bo'lsa-da, hayajonga soladi, bezovta qiladi. Bu asarni o'qimagan o'quvchilar ham bu bezovtalikka befarq qolmaydilar. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar tabiatan atrofidagilarning xatti-harakatiga qiziquvchan, hatto ergashuvchan bo'ladilar.

O'qituvchi o'quvchilarni ruhiy muvozanatdan chiqarib bezovta qilib olgandan keyin, o'sha asarni yozgan adibning hayot va ijod yo'li haqida darslikda berilgan ma'lumotlarga qo'shimcha quyidagi xotiralarini aytib berish o'quvchilarda shunday qiziqarli romanni yoza olgan odamning shaxsiga ijobiy munosabat uyg'otadi. Gap o'qituvchi tomonidan qiziqarli va tesha tegmagan dalillarning keltirilishida:

"Ota-onadan yetim qolganman. Asosan dehqon bobomning, ostona hatlab ko'chaga chiqmagan momomning qo'llarida ulg'ayganman. Oyat, ertak, rivoyat, dostonlarni momomdan tinglaganman. Bobom rahmatlik nihoyatda qattiqqo'l odam bo'lganlar. O'zlari dam olish nimaligini bilmaganlar, shundanmi,

[1] O'quv dastur. Adabiyot. T.: IDM, 2017.

"Charchadim",- degan so'zni eshitishga toqatlari yo'q edi. Bir safar teshani qaytib joyiga qo'ymaganim uchun jazolaganlar.

Na oilamizda, na qishloqda mendagi so'zga moyillik tuyg'usining ko'karishiga sharoit bo'lgan. Esimda, qishlog'imizda Hodixon eshon, Qirg'iz domla, Shodivoy qori, Rayim qori degan kitobxon ma'rifatli bo'lishgan. "Matmusa bobonikiga obboring",- deb yig'laganlarim esimda... Kitob ko'rgan odamlarning suhbatiga mushtoq bo'lib kechalari fonus ko'tarib eshikma-eshik yurardik...

Qora jomadon ko'tarib, ko'zim yonib, zo'r ishtiyoq bilan Toshkentga kelganman. SAGU[1]ning logika-psixologiya bo'limiga o'qishga kirganman.

O'quvchilar olamiga kirish uchun ular darajasiga pasayibroq kelish va o'quvchilar ichki dunyosidan xabardor bo'lish kerak. O'quvchi nimaga qiziqadiyu nimani hazm qila oladi, nimalarni istaydi – shularni hisobga olish darkor.

Men o'quvchilar haqida asar yozishdan oldin asar qahramoni qaysi yoshda ekanligini aniqlab olaman. Keyin shu yoshdagi o'quvchilar bilan suhbatlashaman, ularning ichki olamiga sho'ng'ib kiraman. Natijada o'quvchining tilini, uning ruhiyatini o'rganaman. Shundan keyingina yozilishi kerak bo'lgan asarni yozishga kirishaman. Yozayotgan paytimda esa xuddi o'sha o'quvchi (qahramon)ning o'ziga aylanaman. O'zingiz bir o'ylab ko'ring, agar men Hoshimjon bo'lolmasam, «Sariq devni minib»ni yozolardimmi..."[2]

Darslikda adibning tarjimai holiga bag'ishlangan ilmiy maqola yillar hisobidagi ma'lumotnomaga o'xshaydi.[3]. O'qituvchi o'qib bergan xotiralardagi – «Ota-onamdan yetim qolganman» tarzidagi birinchi jumlaning o'ziyoq o'quvchilar diqqatini tortadi, ularning ko'nglida qandaydir tuyg'ular uyg'otadi. Balki bu rahmdillikdir, balki achinishdir. Yozuvchining «Oyat, ertak, rivoyatlarni momomdan tinglaganman» degani ularni bu holatdan olib chiqadi. Chunki ertak, rivoyatlar tinglash, ayniqsa, ularni buvilardan eshitish yoqimli jarayon. Bobosining dam olish nimaligini bilmagani, «charchadim» degan so'zni eshitishni yoqtirmagani – bu hayot. Adibning teshani joyiga qo'ymagani uchun jazo olgani – o'quvchilarga xosbo'lgan umumiy

[1] SAGU – [illegible]

[2] Ziyouz kutubxonasi www.ziyouz.com kutubxonasidan olindi. Sayt ma'muri: Nurmuhammad Abdurahmon o'g'li

[3] Matmusa Qurbon. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. I qism. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 6-nashri. – T.: "Sharq", 2017. – 59–81-b.

ko'rgulik. Demak, o'quvchilar bilan mashhur adib hayotlarida qandaydir uyg'unlik, umumiylik bor. O'quvchilar shu tariqa yozuvchini yaxshi ko'ra boshlashadi.

Maqolaning keyingi xatboshisida adibning «Matmusa bobonikiga obboring» deb yig'laganiga o'quvchilarning diqqatini jalb qilish kerak. Xo'sh, bo'lajak yozuvchida bu istak nega kuchli edi? Bu nimaning dalolati? «Kitob ko'rgan odamlar»ning suhbatiga xalq nega mushtoq bo'lgan? Matndagi shu o'rinlar, yorqin manzaralar o'quvchilarning ko'nglida iz qoldirishi tabiiy. Agar o'quvchi adibning «ko'zlari yonib, zo'r ishtiyoq bilan Toshkentga kelgani» sabablarini topishga, uni tahlil qilishga e'tibor qaratib, munosabat bildirsa, bu faoliyat samarali bo'lishi tayin.

Matnning keyingi xatboshisi uning yozuvchi sifatidagi faoliyati haqida o'quvchilarga bilim beradi. O'quvchilar yozuvchisi bo'lish bilan bog'liq xususiyatlar ham tarbiyalanuvchilar diqqatini tortishi aniq. Adibning: *«O'zingiz bir o'ylab ko'ring, agar men Hoshimjon bo'lolmasam, «Sariq devni minib»ni yoza olardimmi?.."* savoliga o'quvchilar munosabat bildirishsin. Hoshimjonning o'rnigav yozuvchini qo'yib ko'rishsin. Tasavvur qilishsin. Hoshimjon obrazi qanday paydo bo'lgani haqida suhbatlashishsin. O'quvchilar darslikdagi maqolada sanab o'tilgan bir qator asarlardan ayrimlarini o'qigandir? Bu darslik bilan yuzma-yuz ishlash jarayonida talabaga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

«Sariq devni minib» romanining qanday dunyoga kelgani nafaqat bugungi o'quvchilarni, balki uni o'qib katta bo'lganlarni ham qiziqtiradi.

Faqat bir narsani qat'iy ta'kidlash joizki, 5-6-sinflarda adiblarning tarjimai holiga doir darslikdagi ma'lumotlarni o'rgatish, ularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qilish uchun o'qituvchilar **alohida vaqt sarflashlari kerak emas**. Yozuvchilarning umrbayoniga daxldor ma'lumotlar o'quvchilarning o'zlari tomonidan mustaqil o'rganilishi lozim.

Romandan olingan parchani o'qishni birinchi soatning o'zidayoq boshlash kerak. Asarning ichiga kirib borilgani sari o'quvchilar romanga, uning qahramoni va muallifiga qiziqib qolishlari tabiiy. Albatta darslikda «Sariq devni minib» romanini to'liq berishning ham, darsda uni to'lig'icha o'rganishning ham imkoni yo'q. Bu dasturda ham ko'zda tutilmaydi. Berilgan imkoniyatdan unumliroq foydalanish

maqsadida romanning ayrim qiziqarli deb topilgan boblari ajratib olingan. Romandan berilgan boblarni darsda o'qituvchi o'qydi. Agar sinfda o'qituvchining o'ziday ifodali o'qiy oladigan, layoqatli o'quvchi bo'lsa, o'qituvchi unga oldindan asar matnini o'qishga tayyorgarlik ko'rishni topshirgani, o'quvchi matnni ifodali o'qiy olishga hozirlangani ma'qul. Lekin, oltinchi sinf o'quvchilari orasida bunday iqtidorli, matnni o'qituvchidek ifodali o'qiy biladigan o'quvchining bo'lishi kam uchraydigan hodisa. Yana kim biladi! Lekin agar matn *ifodali o'qilmasa*, bor jozibasini, ta'sir qudratini yo'qotib qo'yishi mumkinligini unutishga o'qituvchining haqqi yo'q.

O'qituvchi dasturda rejalashtirilgan to'rt soatda asar matnini sinfda to'liq o'qib, tahlil qilish hamda saguzasht asar haqidagi nazariy ma'lumotni o'zlashtirishga erishishi lozim bo'ladi. Belgilangan soatlarning birinchisi mobaynida «Ko'chaga quvildim» deb nomlangan birinchi, ikkinchisida «Baxtim kulib boqqan edi» sarlavhali uchinchi va «Hashoratni kaltaklashga buyurdim» tarzida nomlangan to'rtinchi, uchinchi soatda esa, «Qofiya bozori qaydadir» nomli beshinchi hamda «Qaerdasan, maktabim» deb atalgan to'qqizinchi boblarini o'qishga ulgurish zarur.

Chunki berilgan matnning umumiy hajmidan kelib chiqib, har sahifani o'qish uchun ikki daqiqadan vaqt sarflangan taqdirda ham matnni o'qish uchun uch soat kifoya qiladi. To'g'ri, matnni ichdan o'qishga qaraganda ifodali o'qishga ko'proq vaqt sarflanadi. Darsning tashkiliy qismlari ham vaqt talab qilishini inobatga olib, matnning qandaydir qismini o'qishga ulgurilmagan taqdirda ham qolganini o'quvchilarga uyda o'qib kelishni topshirish mumkin bo'ladi. Uchinchi va oxirgi to'rtinchi soatni to'lig'icha matnning didaktik tahliliga bag'ishlash mumkin. Sarguzasht asarga xos nazariy tushunchalarni esa o'quvchilar o'zlari o'zlashtirishlariga qo'yib bergan ma'qul.

O'qituvchida mazkur to'rt soatni boshqacharoq taqsimlash imkoni ham yo'q emas. Agar o'qituvchi va o'quvchilar kelishgan holda (bunday o'rinlarni o'quvchilar bilan maslahatlashgan, ularning xohish-istaklarini inobatga olgan holda hal etilishi tarbiyalanuvchilarda katta taassurot qoldiradi) matnni bo'laklarga bo'lib olib, bir qismini sinfda o'qib, o'sha qismini shu darsning o'zida tahlil qilish, qolgan qismini kelasi darsda shu tarzda o'rganish ham mumkin. Yoki asarning biror qismini o'quvchilarga uyda o'qib kelishga topshirib, darsda faqat muhokama bilan shug'ullanish ham yaxshi samara berishi tayin.

Umuman, bu jarayonni qanday tashkil etish dars egalarining, teng huquqli subyektlarning ixtiyorida.

Biz taklif etayotgan usul bo'yicha matnning sinfda o'qituvchi tomonidan o'qilishi jarayonida o'quvchilar o'z darsliklaridan u bilan birga kuzatib bormog'i, butun diqqati bilan kitobga qaramoqlari ularni chalg'ishlardan saqlaydi. Bundan tashqari, o'qituvchi mutolaa jarayonida mantiqiy urg'u berilishi lozim bo'lgan o'rinlarni ta'kidlashi, o'quvchilar esa matnning shu qismiga qalam bilan belgilar qo'yib ketishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday qilinganda matn o'qib bo'lingach, uning didaktik tahliliga tayyorlanishda yoki savol-topshiriqlar bilan ishlash jarayonida ortiqcha qidirishlardan, vaqtni bekorchi sarflashdan saqlaniladi. Bunday ish tutimiga o'rgangan o'quvchida boshqa kitoblarni o'qish jarayonida ham matn mazmunidagi muhimni nomuhimdan ajratib olish ko'nikmasi shakllanadi.

O'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida matn yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar bilan alohida ishlashi, o'quvchilar e'tibor qaratishi lozim bo'lgan o'rinlarni belgilab qo'yishi kerak bo'ladi. Toki matnni sinfda tahlil qilish vaqtida jonli muloqot vaziyati yuzaga kelsin. O'quvchilarning vaqti jo'n, o'ylash va aqliy zo'riqish talab etilmaydigan narsalarga sarf qilinmasin.

Darslikda matnga doir o'n to'rtta savol-topshiriq berilgan. O'qituvchi ularni matnning qaysi boblariga tegishli ekaniga qarab taqsimlashi, har bir darsning oxirida shu savol-topshiriqlar bilan uyda ishlashni vazifa qilib bergani ma'qul.

Birinchi bob mutolaasi davomida o'qituvchi o'quvchilar faqat voqealar rivojini kuzatib borishidan tashqari Hoshimjonaing tabiatiga xos bo'lgan jihatlarga e'tiborini qaratishini ham unutmasligi kerak. Hoshimjonning xarakteriga xos erkinlikni, ko'p mulohaza qilib o'tirmay, xayoliga kelgan, o'ziga ma'qul bo'lib ko'ringan ishni bajarib ketaveradigan, tavakkalchi, qaytmas, aqlidan ko'ra ko'proq hissiyotlarining yetovida yuradigan o'smir ekanligini ko'rsatadigan jihatlarga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Hoshimjonning o'zgalarni his qilmaslik, ularni ayashni bilmaslik singari nuqsonlari bo'rtib ko'ringan o'rinlarga ham o'quvchilarning diqqatini tortish zarur.

Yozuvchining asar qahramoniga xos xarakterni, uning ruhiy olamini ocha olish mahorati borasida ham o'quvchilarning fikrini bilish

kerak. Oyisi baholari haqida so'raganda Hoshimjonning dadil, hazil aralash erkin javoblar berishi, maktab direktori nomiga yozgan g'aroyib arizasi va uning bema'ni ekanligini his qilib turgani holda direktorga olib kirishi, direktorning savoliga erkin rad javobini bera olishi o'quvchilar uchun g'ayrioddiyroq tuyuladi. Lekin shuncha «gunohlar» qilgan Hoshimjonni o'quvchilar yomon ko'rib qolishmaydi. Nega shunday? Hoshimjon qanday o'quvchi o'zi? Hoshimjondagi topqirlik, jur'atlilik, dadillik sifatlari fazilatga aylanishi mumkinmi?

Eslasa, o'zining ham «yuragi orqaga tortib ketadigan» kunda o'z nohaqligini bila turib, aybsiz o'rtog'ini do'pposlagani, bundan «o'zida yo'q shod» bo'lgani, hyech ikkilanmay, yuzi qizarmay yolg'on gapiraverishi, qo'rqmay jurnalga, o'zi qolib, o'rtog'iga ham «a'lo» baholar qo'yib, kamiga chorak baholarni ham chiqarib qo'ygani kabi qusurlarini uyalmay, kitobxonning uni yomon ko'rib qolishidan cho'chimay ochiq-oydin hikoya qilib berayotgani o'quvchilarda qanday tuyg'ular qo'zg'ayotganligiga e'tibor qaratilishi zarur.

O'quvchilar o'z sezimlarining ijtimoiy, xulqiy, maishiy asoslarini qanchalik chuqur bilsalar, shaxs sifatida shakllanish yo'lida shunchalik tezlik bilan borayotgan bo'lishadi. Sinfdagi o'quvchilar qahramonning qiliqlarini yoqtirmaydilar, ma'qullamaydilar, lekin undan nafratlanmaydilar ham, uni yomon ko'rib ham qolmaydilar. Nega shunday? O'quvchilar e'tibori shu singari murakkab jihatlarga qaratilganda ular matnni titkilay boshlaydilar. Qidirish jarayonida ular matn ichiga chuqurroq kiradilar. Qahramonning hatti-harakatlarini izohlaydigan jihatlarni matndan topmoqchi bo'lishadi va shu asnoda matnning jozibasini, hajviy so'zning imkoniyatlarini teranroq his qilib borishadi.

Shuncha qusurlari bor bo'lgan Hoshimjon begunoh o'rtog'ini jabrlanishdan saqlab qolishga o'zida kuch topa olganligiga o'quvchilar diqqat qilishlari lozim. O'zining ta'biri bilan aytganda «obro'yi ikki pul bo'ldi», lekin gunohini shartta bo'yniga oldi. Hoshimjonning bu hatti-harakatini qanday baholash mumkin? Shuncha kamchiliklari bor Hoshimjon o'quvchilarning nazarida bu xildagi olijanoblikka qodirmi? Shu o'rinda yozuvchi xato qilmaganmikin, qahramonning tabiatiga zug'um o'tkazmaganmikin?

Bu savollar haqida o'quvchilar jiddiy bosh qotirishlari lozim. Ularning javoblari xilma-xil, biri ikkinchisiga mos kelmaydigan bo'lishi tabiiy va o'qituvchi bundan norozi bo'lmasligi kerak. Chunki

har bir o'quvchi o'z axloqiy mezoni, aqliy-ma'naviy darajasi, hayotiy-xulqiy tajribasi, otlaviy aqidalariga tayanib xulosa chiqaradi. Shuningdek, o'quvchilar o'z qarashlarini, albatta, matnga tayangan holda asoslashlari lozim. Shu narsa muhimki, adabiyot mashg'ulotlarida matn birlamchi asos bo'lishi lozim. Mustaqil fikr azbaroyi mustaqil bo'lganligi uchun emas, balki matnning yashirin, ko'zdan yashirin jihatlarini ilg'ashning mahsuli bo'lganligi uchun ham qadrlidir.

O'quvchilarning e'tibori Hoshimjonning qishloqdan ketish arafasida qishlog'i, anhor, bog'lar, ayniqsa, «yo'l yoqasidagi azim yong'oqlar» bilan xayrlashishi lavhasiga qaratilishi zarur. Ularga o'zining yetkazgan jabrlarini: tosh otishi, shoxini sindirishi, tanasiga mix qoqib ozor berishini tan olib, ulardan uzr so'raganday murojaat qildi. O'z bema'niliklari uchun onasidan xayolan kechirim so'raydi, himoyachisiz qolayotgan singillariga achinadi, xatto «chala qolgan uy vazifalari» bilan ham xayrlashishni unutmaydi. Bu nimadan dalolat? Qahramonning «ko'zi jiqqa yosh»ga to'lgan holda qishlog'idan chiqib ketishi nimaning nishonasi? Hoshimjonning shuhrat va omad izlab qishlog'idan chiqib ketishi yozuvchi tomonidan yetarli dalillanganmi? Mana shu singari masalalarga o'quvchilar e'tiborini jalb qilishga, ularni mushohada yuritishga undash hayot haqida, odam haqida, hozirgina o'qigani asar qahramoni to'g'risida jiddiyroq o'ylashga majbur qiladi.

Romandan olingan «Baxtim kulib boqqan edi» deb nomlanuvchi uchinchi bobni o'qish jarayonida o'quvchilarning e'tiborini Hoshimjonning xatti-harakatidagi bilimsizlikni namoyish etuvchi o'rinlarga tortish, uning mehnat qilayotgan o'quvchilarga munosabatidagi yoqimli-yoqimsiz qiliqlariga qaratish, «qalpoq» mojarosi tufayli «yuzi shuvit» bo'lganining e'tirofiga tortish kerak bo'ladi. O'quvchilar bobning nomlanishiga diqqat qilishlari lozim. Hoshimjonning shu bobdagi holatini «baxti kulib boqqan»ga yo'yish mumkinmi? Uning o'quvchilar bilan munosabatdagi nosamimiyligi o'quvchilarda yoqimsiz taassurot uyg'otmadimikin? Asar qahramonining g'ashga tegadigan xususiyatlari haqida o'quvchilar mulohaza yuritib ko'rishlari foydali bo'lardi.

Asarning «Hashoratni kaltaklashga buyurdim» tarzida nomlanuvchi 4-bobi bilan o'quvchilarni tanishtirish va tahlillash mobaynida adabiy qahramonning boshidan o'tgan ko'rgiliklar uning ruhini tushinmaganiga ham e'tibor berilgani ma'qul bo'ladi. Asar

esa, o'qituvchi mazkur masala yuzasidan o'quvchilarning tushunchalari qandayligini aniqlaydi va o'zi umumlashtiruvchi ma'lumot beradi.

To'g'ri, o'qituvchi talabalarga topshiriq bermasdan ham nazariy mavzuni o'tib berishi mumkin edi. Gap shundaki, o'zga tomondan berilgan bilim bilan mustaqil o'zlashtirilgan bilim mustahkamligi jihatidan hyech qachon bir xil bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan ham o'quvchilarning o'zini imkon qadar ko'proq ishlatishga urinish eng samarali va bexato yo'ldir. Ilmiy maqolani ichki ehtiyoj yetovida o'qigan, asar tahlili jarayonida unda ifodalangan fikrlardan foydalanishga urinib ko'rgan o'quvchi o'z-o'zidan shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichiga ko'tariladi.

Shu talablardan kelib chiqib, dars so'nggida yanagi safar o'rganilishi lozim bo'lgan «Hurishni eplolmagan kuchukcha» qissasi muallifi Janni Rodari haqida darslikda mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishib kelish topshiriladi. Adibning g'aroyib shaxsiyati, mashaqqatlarga to'la hayot yo'li o'quvchilarning o'rganilajak qissaga qiziqib qolishlarini ta'minlaydi.

Uyga vazifa sifatida istagan o'quvchilarga «Mening sarguzashtlarim» nomli xotira-insho yozib kelishni topshirish mumkin. o'z hayotidagi qiziqarli lavhalarni Hoshimjonning sarguzashtlari singari qog'ozga tushirish yoqimli mashg'ulot. Keyingi darsda muallif o'zi o'qib beradi yaratig'ini. Adabiyot darsi bo'lgani uchun inshoning imlo xatolari kuzatilmaydi. Sarguzashtning qanchalar qiziqligi va ifodaning izchilligi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Pedagogik faoliyatingizda mumtoz asarlar ustida ishlash jarayoni haqida to'liq bilimga ega bo'lish uchun prof. V. Qodirovning "Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar" nomli monografiyasini topib sotib oling. U sizning amaliy faoliyatingizda asqotadi.

2. O'zbek mumtoz adabiyoti janrlariga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni ajratib daftaringizga yozing. Ularni o'zlashtirib oling.

3. Istalgan bir g'azalni tanlab olib uning didaktik takhlilini amalga oshiring. Kursdoshlar bilan birgalikda muhokama qiling.

4. Mumtoz lirikaga xos bo'lgan ruboiy va tuyuq janriga xos bo'lgan bitiklarning didaktik tahlilini amalga oshiring. Ishingizni

kursdoshlar birgalikda muhokamaga torting. Yutuq va kamchiliklarni o'rganing. Amaliy faoliyatga tayyorlaning.

5. Maktab "Adabiyot" darsliklaridan o'rin olgan so'fiyona bitiklarni o'rganish borasida amaliyotchi o'qituvchi sifatida dars ishlanmasi tayyorlang.

6. Darsliklarga kiritilgan liro-epik janrdagi asarlarni ajratib oling. Ulardan birini didaktik tahlilga torting.

7. Mumtoz adabiyot bo'yicha o'zingizning bilimlilik darajangizni aniqlang. Nimalarni bilmasligingizni ajratib oling. So'ngra bu borada savollar tuzib, domlangiz va kursdoshlar bilan bu bilimsizlikni bartaraf etishga urining.

8. Mumtoz asarlarning umumiy xususiyatlarini bilib oldingiz. Shu bilimlar asosida birorta ruboiy yoki tuyuq yaratishga urinib ko'ring.

9. Xudoyberdi To'xtaboev ijodidagi o'ziga xosliklarni aniqlang. Fikringizni misollar bilan asoslab bering.

10. X. To'xtaboev asarlari, xususan, "Sariq devni minib"ni o'quvchilikda o'qiganmisiz? Ilk taassurotlaringizni eslang. Qarashlaringizni bir-biringiz bilan o'rtoqlashing.

11. Maktabda mumtoz adabiyot namunalarining o'rganilishiga qanday qaraysiz? Nega shunday deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.

12. "Mumtoz adabiyot mening taqdirimda" nomli esse yozing. Unda nimalarni bilasiz, nimalarni bilmaysiz, bilish uchun nimalar qilish kerakligini tavsiflang.

25- MAVZU. ADABIY-NAZARIY TUSHUNCHALARNI O'RGANISH

Reja:

1. Adabiyot nazariyasi va uning maktabda adabiyot o'qitishdagi o'rni.

2. Maktab "Adabiyot" dastur va darsliklarida nazariy ma'lumotlarning berilishi.

3. Nazariy ma'lumotlarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari.

4. Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot o'qitish jarayonida badiiy asarlarning o'quvchilar tomonidan o'qilishi, mazmunni (boshlang'ich sinflarda) qayta bayon etish, o'qiganlari ma'nosini anglash, personajlar obrazlarini didaktik tahlilga tortish bilan birga o'zlashtirilishi kerak bo'lgan badiiy asarlarning muammoli-tematik, kompozitsion jihatlarini bilish va hk. bir qator bilimlar bilan tanishishni ham nazarda tutadi. To'g'ri, adabiyot darslari maktabdagi boshqa o'quv fanlaridan farqli o'laroq o'quvchilarga bilim berish uchun emas, balki ularning ko'ngilllarini tarbiyalash, ma'naviyatlarini sog'lomlashtirishga xizmat qiladi. Adabiy ta'limning bosh maqsadi ham shu. Lekin adabiyotda ham shunday bilimlar borki, ular adabiy ta'limning bosh maqsadigi u yoki bu darajada daxldordir.

"Adabiyot" dastur va darsliklarida adabiyotshunoslikning barcha bo'limlari - adabiyot tarixi va nazariyasi, adabiyotshunoslik asoslari, adabiy tanqid, badiiy tahlil, nutq madaniyati va hk.lar bilan bog'liq bilimlar emas, balki tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari, adabiyot o'qitishning har bir sinfda o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda o'zlashtirish orqali ayrim voqea-hodisalar haqidagi tushuncha va tasavvurlarni tiniqlashtirishga, ularni kengaytirishga xizmat qiladigan nazariy bilimlarni berish taqozo etiladi.

Adabiyot o'qitish metodikasi ilmi uchun maktabda adabiyot nazariyasi asoslarini o'rgatish g'oyasi yangi hodisa emas. Shunday ma'lumotlar borki, ularni bilish o'quvchilarning adabiyot darslaridagi mustaqil faoliyatida, badiiy asarlarning didaktik tahlili jarayonida asqotadi. Bu faktor maktab adabiy ta'limi amaliyotida allaqachonlar o'z o'rnini egallagan.

Shu bilan birga (o'qitish metodikasi ilmi bilan hukumat miqyosida maxsus shug'ullaniladigan davlatlarda), chop ettirilgan bir qator ilmiy va pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, maktab adabiyot kursida nazariy bilimlarning o'rni va roli, ularni o'rganishga ajratiladigan soatlar masalasida hali ham bir to'xtamga kelinmagan. "Adabiyot nazariyasining asoslarini maktab o'quv dasturiga kiritish masalasi o'tmishda turli xil talqinlarga ega edi", - deyiladi monografik tadqiqotlardan birida[1]

Ba'zi mualliflar odatda o'rta maktabda adabiyot nazariyasini o'rganish zarurligini rad etishgan bo'lsa, boshqa metodistlar, aksincha, adabiyot nazariyasini o'rganish bo'yicha maxsus kurs tashkil etishni taklif qilishgan va hk. Masalan, "Adabiyot dasturlarida adabiyot nazariyasining alohida o'rni bo'lishi kerak. Nazariyani maqsadga muvofiq o'rganishda sifat jihatidan yangi yondashuv: badiiy asarlarni ularning o'ziga xosligi bilan idrok etishga yordam berish, ularning didaktik tahlilini rivojlantirishda zamonaviy adabiy tanqidning yutuqlariga tayanish kerakligi"[2] borasidagi qarashni olaylik. Milliy adabiy ta'lim metodikasi mezonlari nuqtai nazaridan qaralsa, bu fikrga mutlaqo qo'shilib bo'lmaydi.

Gap shundaki, adabiyot darslarining har biri takrorlanmas alohida hodisa. Har bir sinfdagi o'quvchilarning intellenktual imkoniyatlari har xil. Adabiyot darslarida asarlarning didaktik tahlilini bir qolipga solish, ayniqsa, o'quvchilar qarashlari va munosabatini adabiyotshunoslarning mezonlariga moslashtirish adabiyot o'qitish metodikasi ilmida mutlaqo noto'g'ri hodisa bo'ladi. Bundan tashqari, milliy adabiy ta'limning bosh maqsadi adabiyotni msutaxassis darajasida yaxshi biladigan kishilarni tarbiyalash emas, balki ma'naviy komillik sari yuz burgan, ruhiy to'kislik yo'liga tutungan avlodni shakllantirish. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda hozirgi vaqtda, milliy adabiy ta'limda asosiy nazariy tushunchalarni o'zlashtirishning eng maqbul usuli tanlangan. Ma'lum bir asarni o'zlashtirish uchun ba'zan nazariy bilim taqozo etiladi. Maktab adabiy ta'limida ayrim nazariy va adabiy tushunchalarni o'rganish zarurligi masalasi metodistlar orasida ham, amaliyotchi o'qituvchilarda ham shubha tug'dirmaydi. Biroq, bu muammoni kun tartibidan olib tashlangan ham deb bo'lmaydi.

---

[1] Харбов Б. Р. Проблемы литературного образования в средней школе. - Москва: Просвещение, 1982. - С. 152.

[2] Альбетков Р. Н. Теория литературы в системе литературного образования: проблемы преподавания литературы в средней школе. - Москва: Просвещение, 1980. - С. 128.

Bugun maktablarda adabiyot o'rganishning mavjud holati o'quvchilar taassurotlari majmui va ularning so'z san'atini anglash darajasidagi nomuvofiqliklar mavjudligini tasdiqlaydi. Ya'ni maktabda o'rganilayotgan ayrim adabiy-nazariy tushunchalar o'quvchilarni badiiy adabiyotni, xususan, mumtoz adabiyotni sevishga emas, balki uni badiiy adabiyot namunalarini o'qish, qadrlash va sevishdan qaytarib, bezdirishga olib kelayotganini ham ko'rish mumkin. Bu yerda ko'p narsa o'qituvchiga, uning kreativligi va kompetentliligiga bog'liqdir.

Gap shundaki, adabiyot darslarida o'quvchilar namunalar asosida bilib olishlari emas, balki badiiy hodisalarni mustaqil didaktik tahlilga tortish, bu jarayonda bevosita ishtirok etish asnosida o'zlari kashf etishlari kerak. Bunga ba'zida badiiy, estetik va ilmiy tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'lanishlar orqali erishiladi. O'quvchilar va badiiy asarlararo bunday aloqani yo'lga qo'yish va uni mustahkamlashga erishish jarayoni maxsus yaratilgan uslubiy harakatlarni taqozo etadi. Mutaxassislardan shu yo'nalishdagi metodik tavsiyalar, dars va mashg'ulot ishlanmalari talab qilinadi. Milliy adabiy ta'lim dasturlarida bu maxsus talqinlar asosida belgilab qo'yilgan bo'lsada, o'qituvchilar bugun bunday yondashuv yo'llarini ko'rsatib beradigan tegishli metodik tavsiyalarga ega emaslar. Bu borada metodik adabiyotlarga muhtojlik seziladi. Milliy metodika ilmi mutaxassislari bunday bitiklarni ro'yobga chiqarishga intilganlari taqdirida ham oliy ta'lim muassasalaridagi faoliyati ularning jismoniy imkoniyatlariga maksimal darajada egalik qilmoqda va bunday mas'uliyatni zimmalariga ololmaydilar. Buning uchun maxsus ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilishi, metodist olimlar milliy ta'lim metodikasi muammolari bilan alohida shug'ullanishlari taqozo etiladi.

Milliy maktablar adabiy ta'limi kursi dasturida adabiyot nazariyasidan bir qator bilimlarni o'zlashtirish ko'zda tutilgan. O'rta maktab bitiruvchilari dastur talablariga binoan folklor asarlari, yozma adabiyotning – nasr va nazmning badiiy mazmuni to'g'risida aniq fikrlarga ega bo'lishlari kerak. Adabiyot va san'at turlari, ularning xususiyatlarini tushunishi, adabiyotning rivojlanish uslublaridan xabardor bo'lishi zarurligi nazarda tutilgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot nazariyasi maxsus o'quv fan sifatida o'qitilmaydi. U maxsus filologik yo'nalishdagi maktablarning predmeti. U adabiy-badiiy hodisalarni chuqur filologik

tahlil qilish bilan bog'liq yo'nalishlarda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Har ikkala yo'nalish «Adabiyot» dasturlari va darsliklarida har xil janrlarga xos bo'lgan asarlarni o'rganishda u bilan bog'liq nazariy tushunchalar haqida ma'lumot beriladi, albatta. Bu milliy adabiy ta'lim metodikasi ilmi va amaliyotida kechagi jamiyat maktablari adabiyot dasturlaridan saqlanib qolgan. Hamma gap shu materialning hajmida. Vaziyat va holatning taqozosida. Bu mazmunni intellektual ehtiyoj belgilaydi. Ya'ni chuqur adabiy ta'limga yo'naltirilgan maxsus maktablarning maqsad va vazifalariga tayaniladi.

Umumta'lim maktablarda nazariy tushunchalar o'rganilayotgan konkret asar tarkibiy qismlari bilan aloqada talqin qilinmaydi va buning hojati ham yo'q. Shu bois adabiy bilimdonlikning rivojlanishi ko'pincha mexanik tarzda amalga oshadi. Shuning uchun umumta'lim maktablarida o'quvchilar tomonidan adabiy tushunchalarning mohiyatini aniq va chuqur ongli ravishda tushunishga erishish qiyin va buning keragi ham yo'q. Chunki umumta'lim maktablari adabiy ta'limi adabiyotshunos, shoir yoki yozuvchi emas, ma'naviy komillik yo'lini tutgan odamni shakllantirishga qaratilgan. Milliy adabiy ta'lim metodikasi ilmida hali nazariy ma'lumotlarning mezonlari mustaqil va dolzarb metodik muammo sifatida ko'rib chiqilmagan.

Maktabda adabiyot nazariyasi elementlarini o'rganishning umumiy tamoyillari va texnikasi akademik V. Golubkovning fundamental ishlarida har xil shaklda asoslangan: «O'quvchilarning ma'lum bir fan sohasidagi asosiy nazariy tushunchalarini shakllantirish ularga ilmiy bilimlar tizimini berishga qaratilgan. Bu maktab adabiy ta'limining asosiy vazifalaridan biri. Ammo ushbu konsepsiyani shakllantirish ishlari, boshqa o'quv faoliyatlari singari, umumiy vazifalar bilan chambarchas bog'liq holda olib borilishi kerak"[1]. Kechagi jamiyatda shakllangan bunday qarashlar bugungi uzviy adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq kelmaydi. Chunki umumta'lim maktablari ertaga har xil kasb egalari bo'lmish kelajak avlodning sog'lom ma'naviyat sohibi bo'lishi uchun xizmat qiladi. Ularga adabiy-nazariy tushunchalarni chuqur bilishning hojati ham, keragi ham yo'q.

Ma'lumki, umumta'lim maktablarining 5-sinfidan boshlab o'quvchilarga adabiyotshunoslikka oid ilk nazariy ma'lumotlar berib boriladi. Maktabda adabiyot o'qitish dasturlarida o'quvchilarga

[1] goliblar.jimdofree.com › tayyorgarlik-o-tecnyfeana

bosqichma-bosqich badiiy adabiyotning mohiyati, adabiy tur va janrlar, badiiy obraz va obrazlilik, she'r tizimlari, badiiy tasvir va ifoda vositalari kabi adabiy-nazariy tushunchalarni o'rgatib borish ko'zda tutilgan. Biroq umumta'lim maktablari filolog-adabiyotshunoslar tayyorlashni maqsad qilmagani uchun ham bu ma'lumotlar fragmental tarzda – konkret badiiy asarlar tahlili jarayonida yoki biror bir adib ijodiy merosni o'rganish barobarida berib boriladi.

Umumta'lim maktablari adabiyot o'qituvchilari muayyan badiiy asarlarni o'rganishda nazariy bilimlarni berishning quyidagi talablarini bilishi taqozo etiladi:

- faktlar to'plash va adabiy hodisalar bilan bog'liq xususiyatlarni;
- badiiy asarda yoritilgan biror hodisaning umumiy hayotiy va badiiy belgilarini;
- badiiy matn bilan bog'liq adabiy-nazariy tushunchalarning ta'rifi yoki uning xarakterli xususiyatlarini;
- nazariy tushunchalarning muhim jihatlari va ularning umumiy belgilarini matn asosida mustahkamlashni;
- muayyan adabiy-nazariy hodisani badiiy asar tahlili jarayonida o'rni bilan ishlata bilishni;
- nazariy tushunchani uning yangi xususiyatlar bilan yanada rivojlantirish, boyitishni.

Adabiyot o'qitish jarayonida adabiyotshunoslik bilan bog'liq tushunchalarni muntazam ravishda badiiy asarlar didaktik tahlili jarayonida eslab, o'rni bilan ularga murojaat qilish va eslatib turish kerak bo'ladi. Aks holda bir paytlar o'rganilgan adabiy-nazariy bilimlar muqarrar ravishda unutiladi. Natijada, yuqori sinf o'quvchilarining adabiy-nazariy savodsizligiga duch kelish mumkin. Gap shundaki, nazariy tushunchalar – bilim. Har qanday bilim takrorlanib, ma'lum vazifalar bilan mustahkamlanib turmasa, unutiladi.

O'rganilayotgan nazariy tushunchalar asta-sekinlik bilan to'planib, badiiy asarlar didaktik tahlili jarayonida qo'llanilib "ishlab turishi" kerak. Shunda ular bir-biriga bog'lanib, o'quvchi ongida ma'lum bir tizimni shakllantiradi va bu bilan tizimning shakllanish bosqichlari bir vaqtning o'zida maktab o'quvchilarining adabiy rivojlanish bosqichlari hisoblanadi[1].

[1] https://xs4all.nl/~ppk/litera/elementi.teorii.literatury.v.sredney.shkole.na.pr.1258@2.html

Aslida o'quvchi adabiy-nazariy tushunchalarning ilk namunasi alla janri bilan tug'ulganining ilk kunlaridan boshlab tanishadi. Asta-sekinlik bilan xususan, maktabgacha ta'lim muassasalarida adabiyotning boshqa janrlari bilan tanisha boradi va bu boradagi bilimi ham ortib boradi. Masalan, «bog'cha o'quvchisi» ertak, she'r, maqol, topishmoq singari adabiy janrlarga mansub bo'lgan asarlarni farqlay boshlaydi. U hech qachon she'rni ertak demaydi. Topishmoq janriga mansub bo'lgan asar bilan qanday ishlashni biladi. Ya'ni o'quvchiga topishmoq aytilganda uning ifoda ohangi va mazmunidan kelib chiqib uni topish kerakligini anglaydi. Yoki qo'shiq bilan she'rni bir-biridan ajratadi. Ularning o'qilish, kuylash xususiyatlarini biladi. Ertaklarni ilk belgilari «bir bor ekan, bir yo'q ekan»dan boshlab farqlaydi. Shularning o'zi u ilk yoshidan boshlab nazariy ma'lumotlardan xabardorligini, ma'lum darajada nazariy bilimga ega ekanligini namoyish etadi. «Ilk qadam» dasturida bu bilimlarni o'zlashtirish standart talab shaklida belgilab ham qo'yilgan.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida uning bu boradagi bilimlari yanada rivojlanib, maxsus qonun-qoidalar, ta'riflar ko'magida qat'iylashib boradi. Adabiyotshunoslikning maqol, rivoyat va hk. singari janrlari yozma shakli bilan tanishadi, o'qib ularning xususiyatlariga tayangan holda farqlashni o'rganadi. Bu bilimlarning nazariy asoslarini, xususiyatlarini bilmasada, shakli va mazmunidan ajratib bera oladi. Bu ham boshlang'ich sinflar DTS mezonlariga kiritilgan.

5–9-sinflarda nazariy tushunchalar bilan ishlash o'qish, tahlil qilish va nazariy umumlashtirishning birligidir. 5-sinfda bo'quvchilar duch keladigan birinchi nazariy tushuncha ularga murakkablik qilishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning «Xamsa» dostonidan olingan «Sher bilan Durroj» va Bobur ruboiylari o'rganilayotganda ular hikoyat va ruboiyning o'ziga xos xususiyatlari, tilining o'ziga xosligi, insoniy tuyg'ularning ifodalanishi, har ikki yo'nalishdagi asarlarning shakli va hk.lar haqida bilimga ega bo'ladilar.

O'rta sinflarda ayni Alisher Navoiy yoki Zahiriddin Muhammad Boburning boshqa janrlardagi («Mahbub ul-qulub», g'azallar, tuyuqlar, «Boburnoma» va hk.) asarlarini o'rganishar ekan, ularning har bir janrga xos xususiyatlarga amal qilgan holda qalam tebratganlarini anglaydilar va bu, o'z navbatida, o'quvchilarning adabiy-nazariy rivojlanishiga ma'lum darajada ijobiy hissasini qo'shadi.

«Adabiyot» dastur va darsliklarida bir adibning bir necha janrda yaratgan asarlari ham taqdim etilgan: nazm, nasr, eng ko'pi lirik janrdagi matnlardir. Masalan, o'quvchilarning nazariy bilimlarini taqqoslash va rivojlantirish maqsadiga G'. G'ulom ijodining umumiy va janr jihatidan o'ziga xosligini farqlash vazifasini berish mumkin. Bu vazifa o'quvchidan badiiy asar poetikasini ko'rib chiqish, mavjud nazariy va adabiy tushunchalar bilan bog'liq bilimlaridan foydalanishni, janr, kompozitsiya masalalari, shuningdek, uning elementlarini bilishni, bilganlarini eslashni taqozo etadi. Shu tariqa o'quvchilarning nazariy bilimlarini muntazam ravishda eslashi va ularni mustahkamlash hamda rivojlantirib borish ishlari amalga oshiriladi.

Oltinchi sinfda o'quvchi ilk marta qissaning hikoyadan farqini ajratishga o'rganadi. Masalan, bu sinfda G'. G'ulomning "Shum bola" qissasi o'rganib bo'lingach, qissa haqidagi nazariy ma'lumot bilan tanishtiriladi. O'qituvchi o'quvchilarining nazariy bilimdonligini mustahkamlab qo'yish maqsadida ularga: «Mening o'g'rigina bolam» bilan "Shum bola" bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?" tarzidagi savol bilan murojaat qilishi mumkin. O'quvchilar ushbu savolga javob berar ekan, har ikkala asarni qiyoslay boshlashadi. Qahramonlarning kechinmalarini eslashadi, har ikkala asarning hajmiga e'tibor qaratishadi, ularning tilini taqqoslashadi va hokazo. Bularning barchasi o'quvchilarni kompozitsiya haqida, janrlar borasida ma'lum bilimlarni eslashlari va mustahkam egallashlariga ko'maklashadi, matnning qurilishi, muhim belgilari to'g'risida ma'lum xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Sakkizinchi sinfda o'quvchi G'afur G'ulom ijodi bilan tanishuvni davom ettirarkan, uning "Vaqt" va "Sog'inish" she'rlari misolida falsafiy va lirik she'rlarni taniydi. Bu bosqichda ham yana nazariy bilimlarni mustahkamlash ishini davom ettirish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, maktab adabiy lug'atida «kompozitsiya» tushunchasi badiiy asarning qurilishi deya ta'riflanadi. Bu tushuncha adabiy ta'lim samaradorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu atamaga tor yondoshish yoki uni noto'g'ri talqin qilish maktab o'quvchilarining ongida bu nazariy tushunchaning buzilgan shaklda o'rnashib qolishiga olib keladi. «Kompozitsiya» atamasi bilan ishlashning dastlabki bosqichida har bir nazariy tushunchani o'rganishda asosiy uchta bosqich (kuzatish – joriy etish –

konsolidatsiya (mustahkamlash, birlashtirish)dan o'tish zarurligini hisobga olib, uning qismlari tartibi sifatida izohlash kerak bo'ladi. Aks holda, bu nazariy chalasavodlilikka, asarlarning didaktik tahlilida yuzakilikka olib kelishi mumkin. Aslida, o'ylab qaralsa, umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot o'qitish tizimida bunday chuqur nazariy bilimning hojati ham yo'q. Bu maxsus maktablar tarbiyalanuvchilari uchun muhimdir[1].

Umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot darslarida adabiy-nazariy ma'lumotlar beshinchi sinfdan boshlab quyidagi mazmunda o'rganiladi:

5-sinfda: xalq og'zaki ijodi, topishmoq, maqol, hadis, masal, ertak va adabiy ertak;

6-sinfda: qissa, hikoya, hajviya, xalq qo'shiqlari, hikmatli so'z, badiiy xususiyat, zarbulmasal, radif, chiston;

7-sinfda: doston, didaktik adabiyot, tuyuq, xalq dostonlarining turlari, hikoya, tabiat lirikasi;

8-sinfda: irsoli masal, fojia, roman, qofiya, g'azal, lirika, badiiy va hayotiy haqiqat;

9-sinfda: komil inson tasviri, memuar asar, tashxis, musammat, badiiy asarda milliy ruh, tragik obraz, mustaqillik davri adabiyoti xususiyatlari;

10-sinfda: ruhiy tahlil, she'riy roman, xalq dostonlari badiiyati, g'azal turlari, ma'naviy san'atlar, tardi aks;

11-sinfda: adabiy asar qahramoni, badiiy asarda milliy ruh, badiiy uslub, ijtimoiy va intim lirika, badiiy xarakter, modernizm va hk.

Albatta, nazariy ma'lumotlar sinflar kesimida darsliklarda taqdim etilgan o'quv materiallari mazmun-mohiyati taqozosi bilan o'rin almashib, kengayib yoki qisqarib borishi mumkin. Bu nisbiy holat.

Yana bir haqiqat borki, bu nazariy ma'lumotlarning sinflar kesimida dastur va darsliklardagi takroridir. Takror ba'zan foydali, ayrim takrorlar esa odamning g'ashini keltiradi. Ayniqsa, nazariy bilimlarni dastur va darsliklarda takroriga yo'l qo'ymaslik maqsadga muvofiqdir. Ayrim, avvalgi sinflarda o'rganilgan nazariy bilimlarni asarlar didaktik tahlili jarayonida bir eslab o'tish kifoya qiladigan vaziyatda uni alohida vaqt ajratib qayta o'rganish o'quvchi vaqtini besamar sarflashga olib keladi.

[1] https://ziyonet.uz/uz/library/elements/book_literature_v_studing_abkolo_na_pri_225549/html

O'qituvchi shuni unutmasligi kerakki, har qanday adabiy nazariy tushuncha bilan bog'liq xususiyatlarni farqlash, bu boradagi bilimlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish ma'lum tizimli yondashuvni talab qiladi va har qanday muallif, har qanday adabiy oqim va davr asarlari materialida qo'llanilishi mumkin.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

"Bemor" hikoyasini o'rganish

Zamondoshlari Abdulla Qahhor haqida

Yozuvchi so'zga shunchalik xasiski, agar bu mitti durdonalarning har birini qayta hikoya qilinguдek bo'lsa, hikoyaning o'zidan ko'ra ancha ko'p

joyni egallagan bo'lar edi...

Odil Yoqubov.

Men tajriba uchun ustozning "O'g'ri", "Bemor", "Amor" hikoyalaridan ba'zi so'zlarni olib tashlab ko'rdim. Bo'lmadi. Hikoya bir ustuni olib tashlangan ayvonga o'xshab lapanglab qoldi.

Said Ahmad.

Suhbatlardan birida u "Bemor" hikoyasining birinchi jumlasi qanday yozilganini, o'ttizga yaqin varaqni qora qilib Abdulla Qahhor yozilgan so'zining ustidan chiziq tortmas edi, jumla buzilsa, so'z yoki harf xato bo'lsa, yangi varaqqa yozib chiqar edi, nihoyat eng qisqa, eng aniq ifoda topganini aytib bergan edi: "Sotiboldning xotini og'rib qoldi".

- Bu jumlaning fazilati bitta, - degan edi u, - fikr to'rtta so'zda bayon qilingan. Qolgan hamma variantlarda shu fikr besh, olti so'z bilan aytiladi. Masalan: "Sotiboldining xotini kasal bo'lib qoldi", "Sotiboldning xotinining tobi qochib qoldi", "Sotiboldning xotinining mazasi ketib qoldi"...

Erkin Vohidov.

"...Biz Qo'qonga yaqin Yaypan qishlog'ida turardik. Onam g'ira-shira qorong'i uyda to'lg'oq tutib yotar, ichkarida ingragan, doillagan tovushi eshitilar edi. ...Dadam qo'shni bir kampirni chaqirib chiqdi. Kampir ayam yotgan uyga kirib ketdi. Dadam ikkovimiz hovlida o'tirdik. Qorong'i tushdi. Meni uyqu bosa boshladi. ...yonimda o'tirgan dadam birdan o'rnidan turdi. Ko'zimni ochdim. Tepamda boyagi qo'shni kampir turar edi.

- Qalay? - dedi dadam hovliqib.

- Oynalyapti bechora, - dedi kampir va bir oz jim turgandan keyin menga ishora qildi, - o'quvchiga ayting, ayasini duo qilsin, go'dakning duosi qabul bo'ladi.

Dadam engashib mening qulog'imga shivirladi:

- Xudoyo ayamga najot bergin, degin! Ayt! Dadam qo'rquv va jahl aralash meni qistar edi. Duo qila boshladim.

Bu orada bir-ikki yig'lab ham oldim.

Keyin uxlab qoldim. Ertalab uyg'onsam ayamning ko'zi yoribdi".

Abdulla Qahhor xotiralaridan.

Bemor

Nochorlik, kambag'allik oldida insonning qanchalar ojizligini anglatish, o'quvchilar ko'nglida o'zgani anglash, achinish hissini tarbiyalashni darsning tarbiyaviy maqsadi sifatida belgilash mumkin.

Asar matni bilan tanishtirish, uning mohiyatiga kirishga, asar zamiridagi yozuvchi shaxsini anglashga, asarda ilgari surilgan yetakchi qarashlarni ilg'ashga o'rgatish darsning ta'limiy maqsadini tashkil qiladi.

Darsni **evristik metod**dan foydalangan holda tashkil etish mumkin.

Dasturda ushbu hikoyani o'rganish uchun ikki soat vaqt berilgan[1]. Aslida hikoya ilg'or ta'lim metodlari asosida o'tilsa, uni o'rganish uchun bir soat kifoya. Darslikda adibning hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi material mavjud. O'qituvchi adib haqida axborot beruvchi bu tayyor matnni o'quvchilarga qaytarib aytib berishining hech hojati yo'q. Uni o'tgan darsning oxirida uy vazifasi sifatida topshirish mumkin. O'qituvchi o'quvchi bilan Abdulla Qahhor orasidagi masofani qisqartirish, ularni bir-biriga yaqinlashtirish uchun uning o'quvchi yoshiga yaqin o'quvchilik davridan ayrim xotiralarini aytib berishi maqsadga muvofiqroq bo'ladi. Masalan: *"Namozgarga yaqin ko'chada o'quvchilar chug'urlashib qolishdi. Chiqdim...*

[1] O'quv dasturi. Adabiyot. T.: IQTM, 2017.

...hammadan ko'ra ko'proq shovqin solib, yelib-yugurgan o'quvchi mening oldimga keldi, menga boshdan-oyoq razm soldi-yu, birdan:

- Kelgindi! deb urgan qo'l ko'tardi.

- O'zing kelgindivan! dedim ehtiyotdan orqaga chekinib.

O'quvchi bir irg'ib mening kallamga qo'yib yubordi. Men javob qilolmadim qarasam, boshqa o'quvchilar ham urmoqchi bo'lib, ilonni ko'rgan chumchuqday atrofimda chug'urlashib turishibdi. Shu payt bizni kuzatib turgan kichkina salla, uzun malla to'nli bir chol:

- Qo'yinglar, o'quvchilar, tegmanglar, kelgindi bo'lsa, o'zi bo'libdimi, xudo qilgan, - dedi.

O'quvchilar darrov tarqalishdi. "Kelgindi, kelgindi u" degan gaplarni Olim buvadan eshitganimda bunung haqoratidan tashqari yana odam hazar qiladigan ma'nosi ham borligini bilmagan ekanman. cholning bu gapi boshimdan kirib, tovonimdan chiqib ketdi. ...Shundan keyin ko'chadan, o'quvchilardan ham, odamlardan ham ko'nglim qoldi...

Men endi "indamas" degan ta'nadan qutulish uchun odamdan hatto, ayamdan ham mumkin qadar qochadigan bo'lib qoldim. Ayam ko'p yig'lab bezor qilganidan keyin dadam meni Ucharmaxsumga eltib o'qitdi. Maxsum menga xo'p dam solgandan keyin tipigidan yoladi. Shundan keyin men yana ham indamas bo'lib qoldim, bir so'z aytmoqchi bo'lsam, undan keyin nima deyishimni o'ylab, bor so'zni ham unutar edim..." tarzidagi o'quvchilik xotiralari yozuvchi bilan o'quvchini bir-biriga yaqinlashtiradi. Asari o'rganilayotgan ulug' bir adibning qachonlardir o'zlariga o'xshagan o'quvchi bo'lganini his qilish o'quvchini ziyrak torttiradi. Orada iliqlik paydo qiladi. Shundan so'ng asar ustida ish boshlash mumkin. O'qituvchi yozuvchining boshqa xotiralaridan ham foydalanishi mumkin[1].

Hikoyaning darslikdagi matni[2]ni o'qituvchi uzog'i bilan 4–5 daqiqada o'qib beradi. Darslikda mualliflarning o'quvchilar fikrini qolipga soladigan, ularning hammasini bir xil mulohaza yuritishga undaydigan asar haqidagi hajman kattagina talqini mavjud[3]. O'qituvchi bu talqinga to'xtalmagani, hatto, uni o'quvchilarga o'qishga bermagani ma'qul. Asarni o'quvchilar bilan birga tahlil qilib

[1] https://ziyo.

ular o'z xulosa va qarashlarini darslik mualliflarinikі bilan taqqoslab ko'rishlari mumkin. O'qituvchi bu ham ularga o'xshagan bir kitobxonning fikri ekani, bu talqin o'quvchilar qarashlari va xulosalarini yo'qqa chiqarish uchun asos bo'lolmasligi, hamma o'z fikrida qolishi mumkinligini ta'kidlashni unutmagani maqul.

Hikoya tahlilini boshlashdan oldin asardagi tushunilishi qiyinroq bo'lgan so'zlar (Sim, Devonai Bahouddin, G'avsula'zam, izvosh, oq podsho) darstaxtaga yozilib, izohlanadi: *Sim – Farg'ona shahrining eski nomi; devonai Bahouddin – Muhammad ibn Muhammad Bahouddin un-Naqshband al-Buxoriy (xalq orasida xo'ja Bahouddin halogardon nomi bilan) – mashhur avliyo. U Muhammad s.a.v. avlodlariga mansub sayyidzodalardan; G'avsula'zam – pir; izvosh – ot qo'shilgan arava; oq podsho – o'sha davrdagi Rossiyaning podshosi.*

So'ng o'quvchilar bilan birgalikda o'qituvchi o'zi uyda tuzib kelgan hamda darslikda berilgan savol-topshiriqlar yordamida asar tahliliga o'tiladi. Eng avvalo, badiiy asarning nomiga diqqat qaratiladi. Uning matn mazmuniga qay darajada mosligi haqida o'quvchilar fikri so'raladi, mulohazalari eshitiladi. Asar mazmunidan kelib chiqib, hikoyaga boshqacha nom berishni so'rash ham mumkin. O'quvchilar faqat sarlavha taklif qilib qolmay, asarga nima uchun shunday nom berayotganini asoslashi kerak bo'ladi. Ular topgan sarlavhalarga o'rtoqlari tomonidan munosabat bildirilsa, yanada yaxshi bo'ladi.

Bu boradagi fikr-qarashlar yakunlangach, epigrafga nazar tashlanadi. "Osmon yiroq, yer qattiq" maqolining mazmuni va uning hikoyaga daxldorlik darajasi so'raladi. Bundan tashqari, hikoya matnidagi: "...yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi" maqoliga ham e'tibor qaratilib, o'quvchilar uni qanday tushungani, asar matniga nima maqsadda kiritilgani, ayni shu maqol bo'lmasa hikoya nima yutqizadi-yu, kiritilganda nima yutgani so'raladi.

Inson hayotida quvonchli va qayg'uli kunlar mavjud. Ba'zan odam shodlikdan dunyoga sig'may ketsa, ba'zan qayg'u-g'amning zo'ridan dunyo tor bo'ladi. Issiq jon istimasiz bo'lmaganidan, odam turli darajadagi kasalliklarga yo'liqishi mumkin. Yana shunday holatlar bo'ladiki, moddiy tanglik, qo'li kaltalik ham insonni nochor ahvolga

xizmat qiladi. O'quvchilar shuni anglagan holda o'z fikrlarini aytishlari mumkin.

Asar matnidagi "Yo'g'on cho'ziladi, ingichga uziladi" maqoli esa uning mazmuniga sezilmaydigan darajada yedirib yuborilgan. Bu to'rttagina so'zdan iborat maqol sahifa-sahifa bayonning vazifasini uddalab, bir dunyo jumlalar ishini umumlashtirib bajarganini o'quvchilar bilan birgalikda ishlab ularga yetkazish zarur. Tahlil jarayonida tarbiyalanuvchilarning diqqati asar matnidagi ixcham jumlalarga qaratiladi. Bu jumlalar tashigan botiniy ma'nolar xususida fikr yuritishga harakat qilinadi, yozuvchi qisqa jumlalarda g'oyat lo'nda va ixcham tarzda ifodalagan fikrni savollarga javob berayotgan yoki fikr bildirayotgan o'quvchilar nechta gap bilan bayon etishlariga o'qituvchi diqqat qilishi, bunga sinfdagi boshqa o'quvchilarning ham e'tiborini tortishi va adibning so'z qo'llash mahoratini birgalikda tadqiq etishlari zarur. Shu o'rinda Said Ahmadning yuqoridagi fikrini o'qib, unga o'quvchilarning diqqatini tortish ham mumkin.

Hikoya matniga tayangan holda tahlil etilgani, asarga berkitilgan hayotiy, badiiy haqiqatlarni o'quvchilar o'zlari kashf etganlari ma'qul. O'quvchilar e'tibori, avvalo, xotini og'rib qolganda Sotiboldi ko'rgan birinchi tadbirga qaratiladi. Mazkur holat hikoyada shunday ifodalangan: "*Sotiboldi kasalni o'qitdi – bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi...*" Sotiboldi nega shunday tadbirni qo'lladi? Kambag'alligidanmi yoki bilimsizligidanmi? Gap shundaki, har qanday odam o'z saviyasi darajasida ish tutadi – uning xayoliga kelgan dastlabki amallar – shular. Lekin gap bu o'rinda Sotiboldi ko'rgan tadbirning to'g'ri-noto'g'riligida emas, balki qilgan amal bilan erishilgan natija va uning ifoda tarzi mutanosibligi haqida.

Bemorning tabib qon olgandan keyingi holatiga o'quvchilar diqqati tortilishi kerak. Nega shunday bo'ldi? O'quvchilar bu haqda o'ylab ko'rganlari ma'qul. Ayni vaqtda, o'qituvchi hikoya maromiga ohangiga tarbiyalanuvchilar diqqatini tortishi zarur. Chunonchi, yuqorida keltirilgan parchada goh ko'rilgan tadbir bir necha so'z yordamida bayon etiladi, natija bermaganligi esa bir og'iz "*bo'lmadi*" so'zi bilan ifodalanadi. Goho ko'rilgan tadbir: "*Tabib qon oldi*" shaklida uch so'z bilan bildiriladi-da, uning yomon oqibati: "*Betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi*" tarzida yetti so'z yordamida ifoda etiladi. Bu shunchaki tasodifiy holat emas. Abdulla Qahhor

tasvirlash mahoratini yuksak darajada egallagan, harakat va ruhiyat mutanosibligini chuqur anglagan ijodkor sifatida atay shu ifoda yo'sinini tanlagan. Bular hammasi savol-topshiriqqa aylantirilib, o'quvchilarning o'zlari tomonidan ochilishi kerak. Evristik metodning talabi shu.

Bugungi o'quvchida baxshiga o'qitib, xipchin bilan savalatib, tovuq so'yib qonlatib yurguncha kasalxonaga olib bora qolsa bo'lmaydimi, degan tabiiy savol tug'ilishi mumkin. O'qituvchi bu "tabiiy" savolning unchalar ham tabiiy emasligini anglatish uchun "doktorxona" haqidagi Sotiboldining tasavvuriga talabalar diqqatini qaratadi. Ular Sotiboldining iqtisodiy ahvoli og'ir ekanligini payqashlari, ayni vaqtda, bu haqda yozuvchi bir og'iz ham gapirmaganligiga e'tibor qaratishlari lozim. "Sotiboldining iqtisodiy ahvoli nochor ekanligini qaerdan payqadingiz?" degan savol o'quvchilarni ziyrak torttiradi. Shundan so'ng o'qituvchi aytmasdan anglatish, ma'lumot bermay xabardor etish uchun yozuvchi qanchalar mahoratli bo'lishi lozimligi haqida, bu fazilat faqat Qahhorgagina xosligi to'g'risida o'quvchilarga tushuncha beradi. "Yo'g'on cho'ziladi, ingichga uziladi" maqolining matn mazmuniga sezilmaydigan darajada yedirib yuborilganligi Sotiboldi iqtisodiy ahvolini bir qadar namoyish etganini ham o'quvchilar o'z tahlillari jarayonida anglaydilar.

Har qanday haqiqat qiyosda oydinlashadi. Shu jihatdan Sotiboldining ahvoli nechog'lik nochorligi xo'jayini Abdug'aniboy imkoniyatlarini axborot tarzida bildirilganligiga diqqat qaratiladi. Bu ham adibning tasvirlash mahorati qanchalar yuqori ekanini namoyish etadi. Xo'jayinning Sotiboldi orzu ham qilolmaydigan "*doktorxona*"ga bormay, Simga ketganligi haqidagi shunchaki axborot, aslida "shunchaki" bo'lmay odamlarning moddiy imkoniyatlari o'rtasidagi o'tib bo'lmas farqlarni anglatadigan va shu jihati bilan baxtsizning baxtsizligini yanada bo'rttirib ko'rsatadigan vositadir.

Muallif o'ta "sovuqqonlik" bilan Abdug'aniboyning qoplar tagida qolib "*o'ladigan*" bo'lganda Simdagi doktorxonaga borganligi haqida xabar berganday bo'ladi. Holbuki, Sotiboldining xotini to'g'risida biron joyda ham "o'ladigan" so'zini qo'llamaydi. Katta imkoniyat "o'ladigan" kasalni oyoqqa turg'izishi mumkin bo'lganidek, imkoniyatsizlik, chorasizlik "og'rib qolish"day oddiygina kasallikni ham o'lim bilan yakunlanadigan xastalikka aylantirishi mumkin ekan.

Bunday topildiqqa o'quvchilar o'qituvchi yo'naltirishi bilan o'zlari erishishlari kerak. O'qituvchining vazifasi savol-topshiriqlar bilan ularning e'tiborini mana shu kabi haqiqatlarga qaratishdan iborat.

Sotiboldining xo'jayini oldiga borganligi tasvriga o'quvchilar e'tiborini qaratish, shu yo'l bilan har bir personaj ruhiyati qirralari nechog'lik yorqin tasvir etilganligini aniqlash zarur. Shunday qilinganda inson deb atalmish murakkab mavjudotning ruhiy to'lg'onishlarini payqash mumkin bo'ladi. Har qanday odam birov bilan solishtirilgandagina haqiqiy qiymatiga ega bo'ladi.

Xo'jayini oldiga nega borganini Sotiboldining o'zi ham bilmaydi, lekin bordi. Har qanday risoladagi odam singari Sotiboldi ham xotinining tuzalishi uchun nimadir qilishi kerakligini biladi. lekin nima? Boshiga musibat tushganda inson o'zidan ko'ra kattaroq, kuchliroq, aqlliroq kishining ko'magiga, maslahatiga muhtojlik sezadi. Biror jonkuyari yo'q Sotiboldi uchun esa Abdug'aniboy shunday kishi bo'lib tuyuladi. Boy Sotiboldining dardini his qildi, unga ruhiy madad berishga, ko'nglini ko'tarishga urindi. Uning niyati — yaxshi. Sotiboldiga achinadi. Lekin ezguligi shu achinish bilan tugaydi. Demak, Abdug'aniboyning yaxshiligi darajasi, olijanobligining miqyosi qilgan amaliga yarasha. Chinakam yaxshilik amalda, faoliyatda namoyon bo'ladi. O'quvchilar boyning qanday odamligiga uning qilgan ishiga qarab baho beradilar.

Sotiboldining keyingi xatti-harakatlariga o'quvchilarning e'tibori tortilishi lozim. O'quvchilarni yaqin kishisining azoblarini yengillatishni astoydil istagan, ammo qo'li kaltaligi tufayli buning uddasidan chiqolmagan yigitning ruhiyatini anglashga yo'naltirish zarur. Shunday vaziyatda bo'lgan odamning ko'ngliga ish sig'adimi" Bu savol ularni bunday vaqtlarda odam nimalarni his etishi mumkinligini o'ylab ko'rishga, Sotiboldini tuyishga yo'naltiradi. Uning kundan-kun og'irlashib borayotgan xotini yonida chivqlar ichida ko'milib, savat to'qishi tasviri shunchaki axborot emas, balki ilojsiz odam ruhiyatining jonli va shafqatsiz tasviridir.

Hayot shafqat neligini bilmaydi, uni qiynoqlarga giriftor etmoqda. u – ko'z oldida yotgan yaqin kishisiga yordam berishdan ojiz. Ammo u – tirik va hayot haqida, ertangi kun to'g'risida o'ylashga majbur. Shu bois savat to'qish ko'ngliga sig'adi. Shu o'rinda hikoyadagi "oftobshuvoqda" ifodasiga o'quvchilar bee'tibor bo'lmasliklari kerak. Hikoyaga ayni shu so'z nima uchun kiritilgan? Bu so'zning asardagi

voqealarga nima daxli bor? Negaki, odam ko'klamda uydagi qishgi rutubatlardan qochib, oftobshuvoqqa chiqqisi keladi. Ayni vaqtda, ko'klamda kasalliklar, ayniqsa, xuruj qiladi. Bahorgi oftobning nozik nurlaridan kishi ko'nglidagi og'riqlarga, qishki toliqishga davo istaydi. Sotiboldi ham o'zi anglab-anglamay ishini oftobshuvoqda qilishi tabiiy hol.

Qizchaning holati tasvirlangan satrlarni o'quvchilarga qayta o'qitish kerak. Ular shu jarayonni, imkon qadar, aniq tasavvur qilsinlar. Pashshaning g'ing'illashi bilan bemorning inqillashi o'rtasidagi mutanosiblik bilan gadoy va uning tovushidagi monandlik asar ohangini vujudga keltirishda qanday o'rin tutganligi o'quvchilar tomonidan aniqlansa, g'oyat foydali bo'lardi. Hikoyaning umumiy ohangi, ruhini anglamay turib, qahramonlar ruhiyatini payqash mumkin emas. Chunki asl badiiy asar – buzilmas yaxlitlik.

O'quvchilar e'tibori gadoyning aytganlariga ham qaratiladi: shu jumla zimmasida qanday yuk bor? Odil yoqubov aytmoqchi "so'zga xasis" adib bu lavhani asarga kiritmasligi ham mumkin edi-ku! Hikoya busiz ham kishi ruhiyatini iztirobga soladi-ku! O'quvchilar bemor har ingraganda "*Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday*" azob tortib, talvasaga tushishi sabablari haqida ham o'ylab ko'rishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Nega shunday bo'layotir? Shunda ular Sotiboldining holatini bir darajada his qilishlari mumkin. Sotiboldining qo'shni kampirni chaqirishdan maqsadi nima edi? Uning qo'lidan jo'yaliroq bir ish kelmasligini Sotiboldi bilmasmidi? O'quvchilar kampirning xatti-harakatlari tasvirini kuzatishlari lozim. Uning bemorga, Sotiboldiga bergan maslahatlariga munosabat bildirilishi zarur. Kampirning boshqacha maslahat bera olmasligi, ayni vaqtda, maslahat bermay chiqib ketishi ham mumkin emasligini o'quvchilar anglashlari kerak. Chunki u yaxshi odam, achinganidan yig'laydi, qo'lidan shundan boshqa hech narsa kelmaydi.

Hayotdagi odamlarni tushunish badiiy asar qahramonlarini anglashdan kelib chiqadi. O'quvchilar norasida go'dakning chuchuk tili bilan aytilgan "*Xudoyo, oyamdi dayiga davo beygin...*" jumlasi asarda qanday vazifani o'tayotganligi xususida fikr yuritishlari lozim. Ular so'zlar ne boisdan o'quvchi tilidan berilayotganligini, buning vositasida adib nimani ifodalayotganligini o'ylab ko'rishlari zarur. Buning uchun shu holat savolga aylantiriladi. Hikoyadagi qo'shni kampir timsoli, qizchaning duosi muallifning o'z hayotidan olingan kechmishlari

ekanini, ular hikoyaning mohiyatiga mahorat bilan joylashtirilganini o'quvchilar anglashlariga ko'maklashish kerak bo'ladi.

Hikoyada: *"Ko'ngilga armon bo'lmasin deb chilyosin ham qildirishga to'g'ri keldi"* tarzidagi axborot ko'rinishidagi ifoda bor. O'quvchilar ko'ngildagi armon haqida gapirganda kim nazarda tutilayoganligi, bu gap bemorgami, Sotiboldigami, qizchasigami tegishli ekanligi haqida jiddiy o'ylab ko'rishlari, shu o'rinda o'zbek ruhiyati namoyon bo'lgan jihatlar haqida mulohaza qilishlari kerak.

Bemorning tetiklangani qay darajada ishonchli, hayotiy chiqqanini o'quvchilar ilg'ay olishiga erishmoq zarur. Haqiqatdan chilyosindan so'ng shunday bo'ldimi yoki buning boshqa sababi bormi? Chilyosin marosimining ko'p hollarda shu tarzda natija berishi, dahriylik avj nuqtasiga yetgan zamonlarda bu haqda shu taxlit yozish jasorat ekanligi borasida ham o'quvchilarga tushuncha berish ortiqchalik qilmaydi. Kasal onaning eridan qizchasini saharlari uyg'otmasligini so'rashga undagan sabab nima ekanligini aniqlash ham o'quvchilarning e'tiboridan chetda qolmasligi kerak. Bemorning o'limi tasvirlangan so'nggi xatboshi va o'limdan bexabar qizchaning duosi o'quvchilar ko'nglida qanday tuyg'ular uyg'otganligi haqida fikrlashish, hikoyadagi har bir tasviriy ifodaga munosabat bildirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hikoya qahramonlarining xatti-harakatlari tasviridan kelib chiqib "Sotiboldi tabiatan qanday odam? Abdug'aniboy yomon odammi? Kampirning mushtday go'dakni saharlari uyg'otishni maslahat berganiga qanday qaraysiz?" singari har bir personajning shaxsiyatiga xos sifatlar, xarakteriga mos xususiyatlar va ularning asarda qay yo'sin ifoda etilganligi haqida o'quvchilarni o'ylatadigan, munosabat bildirishga majbur etadigan savollar qo'yish lozim.

Hikoya tahlili so'ngida badiiy asar tili haqida nazariy ma'lumot berish ham ko'zda tutilgan. Asar boshdan-oxir til mahoratini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lganligi uchun ham ilmiy-nazariy xulosalar "Bemor" hikoyasi misolida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Unda kampir nutqining Sotiboldinikidan, qizcha nutqining Abdug'aniboynikidan, boy tilining gadoy nutqidan tamomila farq qilishi natijasida hikoyaning o'qishliligi ortganligi xususida o'quvchilar bilan fikrlashish zarur bo'ladi. Til ruhiyat ko'zgusi ekanligi, odamga xos juda ko'p yashirin jihatlar aynan tilda yorqin namoyon bo'lishi misollar asosida isbotlab berilsa, foydali bo'ladi.

Hikoya tahlilidan so'ng uy vazifasi sifatida asarni davom ettirishni topshirish mumkin. Asar qahramonlari keyingi hayotini o'quvchilar o'zlaricha tasavvur qilishlari, qarashlarini qog'ozga tushirishlari ularning fikr kishisi bo'lib shakllanishlariga ko'maklashadi yoki hikoyani o'z so'zlari bilan qaytadan yozishni yoxud uning asl mazmunini saqlab qolgan holda yanada qisqartirib yozishni (tanlash huquqi bilan) topshirish mumkin. Kim topshiriqlarning qaysi turini bajarishi o'ziga havola. Lekin bunday uy vazifalarini hammadan birday talab qilish shart emas.

Savol va topshiriqlar:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida nazariy ma'lumotlarning o'rganilishiga qanday qaraysiz? Sizningcha, ular kerakmi, yo'qmi? Fikringizni asoslang.

2. Adabiyot chuqur o'rganiladigan maktablar bilan umumiy o'rta maktablar adabiy ta'limi bir-biridan nimasi bilan farqlanadi? Fikringizni dalillar bilan asoslang.

3. Nima deb o'ylaysiz, maktabda adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish uchun dasturlarda alohida soat ajratish kerakmi yoki yo'qmi? Nima uchun?

4. «Adabiyotshunoslikka kirish» va boshqa kurslarda o'rganganingiz nazariy bilimlar sizning o'qituvchilik amaliyotingizda kerak bo'ladimi yo'qmi? Nega shunday deb o'ylaysiz?

5. Milliy adabiy ta'limning: "...ma'naviy komillik sari yuz burgan, ruhiy to'kislik yo'liga tutungan avlodni shakllantirish" tarzidagi maqsadini qanday tushunasiz? Fikuringizni asoslang.

6. Nazariy bilimlarni berishda o'qituvchining vazifasi nimalardan iborat deb o'ylaysiz va buni qanday tasavvur qilasiz?

7. Bir nechta badiiy asar misolida nazariy tahlilni amalga oshiring. Har bir asarga xos bo'lgan nazariy tushunchalarni ochib bering va fikringizni asoslang.

8. Alisher Navoiy, Bobur va G'. G'ulom ijodidagi janr xilma-xilligining nazariy tahlilini darslikdagi asarlari misolida amalga oshiring. O'zingizning nazariy bilimdonligingizni tekshirib ko'ring.

9. Abdulla Qahhor qalamiga mansub «Bemor» hikoyasining filologik tahlilini amalga oshiring. Asarning sizga taqdim etilgan didaktik tahlili bilan o'zingiz amalga oshirgan filologik tahlilini

aloqani tiklashga imkon beradi va shu tarzda keyingi ma'lumotlarni diqqat bilan chuqurroq o'zlashtirishga e'tibor qaratiladi.

Dars davomida o'qituvchi tomonidan o'quvchilar ishtirokini talab qiladigan savollar o'rtaga tashlanmasa, ularning mavzuga ijodiy yondashishlariga erishib bo'lmaydi. Agar o'qituvchi ritorik savollar bilan birga o'quvchilardan javob talab qiladigan savollarni qo'llasa, ritorik savol, o'quvchilarning aqlini zo'riqtirib, e'tiborini kuchaytira borib, ularni nisbatan kuchliroq aqliy faoliyat asosida umumlashmalar qilishga, xulosalar chiqarishga tayyorlaydi. Javob talab qilinadigan savollar esa o'quvchini zaruriy faktlarni aniqlab, isbotlab berish bilan birga o'z mulohazalarini mustaqil ravishda bayon etish ko'nikmasini ham tarbiyalab boradi.

O'quvchilar ularning oldiga mustaqil ravishda mulohaza yuritish va baholash talab qilinadigan savollar qo'yilganda faollashadilar. Masalaning bunday echimiga izchil va uncha murakkab bo'lmagan muhokamalar bilan erishiladi. Demak, asosiy masala muhokamasida o'quvchiga ma'lum talablar qo'yadigan har qanday qo'shimcha savol ham ularning aqliy faoliyatini tezlashtiradi. O'quvchilarni u yoki bu dalillarni to'ldirishga yoki tuzatishga yo'naltiradigan savollar, albatta, ularning mustaqil fikrlashini ta'minlamaydi. Bu masala o'quvchi o'zlashtirayotgan yangi bilimlarning o'ziga xos jihatlarini ochishga yo'naltirilgan aqliy zo'riqishlar talab qilinadigan qo'shimcha savollar berish orqali hal etiladi.

O'quvchilar, odatda, biror hodisani xotirlashga qaratilgan qo'shimcha savollarga engil va erkin javob beradilar, chunki ularda xotira kuchli. Lekin oldilariga nisbatan murakkab savollar qo'yilganda ma'lum qiyinchilikni his qiladilar. Bu qiyinchilik masalani hal etishning dastlabki bosqichida kuzatiladi. Keyinchalik, o'qituvchining ko'magida bunday vaziyatlardan ham o'zlari mustaqil ravishda chiqadigan bo'lishadi. Demak, murakkab o'quv topshiriqlarini qo'yish o'quvchini muvozanatdan chiqaradi. Tafakkuri va xotirasini faol ishlashga undaydi. O'qituvchining savoliga mustaqil ravishda javob izlab topish jarayonida o'quvchilar ma'lum murakkabliklarni boshdan kechirishadi, bir qadar qiynalishadi.

Savollar ko'magida murakkab vaziyatlarni tashkil etish bilan o'qituvchi o'quvchilar bilimi, fikriy faolligini oshiradi, bilimlarning chuqur o'zlashtirilishiga ko'maklashadi, ularning tajribasini boyitadi, murakkab masalalar echimiga mustaqil ravishda erishishlariga

yordamlashadi. Bunday favqulodda ta'limiy vaziyat yaratish, savol bilan o'quvchini hayratga solish unda mavjud avvalgi tasavvurlarga qarama-qarshi bo'lganidan kuchli hissiyot uyg'otadi. Hayrat tushunishning boshlanishi va u bilishga olib boradigan yo'ldir.

Savollarga javob berishda o'quvchilar ko'pincha umumiy qonuniyatni to'g'ri topadilar, biroq buni o'zlari asoslab berolmaydilar. Ulardan nega shundayligini tushuntirish yoki aytganlarini isbotlash talab qilinganda, mazkur holatga tegishli ko'pgina faktlarni bilsalar ham, o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. O'quvchi o'zi bilgan dalillarni, bilimlarni yangi tizimga, o'qituvchining savoli talab qilayotgan yangi yo'nalishga solishi kerak bo'ladi. Dastlab o'quvchini ayni shu narsa qiynaydi, keyinchalik, faktlar aniqlangach va berilgan topshiriq uning aqliy imkoniyatlari darajasidan uncha uzoq emasligi ma'lum bo'lgach, tafakkuri faollashadi, qiyinchiliklarni o'zi bartaraf etib, masalaning echimini mustaqil topadi.

O'quvchilarining ma'nan sog'lomlashuviga intilgan o'qituvchi savollarni mavzuga mos tarzda shakllantiradi. Shuning o'zi o'quvchining aqliy faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi. O'qituvchi talabani tayyor qoliplardan qochishga, materialni shunchaki qayta bayon qilmay, qarashlarini ma'lum tayanch fikr atrofiga umumlashtirishga, undan javob uchun zarurini ajratib olishga, fikrini qolipdagi siyqa iboralar orqali emas, o'z so'zlari bilan bayon qilishga undaydi. Bunday faoliyat o'quvchilardan ma'lum hodisaning sabablarini tushuntirish, fikrlarini qat'iy ilmiy-mantiqiy, badiiy va hayotiy asoslarga qurish, voqea-hodisalarni xolis baholash, kuzatganlarini umumlashtirishni talab qiladi. Bunday vaziyatlarda qo'shimcha savollar juda qo'l keladi. Qo'shimcha savollarning kuchi shundaki, ular avval o'rganilgan bilimlarga tayanadi, o'quvchilarning aqliy faoliyatini ma'lum darajada engillashtiradi. Bu o'rinda avval o'zlashtirganlarni takrorlash emas, balki o'rganilgan bilimdan yangi yo'nalishda foydalanish talab qilinadi. Bu ularni yangilik qidirishga, noma'lumni aniqlashga yo'naltiradi. O'zining bilganlaridan unumli foydalana olish va umumlashmalar talab qiluvchi savollarga javob berish o'quvchilarni aql ishlatishga majbur qiladi.

Milliy tarbiyashunoslikda shu vaqtga qadar savol aqliy faoliyat ko'rinishi tarzida o'rganilmagan. Savollarning uyg'otuvchi kuchi va samara ko'rsatkichi aniqlanmagan. Savol tafakkurning mantiqiy shakliga daxldormi yoki bu oddiy nutq hodisasimi? Bilimlarni

o'zlashtirish jarayonida savollar qanchalik ahamiyatli? Uning bilimlarni orttirish borasidagi vazifalari nimalardan iborat? S. Matjonovning tadqiqotida darsliklardagi savol-topshiriqlar ma'lum guruhlarga ajratilgan, ularning o'quvchi mustaqil faoliyatini tashkil etishdagi, ijodiy tafakkurini o'stirishdagi o'rni va ahamiyati xususida so'z yuritilgan[1]

Savolning ta'lim usullaridan biri sifatidagi o'rnini uning aqliy hodisa sifatidagi talqinisiz belgilab bo'lmaydi. Shu narsa ayonki, savol – individual tafakkurning bilganlari bilan bilmaganlari orasida turgan, ayni vaqtda, yangi tushuncha hamda bilimlarni o'zlashtirishga yo'llaydigan maxsus shakli. O'qituvchining savol berishi sababi o'zi uchun noma'lum bo'lgan narsani aniqlash emas. U o'z savoli bilan o'quvchining tafakkurini qitiqlaydi, yangi bilimlarni o'zlashtirishga undaydi. Savol tafakkurning bilmaslikdan bilishga, bilishning chalaligi yoki noaniqligidan to'liq va aniq shakliga o'tkazadigan samarali vosita hisoblanadi.

Bola tafakkuri mustaqilligi darajasi uning bilim olishga qiziqishi, o'quv fanining mohiyatiga kirishga intilishi, biror hodisa bo'yicha hosil qilingan yuzaki bilimdan qoniqmaganidan bergan savollarida ham namoyon bo'ladi. O'quvchining biror o'quv fani yuzasidan o'ylari, savollari qancha ko'p bo'lsa, mazkur predmetga bo'lgan qiziqishi shuncha baland ekaniga ishonish mumkin.

Shunday qilib savollar nafaqat qiziqishning chuqurligi o'lchovi, balki mustaqil tafakkurning rivojlanishi belgisi hamdir. Pedagogik amaliyotda o'quvchilarni savol berishga undovchi qator usullar mavjud. Lekin o'quvchilarning chuqur savollar berishi ta'lim tajribasida uncha keng tarqalmagan. O'qituvchilar har xil usullar bilan o'quvchilarni savol berishga undaydilar. Lekin amaldagi ta'lim o'quvchilarni savol berishga, muammoni topib, echishga rag'batlantirmaydi. O'qituvchi tomonidan tayyor va to'g'ri xulosalar berilishi bolada aqliy zo'riqishga ehtiyoj uyg'otmaydi, o'quvchida mavzuni o'rganishga chuqur qiziqish yuzaga kelmaydi. Qiziqish bo'lmagan joyda savollar ham tug'ilmaydi.

O'quvchilarning savollari matnning o'zidan qayta ishlangan, yangi ma'lumot olishga undaydigan, sabab va aloqadorlik, ichki qonuniyatlarni aniqlaydigan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Nimanidir

[1] Матжонова С. Ўқувчиларни дарсликда берилган [illegible] 1998. – 36-б.

aniqlashgagina qaratilgan savollar katta ruhiy chanqoqlikdan kelib chiqmagan bo'ladi. Ammo bular keyinchalik tug'ilishi mumkin bo'lgan chuqur mantiqli savollarga zamin tayyorlashi ham mumkin. O'qituvchidan bunday savollarga alohida e'tibor bilan qarash talab qilinadi va ularning nisbatan mazmundorlari rag'batlantirib borilishi kerak. Bunday savollarni berish bilan o'quvchi o'quv materialini ma'noli bo'laklarga bo'lish, kutilmagan muammolarni topish va taqqoslash, ularning orasidan yaxshilarni tanlab olishni o'rganadi. Ba'zan bunday savollarga o'rtoqlarining javobida o'zi uchun yangi bo'lgan ma'lumotni olishi ham mumkin. Biror narsaga aniqlik kiritishga qaratilgan savollar o'ziga alohida e'tiborni talab qiladi. Chunki o'smirlar ko'pincha savolni biror narsani aniqlab olish uchun beradi, tasdiq yoki rad javobini olgachgina, nega shundayligini so'raydi.

O'quvchining yangi ma'lumot olishga qaratilgan savollari uning dunyoqarashini kengaytiradi, bilimlarini boyitadi. Bunday savollar ko'pincha o'z ortidan faol harakatlarni etaklab keladi. Yangi axborot olgan o'quvchi ko'pincha faol amaliy ishga o'tadi, javobda ko'rsatilgan adabiyotlarga murojaat qiladi. O'quvchilar bir-biriga o'xshamagan savollar tuzishga, o'z fikrlarini savol shaklida to'g'ri shakllantirishga harakat qiladilar. Savollar o'quv materialidagi asosiy g'oyalar, muammolar qay darajada chuqur o'zlashtirilganligini ko'rsatadi.

O'quvchilarning o'z o'rtoqlariga savollar berishi ham ko'p ijobiy sifatlarga ega. Bu barcha o'quvchilarning faolligini oshiradi, o'z savoliga, o'rtoqlarining javobiga tanqidiy nazar shakllana boradi. Demak, o'quvchilar tafakkurini rivojlantiruvchi, bilimlarning yuzakiligini bartaraf qiluvchi, ularga o'zgaruvchanlik bag'ishlovchi savollar o'quv faniga nisbatan chinakam qiziqishni ham ko'rsatadi. Ba'zi savollar yuzaki qiziqishni namoyish etsa, boshqalari o'quv fanini chuqur o'rganishga intilishni ko'rsatadi. Darsda savollarning ko'p berilishi – o'qituvchining katta yutug'i. U o'z tarbiyalanuvchilarida yo'nalganlik bo'lishini ta'minlashi uchun ularni so'rashga o'rgatishi, har bir darsni shunday tashkil etishga urinishi kerak.

Savollarning o'rganilgan shakllardan boshqacha, o'zgargan holda qo'yilishi ham tafakkur mustaqilligining shakllanishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunday vaziyatlarda o'quvchining tafakkuri mustaqil tarzda ishlay boshlaydi. Negaki, uning oldiga javob berishni talab qiladigan vazifa qo'yilgan. O'z navbatida, bu usul fikrlarni o'z so'zlari bilan ifodalashni ham talab qiladi. Bu holat nafaqat ta'limiy,

balki tarbiyaviy ahamiyatga ham molik. Asosiy savollarga berilgan javoblar hamisha ham etarli darajada to'liq va o'zlashtirilayotgan hodisaning barcha jihatlarini aniq, tizimli, umumlashgan tarzda qamrab olmasligi mumkin. Shunda qo'shimcha savollar kerak bo'ladi. Ular eslashga qaratilgan, o'ylashga undaydigan savollar bo'lib, ma'lum maqsadlar uchun xizmat qiladi va shuning uchun aniq qo'yiladi. Eslashga qaratilgan qo'shimcha savollar o'quvchining javobini ma'lum izchillikda, o'rganilgan materialni to'liq va aniq ifodalash maqsadi yo'lida bo'lishini ta'minlaydi. Bunday qo'shimcha savollarning qo'yilishi har qanday holatda aqliy faollikni oshiradi. Bu faollik bolalarning qo'yilgan savolga javob berishga intilishida ko'rinadi. Qo'shimcha savollar o'quvchini materialning unutib qoldirilgan jihatlarini tiklashga yoki xatoliklarni to'g'rilashga yo'naltirganda ahamiyat kasb etadi. Ammo bu savollarning o'quvchi tafakkuri mustaqilligini ta'minlashdagi roli cheklangan bo'ladi.

Qo'shimcha savollarning ikkinchi guruhi o'z bilimlarini jamlash va ularni so'rov jarayonida paydo bo'lgan yangi masalalarni hal etishda ijodiy qo'llashni talab qiladi. Bir o'quvchiga berilgan qo'shimcha savol sinfdagi boshqa o'quvchilarni ham o'ylashga undaydi. O'quvchidan fikrlashni talab qiladigan qo'shimcha savollar uning fikrlashida aniqlik yo'qolib, umumiy gaplar atrofida aylana boshlaganda o'rtaga tashlanadi. Ma'lum isbotni talab qiladigan qo'shimcha savollar qiyinligi sababli tafakkurning yuqori faolligini yuzaga keltiradi. Faqat javoblar yod olingan iboralardan tashkil topgan bo'lmasligi kerak. O'quvchilar tomonidan ikki xil fikr o'rtaga tashlanganda o'qituvchi bu javoblarning qay biri to'g'riligini isbotlashni ularning o'zlaridan talab qilgani ma'qul. Takror qo'yilgan masala bolalarda qiyinchilik uyg'otmaydi. Bu masala o'quvchilarning bilganlariga asoslanganda ularning fikrlash faoliyatini tezlashtiradi.

Qiyin vaziyatlarni vujudga keltiradigan savollar nafaqat o'quvchilar tomonidan ularga to'g'ri echim topilganida, balki echim topilmagan taqdirda ham foydali bo'ladi. Murakkab masala echimini o'quvchilarning o'zlari topishlari hodisaning qonuniy aloqalari ular tomonidan anglab yetilganidan dalolat beradi. Ishda istalgan natijaga erishilmagan taqdirda ham, bu masala o'rganilgan bilimlar doirasida ekanligi anglansa, o'quvchilar o'rganilayotgan material ustida ongli va faol ishlay boshlaydilar. Eng muhimi, bu jarayonda mustaqil va tanqidiy fikrlash shakllana boradi. Agar uzoq muddat davomida

o'quvchilarga tafakkur faolligini talab qiluvchi pedagogik ta'sir ko'rsatib borilsa, fikr mustaqilligi shakllanishiga erishiladi. O'qituvchi har qanday savoli bilan tinglovchi tafakkuri, tasavvuri va tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsata olishi kerak.

O'quvchilarning tafakkur faoliyatida o'zgarish qilishga erishish etarli darajada uzoq muddatni va bu xususiyatlarni o'zgartirishga qaratilgan qator maxsus pedagogik ishlar, zarur shart-sharoitlarni talab qiladi. O'quv jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabat aqliy faoliyatni ko'taradi va ijobiy munosabatning qat'iylashuvini ta'minlaydi.

O'quvchiga yordam berish – ta'limning har qanday turida o'qituvchining muhim vazifasi. Bu vazifa o'qituvchidan katta kuzatuvchanlik, ziyraklik va o'quvchining tafakkuri darajasini bilishni talab qiladi. Shu bilan birga, o'quvchining qobiliyatiga, mustaqilligiga daxl qilmaydigan yordam darajasini aniqlab olish, unga qiyinchiliklarni mustaqil ravishda bartaraf qilishni o'rgatadigan yo'llarni bilish nazarda tutiladi. O'qituvchi o'quvchilarga yordam berar ekan, ular ta'lim jarayonining har bir bosqichida mustaqil ishlash tajribasini o'rganib borishlari lozimligini nazardan qochirmagani ma'qul. Agar bu talab nomiga bajarilsa, o'quvchi o'zi hal etish tajribasiga ega bo'lmagan holda qiyin muammo bilan uzoq vaqt yolg'iz qolsa, uning qobiliyati va tafakkurining mustaqilligi o'sishiga putur etadi. Shuningdek, o'qituvchining qiyinchilikni tamomila bartaraf qiladigan yordami ham o'quvchining tafakkur mustaqilligi rivojiga halaqit beradi. O'quvchilarni ijodiy fikrlash va mustaqil faoliyatga yo'naltiruvchi, o'zini ham aqlan, ham ruhan zo'riqtirishga undovchi savollar ba'zan topshiriq shaklida ham bo'lishi mumkin. Masalan, "o'ylab ko'ring", "tasavvur qiling", "fikringizni asoslang", "nega shundayligini asoslang", "qarashlaringizni misollar bilan isbotlang" singari to'ldiruvchi topshiriqlar, ya'ni savolga berilgan javobning asosliligi va mukammalligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'qituvchining: "Yaxshilab o'ylab ko'ring. Nega ko'nglingizda Hoshimjonga nisbatan nafrat yo'q?" tarzidagi ziyraklikka undovchi topshiriqlari o'quvchini o'zligi, ruhiyati taftishiga undaydi. Bunday paytda o'quvchilar o'z mustaqil javoblarini aytishga majbur bo'ladilar. O'zbek tilining izohli lug'atida "topshiriq" – kimsaning zimmasiga yuklatilgan ish, vazifa ma'nolarini anglatishi aytilgan[1]. "Savol" esa – javob olish uchun

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. 312-b.

aytiladigan gap, jumla ma'nosida izohlangan[1]. Adabiyot darslarida har ikkalasidan ham adabiy ta'lim maqsadiga muvofiq tarzda foydalaniladi.

Xullas, o'qituvchining badiiy matn mazmuni, o'quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga undovchi, fikri va qarashlarini asoslashni talab qiladigan savol va topshiriqlari, ayni zamonda, o'quvchilarning asarlar mazmuni asosida o'zaro bir-birlariga beradigan savol va topshiriqlari ham adabiy ta'limda matn tahlilini chuqurlashtirishga yo'naltirilgan asosiy didaktik ashyolardan biri hisoblanadi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Ming bir jon

7-sinf "Adabiyot" dasturida Abdulla Qahhorning "Ming bir jon" hikoyasi tavsiya etilgan va uni o'rganish uchun ikki soat vaqt ajratilgan.

Darsning maqsadi insonning irodasi va matonati uni hamisha maqsad sari yetaklashini o'quvchilarga anglatish, badiiy tahlil asosida asarning mazmun-mohiyatini ochib berishdan iborat. Dars suhbat, qiyosiy tahlil metodlari asosida tashkil etiladi.

Mazkur hikoyani o'rganishga ajratilgan ikki soatni o'qituvchi ona tili darsi hisobidan umumlashtirib, bir kunda o'tgani maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi darsda adibning hayoti va ijodini o'rganishga vaqt ajratishning zaruriyati yo'q. Chunki o'quvchilar 6-sinfda adibning shaxsi, hayoti va ijodi bilan tanishganlar. O'quvchilarga adibning o'quvchilik davridagi xotiralaridan parcha o'qib berish yaxshi samara beradi: "*Bir men emas, nazarimda, har bir o'quvchi tezroq tovushi yo'g'on bo'lishini, dorilmuallimin talabalari safida sharqiy uyib, shularday qadam tashlab, shahar ko'chalarini larzaga keltirib yurishni orzu qilardi... Nazarimda shu hafta ichida tovushim do'rillay boshladi. O'zimda yo'q xursand edim...*".

Mazkur parcha o'qib eshittirilgach, o'qituvchining: "*Tovushi yo'g'on bo'lish*" nimadan dalolat beradi? Adib nima uchun bundan "*o'zida yo'q xursand*" ekan? yettinchi sinf o'quvchilari o'zlarida shunday holatni kuzatishganmikin?" tarzidagi savollariga javob berish asnosida o'quvchilar o'zlarini taftish qilish asnosida adib shaxsini ham kashf etadilar. Agar orada o'xshashlik topilsa, bu o'xshashlik, yaqinlik o'quvchiga Qahhorni suydiradi. Chunki inson o'ziga o'xshagan odamni

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – С. 98-б.

yaxshi ko'radi, yozuvchi bilan o'quvchi orasida o'xshashliklar qancha ko'p kashf etilsa, ular orasidagi hissiy aloqa shunchalik kuchaya boradi. Kitobxon adibni qanchalik tushunsa, chuqur bilsa, qancha yaxshi ko'rsa asarlarini ham shunchalik sevib o'qiydi.

Adabiyot darslarida o'qituvchi imkon qadar yozuvchi-shoirlarning shaxsi bilan bog'liq fazilatlarini ko'proq ochishga yo'naltiruvchi materiallarga tayanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, adibning shaxsini ochish uchun u haqdagi xotiralardan ham foydalanish mumkin.

Masalan, taniqli adabiyotshunos olim, professor Umarali Normatov shunday xotirlaydi: "*Hamisha haq gapni aytgani, haqiqat oldida hech kimni, hatto o'zini ham ayamagani uchun bo'lsa kerak, haqiqiy iste'dod egalari, garchi undan qattiq dakki eshitsalar-da, baribir unga talpinaverardilar...*".

Yoki yozuvchi Omon Muxtor adibning fazilatlari haqida gapirib shunday deydi: "*Abdulla Qahhorning odamlarga buyuk muhabbati bor edi. Adib yorug' dunyoda insonning go'zalligini, qudratini o'g'irlab, uni zaif qilib qo'yadigan qusur- illatlar ham umr yo'lida uchrab turishini juda erta anglagan. Yuragida mana shu qusur-illatlarga qarshi nafrat tug'ilib, bu nafrat kuydiruvchi qahr o'uga aylandi. Abdulla Qahhor bu dunyoda insonning faqat go'zal, faqat qudratli bo'lishini orzu qilgan, shunday insonlarni to'lib-toshib ulug'lagan edi*".

Yoxud Abdulla Qahhor hikoyalari yuzasidan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan olim va yozuvchi Pirimqul Qodirov shunday yozadi: "*Tushunchalar va saviyalar har xil bo'lishiga Abdulla aka tabiiy bir narsa deb qarar, e'tirozlarga ham kamoli jiddiyat bilan quloq solar, bahslashganda tovushini ko'tarmasdan, madaniy kishilarga xos bir kamtarlik bilan muloyim ovozda gapirar edilar*".

O'quvchilar mana shu xotiralardan Abdulla Qahhor shaxsiga xos bo'lgan fazilatlarni aniqlashga yo'naltiriladi. Buning uchun ular savol yoki topshiriqlar ko'magida tahlilga tortiladi.

So'ngra asarni o'qishga kirishiladi. Hikoya matnini o'qituvchining o'zi ifodali o'qib beradi. Asar mutolaasi uchun birinchi soatning 13–14 daqiqasi sarflanadi. O'qish jarayonida har bir o'quvchi o'z kitobidan o'qituvchi bilan birga matnni ovoz chiqarmay o'qib borishi zarur. Bundan, avvalo, o'quvchining mutolaa jarayonida boshqa narsalarga chalg'imasligiga erishilsa, ikkinchidan, o'quvchining ko'zi o'qishga,

qulog'i ifodali o'qish ohangiga moslashib boradi. Bundan tashqari, o'qituvchi asar matni ustida ishlash paytida o'quvchilarning vaqtini tejash, asardagi muhim o'rinlarga, savollarga javob berish maqsadida tayanish mumkin bo'lgan joylarga belgi qo'yib ketishni ko'rsatib boradi. Asar ustida ish boshlanganda o'quvchilar diqqat qilishi mumkin bo'lgan o'rinlarni ko'p qidirmay, belgilarga tayanib ish tutadilar.

O'quvchilarning Abdulla Qahhor hayoti va ijodi haqida bilganlari, 6-sinfda o'rganganlari "Bemor" hikoyasidagi timsollar va yetakchi qarashlarni eslab o'tish "Ming bir jon" hikoyasi tahliliga zamin hozirlab boradi. O'quvchilar e'tibori har ikkala asardagi umumiy va farqli jihatlarga qaratilgani ma'qul. Bu hikoyalarning ikkovida ham bemor ayol tasvirlangan. U ayollarning bir-biridan farqi nimada? Nima uchun bittasi o'ladigan bo'lmasa ham "uzildi"-yu, ikkinchisida hayot belgisi bo'lmasa ham yashab ketdi?

O'quvchilarga bunday savollarning berilishi, ularni hayotiy haqiqatlar haqida mulohaza yuritib ko'rishga undaydi. Kimningdir nazarida Sotiboldining xotini nochorlik, kambag'allik, ma'naviy qashshoqlikning qurboni bo'ldi. Masturani esa o'z ishonchi, irodasi, bardoshliligi, erining muhabbati saqlab qoldi.

Kimdir bu taqdirning ishi ekani, inson bu dunyodan nasibasi uzilsa, bir soniya ham yashay olmasligini, agar umri tugamagan bo'lsa, o'n yil to'shakka mixlanib yotgandan keyin ham bir sabab bilan tuzalib ketishi mumkinligini aytadi. Lekin insonga xos bo'lgan iroda, matonat, bardosh singari tushunchalarni o'quvchilar ilg'ashlari, anglashlari, farqlashlari kerak. Adabiyot darslarining vazifasi ham shu. Qolaversa, o'quvchilar e'tibori hikoyalardagi voqealar sodir bo'lgan ijtimoiy muhitga ham, qahramonlarning saviyasiga ham jalb etilishi kerak.

So'ngra bevosita "Ming bir jon" hikoyasi matnining tahliliga o'tiladi. Hikoya mutolaasi davomida o'quvchi ko'nglida avvaliga qo'rquv, rahmdillik hissi paydo bo'ladi. Hamshiraning Mastura va uning eri haqidagi: *"Tomog'idan hech narsa o'tmaydi. Ovqatni qorniga quyishadi... Teshib qo'yilgan... Ba'zan o'zi quyadi, ba'zan eri"* tarzidagi axboroti, *"qorniga tez-tez suv to'planishi"* xuddi Hoji akada bo'lganidek, kishida achinish va hayrat hissini uyg'otadi. Keyinchalik hikoya qahramonining sheriklari bilan Masturalar palatasiga kirib, bemorni ko'rgandagi ahvoli, kasalning *"Ko'z o'ngimizda xasta emas, o'lik, haqiqiy o'lik, sap-sariq teri-yu suyakdan iborat bo'lgan murda ichiga botib ketgan ko'zlarini katta ochib yotardi... Tobutda yotgan o'likning qo 'limi, oyog'imi, biror sabab orqasida bexosdan qimirlab ketsa kishi qay ahvolga tushadi? Uning o'lim pardasi qoplagan yuzida chaqnab turgan ko'zlarini ko'rgan odam xuddi shu ahvolga tushar edi"* tarzidagi holati tasviri. Hoji akaning vaziyati, Masturaning hazili, ayniqsa, kulgisining *"xunuk, odamning etini jimirlatadigan darajada xunuk eshitilishi"* ifodasi kishining ko'ngliga qo'rquv soladi.

Shu ma'noda Hoji akani tushunish mumkin. Hoji aka bilan kirgan boshqa bemorlar ham undan kam ahvolga tushganlari yo'q. Faqat ular o'zlarini idora qilib, tutib oldilar, xolos. O'lim va u bilan bog'liq holatlar tasviri hamisha kishida qo'rquv hissini paydo qiladi. Lekin holatning bunday aniq-tiniq tasviri kishidagi qo'rquvni yanada orttiradi.

Hikoya o'qib bo'lingandan keyin esa, ayniqsa, aytuvchining Mastura va Akramjonlar bilan uchrashuvi tasviri, Masturaning *"qo'lidagi olmani ustma-ust bir necha martaba tishlashi-yu"*, *"chala chaynab yutishi"*, *"olamga tahassum sochib"* kulib turishi, uning kulib: *"Kuchimni, g'ayratimni to'la-to'kis ishga solib yuribman"*, – degani yuqoridagi qo'rquv, achinish va rahmdillik hislarini ko'ngildan haydaydi. O'rnida quvonch, hayrat, havas tuyg'usi, qoniqish hissi paydo bo'ladi.

O'quvchilar o'z ko'ngillariga nazar solganda, unda shunday hislar kechganini ilg'ashlari mumkin. Faqat bu tuyg'ularni so'z bilan ifodalab berishga hammasi ham qodir emas. Adabiyot o'qituvchisining vazifasi ularni shunday tuyg'ularni ilg'ashga, farqlashga va so'z bilan ifodalashga o'rgatishdan iborat. Buning uchun o'quvchilar diqqatini mana shunday o'rinlarga qaratish, ularni har bir holat haqida savol va topshiriqlarga javob berish asnosida fikrlashga o'rgatish lozim bo'ladi. Chunki qozoq shoiri M. Shoxonov aytganidek: "... tarbiyaning eng oliy ko'rinishi tuyg'ular tarbiyasidir".

Hikoyada yozuvchi mahoratini ko'rsatuvchi *"yengchadan boshini chiqarib turgan sichqon"*, *"qorong'ida qo'rqqan kishining ashula aytishi"*, *"qorni silkinyapti"*, *"shaytondab qolayozdi"*, *"o'ng ko'zini o'yib berish"*, *"tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan jon"* singari ifodalarga o'quvchilar nazari tushganda, zarurat sezilsa, o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini shu o'rinlarga qaratishi mumkin. Faqat har bir ibora nimani ifodalayotganini, uning zamirida nimalar tasvirlanayotganini o'zlari aytishlari talab qilinadi. Shunday tasvirni oddiy so'zlar bilan ifodalaganda qanday bo'lishi. Qahhor nega bunday

iborani qo'llagani haqida o'quvchilar o'ylab ko'rishlari maqsadga muvofiqdir. Inson hamisha tabiat bilan uzviy aloqada yashaydi. Shodligida ham, qayg'uga cho'mganda ham tabiat qo'ynidan dalda qidiradi. Shuning uchun badiiy asarlarda ham tabiat inson bilan baqamti tasvirlanadi. Abdulla Qahhor "*Shu payt oftob yana bulut ostiga kirdi-yu, palatani shom qorong'ligi bosdi... Oftob yana yorishdi. Masturani baralla ko'rdik...*" singari tasvirlarni hikoyaga bekorga kiritmagan. Adib ularni o'quvchiga ko'proq ta'sir ko'rsatish, ziyrak torttirish uchun kiritgan. Agar hamrohlar palataga kirganlarida oftob xotani yoritib turgan bo'lsa, ular kirishlari bilan bemorni boyagi ahvolda ko'rishsa, vaziyatning tasviri kitobxonga unchalik kuchli ta'sir etmasligi mumkin edi.

Masturaning kasali, tibbiyot tili bilan aytganda saraton. Tomog'idan ovqat o'tmay qolishi xalq tilida "qiltomoq"ning belgisi. Lekin Masturaning shunday kasaldan tuzalib oyoqqa turib ketishi bu, badiiy to'qimami? Hayotda shunday hodisalar bo'ladiki, inson aqli uning oldida ojiz. Mastura ko'ngliga shunday katta ishonch va irodani solib qo'ygan ham Yaratganning o'zi. O'n yildan beri to'shakka mixlanib yotgan kasalning oradan uch yil o'tgach tuzalib, ot choptirib yurishi inson aqliga sig'maydi. Lekin hayotda nimalar bo'lmaydi deysiz.

Masturaning: "*...men odam bolasining o'lim kutishiga, ya'ni dunyodan umid uzishiga ishonmayman. Hatto, tildan qolgan kasalning rozilik tilashib qaragani ham dunyodan umid uzgani emas, balki "rozilik tilashga hali erta" degan umid bilan, dunyoda tengi yo'q timsoli yo'q zo 'r umid bilan qaragani deb bilaman*", – degan qat'iy fikri ham uning irodaliligidan, hayotga ishonchidan dalolat beradi. Bunday gaplarni faqat hayotni qattiq sevgan, o'z irodasiga ishongan odam ayta olsa kerak.

Mirrahimovning Mastura haqidagi: "*Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! Hozir tugab qolgan shamday tipillab yonayotgan joni basharti so'ngan taqdirda ham, qolgan mingtasini yoqib keyin so'nadi. Mana shu ishonch Masturaga o'limni yo'latmaydi*", – degan gaplari hikoyaning asosini, mohiyatini tashkil etadi. Irodali insonni hech narsa sindirolmaydi. O'z qarashiga ega bo'lgan, shaxsiy dunyoqarashi mavjud inson hech qachon bukilmaydi. Mirrahimovning ushbu gaplari tahlil etilganda o'quvchilarning xulosalari shu ma'noda shakllansa, adabiyot o'qituvchisining yutug'i.

Mirrahimovning Akramjon haqidagi: "*...bu yigitning rafiqidan yigitlik umri ming bitta-ya, shundan bittasini Masturaga qurbon qilyapti*", – degan gapiga, "*Masturaning bir minutlik oromi uchun o'ng ko'zini o'yib berish*"ga tayyor ekanligiga asoslanib, Akramjon shaxsini, muhabbati darajasini baholash mumkin.

Odatda, inson boshiga tashvish tushganda o'zgalarning shirin so'ziga, tasallisiga ehtiyoj sezadi. Kishilarning hamdardligi, yupanchi ko'ngliga bir oz bo'lsa-da orom bag'ishlaydi. Masturaning hikoyachiga qarata: "*...kechirasiz, ataylin so'rashmagan edim... So'rashsam, menga tasalli berar edingiz... O'sha tobda menga tasalli berib aytilgan har bir so'z ishonchimga raxna, ko'nglimga g'ulg'ula solishi mumkin edi*", – deyishi qanchalik hayotiy chiqqani haqida o'quvchilar mulohaza yuritib ko'rsinlar.

O'zlarining shaxsiyatlaridan kelib chiqib munosabat bildirsinlar. Balki, irodasi kuchli odamlar o'zgalarning tasallisidan, hamdardligidan g'ashlanar? Buni o'quvchilar o'z shaxsiyatlaridan kelib chiqib tahlil qiladilar. O'qituvchi har bir o'quvchining o'z shaxsiy fikrida qolishiga sharoit yaratishi kerak. Chunki fikrlarning qolipga solinishi o'ylamaslikka o'rgatib qo'yadi.

Uyga vazifa sifatida "Inson irodasi, matonati va ishonchi" mavzusida hayotiy tajribaga tayanib insho yozish berilsa, uni yozish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Qolaversa, bunday insho yozish dasturning talabida ko'rsatilmagan. Lekin bu ko'nglida adabiyotga, badiiy so'zga muhabbati bor o'quvchilarning qo'lidan keladi. Bunday ishni hammadan talab qilish ham pedagogik jihatdan to'g'ri bo'lmaydi. O'qituvchi topshiriqni berishi, insho yozgan o'quvchilarning ishlarini o'qib, taqriz yozishi va baholashi, qolganlarni tahlildagi ishtirokiga qarab baholashi mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. "*Hayrat tushunishning boshlanishi va u bilishga olib boradigan yo'ldir*" degan qanoatning mag'zini chaqing. Uni tahlilga torting. Munosabat bildiring.

2. Sizningcha, qanday savollarni: "*Qiyin vaziyatlarni vujudga keltiradigan savollar*" deb atash mumkin? Fikringizni biror asar misolida dalillang.

3. Hamonki darsda o'quvchilarning savol berishlari bunchalar muhim ekan, Sizningcha, adabiyot darslarida bunday vaziyatlarni, ya'ni

o‘quvchilarni savol beradigan holatga solishni qanday qilib yaratish mumkin?

4. Biror badiiy asarni tanlab oling va uning mazmuni asosida savol va topshiriqlar tuzing. Bu jarayonda asar matnini qayta hikoyalanishiga yo‘l qo‘ymaslikka tirishing.

5. Matn mazmun-mohiyati asosida tuzgan savol va topshiriqlaringiz har qanday o‘qirmanni o‘ylashga, izlanishga, o‘z mustaqil fikrini aytishga yo‘naltiradigan bo‘lsin.

6. Ustozingiz bilan kelishgan holda badiiy asarga savol-topshiriqlar tuzish darsini tashkil eting. Tuzilgan didaktik ashyoning mantiqiylik darajasi ustuvor bo‘lishiga erishishga harakat qiling.

7. Bugun amalda bo‘lgan “O‘qish kitobi” va “Adabiyot” darsliklarini olib ularning mazmunidagi asarlar yuzasidan taqdim etilgan didaktik ashyolardan biri – savol va topshiriqlarning mazmun-mohiyatini o‘rganib chiqing. Ularning yo‘nalishlarini aniqlang. Beriladigan javoblarning mustaqillik darajasini belgilang.

8. “Ming bir jon” hikoyasining filologgik tahlilini amalga oshiring. Uning sizga taqdim etilgan didaktik tahlili bilan solishtiring. O‘xshash va farqli tomonlarini aniqlang.

9. “Badiiy matnning didaktik tahlili” ruknida berilgan materialda ilgari surilgan har bir lavha, tasvir, ifoda, voqea va hodisani savol yoki topshiriqqa aylantiring.

10. Hikoyada tasirlangan holatga ishonasizmi? Ya’ni Masturaning tuzalib ketishi haqiqatga qanchalik yaqin? Uning kasalxonadagi ahvoli tasvirini qayta o‘qing.

11. Birorta asar mazmunidan kelib chiqib “Menga yoqqan sahifa” mavzusida insho yozing.

27-MAVZU. ADABIYOT O‘QUV FANIDAN BERILADIGAN UY VAZIFALARI

Reja:

1. *Uy vazifasi va uni ma’lum reja asosida tayyorlash.*
2. *Uy vazifalarini to‘g‘ri tashkil etish yo‘llari.*
3. *Uy vazifalariga qo‘yiladigan didaktik va metodik talablar.*
4. *Uyda o‘qish uchun beriladigan topshiriqlar.*
5. *Asar matni ustida ishlash uchun beriladigan uy vazifalari.*
6. *O‘quvchilarning uy insholarini tashkil etish.*
7. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

O‘quvchi ma’naviy kamoloti asosi bo‘lgan tafakkur va faoliyatdagi mustaqilligining darajasi uy vazifalarini bajarishda ham namoyon bo‘ladi. Uy vazifalari bajarilishidagi eng muhim shart unda dars va darslikdagi haqiqatlarning takrorlanmaslik kerakligidir. Aks holda, o‘quv materialini ko‘r-ko‘rona eslab qolish holati yuz beradi. Uy vazifalari o‘quvchining sinfdagi faoliyatidan shunisi bilan farq qiladiki, unda barcha topshiriqlar o‘quvchining o‘zi tomonidan mustaqil ravishda bajariladi. Ta’limning bu turidan darsda shakllangan mustaqil fikrlash va mustaqil faoliyatni yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun foydalanish juda muhim. Afsuski, ta’lim amaliyotida o‘quvchilarning uy vazifalarini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish bilan etarli darajada shug‘ullanilmaydi. Har darsda o‘quvchilarga uy vazifalari topshiriladi, lekin ularni qanday bajarish mumkinligi nisbatan kengroq o‘rgatilmaydi.

O‘quvchi uy vazifasiga keyingi darsda o‘qituvchi nimani so‘rashi mumkinligidan kelib chiqib yondashadi. Ko‘pchilik o‘quvchilar og‘zaki uy vazifalarini tayyorlashda berilgan matnni bir marta o‘qiydilar. Ba’zilari hatto o‘qimaydilar ham. Darslikda matn qanday berilgan bo‘lsa, shunday qayta hikoya qiladilar. Darsga tayyorlikning o‘lchovi matnni qayta hikoyalashdan iborat bo‘lib qoladi. O‘qilgan matn ustida mulohaza yuritilmay, matn mazmunini eslab qolishgagina tirishiladi.

Uy vazifasini ma’lum reja asosida tayyorlash ham o‘quvchilarning faol fikriy mustaqilligini oshiradi. Uy vazifasini tayyorlashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya bilgan o‘quvchi undan mustaqil mulohaza talab qiladigan mashg‘ulotlarga o‘ziga ishongan holda qatnashadi. Uy vazifalarini

ma'lum reja asosida bajarish bolalardan o'quv materialiga ongli ravishda yondashishni talab qiladi. Yaxshi tuzilgan reja o'quvchining faoliyatini tizimga soladi, zarur materialni ajratib olishga o'rgatadi, muhim jihatlarni ochishga va to'g'ri xulosalar chiqarishga undaydi. O'z fikrini muayyan tizimda bayon etishga o'rgatadi.

Uy vazifalarini og'zaki tarzda bajarishda o'quvchilar matn yuzasidan darslikdagi savol-topshiriqlarga murojaat qilmaydilar, ular bilan ishlamaydilar. Uy vazifalarini og'zaki so'rashning faqat o'quvchi xotirasiga tayanib javob berishi talab etiladigan tarzda tashkil qilinishi natijasida vazifa so'rash o'qituvchi bilan bitta o'quvchi orasidagi alohida suhbatga aylanib qolib, sinfdagi boshqa o'quvchilar unda ishtirok etmaydilar. Uy vazifalarini darsda ko'tarilgan asosiy savol muhokamasi natijasiga qarab shakllantirish o'quvchilarni darsda o'rgangan bilimlarini mustaqil ravishda guruhlashga, undan muhimini ajratishga, o'qituvchining talablariga mos keladigan dalillar topishga o'rgata boradi. Ularning oldida mustaqil mulohaza yuritishni talab qiladigan yangi savollar paydo bo'ladi. Dalillar keltirish uchun nafaqat faktlar izlashga, balki ularni o'z so'zlari bilan etkazishga ham harakat qiladilar. Bu holat ham ta'limiy, ham tarbiyaviy jihatidan o'ta muhim hisoblanadi. O'quvchilar fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalagan joyda tafakkur faoliyati mustaqilligi tarbiyalanmasligi mumkin emas.

Uy vazifasini so'rash jarayonida o'quv materialini taqqoslash va umumlashtirishni talab qiladigan savollarni o'rtaga tashlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar oldiga bunday savollar qo'yish ularning mustaqil fikrlash va ijodkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. O'quvchilarni o'z mustaqil fikrini aytishga yo'naltiradigan topshiriqlar berish oldindan ma'lum narsalarni takrorlamaslikni, o'rganilganlar orasidan darsliklarda yo'q yangilikni topishni talab qiladi. Talab qilinayotgan narsani o'rganilganlari orasidan mustaqil tahlillash va taqqoslash orqali topish aqlning anchagina zo'riqishini talab qiladi. Uy vazifasini so'rash jarayonida ham o'qituvchi javobning o'zi bilan chegaralanib qolmasligi, isbot talab qilishi kerak. O'qituvchilik san'ati bolalarni mulohazalar yuritish yo'li bilan xulosaga, natijaga etaklashdan iboratdir. Har safar, uy vazifasini so'rashda o'quvchilarning oldiga taqqoslash va umumlashtirishga undash uchun qo'yilgan savollar ularning aqlini zo'riqtiradi. O'quvchilar tafakkuri ulardan o'rganganlarining muhimini ajratish so'ralganda yanada ijodiy

ishlaydi. Muhim narsa o'quvchilarning o'zlari aytganlari orasidan qidiriladi.

O'qituvchining uy vazifasini so'rashda o'rganilgan materialni qayta tiklashga yo'naltirilgan savollari ta'sirida o'quvchilar aqliy faoliyati muayyan qolipda shakllanib qolishi mumkin. O'qituvchi savollarni asar matniga tayanib, undan uzoqlashmagan holda tuzsa, o'quvchilar ham o'z javoblarini darslikdagi tayyor javoblar ustiga quradi. Bunday so'rovlar o'quvchini o'quv materialini yodlab olishga, fikrlarni kitob tili bilan so'zma-so'z bayon etishga o'rgatib qo'yishi mumkin.

Agar uy vazifalarini so'rash darsning ijodiy qismiga aylantirilsa, ya'ni o'quvchining hodisa tahlili va u bilan bog'liq faktlarni umumlashtirishga bo'lgan qiziqishlari, imkoniyatlari hisobga olinsa, uy vazifasini so'rash jarayonining samaradorligi ham sezilarli darajada ortadi. Uy vazifasini so'rash jarayonida o'quvchilar ko'pincha u yoki bu hodisani bayon qiladilar, lekin unga baho bermaydilar. Bu shundan dalolat beradiki, o'qituvchi ulardan shunday bahoni, munosabatni hyech qachon talab qilmagan. Sababi, buni o'qituvchining o'zi ham bilmaydi. O'quvchilarda voqea-hodisani baholash, unga o'z munosabatini bildirish ko'nikmasi shakllantirilmagan. Uy vazifalarini so'rash paytida o'quvchiga mustaqil mulohaza yuritish talab qilinadigan savollar berilishi uning aqliy faoliyatini tezlashtiradi. Berilgan savollarga o'quvchilar yaxshi tanlangan dalillar orqali javob berishga erishsa, bunday savollar ularning o'zlariga ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarga uyda bajarish uchun beriladigan yozma ishlarning ko'pchiligi takrorlardan iborat bo'ladi – o'quvchilar bir-birlaridan ko'chiradilar. Ko'pchilik o'quvchilarning boshqa yo'li ham yo'q. Ular nimani, qanday yozishni bilmaydilar. O'quvchilar bunga o'rgatilmagan. Aytadigan gaping bo'lmaganida oq qog'oz bilan yuzma-yuz, yolg'iz qolishdan azobli narsa yo'q. O'quvchi bunday o'zini qiynaydigan vaziyatlarda uzoq qolishni istamaydi. Shuning uchun oson yo'lni – ko'chirmachilikni ixtiyor etadi.

Takrorlash darslari uy vazifasini so'rashdan o'rganilgan o'quv materialini umumlashtirishning nisbatan yuqoriligi bilan farq qiladi. Bunday sharoitda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish uchun o'qituvchilar savol va topshiriqlarni oddiy darslardagiga nisbatan muammoliroq tarzda qo'yadi. O'quvchilarning

javoblari va izlanishlari ham shunga yarasha bo'ladi. O'qituvchi qanchalik bilimdon, saviyasi ne qadar baland bo'lsa, tarbiyalagan o'quvchilarini ham o'zining darajasida yuqorilatib boraveradi.

Agar o'quvchi bilim olishga qiziqsa, u maktabdagi o'quv fanlarini jiddiy o'rganadi. Buning uchun bilim olish o'quvchining ichki tabiiy ehtiyojiga aylanishi kerak. Ehtiyoj insondagi har qanday qobiliyat namoyon bo'lishining zarur sharti hisoblanadi. Shundagina yuqoridagi tadbirlar ta'lim amaliyotida o'z samarasini beradi, o'quvchini ma'naviy barkamollik sari yo'naltiradi.

O'quvchilarning uyda ishlashlarini tashkil eta bilmaslik ham bolalarning bilim olishiga, o'z kamolotini ta'minlash yo'lida bevosita ishtirok etishiga halaqit bermoqda. O'qituvchilarning yangilangan pedagogik tafakkur talablariga moslashishi juda sekin kechyapti. Tarbiyalovchilar qolipga tushib qolgan o'qitish usullaridan voz kecholmayaptilar. Gap shundaki, mamlakatni buyuk kelajak sari etaklash ham, uni tubanlik qa'riga tortish ham o'sib kelayotgan avlodning, millatning qo'lida. Millatning saviyasi ko'tarilmasa, mamlakat rivojlangan davlatlar safiga chiqolmaydi. O'qituvchi ko'tarilmasa, millat ko'tarila olmaydi. Millatni ma'nan ham, aqlan ham ko'taradigan o'qituvchi bo'ladi. O'qituvchining shaxsi, dunyoqarashi, saviyasi, bilim darajasi, millat va mamlakatning taqdirini belgilaydi.

Uy vazifalari ularni to'g'ri tashkil qila bilgandagina o'quvchilarning ma'naviy shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aks holda ular salbiy natijalarni ham keltirib chiqaradi. Agar uy vazifalari o'quvchilarga metodik jihatidan puxta o'ylanmay berilsa, ular o'quvchilarni qalbakilikka, topshiriqlarni yuzaki bajarishga o'rgatadi, o'qishga va o'quvchining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni yolg'onga o'rgatadi, bola uchun ortiqcha, samarasiz mehnat bo'ladi.

Uy vazifalari o'quvchilarning ruhan rivojlanishi va o'qishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun ularning qat'iy me'yorini belgilash, uyda ishlash uchun topshiriqlar berishni va ularni nazorat qilishni metodik jihatidan oqilona tashkil qila bilish lozim. Ko'pchilik o'qituvchilar o'quvchilarning shaxsi, tabiati, intellektual imkoniyatlari, oilaviy sharoitiga e'tibor bermaydilar, ularning mustaqil mehnatini tashkil qilish metodikasidan bexabarlar va beriladigan uy vazifalarini yoki haddan oshirib yuboradilar yoki juda jo'nlashtirib qo'yadilar. Buning natijasida o'quvchilar noto'g'ri ishlaydilar. Ba'zida uyga sinfda

ishlanmagan, o'qituvchi tomonidan ifodali o'qilmagan badiiy matnlar yodlashga topshiriladi. O'tilmagan mavzularda referatlar yozish talab qilinadi.

Bunday topshiriqlar berila turib hatto ularni yozishda foydalanish mumkin bo'lgan manbalar ham ko'rsatilmaydi. Go'yo bu bilan ustozlar o'quvchilarini o'z o'quv fanlari bo'yicha ko'proq ishlashga majbur qiladiganday bo'ladilar. Ko'pincha o'qilgan asarlar yuzasidan uyga beriladigan vazifalar bir-biridan farq qilmaydi va ular o'quvchilarning uy vazifalarini bajarishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Uyga topshiriq berishdan oldin, hamisha, avval, uning uchun asosiy bo'lgan didaktik talablar ishlab chiqilishi kerak. Har bir topshiriq o'quvchi uchun tushunarli va uning mustaqil ravishda bajarish imkoniyatlari doirasida bo'lishiga harakat qilinishi lozim. Uy vazifalarini bajarishga o'quvchi sinfda o'qituvchi tomonidan alohida tayyorlanadi, manbalar ko'rsatiladi, lozim bo'lganda ishlash uchun yo'nalish beriladi. Sinfda uy vazifasini olgan o'quvchining topshiriqni bajarishga qiziqishi va ehtiyoji, uni mustaqil ravishda bajarish yo'llari haqida tushunchaga ega bo'lishi lozim.

Bugungi maktab amaliyotida uy vazifalari sinfdagi o'quvchilarning ko'pchiligiga moslashtirilgan holda, umumiy tarzda beriladi. Uyga topshiriqlar berishda o'quvchilarga xos bo'lgan xususiy jihatlar, alohida o'quvchilarning ishlash imkoniyatlari inobatga olinmaydi. Bu o'z-o'zidan uy vazifasini bajarishda salbiy natija beradi. O'qituvchi tomonidan bir soatga mo'ljallab berilgan uy vazifasini o'quvchilarning ayrimlari 30–40 daqiqada, ba'zilari bir soatda, bir qismi esa 1,5 soatda bajaradi. Bugungi o'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlari – kimning tez ishlashi-yu kimning sekin ishlashi, birovning o'ta shiddatli fikrlashi-yu qay bir o'quvchi tafakkuri jarayonining sustroq ekanini inobatga olmaydi. Uy vazifasini tekshirish asnosida uning qanday bajarilganiga – ishning puxtaligi, mavzuning anglanganlik darajasiga e'tibor qilmaydi. Bajarilgan ishning saviyasi, mohiyatiga kirib o'tirmaydi. "Bajarildimi – bajarildi" qabilida ish tutadi. Aslida uyga beriladigan topshiriqlarni ham, sinfda bajariladigan ishlarni ham har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqish va imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish lozim. Toki, birining qobiliyati o'rtachalarning qurboni bo'lmasin, ikkinchisining qo'lidan kelmaydigan ishni bajarolmay g'ururi, sha'ni yaralanmasin. Hammaga bir xil vazifa berib, uning bajarilishini barchadan birday talab qilish, uni

bajara olmagan o'quvchilarni "ikki"lar bilan jazolash bugungi milliy pedagogikaning maqsadiga to'g'ri kelmaydi.

O'qituvchining shaxsiy tajribasi, o'quvchilarga ziyraklik va e'tibor bilan munosabatda bo'lishi, o'z ishiga ijodiy yondashuvi, shu bilan birga, boshqa o'quv fanlari bo'yicha uyga berilgan vazifalar hajmini kuzatib borishi unga o'z o'quv fani bo'yicha uy ishlarini to'g'ri tashkil qilishga yordam beradi. Odatda maktabda uy vazifalari shoshilib, ko'pincha qo'ng'iroqdan keyin beriladi. Uy vazifasini fikri tarqalganda, shovqin ichida, tanaffus boshlanganda olgan o'quvchilarning ko'pchiligi nafaqat uni qanday bajarishni bilmaydi, balki ba'zida uyga nima berilganini to'liq tasavvur ham qilolmaydilar. Bu hol uy vazifalarining qoniqarsiz bajarilishiga olib keladi yoki talab qilingan ish u yoqda qolib, butunlay boshqacha bajariladi yoxud ko'chiriladi.

Uy vazifalari barcha o'quvchilar diqqati bir joyga jamlanganda berilishi maqsadga muvofiq. Berilayotgan uy ishlari o'qituvchi tomonidan aniq shakllantiriladi, darstaxtaga qisqa tarzda yoziladi. Uy vazifalarining kundalikka yoki daftarga yozdirilsa, uni bajarishda chalkashliklarga yo'l qo'yilmaydi. Uy vazifasi, asosan, sinfda o'tilgan mavzu doirasida bo'ladi va o'tilgan mavzu barcha o'quvchilar tomonidan etarli darajada o'zlashtirilgandan so'ng beriladi. Uy ishlarida sinfda o'tilgan mavzu mutlaqo takrorlanmaydi. Uy vazifalari darsning boshida, o'rtasida, oxirida ham berilishi mumkin. Faqat o'quvchilarning diqqati chalg'imasdan avval berilsa, bas.

O'quvchilarni uy vazifalarini bajarish ishlarini rejalashtirib olishga o'rgatish ham ularning tafakkur va faoliyat mustaqilligini ta'minlashda o'ziga yarasha ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar nazarida bu ma'lum darajada murakkab fikriy faoliyat bo'lgani uchun ham o'quvchilarga nisbatan sodda reja tuzishni taklif qiladilar. Hatto, shuning o'zi ham ularni o'zgalarning tayyor fikrlarini takrorlashdan chekinturadi, mustaqil ravishda fikr aytishga yo'naltiradi. Uy vazifalarini ma'lum reja asosida bajarish o'quvchini o'quv materialiga ongli va tizimli ravishda yondashishga o'rgatadi. Yaxshi tuzilgan reja o'quvchining faoliyatini tartibga soladi, zarur materialni ajratib olishga o'rgatadi, muhim jihatlarni ochishga va to'g'ri xulosalar chiqarishga undaydi. O'z fikrini muayyan tizimda bayon etishga yo'naltiradi.

O'quvchilarga reja tuzishni o'rgatishda o'qituvchi quyidagicha yo'nalishni taklif qilishi mumkin:

a) berilgan matnni ikki marta to'liq o'qib chiqish:

b) birinchi o'qishda matndagi asosiy fikrni aniqlash, o'qish jarayonida zarur raqamlar va yangi so'zlarni belgilab qo'yish;

v) ikkinchi o'qish jarayonida asosiy fikrlarni topish, materialni ma'noli bo'laklarga bo'lish va ularning har birini nomlash.

Matndagi asosiy fikrlar anglashilgandan keyingina uning rejasini tuzishga kirishiladi. Bunday faoliyat boshlang'ich sinflarning dastlabki bosqichidan ta'lim amaliyotiga singdirilishi kerak. Reja tuzish a'lochi o'quvchilardan ham, sust o'zlashtiruvchi bolalardan ham birday talab qilinishi zarur. Aks holda yuqori sinflarda murakkab masalalar bilan to'qnashilganda, mustaqil xulosa chiqarish kerak bo'lganda ko'pchilik o'quvchilar rejalashtirishga qiynalib qoladilar.

To'g'ri, o'qilgan asar yuzasidan asosiy fikrni ilg'ab olish va uni mantiqiy qismlarga ajrata bilish hamisha ham oson amalga oshavermaydi. Shuning uchun reja bandlarini shakllantirishda o'quvchilar ko'proq kitobiy tilga tayanadilar, fikr ifodalashlarida ham kitobga qaramlik sezilib qoladi. Bunday kamchiliklar hamisha o'qituvchining e'tiborida bo'lib, o'quvchiga eslatib turilsa, ular tezda bartaraf etiladi. O'qituvchining o'quvchida tabiatan mavjud bo'lgan o'z faoliyatini rejalashtirish, uni bajarish, natijalarni tekshirishini maktab ham davom ettirishi uning tafakkuri va faoliyat mustaqilligini rivojlantiradi.

Darsda yoki uyda mustaqil bajarish uchun berilgan topshiriqni rejalashtirish o'z-o'zidan uning predmetini, maqsadini bilishni talab qiladi, shu bilan birga bunday vazifalarni bajarish uchun ma'lum tajriba ham talab qilinadi. Maktab hayotidagi bunday ishlarni mustaqil ravishda rejalashtirishga birdaniga kirishib bo'lmasligi, tushunarli. Bunga o'quvchilarning maktab hayotida o'quv yo'nalishda u yoki bu darajada malakaga ega bo'lganlaridan keyin kirishiladi. Hatto o'quvchilarga harakat rejasi taqdim etilganda ham uning ma'lum qismlarini muhokamaga qo'yish va o'quvchilar faoliyatining ongliligiga ishonish kerak. O'quvchilar faolligi asta-sekinlik bilan oshirib borilib, ular katta muammolarni rejalashtirishga o'rgatiladi. Asarning, undagi alohida hodisa yoki vaziyatning, qahramonlar xarakteristikasining to'kis bo'lishini ta'minlaydi.

Uy vazifalariga qo'yiladigan didaktik va metodik talablar. Adabiyot darslarida o'qituvchi o'zidagi eng yaxshi fazilatlarni o'quvchilarga o'tkazadigan, ularbilan birgalikda o'zligida ham tasavvur va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradigan, dars

jarayonidagi har qanday faoliyatda birgalikda ishtirok etadigan, mulohaza yuritishga, munosabat bildirishga yo'naltiradigan katta yoshli do'st. O'qituvchilik faoliyati ifodali o'qish,rasm chizish, musiqa tinglash, badiiy ijod singari tuyg'u va axloq shakllantirish bilan bog'liq ishlarni, bilim, texnika vositalari, har xilmetodik o'yinlarni ham qamrab oladi. Bu ishlarning hyech biri vaqt o'tkazish yoki biror ishdan dam olish manbai bo'lmasligi kerak. Darsga ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy shakli sifatida urg'u bergan holda o'qituvchi o'quvchilarning uy vazifalarini shunday tashkil etishi kerakki, ular adabiy ta'limning har bosqichida tom ma'noda tarbiyaviy, ta'limiy masalalarni hal etishga qaratilsin. Buning uchun, eng avvalo, o'qituvchidan sinfda bajariladigan ishlarni ham, uy vazifalarini ham o'quvchi mustaqilligining ortishi bilan hamohang tarzda tashkil qila bilish talab etiladi.O'quvchi tafakkuri va faoliyatidagi mustaqillikning darajasi uy vazifalarini bajarishda ham yorqin namoyon bo'ladi. Ta'limning buturidan o'quvchi mustaqil faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun foydalaniladi.

Adabiyot darslarida uyga vazifa berilayotganda, avval, o'quvchining diqqati tortiladi, fikri uyg'otiladi. So'ng topshiriq yuzasidan voqea yoki hodisaning sabablarini aniqlash, uni tushuntirish, xulosalar chiqarish va fikrlarini asoslash lozimligi alohida ta'kidlanadi O'quvchining oldiga o'ylashga, tahlil qilishga, munosabat bildirishga, o'z xulosasini chiqarib uni misollar bilan asoslashga yo'naltiradigan: "Asardagi shu vaziyatni qanday tushuntirish mumkin?", "Nega shunday bo'lgani sabablarini aniqlang. Qarashlaringizni asoslang", "Mazkur holatga sizning munosabatingiz qanaqa? Fikringizni nima bilan isbotlaysiz?","Nima deb o'ylaysiz, shu epizod (yoki hodisa) asarga nima maqsadda kiritilgan bo'lishi mumkin? Nega shunday deb o'ylaysiz?", "Qahramon xatti-harakatlariga o'z munosabatingizni bildiring. Mazkur oqibatning sabablari haqida o'ylab ko'ring", "Qahramon faoliyatiga berilgan rag'bat (yoki jazo)ning sabablari haqida mulohaza yuriting. Nega shunday bo'lganini izohlang", "U yoki bu qahramon ruhiyatidagi, shaxsiyatidagi o'xshashlik va farqli jihatlar nimada?", "Nega ularning orasidagi do'stlik (yoki muhabbat) mustahkam bo'lib chiqmadi?"

yakun topdi?" va hk. savol topshiriqlarni vazifa shaklida qo'yish mumkin.

Mavzu bo'yicha aniq va zarur ma'lumotlarga ega bo'lganda o'quvchining muhokamaga bo'lgan qiziqishi ortadi. Uy vazifasini bajarish jarayonida yuz bergan qiyinchiliklarni bartaraf qilish uning ehtiyojini qondiradi. O'quvchi g'alaba nashidasini tuyadi. Bu qoniqish hissi, topshiriqning bajarilishidan tuyilgan lazzat nafaqat o'quv materialini o'zlashtirishdagi bir tomonlamalikni hal etishga ko'maklashadi, balki o'quvchi bilimini boyitadi, unda shaxslik sifatlari shakllanishiga asos bo'ladi. Bunday faoliyatni tashkil etadigan uy ishlari o'quvchida mustaqil umumlashmalar qilishni talab etadigan qiyin topshiriqlarni uddalash qobiliyatini tarbiyalaydi va har qanday hodisada sababni ko'rishga va fikri, qarashlarini erkin bayon etishga, xulosalarini asoslashga o'rgatadi.

Murakkab umumlashmalar qilishni talab qiladigan uy vazifasini olgan o'quvchini o'qituvchi aytilajak fikrlarning rejasini tuzib olishga, taqriz yoki xulosalarda, berilajak javobda muhimni nomuhimdan ajrata olishga o'rgatishi kerak. Ba'zan o'zlashtirilgan materialning muhim jihatlari qanday mezonlar asosida belgilanishini ham so'rash mumkin. Shunda uy vazifasining samarasi kutilgandan ham ziyoda bo'lishi tayin. Darslarga o'ziga qattiq ishongan holda, har qanday vaziyatga tayyor tarzda kelgan o'quvchida qat'iyat, o'ziga ishonch hissi shakllanib boradi. Bular juda yoqimli tuyg'ular. Shu tuyg'ular uning bilim olishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

Uy ishi sifatida o'qituvchisi tomonidan o'rganilgan mavzu mazmunidan muhim jihatlarni ajratish vazifasini olgan o'quvchi uyda topshiriq bilan yuzma-yuz yolg'iz qoladi. Yo'nalish to'g'ri berilgan bo'lsa, topshiriq ham to'g'ri bajariladi. Buning uchun o'quvchi quyidagi ishlarni qiladi:

- avval fikr predmetini aniqlaydi;
- matnni muhim va ikkinchi darajali mantiqiy bo'laklarga ajratadi;
- kalit so'z va tushunchalarni topadi;
- matnning qisqa mohiyatini ifodalash uchun tayanch nuqtalarni belgilab oladi va shularga asoslanib uning muhim jihatlarini ajratadi.

Fikrlarining kichik rejasini tuzadi. Shu rejaasosida qarashlarini

qo'yish ham talab qilinadi. Maktabda darslarning samarali tashkil etilishi uy vazifalari hajmini nisbatan toraytirishi mumkin. Lekin bu uy vazifalaridan voz kechish degani emas. O'quvchiga uy vazifalari bermaslik uncha to'g'ri emas. Ma'lumki, o'quvchilarning xotirasi va bilimlarni o'zlashtirish darajasi har xil. Birida eshitib o'zlashtirish qobiliyati kuchli bo'lsa, ikkinchisida ko'rganini eslab qolish imkoniyati katta. O'quvchilarning ma'lum qismi o'qituvchi bayonidan so'ng o'quv materialini kitobdan o'zi o'qishga va uning asosiy o'rinlarini ko'z bilan xotirasiga o'rnashtirib olishga ehtiyoj sezadi.

Qolaversa, o'quvchi o'quv materialini darsda yaxshigina o'zlashtirib olgan bo'lsa ham, uyda uni bir marta qarab chiqishi foydadan xoli emas. Faqat uy vazifasi sifatida matnni qayta o'qishni emas, balki kuzatish ishlarini, tajribalar o'tkazishni, har xil ijodiy ishlami bajarishni topshirish lozim. Aks holda bu ixtiyorsiz ravishda o'quv materialini mexanik tarzda eslab qolishga olib keladi. Adabiy ta'limning barcha bosqichida o'quvchilarning uy vazifalariga qo'yiladigan didaktik talablar bir-biridan katta farq qilmaydi. Adabiy ta'lim jarayonining har bosqichida uyga beriladigan topshiriqlar:

- o'quvchi tomonidan o'zlashtiriluvchanligi;
- uning maqsadi, vazifasi va bajarilish tartibining aniqligi;
- uyga beriladigan vazifaning yangi va avvalgi darslarda o'tilgan mavzular bilan bog'liqligi;
- sinfda o'talgan ishlarni aynan takrorlamasligi;
- avval o'rganilgan mavzuning to'ldiruvchi va rivojlantiruvchi qismi bo'lishi;
- topshiriqlarning belgilangan vaqt oralig'ida bajarilish imkoniyati va hk. talablarga javob berishi kerak.

O'qituvchining mahorati uy vazifalari uchun ta'limning har bosqichida, ma'lum vaziyat va holatga munosib topshiriqlar tanlay bilishida ko'rinadi. Adabiy ta'limda o'quvchilar uy vazifalarini tashkil etishning ma'lum shakllari mavjud:

- uyda o'qish uchun beriladigan topshiriqlar;
- asar matni ustida ishlash uchun beriladigan vazifalar;
- yod olish uchun beriladigan uy ishlari;
- suratlar bilan ishlash bo'yicha topshiriqlar;
- savol va topshiriqlar bilan ishlash vazifalari;
- kalit so'zlar bilan ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar;
- o'quvchilarning uy insholari bilan bog'liq ishlar.

Mazkur yo'nalishda taqdim etilgan uy vazifalari o'qituvchiga o'quvchilarning uyda ishlashlarini tashkil etishda, ularni ma'lum bir tizimda boshqarishga, va nazoratni to'g'ri yo'lga qo'yishga ko'maklashadi.

Uyda o'qish uchun beriladigan topshiriqlar. Maktab hayotining hamma bosqichida darslik o'quvchi uchun zarur va asosiy qo'llanma hisoblanadi. Yuqori sinflarda adabiyot kursini o'rganishda o'quvchilarning o'qishi, ularning badiiy asar yoki asar haqidagi maqolalar ustida ishlashini tashkil etish uchun o'qituvchi ta'limning quyi bosqichlaridagi shunday faoliyat bilan bog'liq uy vazifalariga ko'proq e'tibor qaratishi kerak bo'ladi. Bunday topshiriqlar darslikdagi adabiy matn mazmunini uyda, mustaqil ravishda o'zlashtirib olishga, badiiy so'z mohiyatiga kirishga ko'maklashadi.

Adabiyot darslarida darslik bilan ishlash bo'yicha uy vazifalarining taxminiy umumiy me'yori boshlang'ich sinflarda 10–15 daqiqa, 5–7-sinflarda 20–25 daqiqa, 8–11-sinflarda esa 25–30 daqiqagachani tashkil etadi. Faqat bunday topshiriqlar sinf, vaziyat va alohida o'quvchilar uchun mos bo'lishi, har bir o'quvchining intellektual imkoniyatlari doirasida berilishi, shu bilan birga topshiriqlarning bir xilligi hamda bir birini takrorlashidan qochish kerak.

Ular savollarga javob berish, matnning ma'lum bo'limi rejasini tuzish, o'qilgan matn yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish, o'qituvchining savollari, qo'yilajak muammolar ustida ishlashga tayyorgarlik, asar matni asosida tezislar yaratish, sinfda taqdim etilgan reja asosida matndan materiallar ajratish va hk. shakllarda bo'lishi mumkin. Uyga beriladigan topshiriqlarning barchasi adabiy ta'limning bosh maqsadi asosida tashkil etilishi lozim.

O'quvchilarning uyda o'qishlari uchun beriladigan vazifalarga, ayniqsa ular mumtoz adabiyot bilan bog'liq bo'lganda, juda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. Mumtoz asarlar nafaqat tili bilan, balki yaratilish davri, aks ettirilgan ijtimoiy muhiti bilan ham bugungi o'quvchidan ancha yiroq. Lekin qiyin deb ularni o'rganmaslik yoki ularni bugungi o'quvchi saviyasi darajasiga moslashtirish, jo'nlashtirish ham noto'g'ri. Ya'ni darslarda asarlarning tabdili bilan ishlash yoki uy vazifasini tabdillar asosida bajarish o'quvchini chalg'itadi. O'quvchiga ularni anglatish uchun bolada mumtoz ma'naviyat namunalariga muhabbat hissini shakllantira bilish lozim.

Bobolar so'ziga ichki ehtiyojsiz, muhabbatsiz ularning bitiklarini o'rganib bo'lmaydi. Buning uchun so'zning mohiyatiga kirish kerak. Mohiyatga kirishda obzor mavzular o'quvchiga ma'lum darajada ko'maklashadi. Obzor mavzularni o'rganishga monografik mavzularni o'rganishga qo'yilgan talablar bilan yondashib bo'lmaydi, albatta. Ular darsliklarga o'quvchilar tarixiy ma'lumotlardan, asarlarning yozilgan davri, xalqning o'sha davrdagi turmush tarzi, madaniy-ma'rifiy hayotidan xabardor bo'lishlari uchun kiritiladi.

O'quvchilarning uyda o'qishlari uchun beriladigan topshiriqlar, birinchi navbatda, dasturdagi o'quv materiallarini o'quvchilar chuqurroq, kengroq o'zlashtirishlarini nazarda tutadi. O'quv yilining oxirida o'quvchilarga yozda o'qish uchun topshiriq berilayotganda dastur doirasiga kiradigan, u yoki bu adibning ijod yo'lini, uslubini aniqroq bilishga imkon beradigan asarlar tavsiya etiladi. Ular shunchaki sinfdan tashqari o'qish uchun material emasligi, topshiriqning o'z nazariy, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati borligi, bu faoliyatning amaliy ahamiyati nimalardan iborat ekani o'quvchilarga etkaziladi. Bunday paytlarda o'quvchilar quyi sinfda o'rgangan asarlari ham qamrab olinishi mumkin. O'quvchining avval o'qigan asarlarini oradan ma'lum vaqt o'tgach qayta o'qiganda olgan taassurotlari avvalgilari bilan taqqoslanib, ular haqida ham alohida suhbatlashish mumkin. Bu ham o'quvchining ma'naviy kamolotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday asarlar bo'yicha o'quvchilarning umumiy tarzda asar mavzusi, undagi etakchi fikrlarni bilishi, asar qahramonlariga tavsif bera olishi kifoya.

Asar matni ustida ishlaganda undagi qahramonlarga individual, qiyosiy va guruhiy tavsiflar berish vazifasi umumiy o'rta ta'limning 5-sinfidan boshlanadi. Sinflar yuqorilab borgani sari o'quvchilar tomonidan bajariladigan ishlarning mazmuni bilan birga fikrlar bayonining tizimliligi, mantig'i va mustaqillik darajasi hisobga olinib, baholanadi. Har bir fikrni asoslash uchun asardan keltirilgan misollar va iqtiboslar o'quvchining faollik, ziyraklik va bilimlilik darajasini ko'rsatadi. Asar qahramonlariga tavsif berishda o'quvchidan avval timsolning etakchi xususiyatlarini ajratib olish talab qilinadi. So'ng uning boshqa timsollar bilan aloqasi, bog'liq tomonlari ko'rsatish so'raladi. Qahramon tabiatidagi jihatlarning voqealar rivojiga ta'siri, oqibatning sabablari aniqlanadi. Qahramonga xos bo'lgan individual va tipik xususiyatlarni aniqlash, uning xatti-harakatlarini tahlil qilish,

berilgan tavsifni matndan misollar keltirib asoslash o'quvchida puxta ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Yuqori sinf o'quvchilariga timsolni tahlil qilishni uy vazifasi qilib topshirishdan oldin darsda ular bilan birgalikda qahramonning shaxsi, dunyoqarashi, asardagi o'rni aniqlanib, uning hayotga, jamiyatga, odamlarga munosabati belgilab olinadi. Bunday uy vazifalarining darsdagi tahlili har bir o'quvchining aniq o'z xulosasi bilan yakunlanishi kerak. Shundan so'ng berilgan uy vazifalari timsollarning yashirin qirralariga, qahramon xatti-harakati tahliliga, oqibatlarning sabablarini aniqlashga, qahramon tushib qolgan qiyin vaziyatlarning echimiga, tuyg'ular sharhiga qaratiladi.

Adabiy ta'limda uyda o'qish uchun beriladigan topshiriqlar darslikdagi o'quv materiallari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Uyda o'qish uchun beriladigan asarlar boshlang'ich maktabning 3–4-sinf o'quvchisi uchun bir yilda 12–14ta kitobni tashkil qiladi. Yuqori sinflarda bir yilda o'qilishi lozim bo'lgan adabiyotlar soni taxminan: 5-sinfda 13–15ta, 6-sinfda 15–18ta, 7-sinfda 19–22ta, 8-sinfda 22–25ta, 9-sinfda 25–30tagacha taklif etiladi.Bu raqamlar sirasiga darslikda parcha berilgan asarlarni ham kiritish mumkin. O'qituvchi taxminan bir oyda ikki marta sinfdan tashqari o'qilgan asarlar ustida ishlash uchun (ayrim asarlarni o'rganishdan chegirilgan soatlar hisobidan) vaqt topa bilishi kerak. Bunday darslarda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida asarlarni tahlil qiladilar, ularga taqriz beradilar, munosabat bildiradilar va asarlar haqidagi fikrlarini uning matniga tayanib asoslaydilar. Bunday darslarga ota-onalarni ham taklif qilish katta samara beradi. O'qituvchi sinfdan tashqari o'qish uchun darslikda parcha berilgan asarlarni to'liq o'qishni tavsiya etishi, ayrim qo'shimcha asarlardan boblar o'qib o'quvchilarni qiziqtirib olishi va shu asnoda ularni uyda o'qishga berishi mumkin.

Asar matni ustida ishlash uchun beriladigan uy vazifalari. Insonning fe'lu atvorini zo'rlik bilan o'zgartirish mumkin emas. Odamlar tomonidan yaratilgan qoidalar, tartiblar, qonunlar insonning tabiiy xususiyatlariga mos tushsagina ular tarbiyalanuvchiga "yuqishi" mumkin. Shundoq ekan, o'quvchini maktabning tartib-qoidalariga emas, ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchiga moslashtirish kerak. Ya'ni, darslar, uy vazifalari ta'limning har bosqichida har bir o'quvchi qobiliyati, iqtidori, qiziqish va imkoniyatlariga asoslangan holda, imkon qadar individuallashtirilgan tarzda amalga oshirilishi lozim.

O'quvchining intensiv rivojlanishini nazarda tutgan holda unga adabiy ta'limning barcha bosqichida, har darsda uyda ishlash uchun topshiriqlar berilishi, bola uyda har kuni sinfdagidek ishlashi kerak. Uy ishlarining qiyinlarini osonlari bilan va aksincha,almashtirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Tinimsiz qiyin topshiriqlarni berish o'quvchilarni zo'riqtirgani singari, uzluksiz oson vazifalar ham ularni uy ishlariga engil qarashga o'rgatib qo'yadi. Uy vazifalarini bajarish uchun ajratiladigan vaqt ta'limning har bosqichida o'quvchining yoshi, ruhiy va jismoniy xususiyatlari hamda imkoniyatlariga asoslangan holda aniqlanadi.

Uyga beriladigan topshiriqlarning umumiy hajmi, turli shakllarda, barcha o'quv fanlari misolida umumiy tarzda: boshlang'ich sinflarning quyi bosqichlarida taxminan yarim soatgacha, yuqori bosqichlarida 40–45 daqiqa; 5-sinflarda 1 soat–1soat 15 daqiqa atrofida; 6–7-sinflarda 1soat 15 daqiqadan 1,5 soatgacha; 8–9-sinflarda 1,5 soatdan 2 soatgacha bo'lmog'i nazarda tutiladi. Bunday vaqt oralig'iga mo'ljallangan uy ishlari maktabdagi barcha o'quv fanlari bo'yicha og'zaki bajariladigan ishlar, o'qish uchun topshiriqlar hamda yozma ishlar bilan almashtirib turiladi.

Uyga yozma ishlar berilgan kunlarda og'zaki topshiriq yoki o'qish uchun vazifalar berilmaydi. Adabiyotdan uy vazifalari berishda o'quvchilarning intellektual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularning boshqa o'quv fanlari bo'yicha yuklamalari bilan ham hisoblashish talab qilinadi. Adabiyot darslarini boshqa hamma o'quv fanlaridan ustun qo'ygan, faqat o'z sohasi bo'yicha barcha o'quvchilarni ko'proq ishlatishni niyat qilgan o'qituvchi qattiq adashadi. Sinfdagi badiiy so'zga qiziqishi va iqtidori bor o'quvchilarga ularning qiziqishlarini qondiradigan, ehtiyojlarini to'yintiradigan topshiriqlarni ko'proq berish mumkin. Qolganlarga dastur talablari asosida bilim berish va DTS talablari doirasida bilimlarini nazorat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yod olish uchun beriladigan uy vazifalarining nomi va soni adabiyot dasturida va darsliklarda aniq ko'rsatilgan. Pedagogika ilmida bir darsda yod olish uchun beriladigan uy vazifalari 1-sinfda to'rtdan sakkiz qatorgacha; 2-sinfda sakkizdan o'ntagacha; 3–4-sinflarda 16 satrgacha; 5-sinfda 16–18; 6-sinfda 20–22; 7-sinfda 22–24; 8-sinfda 24–26; 9-sinfda 28–30 misra atrofida bo'lishi tavsiya etilgan. Yuqori sinflarda yod olish uchun beriladigan she'rlarning hajmi ham bundan

ortiq bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir. Biror asarning to'liq matni yoki asardan parcha yod olishni uy vazifasi sifatida topshirishdan avval uning mazmuni o'quvchilar tomonidan yaxshilab tushunib olinishiga erishiladi. Asarni yod olishdan oldin u darsda sharhlab o'rganilishi, she'r matni o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi shart. Asarning yoddan, ifodali o'qilishi darajasi uning qanchalik anglashilganligini ko'rsatadi. Adabiy ta'lim davlat standarti talabi bo'yicha yod olinishi lozim bo'lgan asarlarni barchao'quvchilar yod olishlari shart. Lekin dasturda ham o'quvchilar yodlashlari uchun ma'lum miqdorda qo'shimcha o'quv materiallari taqdim etilgan. Ularni yod bilish darsliklardagi she'rlar yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar ustida ishlashni osonlashtiradi. Dasturda va darslikda yod olish talab qilingan barcha she'riy asarlarni o'quvchilarning hammasidan birday talab qilish ham unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Bu o'rinda o'quvchilarning xohish-istak va imkoniyatlarini inobatga olish kerak.

Suratlar bilan ishlash bo'yicha uy vazifalari. Boshlang'ich sinflarda asar matni yuzasidan chizilgan suratlar ustida ishlash topshirig'i ko'proq uchraydi. Sinflar yuqorilab borgani sari bunday ish turi analiyotdan butunlay chiqib ketadi. Gap shundaki, badiiy asarlar mazmuni bo'yicha ishlangan suratlar o'quvchilarga asar qahramonlarini tiniqroq tasavvur qilishga ko'maklashadi. Lekin bugungi ta'lim amaliyotida, o'qish darslarida ham rasmlar ustida ishlash juda no'noqlik bilan tashkil etilgan. O'qituvchilar rasmlardagi faqat yuzaki jihatlarni ochishni talab qiladilar. Chunki boshqacha o'qishni o'zlari ham bilmaydilar. Ularga oliy maktabda bu o'rgatilmagan.

Asar matni yuzasidan ishlangan suratlar ustida ishlash o'quvchilar ma'naviy kamolotiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Suratlar bilan ishlash bo'yicha berilgan uy vazifalarida ranglarning o'rni, ularning surat uchun umumiy ahamiyati, o'zaro mutanosibligi, nega aynan shu rangning qo'llanilganligi, suratda yoritilgan narsalarning o'rni, ularning umumiy tasvirga ta'siri bilan bog'liq vazifalar topshiriladi. Sinflar yuqorilab borgan sari suratlar ustida ishlash bilan bog'lab berigan uy vazifalarida rasmdagi shaxslarning yuz ifodasi, yuzidagi, ko'zlaridagi, turishi yoki holatidagi ifodalar tahliliga, har birini tasvirlashda qo'llangan ranglarga o'quvchilarning e'tibori tortiladi.

Bu o'quvchida rangni his qilish, undan ta'sirlanish, tasvirni, ranglardagi musiqiylikni o'qish mahoratini shakllantiradi. Uy vazifasini bajarishda suratda ifodalangan har bir predmetni ajratish,

uning rasmdagi vazifasini izohlash, rasmda tasvirlangan hodisaning boshi yoki oxirini o'ylab topish, hikoyalab berish, kabi topshiriqlar hikoya bayonida fikrdan fikrga o'rinsiz sakrab ketmaslik ko'nikmasini shakllantiradi. Olamni, odamni ranglar ko'magida baholashga o'rgatadi. Qahramonning ko'zlari, yuz ifodasi, holati tahlili o'quvchini suvrat va siyratni farqlashga odatlantiradi.

Savol-topshiriqlar bilan ishlash bo'yicha uy ishlari. Boshlang'ich sinflarning "O'qish kitobi" va yuqori sinflarning "Adabiyot" darsliklarida taqdim etilgan adabiy matnlar ustida ishlash uchun ma'lum savol-topshiriqlar berilgan. Boshlang'ich maktabning 3–4-sinflarida o'quvchilarga uy vazifasi sifatida asar matni yuzasidan beriladigan savol-topshiriqlarning soni to'rttadan oshmasligi kerakligi ma'lum. Darsliklarda taqdim etilgan ayrim savol-topshiriqlar tavsiflashni talab qilsa, ba'zilari umumlashtiruvchi xarakter kasb etadi. Ayrim savollar avval o'zlashtirilgan bilimlarni eslashga ehtiyoj uyg'otsa, boshqasi har tomonlama o'ylashni va tahlilni talab qiladi. Yana bir xil savol uchun darslikdagi ma'lumotning o'zi kifoya qilsa, o'zgasiga javob berish uchun yordamchi manbalarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Darsliklardagi asar matni yuzasidan berilgan savol-topshiriqlarga uyda javob tayyorlashda o'quvchilar ko'pincha umumiy qonuniyatni to'g'ri topadilar, biroq buni o'zlari asardan misollar keltirib asoslab berishga qiynaladilar. Ulardan nega shundayligini tushuntirish yoki aytganlarini isbotlash talab qilinganda, mazkur holatga tegishli ko'pgina faktlarni bilsalar ham, o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Gap shundaki, javob beradigan o'quvchi o'zi bilgan dalillarni, bilimlarni yangi tizimga, o'qituvchi tomonidan belgilangan, uning savoli talab qilayotgan yangi yo'nalishga solishi kerak bo'ladi. Dastlab o'quvchini aynan shu narsa qiynaydi. Keyinchalik, faktlar aniqlanib, topshiriq aqliy imkoniyati darajasidan uncha uzoq emasligi ma'lum bo'lgach, tafakkuri faollashadi.

O'quvchilar faoliyati mustaqilligini uyg'otishga intilgan o'qituvchi uyga beriladigan savol yoki topshiriqni mavzuga moslagan tarzda shakllantiradi. Shuning o'zi tarbiyalanuvchining aqliy faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi. O'qituvchi o'quvchini materialni shunchaki qayta bayon qilmay, qarashlarini ma'lum tayanch fikr atrofida umumlashtirishga, undan javob uchun zarurini ajratib olishga, fikrini qolipga tushgan siyqa iboralarda emas, o'z so'zlari bilan bayon qilishga

undaydi. Bu o'quvchidan ma'lum hodisa sabablarini tushuntirish, fikrlarini qat'iy ilmiy-mantiqiy asoslarga qurish, voqealarni xolis baholash va kuzatganlarini umumlashtirishni talab qiladi. Uy vazifalarini so'rash bilan bog'liq bunday vaziyatlarda qo'shimcha savollar juda qo'l keladi. Qo'shimcha savollarning kuchi shundaki, ular avval o'rganilgan bilimlarga tayanganidan o'quvchilar ishini engillashtiradi. Bu o'rinda avval o'zlashtirilganlarni takrorlash emas, balki o'rganilgan bilimdan yangi yo'nalishda foydalaniladi. Bu o'quvchilarni yangilik qidirishga, noma'lumni aniqlashga yo'naltiradi.

Kalit so'zlar bilan ishlash. Asar matni bilan ishlash topshiriqlari sirasiga kalit so'zlar bilan ishlash vazifasi ham kiradi. O'qituvchi bunday topshiriqlardan uy ishi sifatida ham, dars jarayonida ham foydalanishi mumkin. Bu topshiriqning asosiy xususiyati matndagi kalit so'zlarni ajratib olib, ularning ma'nosi va asarning umumiy mazmunidagi o'rnini aniqlashdan iborat. Kalit so'zlar bilan ishlash bo'yicha uy vazifasi biror qahramon timsolida, biror epizod yoki hodisa misolida ham bo'lishi mumkin. Asar qahramoni shaxsi bilan bog'liq kalit so'zlar ustida ishlash uchun o'quvchi matndan asosiy so'zlarni ajratib oladi. Ularning mohiyatiga kiradi, ma'nosini aniqlaydi. So'ngra bu so'zlarning qahramon shaxsi, fe'l-atvorini ochishdagi o'rni, ahamiyatini belgilaydi. Ularning qo'llanilishiga o'z munosabatini bildiradi, fikrini asoslaydi. Shu asnoda yozuvchining uslubiga, qahramonning shaxsiga baho beradi. O'z ma'naviyati shakllanishida o'zi ishtirok etadi.

Kalit so'zlar bilan ishlashlaydigan uy vazifalarini berishda asardagi peyzaj juda qo'l keladi. Mavzu atrof olam bilan aloqada o'rganiladi. O'quvchi tabiat hodisalarini kuzatadi, ko'rganlarini badiiy ifodalashga urinadi va hk. Qo'llangan so'z va iboralardan mavzu uchun muhimlari ajratiladi. Bunday mustaqil izlanishlar o'quvchining dunyoqarashini kengaytiradi, peyzaj tasviridagi badiiylik va aniqlikni kashf ettiradi. Matnni o'zlashtirish emotsional, ongli tarzda amalga oshadi. Ular o'quvchini ko'ra bilishga, ilg'ay olishga, anglaganlarini so'z bilan ifodalashga o'rgatadi. O'qituvchilar asarlardagi peyzaj tasviriga ko'pda e'tibor qilmaydilar. Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilish, ko'rganlarini so'z bilan ifodalash mahorati har bir adibda o'ziga xos tarzda shakllangan. Buni o'quvchi farqlashi va anglashi uchun uni tasvir mohiyatiga kirishga undaydigan uy vazifalari berilishi kerak. Asar matni ustida ishlash bilan bog'liq bunday uy ishlari ham

o'quvchilarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning uy insholarini tashkil etish Ma'lumki, bugun kunda mamlakat oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari testlar asosida amlga oshirilmoqda. Shuning uchun o'quvchilar, ota-onalar, hatto, ko'pchilik o'qituvchilar o'quvchilarning insho yozishiga e'tiborni susaytirdilar. Insho yozish o'quvchilarning adabiyot darslaridagi asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi va ular oliy maktabga kirish vositasi emas. Insholar inson tafakkurini charxlash, dunyoqarashini kengaytirish, fikrlarini, qarashlarini qat'iylashtirish va ma'naviyatni shakllantirish omili hisoblanadi. Maktab adabiy ta'limining barcha bosqichida o'quvchilarga insho yozdirish shart. O'quvchining fantaziyasi, xayolot olami kattalarnikidan boy va keng. Tarbiyalanuvchining bu imtiyozlaridan uning o'zi uchun foydalanish kerak. O'quvchining hayotiy tajribasi kattalarnikiga nisbatan ancha g'arib, atrof-muhitga munosabati ham sodda va jo'nroq. O'quvchini ijodkorlikka yo'naltirish uning ruhiyatini bezovta qila oladigan, qiziqtiradigan mavzuda yozishga, eng muhimi, tuyg'ularini, munosabatini so'z bilan ifodalab berishga qiziqish uyg'otilganda engil amalga oshadi.

Bola ko'pincha yozishga arziydigan salmoqli gapi yo'qligidan yomon yozadi. Maqsad sinfdagi barcha o'quvchilarni badiiy ijodkor qilish emas. Muhimi, tarbiyalanuvchida ijodkorlik tuyg'usi paydo bo'lsa, darsda o'rganganlariga munosabat bildirishga odatlansa, unda insonlik, shaxslik kurtaklari shakllanadi. O'quvchini faqat o'zi yaxshi bilgan narsasi haqida yozishga o'rgatish kerak. Yaxshi bilmagan, tushunmagan mavzu haqida yozishdan azobli narsa yo'q. Bolaga bunday topshiriq berish unda quruqlik, yuzakilikni tarbiyalash demakdir. O'quvchi shaxsida ijodkorlikni, bezovta, uyg'oq qalbni tarbiyalash uchun, avvalo, unda atrof-muhitga, tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga, insonga kuchli qiziqish uyg'otiladi. Bolani o'zi yaxshi bilmaydigan, yaxshi ko'rmagan, qiziqmagan mavzuda yozishga majbur qilmagan ma'qul.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida uyga insho yoki bayon yozishga berilsa, o'sha kuni o'quvchi boshqa o'quv fanlari bo'yicha oshiqcha yuklamalardan halos etilishi kerak. Chunki insho va bayon yozish aqliy zo'riqish va ancha vaqtni talab qiladi. Ta'limning yuqori bosqichlarida ham o'quv fanlari muallimlari bir-birlari bilan doimiy

aloqa bog'lab turishlari, uy vazifalarini berishda bir-birlari bilan kelishishlari o'quvchining uyga berilgan topshiriqlarni tayyorlashdagi vaqtini nazorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, maktabda dars jadvallari ham shundoq tuzilishi kerakki, uy vazifalari bir kunda 3–4tadan oshmasligi maqsadga muvofiq keladi. Sinflar yuqorilab borgani sari uy vazifalarining soni oshmay mazmuni chuqurlashadi. Talab doirasi kengayadi. Bundan tashqari rasmlar, kuzatishlar asosida ham insholar yozdirish mumkin. Bunday uy vazifalari ham 30–35 daqiqali ishlar bo'lishi kerak.

Dunyo ta'lim tizimidagi barcha jihatlarni ko'r-ko'rona ko'chirish o'miga ular erishgan yutuqlarning o'zbek o'quvchisi milliy xususiyatlari, ruhiy o'ziga xosligiga mos keladigan tomonlarini o'zlashtirish kerak. Aks holda, chet el pedagogikasidagi tashqi jihatlargina o'zlashtirilib, qilingan harakatlar samarasiz ketadi. Tajriba almashishlar ko'rsatdiki, chet el ta'lim tizimida har qanday o'quv fani bo'yicha esselar yozish etakchilik qiladi. Ma'lumki, esse – erkin fikrning, mustaqil tafakkurning mahsuli. U – ijod. Adabiyot darslarida insho yozish ham ijod. Ijodning har ikkala turi orasidagi tafovut uncha katta emas.

Adabiyot darslarida tanlangan insho mavzulari o'qituvchi uchun eski, ammo o'quvchilar uchun yangi. O'quvchilarga insholarning o'ylantiradigan, qiynaydigan yoki sevintiradigan tuyg'ularga hamohang mavzularda bo'lishi yoqadi. Masalan, ma'lum shaxs haqidagi insho mavzulari: "O'rtog'imning tavsifi", "Mening do'stim", "Mening ilk muhabbatim", "Mening akam", "Men suygan suyukli"; o'rganilgan asarlar yuzasidan: "Menga yoqqan sahifa", "Hoshimjonga munosabatim", "A. Oripov asarlaridan olgan taassurotlarim", "O'. Hoshimov ijodining qaysi tomonlarini qadrlayman va yaxshi ko'raman" va hk. mavzular istisnosiz ijodiy tafakkurni, tom ma'noda mustaqil fikrlashni talab qiladi.

O'quvchining erkin va mustaqil mulohazasiga asoslanadigan bunday uy insholari o'quv yilining boshida, badiiy asar tahliliga bir oz o'rganilgandan keyin, o'quv yili o'rtalarida va oxirida olish bolalarning mustaqil fikrlashini o'stirishga xizmat qiladi. O'quvchilardagi fikr mustaqilligining o'sishini nazorat qilishga imkon beradi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Adabiyot muallimi

O'ninchi sinf dasturida Abdulla Qahhor ijodi bo'yicha "Adabiyot muallimi" hikoyasini o'rganish ko'zda tutilgan bo'lib, unga ikki soat vaqt ajratilgan[1]. Lekin dasturda hikoyaga yondashuv talqini berilmagan.

Dasturda A. Qahhor ijodiga murojaat qilingani holda "Adabiyot" darsligida Qahhor ijodi bo'yicha o'quv materiali taqdim etilmagan[2]. Bitta darslik ta'limning ikki bosqich tarbiyalanuvchilariga mo'ljallab yozilishi har jihatdan noto'g'ri ekanligi boshqa masala, albatta. Lekin darslikni tuzishda dasturga amal qilinmagani, dasturda esa asarga yondashuv talqini aks etmagani mazkur tizimda bosh-boshdoqlik mavjudligidan, sohada mutaxassislar ishlamasligidan dalolatdir. Bular alohida maqola tarzida ochib berilishi kerak bo'lgan kamchiliklar.

O'z masalamizga qaytib aytish mumkinki, o'quvchi oltinchi, yettinchi sinflarda adibning hayoti va ijodi haqida ma'lumotga ega bo'lgan, uning shaxsi bilan ma'lum darajada tanish. Mazkur sinfda "Adabiyot muallimi" o'rganilar ekan, hikoya qahramoni Boqijon Baqoev timsoli asosida hayotdan o'z o'rnini topolmagan inson shaxsini tadqiq etish mazkur darsning tarbiyaviy maqsadini tashkil etadi. Hikoyaning mazmuni bilan tanishtirish va adabiyot muallimining saviyasini anglatish darsning ta'limiy maqsadidir. Darsda **tadqiqot metod**idan foydalaniladi.

Avval o'quvchilarning Abdulla Qahhor haqida bilganlari biografik ma'lumotlar aniqlanadi. O'qituvchi shu bilimlarga asoslangan holda Abdulla Qahhor haqidagi xotiralardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'quvchilarni ulug' adibga yanada yaqinlashtiradi. O'quvchi va adib orasidagi masofa qancha qisqarsa, kitobxonga muallifni anglash shuncha oson bo'ladi. Qolaversa, bu narsa adabiyot darslarining samaradorligini ham ta'minlaydi.

Taniqli adib Odil Yoqubov Abdulla Qahhor haqida shunday xotirlaydi: "*Soch-soqoli oppoq, yuzidan allomalik nuri balqib turgan*

[1] O'quv dasturi. Adabiyot. – T., IQTM, 2017.

[2] To'xliyev B., Karimov B., Umurova K. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. II qism. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

xushro'y bu inson bir qarashda qattiqqo'l, siyosatli odamga o'xshab ko'rinardi. O'sha paytlardagi adabiy muhitda keng urf bo'lgan "Abdulla Qahhor nima derkin?" degan ibora bizning avlodimizga mansub yozuvchilarni shoshmashosharlikdan, o'z ishiga beparvolik bilan yondashishdan ogohlantirib, qo'lyozmalarimizni qayta-qayta ko'chirishimizga majbur qilar edi. Haqiqatda esa u g'oyat ziyrak, ko'ngli ochiq, adabiyotga kirib kelayotgan yorqin va iste'dodli yoshlarni astoydil qo'llab-quvvatlaydigan inson edi...".

Shu o'rinda o'qituvchining o'quvchilarini O. Yoqubov chizgilariga asoslanib Abdulla Qahhor portretini o'qishga yo'naltirishi ular uchun qiziqarli mashg'ulot bo'lishi tabiiy. Agar hech kim o'qiy olmasa, bu topshiriqni uy vazifasi sifatida qoldirish ham mumkin.

So'ngra o'qituvchi "Adabiyot muallimi" asari matnini o'qishga kirishadi[1]. Agar sinfda adabiyotni, so'zni chuqur his qiladigan o'quvchi bo'lsa, u avvalgi darsda berilgan topshiriq asosida hikoyani ifodali o'qishga tayyorlanib kelishi, asar matni bilan o'rtoqlarini tanishtirishi mumkin. Hikoya mutolaasiga ko'pi bilan o'n daqiqa vaqt safarbar etiladi. Darsning qolgan qismi va ikkinchi soat uning tahliliga bag'ishlanadi.

O'rni kelganda tadqiqot metodi haqida fikr yuritib, shuni aytish mumkinki, bu metod o'quv jarayonida bir muncha qiyin hisoblangan nazariy yo'nalishdagi masalalar ko'tarilishini e'tiborda tutadi. Bunda bilim olishning yuqori bosqichida ta'limning samarali izlanish usullarini mustaqil ravishda qo'llash talab qilinadi. Bu darsda o'quvchilar dalillar to'plash va ularni nazariy tahlil qilish, tizimga solish, umumlashtirish kabi amaliy ishlarni bajaradilar. Tadqiqot metodida "kashfiyot" avvaldan ajratilgan material bilan tanishuvdan keyin, faktik materiallar umumlashtirilganidan so'ng amaliy ish jarayonida sodir bo'ladi. Bunda tadqiqot topshirig'i – o'quv-biluv faoliyatining to'liq turkumini o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'zlari bajaradilar. Ya'ni ma'lumot to'plashdan tortib, uni tahlil qilish va yangi bilimlarni mustaqil ravishda amaliyotda qo'llashgacha bo'lgan ishlarni bajarish nazarda tutiladi.

O'quvchilar tomonidan faktik material to'plash tadqiqot metodining zaruriy qismlaridandir. Shunday dalillar mavjudki, ularni dars jarayonida, ayniqsa, adabiyot darslarida kuzatib, to'liq ochib bo'lmaydi. Agar o'qituvchi o'quvchilar ixtiyoriga shunday dalillarni

[1] https://ziyouz.uz/rohat-nasri/abdulla-qahhor/abdulla-qahhor-adabiyot-muallimi-hikoya/

tavsiya etib, ularni taqqoslash, tizimga solish, umumlashtirishni topshirsa ham, bu bilan masalaning muammolilik darajasi kamaymaydi. Tadqiqot metodini qo'llashda barcha topshiriqlarning o'quvchilar tomonidan bajarilishi muhim hisoblanadi. Topshiriqlarni bajarishda biror bosqichi tushib qolsa, topshiriq o'z tadqiqiylik darajasini yo'qotib qo'yishi mumkin.

Tadqiqot metodidan foydalanilganda savol-topshiriqlar tadqiqot jarayonining so'nggi bosqichida, o'quvchilarning ko'pchiligi tadqiqot masalasini hal qilib bo'lgandan keyin qo'yiladi. Bu bilim darajasi kuchli o'quvchilar uchun mo'ljallangan metod bo'lib, muammolarni hal etish mobaynida o'z-o'zini nazorat qilish va tekshirish ishlari ham amalga oshiriladi. Bilim darajasi nisbatan past bo'lgan o'quvchilarga ularning imkoniyatlari darajasidagi topshiriqlar beriladi. O'qituvchi tadqiqot metodidan foydalanganda mazkur metodga xos bo'lgan bo'lgan usullarni to'g'ri aniqlashi, mustahkamlash kerak bo'lgan o'quv materiali mazmunini to'g'ri belgilashi talab etiladi.

"Adabiyot muallimi" hikoyasini tadqiqot metodidan foydalanib, o'rganilganda izlanish obyekti – Boqijon Baqoev hisoblanadi. Bu darsda o'quvchilar "**Boqijon Baqoev tarbiyalagan o'quvchilar qanday odam bo'ladi?**" degan mavzuda pedagogik tadqiqot ishlarini olib borishadi.

Darslikda Baqoevning qiyofasi "hajviy" deya tavsiflanadi. Hikoya tahliliga yuqoridagi nazar bilan yondashilsa, bu hajviy emas, fojiaviy masalaga aylanadi. Tadqiqot ishlarini o'quvchilar Baqoevning tabiatini o'rganishdan, ya'ni dalillar to'plashdan boshlaydilar. O'qituvchi o'quvchilarni muallimning tabiatiga xos bo'lgan illatlarni aniqlashga yo'naltirish uchun quyidagi savollarni beradi: "Sigirning qulog'iga kana tushishi munosabati bilan Baqoevning tabiatiga xos qanday xususiyatlarni ilg'adingiz?", "Uning cho'chqa boqish haqidagi fikrining turfaligini nimalarda ko'rish mumkin?" Har ikkala savol asosida o'quvchilar Baqoevning tabiatidagi bir sifatni ochishlari kerak: bu ularning dalili bo'ladi.

O'quvchilar Baqoev Hamidaning afsuslanishiga javob bermay, o'z gapini gapiraverishiga tayanib, uning yana bir sifatini ochishlari kerak bo'ladi. "Xo'sh, u nega Hamidaning gapiga munosabat bildirmadi? Bu undagi qanday fe'l-atvordan dalolat beradi? Baqoevning Hamidaga qarata: "*Kanselyariyaning eshigiga praktikum deb yozib qo'yibdi. To'g'ri emas. Praktikum, minimum, maksimum hular hammasi*

lotincha yoki lotinchoga yaqin so'zlar", – deganiga asoslanib, uning bilim darajasiga baho bering" topshirig'i o'quvchilarni sergak torttiradi. Ular bilganicha munosabat bildiradilar, o'z dalillarini daftarlariga yozib boradilar.

Baqoevning tabiati bilan bog'liq detallarni to'plashda davom etib: "Hamidaning Chexov asari tahlili bilan bog'liq savoliga Baqoevning "*tomdan tarasha tushganday*" savol bilan javob berishi nimadan dalolat beradi?" va "Siz adabiyot muallimining "*Savol olomati hamma vaqt "m"dan keyin qo'yiladi*" degan fikriga qanday qaraysiz?" kabi savollar o'rtaga tashlanadi. O'quvchilar o'z javoblarida Baqoevning nutqiga ham e'tibor qarata olishlari kerak. Bu bilan ular hikoya muallifining yozuvchilik mahoratiga ham baho bergan bo'ladilar.

"Baqoevning hech gapdan hyech gap yo'q. "*...sartarosh bo'lmasa odamlar maymun bo'lib ketar edi. Maymun juni to'kilib, odam bo'lgan. Bu haqda Engelsning fikri bor...*" deyishiga munosabat bildiring" topshirig'i o'quvchilarni hikoya qahramonining ayollar oldida o'zini bilimli qilib ko'rsatayotganini, aslida eng savodsiz kishi ham bunday fikrlamasligini, Baqoev shunday qarashlari bilan o'zining bilimsizligini fosh etayotganini tushunishi kerak. U o'zini bilag'on fahmlab, atrofidagi odamlarning barchasini ahmoq deb o'ylaydi. Uning gaplariga Hamidaning yoki xotini Mukarramning e'tiroz bildirmagani, qarshi gap aytmagani bilimsizlikdan emas, buning qandaydir boshqa sabablari borligi va bu sabablar qanday bo'lishi mumkinligi haqida o'quvchilar o'ylab ko'rishlari kerak bo'ladi.

O'qituvchining: "Baqoevning Hamida qistovidan so'ng "burjua realizmi" haqidagi gaplaridan nimani tushundingiz?" – degan savoli o'quvchilar diqqatini asarning shu qismiga qaratishga majbur qiladi. Ular, shubhasiz, hech narsa tushunmaydilar va bu bilan Baqoevning yana bir sifatini ochadilar: Baqoev mujmal odam. Bu sifat ham daftarga yoziladi. So'ngra o'qituvchi o'quvchilar diqqatini Baqoev tushunolmayotgan moyak va xo'rozning saharda qichqirishi singari "chuqur qarash"larga qaratadi. Bu chindan ham chuqur qarashmi?

"Adabiyot muallimi Baqoevni xotini Mukarram bilan taqqoslang. Er-xotinning Chexov haqidagi gaplariga asoslanib, ularning bilim darajasini baholang" topshirig'i o'quvchilar diqqatini yana asar matniga qaratadi. Ular o'z munosabatlarini bildiradilar. Mukarramning kim bo'lib ishlashi haqida hikoyada hech narsa deyilmagan. Lekin u Pushkin va Chexov haqida eri, adabiyot muallimi o'rtoq Baqoevdan

ko'ra tuzukroq bilimga ega. Bundan tashqari, uning asosi ham bor. Mukarram *"kutubxonada Chexovning Maksim Gorkiy bilan oldirgan surat"ini* ko'rgan. So'ngra hikoyadagi *"O'rtoq Baqoev bir oz o'ng'aysizlandi"* degan jumlaga e'tibor qilinadi. Shu o'rinda o'quvchilarning diqqati "O'ng'aysizlanish" so'zi o'rnlimi? yoki bu so'z ham Baqoevning biror sifatini ochish uchun qo'llanilganmi?" degan fikrga qaratilmog'i kerak bo'ladi.

Adabiyot muallimining Chexovlar haqidagi fikri, adiblar haqidagi "uzundan-uzoq" ma'ruzasiga tayanib o'quvchilar u haqidagi xulosalarini aytadilar. "Adabiyot muallimi" hikoyasining bosh qahramoni Boqijon Baqoevning xarakteri bilan bog'liq barcha detallar aniqlab bo'lingach, o'qituvchi tadqiqot obyekti bilan bog'liq masalani o'quvchilarga eslatadi: "Boqijon Baqoev tarbiyalagan o'quvchilar qanday odam bo'ladi?".

O'ninchi sinf o'quvchilari bu haqda o'z maktab hayoti yoki boshqa bilganlaridan kelib chiqib salmoqli fikrlar aytishi tabiiy. O'qituvchining vazifasi ularning fikrlari, munosabatlari va xulosalarini nazorat qilib borishdan iborat. Eng muhimi fikrlar aniqligi, mantiqliligidir. Fikrlar tugaganda dars ham yakuniga yetadi. O'quvchilar dars jarayonidagi faolligiga, aytilgan fikrlarning mantig'iga, dalillarning asosliligiga qarab baholanadi. Gap shundaki, o'quvchilarning barchasi Baqoev haqida o'z xulosasiga ega bo'lgan holda darsni yakunlashlari kerak. O'qituvchi ularning fikrlarini xulosalashga, hammaning qarashlarini umumlashtirib bir qolipga solishga mas'ul emas.

Uyga vazifa sifatida "Adabiyot muallimiga tavsifnoma" mavzusida tavsifiy insho yozishni topshirish mumkin. Bugungi 10-sinf o'quvchisiga bunday mavzuda insho yozishni topshirish ayrim adabiyot o'qituvchilarining o'zlari uchun bir oz "xavfli" bo'lishi ham mumkindir. Xullas, o'qituvchi vaziyatga qarab ish tutadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Butun adabiy ta'lim va mazkur darslik mazmunan asoslangan: *"O'quvchi ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan tafakkur va faoliyatdagi mustaqillik"* degan tushunchaning mohiyatiga kiring. Shu vaqtgacha o'rganganlaringizga asoslanib bu g'oyani tahlilga torting. Qarashlaringizni asoslang.

2. Matnda shunday fikr bor: *"Uy vazifalari bajarilishidagi eng muhim shart unda dars va darsliklagi haqiqatlarning takrorlanmaslik*

kerakligidir". Siz buni qanday tushunasiz? Butun maktab hayotingizda ham, o'rta maxsus ta'limi davrida ham, hatto oliy ta'limdagi faoliyatingizda ham uy vazifalarini bajarishingiz shunday qarashga asoslanganmi, yo'qmi? Fikringizni dalillang. Qolaversa, nima deb o'ylaysiz, bunday uy vazifalarini qanday tashkil etish mumkin? Shu haqda ham o'ylab ko'ring.

3. Mavzu mazmunidan uy vazifasining zimmasiga ortiladigan mas'uliyat bilan bog'liq fikrlarni alohida ko'chirib yozing. Ularning mohiyatiga kiring, tahlilga torting, munosabat bildiring.

4. O'quvchilarning uy vazifalarini qanday tashkil etish borasidagi jamiki fikrlarni alohida ko'chirib yozing. Ularni o'rganing va tahlilga torting. Munosabatingizni o'rtoqlashing.

5. Uy vazifasini so'rash bilan bog'liq quyidagi fikrga diqqat qiling: *"Har safar, uy vazifasini so'rashda o'quvchilarning oldiga taqqoslash va umumlashtirishga undash uchun qo'yilgan savollar ularning aqlini zo'riqtiradi"*. Sizningcha, o'quvchini *"taqqoslash va umumlashtirishga undash"*ga yo'naltiradigan savol va topshiriqlar qanday bo'ladi? Qarashlaringizni biror badiiy asar misolida dalillang.

6. Uy vazifasini so'rash bilan bog'liq jamiki fikrlarni ajrating. Ularni izohlang. Munosabat bildiring.

7. *"O'qituvchi qanchalik bilimdon, saviyasi ne qadar baland bo'lsa, tarbiyalagan o'quvchilarini ham o'zining darajasida yuqorilatib boraveradi"* tarzidagi hukm-xulosaga diqqat qiling. Mamlakatning, millatning ertasi sizning shaxsingiz, mahoratingiz bilan ne qadar bog'liq ekani haqida o'ylab ko'ring. Qanoatlaringizni ovoz chiqarib e'tirof qiling, agar bunga jur'atingiz yetmasa, adabiyot daftaringizga yozib qo'ying. Amaliy faoliyatingizda kerak bo'ladi.

8. O'quvchilarga uy vazifalari berish borasida o'qituvchilarga xos bo'lgan umumiy illatlarni ajrating. Ularni bartaraf qilish yo'llarini tavsiya eting. Mazkur fojea-muammoni birgalikda muhokamaga torting.

9. O'quvchida siz o'qituvchi sifatida shakllantirishingiz lozim bo'lgan "shaxslik sifatlar" haqida o'ylab ko'ring. Ularni, nomma-nom sanang va qayd eting. Sanalgan fazilatlarning o'z "men"ingizda qanchalik mavjudligi haqida o'qituvchilik mas'uliyati bilan fikr yuriting.

10.O'quvchilarga uyda o'qish uchun beriladigan vazifalarning alohida xususiyatlarini ajrating va muhokamaga torting. Muhim va nomuhimlarini belgilang. Munosabat bildiring.

11.Suratlar bilan ishlash borasidagi uy vazifalariga qo'yiladigan talablarga diqqat qiling. O'quvchilarga bunday topshiriqlar berish uchun o'zingiz suratlarni o'qish borasida ma'lum bilimga ega bo'lishingiz kerakligini ta'kidlash shartmasdir"? O'qituvchingizga metodika darslarida suratlar bilan ishlash mashg'ulotlarini taklif qiling. Birgalikda o'zingizda tasviriy san'at namunalarini o'qish ko'nikmasini shakllantirib boring.

12."Adabiyot muallimi"ning bosh qahramoni Baqoevga tavsifnoma yozing. Adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan talablarni darslikda o'qiganlaringiz asosida alohida sanab ko'rsating.

13."Men tarbiyalagan o'quvchilar qanday odam bo'lishadi?!" mavzusida uy inshosi yozing. O'rtoqlaringizning inshosini bir o'qituvchi sifatida tekshiring. Xulosalaringizni, xato va kamchiliklarni muhokama qiling.

28-MAVZU. YOZUVCHI TARJIMAI HOLINING BERILISHIGA XOS XUSUSIYATLAR

Reja:

1. Biografik ma'lumotlarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari.

2. Adib hashi holi mazmuniga qo'yiladigan talablar.

3. Tarjimai hollarni o'rganishning ma'rifiy ahamiyati.

4. Adiblar shaxsini o'rganishda qo'l keladigan usullar.

5. Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.

Yozuvchi va shoirlarning asarlarida har bir tarixiy davr ruhi, xalqning turmush tarzi, shu davrga xos ijtimoiy munosabatlar ma'naviy boyliklar sifatida kitobxonlar qalbiga etib boradi, u erda puxta o'rnashib, muhrlanib qoladi, o'z tarbiyaviy ta'sirini ko'rsatib turadi. Ravshanki, shunday asarlarni yaratgan kishilar haqidagi biografik ma'lumotlar ham o'z mazmun-mohiyati bilan yoshlarni milliy ma'naviyatni anglash, his etish ruhida tarbiyalashda o'ziga xos o'rin tutadi.

Ma'rifiy va ma'naviy ozuqa berishga da'vat etilgan ijodkor tarjimai holi qanday mazmunda bo'lishi kerakligini belgilab olish o'ta mas'uliyatli muammodir. Buning zarurligini "Adabiyot" darsliklaridagi quruq faktlarni qalashtirish mazmunidagi biografik ma'lumotlarning hissiz qabul qilinib kelinganligidan ham bilish mumkin.

Adabiyot o'qitish metodikasida tarjimai hollarni o'rganish xususida A. Zunnunov, R. Usmonov, Q. Yo'ldoshev, Ye. D. Pristupa, V. T. Maransman va boshqa metodist-olimlar so'z yuritganlar, biografik ma'lumotlar mazmuni qanday bo'lishi kerakligi haqida ba'zan yo'l-yo'lakay, ba'zan maxsus to'xtalib o'tganlar.

Metodik adabiyotlarda biografik ma'lumotlar haqida bayon etilgan tavsiyalarni umumlashtirib, tarjimai hol mazmuni quyidagi unsurlardan iborat bo'lishi ta'kidlanadi:

- adibning bolalik chog'lari va o'sib ulg'ayishi;
- san'atkorning ijod yo'li;
- yozuvchi yoki shoirning ijodiy faoliyati va badiiy mahorati;
- asarlaridan parchalar;
- dasturda tavsiya etilgan asarning yaratilish tarixi;
- ijodkorning jamiyatda tutgan mavqyei, xizmatlari;

– so'z ustasi haqida uning zamondoshlari va hk.

Tarjimai holning eng xilma-xil mazmun va hajmga ega bo'lgan qismi yozuvchi yoki shoirning yoshligi haqidagi ma'lumotlardir. Bu erda nimalar aks etishi kerakligi to'g'risida metodik adabiyotlarda turlicha tavsiyalar beriladi. Mazkur tavsiyalarni umumlashtirgan holda biografik ma'lumotda san'atkorning o'sib ulg'ayishi, kamol topishi, komil inson bo'lib etishuvi, ichki dunyosi, ruhiy olami, bu olamning boyligi haqida hikoya qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktab «Adabiyot» darsliklarida bu masala hozir ham yuqoridagi talab darajasida hal etilmay kelinyapti. Ayrim tarjimai hollarda adibning bolaligi 3-4 jumla bilan aytib o'tiladi. Bunda uning qaysi maktabda qanday o'qigani, nimalarga ko'proq qiziqqani, necha yoshidan she'r yoza boshlagani ma'lum qilinadi.

Metodik adabiyotlarda: *"Adib hayotidagi muhim voqealar (ko'pincha bir-ikki voqea) aksariyat hollarda uning shaxsi qanday kamol topayotganini yoshlarga ibrat qilib ko'rsatish maqsadini ko'zda tutadi"* deb ta'kidlanadi[1]. Bundan bilish mumkinki, yozuvchi, shoirlarning tarjimai holidagi bu kabi ma'lumotlar ma'lum darajada tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Bular asar muallifi ma'naviyatining shakllanish yo'li, bosqichlari, tarkibini namoyish etadi.

Biografik ma'lumotlar, ayrim metodistlarning ta'kidlashlariga ko'ra, adibning shaxsi, ichki dunyosi va ruhiy olami, ma'naviy e'tiqodi va izlanishlarini qamrab olishi kerak[2]. Bizningcha, e'tiqod va izlanishlar haqidagi gaplarni san'atkorning yoshlik yillari va o'sib ulg'ayishi bitiladigan qismda emas, uning ijod yo'li yoritiladigan joyda berilgani ma'qul.

"Adabiyot" darsliklarini kuzatish shuni ko'rsatdiki, adibning bolaligi, o'sib ulg'ayish davri juda qisqa yoritiladi va bundan uning shaxsi, ichki olami, ruhiyati va ideallarini bilib olish qiyin. Adibning bolaligida yoki o'quvchiligi paytida taqdirining belgilanishiga sabab bo'lgan hodisalar bayoni o'quvchi shaxsining shakllanishiga u yoki bu darajada o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Masalan, Pirimqul Qodirovning tarjimai holidan quyidagi o'rinni ko'rsatish joiz:

"Maktabda men a'lochilar qatorida yurardim. Bir yilda ikki sinfni bitirib, uchinchiga ko'chirilgan edim. Oltinchi sinfda meni Toshkentga

[1] Зунунов А. Ўзбек маънавиятини ошириш методикаси тарихидан очерклар. – Т.: «Ўқитувчи», 1989. – 46-б.
[2] Маркевич З. Г. Биография писателя в системе эстетического воспитания школьников. – Москва: «Просвещение», 1965. – С. 75.

sayohat qilish yo'llanmasi bilan mukofotlashdi. Lekin ma'lum joylar "otasi boy bo'lgan" deb, mukofotni bekor qilishibdi. Shunda Damirov degan jo'g'rofiya o'qituvchimiz: "Axir, otasi hozir kolxozchi-ku!" – deb kuyunib yurgani, lekin uning so'zi o'tmagani, meni sayohatdan mahrum qilishgani hyech esimdan chiqmaydi"[1].

Adibning bosib o'tgan yo'li, ijodiy faoliyati biografik ma'lumotda o'ziga xos o'rin tutib, uning shaxsi, ichki dunyosi, ruhiy olami, qarashlari, ma'naviy e'tiqodi qay tarzda shakllanganidan tortib badiiy mahoratini egallashigacha bo'lgan hayot yo'li o'z aksini topadi. O'quvchi so'z ustasining kimligini, orzu-o'ylarini, intilishlarini tarjimai holning shu qismidan ko'proq bilib oladi. Demak, bu erda beriladigan ma'lumotlarning yoshlar uchun ma'rifiy ahamiyati katta. Tarjimai holning shu qism orqali tarixiy davr bilan tanishish ham yuz beradi.

R. Usmonovning fikricha, tarjimai holda san'atkorning ijodiy takomiliga ta'sir etgan voqea va hodisalar bayoni ham aks etishi kerak. Masalan: *"To'rt yil davomida Istambul dorilfununda tahsil olgan Fitrat taqdirida Turkiya hayoti muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yillar Fitratning siyosiy va davlatchilik qarashlarida, dunyoqarashi, san'atkorlik mahorati shakllanishida yo'naltiruvchi ahamiyat kasb etdi"*[2]. Mazkur fikrlar o'quvchilarda Fitrat shaxsi va dunyoqarashining shakllanishida bu tahsil muhim ahamiyat kasb etgani borasidagi tasavvurlarini tiniqlashtiradi. Fitratning millat savodxonligi, ma'naviy to'kisligi borasidagi kuyib-pishishlari sabablarini anglashlariga ko'maklashadi.

Q. Yo'ldoshev 7-sinf uchun yozilgan «Adabiyot» darsliklarining majmuasiga yozgan metodik qo'llanmasida adiblarning tarjimai hollarini yoritishda shu vaqtgacha qaror topgan qoliplarga rioya etmay, bolalarning tafakkuriga, hissiyotiga ta'sir qiladigan, ularni loqaydlikdan chiqaradigan ma'lumotlarni berish kerakligini eslatadi[3].

R. Usmonov, Ye. D. Pristupa, V. G. Maransman va boshqa bir qator metodist-olimlar o'quvchi tarjimai hol orqali so'z ustasining bosib o'tgan hayot yo'lini o'rganish barobarida uning badiiy mahorati, bu mahoratning o'ziga xosligi, badiiy kashfiyotlarini bilib olishi kerak degan fikrni ilgari suradilar.

[1] Каримов В., Йўлдошев Қ., Норматов У. XX аср ўзбек адабиёти. 11-синф учун хрестом. – Т.: «Ўқитувчи», 1995. – 25-б.
[2] Усмонов Р. Юқори синфларда адабиёт биографиясини ўрганиш. – Т.: «Ўқитувчи», 1969. – 31-бет.
[3] Йўлдошев Қ. Ўқитувчи китоби: Мехтоб қўшиғи. Т.: Ўқитувчи, 1997. – 11-12-б.

"Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli qo'llanmada yuqori sinflarda yozuvchi uslubini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratish zarurligi uqtirilgan: *"Uslub yozuvchining yodiga singib ketgan bo'ladi. Uni ijodining ruhi, har bir asaridan anqib turadigan xushbo'y hid deyish mumkin. Yozuvchining hayotga munosabatidagi, xarakter yaratishdagi, tasviriy vositalaridagi, fikrlash yo'sinidagi, hatto biografiyasi va shaxsiyatidagi o'ziga xosliklar hammasi birikib, uning uslubini vujudga keltiradi. Biroq uslub mana shunday murakkab hodisa bo'lsa ham, ijodning bir sohasi bo'ladi, unda uslub birinchi qarashdayoq ko'zga yarq etib tashlanib turadi. Bu yozuvchining tili. Tilda yozuvchining mahorati ham, estetik prinsiplari ham, hayot ranglarini payqay olishi ham, nozik farqlarni his etish qobiliyati ham aniq ko'rinadi"*[1].

Masalan, Abdulla Qahhor uslubi asarlarining o'ziga xos tili orqali namoyon bo'ladi. Yozuvchi ishlatgan so'zlar, u yaratgan jumlalar o'zbek tilining boyligini aks ettiradi, milliy til xususiyatlarini kamalak nurlari kabi tovlantiradi.

Yozuvchi yoki shoir ma'lum janrga asos soladi yoki biror janrni rivojlantiradi, yangicha yo'nalish, oqim ixtiro qiladi yoki ko'pincha mutlaqo yangi badiiy obrazlarni yoxud yangicha uslubni yaratadi. "Adabiyot" darsliklarida taqdim etilgan tarjimai hollarda bu masala ham tilga olinishi maqsadga muvofiqdir. Umuman, tarjimai holni o'rganish jarayonida yozuvchining ma'naviy olamiga, ijodiy faoliyatiga alohida ahamiyat berilsa, ta'lim va tarbiya vazifalari muvaffaqiyatli suratda hal etiladi. Badiiy asardan olingan parchalar ham o'quvchini tarjimai holi o'rganilayotgan san'atkorning yashab ijod etgan davri bilan tanishtirishda, uning ma'naviy qiyofasini ochib berishda o'qituvchi uchun ko'rsatmali qurolning eng ta'sirchan va eng samarali turi sifatida xizmat qiladi.

Yozuvchining ijodiy kamolot sari bosib o'tgan yo'li, ijodiy faoliyati biografik ma'lumotda o'ziga xos o'rin tutib, uning shaxsi, ichki dunyosi, ruhiy olami, qarashlari, ma'naviy e'tiqodi tarjimai holning shu qismida o'z aksini to'liqroq topadi. Tarjimai holda yozuvchining navbatdagi darsda yoki darslardan birida o'rganilajak dasturiy asarining yaratilish tarixi shu asarning mazmunini tushunishga, o'quvchilarni bunga ruhiy jihatdan tayyorlashga yordam beradi. Mazkur yordam

[1] Йўлдошев К., Мавлон О., Абдураҳмонов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. Т.: Ўқитувчи, 1994. 194-б

asarning yozilishiga turtki bo'lgan narsa, voqea-hodisa bayonidan, tarixiy-adabiy davr sharhidan, yozuvchining asar ustida olib borgan ishlari haqidagi ma'lumotdan, zamondoshlari kitobni qanday kutib olgani to'g'risidagi qaydlardan iborat bo'lishi mumkin. Shuningdek, bu qismda asarga singdirilgan g'oyaviy fikrlar, asarning keyingi davrlar, kelgusi avlod uchun qanchalik ahamiyatli ekanligi bayon etilishi mumkin[1].

«Asarning yaralish tarixi bilan mufassal tanishish o'quvchilarni tarixiy sharoitga olib kirish, davrdagi ijtimoiy vaziyatni ko'rsatish, yozuvchi tanlagan pozitsiyaga e'tiborni qaratish imkonini beradi»[2]. Masalan, Oybekning "Qutlug' qon" romani Stalinning sho'ro davridagi "Chorizm – xalqlar turmasi edi" degan so'zlariga javoban yozilgan. Adib chorizmning qahri ayniqsa kuchaygan bir paytdagi o'zbek xalqi hayotiga murojaat etadi. Bu, shubhasiz, 1916 yil qo'zg'oloni O'rta Osiyo bo'ylab gurlab yongan tarixiy bir davr edi. Oybek bu mavzuga kirishar ekan, o'zbek xalqining, bir tomondan, ikki yoqlama zulm ostida yashagani, ikkinchi tomondan, shu zulmning badsizligi tufayli siyosiy-ijtimoiy ongi tezroq uyg'onganini ko'rsatib berishni o'ziga maqsad qilib oldi[3].

Yozuvchi biografiyasini o'rganishda adib haqidagi ma'lumotlardan, qiziqarli hayotiy voqealardan foydalanish o'quvchilarda uning asarlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Masalan, A. Qahhor biografiyasini o'tishda Kibriyo Qahhorovaning "Chorak asr hamnafas" kitobidan olingan parchalar o'quvchilarni juda qiziqtiradi. Yoki adib "Hikmatlar"idagi ayrim fikrlar yozuvchiga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirishi mumkin. Zarifa Saidnosirovaning "Oybegim mening" esse kitobi o'quvchilarning Oybek shaxsi va ma'naviy dunyosi bilan tanishtirishda asos bo'lishi mumkin.

Adiblarning el-yurt oldidagi xizmatlari jamiyatda tutgan mavqyei bajargan davlat ishlari, jamoat ishlari va boshqalar haqidagi fikrlarda o'z ifodasini topadi. Ayrim tarjimai hollarda san'atkorning ijod yo'li mehnat faoliyatiga qo'shib bayon etiladi. Hamza Hakimzoda

[1] Усманов Р. К. Изучение биографии писателя в школе. Т.: Ўқитувчи, 1969. 17-б.
[2] Пронина Е. А. Особенности изучения литературного текста в старших классах национальной школы. Автореф. ... канд. пед. наук. М., 1985. С. 9.
[3] Каримов Н., Мамажонов С., Шоғуломов Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1999.

Niyoziyning tarjimai holi shu tarzda, adibning o'z tilidan yoritilgan[1]. Bunda ijodiy faoliyatdan ko'ra ko'proq mehnat faoliyati haqida so'z yuritilgan. Bu jihatdan, ayniqsa, zamondosh shoirlar haqidagi ma'lumotlar muhimdir. O'tkir Hoshimov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari zamondosh adiblarning ijtimoiy mavqyei har qanday o'quvchini qiziqtiradi. Masalan, Abdulla Oripovning O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi bo'lgani, O'zbekiston Qahramoni ekanligini bilish ularda maroq va havas uyg'otadi.

Ijodkor va uning asarlari to'g'risidagi fikrlar tarjimai holning yakunlovchi muhim bir qismi sanalib, bular ham adibning jamiyatda va adabiyotda tutgan mavqyeini ko'rsatish shakllaridan biri hisoblanadi. Bunda yozuvchi yoki shoirning faoliyat davrlari, yaratgan asari haqida ilmiy maqolalardan ko'chirmalar berish, zamondoshlarining xotiralaridan lavhalar keltirish, adibning buyukligini, o'ziga xosligini, uslubini, asarlarining jahon adabiyotida tutgan o'rni, estetik qimmatiga baho beriladi. Masalan, A. Qodiriy jahonda oltinchi romanchilik maktabini yaratganini aytish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yozuvchining buyukligini, adabiyot sohasidagi xizmatlari, jamiyatda tutgan mavqyei, milliy ma'naviyatga qo'shgan hissasi, chinakam so'z ustasi ekanligini o'quvchilarga etkazish zamirida bir tomondan, ma'rifiy maqsadlar yotsa, ikkinchi tomondan, o'rganiladigan asarga ijobiy munosabatni shakllantirish yotadi. So'z ustasining ijtimoiy mavqyei, badiiy mahorati haqida chiqariladigan xulosa uchun uning o'zi to'g'risida aytganlari bilan bir qatorda boshqa atoqli kishilarning fikrlari ham muhim rol o'ynaydi. Bu kabi vositalar san'atkorning, adibning boshqalarga o'xshamaydigan qiyofasi va uslubi haqida o'quvchida yaqqol tasavvur uyg'otish uchun xizmat qilishi kerak. Zero, A. Oripovning O'zbekistonni sevishi H. Olimjonning sevishiga o'xshamaydi; Usmon Nosirning yurt tabiatiga maftunligi Cho'lpon lirikasidagi tabiat tasvirlaridan tamoman farq qiladi. Har bir ijodkorning olam go'zalliklarini ko'rishi, his qilishi, tasvirlashi o'ziga xos. Masalan, A. Qahhor hayoti va ijodi haqidagi monografik mavzuni yuqori sinfda yoritishda adib shaxsiga oid halollik, rostgo'ylik, illatlarga murosasizlik kabi xususiyatlarning ijodida aks etish darajasini o'rganish qiziqarli, albatta. Bu o'rinda "O'tmishdan ertaklar" qissasining rus tilida nashr etilishi munosabati bilan tarjimonlik qilgan

[1] Каримов Н., Назаров Б., Норматов У. XX аср ўзбек адабиёти. II-синф учун дарслик. Т.: Ўқитувчи, 1995. 189-б.

K. Simonovning "Drujba narodov" jurnalining 1968 yil 10-sonidagi so'z boshisidan ko'chirma keltirish mumkin. *"Men Abdulla Qahhor bilan Toshkentda yonma-yon turib ishlagan chog'larimni eslab, uning asarlarini rus tiliga ag'darganimdan, undan saboq olganimdan o'zimni behad baxtiyor hisoblayman. Bundan tashqari, o'sha yillar shunisi bilan esda qoladiki, men shu bahonada Abdulla Qahhordek oqilu dono, hozirjavob, bir so'zli, hatto tili hiyla achchiq, ayni zamonda bag'ri keng, odamshavanda inson bilan do'stlashdim..."*

Adibning umr yo'ldoshi Kibriyo Qahhorova u haqda: *"Biror yozuvchi yoki shoir o'zbek tilining nazokatini buzsa, ming xaqir, jonajon do'sti bo'lsa ham uni avab o'tirmasdilar. Abdulla Qahhor faqat o'zigagina emas, hatto tengqurlari, qalamkash do'stlariga nisbatan ham talabchan edilar. Eng avvalo, o'zlari yozadigan har bir so'zni fikr tarozusida obdon o'lchardilar"*[1], – deb yozgan edi.

Alohida e'tibor berish lozimki, muayyan adib haqida turli mashhur kishilar aytgan fikrlar o'quvchi ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. S. Zaligin: *"Buyuk odamlar bizning ma'naviy olamimizga uzluksiz ta'sir o'tkazib turadi"*. – degan edi[2]. Mashhur kishilar, taniqli shaxslar, ayniqsa, yirik olimlar va yozuvchilar o'quvchi yoshlar uchun hamma vaqt namuna maktabi bo'lib kelgan. Bunda ayniqsa o'quvchilar uchun o'z millatdoshlarining fikrlari kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan A. Qahhor haqida adabiyotshunos O. Sharafiddinov, M. Qo'shchanov, U. Normatov, R. Qo'chqorov, Leonid Lench, Konstantin Simonovning fikrlarini keltirish o'rinli bo'ladi. Bu o'quvchilar uchun tasdiqlovchi omil vazifasini o'taydi.

Bundan tashqari, muayyan san'atkorga daxldor turli ilmiy va badiiy asarlardan qaydlar tarjimai holni yana ham boyitadi. Ijodkor faoliyatining davrlari haqida, u yaratgan asarlar to'g'risida beriladigan ma'lumotda xilma-xil manbalardan ko'chirmalar keltiriladi, ayrim parchalar aks ettiriladi, zamondoshlari xotiralaridan lavhalar, adabiy tanqidchilar fikrlaridan misollar beriladi, adibning buyukligi, o'ziga xosligi, asarlarining jahon adabiyotida tutgan o'rni, estetik qimmati yoritiladi.

V. G. Maransmanning adib biografiyasi bilan uning ijodiga beriladigan sharh oldinma-keyin emas, balki qo'shib bayon etilishi kerak degan fikri e'tiborga molikdir. Chunki olimning uqtirishicha,

[1] Шарофиддинов О. Бирлик мезонлари. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. 282-б.
[2] Залигин С. Культура и личность // Собеседник: Литературно-критический альманах. М., 1987. Вып. 8. С. 6.

yozuvchi biografiyasini o'rganishdagi estetik vazifa san'atkor tomonidan san'at asarida hayot qanday mujassamlashtirilganini ko'rishdan iboratdir. Maktabda yozuvchining hayoti haqidagi gapni ijodini o'rganishdan ajratib qo'yganda asaridan keltirilgan parcha tushunarsiz bo'lib qoladi. V. G. Maransmanning fikricha, san'atkorning hayoti bilan ijodini ayrim-ayrim bo'lib o'rganish o'quvchilar ongida san'atning hayotdan uzib qo'yilishiga olib keladi. Basharti, biografiyasi avval, ijodi keyin joylashtirilsa, birinchisi mazmunsiz bo'lib qoladi, chunki undan san'atkorning hayot ma'nisi, baxti va tashvishlarini tashkil etuvchi zamin chiqarib tashlangan bo'ladi.

Yozuvchining hayoti haqidagi gaplar faktlar to'plami va sanalar ro'yxati bilan almashtirib qo'yiladi yoki hayotni maishiy turmushga olib borib taqab qo'yadigan biografizm tiklanadi. *«Maktabda yozuvchi biografiyasini o'rganish faqat ma'rifiy-ahloqiygina emas, balki estetik maqsadlar uchun ham zarur. Rassom (san'atkor) ko'rganlarini o'z idrok qirrasi orqali o'tkazadi. Muallif shaxsining ana shu qirralarini ko'rmasdan turib, asarni tushunish qiyin. Tomoshabin, tinglovchi, kitobxon badiiy asardan uning oldiga zamon, odamlar yuragi qo'ygan murakkab savollarga javob qidiradi. San'atkor xohlasa-xohlamasa, o'z suhbatdoshining savollariga javob qaytaradi. Agar o'quvchi darsda san'atkorning ichki olami bilan tanishsa, ovozining betakrorligini anglab etsa, yozuvchi bilan so'zlashuv behad chuqur, hayajonli va to'g'ri bo'ladi. Mutlaqo notanish shaxs bilan suhbatlashish mushkul, shuning uchun biografiq ma'lumot badiiy asar tahlilida ubtiy va zaruriy tayanch bo'lib qoladi»*[1].

Adibning hayoti va ijodiy faoliyatini darsliklarda beriladigan tarjimai hollar yordamida o'rganish ta'lim jarayonini to'liq qamrab olmaslikdan iborat bir yoqlamalilikka sabab bo'ladi. Ayrim ma'lumotlarni eshitish mashqlari sifatida taqdim etish, ba'zilarini ma'ruza sifatida o'quvchilarga etkazish (yozuvchi yoki shoirning tug'ilgan kuni munosabati bilan tashkil etiladigan adabiy kechalar dasturiga kiritiladi, devoriy gazetalarda beriladi), kinoko'rsatuv, diafilm, videofilm va boshqa materiallardan foydalanish yo'li bilan ham o'rganish mumkin. Bular biografik ma'lumotlar mazmunini kengaytiradi.

[1] Марьянова В. Г. Биография писателя в системе эстетического воспитания школьников. — Москва: Просвещение, 1965. – С. 72.

R. Usmonovning ta'kidlashicha: *«O'quvchilar yozuvchi biografiyasini o'rganish orqali san'atkorning ijodiy takomiliga ta'sir etgan fakt va hodisalarni hamda ularning yozuvchi asarlarida qanday aks ettirilganini, shuningdek, asarlarining yaratilish tarixi, ularga singdirilgan g'oyaviy fikrlar, yozuvchining asar ustida olib borgan ishlari, uning bu ijodiy mahsuli zamondoshlari tomonidan qanday kutib olingani va keyingi davrlar uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini tushunib oladilar»*[1].

Ixchamlik uchun tarjimai hol yozuvchining o'rganiladigan asari bilan bog'liq faoliyat davrini yoritadigan qisqa ocherk tarzida tavsiya etilishi ham mumkin. Tarjimai holni bayon etish shakli ham muhim masala. Yozuvchi biografiyasi o'rniga uning o'zi haqidagi hikoyasidan, xatidan yoki biografik asaridan parcha bergan ham ma'qul. "Adabiyot" darsliklaridagi aksariyat tarjimai hollar (asosan XX asr o'zbek adabiyoti namoyandalari haqida) shunday hikoyalardir. Bunday paytda ilmiy maqola o'rnini badiiy matn egallaydi, natijada biografik ma'lumotlarni o'rganishning estetik qiymati ta'minlanadi.

Adibning o'zi haqidagi hikoyasida ko'proq tarixiy davr, tarixiy voqealar bilan bog'lab o'z mehnat faoliyati yoritiladi. Ijodiy faoliyati, badiiy mahorati haqida esa juda kam so'z yuritiladi. Bunday so'z yuritilgan o'rinlar ba'zan hisobotga o'xshab ketadi.

Ba'zan yozuvchi o'z uslubining farqli xususiyatlarini aytib o'tadi. Masalan, Sharof Boshbekov shunday deydi: *"Har bir yozuvchining qandaydir o'zigagina xos jihati bo'ladi. Kimdir syujet topishga usta, kimdir noyob xarakterlar yaratishga mohir, boshqalari asar voqealarini zargarona terishda tengi yo'q. Mening eng yaxshi ko'rgan qurolim – yumor. Asar qanday janrda yozilmasin, voqealar qanchalik jiddiy, qahramonlarimning taqdiri qay darajada fojiali bo'lmasin, yumor, hazil-mutoyiba, askiya unsurlari, so'z o'yinlaridan imkonicha foydalanishga harakat qilaman..."*[2].

Nihoyat, aytish joizki, biografik ocherkning tili nisbatan sodda bo'lishi kerak. Tarjimai hol sermazmun bo'lishi bilan bir qatorda hajm jihatdan katta bo'lib ketmasligi, o'quvchilarning imkoniyat doirasidan chetga chiqmasligi, ularni zo'riqtirishga olib kelmasligi, o'ta zarur ma'lumotlar bilan qurollantirishni ko'zda tutmog'i lozim.

Adib hayoti va ijodining ilmiy bayoni:

[1] Усмонов Р. Ё. Ўқувчи синфларда ёзувчи биографиясини ўрганиш. – Т.: «Ўқитувчи», 1969. – 37–38-б.
[2] Китобхон. А. Расулов ва Ш. Ёқубов ҳақидаги ёзишмалар ҳақида ўйлаганларим // «Ўқитувчи», 1993. – 195-б.

a) muayyan adibning yozuvchi va mutafakkir sifatidagi mavqyei;
b) yashagan davrida tutgan o'rni;
v) ijodkor uslubi va uning shakllanishi;
g) adibning milliy-ijtimoiy tafakkuri va adabiyot taraqqiyotiga qo'shgan hissasi;
d) uning umumjahon badiiyati va tafakkuri rivojiga munosabati;
e) milliy g'oya va milliy qadriyatlar tarkibidagi o'rni singari masalalardan tashkil topsa, o'quvchi e'tiborini jalb etishga yordam beradi.

Adiblarning tarjimai holini keng miqyosda, batafsil o'rganish VIII sinflardan boshlab amalga oshirilishi keraklıgi metodist-olimlar tomonidan ko'p bor ta'kidlangan. Bu yoshdagi o'quvchilarga xos bo'lgan inson shaxsini o'rganishga qiziqish quyidagilarga asoslanadi:
– iste'dodining rivojlanishi;
– qalbining ulug'vorligi;
– tabiatga munosabati;
– insonga munosabati.

Yoshlarning komil inson sifatida shakllanishida milliy an'analar, qadriyatlar, ma'naviy boyliklar, davr ijtimoiy hayotining roli beqiyosdir. Shu bois tarjimai hollar mazmuni qanday bo'lishidan qat'i nazar birinchi navbatda adibning o'zi haqidagi hikoyasi bilan ijodi to'g'risidagi maqola qo'shilgan holda berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yozuvchining xotiralaridan har sinfda o'quvchilarning yoshiga mos qismini ajratib olib foydalanish mumkin. Eng muhimi, xotiralar o'rganilajak asarning yaratilishiga turtki bo'lgan voqea-hodisalar bilan tanishtiradi, shu orqali asar mazmunini to'liq tushunish uchun zamin yaratadi, asarini o'qish uchun havas uyg'otadi.

Xulosa qilib aytganda, "Adabiyot" darsliklarida asarlari o'rganiladigan yozuvchi va shoirlar haqidagi ma'lumotlar uning qaysi asari qay yilda yozilgani bilan bog'liq xabarlar yoki u qaysi yili qaerda kim bo'lib ishlagani yoxud qachon qay mukofotni qo'lga kiritgani borasida axborot berib qo'ya qolishdek oson ish emas. Asarlari o'rganiladigan mualliflarning shaxsi, o'quvchilar yoshiga mos davrdagi o'quvchilik xotiralari, mazkur asar yozilishi tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar tarzida taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu adabiyot o'qitish metodikasi ilmidagi "Millatning ulug'lari shaxsiyati bilan o'sib

kelayotgan avlod ma'naviy kamolotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi" degan tamoyilga mos keladi. O'ziga xos mas'uliyatli vazifani bajaradi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

«O'tmishdan ertaklar» qissasi va «Sarob» romanini o'rganish

11-sinf "Adabiyot" majmuasida "O'tmishdan ertaklar" qissasidan keltirilgan "Hur qiz" nomli parcha'ni o'qish uchun unga ajratilgan birinchi soatning 18–20 daqiqasi sarf bo'ladi. Parchani o'qituvchi o'qishi yoki badiiy so'zni nozik tushunadigan o'quvchilarga o'qitish ham mumkin. Qissa mutolaasi davomida o'quvchilarning barchasi matnni ichdan o'rtoqlari bilan birgalikda o'qishlari, zarur o'rinlarga belgi qo'yib borishlari talab qilinadi. O'quvchilar e'tibori qaratilishi lozim bo'lgan o'rinlarni mutolaa davomida o'qituvchi ko'rsatib o'tadi, ular belgi qo'yib boraveradilar. O'qib bo'lingach, o'sha o'rinlar savol-topshiriqqa aylantirilganda o'quvchi ularni qidirib vaqt sarflamaydi. Masalan: "...odam qo'shilgan eshak arava"ning tagiga chizing", "...G'afforjon menga qayrilib ham qaramadi..."ning tagiga chizing", "bemorning holati tasvirlangan o'rinlarga belgi qo'ying" va hokazo.

Mutolaadan so'ng asar tahliliga kirishiladi. Majmuada asar matni yuzasidan ikkitagina savol taqdim etilgan. Bu savollar bilan o'quvchilarni asar mohiyatiga yo'naltirish mumkin emas. Asar tahliliga kirishish hikoya matniga tayangan holda o'quvchilar diqqati adibning o'quvchiligi o'tgan davr va o'sha davrdagi Qo'qon tasviriga qaratishdan boshlanadi. O'qituvchi tomonidan berilgan: "Eshak aravaga odam qo'shilganiga qanday qaraysiz?" savoli o'quvchilarni ziyrak torttiradi. "Zavodning gudogini adib qanday tasvirlagan?" tarzidagi savol ham o'quvchilarni o'sha davr haqidagi tasavvurlarining oydinlashuviga ko'maklashadi. Kambag'allik, nochorlik insonni har kuyga solishini o'quvchilar "Bemor" misolida anglab yetishgan. Qo'qonday katta shaharda tirikchilik qilish uchun odamlarning eshak arava bilan hammollik qilishlari ham o'sha davr uchun oddiy hol bo'lgan ekan. Aks holda adib bu hodisani hayrat yoki taajjub bilan bayon qilgan bo'lardi. Odam qo'shilgan aravalar haqida shunchaki axborot berib ketiladi. Lekin zavodning gudogi oddiy qishloq

---

[1] N.Karimov va boshq. Adabiyot. 7-sinf. O'qituvchi. 2001, 188-b.

o'quvchisini hayratga soladi. O'quvchilar bu hayratning sabablari haqida mulohaza yuritsinlar. Fikrlarini o'rtoqlashsinlar.

So'ngra G'afforjonning maktabdan kelgan lavhasiga o'quvchilarning diqqati qaratiladi. "G'afforjon tabiatan qanday o'quvchi? Buning sabablari nimada deb o'ylaysiz?" degan savol o'quvchilar e'tiborini matnning shu bandiga yo'naltiradi. Uning o'zi tengi mehmon bolaga "*qayrilib ham qaramay, kitobini so'ngra uloqtir*"ishi, "*yerga o'tirib, oyoqlarini tiparchilatib yig'i boshlash*"i, "*sidirg'asiga emas, dam olib-dam olib*" yig'lashiga, ko'chada kichik Abdulla kutgan gapni aytmagani va ketishayotganda mehmonga "yur" demaganiga asoslanib qanday bola ekanini baholaydilar. Xo'sh, buning sababi nimada? Bu savolga javobni o'quvchilar o'zlari topsinlar. So'ngra uni hikoya qahramoni bilan taqqoslaydilar. "Hikoya qahramoni kichik Abdulla qanday bola?" degan savolga o'quvchilar asar matnidan o'quvchi Abdullaning tabiatiga xos bo'lgan sifatlar tasvirlangan o'rinlarni butun matn bo'ylab qidiradilar. Bu jarayon o'quvchilar millatning buyuk adibi Abdulla Qahhorning shaxsini kashf etishlari, o'rganishlari uchun zarur.

Yozuvchining ziyrak nazari, G'afforjon bilan bog'liq birorta ham detalni nazaridan qochirmagani uning sergakligidan dalolat beradi. Qolaversa, G'afforjondan qandaydir iliq munosabatni kutishining o'zi Abdullaning boshqacha bola ekanini ko'rsatadi. O'qituvchining: "Abdullaning atayi "*Savrinsonning azob-uqubatlariga sabab bo'layotgan*" Azimni ko'rgani borishi uning tabiatidagi qanday xislatdan dalolat beradi?", "yosh Abdulla nima uchun butun hikoya davomida dadasining onasini "buvim" demagan? "Ammam", "amakim" deganu, buvisini "kampir" degan? yoki adibning yodidan ko'tarilganmi?" kabi savollari o'quvchilarni mulohaza yuritishga, shu bilan birga adibga xos xarakterni chuqurroq ilg'ashga yordam beradi. Shunday suhbatlar bilan asarni o'rganishga rejalashtirilgan darsning birinchi soati yakunlanadi.

Ikkinchi darsda o'quvchilar diqqati Savrinisoning shaxsiga qaratiladi. Savriniso halokati sababining omillarini o'quvchilar o'qituvchi yo'naltirishlari asosida o'zlari topishlari kerak bo'ladi. Mana shu jarayon evristik metoddan foydalanilgan holda tashkil etiladi.

Evristik metodning nazariy jihatlari xususida gapirib shuni aytish mumkinki, uning nomi yunoncha "evrika" – "topdim" so'zidan olingan bo'lib, o'quvchi oldiga masalalar qo'yish, ularni tekshirish va hal etish

metodikasi, yordamchi savollar vositasida o'qitish usuli hisoblanadi. Ya'ni asarlar zamiriga berkitilgan hayotiy, ilmiy va badiiy haqiqatlarni o'quvchilar o'qituvchisidan tayyor holda olmay, o'zlari uchun o'zlari kashf etishlari nazarda tutiladi. Evristik metoddan foydalanganda o'qituvchi o'quv materialining suhbat metodida foydalangan tizimini to'liq qo'llashi mumkin. Faqat uning tarkibini qo'shimcha bilim olishga yo'naltiradigan savollar bilan to'ldirib boradi. Bunda savol-topshiriqlarning mantig'i va vaqt masalasida bir oz tafovut bo'ladi. Evristik metodda yetakchilik qiladigan savollar qo'zg'atuvchi ahamiyat kasb etadi.

Evristik metoddan foydalanilganda o'qituvchining faoliyati: xabardorlikni talab qiluvchi savollar qo'yish, taqqoslash uchun materiallar taqdim etish, qo'zg'atuvchi savollar berish, farazlarni tasdiqlovchi fikrlarga yo'naltirish, kuzatish uchun topshiriqlar taklif etish, tahlilga undash, murakkab qiyoslash va taqqoslash uchun amaliy topshiriqlar berish, muammoli savollar qo'yish, muammoli vaziyatlar hosil qilish kabilardan iborat bo'ladi. O'quvchilarning faoliyati esa bilimlarni vaziyatga muvofiq qo'llash, taqqoslash, o'z farazlarini ilgari surish va asoslash, kuzatish, farazning to'g'riligini tekshirish, tahlil, isbot, tushuntirish, kuzatishlar, bilimlarni yangi, o'zgargan vaziyatlarda qo'llash, dalillar keltirish, tahlil, qiyos, umumlashtirish, mustaqil amaliy ishlar tahlilini amalga oshirish, muammoli vaziyat tahlili va muammoni hal etishni o'z ichiga oladi.

O'quvchilar Savrinisoning fojiasi bilan bog'liq hayotiy haqiqatlar va uning omillarini aniqlashlari uchun evristik metodda tashkil etilgan darsda beriladigan birinchi savol quyidagicha bo'ladi: "Savriniso tabiatan qanday qiz? Fikringizni matndan misollar keltirib asoslang". Savriniso o'sha davrning barcha qizlari singari inon-ixtiyori uydagi kattalarning qo'lida bo'lgan, tarbiyali, mehrli, e'tiborli qiz. Savrinisoning kichik mehmonga e'tibori, "siz"lab murojaat qilishi, anchadan keyin yana chiqib sovunak holva berishi, dadasini chaqirib kelishni G'afforjonning qulog'iga aytishi, Azimga ko'ngli yo'qligini kelinoyisi kelguncha hech kimga aytolmagani uning tabiatan sinchkov, andishali qiz ekanini ko'rsatadi. Evristik suhbat jarayonida: «Savrinisoning Azimga tegmaslik uchun qilgan xatti-harakatlari nimalardan iborat bo'ldi? U kurashning boshqacha usulini qo'llashi mumkinmidi?» savollari o'rtaga tashlanadi. U davrda boshqacha bo'lishi mumkin ham emas edi. Bunday tarbiyaning o'ziga xos ijobiy,

salbiy jihatlari mavjud. Bu haqiqatlarga o'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini qaratgani ma'qul. Kim nimaga qo'shiladi-yu nimani rad etadi? O'quvchilar fikrlarini aytish bilan birga nega shunday deb o'ylayotganlarini ham asoslashlari zarur. Shaxs shakllanishi uchun aytilgan qarashlarni isbotlay bilish munosabat bildirishdan ko'ra ham ahamiyatliroq.

So'ngra o'quvchilarning diqqati bu to'ydan kim ko'proq manfaatdor ekaniga qaratiladi. Savrinisoning *"uzil-kesil gapni aytib qo'ygan"* otasi Abdurahmonmi, o'lim to'shagida yotgan, qaynonasi har safar oldiga kirganda: *"to'y qachon, ko'zim ochiqligida qizimning to'yini ko'rib qolay"* deydigan onasini yoki *"vaqtida odamlarga o'tkazib qo'ygan"*, *"to'yanaga kim nima olib kelishini bilmasa"* ham, *"o'z qo'li bilan berganini o'z qo'li bilan olish"*ni istayotgan kampirmi? Bu savolga javob berish jarayonida o'quvchilar har uchala timsolga o'ziga xos nazar bilan yondashadilar. O'z fikrlarini aytadilar. Asarda tasvirlangan hayotiy haqiqatning badiiy tasvirini o'zlari kashf etadilar.

Hikoyachi atay borib Azimni ko'rib keldi. Azim: *"...har yelkasiga to'rttadan odam sig'adigan..."*, dadasining gapicha *"bosqonchimisan bosqonchi, bosqonni boshidan oshirib urishni Qo'qonda rasm qilgan"*, *"sho'x, xushchaqchaq, askiyachi"* yigit. Qo'lida hunari ham bor. Yagona aybi – *"xiylagina duduq"*. Hikoyachi kuyovga o'z munosabatini bildirmaydi. Bunday xulosani o'quvchining o'zi chiqarishi kerak. Savrinisoning Azimga ko'ngil qo'ya olmayotganiga sabab nima ekan? O'quvchilar bu haqda ham mulohaza yuritib ko'rganlari ma'qul. Shu tariqa ularda dunyoqarash, shaxsiy munosabat shakllanib boradi.

"O'z qizini o'ladigan darajada urgan otaning qizi tobutt ko'tarilayotganda bexush yiqilishi lavhasi ishonarli chiqqanmi? Nima deb o'ylaysiz, nega u qizining ko'ngli bilan hisoblashmadi? Buning sabablari nimada?" O'qituvchi tomonidan berilgan bunday savollar o'quvchilarni otaning xarakterini ochishga yo'naltiradi. Uning gap-so'zi, o'zini tutishi, buning omillari haqida fikrlashadilar. Qarindoshlar Savrinisoning vafotidan ko'ra otaning qamalib ketmasligi uchun ko'proq harakat qildilar. "Ular nega o'zlarini bunday tutdilar?" O'qituvchi tomonidan bunday savolning qo'yilishi o'quvchilarni o'ylashga majbur qiladi. Bu savollarga har bir o'quvchi o'z saviyasi, oilaviy muhiti va dunyoqarashi doirasida javob beradi, albatta. Faqat ular o'z fikrlarini dalillashga urinib ko'rishlarini talab qilishi lozim.

Uy vazifasi sifatida "Savriniso jaholat qurbonimi yoki davrning?" mavzusida esse yozishni topshirish mumkin. Bu topshiriq ixtiyoriy uy vazifasi hisoblanadi va uni hamma bajarishi shart emas. Bunday yozma ishlar adabiyotga, badiiy ijodga, ko'rkam so'zga mayli bor o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish uchun beriladi. Qo'shimcha ravishda "Adabiyot" darsligidagi "Sarob" romani haqidagi ma'lumotni o'qib kelish topshiriladi. Bu hamma o'quvchilar uchun umumiy vazifa hisoblanadi va uni hamma bajarishi shart. Chunki keyingi ikki darsda "Sarob" ustida ishlanadi. Asar haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lish uning matnini chuqurroq anglashga ko'maklashadi.

"**Sarob**" romanidan berilgan parchani o'rganishga ajratilgan dars badiiy-didaktik tahlil tarzida tashkil etiladi. O'n birinchi sinfda adibning "Sarob" romanini o'rganish uchun ikki soat rejalashtirilgan. Birinchi dars romandan keltirilgan parchaning mutolaasi bilan boshlanadi. Majmuadagi besh betlik parchaning ifodali mutolaasi uchun 13- ko'pi bilan 15 daqiqa sarflanadi. So'ngra o'quvchilarning darslikda o'qib "Sarob" haqida bilganlariga qo'shimcha ravishda roman muallifi va boshqa taniqli kishilarning quyidagi fikrlariga o'quvchilarning diqqati tortiladi:

"Sarob" yigirma yil tanqid, ta'qibida bo'ldi. "Sarob" ilk bor bosilganida sochinda birorta ham oq tola yo'q edi. "Sarob" tufayli yigirma yil boshimda tanqid tayog'i sinaverib sochimning birorta ham qora tolasi qolmadi... "Sarob" tevarogidagi janjallardan birida tuppa-tuzuk tanqidchi meni murosaga chaqirib: "Tuflab tashlangan narsani qayta og'izga olmay qo'ya qoling endi", deganida o'zimni tutolmay: "Avvalo, "Sarob" hech cham tuflashga loyiq asar emas. Agar tuflash kerak bo'lsa, "Sarob"ni tan olmaydigan, tushunmaydigan, johil, nodon, chalasavod, demagog tanqidchilarning yuziga tuflayman!" deb yuboribman. Zamon "Sarob" xalqqa, jamiyatga kerak asar ekanini tasdiqladi".

Abdulla Qahhor.

"Gapning rostini aytsam, "Sarob" mening eng sevimli kitobim edi. U meni adabiyotga boshlab kirgan ustozim edi. Men uchun butun dunyoda "Sarob"ga teng keladigan kitob yo'q edi. Uni yonon deydigan odamni bo'g'ib tashlashga tayyor edim! Men "Sarob"ni yoddan aytib bera olardim. So'zma- so'z, jumlama-jumla, biror so'zini tushirib qoldirmay yodakasiga ayta olardim".

Said Ahmad.

"Uchrashuvlardan birida Abdulla akaga bir kitobxon:

- "Sarob" romaningizning davomini qachon o'qiymiz?" deb savol berib qoldi.

- O'qimaysiz, - dedi muallif, - chunki yozmayman. Yozmasligimning sababi shuki, bu roman mening qarshi. "Sarob" uchun men o'n sakkiz yil tepkilashdi. Vaholanki tepkilashning hech bir hojati yo'q ekan. Roman haq ekan, mana qayta yozaga chiqdi. Agar tepkilashmaganda yozgan bo'lardim...

Ko'rdingizmi, jaholat tufayli butun boshli asar dunyoga kelmay qoldi..."

A. Abdurazzoq.

"Tilda, tasviriy vositalar tanlashda Abdulla akaning eng yaxshi an'analariga kuchim yetguncha amal qildim, ammo "Sarob"dagi psixologik teranliklar, ayniqsa, salbiy qahramonlarni ichdan ko'rsata olish san'ati men egallashim mahol bo'lgan marralar edi..."

Pirimqul Qodirov.

Abdulla Qahhor haqida zamondoshlarining xotiralari bilan o'quvchilarni shunchaki xabardor qilib qo'yishning o'zi kamlik qiladi. O'qituvchi o'quvchilari bilan bu esdaliklarning mohiyatiga kirishi, shu orqali "Sarob" romanining adib hayotidagi va adabiyot olamidagi o'rnini anglashga urinib ko'rishlariga yo'naltirishi kerak bo'ladi. O'quvchilar asardan keltirilgan parcha bilan tanishdilar. Xo'sh, unda bunchalar katta tanqidga asos bo'ladigan, muallifning sochida "Sarob"ning qaysi jihatlari uchun muallifni *"...o'n sakkiz yil tepkilashdi?"* deb o'ylaysiz? Mana shunday masalalar haqida mulohaza yuritib, o'z qarashlarini tiniqlashtirib olgan o'quvchilar bilan birgalikda asar tahliliga kirishiladi. Asar tahlili ikkinchi darsga qoldiriladi. Birinchi darsning oxirida qiziqqan, xohlagan o'quvchilarga "Sarob"ni to'liq o'qishni topshirish mumkin. Asarning matni bilan to'liq tanishgan o'quvchilargina u haqda batafsil fikr yuritishlari mumkin.

Afsuski, majmuada keltirilgan parcha o'quvchilarga asarning qudratini, jozibasini anglashga imkon bermaydi: parcha noto'g'ri tanlangan. Asarning shuncha shov-shuvlarga, keskin tanqidlarga sabab bo'ladigan o'rinlaridan parcha keltirilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Lekin hamon shu lavha taqdim etilgan ekan, o'qituvchi-o'quvchilarning asardan olingan mana shu qism ustida ishlashdan boshqa ilojlari yo'q. Majmuada keltirilgan parcha tahlili ustida ish boshlab o'qituvchi o'quvchilari diqqatini Rahimjon va Munisxonlarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlariga qaratadi: *"Saidiyning boshqa qizlar bilan kulibroq so'zlashganni ko'rsa chehrasi buziladigan"* Munisxon nima uchun istagan paytda undan yuz o'girib keta olishiga ishonadi? O'quvchilar bu haqda mulohaza yuritish asnosida Munisxonning shaxsini ochib, o'rganib boradilar.

Saidiyning Munisxonni *"o'zining ko'ziday ehtiyot qilishi"*, uning yangilik haqidagi qarashlari, xotin-qizlarga munosabatdagi fikrlarining originalligi o'quvchilarga uning shaxsini aniqlashga ko'maklashadi. Saidiyning gul va ko'ngil haqidagi qarashlariga o'quvchilarning diqqati qaratiladi. Bu gaplarga ularning munosabati so'raladi. Saidiy gul va ko'ngil timsolida nimani nazarda tutgan bo'lishi mumkinligi haqida ham o'ylab ko'rishlari zarar qilmaydi.

Munisxonning boy xonadon farzandi ekanligi parchada o'z aksini topgan. Lekin qarashlari hamohang, ziyoli, o'zi uchun har narsaga tayyor yigitga: *"Men senga tegmayman-da!"*- deyishiga sabab nima bo'lishi mumkin? Oradagi tafovut nimada? Munisxonning Saidiyga ko'ngli bo'lgani holda uning tuyg'ulari bilan o'ynashadi. "Saidiyning fojiasiga Munisxonning mana shu so'zlari sabab bo'lishi mumkinmi? Rahimjon nima uchun Munisxonning gapiga iljayib qo'ya qoldi? Saidiyning o'rnida boshqa odam bo'lsa, nima qilishi mumkin edi?" O'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan shu kabi savollar o'quvchilarni asar matni ustida qandaydir darajada ishlashga yo'naltiradi. Agar o'quvchilar orasida "Sarob"ni to'liq o'qiganlar bo'lsa, asar ustida ishlash bir oz osonroq bo'ladi, albatta.

Gap shundaki, o'quvchilar "Sarob"ni o'rganishga ajratilgan darsda "Adabiyot" darsligidagi mualliflarining fikrlarini qaytarib aytib bermasliklari kerak. Darslikda asarning to'liq matni xususida gap boradi. U matnda Abdulla Qahhor ham, "Sarob" ham yo'q. Ular haqidagi qarashlar, yozuvchi uslubining talqini, adibning yozuvchilik mahorati haqidagi qarashlar, xulosalar mavjud. Shuning uchun o'qituvchi imkon qadar asarning o'zi bilan ishlashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uy vazifasi sifatida "Qahhor qahramonlarining qiyosiy tahlili" mavzusida uy inshosi yozishni topshirish mumkin. Inshoda Sotiboldi

("Bemor"), Saidiy ("Sarob"), Akramjon ("Ming bir jon") timsollari o'zaro, Savriniso ("O'tmishdan ertaklar"), Mastura ("Ming bir jon"), Munisxonlarning ("Sarob") timsollari o'zaro taqqoslanishi mumkin. Bu ham ixtiyoriy uy ishi hisoblanadi. Uni bajarish hamma uchun majburiy emas.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiy ta'limda ijodkorlar biografiyasining badiiy asar tahlilidagi ahamiyati haqida mutaxassislarning qarashlariga o'z munosabatingizni bildiring.

2. Amaldagi "Adabiyot" darsliklaridan o'rin olgan adiblar hasbi hollariga ijodiy yondashing. Ularning mazmun-mohiyati haqida fikrlashing.

3. Mazkur matndan ijodkorlarning hasbi holi berilishiga qo'yilgan talablarga diqqat qiling. Ularni muhokamaga torting.

4. O'tkir Hoshimov va Sh. Boshbekovning o'zlari haqida yozganlari ularning qaysi asarlarida u yoki bu darajada o'z aksini topgan deb o'ylaysiz?

5. Adiblarning o'zlari haqidagi ma'lumotlari ularning darsliklarga kiritilgan qaysi asarini o'rganishda qo'l keladi deb o'ylaysiz?

6. Taniqli kishilarning hasbi hollarini yana qanday ma'lumotlar bilan boyitish kerak deb o'ylaysiz? Siz tavsiya etgan qarashlar adabiy ta'limda nimasi bilan ahamiyatli ekani haqida fikrlashing.

7. "O'tmishdan ertaklar"ning filologik tahlilini tayyorlang. O'quv va filologik tahlilni taqqoslang. Har ikkisining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

8. "Sarob"ni o'n birinchi sinfda filologik tahlilga tortish mumkinmi? Yoki yuqoridagi didaktik tahlil ma'qulmi? Nima deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.

9. Asarlarning filologik tahlili bilan didaktik tahlili bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?

10. "Men sevgan adib" mavzusida insho yozing. Barcha bitiklaringizni birgalikda muhokama qiling. Bir-biringizning yutuq va kamchiliklaringizni muhokama qiling.

29-MAVZU. ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNI ASAR QAHRAMONLARINI BAHOLASHGA O'RGATISH[1]*

Reja:

1. Badiiy asar qahramonlari shaxsiy sifatlarini baholashning mazmuni, usullari va metodlari.

2. Adabiy qahramonlar tushib qolgan murakkab vaziyatlarning sabab va oqibatlarini aniqlash asnosida ularning shaxsini baholash.

3. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini baholashga o'rgatuvchi adabiyot darslarining turli tiplari va ko'rinishlari.

4. Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.

Badiiy asar didaktik tahlili ustida ishlash jarayonida qahramonlarni baholash uchun o'quvchilarning tanqidiy tafakkuri ishga tushadi. Tanqidiy tafakkur tushunchasi ostida insonning mustaqil fikrlash tarzi yotadi va uning asosini turfa axborotlar tashkil etadi. Tanqidiy tafakkur tushunchasi zamirida qo'yilgan masalaga ishonchli dalillar yordamida mustaqil ravishda yondashuv nazarda tutiladi. Mazkur pedagogik hodisaning o'ziga xos jihati shundan iboratki, unda o'quvchilar ta'lim jarayonidagi faoliyatlarini o'zlari aniq, obyektiv maqsaddan kelib chiqqan holda mustaqil tarzda loyihalashtiradilar, xatti-harakti, fikrlari to'kislashib borishi asnosida rivojlanishlarining darajasini ham namoyish etadilar. Ayni zamonda, zarur yakuniy natijaga ham muvaffaq bo'ladilar.

Avvalo, "tanqidiy tafakkur" tushunchasining mohiyatiga kirib olish maqsadga muvofiq bo'ladi: *"Tanqidiy tafakkur xuddi mustaqil fikrlash singari murakkab aqliy faoliyat bo'lib, badiiy asar qahramonlarini va shu asosda Odamni baholashda har bir o'quvchining o'zigagina xos bo'lgan g'oyalari, munosabati, mantiqiy asosga ega bo'lgan dalillarni shakllantirishi jarayonidir"*. Ma'lumki, Odam Allohning eng murakkab yaratig'i. Shu ma'noda, Odamni baholash ham oson ish emas. Unga bandasining bergan bahosi hamisha nisbiy bo'ladi. Bunday ko'nikma maktab adabiy ta'limi jarayonida, asarlarning qahramonlari tutumlari va tuyg'ularini taftish qilish asnosida shakllanadi, asta-sekin rivojlanib malakaga aylanadi.

[1] * Mavzu [illegible]

axborotlarni to'plashi, tegishli ma'lumotlar bilan yaxshi qurollangan bo'lishi talab etiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning asar qahramonlari haqidagi barcha fikrlarini diqqat bilan tinglashi, ularni qiyoslashi va yakuniy hukm chiqarishga shoshilmasligi lozim. Shu bilan bir qatorda, tasodifiy, noto'g'ri fikrlar va holatlarga ham alohida e'tibor qaratishi kerak bo'ladi. O'qituvchi har bir asar ustida ishlanayotganda o'quvchilarda asar qahramonlari haqidagi baholovchi fikrlarning qanday vujudga kelganligi va ular nimalarga asoslangan holda bunday bahoni berayotganliklarini so'rab bilishi muhim.

Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash faoliyatlaridagi izchillikni ta'minlash uchun ular bilan muayyan asar ustida doimiy davra suhbatlari, savol-javoblar tashkil etib zarur ma'lumotlarni to'plashi, umumlashtirishi talab etiladi. Adabiyot o'qituvchisi suhbatlar asnosida o'quvchilarning muayyan asar qahramonlari haqida o'zlashtirgan bilimlari, egallagan ko'nikma va malakalarini namoyon qilishi uchun qulay pedagogik vaziyatni vujudga keltirishi taqozo etiladi. Har bir o'rganilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarga yozma matnlar, insholar, referatlar yaratishga qaratilgan topshiriqlarni amalga oshirishi ularda asar qahramonlariga tanqidiy baho berish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qayd qilish lozimki, bu jarayonda pedagoglarning oddiydan murakkab jihatlarga qarab harakatlanishlari talab etiladi. Natijada o'quvchilarni asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatish jarayoni bir qadar murakkab kechadi.

Asar qahramonlariga tanqidiy baho berish haqida fikr yuritilganda ular shaxsiyatiga haqqoniy yondasha olish ko'nikmasini o'quvchilarda tarkib toptirishni nazarda tutish lozim bo'ladi. Buning uchun o'quvchi asar qahramonining shaxsiyati qanday tasvirlangan bo'lsa, uning tabiiyligini hurmat qilgan holda baho berish tajribasini o'zlashtirgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shunga ko'ra, o'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatish pedagogik nuqtai nazardan o'quv-tarbiya jarayonida ularni yuqori darajada fikrlashga o'rgatish sifatida izohlanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchi ham tanqidiy fikrlashi lozimligini ta'lim jarayonining o'zi taqozo qiladi. Chunki tanqidiy baholash ko'nikmasiga ega bo'lgan o'qituvchigina ijtimoiy ta'lim-tarbiya vaziyatlarini to'g'ri boshqara oladi. Ta'lim-

tarbiya jarayonida o'quvchilarni tanqidiy fikrlash va baholashga o'rgatish bu jarayonning muhim vazifalaridan biri sifatida o'quvchilarda o'z shaxsiyatlarini anglash hamda o'z fikrlariga tanqidiy munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishga ham asos bo'ladi.

O'quvchilarda tanqidiy baholash ko'nikmasini shakllantirish uchun rejali tarzda adabiyot darslarida syujetli matnlar, hikoyalar, ertaklar yozish haqida topshiriqlar berish o'rinli bo'ladi. Ayniqsa, badiiy matn yaratish haqidagi topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Bunday topshiriqlar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi bilan bir qatorda, ularda tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirish nuqtai nazaridan ham juda foydalidir. Shu bilan bir qatorda, bunday topshiriqlar aksariyat o'quvchilarda badiiy asarlarni chuqur o'zlashtirish, ularni tahlil qilishga qiziqish uyg'otadi. Bu, albatta, tanqidiy fikrlashning bir ko'rinishi bo'lib, o'quvchilarning o'quv-biluv faolligini rivojlantiradi.

O'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatish jarayonining umumiy prinsiplarini shakllantirish maqsadida sinfdagi muayyan vaziyatni o'zgartirishga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Bunda o'zaro ishonch muhitini qaror toptirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarni ishontirishga asoslangan bo'lib, o'qituvchidan o'quvchilarni mazkur masalaga qiziqtirish, ular fikrini band qilish va tarbiyalanuvchilarni asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga muntazam yo'naltirib borishni talab qiladi. Buning uchun o'qituvchi turli-tuman jonli munozaralarni tashkil eta bilishi kerak. Bu jarayonda asar qahramonlarini tanqidiy baholashga imkon beradigan bir qator ko'nikmalar tarkib toptiriladi.

O'quvchilar asar qahramonlarini tanqidiy baholash imkonini beradigan ko'nikmalarni o'zlashtirganlaridan keyin quyidagi yo'nalishlarda harakat qiladilar:

1) shaxsiy va jamiyatga xos bo'lgan yo'nalish;
2) o'zaro aloqada bo'lgan va bog'liq bo'lmagan yo'nalish;
3) sezgi va mantiqqa asoslangan yo'nalish;
4) muntazam – ko'lamli yo'nalish va hk.

Badiiy asarlarning qahramonlarini baholashda suhbat metodining juft bo'lib ishlash usulidan kengroq foydalanish mumkin. Ish yakunlangach, o'qituvchi har bir juftlikdan o'z fikrini so'raydi. O'quvchilar muammoga yechim topishning qulay usulini tanlashlari kerak bo'ladi. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlari shaxsiyatiga

tanqidiy baho berishga o'rgatishga yo'naltirilgan darslarni maqsadga muvofiq tarzda loyihalashtirish ham alohida ahamiyatga ega.

Bunda o'qituvchi quyidagilar ustida o'ylashi lozim bo'ladi: darsning asosiy mohiyati nimadan iboratligi, darsda o'quvchilarning nimani o'rganganliklari va nimani o'rganishlari lozimligi bilan qay darajada bog'langanligi, mazkur dars o'quvchilarni badiiy asar qahramonlari shaxsiyatiga tanqidiy baho berishga qay darajada o'rgata olishi, ushbu dars boshqa o'quv predmetlari bilan qay darajada bog'langanligi, dars mavzusi o'quvchilar o'zlashtirgan ko'nikmalar bilan qay darajada aloqadorligi, dars o'quvchilarning shaxsiy tajribalari va qiziqishlari bilan qay darajada bog'langanligi, dars materiallari o'ziga qanday axborotlarni mujassam etganligi, darsni qanday qurish kerakki, o'quvchilarga badiiy asar qahramonlari shaxsiyatiga tanqidiy baho berishga nisbatan tabiiy qiziqish uyg'ota olishini ta'minlashi kabilar.

"Adabiyot" darsliklaridagi yozuvchi yoki shoirlarning tarjimai holi bilan bog'liq ma'lumotlar ham o'quvchiga u yoki bu darajada asar qahramonlarini baholashga yordam beradi. Bunday darslarda o'qituvchining adiblar shaxsi, turmush tarzi bilan bog'liq darsliklarga kiritilmagan axborotlari katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar asarlarning mualliflari shaxsi haqida qancha ko'p ma'lumotga ega bo'lsalar, uning shaxsi bilan qanchalik yaqindan tanishsalar u yaratgan obrazlarni ham imkon qadar mukammalroq his qiladilar. Muallifning insonni anglash yo'lidagi izlanishlari, kashfiyotlarini yozgan asarlari zamiridan qidirish ham o'quvchi shaxsini to'kislik sari etaklaydi.

Masalan, mashhur yozuvchi Abdulla Qahhor: *"Agar yozuvchining axloq kodeksi nuziladigan bo'lsa, men halollik bilan jasoratni birinchi modda qilib qo'yar erdim, chunki yozuvchining boshqa hamma xislatlari uning qay darajada halol, naqadar shijoatli ekaniga bog'liqdir"*[1], - degan ekan. Ulug' yozuvchining shu bahosiga shaxsiyati va ijodi bilan to'g'ri keladigan adibga nisbatan o'quvchida hurmat hissi paydo bo'ladi. Shu tuyg'u asari o'rganilayotgan yozuvchining qahramonlarini baholashda o'quvchiga qo'l kelishi mumkin.

Taniqli adabiyotshunos olim Q. Yo'ldoshevning Ch. Aytmatov qalamiga mansub «Asrga tatigulik kun» romani haqidagi quyidagi fikrlari: *«...yozuvchining shaxsiyatidagi asl tuyg'ular manqurt*

[1]Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. 6 жилдлик. 1-жилд. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. 43-бет.

Jo'lomon fojiasini, uning turli davrlardagi qiyofadoshlari bo'lmish: revizor, mavor Tansiqboev, leytenant Tansiqboev, Sobitjon singari kimsalarning ma'naviy-ruhiy qashshoqligi hamda bu ma'naviy g'aribliknng buzg'unchi qudratini butun ko'lami bilan ko'rsatish imkonini beradi. Asarda bir qator timsollar tasviri orqali kechagi kunga bog'lanmagan odam ertangi kunni o'ylay olmasligi, u faqat bugini bilangina yashashga mahkum ekani ko'rsatilgan. O'tmish va kelajakdan uzilganlik, ya'ni ma'naviy tomirlarning qirqilishi odamni yovuzliklardan tutib turuvchi axloqiy to'siqning yo'qotilganini bildiradi. Bunday kimsada o'z manfaatidan yuksak qadriyat, muqaddas tushuncha bo'lmaydi.

Zamonaviy manqurt Sobitjon o'z milliy tomiridan uzilgani, o'ziga yot qadriyatlarni esa o'zlashtirolmagani uchun ham bu ochunda omonat yashaydi, u kechagi kunni bilmagani va qadrlamaganidek, ertangi kun haqida ham o'ylashga qodir emas. Faqat bugunidan iboratligi uchun ham u, Edilboy daraz aytmoqchi, "...o'zi o'ziniki bo'lmay qol"gan kimsaga aylangan.

Oldin eri, so'ng o'g'lidan ham ajralgan bo'lsada, odamiyligi, g'ururi, azaliy uhumlarga hurmatini saqlab qola bilgan Nayman onaning shaxsiyatidagi butunlik asarda ishonarli ko'rsatilgan. Romanda onaning ruhiy holatidagi ichki dinamikaning evolyusion bosqichlari ulkan mahorat bilan tasvirlanadi. Chunonchi, afsona boshlarida ona tuyg'ulari "Sayyoh savdogarlar ...Sario'zakda uchragan yosh manqurt haqida gap ochib Nayman onaning o'rtangan yuragini battar o'rtab, yarasiga tuz sepishganini ...payqashmagan edi. Ona qandaydir falokatni sezib, yuragi orqasiga tortib ketdi. O'sha manqurt mening o'g'lim bo'lib chiqsa-ya, degan hadik borgan sari kuchayib, uning aqlu hushini, bugun vujudini tobora chuqurroq, tobora kuchliroq chirmab ola boshladi. O'sha manqurtni izlab topib, o'z ko'zi bilan ko'rib, uning ...o'g'li emasligiga ishonch hosil qilmaguncha ko'ngli tinchimasligiga ko'zi etgan edi" tarzida berilgan. Ushbu ifodalardagi nozik nuqtalar e'tibordan qochirilmasa, onaning yuragini o'rtagan alamlar miqyosi ilg'ab olinadi. Bu tasvirda odam ruhiyati sezimlari g'oyat o'zgaruvchan ekani aks etgan. Unda o'g'lining yo qahramonlarcha halok bo'lgani, yoki yov o'qidan o'lib, o'ligi dalada qolgani, yoxud manqurt holiga tushirilgan bo'lishi mumkinligiday uch ehtimolning birortasini ham o'ziga keltirishdan qo'rqayotgan, aynı vaqtda bor haqiqatni bilmaguncha tinchiy olmaydigan sho'rlik ona

holati tengsiz mahorat bilan aks ettirilgan», - bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarda bunday ko'nikmani shakllantirishga yo'naltirishida asos bo'lishi mumkin. Bu ko'chirmada asar qahramonlari tutumlari borasida chiqarilgan hukm-xulosalar o'z asoslari bilan chiqarilganini anglagan o'qituvchi o'quvchilarini ham shu tarzda faoliyat olib borishga yo'naltiradi.

Bundan tashqari, taniqli yozuvchi Saym Is'hoqning «Ko'klam adog'ida kuz» romanining bosh qahramoni Sarimcoq polvon shaxsini baholash bilan bog'liq quyidagi fikrlar bo'lajak o'qituvchilarga taqdim etilishi, avvalo, ularning o'zlarini asar qahramoniga munosabatining shakllanishiga ma'lum darajada ko'maklashishi mumkin: *«Sarimsoq polvon diniy ilmdan ham yaxshigina xabardor shaxs. U o'n ikki yoshidan boshlab namoz o'qigan, gurkirab ko'pkari chopib yurgan davrlarida ham, qamoqlarda sarson-sargardon, xor bo'lib yurgan damlarida ham e'tiqodiga dog' tushurmagan, o'zining haq taolo oldidagi farziga hiyonat qilmagan. Butun umri davomida ta'qiqlangan ishlarning birontasiga qo'l urmabdi. Tarbiyasiga, ruhiyatiga o'rnashib ketgan intizomiga qarshi bormagan. Hatto o'zi istamagan holda jon-dili bilan sevib qolgani Urqiyaga munosabatda ham tuyg'ularini e'tiqodidan baland qo'ymaslikka bor kuchi bilan harakat qildi. Balki shu sabab hayot mashaqqatlarini qoqinmay-so'qinmay engib o'tib pirt bodarlat yoshga etgandir, farzandlari kamolini ko'rish nasib etgandir»*[2]. O'zi asarlar qahramonini bunday baholash ko'nikmasini chuqur egallab olgan o'qituvchigina o'quvchilarini shu tariqa boshqara biladi. Ularga qanday talablar qo'yishni, savol va topshiriqlarni qanday shaklda tuzishni o'rganadi. O'quvchilarini maqsadga muvofiq tarzda yo'naltirna biladi.

Yoki Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub"da yozgan quyidagi fikrlarini olaylik: *"...kamina bolalikdan to qarilikka qadar ko'hna davron voqealaridan, ...zamonning rang singari guno-gunligidan ko'p vaqt va uzoq muddat har xil xayol va taraddudlar bila... yurdim. ...turli yo'llarga kirdim, yaxshi-yomonning xizmatini qildim; katta-kichikning suhbatida bo'ldim; goh xorlik va qiyinchiliklar vayronasida nola qildim; goho izzat va ma'murlik bo'stonida majlis qildim. ...ba'zan ilm-fan madrasalarida quyi saflardan joy oldim va olimlar majlisida ilm*

[1] Ражабова Б. Чингиз Айтматов ижодида жанрларни ўзгаришга ўтишнинг сабаблари. // «Шарқ юлдузи» 2015 йил 6-сон. 42-бет.
[2] Ҳусанбоева К. Ёзувчилик ёзиқлари. // «Шарқ юлдузи» журнали, 2016 йил 10-сон. 163-бет.

nuridan ko'nglimni yoritdim; goh pastkash va baxil kishilar qo'lida xo'rlandim va razil-nokaslar oldida e'tiborsiz bo'ldim. ...goho axiylar xizmatidan va ulardan suhbatidan bahramand bo'ldim hamda o'z so'zimni ularga yoqimli topdim. ...har yo'lda yurdim; olamda bo'lmish har nav odam bilan ko'rishdim; yaxshi-yomonning xislatlarini tajribadan o'tkazdim; yaxshilik va yomonliklarning sharbatini ichib, zahrim totib ko'rdim. Baxil va pastkashlarning zaxmini, saxovatli kishilarning malhamini ko'nglim darhol sezadigan bo'lib qoldi... Shu jihatdan hamsuhbatlarni va do'st-yorenlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko'rindiki, toki ular ham har toifaning xislati haqida bilimlari va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalari bo'lg'ay. Ular ham munosib kishilarning xizmatig'a bel bog'lab, nomunosib odamlar suhbatidan, azob-uqubatlaridan o'zini tortish lozimligini bilgaylar va maxfiy sirlarini har kimga so'zlamasaylar, shayton sifat odamlarning hiyla-nayranglarigaaldanib qolmagaylar...

Umid shulki, bu asarga o'quvchilar diqqat-e'tibor bilan nazar solib, har qaysilari o'z fahmi-idroklariga yarasha dillarini obod va yozuvchi ruhini ham duo bila shod etgaylar"[1]. Bu fikrlarni o'qib o'zlashtirib olish ham adib va uning asarlari qahramonlari borasidagi o'z qarashlarining shakllanishida o'qituvchiga qo'l kelishi mumkin. Adiblar va ularning asarlarida tasvirlangan adabiy qahramonlarni baholashda o'z yondashuviga ega bo'lgan o'qituvchi tarbiyalanuvchilarini ham shu tariqa shakllantira boradi.

Buyuk shoirning bu e'tirofi, o'z hayotidan chiqargan saboqlari ekanini avval o'zi anglab yetsa, so'ngra o'quvchilariga tushuntira bilsa, ular Navoiy timsolida bundan besh asr avval yashab o'tgan tarixiy shaxsnining o'z ota-bobolari singari bir inson bo'lganini his qiladilar. Asarlaridagi qahramonlari shaxsidan uni qidiradilar, o'xshash jihatlari topilganda ruhiyatlari ko'tariladi. Bu, o'z navbatida o'quvchining ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan bir qatorda, badiiy asarlarga ishlangan illyustrasiyalar, ularning mazmuni asosida suratga olingan kinofilmlar, mutaxassislar tomonidan yozilgan maqolalar ham o'quvchilarning asar qahramonlarini munosib baholashlariga ma'lum darajada ko'maklashadi. O'quvchida asar qahramonlariga ishlangan suratlarni "o'qish" ko'nikmasining shakllanganligi ham timsollarni baholashda

[1] Алишер Навоий. Мажбубул-кулуб. –Т.: "Адабиёт ва санъат нашриёти", 1985. 13–14-б.

qo'l keladi. Kinofilmlarda yaratilgan obrazlar ham, mutaxassislarning timsollarga bergan baholari ham o'quvchida o'zgalarni munosib baholay bilish ko'nikmasini shakllantirib boradi.

Xullas, o'quvchilarni badiiy asarlar qahramonlari misolida odamni munosib baholashga o'rgatish adabiy ta'lim maqsadiga, ya'ni ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishga, ayni zamonda, halolni haromdan, oqni qoradan, to'g'rini noto'g'ridan farqlay bilishga, o'ziga buyurilganiday yashay olishga, o'zlarini o'zlari to'g'ri tarbiyalashlariga undaydi. Har bir tutumning Yaratuvchi bir qudrat oldida hisob-kitobi borligiga, fazilatlar uchun rag'bat, illatlar uchun jazo tayin ekanini anglashga yo'naltiradi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Mening o'g'rigina bolam

O'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlardan shu narsa ayon bo'ldiki, muallimlarning ko'pchiligi adabiy ta'limning bugungi, yangilangan maqsadi haqida to'liq tasavvurga ega emaslar. Ular Respublika ta'lim markazi (RTM) mutaxassislari tomonidan tayyorlangan taxminiy rejalov asosida ishlaydilar va asarlarning o'quv dasturlaridagi talqini haqida, har bir asarni qanday maqsadda o'rganish kerakligi, unga qanday yondashish, tahlil jarayonida asardagi qaysi jihatlarga urg'u berish lozimligiga ko'pda e'tibor qilmayaptilar. Asarlarning dasturiy talqini o'qituvchilarning mazkur asar bo'yicha ishlash yo'nalishini belgilaydigan, tahlil jarayonida nimalarga urg'u berish kerakligini ko'rsatadigan asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Bir asarga qanday maqsadda yondashish, uni turlicha talqin va tahlil qilish imkonini beradi. Asarlarning dasturiy talqini adabiy ta'limning yangilangan maqsadi va uning asosida belgilangan vazifalardan kelib chiqib berilgan bo'ladi. Bu talqin o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini to'g'ri tashkil etishga asos bo'ladi.

O'qituvchilar faoliyati yo'nalishini belgilaydigan muhim asos maktabda adabiyot o'qitishning bosh maqsadi bo'lib, u *sog'lom e'tiqodli, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'z xatti-harakatlariga javob bera oladigan komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iboratdir deb* belgilangan.

Maktab adabiy ta'limining vazifalari: *o'quvchilarda badiiy adabiyotga mehr uyg'otish, ularni ko'rkam asarlarni o'qiydigan, o'qiganlarini tushunadigan va tahlil qila biladigan, badiiy matn to'g'risidagi fikrlarini og'zaki yoki yozma tarzda to'g'ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalashdan iboratdir.*

Belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda adabiyot o'qitish metodikasi ilmi va amaliyoti zimmasiga quyidagi mas'uliyatlar ham yuklandi:

- o'quvchi shaxsini birinchi planga ko'tarish;
- adabiyot darslarida adabiyotshunoslikdan bilim berish emas, ma'naviyat shakllantirish ustuvorligini ta'minlash;
- mustaqil va mantiqli fikrlashga o'rgatish;
- o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish yo'lida o'zini harakatga undash;
- o'quvchiga kashf etish lazzatini tuydirish;
- o'quvchining tarbiyalanishi jarayonida o'zining bevosita ishtirokini ta'minlash;
- adabiy ta'lim amaliyotida pedagogik hamkorlik o'rnatilishiga erishish;
- asar qahramonlariga ijobiy yoki salbiy obraz deb emas, inson deb qarashga o'rgatish;
- adiblarning shaxsi u yoki bu darajada asarlarida aks etishini anglatish;
- adiblar, asar qahramonlari kechinmalari va xatti-harakatlari orqali ularning shaxsini baholashga yo'naltirish;
- adabiyot darslarida o'quvchilarni munosib baholash.

Adabiy ta'limning har bosqichida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini mana shu vazifalar asnosida tashkil etish bugungi tarbiyashunoslik maqsadiga muvofiq keladi.

Badiiy asarlar ustida bu tariqa ishlashni G'afur G'ulomning 5-sinf "Adabiyot" darsligidan o'rin olgan "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi misolida quyidagicha amalga oshirish mumkin. Hikoyani o'rganish uchun dasturda ikki soat mo'ljallangan.

Hikoyaning dasturiy talqini quyidagicha: *"Mening o'g'rigina bolam" hikoyasida birinchi jahon urushi davridagi xalq hayotining aks ettirilishi. Hikoyada o'quvchi, kampir, o'g'ri timsollarining juda jonli va tabiiy tasvirlanganligi. Kampir bilan o'g'ri o'rtasidagi muloqot*

jarayonida timsollarga xos g'aroyib samimiyatning namoyon bo'lishi. Hikoyadagi timsollarda o'zbek milliy ruhining tiniq aks etganligi"[1].

Hikoyaning o'qituvchi mutolaasi[2] davomida o'quvchilar muhim o'rinlarni shu talqinga tayanib belgilab borishlari, o'qituvchi darsga tayyorgarlik jarayonida bularni ajratib qo'yishi lozim bo'ladi. Shunda asar ustida ishlash ma'lum maqsad yo'lida, belgilangan tartibda amalga oshadi.

"Mening o'g'rigina bolam" o'z mavzusi va mazmuni bilan juda shirali asar. O'qigan kishining ko'ngli yorishib ketadi. Hikoya qahramonlariga xos soddalik, samimiylik kishining ruhini ko'taradi. Hikoya nomining o'ziyoq kishi qalbida g'alati tuyg'ularni qo'zg'atadi. Chunki "o'g'ri" degan so'z odamzod ruhiyatida salbiy munosabat uyg'otadi. Uning biror odamga bog'lab aytilishiyoq kishi qalbida o'sha odamga nisbatan salbiy hislarni uyg'otadi. Lekin unga erkalash, ardoqlash ma'nosini anglatuvchi "gina" qo'shimchasining qo'shilishi, yana buning ustiga u bilan yonma-yon "bolam" so'zining qo'llanilishi kishida bir oz hayrat uyg'otadi. Nahot o'g'rini erkalatish, uni "bolam" deb atash mumkin bo'lsa?

O'qituvchi mutolaasidan oldin o'quvchilarda ham shunday tuyg'u bo'lishi tabiiy. Lekin hikoya o'qilgandan keyin har bir tinglovchining o'g'riga munosabati bir oz o'zgaradi. Ayrimlarda bu ijobiy tuyg'u yanada teranlashadi. O'quvchilarning tarbiya orqali shakllangan va hikoya qahramonlarining o'zaro munosabatidan paydo bo'lgan tuyg'ulari qorishib ketadi. O'qituvchi mana shu ruhiy qat'iyatsizlik holatini qo'ldan bermay hikoyaning didaktik tahliliga kirishsa, kichik o'quvchilarni asarning sodda, oqko'ngil qahramonliriga hamroh qila bilsa, ularning kamolotini ta'minlashda samarali ish qilgan bo'ladi.

Hikoya mutolaasiga birinchi darsning 11–12 daqiqasi sarflanadi. O'qituvchi o'quvchining – hikoya qahramoni, yetim go'dakning ovozini siniqroq, "Qora buvi"ning ovozini yumshoq, mayin ohangda, o'g'rining ovozini, u garchi o'g'ri bo'lsa ham, samimiy ohang bilan tanlangan ohangi – yarim muvaffaqiyat. O'qituvchi buni darsga tayyorlanish jarayonida aniqlab olishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

[1] Qarang: Asqar. Adabiyot. – T., RTM, 2017.
[2] Ahmedova S. Sa'liq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik-majmua. I qism. Qayta ishlangan nashri. – T.: Sharq, 2018. – 63–69-b.

O'qituvchi tomonidan aniq, tiniq, yoshi va holatiga mos ovozda gapirgan qahramonlar tinglovchini o'ziga tortadi. Hikoya tinglovchilari ko'nglida hech kimga nafrat uyg'onmaydi. Garchi ulardan biri o'g'ri bo'lsa ham. O'quvchilar qahramonlarga xos soddalik, samimiylikdan yayrab kulishlari mumkin. Chunki ular bunday samimiylikni tasavvur qilolmaydilar. Ular bugunning o'quvchilari. Ularning tasavvuridagi o'g'rilar – g'arb filmlarida tasvirlanganidek olg'ir, shafqatsiz. Hikoyalik o'g'ri esa ularda hayrat va yengilgina kulgi qo'zg'otadi.

Mutolaadan so'ng, ko'tarinki kayfiyatdagi o'quvchilar bilan birgalikda matnning didaktik tahliliga kirishiladi. O'qituvchilarning ayrimlari hikoyaning "igi- jigini" ochib tashlaydigan savol-topshiriqlar tuzishga qodir, ba'zilari esa yo'q. Shuning uchun darslikdan o'rin olgan savol-topshiriqlarga qo'shimcha ravishda o'quvchini asarning mohiyatiga kirishga undaydigan, qahramonlarni inson sifatida his qilishga yo'naltiradigan, har birini munosib baholashga asos bo'ladigan quyidagi didaktik ashyolarni taqdim etish mumkin:

1. *"Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvuto'da ko'rpa-yostiqlarga o'ralib, bittagina O'ratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz"* tasviriga tayanib, hikoya qahramoni yashayotgan sharoitni tasavvur qiling.

2. Asar matnida "qora buvi" tabiatini aks ettiruvchi ushbu tasvirga e'tibor qarating: *"Qatorda eng so'nggi bo'lib, ona chumchuqday qora buvim yotardilar, u kishi saksondan oshib ketgan, noskash kampir edilar"*. Kampirning eng oxirida yotishi sababini tushuntiring. Sizning ham buvingiz bormi? Bor bo'lsa, u kishini "qora buvi" bilan qiyoslang. O'xshash tomonlarini qidirib ko'ring.

3. Hikoyada hovlining kattaligi bilan o'quvchilar ahvolining g'aribligi zid qo'yib tasvirlangan o'rinlarga e'tibor bering. Buning sabablari haqida o'ylab ko'ring.

4. Tengdoshingiz uyiga o'g'ri kelganini bilib nega quvonib ketdi deb o'ylaysiz? Uyiga o'g'ri kelganidan odam quvonadimi? Buning sabablari haqida mulohaza yuriting.

5. O'smirning o'ylariga e'tibor bering: *"Buni qarang-a, bizning uyimizga o'g'ri kepti. Bizni ham odam deb yo'qlaydigan kishilar bor ekan-da, dunyoda. Ertaga o'rtoqlarimga toza maqtanadigan bo'ldim-da. "Biznikiga o'g'ri keldi". G'urur bilan aytilsa bo'ladi. Lekin ishonisharmikin?"* Tengdoshingizning shu xilda o'ylashiga

ishonasizmi? Bu o'ylari uning qanday odam ekanligidan dalolat beradi deb o'ylaysiz?

6. Asardan olingan ushbu parchaga e'tibor bering. *"Buvim esa yostiqni ko'kraklariga qo'yib, til tagidagi nos bilan o'ylab yotar ekanlar..."* Shu xilda yotgan momoni ko'z oldingizga keltiring. Uning qanday o'ylar surishi mumkinligi haqida fikrlashing.

7. Kampirning tomda o'g'ri yurganini ko'rib, qo'rqib ketmaganligi yoki dod solmaganligi, aksincha, o'g'riga maslahat berganini qanday izohlaysiz? Hikoyachining buvisi qanday kampir o'zi?

8. Olti oydan beri ko'ziga uyqu kelmayotgan odamning yuragida qanday dard bo'lishi mumkinligi haqida bir o'ylab ko'rasizmi?

9. Tuppa-tuzuk kosibning o'g'irlik qilishi sababini qanday izohlaysiz? O'g'rining gaplarini hikoya matnidan topib qayta o'qing. Ularga asoslanib o'g'rining ahvoliga munosabat bildiring.

10. O'g'ri asboblarini sotib yuborgan etikdo'z to'g'risida kampirga qarata aytgan gaplariga munosabat bildiring. Asar voqealari qaysi davrda ro'y bergan deb o'ylaysiz?

11. O'g'rining o'z kasbi to'g'risida, qilgan bir-ikki ishi borasida kampirga bu qadar yoyilib gapirib berayotganligini qanday izohlash mumkin deb o'ylaysiz?

12. *"Voy o'lay, qutlug' uydan quruq ketasanmi, bolam. Bir nima olib ket. To'xta, nima olib ketsang ekan, ha, darvoqi..."* ko'chirmasiga asoslanib kampirning shaxsiga baho bering.

13. Kasbi o'g'irlik bo'lgan odamning kampir iltimos qilsa-da, qozonni olib ketmaganligi, choy ichishga rozi bo'lmaganligi sababi haqida o'ylab ko'ring. Munosabat bildiring.

14. Biz darslikdagi ko'plab asarlarda yomonlik yomonlikni keltirib chiqarganligini ko'rgan edik. Bu hikoyada-chi? Yaxshilik yomonni to'g'ri yo'lga solganligini sezyapsizmi?

Asar mutolaasidan so'ng yuqoridagi birinchi savol o'rtaga tashlanadi. Buvisi bor o'quvchilarni ikkala buvini taqqoslashga undab ko'rgan ma'qul. Balki, bugungi buvilar boshqacharoqdir? O'quvchilar buning sabablariga ham munosabat bildirsinlar, fikr aytsinlar. O'qituvchining bu jarayondagi asosiy vazifasi savol va topshiriqlarni o'rtaga tashlash hamda ular munosabatlarini

quvonadimi? Buning sabablari haqida mulohaza yuriting" savol-topshirig'iga o'quvchilar matndagi voqealar rivojidan kelib chiqib javob beradilar, albatta. Lekin, shu o'quvchining o'rniga o'zlarini qo'yib ko'ra olarmikinlar? Bunday holatdan quvonish mumkinmi? Ayniqsa, bugun. O'qituvchi o'quvchilarning o'ylab-o'ylamay javob berib yuboraverishlariga yo'l qo'ymasligi kerak. Har bir aytilgan javob asar matni yoki hayotiy tajribaga tayanib asoslanmog'i lozim. Chunki fikr aytib qo'yaqolishning o'zi muhim emas, fikr asosi bilan kuchli.

"Kampirning tomda o'g'ri yurganini ko'rib, qo'rqib ketmaganligi yoki dod solmaganligi, aksincha, o'g'riga nasihat qilganini qanday izohlaysiz? Hikoyachining buvisi qanday kampir o'zi?" savoli odamda yengil kulgi qo'zg'aydi. Kishining ko'nglida kampirga nisbatan iliq bir mehr paydo bo'ladi. Kampir biladi, uyda o'g'ri oladigan hech narsa yo'q. U o'g'rining holatini ham his qiladi – shu xonadonga, bir gala yetimlarning uyiga o'g'rilikka tushdimi, demak uning ahvoli bulardan-da xarob. Insonning ko'nglida tuyib turgan narsasi uning gap-so'zida, qilmishlarida tabiiy ravishda ifodalanadi. Buni odam aqli bilan boshqarmaydi, o'zi, tabiatan shunday bo'ladi. Kampir ham shunday. Vaziyatga tabiiy munosabat bildirdi.

"Olti oydan beri ko'ziga uyqu kelmayotgan odamning yuragidagi dard qanday bo'lishi mumkinligi haqida bir o'ylab ko'rasizmi?", "Tuppa-tuzuk kosibning o'g'irlik qilishi sababini qanday izohlaysiz? O'g'rining gaplarini hikoya matnidan topib qayta o'qing. ularga munosabat bildiring" kabi savol-topshiriqlarga javob izlash jarayonida o'quvchilar hikoya qahramonlari misolida insonni kashf qilishga, atrofidagi odamlarni his qilishga o'rganadilar. O'qituvchining vazifasi ularni o'z javoblari asnosida qahramonlar ruhiyatiga chuqurroq, yanada chuqurroq kirishga undashdan iborat.

Avvalo, odam yoshi kattargani sari kam uyqu bo'lib boradi. Lekin kampirning holati, uning qo'liga qarab turgan bir gala yetimning qorni tashvishidan uning uyqusizligi yanada kuchaygan. Kambag'allikda bu tabiiy hol. Mana shu dard kampirga uyqu bermaydi. Chorasizlik qiynaydi. Ayni chorasizlik bir hunarmandni, halol mehnati bilan kun ko'rishi mumkin bo'lgan odamni ham eng past tutumga majbur qilgan. O'g'rining ko'nglidagi gaplar bilan tanishgan o'quvchilar unga o'z

"O'g'rining o'z kasbi to'g'risida, qilgan bir-ikki ishi borasida kampirga bu qadar yoyilib gapirib berayotganligini qanday izohlash mumkin deb o'ylaysiz?" savoli ham o'quvchilarni o'ylantiradi. Bunday o'g'rining borligiga ishongilari ham kelmaydi. Lekin ne ajabki, darslikda "voqyeiy hikoya" deb yozib qo'yibdi. Ishonmaslikning iloji yo'q. Hayotda bor bo'lgan, mavjud o'g'rining fe'l-atvorini tahlil qilishga to'g'ri keladi. Sodda, mehnatkash, hatto, "oyday"gina kasbi bor odamning shunday yomon ishni qilishga majbur qilgan hayotdagi ijtimoiy holat ekaniga o'quvchilarning aqli yetsa kerak. Yo'qsa, o'qituvchi bir oz yo'nalish berib yuborishi mumkin. Lekin shu o'rinda yana bir narsa kishining diqqatini tortadi: ma'nan chinakam sog'lom inson har qanday holatda ham o'g'rilik qilmaydi. O'quvchilar mana shu fikrga ham e'tibor qilsalar, bu haqda o'ylasalar, adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq ish bo'ladi.

"Voy o'lay, qutlug' uydan quruq ketasanmi, bolam. Bir nima olib ket. To'xta, nima olib ketsang ekan, ha, darvoqe..." ko'chirmasiga alohida e'tibor qiling. Kuydi-pishdi, mehribon o'zbek momolarini taniyapsizmi?" savoli o'quvchilarning ruhiyatida anglanmay turgan vaziyatga aniqlik kiritishga yordam beradi. Ular bu haqda o'ylay boshlaydilar. Bu so'zlari kampirning «Men»i qanchalar tozaligini, uning ma'nan balandligini tasdiqlaydi. Ko'rinadiki, ichi, ruhiyati pok odamlar har qanday vaziyatda ham shu pokligicha, balandligicha qoladilar va o'zlariga munosib tutumlar qiladilar. Odamlarning qandayligini ularning gap-so'zlari, tutumlariga qarab baholash mumkin ekani anglashiladi.

Keyingi: "Diqqat qilsangiz, o'z buvingizda ham ana shu kampirdan o'tgan qandaydir jihatlar borligini payqab olasiz. Bunga misollar keltirishga urinib ko'ring" topshirig'i o'quvchilarda o'ziga ishonch hissini uyg'otadi. Shu tariqa – adabiy qahramonlar misolida ular odamni anglashni, uni munosib baholashni o'rganib boradilar.

"Kasbi o'g'irlik bo'lgan odamning kampir iltimos qilsa-da, qozoni olib ketmaganligi, choy ichishga rozi bo'lmaganligi haqida o'ylab ko'ring. Bu nimani anglatadi, sizningcha?", "Umuman odam haqida yaxshi yoki yomon deya oson hukm chiqarish mumkinmi?", "Biz darslikdagi ko'plab asarlarda yomonlik yomonlikni keltirib chiqarganligini ko'rgan edik. Yaxshilik yomonni to'g'ri yo'lga solganligini sezyapsizmi?" savol-topshiriqlari o'quvchilarning ko'nglida baland tuyg'ularni qo'zg'aydi. O'g'rining bu tutumi, avvalo, uning andishaliligi, vijdonan pok odam ekanini, qolaversa, unda uyat hissi hali o'lmaganini namoyish etadi. O'quvchilar qashshoqlik,

yo'qchilik har qanday odamni har xil vaziyatlarga solishi mumkinligini, lekin asli toza odam hamisha o'zligiga sodiq qolishi mumkinligini anglaydilar.

Balki ularning tillari ko'ngillaridan kechayotgan hislarni so'z bilan ifodalaib berishga zaiflik qilar? Muhimi – o'quvchilarning ko'nglidan o'tganlari. Ko'ngildan o'tgan narsa izsiz ketmaydi. O'quvchilar ruhiyatida mana shunday ko'tarinki, samimiy tuyg'ularning, mehrning paydo bo'lishi uning xarakteri shakllanishida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ko'z ko'ngilning kaliti deyishadi. Ko'ngildagi so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan tuyg'ular o'quvchilarning ko'zlarida ko'rinib turgan bo'lsa ajabmas. Buni sinfdagi har bir o'quvchini o'z o'quvchisiday bilgan, tuygan, suygan o'qituvchigina ko'ra oladi.

Darslikda "Badiiy asarning milliyligi" nomli nazariy ma'lumot taqdim etilgan. O'qituvchi o'quvchilar bilan ishlaganda ulari "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidagi Roqiyabibi ham, uning hikoyachi nabirasi ham sof o'zbekcha gapirishini, o'zbekcha fikrlashini, o'zbekcha ish tutishini qay darajada anglaganliklarini aniqlab olgani tuzuk. O'zbek momosidan boshqa birorta kampir o'g'riga: *"Voy o'lay, qutlug' uydan quruq ketasanmi, bolam. Bir nima olib ket"*,- deydimi? O'smir-chi? U: *"Buni qarang-a, bizning uyimizga o'g'ri kepti. Bizni ham odam deb yo'laydigan kishilar bor ekan-da, dunyoda. Ertaga o'rtoqlarimga toza maqtanadigan bo'ldim-da. "Biznikiga o'g'ri keldi". G'urur bilan aytilsa bo'ladi. Lekin ishonishormikin?"* deyishi bilan qanchalik o'zbek?

Balki uyiga o'g'ri kelganidan g'ururlanish bugungi o'quvchi uchun ahmoqlik bo'lib ko'rinar? Lekin hikoya qahramoni bundan faxrlanyapti. Demak, mehmondan, uyga odam kelganidan sevinish, hatto, u o'g'ri bo'lsa ham, o'zbekning qonida azal-azaldan mavjud bo'lgan sifatlar ekanini o'quvchilar o'zlari kashf etishga qodir. Lekin o'quvchilar uni tanqid qilishayotganda o'sha o'zbek o'smir yashayotgan davrni ham unutmasinlar. Buni eslatib qo'yish o'qituvchiga farz.

O'qituvchi uy vazifasi sifatida: "Mening o'g'riga munosabatim", "Qora buvi" va mening buvim", "Hikoyaning menga yoqqan jihatlari" mavzularidan ixtiyoriy birida insho yozishni topshirishi mumkin. Bunday mavzularda insho yozish sinfdagi hamma o'quvchining qo'lidan kelmasligi mumkin. Ular bir-birlaridan ko'chirib topshirmasliklari, ko'zbo'yamachilikka o'rganmasliklari uchun bu ishni "ixtiyoriy" deb e'lon qilgan ma'qul. Shunda yolg'onlar bo'lmaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Yuqorida mutaxassislar tomonidan asar qahramonlari shaxsiga berilgan tavsiflarga diqqat qiling. Ularga o'z munosabatingizni bildiring.

2. Istalgan badiiy asarning qahramonlariga o'zingiz tavsifnoma yozing. Qahramonlar tabiatidagi hislatlarni munosib baholashga urinib ko'ring.

3. Badiiy asarlardan biridagi ikki qarama-qarshi timsolni bir-biri bilan taqqoslab qiyosiy xarakteritika yozing. Ular tabiatiga xos bo'lgan ijobiy va salbiy hislatlarning sabablari va manbalari haqida xolis mulohaza yuriting.

4. Badiiy asarlarning qahramonlarini baholashda ularga qanday yondashgan ma'qul, sizningcha? Nima uchun?

5. Badiiy asarlarning qahramonlariga xos bo'lgan "ijobiy obraz" va "salbiy obraz" singari tushunchalarga o'z munosabatingizni bildiring. Ularga shunday yondashish mumkinmi? Nima uchun?

6. Umuman, odamni baholashda qanday mezonlarga tayanish mumkin deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.

7. Insonga xos bo'lgan fazilatlarning manbasi haqida o'ylab ko'ring. Ular odamda qanday paydo bo'ladi, Sizningcha?

8. Xuddi shunday, insonda mavjud salibiy fe'l-atvor va tutumlarning paydo bo'lishi haqida o'ylab ko'ring. Ularni qanday bartaraf etish mumkinligi haqida bir o'qituvchi sifatida mulohaza yuriting.

9. "Mening o'g'rigina bolam" mazmuni asosida taqdim etilgan savollarga o'zingiz javob bering, munosabat bildiring. Fikringizni asoslang.

10. Siz, bo'lajak o'qituvchi, hikoyadagi vaziyat-holatga ishonasizmi? Fikringizni asoslang.

11. Siz o'zingizni qanday odam deb hisoblaysiz? Bu savolga ovoz chiqarib javob berishingiz shart emas. Vijdoningiz bilan yuzma-yuz suhbatlashing.

12. "Men suygan suyukli" yoki "Do'stim va muhabbat" mavzularidan birida (yoki o'zingiz istagan biror mavzuda) esse yozing. Unda shaxsni tavsiflashga urg'u bering. Qahramoningiz fe'l-atvodagi xususiyatlarni tahlilga torting.

30-MAVZU. ADABIYOTDAN DARS SHAKLLARI VA TURLARI

Reja:

1. Metodika ilmida dars shakllari.
2. Dars turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Adabiyot darslarining shakliga ko'ra turlari.
4. Adabiy ta'limga xos bo'lgan yangilangan dars shakllari va ularning talqini.
5. Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.

Zamonaviy adabiyot saboqlariga tegishli bo'lgan dars shakllari va uning turlarini aniqlash uchun, avvalo, darsning o'zi nima ekani haqida tushunchani yana bir marta mustahkamlab olish zarur. **Dars** – ta'limning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, shakllantirilishi zarur bo'lgan ko'nikma, malaka, dunyoqarash va axloqiy-estetik sifatlarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan shakli. Ta'limning bunday shakli doimiy shug'ullanadigan o'quvchilar jamoasi uchun mo'ljallangan bo'lib sinf-dars tizimida qo'llaniladi[1].

Dars maktabda o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli bo'lib, bir xil guruh yoki sinfdagi o'quvchilar bilan qat'iy jadval asosida o'tkaziladi. Unda ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar amalga oshiriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinf-dars tizimi jamoaviy o'qitish ko'rinishi sifatida alohida ijtimoiy axamiyatga ega. Chunki u maktab yoshidagi o'quvchilarga ommaviy ta'lim berishga, o'quvchilarni jamoaviy va ijtimoiy faollik, milliy g'oyaga uyg'un, vatansevarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Darsdan maqsad o'quvchilarga bilim berish va ular olgan bilimni amalda qo'llay oladigan darajaga yetkazishga erishish, har bir o'quvchida komil shaxsga xos fazilatlarni shakllantirishdir. Ta'limning bir shakli sifatida darsning ham o'ziga xos ichki shakllari mavjud.

Dars shakl (forma)lari ularni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlariga, o'qitish usullari va uslublariga ko'ra ajratiladi. Darsning *klassik* shakllariga ochiq darslar, nazorat (test shaklidagi) darslari kiradi. Darsning har ikkala shakli ham maktablarda keng tarqalgan.

[1] Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida

Ochiq dars shakli o'quvchilarga bilim berish, ularda muloqot madaniyatini oshirish, tadqiqot qobiliyatlari va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Nazorat (test) shakli esa o'quvchilarining bilimlarini nazorat qilish va baholashni nazarda tutadi. Bugungi kunda bunday darslar dunyo miqyosida kompyuterlar orqali ham amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, darsning bir qator *asosiy* shakllari: ma'ruza darsi, seminar darsi, o'yin darsi, konferensiya darsi, ekskursiya darsi, amaliy dars, laboratoriya darsi va hk.lar ham mavjuddir.

Dars tur (tip)lari. Darslarni tashkil etishda uning keng tarqalgan quyidagi **turlari** mavjud:

– *umumlashtirilgan* (kombinirovannыy) darslar. Darsning eng keng tarqalgan bu turi quyidagi qismlardan iborat: tashkiliy qism (2–3 daqiqa); uy vazifasini tekshirish va tahlil qilish (10 daqiqa); yangi materialni o'rganish (taxminan 20 daqiqa); yangi materialni o'zlashtirish, amaliy mashqlarni bajarish (10 daqiqa); uy vazifasini belgilash va yakundash (2–3 daqiqa);

– *yangi materialni o'rganish* darslari. Darsning bu turi ham, asososan, o'rta maktablarda qo'llaniladi. Yangi o'quv materialini tushuntirishda o'qituvchi illyustratsion materiallardan foydalanish mumkin. Bunday dars turi ma'ruza shaklida ham, tadqiqot va muammoli shaklda ham bo'lishi mumkin. Dars samaradorligi o'quvchilar tomonidan ma'lumotlarning o'zlashtirilishi darajasiga bog'liq;

– *o'tilgan materialni umumlashtirish va tizimlashtirish* darsi. Ushbu turdagi darslar mavzuni to'liq o'zlashtirish uchun bilimlarni takomillashtirish va o'tgan materialning asosiy qism (blok)larini takrorlashga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning bir nechta mavzu bo'yicha bilimlarini ham baholashi mumkin. Ularga turli xil topshiriqlar, ijodiy ishlar beriladi, muammolar qo'yiladi va ularning yechimi, hal qilish yo'llari kuzatiladi;

– *bilimlarni mustahkamlash* darslari. Darsning bunday turi davomida ko'pincha o'quvchilar barcha materiallarni takrorlaydilar va shu asosda ularni mustahkamlaydilar, ko'nikma va malakalarni shakllantiradilar, bilimlarini chuqurlashtiradilar va kengaytiradilar.

Bilimlarni mustahkamlash darslari seminar, ma'ruza, mustaqil va laboratoriya ishlari shaklida o'tkazilishi ham mumkin[1].

Darsning ma'lum bir tur (tip)larida uning turli shakllardan foydalanish mumkin. Keyingi vaqtlarda umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsning uy vazifasini so'rash, uni mustahkamlash, yangi darsni tushuntirish va uni mustahkamlash, uyga topshiriq berish singari an'anaviy turiga qat'iy amal qilinmayapti. Ayni holat adabiyot o'qitish kechimida ham yangicha yondashuvlarni taqozo etib, muallimlarni o'quvchilar faolligini oshiradigan har xil saboq turlaridan foydalanishga undamoqda. Tashabbuskor adabiyot o'qituvchilari bugungi kunda darsning bir qator yangi turlari bilan ish olib bormoqdalar.

Dars tarkibini uning maqsadi va mazmuni belgilaydi. Har bir o'quv fani yuzasidan tashkil etiladigan darslar o'quv dasturi talablariga, ta'limning umumif va xususiy maqsadlariga mos tarzda o'tiladi. Dars davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda tashkil etiladi.

O'qitish amaliyotida, xususan, adabiyot saboqlarini tashkil etishda darsning quyidagi **shakllari** ustuvor ahamiyat kasb etadi:

1. Ma'ruza darslari. O'qituvchi ma'ruza tayyorlash uchun bir necha mavzuni o'quvchilarga taqsimlab beradi. Muhim o'rinlarni ko'chirma qilish, kerak joylarga ko'rgazmalar, kartochkalar tayyorlashni topshiradi. Tayyor bo'lgan o'quvchi o'z mavzusi yuzasidan ma'ruza qiladi. Qolgan o'quvchilar ma'ruzachiga savollar berishadi. Ma'ruza darslarida o'quvchi hajmi katta materialni qisqa muddatda o'rganish, o'zlashtirish, bayon qilish va uni mustahkamlash ko'nikmasini egallab boradi.

2 Seminar darslari. Adabiyot darsliklaridagi katta mavzular, xususan, bir ruknga jamlangan mavzular to'liq o'tib bo'lingandan so'ng mavzular o'quvchilarga qayta bo'lib beriladi. O'qituvchi yordamida reja tuzilib, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi. Har bir o'quvchi o'z mavzusining mohiyatini ochib berganidan so'ng sinfdagi boshqa o'quvchilar so'zga chiqib mavzuni to'ldirishi mumkin bo'ladi. Dars oxirida har bir so'zga chiqqan, munosabat bildirgan, fikrlarni to'ldirgan ishtirokchilarningfaoliyati tahlil qilinadi, har biri haqida

[1] https://vuzlib.com/kamoraviylar/ehlaty/formy-urok-dlya-uni-byvayut.html

alohida fikr aytilib baholanadi. Seminar darslari o'quvchilarda mustaqil izlanish va javobgarlik hissini tarbiyalaydi.

3. O'yin darslari. Darsning bu shakli bevosita didaktik o'yinlar va ularni har xil o'quv fanlari bo'yicha ta'limning umumiy va o'quv fanlarining xususiy maqsadlariga muvofiq tarzda tashkil etishni nazarda tutadi. Darsning bu shaklidan boshlang'ich sinflar va o'rta ta'limning dastlabki bo'g'inida samarali foydalaniladi.

4. Konferensiya darslari. Darslarning mazkur shakli ta'limning yuqori bosqichidaxronologik tartibdatashkil etiladi. Unda o'quvchilar o'rganilgan rukn mazmuniga doir materiallarni o'zlari tanlaydilar va shu asosda ma'ruza matnlari tayyorlaydilar. Buning uchun qo'shimchaadabiyotlarga murojaat qilinadi, ma'ruzalar ilmiylik kasb etishi taqozo qilinadi. Konferensiya darslarini dars turlariga ham, didaktik o'yinli darslar sirasiga hamkiritish mumkin. Konferensiya darslari o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, dunyoqarashini kengaytirish, ularni qo'shimcha materiallar bilan tanishtirish, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar, lug'atlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi konferensiya darslarini tashkil etishdan avval dars mavzusi, maqsad va vazifalarini aniq belgilab olishi, mavzuga oid adabiyotlar ro'yxatini tayyorlashi talab etiladi. Mazkur darsni o'tkazishdan o'n-o'n ikki kun oldin o'quvchilarga dars yo'nalishi, mavzusi e'lon qilinadi, unga tayyorgarlik ko'rish uchun zaruriy adabiyotlar tavsiya etiladi. Didaktik o'yinlar asosiga quriladigan darslarda har soha bo'yicha belgilangan "mutaxassislar" o'z "rol"larini o'z imkoniyatlari va bilimlariga tayangan holda o'zlari tanlaydilar. Bu har bir o'quvchini o'z qiziqishi, qobiliyati, iqtidori va imkoniyatini chamalashga o'rgatadi. Darsga tayorgarlik davrida ham, bevosita dars jarayonida ham o'qituvchining rag'batlari o'quvchilarni muvaffaqiyatga yo'llovchi omil ekanligi unutilmagani ma'qul. Bu jarayonda o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan yordami juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi o'zining yordamlari faqat va faqat yo'naltirish asosga qurilishi lozimligini unutmasligi kerak.

Ilmiy konferensiya darslarini tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi:

– o'qituvchining kirish so'zi. Bunda o'qituvchi dars mavzusi, maqsadi va vazifalari, tegishli rollarni bajaruvchi "mutaxassislar" bilan tanishtiradi;

– ilmiy ma'ruzalarni tinglash. "Mutaxassislar"ning mazkur mavzu yuzasidan tayyorlagan ma'ruzalarini ko'rgazmali qurollar asosida bayon etadilar;

– ma'ruzalar muhokamasi. "Mutaxassislar" bilan "opponentlar" (sinfdagi boshqa o'quvchilar) o'rtasida mavzu yuzasidan bahs-munozara, savol-javoblar o'tkaziladi;

– ilmiy konferensiya yakuni. O'qituvchi mavzu yuzasidan eng muhim tushuncha va g'oyalarni ta'kidlaydi, konferensiyani yakunlaydi;

– o'quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan "mutaxassis" va "opponent"lar rag'batlantiriladi, yutuq va kamchiliklar tahlilga tortiladi, qatnashchilar baholanadi.

Konferensiya darslari sinfdagi barcha o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishidagi faolligini ta'minlaydi.

5. Sayohat (ekskursiya) darslari. O'lkashunoslik maqsadida tashkil etiladigan darslar sayohat darslari sanaladi. Bunday darrslar mahalliy shoir yoki yozuvchilarning uy muzeylariga, adabiyot va tarix bilan bog'liq tarixiy joylarga sayohat asosida tashkil etiladi. Sayohatdan so'ng taassurotlar asosida yozma ishlar yoziladi. Sayohat darslari tabiatni kuzatish asnosida ham tashkil etiladi. Sayohatdan so'ng o'quvchilar peyzaj tasvirining yozmaafodasi bilan shug'ullanadilar.

6. Laboratoriya darslari. Bunday darslar fizika, ximiya singari aniq fanlarni mukammal o'zlashtirish uchun maktablarda maxsus tashkil etilgan o'quv laboratoriyalarida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda bunday darslarning virtual laboratoriya shakli ham mavjud.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda adabiy ta'lim jarayonida yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda dars shakllarining yangilangan quyidagi ko'rinishlaridan ham samarali foydalanilmoqda:

1. Darslik bilan ishlash. Yangi mavzu bir necha qismlarga bo'linadi. O'quvchi o'qituvchining matnga tayangan holda munosabat bildirishga yo'naltiruvchi savollariga javobni darslikka qayta-qayta murojaat qilgan holda topadi. Javoblar tahlil qilinib, baholanadi. Dars oxirida o'qituvchi mavzuni qisqacha umumlashtirib, yakunlaydi. Bu ish turi o'quvchilarni darslik va qo'shimcha manbalardan foydalanib, mustaqil bilim olishga o'rgatadi.

2. *Va'zxonlik darslari*. Bunday darslar, asosan, yuqori sinflarda amalga oshirilib, o'qituvchi ma'ruzasidan iborat bo'ladi. O'quvchilar ko'proq tinglovchiga aylanadilar. Va'zxonlik darslarida o'qituvchi nutqining izchilligi va ravonliligi, aniq reja asosiga qurilish va ko'rgazmalilikka asoslanishi muhim sanaladi.

3. *Mustaqil fikr yuritish darslari*. O'quvchilarga yangi materialning ayrim qismlari beriladi. Berilgan voqea, hodisaning kelib chiqish sabablarini izlab topish o'quvchilar tomnidan amalga oshiriladi. Bunday darslar o'quvchilarni mustaqil tafakkur qilishga o'rgatadi, o'qituvchi material tanlashda uni qiziqarli va o'quvchilarning hissiy-intellektual ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan bo'lishi talab qilinadi.

4. *Sinov darslari*. Bu tipdagi saboqlar ikki turli bo'ladi. Sinov darslarining birinchi shaklida o'qituvchi yirik boblarni ma'ruza tarzida o'tadi. O'quvchilarga materiallarni umumiy tarzda qamrab oluvchi savollar beradi. Keyingi soatlarda shu savollarga javob oladi. Darsning bu turi tarbiyalanuvchilarni barcha savollarga javob topish uchun izlanishga chorlaydi. Yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan qo'shimcha ishlash va past o'zlashtirganlarga yordam berish uchun sharoit yaratiladi. Sinov darslarining ikkinchi turi o'quv yili va chorak davomida o'tilgan materiallar mazmunidan kelib chiqqan holda savollar berish bilan farqlanadi. O'quvchilar tayyor bo'lgan paytlarida yoki ro'yxat asosida javob berishlari mumkin. Sinov darslari o'quvchilarning o'tilgan materiallarni to'liq bilishiga qaratiladi.

5. *Muloqot darslari*. Bunday darslarda sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lib, yumaloq stol atrofida davra suhbati tashkil etiladi. Muloqot darslarida oldindan hyech qanday vazifa berilmay, o'tilgan mavzularni qaytarib kelish topshiriladi. Darsda o'qituvchi har ikkala guruh a'zolariga turli shakllarda vazifa beradi va javoblarga qarab ball qo'yadi. Ball qo'yishda 2-3 o'quvchidan ekspert sifatida foydalanishi ham mumkin. Ekspertlar dars davomida qo'yilayotgan ballarni umumlashtirib boradi. O'qituvchiga o'zlarining taklif-mulohazalarini aytadilar. Bunday dars

o'rtaga tashlanadi va umumiy xulosa chiqariladi. Muammoli vaziyat o'quvchilarda aqliy izlanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

7. *Ko'rgazmali darslar*. Bunday darslarda o'quvchilar ilgaridan berilgan vazifalar bo'yicha albom, referat yoki o'zlari tayyorlagan mahsulot, materiallardan ko'rgazmalar tayyorlaydilar. Ko'rgazma materiallaridan foydalangan holda o'tilgan mavzu mazmuni yoritiladi. Ko'rgazma darsi o'quvchilardao'z mehnatini namoyish qilish, hikoya qila bilish va emotsional holatlarini boshqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

8. *Muxbirlar darsi*. Bunday darslarda mavzuni o'lkashunoslik materiallari bilan bog'lab o'tish yaxshi samara beradi. O'quvchi-muxbir uy vazifalarini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilarga o'zining mavzusiga mos savollar berib, javob oladi hamda muxbir sifatida javoblarni sinfdoshlari bilan birgalikda tahlil qilib, yutuq-kamchiliklarini ko'rsatadi. Bunday vazifalar muxbir bo'lishni orzu qilgan o'quvchilarga topshirilsa, u bor mahoratini ishga soladi.

Bu kabi darslarda o'quvchida ijodkorlik, tashabbuskorlik xislatlari uyg'onadi. Muxbirlar ishtirokidagi matbuot konferensiya darslari uchun bir hafta-o'n kunavval o'quvchilar ikki guruhga taqsimlanadi. Ularning taxminan 30 foyizi adabiyotshunoslar, yozuvchi va shoirlar, ya'ni so'z bilan ishlaydigan mutaxassislar, qolganlari esa respublika miqyosida chop etiladigan gazeta va jurnallarning muxbirlari etib tayinlanishi mumkin. Albatta, bu jarayonda barcha soha "mutaxassis"lari o'z kasblarini o'zlari tanlaydilar. Muxbirlar o'z nashrlarining yo'nalishini ham yaxshi o'zlashtirib olishlari taqozo etiladi. Har qaysi gazeta yoki jurnal muxbirining matbuot konferensiyasida beradigan savollari o'quvchilarning o'zlari tomonidan tuziladi. Tayyorlanadigan savollar muhokama qilinayotgan muammoni har tomonlama qamrab olishi lozimligi nazarda tutiladi. Barcha sohalarning mutaxassislari o'zi tanlagan sohaning o'ziga xos jihatlarini o'rganib chiqishi lozim ekanligi tayinlanadi. Ya'ni adabiyotshunoslar o'z sohasidagi muammolarni, yozuvchi, shoirlar ijod jarayoni va uning o'ziga xos tomonlarini, har bir gazeta yoki jurnalning muxbiri o'z nashri talablarini o'zlashtirib olishi ta'kidlanadi. Bu jarayon

sinfda, mustaqil ravishda o'qiladi va birgalikda, umumiy shaklda muhokama qilinadi. Oltinchi sinfda mustaqil o'qilgan asarlar yuzasidan suhbat o'tkazish uchun alohida ikki soat vaqt ajratilgan. O'qituvchi ishini rejalashtirayotganidayoq, bu soatlardan qachon va qanday foydalanishini belgilab qo'yishi lozim. Mustaqil o'qilgan asarlar yuzasidan sinfdagi barcha o'quvchilar baholanishlari shart. Chunki ular muayyan sinfdagi o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmasining shakllanganlik darajasini ko'rsatuvchi o'lchovdir.

"Adabiy o'qish" tushunchasi dasturda o'rganish uchun taqdim etilgan, alohida dars soatlari ajratilgan badiiy asarlar ustida ishlashni nazarda tutadi. Bunday darslarda asar o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi va o'quvchilar bilan birgalikda didaktik tahlilga tortiladi.

"Sinfdan tashqari o'qish" tushunchasi esa, o'quvchining o'z xohishiga ko'ra o'z vaqti hisobiga istalgan joyda: istasin kutubxonada, istasin uyda, muhimi sinfda emas, sinfdan tashqarida badiiy asar o'qishini anglatadi. O'quvchi bu faoliyati yuzasidan o'qituvchiga hisob berishga burchli emas. Shuningdek, o'quvchining bu faoliyati muallim tomonidan rag'batlantirilmasligi ham mumkin. Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar yuzasidan suhbat o'tkazishga dasturda alohida vaqt ham ajratilmaydi. Lekin jonkuyar o'qituvchilarning o'quvchilar sinfdan tashqari o'qigan asarlari yuzasidan ma'lum suhbatlar (chorak oxirida, ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib) tashkil etib borishi adabiy ta'limning umumiy maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Amaldagi 6-sinf darsligida G'. G'ulomning "Shum bola" asaridan keltirilgan parcha adabiy o'qish tarzida tavsiya etilgan bo'lib, uni bugungi tarbiyashunoslikka «interfaol metodlar» nomi bilan kirib kelgan "6x6x6" metodidan foydalanib o'tish mumkin.

Bu metod Ye. A. Aleksandrov tomonidan ishlab chiqilgan va G. Ya. Bush tomonidan takomillashtirilgan. Undan foydalanishda adabiyot o'qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarni oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bunda sinfdagi o'quvchilar oltita-oltitadan olti guruhga bo'linadi. Jami 36 o'quvchi ishtirok etadi. Har bir guruhga muayyan nom beriladi. Mavzu e'lon qilinib, ma'lum vaqt belgilanadi. O'quvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, o'z munosabatlarini bildiradilar. Mavzu bo'yicha belgilangan vaqt yakunlangach, o'qituvchi guruh a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi

guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rganadilar, unga o'z munosabatlarini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oralig'ida o'quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, xulosalar chiqariladi, ham bu fikrlar ularning o'zlari tomonidan tahlil qilinadi, baholanadi.

Sinfdagi o'quvchilardan kichik guruhlar tashkil etishda: 1. Guruhga rahbarlik qila oladigan o'quvchi va guruhning barcha a'zolari aniq belgilab olinadi. 2. Har bir guruhda zehnli va qobiliyatli o'quvchilar bo'lishiga, bo'shroq o'zlashtiradigan o'quvchilarni ham guruhlarga imkon qadar teng taqsimlashga harkat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a'zolar bilan to'ldiriladi va vazifalari belgilanadi. 3. Guruh rahbari va a'zolarining vazifalari tushuntiriladi. 4. Har bir guruh doira shaklida o'tirishi, guruhning har bir a'zosi bir-birini ko'rib turishi shart. 5. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalariga e'tibor berib boriladi. Yaxshi g'oya egalari rag'batlantiriladi.

Bunday guruhlarni tashkil etishdan avval: o'quvchilarning shu ishni bajarishga bilim va malakalari yetarliligiga ishonch hosil qilish; guruhlarga aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish; vazifaning bajarilishi uchun yetarli vaqtni aniqlash; o'z vazifasini vaqtdan ilgari bajargan guruhning bandligini ta'minlashga tayyor bo'lish; qo'yiladigan masala murakkab bo'lganda guruh a'zolari sonini kengaytirish; baholash va mukofotlash jarayonining guruh a'zolariga ta'siriga tayyorlanish; kuchli guruhlarni mukofotlash; bajarilgan ish natijasini qanday topshirish yo'llari haqida o'ylab ko'rish va ma'lum qilish; jamoaning erkinligiga imkoniyat yaratish kerak bo'ladi.

«Shum bola»ni bu metoddan foydalangan holda o'tish uchun o'qituvchi stollarni taxminan: "Shum bola" guruhi, "Hoshimjon" guruhi, "Yanguli" guruhi, "Uch og'a-ini botirlar" guruhi, "To'maris" guruhi va "Shiroq" guruhi tarzida nomlaydi va o'quvchilarning qo'liga "Shum bola-1", "To'maris-2" yoki "Yanguli-3", "Hoshimjon-6" va hokazo tarzda raqamlangan kartochkalar beriladi. Shunda har bir o'quvchi o'zining kim bilan ishlashini aniqlab oladi va o'zlariga belgilangan stol atrofiga (stollarga guruhlarning nomi yozib qo'yiladi) o'tiradi.

Har bir stolda, har bir o'quvchining qo'lida asar matni ochiq holda turishi maqsadga muvofiq. Chunki adabiyot darslarida faqat matn bilan, so'z bilan ishlanadi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi har bir stol atrofida o'tirgan o'quvchilar fikrini eshitish, zarur bo'lganda

yo'naltiruvchi savollarni o'rtaga tashlashdan iborat bo'ladi. Har bir stoldagi yetakchi o'quvchi qo'yilgan masala yuzasidan qat'iy bir qarorni qog'ozga tushirib borishi, keyingi stoldagi sinfdoshlariga uni aniq va yaqqol namoyon qilib bera olishi kerak bo'ladi. Keyingi bosqichda o'quvchilar o'rtoqlarining ma'lum topshiriq yuzasidan chiqargan xulosalarini baholashlari kerak bo'ladi. Bu ish o'quvchilardan jiddiylik va mas'uliyatni talab qiladi. Bu jarayon o'qituvchining qat'iy nazorati ostida bo'lgani ma'qul.

1. Siz «shum» deganda nimani tushunasiz? Asar qahramonida shumlikning qanday belgilari bor va ularni Shum bolaning qaysi xatti-harakatlarida ko'rish mumkin?

2. Shumlik bilan sho'xlikning farqi bormi? Shum bolani sho'x deyish mumkinmi? Fikringizni matndan misollar keltirib asoslang.

3. Shum bola shaxsidan ijobiy xislatlarni qidirib ko'ring. Bu uning qaysi xatti-harakatlarida ko'rinadi?

4. Sariboyni qanday odam deb o'ylaysiz? Qarashlaringizni asoslashga urinib ko'ring.

5. Shum bolani Hoshimjon bilan taqqoslang. Ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlang.

6. Shum bola yolg'onlari bilan nimaga erishdi? U bu bilan yutdimi, yutqazdimi? Nega shunday qarorga keldingiz? Fikringizni asoslang.

O'qituvchi mana shu mantiqli savol-topshiriqlar haqida o'ylab ko'rishni, tahlil darsida shular haqida suhbatlashishlarini ma'lum qilishi kerak. Qisqasi, o'quvchilar mavzular bilan avvaldan tanishtirilishi lozim.

O'qituvchi topshiriqlarni sinfdagi o'quvchilarning bilimdonlik darajasi va intellektual imkoniyatlariga qarab taqsimlaydi. Zaruratga qarab savol-topshiriqlarni o'zgartirishi ham mumkin. Har bir guruh o'ziga tegishli savol atrofida fikrlashadi va o'z xulosasini chiqaradi. Qolgani, yuqorida aytilganidek, mazkur metod talabi asosida amalga oshiriladi.

Qissaning shu tariqa tashkil etilgan didaktik tahlili natijasida o'quvchilarda bir-birlarining fikrini quvvatlash yoki rad etish, o'zgani anglash, bir-birini eshitish, o'z qarashlariga o'zgalarni ishontira olish hissi paydo bo'ladi. Har bir sinfda asarning bu taxlit o'rganilishi har xil natija berishi tabiiy. Dars jarayonining muvaffaqiyatini har bir sinfdagi o'quvchilarning intellektual imkoniyatlari belgilab beradi. O'qituvchi vaziyatga qarab ish olib boradi.

Uy vazifasi sifatida o'qituvchi "Asardagi menga yoqqan sahifa" mavzusida insho yozishni topshirishi mumkin. Bunday mavzuda insho

yozish ijodiy ish hisoblanadi va bu hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Uni hammadan birday talab qilish ham metodik jihatdan uncha to'g'ri emas. Yoza bilgan o'quvchini rag'batlantirish va unga astoydil taqriz yoza bilish kerak xolos.

Savol va topshiriqlar:

1. Nima deb o'ylaysiz, an'anaviy dars turlari nimasi bilan bugungi talablarga javob bera olmay qoldi. Sizningcha?

2. Taqdim etilgan har bir dars turining o'zigagina xos bo'lgan yetakchi jihatlarini ajratib yozing. Ularni izohlang.

3. Har bir dars turini avval o'zlashtirgan bilimlaringiz asosida kengroq tavsiflashga urinib ko'ring.

4. Tavsiya etilgan dars turlarini biror asar misolida amalda ko'rsatib bering. Yutuq va kamchiliklarni birgalikda muhokama qiling.

5. Dars turlari va shakllarini taqqoslang. Har ikkalasiga xos bo'lgan xususiyatlarni ajratib sanang.

6. Bir o'qituvchi sifatida biror asar misolida "Konferensiya darsi" va "Muhbirlar darsi"ni birgalikda tashkil eting. Ulardan amalda foydalanish ko'nikmalarini egallang.

7. "Va'zxonlik" va "Ma'ruza" darslarini bir-biri bilan taqqoslang. Alohida farqli jihatlari nimalardan iborat ekanligini aniqlang.

8. Mazkur dars turlarining qaysi biri sizga ma'qul keldi? Buning sabablari nimalardan ibort ekanini asoslang.

9. "Shum bola"ning filologik tahlilini amalga oshiring. Asarning filologik va didaktik tahlilidagi yetakchi xususiyatlarni aniqlang. O'xshash va farqli tomonlarini tadqiq qiling.

10 "Shum bola" qissasini o'rganishning boshqa metodlarga asoslangan didaktik tahlili ishlanmasini tayyorlang. Har ikkala didaktik tahlilning afzalliklarini ajrating. Auditoriyada muhokama qiling.

11. Maktab "Adabiyot" darsliklarida taqdim etilgan istalgan bir asarni yuqorida taqdim etilgan dars shakllaridan biri mezonlari asosida dars ishlanmasini tayyorlang. Dars ishlanmangizni auditoriyada birgalikda muhokama qiling.

12 Birorta badiiy asarning mazmuni asosida ssenariy tayyorlang. Amaliy faoliyatingizda o'quvchilaringiz bilan uni salmalashtiring.

13."Men tanlagan kasb: unga muhabbatim, uning mashaqqadari va mas'uliyati" mavzusida insho yozing. Ijod mahsulini auditoriyada birgalikda muhokama qiling.

31-MAVZU. ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH YO'LLARI

Reja:

1. Mustaqil ishlarning turlari va ularning xususiyatlari.

2. Adabiyot darslarida mustaqil ishlarning o'ziga xosligi

3. Mustaqil ishlarning o'quvchi bilish kompetentliligini oshirishdagi ahamiyati.

4. O'quvchilarda mustaqil ish va mustaqil faoliyat ko'nikmasini shakllantirish.

5. Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Shakllanayotgan shaxs ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan tafakkurdagi mustaqillik o'quvchining murakkab mavzular echimiga o'ziga xos tarzda yondasha bilishi, qo'yilgan masalalarni to'g'ri va mustaqil ravishda hal etishi, fikrlarini o'z so'zi, xos uslubi bilan bayon etishi, bir masala bo'yicha boshqa o'quvchilar fikri yoki munosabatidan farq qiluvchi nuqtai nazarga egaligi, boshqalar tomonidan aytilgan mulohazalarga tanqidiy munosabat tarzida namoyon bo'ladi. Sanalgan xususiyatlar ko'rsatadiki, fikrning mustaqilligi bu o'quvchilarning o'zgarib turuvchi vaziyatlarda murakkab masalalarni hal eta bilish qobiliyatidir. Ayrim o'quvchilarda mustaqil umumlashmalar qilishni talab qiladigan murakkab masalalar echimida ishtirok etishga doimiy tayyorlik kuzatiladi. Ulardagi bunday qobiliyat barcha darslarda bir xil ko'rinishda kuzatiladi. Aytish mumkinki, ayrim darslarda tarbiyalangan tafakkur faoliyatining mustaqilligi boshqa o'quv fanlarida ham o'z mavjudligini namoyish etiladi. O'quv fani o'qituvchilari darsni tashkil etishda o'quvchi tafakkurini ijodiy ishlarga yo'naltiruvchi tamoyillarga amal qilsagina, mustaqil fikr yuzaga chiqadi.

O'quvchilarning mustaqil fikri va faoliyati mahsuli bo'lgan mustaqil ishlari adabiy ta'limda: kitoblar, o'quv va ma'lumotnoma (spravochnik)lar bilan ishlash; konspekt olish; murakkab ijodiy masalalar yechish va mashqlar bajarish; laboratoriya ishlari; frontal eksperiment ishlari; tarqatma materiallar bilan ishlash; o'rtoqlarining javoblari va nutqlarin: shathlash;

uy inshosi, referat va taqrizlar, adabiy qahramonlarga tavsifnoma va annotatsiyalar yozish, maktublar bitish, kundaliklar yuritish, ma'ruza matnini tayyorlash, tezislar tuzish, konspekt olish, uy vazifalarini

bajarish, adabiy kechalar tashkil etish, ekskursiyalar uyushtirish, mustaqil va sinfdan tashqari o'qish, ayni zamonda ijodiy ishlar (badiiy asarlar yaratish) va hokazo turfa shakllarda namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning adabiyot darslari bo'yicha mustaqil ishlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. *O'quvchilarning sinfdagi mustaqil faoliyati.* Bunday faoliyat sinfda o'rganilgan o'quv materialining o'zlashtirilganlik darajasini diagnostika va nazorat qilish (savollarga yozma javob berish; insholar, test sinovlari; nazorat ishlari va hk) maqsadida amalga oshiriladi.

2. *O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari.* O'quvchilarning sinfdan tashqari mustaqil faoliyati natijalar taqdimoti orqali ularning darsda o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish, mustaqil o'qish, shuningdek, ma'lum yo'nalishda tashkil etilishi mumkin bo'lgan quyidagi bir qator:

- mustaqil o'qish; kitobxon kundaligini yuritish; hisobot tayyorlash; insho yozish; har xil loyihalar tuzish;
- badiiy asarni sahnalashtirish, biografik material asosida fantastik ssenariylar tuzish; badiiy asar asosida tasviriy va grafik ishlarni tashkil etish;
- ilmiy tadbirlarda ishtirok etish uchun ma'ruza, ilmiy maqola tayyorlash; bahs-munozaralarda ishtirok etish; loyihalar yaratish va ularni himoya qilish; savollarga yozma javob berish; o'quvchini qiziqtirgan mavzudagi tadqiqot ishlari; elektron taqdimotlar; veb-saytlar yaratish va hk. ishlarning samarali amalga oshirilishiga zamin tayyorlaydi[1].

O'quvchilarning adabiy ta'lim bo'yicha sinfda ham, sinfdan tashqari faoliyatida ham mustaqil ishlashlarini tashkil etish bu jarayon uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash shakllaridan biridir. O'quvchilar mustaqil faoliyatini tizimli tashkil etish zarurati zamonaviy ta'limning quyidagi maqsadlariga muvofiq keladi:

• boshlang'ich sinflar, umumiy o'rta va oliy maktab, oliy ta'lim (bakalavr va magistratura)dan keyingi ta'lim (aspirantura, doktorantkra, malaka oshirish) faoliyati jarayonida o'z-o'zini namoyon etish ko'nikmalariga va qobiliyatlariga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish;

[1] https://fil.wikipedia.org/wiki/...

• axborotlar oqimida jadal rivojlanib borayotgan bugungi jamiyatda yashab ketish va unda o'z o'rnini topishga yordam beradigan ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

• raqobatbardosh shaxsni shakllantirish uchun zarur bo'lgan fazilatlarni tarkib toptirish, jamiyatning talablari, oliy ta'limning ikki bosqichi (bakalavriat va magistratura) sharoitida o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lish va hk.

Bulardan tashqari, o'quvchilarning mustaqil faoliyati adabiyot darslarini tashkil etishning quyidagi maqsadlari bilan ham bevosita bog'liqdir:

1. *Ta'limiy maqsadi*:
- bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- darsda olingan bilimlarni mustahkamlash;
- darsda olingan bilimlarni chuqurlashtirish;
- diagnostika va darsda o'rganilgan materialni o'zlashtirish darajasini nazorat qilish.

2. *Rivojlantiruvchi maqsadi*:
- matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- yangi bilimlarni egallash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni qidirish ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- samarali fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish;
- ilmiy tadqiqot qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish;
- o'quv faoliyatining turli sohalarida mantiqiy operatsiyalardan foydalanish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish;
- tadqiqot mavzusi bo'yicha o'z nuqtai nazarini belgilash va fikrlarini asoslash, bahslashish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

3. *Tarbiyaviy maqsadi*:
- shaxslik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- kitobxonlik madaniyatini va o'qishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;
- mulohazali o'quvchini, o'quvchi-tadqiqotchini shakllantirish;
- o'quv faniga qiziqish uyg'otish, biror mavzuni muvaffaqiyatli va chuqur o'rganish uchun zarur bo'lgan qiziqishni shakllantirish;
- badiiy didini shakllantirish va rivojlantirish;
- voqelikni estetik idrok etish ko'nikmasiini shakllantirish va rivojlantirish;

• o'quv fanini o'zlashtirish jarayoniga ongli munosabatni shakllantirish,

• yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga bo'lgan qat'iyatni shakllantirish;

• mehnatsevarlikni tarbiyalash va hk.

O'quvchilarning adabiyot darslaridagi mustaqil faoliyatini tashkil etish zarurati zamonaviy maktab rivojlanishi bilan bog'liq ba'zi salbiy hodisalarni ham pardalashi mumkin. Masalan:

• maktabda adabiyot o'qitish soatlarining nisbatan kamligi;

• zamonaviy sharoitda qayd etilganidek, o'quvchilarning o'qish madaniyati pasayishi va umuman kitobga bo'lgan qiziqishning susayganligi kabi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini samarali tashkil etish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

• o'rta va yuqori sinf o'quvchilarining turli xil mustaqil faoliyat turlarining uzviylıgi va uzluksizligini ta'minlash;

• o'quvchilarning mustaqil faoliyatining adabiy ta'lim jarayonini tashkil etishning boshqa shakllari (dars, sinfdan tashqari tadbirlar) bilan bog'liq holda tashkil etish;

• adabiyot darslarida badiiy asarni o'rganishning barcha bosqichlarida o'quvchilarni mustaqil faoliyatga yo'naltirish. Bunga quyidagilarni hisobga olgan holda individual yondashuv talab etiladi:

a) o'quvchining shaxsiy sifatlari;

b) o'quvchilar adabiy rivojlanishining turli darajalari;

v) o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlari;

g) turli madaniyatlarni tashuvchilarni birlashtirgan polietnik sinflarning mavjudligi va hk.[1]

Adabiyot darslarida o'quvchilar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jixatlar e'tiborga olinishi maqsadga muvofiqdir:

– o'qish bosqichi;

– muayyan mavzuning o'ziga xos xususiyati va uni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari darajasi;

[1] https://kitobxon.com/adabiyot/47003

– o'quvchining qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorlik darajasi (tayanch bilimlari);

– mavzuning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;

– o'quvchining mavjud axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi va hk.

Masalan, adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlaridan biri *mustaqil o'qish* darslari uchun dasturda ma'lum soat ajratilgan bo'lib, bunda o'rganish uchun tavsiya etilgan asar bilan o'quvchilarning o'zlari mustaqil ravishda tanishadilar. Undagi muhim va nomuhimni, ikkinchi, uchinchi darajali jihatlarini o'zlari ajratadilar. Asarning muhokamasi esa o'qituvchi bilan birgalikda amalga oshiriladi. O'quvchilar mustaqil o'qish asnosida o'zlari kashf etgan haqiqatlarini o'qituvchilari balan hamkorlikda tahlilga tortadilar. Bunda o'qituvchining roli faqat tashkilotchilikdan iborat bo'ladi.

Erkin mavzularda *insholar yozish, uy insholari* ham o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda bajariladigan yozma ish turlaridan hisoblanadi. Bunda o'quvchilar qo'yilgan maqsad sari ongli, mustaqil ravishda harakat qiladilar, o'z kuchlari, aqliy imkoniyati va bilimini u yoki bu shaklda ifodalaydilar. Ishning mustaqil ravishda yozilishida o'quvchining faoliyatiga hyech kim aralashmaydi, xatti-harakatlari yo'nalishi va imkoniyatlari darajasini uning o'zi aniqlaydi. Oldiga qo'yilgan masalani ham o'zi mustaqil hal qiladi. Bu jarayonda amalga oshgan faoliyatni vujudga keltiruvchi fikrlar mustaqil fikrlash sanaladi. Unga hyech kim yo'l-yo'riq hami ko'rsatmaydi, yordam ham bermaydi.

Ta'lim mazmuni va metodlarining xilma-xilligi, boyligi tafakkurning chinakam mustaqilligini ta'minlaydi, rivojlantiradi. Erkin mavzulardagi mustaqil ishlar o'quvchilar tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi. Ular bolada biror shaxslik sifatlarining shakllanishiga, albatta, ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning mustaqil ish turlari va ularning xususiyatlari borasida prof. S. Matjonovning alohida tadqiqoti mavjud[1].

Darsning mazmuni, pedagogik topshiriqlar mustaqil ishlarning xarakteri va tarkibini belgilashi lozim. O'qituvchi o'quvchilar oldiga mantiqiy topshiriq qo'yar ekan, uning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun zarur shart-sharoitni ham yaratishi kerak. Buning birinchi sharti dalillarning etarliligi, vazifaning aniq ifodalanganligidir. O'qituvchi

[1] Матжонов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т.: «Ўқитувчи», 1986.

ishni bajarish yuzasidan dars so'ngida 3–7 daqiqali suhbat o'tkazishi lozim. O'quvchilar mustaqil ishlayotganda nimaning ustida, qanday ish yuritishni aniq bilishlari kerak. Bunday topshiriqlar darsning boshida ham, oxirida ham, dars jarayonida ham berilishi mumkin.

Mustaqil yozma ishlar muhokamasidan keyin ularning yaxshi chiqmay qolgan o'rinlarini qayta ishlash, undan yangi ish yaratishga undash mumkin emas. Ma'lum ishni bajarishni uddalay olmagan bo'lsa-da, yo'l qo'ygan xatolari va uning sabablarini anglagan o'quvchi endilikda o'zini keyingi ishni nisbatan yuqori darajada bajara olishga qodir his qiladi. Biroq o'quvchiga muhokama qilib ko'rishga vaqt berish va shu jarayonda keyingi mustaqil ish ustida ishlashga imkoniyat yaratish kerak bo'ladi.

Agar o'quvchining o'zi talab qilsa, unga ishni qayta yozish imkoniyatini berish mumkin. Bunday ijodiy ishlarning, erkin mavzulardagi insholarning samaradorligi shundaki, o'quvchi badiiy asar bilan mustaqil ishlashga ko'nikib boradi. O'qituvchining aytganlari yoki kitobda bitilganlargagina bog'lanib qolmay, bilimining faoliya mustaqilligi mustahkamlanadi.

Mustaqil yozma ishlarni tahlil qilish bilan asar tahlilini uyg'unlikdaamalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayondaasardagi o'quvchining nazaridan chetda qolgan yoki u noto'g'ri talqin qilgan jihatlarga ham e'tibor qaratiladi. O'quvchilar tomonidan bajarilgan ish muhokamasi bilan badiiy asar tahlili uyg'unlashib ketgani ma'qul.

Ijodkorlik, ya'ni o'quvchilarni badiiy ijodga undash ham ularning mustaqil ishlarini tashkil etishda etakchi ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng yoqimli narsa – kattalarning ular bilan o'ynashi. Odatda, bizning kattalar bolalar bilan o'ynamaydilar. Ularning "jiddiyroq" ishlari ko'p. Aslida, bolalarga o'rgatish, ularni o'qitish emas, aynan ular bilan birgalikda o'ynash, ularga o'xshab xayolparastlik qilish, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar to'qish, har xil hodisalar o'ylab topish jarayonida ishtirok etish ularning ma'naviy shakllanishida ko'proq foyda keltiradi. O'quvchilarning aqliy rivojlanishini, yuksak orzular qilishga va ularni amalga oshirishga qodir bo'lishini istagan har qanday odam ularning ijodga oshno bo'lishini ta'minlashi kerak.

O‘quvchilarning mustaqil ishlarida ba’zan mantiqning etarli darajada emasligini tushunish mumkin. Chunki maqsad ular ijodida chuqur mantiq yoki yuksak ma’no bo‘lishiga erishish emas. Ular keyinroq, ta’lim-tarbiyaning yuqoriroq bosqichlarida paydo bo‘ladi. Dastlabki paytlarda muhimi – ijod jarayoni.

Adabiy ta’limning yuqori bosqichi (10–11-sinflar)da o‘quvchilarga mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlar shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi ularda ma’lum ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga muvofiq ravishda o‘zgarib, oshib-murakkablashib boradi. Ya’ni, o‘quvchilar topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasi asta-sekin oshirilib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o‘rgatib borish kerak bo‘ladi. Bu boradagi bilimlar o‘quvchilarga ta’limning keyingi oliy bosqichida erkin faoliyat olib borishga tayyorlaydi.

O‘quvchilar mustaqil ishini tashkil etishda ularning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- mavzuni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish, o‘quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar va virtual laboratoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rib kelish;
- ma’lum mavzu bo‘yicha referatlar tayyorlash;
- mustaqil loyihalar yaratish va ularni himoya qilish;
- asarlarning ssenariysini tuzish uchun materiallar to‘plash;
- ijodiy ishlar, tasviriy san’at va grafik ishlarini bajarish;
- qo‘yilgan adabiy-badiiy muammoning yechimini topish;
- test sinovlari, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola va ma’ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash;
- uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

O‘quv fani xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin.

O‘quvchilarga topshiriladigan mustaqil ishlar shakli o‘qituvchi tomonidan avvaldan belgilab olinadi. Mustaqil ishlar mazmunan puxta o‘ylab ishlab chiqilgan va ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning sinfdagi faoliyatida olgan bilimlarini mustahkamlash.

chuqurlashtirish, kengaytirish va to‘ldirishga xizmat qilishi maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ishlarni bajarishda o‘quvchilar o‘quv adabiyotlaridan mustaqil ravishda foydalanib mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o‘zlashtirish qiyin bo‘lsa, savollar paydo bo‘lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va hakozalar) o‘qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha tayyorlangan sinfda, o‘quvchilar bilan birgalikda muhokama qilinadi.

Ma’lum mavzular asosida *referat tayyorlash* ham o‘quvchilarning mustaqil ishlari sirasiga kiradi. O‘quvchiga beriladigan referat mavzulari qiyinlik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘quvchi asosiy adabiyotlardan tashqari qo‘shimcha monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, internetdan olingan ma’lumotlar, elektron kutubxona materiallari va hakozalardan foydalanib materiallar yig‘adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo‘yicha imkon darajasida to‘liq, keng ma’lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o‘qituvchidan maslahat va ko‘rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat sinfda ekspert (o‘quvchi)lar ishtirokida himoya qilinadi.

Biror mavzu yuzasidan *ko‘rgazmali vositalar tayyorlash* ham qiziqqan o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan mustaqish ish turlaridan biridir. O‘quvchilarga biror adabiy mavzuga masalalarni bayon qilish va yaxshiroq o‘zlashtirish uchun yordam beradigan ko‘rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, texnik asar, kichik texnik asar va hakozalar)ni tayyorlash topshiriladi. Mavzu o‘qituvchi tomonidan aniqlanib, istagan o‘quvchilarga ma’lum ko‘rsatmalar, yo‘l-yo‘riqlar beriladi.

Ko‘rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni o‘quvchi tomonidan mustaqil tanlanishi ishning pishiqligiga asos bo‘ladi. Bunday vazifani bir mavzu bo‘yicha bir necha o‘quvchiga topshirish ham mumkin. Ular ko‘rgazmali materiallardan foydalanish bo‘yicha yozma tavsiyalar tayyorlaydilar va darsda uning taqdimotini tashkil qiladilar.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash ishlarini ham yuqori sinf o'quvchilariga mustaqil ish sifatida topshirish mumkin. O'quvchilarga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi. Bunda o'qituvchi tomonidan o'quvchiga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

Maslahatlashish paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin).

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash ishlari ham yuqori sinf o'quvchilari uchun qiziqarli mustaqil ish sanalishi mumkin. O'quvchiga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni o'quvchi o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) xarakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi.

Bunda o'quvchi o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi. Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza sinfda himoya qilinadi.

O'quvchilar bajarishlari lozim bo'lgan mustaqil ishlarini samarali tashkil etishda:

- tizimli yondashish;
- barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
- bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
- tashkil etishda nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish taqozo etiladi.

Mustaqil ishlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun o'quvchilar quyidagilarga alohida ahamiyat berishlari maqsadga muvofiqdir:

- maqsad (bilimni mustaxkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish singari)ni aniq belgilab olish;

- vazifa va topshiriqlarni aniq-ravshan belgilab olish faoliyatini ma'lum reja asosida tashkil etish;
- topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish;
- maslahat va boshqa yordam turlarining o'qituvchi tomonidan to'g'ri belgilanishi (yo'llanma va ko'rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli toshpiriqlarni bajarish usullari bo'yicha tushuncha berish, ayrim muammoli momentlarni birgalikda hal qilish va hakozalar);
- baholash mezonlari va talablarni aniq bilish;
- nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish;
- ma'ruza yoki referat matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, savollar, maqola, ko'rgazmali jixozlar va ijodiy ishlar;
- savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini chuqur tushunib yetish, yozma shaklda bayon qilish va hakozalar.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ishlar ham o'tilgan mavzularni mustahkamlash, ham yangi mavzularni o'zlashtirish, ham mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan didaktik ish turlaridan biridir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Oqbo'yin

Maktab adabiy ta'limida, xususan, boshlang'ich sinflar va o'rta bosqichning 5-, 6-sinflari darsliklarida hayvonlar haqidagi asarlar ustasi yozuvchi Normurod Norqobilovning ijodidan samarali foydalaniladi. Uning «Oqbo'yin» qissasi 5-sinf "Adabiyot" darsligida o'rganish uchun taqdim etilgan bo'lib, uni o'rganish uchun dasturda uch soat ajratilgan. Qissani o'qishdan oldin adibning o'zi haqida birganlariga o'quvchilarning e'tiborini qaratish maqsadga muvofiqdir. Chunki uning ijodida o'zligi ko'ringan, tabiat va hayvonot olamiga muhabbati yorqin aks etgan. Uning asarlari ham sarguzashtlariga o'xshaydi.

«Oqbo'yin» qissasidan olingan parchani uchga bo'lib o'rganishi mumkin. Qissadan ajratib berilgan asarning matni darslikda ham uch qismga bo'lib taqdim etilgan. Birinchi darsda uning dastlabki katta qismi ustida ishlash mumkin. Keyingi darslarda uning qolgan ikki qismi

o'rganiladi. Matn yuzasidan darslikda taqdim etilgan savol-topshiriqlar ham shunday taqsimlanadi. Quyidagi savol-topshiriqlar: «Karim podachi kuchuklar orasidan nima uchun aynan Oqbo'yinni tanlagani va tog'aning ham ayni shu kuchukni boqib olishni tavsiya etgani sabablarini solishtirishga urinib ko'ring». «Oqbo'yinning o'quvchilarcha odatlari uning tabiatidagi qaysi jihatlarni bildiradi?», «Karim podachi qanday odam deb o'ylaysiz?», «Yozuvchining ifodalari, bayoniga qarab itlarni nechog'lik bilishiga baho berishga urinib ko'ring-chi! Uni itlarni yaxshi biladi, deyish mumkinmi? Fikringizni matndan misollar keltirib asoslang» qissaning birinchi bo'limini tahlil qilishga tegishli.

Birinchi darsga rejalashtirilgan qismni o'qish uchun darsning 10–11 daqiqasi sarf bo'ladi. So'ng yuqoridagi savol-topshiriqlar ko'magida asar tahliliga kirishish mumkin. Asar mutolaasi davomida ham, uning tahlili jarayonida ham adibning jonivorlarni tasvirlashdagi mahorati, odam va hayvonning qarama-qarshi qo'yib tasvirlangan o'rinlari, ba'zan insonning jonivorlardan-da tubanroq, ma'nan qashshoqroq ekani tasvirlariga o'quvchining e'tibori tortiladi. Asarning birinchi qismiga tegishli savol-topshiriqlar navbati bilan o'rtaga tashlanib, o'quvchilarning javoblari, munosabatlari tinglanadi. O'quvchilar bir-birlarining fikrlariga munosabat bildirishlari, aytganlarini to'ldirishlari mumkin. Bu jarayonda takrorlarga yo'l qo'ymaslik kerakligiga o'quvchilar ham ko'nikkandir.

Darslikdagi savol-topshiriqlar bilan birga bevosita Oqbo'yinning o'quvchiligi bilan bog'liq jihatlarini kashf etishga undaydigan quyidagi: «Karim podachiga xos sifatlarni uning Oqbo'yin bilan birinchi to'qnashuvi misolida ochishga urinib ko'ring». «Oqbo'yinning aka-ukalariga munosabatini tahlil qiling. Shu jarayonda Oqbo'yinning sifatlarini ajratib olishga urining», «Sodiq akaning tog'asi o'tkazgan sinovni qayta o'qing. Oqbo'yinga bunchalar ishongani sababini izohlashga urining», «Nega Karim podachi ham aynan Oqbo'yinni tanladi? Shu haqda biror narsa ayta olasizmi?», «Karim podachining Oqbo'yin uchun ikki qo'y bermoqchi bo'lganini qanday izohlaysiz?», «Karim podachi Oqbo'yinni shuning uchun buncha yomon ko'rib qoldi deb o'ylash mumkinmi yoki boshqa sabablar bormi?», «Oqbo'yinning Oqto'sh bilan olishuvlari ila sizning aka-ukalaringiz, o'rtoqlaringiz bilan oradagi munosabatingizda o'xshashlik bormi?» singari savol-topshiriqlarini o'rtaga tashlash mumkin. Ularning ko'magida

Oqbo'yinning sifatlari yanada ochiladi. Ayni shu o'rinda odamdan odamning farqini ko'rsatadigan bir ishoraga o'quvchilar e'tibori tortilishi kerak. Sodiq akaning tog'asi ham itlarni yaxshi biladigan sinchi, lekin u Oqbo'yinni o'ziga olishni xayoliga ham keltirmadi. Holbuki, u bir og'iz aytganda kuchukni jiyani berib yuborishi tabiiy edi. Karim podachi esa uni sotib bo'lsa-da, olishga urindi. Nega shundayligi haqida o'quvchilarni o'ylab ko'rishga undash kerak. Bu yerda fikrlarning xilma-xil bo'lishi, ayrimlari kurakda turmaydigan, o'qituvchining xayoliga ham kelmaydigan bo'lishi mumkin.

Navbatdagi darslarda qissaning qolgan qismi o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi. Asarning qolgan qismini o'quvchilarning ko'pchiligi uyda o'qib qo'ysa ham ajabmas. Bu yaxshilikka. Lekin o'qituvchi baribir, matnning qolgan qismini o'qishi maqsadga muvofiqdir. Tahlil uchun sinfdagi o'quvchilarning barchasi asar matni bilan tanishgan bo'lishlari kerak. So'ng yana yuqoridagidek tahlil boshlanadi. E'tibor qilinsa, darslikda ushbu asarni o'rganish uchun savol va topshiriqlar nisbaran kamroq tuzilgan. Buning sababi shundaki, asar g'oyat qiziqarli va oddiy syujetga ega.

Shu bois uni tahlil qilish yuzasidan qo'shimcha savollar tuzish o'qituvchilarga unchalar og'irlik qilmaydi: «Yoldor bo'ri obrazi tasviri haqidagi fikringiz bilan o'rtoqlashing», «Olaparning Oqbo'yin to'g'risida: «Kim biladi, erta-indin...» tarzidagi o'yi ifodasida nima nazarda tutilgan bo'lishi mumkin?», «Oqbo'yinning Olaparga qarab «...ko'ngliga tegmaydigan qilib...» irillaganligini izohlang», «Bo'rilar halokatining asl sababi nima bo'lganligini asar matnidan toping», «Sizga itlar bilan bo'rilar olishuvi lahzasi tasviri ma'qulmi? Fikringizni asoslang», «Karim podachi taqdiri sizda qanday taassurot qoldirdi? Unga achindingizmi? Yo'qmi? Nega?» kabi savol-topshiriqlar matnning mohiyatini ochishga ko'maklashadi.

E'tibor qilinsa, hajman kichikroq bo'lgan bu qismda savol va topshiriqlar miqdori avvalgi bo'limdagiga qaraganda bir qadar ko'proq. Negaki, tasvir nihoyaga yaqinlashgan, badiiy marra ko'rinib qolgan shiddatli onlarda ruhiyat tasviri taranglashadi va qahramonlarning har bir chizgisini kuzatib borish lozim bo'ladi. Shuning uchun ham asarning bu qismi yuzasidan ko'proq didaktik topshiriqlar berish o'rinlidir.

Asar matni bilan tanishish davomida Oqbo'yin va Olaparning bo'rilar bilan olishuvini sabrsizlik bilan kutgan o'quvchi kutish

jarayonining uzunligi bilan bilan bu to'qnashuvning buncha qisqaligidan ko'nglida qoniqmaslikni tuyadi. Bu holatni ifodalashga o'quvchining aqli yetmas. Lekin shu o'rinda o'quvchini yana bir bezovta qilib qo'yish mumkin: «Siz itlar va bo'rilar to'qnashuvi tasviridan qoniqdingizmi?» savoli o'quvchilarni o'ylantirib qo'yadi.

Kimdir javob berar, kimdir berolmas. Asar ustida mana shu ishlashning o'zi, uni tinglash, u haqda o'ylashning ham o'z pedagogik vazifasi bor. Dars jarayonida qilingan bu ishlar o'quvchining ruhiyatida o'z izini qoldiradi. Insonlarga xos turmush tarzining u yoki bu o'rinlarini moslashtirilgan holda itlar hayotiga ko'chirilishi. Oqbo'yin timsolidagi yosh, kuchli, shiddatli, kurashchan o'g'lon tasviri, voqealar bayoni kichik kitobxonlarga yoqishi tayin. Ularning tengdoshi Rasulning Oqbo'yinga munosabati, Oqbo'yin bilan Oqto'shni urushtirganlari ham sinfdagi o'quvchilarning yoshi va ruhiyatiga yaqin.

O'quvchilarda qissani yaxlit o'qish istagi paydo bo'ladi. kuchuk Oqbo'yinning it darajasiga yetguncha boshidan kechirganlarini bilgisi keladi...

Uy vazifasi qilib, o'z itini Oqbo'yin bilan taqqoslab tasvirlashni topshirish mumkin. Avval Oqbo'yinga xos sifatlar ajratib adabiyot daftariga yoziladi. So'ng o'z iti sifatlari bitta-bitta sanaladi. Bu jarayonda Karim podachining, tog'aning nazari, bilimidan foydalanish mumkin.

Bu vazifa o'z holicha asardan olgan taassurotga hyech narsa qo'shmasligi mumkin. Lekin atrofni bilish, o'zi bilan yonma-yon yashayotgan jonivorlar tabiatidagi jihatlardan xabardor bo'lish o'quvchilar shaxsiyati shakllanishi va takomillashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir.

Buning ustiga, o'quvchilarda yozuv madaniyati, o'z fikrini yozma ravishda ifodalay olish ko'nikmalari qaror topadiki, bu ham adabiy ta'lim oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Mustaqil ishlarning kundalik yuritish, maktublar bitish singari turlarining o'ziga xos jihatlarini internet yoki qo'shimcha adabiyotlardan toping. Topgan ma'lumotingizni kursdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.

2. Mustaqil ishlarning har biriga munosib ta'rif toping. Ta'rifning manbasini ko'rsatishni unutmang.

3. Adabiyot darslarida o'quvchilar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq bo'lgan jihatlarni ajrating. Har birini alohida izohlang.

4. Mustaqil ishlarning sinfdagi va sinfdan tashqari turlariga xos bo'lgan xususiyatlarni ajrating va izohlang.

5. Taniqli metodist S. Matjonovning mustaqil ishlarga bahishlangan qarashlarini alohida o'rganib chiqing. Tahlilga torting. Qarashlaringizni asoslang.

6. Mustaqil o'qish va sinfdan tashqari o'qish singari mustaqil ish turlarini farqlang. Xulosalaringizni asoslang.

7. Biror mavzu yuzasidan ilmiy maqola, tezis va ma'ruza matni tayyorlang. Har birining ham shaklan, ham mazmunan o'ziga xos xususiyatlarini ajrating. Asoslang.

8. Bir mavzuda referat tayyorlang. Bunda belgilangan tartib-qoidalarga amal qiling.

9. Mustaqil ishlarning muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun o'quvchilar alohida ahamiyat berishlari kerak bo'lgan jihatlarni adratib yozing. Ularning har biriga munosabat bildiring.

10. Maktab "Adabiyot" darsliklarida taqdim etilgan birorta mavzu mazmuni asosida elektorn ko'rgazmali vositalar tayyorlang. ularni auditoriyada muhokamaga torting. Kamchiliklarini tuzating.

11. N. Norqobilovning "Oqbo'yin" hikoyasi mazmuni yuzasidan taqdim etilgan savol va topshiriqlar ustida ishlang. Ularga javob bering.

12. Hikoyaning filologik tahlilini tayyorlang. Asrning har ikkala tahlilini taqqoslang, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlang.

13. O'z ijodingiz namunalari bilan (ijod bilan shug'ullanadiganlar, albatta) o'rtoqlashing. Ijod namunalarini tahlilga torting. Yaratig'ingiz mustaqil ishlarning qaysi turiga mansub ekanini asoslang.

14. "Derazamdagi manzara" mavzusida esse yozing. Har biringiz o'z mustaqil ishingizni o'rtoqlaringiz muhokamasiga qo'ying.

32-MAVZU. ADABIY TA'LIMDA TASVIRIY SAN'AT NAMUNALARINI O'QISHGA O'RGATISH AMALIYOTI

Reja:

1. Mo'yqalam asarlari va ularning inson ma'naviyati shakllanishidagi o'rni.

2. Tasviriy san'at namunalari va adabiy ta'lim.

3. Badiiy asarlarga ishlangan suratlar va ko'rkam matn mutanosibligi.

4. Adabiyot darslarida badiiy asarlarga ishlangan suratlar bilan ishlash yo'llari.

5. Badiiy asarning didaktik tahlili namunasi.

Maktabdagi barcha o'quv fanlarini o'zlashtirishda, xususan, adabiy ta'limda ham o'z maqsadidan kelib chiqqan holda birinchi sinfdan boshlab tasviriy san'at asarlariga murojaat qilinadi. Chunki O'zR Xalq ta'limi vazirligining 2018–2019 o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasida tasviriy san'at darslariga boshlang'ich ta'limning 1-sinfidan boshlab haftasiga bir soatdan vaqt ajratilgan[1]. Demak, o'quvchilar ta'limning dastlabki sinfidan boshlab o'qish darslari (adabiy ta'lim)da ham mo'yqalam san'ati namunalarini "Tasviriy san'at" darsliklaridan o'rin olgan bilimlar asosida o'rganadilar. Boshlang'ich adabiy ta'lim amaliyotida adabiy-badiiy asarlar qanday o'qib tahlilga tortilsa, mo'yqalam mahsuli bo'lgan suratlarni ham xuddi shunday o'qish va tushunish, tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki badiiy matnda ham, mo'yqalam asarida ham mavzu, syujet, g'oya, badiiy uslub, obrazlar va timsollar bo'lib, har ikki yo'nalishdagi asarlarda ham tasvirlangan voqeaning davri, qahramonlari o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Bunday ta'lim amaliyoti, afsuski, beshinnchi sinfga o'tilganda to'xtaydi. To'g'ri, ta'limning o'rta bosqichida ham tasviriy san'at darslari o'tiladi. Lekin u adabiy ta'lim bilan aloqani uzadi. Gap shundaki, birorta o'qituvchi, yuqori sinflar, xususan, adabiyot mualliflari san'at asarlarining yaratilishi, undagi mavzu, syujet, g'oya, badiiylik haqida jo'yali ma'lumot ega emas. Chunki milliy oliy pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchilarga tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatilmaydi. Dasturlarda ham bunday vazifa va uning talqini o'z asosini topmagan.

To'g'ri, darsliklarda, ya'ni o'rta ta'limning dastlabki bosqichi "Adabiyot" darsliklarida badiiy asarlarga ishlangan (ba'zan rangli, ba'zan oq-qora tasvirda) suratlar taqdim etilgan. Lekin adabiyot darslari amaliyotida ularga umuman e'tibor qilinmaydi. Suratlar tahlilga tortilmaydi. Ular, shunchaki, o'quvchi tasavvurini tiniqlashtirishi mumkin bo'lgan maqsadga xizmat qiladi, xolos. Yuqori sinflar darsliklarida esa bu ham yo'q. Tasviriy san'at namunalaridan nechta darsda, qaysi sinf darsligida taqdim etilganidan qat'i nazar, ularning mohiyatiga kirilmaydi, tahlilga tortilmaydi. Sababi, o'qituvchilar o'zlari bilmagan narsani o'quvchilariga o'rgata olmaydilar.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limi jarayonida har xil syujetli rasmlar mazmuni asosida og'zaki hikoya tuzish, insho yozish bilan bog'liq ishlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish maqsadida tashkil etiladi, albatta. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga oliy maktabda bu haqda tasviriy san'at darslarini tashkil etish maqsadida ma'lum bilimlar, qisqacha bo'lsada, beriladi.

Adabiy ta'limning yuqori bosqichlarida tasviriy san'at namunalari tahlilini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun o'qituvchi asosiy e'tiborni asardagi yetakchi mavzuga, unda aks ettirilgan badiiy g'oyaga, rassomning badiiy uslubiga qaratishi maqsadga muvofiqdir. Ammo adabiy ta'limda tasviriy san'at asarlarini tahlilga tortishda albatta ma'lum bir tizim va tartib bo'lishi kerak. Shunga ko'ra san'at asarlarini tahlil etishda:

1. Asarning muallifi haqida ma'lumot beriladi.
2. Asarning mavzusi uning syujeti, obrazlari va yetakchi qarashlarga qanchalik mos kelishi bo'yicha suhbatlashiladi.
3. Asardagi yetakchi g'oya – rassom o'zi tasvirlagan syujet asosida qanday masalani, muammoni ko'tarib chiqqanligi aniqlanadi.
4. Asar syujeti – bunda tasavvur etilgan obyekt, voqea, undagi narsa-buyumlar, manzara, odamlar, hayvonot dunyosi va bq.lar xaqida to'g'ri, ilmiy ma'lumot beriladi.
5. Asar yaratilishidagi badiiylik, badiiy uslub, ijodkorning san'at bo'yicha ilmi va iste'dodi, malakasi haqida tushuncha beriladi.
6. Asarning yaratilishidagi rassomning tadqiqot-kashfiyotlari,

7. Asar taqdiri – ya'ni asarning bugungi kundagi ahvoli, saqlanayotgan o'rni, uning qaysi ko'rgazmalarda namoyish etilgani va hk.lar haqida ma'lumot beriladi[1].

Adabiyot darslarida bularga qo'shimcha shaklda:

1. Suratni bunyod etishda qanday ranglardan foydalanilgani va ular umumiy mazmunga qanchalik mos tushganiga e'tibor qaratiladi.

2. Suratdagi har bir obraz asarga nima maqsadda kiritilgani va uning umumiy tasvirdagi o'rni va roliga munosabat bildiriladi.

3. Har bir obrazning joylashgan o'rni, tasvirlanishi, holatiga diqqat qilinadi va muhokamaga tortiladi.

4. Tasviriy san'at asarida inson surati aks ettirilgan bo'lsa, uning nigohiga kkatta e'tibor beriladi. Ko'zlarda qanday tuyg'ular aks etgan: shodlikmi, g'ammi, befarqlikmi, baxt yoki baxtsizlik, tushkinlik holati va hk.

5. Inson obrazining qanday tasvirlangani, uning kiyimlari tasviri, turishi holati, qo'lidagi narsalar va ularning tasviri muhokamaga tortiladi.

6 Tasvirdagi har bir detal umumiy ko'rinishda qanchalik ahamiyatga molik ekaniga diqqat qaratiladi va hk.

Adabiyot darslarida tasviriy san'at namunalari tahlili ustida ishlanganda o'qituvchi o'ta diqqatli bo'lishi, undagi birorta ham detal yoki predmetni nazaridan qochirmasligi, bunda adabiy ta'limdagi badiiy asarlar tahlilida birorta so'z yoki iboraning matn mazmunini aniqlash va anglashga o'z ta'sirini qanchalik ko'rsatishi mumkinligi bilan bog'liq qarashlarga tayanish taqozo etiladi. Chunki mo'yqalam asarlari ham badiiy yaratiq va ular ham xuddi ko'rkam matn tahlili bilan bog'liq bilimlar asosida tahlilga tortilishi shart. Aks holda ular tarbiyalanuvchilar ma'naviyatiga hyech narsa bermaydi.

Agar rasmdagi shunday detallarning kamligi yoki ularni tushunish qiyin kechayotgani yoxud nazardan qochirilish holati yuz bersa, tomoshabinni buni payqashga yo'natlirish taqozo etiladi. Lekin dastlabki taassurotlarga tayanib butun suratni baholashda ehtiyot bo'lish lozim. So'ngra uni o'qiyotgan odamning butun diqqat-e'tiborini shu predmetni ko'rishga, uning to'liq xarakteristikasini berishga, uning umumiy tasvirdagi o'rni va ahamiyatiga qaratish kerak bo'ladi. Bunday diqqat-e'tibor badiiy asarlar tahlili jarayonida ham taqozo etiladi.

[1] Qosimov B. O. Tasviriy san'at asari. Darslik-metodika. – T.: Fan va texnologiya, 2011. 127–134-b.

Hamonki rassom predmetni aynan shunday tasvirlabdimi, demak bunga shunday mantiqiy asosi bo'lgan. Suratxon ham vaziyatga rassomning nazari bilan qarashni o'rganishi talab qilinadi. Buning uchun o'qituvchi yana savol va topshiriqlarga murojaat qiladi. Faqat shunday detalni muallimning o'zi ko'ra bilishi va tasvir asosida savol yoki topshiriq tuza bilishi kerak bo'ladi.

Ko'rinadiki, tasviriy san'at namunalarini o'qishda, eng avvalo, undagi hyech bir detalni nazardan qochirmaslik, har birini nomlash va alohida ajratib tahlilga tortish zarur bo'ladi. Shundan so'nggina uni kuzatish, sifatini aniqlash va xarakteristika berish ishlari boshlanadi. Suratdagi detallarni aniqlashda rang, yorug'lik va uning tasvirdagi roliga ham e'tibor beriladi. Ba'zan tasviriy san'at namunalaridagi qahramonlarni asarning yetakchi g'oyasi bilan aloqadorligini belgilashda shuning o'zi, ya'ni ko'zga yaqqol tashlanib turgan detallar yetarli bo'lishi ham mumkin. Ammo, ko'pincha, uchinchi faktorni: qahramonlar va predmetlarning o'zaro qanchalik uyg'unlikda joylashganligi kompozitsiyasini jalb etishga to'g'ri keladi[1].

Tasviriy san'at namunalarining izchil tahlilini amalga oshirish uchun o'qituvchining o'zi rasm ishlash yo'llaridan ma'lum darajada xabardor bo'lishi, mo'yqalam asarlarini yaxshi tushunishi va uni boshqalarga ham tushuntirib bera olishni bilishi taqozo etiladi. Afsuski, maktablarda malakali rassom-pedagoglarning yetishmasligi oqibatida san'at asarlari tahlil etilmay qolib ketyapti. Tahlil etilsa ham noto'g'ri, yoki chala holda amalga oshirilyapti.

Xullas, nafaqat boshlang'ich sinflarda, xatto ta'limning yuqori bosqichida ham san'at asarining tahlil qilib o'rganilmasligi mo'yqalam san'ati namunalarini xalq orasiga olib kirishda qiyinchilik tug'dirmoqda. Badiiy kitoblar-ku bir navi, ammo hozirgacha o'zbek xonadonlarida san'at asarlari juda kam ko'rinadi. Ular san'at asarlarini olmaydilar ham. Buning asosiy sababi millatning bu boradagi bilimsizligi, maktablarda san'at asarlarining yaxshi o'rgatilmasligidir.

Ta'lim-tarbiya amaliyotidan ma'lumki, umumiy o'rta ta'limning tayanch bosqichi boshlang'ich sinflar davri bo'lib, unda o'quvchilar intensiv ravishda shakllanadilar. Bu davrda o'quvchi jismoniy, aqliy, ma'naviy jihatdan g'oyat tez rivojlanadi. Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilar barcha bilimlar zaminini o'zlashtiradilar va hamma fanlar

[1] Ushbu kitob faqat ta'lim

bo'yicha, xususan, badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik haqida ham boshlang'ich ma'lumotga ega bo'ladilar. Ular moddiy olamni ko'rish, kuzatishni, ulardan olgan taassurotlarini tahlil qilishni, xulosalar chiqarish, munosabat bildirishni o'zlashtirib oladilar. Bu ko'nikmalar boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan o'quv fanlari asosida amalga oshiriladi. Bundan anglash mumkinki, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv fanlari zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklangan va bu yoshdagi o'quvchilarning intellektual imkoniyati mazkur «yuk»ni ko'tara oladi. Chunki ularning yoshiga xos bo'lgan hayotni, odam va olam sirlarini bilishga bo'lgan qiziqish, ichki motiv shuni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan tasviriy san'at o'quv fani ham o'quvchilarning ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatida beqiyos ahamiyat kasb etadi. O'qitishning yuqori bosqichiga o'tilganda tasviriy san'at darslarida ham o'quvchilarga tabiat va jamiyat qonunlarini, ularning shakli, tuzilishi, rangi, o'zaro bog'liqligi haqidagi tushunchalar takomillashtirib bliriadi. Bu o'quvchilarda materialistik dunyoqarashni shakllantiradi, rivojlantiradi. Ma'lumki, maktabdagi biror fan tabiat va uning elementlarini o'quvchiga shakli, tuzilishi, rangi va mazmuni jihatidan batafsil o'rgatmaydi. Buni faqat tasviriy san'at o'quv fani amalga oshiradi. Agar uning yoniga adabiyot darslari ham qo'shilsa, shakllanib kelayotgan shaxsning ma'naviy tozarishi va ruhiy sog'lomlashuvi yanada samarali kechishi mumkin. Chunki ta'lim tizimida san'at asarlari: so'z san'ati, musiqa ta'limi va tasviriy sanat mashg'ulotlarining umumiy va yagogna maqsad - shakllanib kelayotgan shaxsning ma'naviy komillik sari yuz burishi maqsadi birlashtirib, uyg'unlashtirib turadi.

Yosh psixologiyasi ilmidan ma'lumki, o'quvchilar 5-6 yoshdan boshlab tasviriy san'atning ma'lum qirralari, uning ta'limiy va tarbiyaviy sir-asrorlarini o'zlashtira boradi. Shu bois o'quvchilarga maktabgacha ta'lim muassasalari mashg'ulotlaridan boshlab boshlang'ich sinflarda ham o'quvchilarga tasviriy san'at darslarida oddiy chiziq nimadan iboratligi va uni qanday chizish kerakligi, shakl nimaligi va uning qanday tasvirlanishi, shaklni naturadan olib, daftar yuzasiga qanday tushirilishi, barg, o'simlik, daraxtlar, qush va hayvonlar, ularning tuzilishi va ranglari haqida, tarbiyalanuvchilarning yoshi va intellektual imkoniyatlariga mos, xos tarzda dastlabki ilmiy ma'lumotlar beriladi. Bu jarayonda tarbiyalanuvchilar predmetlarni har xil rakurslarda

ko'rishni, narsalar shaklidagi o'xshashlik va farqlar, ularning shakllanishi va rivojlanishi, ranglari, ranglardagi o'xshashliklar kabi xususiyatlarini, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishini bilib oladilar. Bu jarayon bosqichma bosqich takomillashib, rivojlanib boradi. O'quvchilarning bu boradagi bilimlaridan adabiy ta'limda ham samarali foydalaniladi. Ya'ni «O'qish kitobi» dasrsiklarida taqdim etilgan rangli suratlar asosida matn yaratiladi, og'zaki insholar tashkil etiladi. Ya'ni san'atning ikki yo'nalishi ta'limi uyg'unlashgan holda olib boriladi.

Boshlang'ich sinflardagi tasviriy san'at dasturi narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, tematik kompozitsiyalar ustida ishlash, badiiy-amaliy san'at, haykaltaroshlik, san'at asarlarini idrok etish kabi turlarini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'limning bu bosqichidagi tasviriy san'at darslarining asosiy vazifasi narsalar rasmini qora va rangli qalamda, bo'yoqda ishlash malakasini oshirishdan iborat bo'ladi. Dasturda rangtasvir, qalamtasvir (grafika), haykaltaroshlik, me'morchilik, amaliy va dizayndan iborat olti yo'nalishda bilim berish va ko'nikmalar shakllantirish ko'zda tutilgan. Bu yo'nalishlarning o'quv-tarbiyaviy vazifalari: san'atshunoslik asoslari (faoliyatidan), tasviriy faoliyat (naturaga qarab rasm chizish va tasavvurlar asosida rasm ishlashdan), kompozitsiya faoliyati (mavzuli va bezakli kompozitsiya)dan iboratdir. Bu vazifalarning bajarilishi rangtasvir, qalamtasvir (grafik), xaykaltaroshlik mashg'ulotlari mazmunida o'z ifodasini topadi.

Bu bosqichda san'at asarlarini o'rganish darslarida rasm chizish asnosida bir necha san'at asarlari o'ziga xos talabda tahlil qilinadi. Sinflar yuqoritab borgani sari san'atda rang, rang turlari, sovuq va issiq tanglar va san'atda turmush voqealarining tasvirlanishi singari bir qator mavzular o'rganiladi. Bu mashg'ulotlarda o'qituvchi o'quvchilarning yoshi, bilimi, saviyasiga mos keladigan san'at asarlarini tanlaydi. Unda atoqli rassomlarning manzara, portret, turmush janrida yaratilgan asarlari tahlil qilinadi. Tasviriy san'at namunalarini o'qish jarayonida tabiatda rang, ularning turlanishi, mizoji, san'at asarlari yaratilishida tutgan o'rni, shuningdek san'at asarlarining janrlarga, turlarga bo'linishi va turmush janrida yaratilgan asarlarning tuzilishi, unda ranglarning ishlatilishi va hk.lar haqida ma'lumotlar beriladi.

Adabiy ta'limning dastlabki bosqichini maqsadga muvofiq tshkil etishda o'quvchilarning tasviriy san'at darslarida olgan mana shu bilimlariga tayanilishi maqsadga muvofiq bo'lardi, albatta. Lekin

o'qish darslarida darslikda taqdim etilgan suratlar ustida ishlashda bu bosqichda ham mukammal ish olib borilmaydi. O'rta bosqichga o'tilganda esa o'quvchida bu borada shakllantirilgan bilimlar tarbiyasiz qolib, unutilishga mahkum bo'ladi. Adabiyot darslarida yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar ko'magida o'quvchilarni suratlarning mazmuni, undagi obrazlar, detallar asosida mustaqil mulohaza yuritishga, san'at asarlarining mohiyatiga kirishga, tasvirlangan qahramon xarakter-xususiyatlarini kashf etishga yo'naltirish ularning og'zaki nutqini rivojlantirish bilan birga ma'lum darajada ham aqlan, ham ruhan zo'riqtiradigan jarayondir. Bu o'z-o'zidan, o'qituvchidan ham, o'quvchilardan ham ma'lum tayyorgarlikni talab qiladi. Buning uchun o'quvchilarda yetarli darajada so'z zahirasini ta'minlash, tasviriy san'at bilan bog'liq bilimlarga ega bo'lish, suratlarni o'qish ko'nikmasining dastlabki belgilari shakllangan bo'lishi, mustaqil mulohaza yuritish va fikrlarini mantiqiy bog'lay olish hamda izchillikda bayon etish ko'nikmalari shakllangan bo'lishi taqozo etiladi.

Rangli suratlarni o'qish uchun esa o'quvchilarning ranglar va ularning vazifalari, ranglarning yaratilishi haqida mavjud bilimlariga tayanish taqozo etiladi. O'quvchi rasm ustida mulohaza yuritar ekan, unda aks ettirilgan lahzani tasvirda qanday ifodalangan bo'lsa, shundayligicha qabul qiladi va ko'rganlarini so'z bilan bayon etadi. Bu o'quvchining rasm asosidagi hikoyasini ma'lum darajada chegaralaydi. O'quvchilar tasvir bayonida makon, zamon va vaqt birligiga aniqlik kiritadilar va bu, ayni zamonda, ularning mustaqil fikrlash, qarashlarini asoslash jarayonini yengillashtiradi. Adabiy ta'limning o'rta bosqichi dastlabki sinflarida o'quvchilar tomonidan rasmlar asosida tuziladigan kichik-kichik hikoyalarda holat chegarasining buzilmasligi o'quvchi tafakkurida mazkur lahza qay tarzda namoyon bo'layotganini aniq ko'rsatib, uning shaxsiy olami, ma'naviy qiyofasini ochib beradi. Rasmlar asosida kichik hikoyalar yaratish yoki biror badiiy matnga ishlangan suratlar ustida ishlab uni o'qish jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlashi va tasavvur ko'nikmalarini shakllantirish, uni rivojlantirish ishlari quyidagi uch bosqichda amalga oshirilishi mumkin:

1) tasvirlangan holatga qadar bo'lib o'tgan voqea-hodisalar haqida bildirilgan mantiqiy fikrlar va mulohazalar;

2) rasmda aks etib turgan holat va unga munosabat;

3) tasvirning davomi haqida o'quvchilarning tasavvuri va mustaqil bayoni.

Bu o'quvchilarning mushohada doirasi va dunyoqarashini, tasvvurini kengaytiradi.

Adabiyot darslarida umuman suratlar, xususan, badiiy asarlarga ishlangan rasmlar ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1) rasmlarni ular haqidagi suhbatlar asosida tomosha qilish;

2) suratlar materiallari asosida o'quvchilarni kichik-kichik hikoyalar yaratishga undash;

3) badiiy asar mazmuni asosida yaratilgan suratlarni o'qish;

4) badiiy matndagi tasvir ifodasi bilan suratdagi tasvirni taqqoslash;

5) har ikkala san'at asaridagi mutanosiblikni aniqlash;

6) ikkala san'at asarini baholash.

Bu ish turlarining birinchisida o'quvchilarning dialogik nutqi ortsa, ikkinchisida ularning monologik nutqi takomillashadi. Uchinchisida badiiy matnda o'qiganlari manzara shaklida ko'z olida paydo bo'ladi, tasavvuri tiniqlashadi. To'rtinchi ish turida o'quvchining taqqoslash-qiyoslash ko'nikmasi rivojlanadi. Beshinchisida mustaqil tafakkuri, ijodiy-krevativ imkoniyatlari kengayadi, nazari ziyraklashadi. Oxirgisida esa bori bilimlari, ko'rib turganlari va tasavvur qilganlari asosida adolatli va asosli baholash ko'nikmasi shakllana boradi. O'quvchilar o'qituvchi yo'naltirishi asnosida amalga oshiradigan bunday izchillikdagi faoliyati ulardan mustaqil tafakkur va faoliyatdagi erkinlikni ham taqozo qiladi.

Maktab yoshida o'quvchilar (ayniqsa, dastlabki bosqichda) suratlarni tomosha qilishni xush ko'radilar va ular haqida jonli hamda qiziqarli hikoya qiladilar. Faqat ta'lim tizimi o'quvchilarga xos bo'lgan bu tabiiy xususiyatdan ularning o'zlari uchun oqilona foydalana bilishi kerak. Bu borada o'quvchilarning suratda ko'rganlarini, tasavvurlarini boshqalar bilan bo'lishishga o'rgatish kerak bo'ladi. Shunday vaziyatlarda o'quvchilar suratlarga nisbatan betakror qiziqishlarini namoyish etadilar. Suratlar ularga ko'rganlari yoki o'zlari bevosita ishtirok etgan voqea-hodisalarni eslatadi, tasavvurlarini muvozanatdan chiqaradi. O'qituvchining bu qiziqishlardan ularni kuzatishga o'rgatishda, mustaqil mulohaza yuritishda, fikrlarini so'z bilan ifodalashga yo'naltirishda, nazarlarini ziyraklashtirish va diqqatlarini

biror detalga qaratishda oqilona foydalanishi adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarning rasm asosidagi hikoyalarida fikr ifodalashning izchilligi, fikrlar, xulosalarning aniqligi va mukammalligi tom ma'noda o'quvchining suratni qanchalik to'g'ri qabul qilganiga, uning mazmunini nechog'li chuqur anglaganiga, surat mazmuni va undagi timsollar hamda detallarning qanchalik aniq, emotsional his qilganiga bog'liqdir.

Rasmlar ustida ishlaganda o'quvchilarni:

- uning haqiqiy tasviriy san'at namunasi ekanligi darajasiga;
- dastlabki suhbat namunasini tashkil eta olishga;
- rasmda tasvirlangan hayot lavhasi bilan real hayot o'rtasidagi mutanosiblikni hisobga olishga;
- asar qahramonlarining ruhiy holatiga, ko'zlarida, turish-turmishida ifodalangan ma'noga e'tibor qilishga;
- ranglar tasnifiga;
- ranglarning ramziy ifodalariga diqqat qaratishga;
- tasvirdagi holatni tayanch nuqta hisoblab oldingi holat bilan keyingi harakatlar rejasini tuzishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiy ta'limni, badiiy asarlarni o'qish va ularda ilgari surilgan hayotiy hamda badiiy haqiqatlarni tom ma'noda anglashni samarali tashkil etish maqsadida o'quvchilarni tasviriy san'at namunalari bilan ishlashga yo'naltirishda quyidagilar nazarda tutiladi:

- o'quvchilarning tasviriy san'at namunalari bilan ishlashdagi savodxonligini oshirish;
- tasvirda aks ettirilgan mavzuni tahlil qilish va uni mustahkamlash;
- ko'rganlari asosida og'zaki matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish;
- mustaqil mushohada yuritish ko'nikmasini shakllantirish;
- rasmning janri, mazmuni haqida tasavvurga ega bo'lish;
- musavvir yoki fotograf maqsadini aniqlash;
- asarga shaxsiy munosabatini bildirish va hk.

Adabiy ta'limni uning bosh maqsadiga muvofiq tashkil etishda o'quvchilarni tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatish ishlari shu asosda tashkil etilsa, tarbiyalanuvchilarni keng ko'lamda mulohaza yuritishga o'rgatish, rasmdagi har bir detalning o'rni va ahamiyatini

kashf etish, suratdagi muhim va ikkinchi darajali detallarni ajratish va ularning umumiy tasvirdagi o'rni va rolini belgilash imkoniyatlarini orttirish mumkin bo'ladi. Suratlar o'quvchilarning nafaqat og'zaki va yozma nutqini, balki mustaqil tafakkurini rivojlantirish, tasavvurini tiniqlashtirish, dunyoqarashini kengaytirish, saviyasini ko'tarish, balki ularning estetik didini shakllantirish, ijodkorligini orttirish va nazarlarini ziyraklashtirishga ham yo'naltiradi.

Adabiy ta'lim amaliyotida o'quvchilarni tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatishda suratlardan foydalanish namunasini ayrim asarlar misolida quyidagicha amalga oshirish mumkin. Masalan, o'quvchilarni tabiat tasviri aks etgan suratlar ustida ishlashga, masalan, «**Yakka tut**» surati tahliliga ham yo'naltirish (bu surat ustida ishlashni o'quvchilarining bilim va tajribasidan kelib chiqib qaysi sinfda foylalanishni o'qituvchining o'zi belgilaydi) mumkin[1]. «Yakka tut» surati tasvirini o'quvchilarning muhokamasiga qo'yishdan avval u ajratib olinadi va ekranda namoyish etiladi. O'qituvchi va o'quvchilarning birinchi ishi suratni yaxshilab kuzatishdan iborat bo'ladi. So'ng o'qituvchi tarbiyalanuvchilariga savollar bilan murojaat qiladi: «Yaxshilab qarangchi, suratda qaysi fasl aks etgan? Buni siz nimalardan payqadingiz? Atrofda o't-o'lanlar bormi? Ular qanday rangda? Ular nima uchun shunday rangda? Atrofdagi butalar qanday buta bo'lishi mumkin? O'rtadagi katta daraxt, sizningcha nima? Uning tanasi qanday? Nega daraxtning barglari yo'q? Daraxt tanasining turishidan uning qanday daraxt ekanini aytib bera olasizmi? Osmonga diqqat qiling: uning rangi qanday? Nima deb o'ylaysiz, nega osmonda qushlar yo'q? Uzoq-uzoqlarda nimalarni ko'ryapsiz? Ufqning rangi qanday?» va hk. O'quvchilar bu savollarga ko'rib turganlari tasvirga tayangan holda o'z nuqtai nazarlaridan kelib chiqib javob beradilar. Muhimi, o'qituvchi suratdagi xech bir detalni nazaridan chetda qoldirmasligi, ularning suratdagi vazifasiga o'quvchilarning diqqatini qaratishi joiz. Surat ustida ishlashning ikkinchi bosqichida: «O'z ruhiyatingizga bir nazar tashlang: bu manzara sizda qanday taassurotlarni uyg'otdi? Ko'nglingizdan kechgan hislarni nomlashga urinib ko'ring. Bunday hislar paydo bo'lishi sabablari nimada deb o'ylaysiz? Surat sizning kayfiyatingizga qanday ta'sir ko'rsatdi? O'zingizning ruhiy holatingizdan kelib chiqib javob bering. Siz suratga

[1] https://kun.uz/news/2017/12/15/6tasvirchilar-polotnolarga-chizilgan-asarlar-kimlar

yana nimalar tasvirini kiritgan bo'lardingiz? Nima uchun bu obrazni kiritishni istadingiz? Uni qaerga joylashtirish mumkin va nima uchun aynan shu yerga? Siz suratni o'zgartirish uchun unga qanday rang bergan bo'lardingiz? Nima uchun? fikringizni asoslang» va hk.

So'ngra, istalgan o'quvchilardan surat asosida hikoya tuzishni so'rash mumkin. O'quvchilar hozirgi dialog asnosida suratni «o'qiydi»lar va hikoya tuzadilar. Bu o'quvchilarni tasviriy san'at namunalarini o'qishga yo'naltirishning dastlabki bosqichi bo'ladi. Tasviriy san'at namunalari ustida ishlashni shu tariqa tashkil etish va sinflar yuqorilab borgani sari suratlar mazmunining murakkablashgan shakllaridan foydalanish adabiy ta'limning maqadiga muvofiq bo'ladi.

Adabiy ta'limni uning maqsadiga muvofiq tarzda tashkil etishda mazkur surat bilan ishlashning ikkinchi varianti o'quvchilarni bevosita ko'rib turganlari asosida kichik hikoya tuzishga yo'naltirishdir. Bunda o'quvchilar tasvirda aks etib turgan holatni o'z nigohlari, tasavvurlari asosida o'z so'zlari bilan og'zaki hikoya qilib beradilar. Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning diqqatini xar bir detalga yo'naltirib turishdan iborat bo'ladi.

Lekin o'quvchilarni bunday hikoya tuzishga yo'naltirishdan oldin o'qituvchi ularga biror boshqa rasm asosida o'zi hikoya tuzib, namuna sifatida ko'rsatib bershi kerak bo'ladi.

Adabiy ta'lim amaliyotida suratlar ustida shlashning yozma shaklidan ham foydalanish masadga muvofiq bo'ladi. Masalan, Ch. Aytmatovning «Oq kema» asariga ishlangan suratlarni olaylik[1]. Yoki A. P. Chexov bitiklariga ishlangan suratlardan foydalanish mumkin[2]. Internet orqali tarixiy yoki Alisher Navoiy asarlariga ishlangan surat (miniatyura)lar ustida ishlanmoqchi bo'linsa, Chingiz Axmarov asarlaridan birini tanlab olib uning ustida ishlash mumkin[3]

Timsollar, portretlar borasida Akmal Nur, Gulnora Rahmonova asarlariga, tabiat manzaralari borasida O'rol Tansiqboev bitiklaridan birini ajratib olib ishlash mumkin. Xuddi shu suratlarning biri asosida o'quvchilarni tasviriy insho yozishga yo'naltirish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

1 https://www.pinterest.com/pin/623909909460253456/
2 http://www.1273.ru/soft/anekdot/chehov/
3 "Google"га кириб Ч. Ахмаров ёки Акмал Нур ёки Ўрол Тансиқбоев асарларига доир тасвирларни топиш мумкин.

Bu ish turi yuqori sinflarda ham amalga oshirilishi mumkin. Faqat bu bosqichda suratlar mazmunan murakkablashib boradi. Dunyo miqyosidagi katta muzeylardan joy olgan dunyoviy rassomlarning asarlarini muhoqamaga tortish mumkin. Ularni o'qish borasida ham internetdan istagancha material topish mumkin. Faqat buning uchun, o'qituvchi hyech bo'lmaganda, rus tilidan yaxshigina xabardor bo'lishi taqozo etiladi. O'zbek tilida, afsuski hozircha interentdan bunday ma'lumotlarni topish qiyin. Bunday insholarni tashkil etishning amaliy tavsiyalari haqida keyingi fasllardan birida so'z yuritiladi.

Bundan tashqari, o'quvchilarni badiiy asarlar ustida mustaqil ishlashga yo'naltirish ishlarini o'quvchilarning yoshidan kelib chiqqan holda multfilm (kattalar uchun yaratilgan multfilmlar ham bor)lar, o'quvchilarning yoshiga mos (yoki badiiy asarlar mazmuni asosida yaratilgan) badiiy filmlar, tabiat qo'yniga, tarixiy obidalar, uy-muzeylarga sayohatlar, rassomlarning asarlari ko'rgazmalari, ta'lim muassasalarida uyushtiriladigan har xil bayramlar, o'quvchilarning tug'ilgan kunlarini tashkil etish ishlari misolida ham amalga oshirish mumkin. Bu borada o'qituvchining bilimdonligi, tajribasi, xullas, kasbiy kompetentliligi katta ahamiyat kasb etadi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

To'ra Sulaymon she'rlarini o'rganish

Ma'lumki, maktab davrining har bir bosqichi sifat jihatidan o'ziga xos tizimga ega va ularning biridan ikkinchisiga o'tish natijasida yangi bir sifat o'zgarishi yuz beradi. Lekin ta'lim va tarbiya jarayonini o'quvchilar tabiiy taraqqiyoti xususiyatlari hamda ularda yuz beradigan shunday sifat o'zgarishlariga hamohang muvofiqlashtirish ko'ngildagidek kechmayapti. Masalan, 8–9-sinf o'quvchilarida ushbu yoshdagilarga xos bo'lgan kelajakka intilish, odamlar bilan qiziqish, atrof-muhitga tanqidiy nazar bilan qarash, nasihatlarni xushlamaslik, kattalarning mehribonligidan g'ashlanish, ularning ehtiyotkorligidan malollanish singari sifatlar ustuvorlik qiladi. Maktab ta'lim jarayonida bunday o'zgachaliklarni to'liq hisobga olishning imkoni yo'qligi, tabiiy taraqqiyot bilan ta'limiy-tarbiyaviy jarayon orasida hamohanglikning yetishmasligi o'quvchi shaxsi taraqqiyotida sustlikka sabab bo'lmoqda.

O'n to'rt-o'n besh yoshli o'smirda emotsional ta'sirchanlik kuchli bo'ladi. U o'zida e'tiboru e'tirofga, hayotdan zavqlanishga moyillik sezadi. Bu yoshdagilarga atrofdagilarni tahlil qilib, ularning yutuq va kamchiliklariga baho berish yoqadi. Shu bilan u o'z shaxsini anglashga yuz tutadi. Ushbu yoshda har tomonlama aqliy o'sish uchun katta imkoniyat mavjud bo'ladi. Inson taraqqiyotidagi har bir bosqichining o'z tarbiya yo'nalishi mavjud. Maktab amaliyoti yosh avlodni ma'naviy kamolot sari yetaklashda shu imkoniyatni qo'ldan berib qo'yyaptiki, bunday imkoniyat o'quvchi umrida boshqa takrorlanmaydi.

Mustaqillik davri maktab adabiy ta'limida o'quvchi shaxsining har bosqichdagi ruhiy-jismoniy va intellektual xususiyatlari inobatga olingan holda uni mustaqil fikrlashga yo'naltirish, ta'lim-tarbiya kechimida uning individual xususiyatlarini hisobga olish, ma'naviyatini sog'lomlashtirishga ustuvor e'tibor qaratish, shakllanish jarayonida o'quvchining o'zi ishtirok qilishiga erishish, unga badiiy lazzat, estetik kashf etish lazzatini tuydirish, ta'lim-tarbiya kechimida pedagogik hamkorlik bo'lishini ta'minlash singari tamoyillarga amal qilish talab etilmoqda. Bu hol adabiyot o'qitishda asar qahramonlariga ijobiy yoki salbiy obraz deb emas, tirik inson deb qarash, adib shaxsiga xos jihatlarning u yozgan asarlarda aks etishini hisobga olish, adabiy timsollarning kechinma va xatti-harakatlari tahlili orqali ularning shaxsini baholashga o'rgatish, ya'ni o'quvchilarda shaxsga aksiologik (qadriyat sifatida) yondashuvni shakllantirish vazifalari bajarilishi taqozo etilyapti.

O'qituvchiga adabiyot darslaridagi tarbiyachilik faoliyatida maksimal samaradorlikka erishishga metodik ko'mak berish maqsadida 8-sinfda[1] To'ra Sulaymon ijodi namunalarini o'rganish yo'llari tadqiq etiladi. Darslikka shoirning to'rtta she'ri kiritilgan bo'lib, ularni o'rganish uchun dasturda ikki soat ajratilgan. She'rlarni ikki soatga ikkitadan taqsimlash mumkin. She'rlarning dasturiy talqini quyidagicha: *"To'ra Sulaymon she'rlarining xalqchilligi. «Iltijo» she'rida hayotga, tiriklikka bo'lgan muhabbat tasviri. Bahor obrazi tasviridagi tuyg'ular rang-barangligi. «Armon» she'ri shoirning hayotiy pozitsiyasi, e'tiqodlari mujassam bo'lgan asar sifatida. «Tavallo» she'rida onalarga xos bo'lgan ajoyib fazilatlarning tarannum etilishi. «Gul bir yon, chaman bir yon» she'rining*

[1] Qarang: Adabiyot. 8-sinf uchun darslik-majmua. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 258-268-b.

ohangdorligi, unda lirik qahramon tuyg'ularining samimiy ifodalanishi"[1].

Shoiming birinchi darsga rejalashtirilgan "Iltijo" she'ri taniqli qo'shiqchi Sherali Jo'raev tomonidan juda ta'sirli qilib kuyga solib, ijro etilgan[2]. Agar o'qituvchi she'rni darsga qo'shiq shaklida olib kira bilsa, maqsadga erishish yo'li yanada ravonlashadi. Agar buning iloji topilmasa, she'rni o'qituvchining o'zi ta'sirli qilib o'qib berishi lozim. O'qituvchi T. Sulaymonning to'rttala she'rini ham yod bilishi shart. Darsda imkon qadar ularni yoddan, ta'sirli, ifodali o'qishga harakat qilish kerak.

Ma'lumki, har bir asarning emotsional ta'sir qudrati badiiy tahlilga tortilganda yuzaga chiqadi. She'r o'qilganidan so'ng, tahlilga kirishishdan oldin asar sarlavhasiga o'quvchilar diqqati qaratilishi lozim: "Iltijo" so'zining lug'aviy ma'nosini bilasizmi? Shu ma'no she'rning qaysi misralarida yaqqol aks etgan? Shoir iltijosining ta'sir kuchi nimada?" singari savollar o'quvchilarning diqqatini she'r matniga qaratadi. O'quvchilar bu savollarga osongina javob topadilar. Ularning javoblarida tuyg'ulari sezilmas ham. So'ng she'r matni yuzasidan quyida taqdim etilgan savol-topshiriqlar ko'magida uning bandma-band tahliliga o'tiladi. She'rning birinchi bandi yuzasidan taqdim etilgan: "She'rdagi *"Qirlarda lola sayli, qishlovlarda yilboshi"* satrining mazmunini izohlang. "Yilboshi" nima?" savoliga qishloqda istiqomat qiladigan o'quvchilar bemalol javob bera olishlari, bunga misollar ham keltirishlari tabiiy. Shaharda tug'ilib-o'sganlar biroz qiynalishlari mumkin. Bunday vaziyatda, odatda, javobni o'qituvchining o'zi aytib qo'yaqoladi. Lekin bunday yondashuv o'quvchining she'r mohiyatini anglashiga yordam bermaydi. Negaki, izlanish natijasi bo'lmagan bilim tez unutiladi.

Agar o'qituvchi javobni aytib qo'yaqolmay, javob topib kelishni vazifa qilib topshirsa, lozim bo'lsa kattalar bilan maslahatlashish kerakligini aytsa, o'quvchilarni bezovta qilgan, izlanishga undagan bo'ladi. Shuningdek, qiziqib, izlab topilgan javob o'quvchining yodida qoladi. "Yilboshi" – "Navro'z" so'zining turkiyda aytilishi. "Yilboshi" atamasi va uning "qishlovlar"ga bog'liq jihatlarini kitob titib, qomus varaqlab, kattalardan so'rab bilib olgan o'quvchi shaxsi o'sish bosqichiga kirgan bo'ladi.

[2] Qarang: Jasorat. Adabiyot. 8-sinf. – T.: RTM, 2017.
[3] https://www.youtube.com/watch?v=0ddIaIMEyq0

So'ng o'qituvchi ko'klam kelganda tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning she'rdagi ifodasiga o'quvchilar diqqatini tortadi. Ular bahor haqida ko'p she'rlar eshitishgan, o'qishgan, hatto yod olishgan. Ko'klam haqidagi har bir she'rning, tabiiyki, o'z ifoda uslubi, o'ziga xos ohangi bor. "T. Sulaymonning uslubidagi ta'sir qudrati nimada? She'r birinchi bandning o'ziyoq odam ruhiyatida qandaydir qo'zg'olish, tebranish paydo qiladi. Bu nimadan? Nega shunday bo'lyapti?" O'qituvchi o'quvchilarga she'rning ikkinchi bandini qayta o'qib berib, yuqoridagi savollarni o'rtaga tashlab, tarbiyalanuvchilaridan fikr olishi lozim.

"O'lmaslikka ishora – o'langa oshiqligim" tarzidagi xulosani tushuntirib bering. "O'langa oshiqlik bilan o'lmaslik o'rtasida qandaydir bog'liqlik bor deb o'ylaysizmi?" savoliga o'quvchilar javob berishganda, o'qituvchi misradagi "oshiqlik" va "ishora" so'zlarining mohiyatini anglash va ular orasidagi mantiqiy bog'lanishga o'quvchilar diqqatini tortishi lozim. Savollar yordamida o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, mulohaza qilishga undaydi. O'quvchilar o'z qarashlarini, albatta, she'rdan misralar keltirib ifodalashadi. She'rdagi: *"Bukan qay bir yerda qish, qayda xazonrezgilik, Qaylarda yoz, qayda kuz, qayda jondan bezgilik"* misralari faqat tabiat holatlariga daxldormi?" singari savollar o'quvchilarning fikrini hayotga, uning shodliklariyu tashvishlarini bir lahza xayolidan o'tkazishga undaydi. O'quvchilar bu o'rinda o'zlarining geografik bilimlariga tayanganlari tuzuk bo'ladi. Xo'sh, dunyoning qaysi mulkida ayni zamonda qishu *"qayda xazonrezgilik?"* Qaysi yurtlarda bahor? O'quvchilar bu borada shoir haqiqatini isbotlashlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Arktika, Ekvator mamlakatlari tabiati esga olinadi. Dunyoning "jondan bezgilik" og'riqli nuqtalari borasdagi bilgan (Afrika xalqlari turmush tarzi, urushlarni boshdan kechirayotgan davlatlar, masalan, Afg'oniston va hk.)larini yodga tushiradi.

Shu banddagi: *"Ko'klamning har nafasi umrga arzigulik"* ifodasini tushuntirishga urinib ko'ring. Nega shunday?" savoli o'quvchilarni jiddiy o'yga toldiradi. Savolga berilgan javoblarda o'quvchilarning bilim darajasi, mulohazalarining mantiq kuchi namoyon bo'ladi. O'quvchilar, ayniqsa, o'zini kuzatib yuradigan o'quvchilar, ko'klam kezlarida, tabiat go'zalligi tufayli odam ruhiyatida kechgan tuyg'ular go'zal bo'lishi shoir iste'dodi esa, uning ifodasini yanada so'limroq shaklda berishini anglatadilar. Shu tariqa, tabiiy go'zallikdan olingan

bahralar, tuyilgan lazzatlar inson uchun qanchalar ahamiyatli ekani haqida mulohaza yuritadilar.

O'quvchilar she'rning har bandi oxirida takrorlanib kelayotgan naqoratning bu bandda o'zgargani sababi haqida mulohaza yuritishlari maqsadga muvofiq bo'ladi: "Bu tasodifmi yoki shoirning ixtirosimi? Yoki boshqa bir sabab bormi?" Bu haqda o'ylagan o'quvchilar o'z o'rnida ishlatilgan so'zning ta'sir kuchini tuyadilar. Ijodkorlarning "So'z ustasi" deb atalishi sababini his qiladilar. Navoiy bobonning so'z xususida aytganlarini ko'ngillaridan o'tkazib, bu haqiqatlarga imon keltiradilar. Sinfdagi hamma o'quvchilar shunday holatga tushadi, deb bo'lmas, albatta. Lekin shunday o'quvchilarning borligi adabiy ta'lim samaradorligi belgisi va ularning sonini ko'paytirish o'qituvchining professional burchidir.

Bir bandning o'ziga bag'ishlangan quyidagi uchta savol va topshiriq: "She'rning to'rtinchi bandini qayta o'qing. Undagi anduh va shikastalik sabablarini izohlang", *"Maysadagi shudringlar kimlarning ko'z yoshlari?"* ifodasiga munosabat bildiring. Shudring bilan ko'z yoshi o'rtasida qanday aloqa bor deb o'ylaysiz?", *"Bu yerda yotar otam ham uzangidoshlari. Har bahor eslar uni qavm-qarindoshlari"* misralarining hayotiy mazmunini tushuntiring. Shoirning otasi va do'stlari qaerda yotibdi deb o'ylaysiz? "Uzangidosh" so'zini qanday tushundingiz?" kabi o'quvchilar ruhiyatida bir oz tushkunlik kayfiyatini paydo qiladigan savollar o'quvchilar tafakkur darajalarini yuksaltirib, tuyg'ular ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi. Chunki ularda shodlik va qayg'u, topish va yo'qotish tuyg'ulari yonma-yon ekani aks etgan. Shu o'rinda to'rt misraga shuncha katta fikrlarni, hayotiy haqiqatlarni joylay bilgan shoir mahoratiga ham o'quvchilarning diqqati qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

She'r tahlili yuzasidan berilgan: *"Yoz bo'yi qorga zorman, qishda bahorga zorman"* misrasi sizga nimani anglatadi? Odamzot tabiatining o'zgaruvchan va beqarorligi haqida o'ylab ko'ring" topshirig'i o'quvchilarni odamning ruhiy holati fasllar bilan bevosita bog'liqligi haqida mustaqil mulohaza yuritishga undaydi. o'zligini taftish qilishga yo'naltiradi. O'zgalar orqali O'zni unglash, o'zni anglash bilan Allohni tanish boshlanadi. Shu tariqa kamolot sari yuz tutiladi.

Birinchi darsda o'rganilishi kerak bo'lgan "Armon" she'rida shoir ko'nglida armonlar paydo qilayotgan hayotiy haqiqatlar ifodalangan. She'rdagi birorta ham detal o'quvchilar nazaridan chetda qolmasligi

kerak. O'qituvchining vazifasi shunday tasvirlar yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlarni navbati bilan o'rtaga tashlab, o'quvchilarni ularga javob berishga yo'naltirishdan iborat. Savol-topshiriqlarga javob berish jarayonida o'quvchi she'rning mohiyatiga kirib boradilar. She'rda ifoda etilgan fikr, hissiyot va tuyg'uni his etadilar. O'qituvchi o'quvchilar his qilishi kerak bo'lgan tuyg'ular, tahlil jarayonida o'zlashtirishlari kerak bo'lgan bilimlarni tayyor holda bermay, uning o'zini ishlatishi maqsadga muvofiqdir. O'quvchi o'ziga singdirilishi zarur bo'lgan tuyg'ular va bilimni asarlarning didaktik tahlili asnosida mustaqil fikrlab, mehnat qilib, mustaqil ravishda izlanib, kashf qilib boradi.

Savol-topshiriqlar ko'magida asar didaktik tahlilga tortilar ekan, qo'shimcha savollar bilan o'quvchilar she'rda ifodalanayotgan hayotiy haqiqat, ularning shoir ko'nglida armon, o'kinch hissini paydo qilishi sabablari haqida mulohaza yuritadilar. Bu o'quvchilarga o'z ko'ngillari va ruhiyatiga nazar tashlash imkonini beradi. Shoir ko'nglida armon hissini uyg'otgan hayotiy haqiqatlarga nisbatan ularning ko'nglida nima bor ekan? Ularning qay biri o'quvchilar ko'nglida ham armon uyg'otdiykin? Qay biriga uning qalbi bezovta bo'lmadi ekan? Nega? Shunday savollarga javob izlash o'quvchilarning o'zlarini kuzatib, o'zligini anglashlariga ko'maklashadi.

To'ra Sulaymon ijodidan berilgan namunalarni o'rganishga rejalashtirilgan ikkinchi darsda oldin shoirning "Tavallo" she'ri o'rganiladi. O'qituvchi bu she'rni o'qishga tayyorgarlik jarayonida asarning ruhini aniqlab olishi kerak. She'riy so'z o'quvchi uning ruhiga kira olgandagina o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yana shuni ham aytish kerakki, she'rning har bir bandi oxiridagi ikki misra o'ziga hos o'ta nozik, sezilar-sezilmas inja ohangda o'qilishni talab qiladi. Balki she'r ta'sir kuchining to'qson foizi shu misralarga berkitilgandir!? Bu misralarning ta'sir kuchi ham ularning nechog'li haqligi bilan bog'liqdir!? "Tavallo" ruhiga kira olgan o'qituvchining qiroati jarayonida ba'zi o'rinlarda ovoziga titroq kirishi, ayrim joylarida tomog'iga yig'i tiqilib qolishi tabiiy. Mana shu tabiiy va chin holatni o'qituvchi bekitib, sun'iylashtirmasligi lozim. Mana shu chinlik o'quvchilar ko'nglini rom qiladi.

Ma'lumki, adabiyot darslari – ko'ngil darslari. Adabiyot saboqlari

chiqib ketolmaydi. O'qituvchi bunday vaziyatda o'quvchilarga tegmay, qandaydir soniyalar davomida o'z-o'zi bilan qolishlariga imkon bergani ma'qul. O'quvchilar she'r ta'siridan qutulib, sinfda bezovtalik paydo bo'lgandagina tahlilga o'tilgani ma'qul.

O'quvchilar: "She'rning birinchi bandida lirik qahramon holati qanday tasvir etilgan deb o'ylaysiz? "*Ham egilib, bu egilmas bosh*" misrasi orqali qanday holat berilayotganligini aniqlang" topshirig'iga javob berishda bilib-bilmay shoirning yorqin shaxsiyatiga ham daxl qilganlari tuzuk. Negaki, millatning ulug' vakillari o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy kamolotiga nafaqat ijodi, balki o'sha ijod namunalarida aks etgan shaxsiyatiga xos ezgu sifatlari bilan ham o'ziga xos hissa qo'shadilar. Faqat adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarini bunday o'rinlarni ilg'ashga yo'naltira bilishi kerak bo'ladi.

"She'rning ikkinchi bandidagi. "*Qaytar bo'lsam quruq qo'l ovdan*" misrasi orqali shoir nimani nazarda tutayotganini tushuntiring", "*Ortda tursam qalbi quroqdin, Qadrim xarob bo'lsa tuproqdin*" misralarida ifodalangan holat avvalgi bandlardagi tushkun vaziyatlardan og'irroqmi yoki yengilroq? "*Qalbi quroq*" tashbehining ma'nosini tushuntiring". "Og'a-inilar o'rtasidagi kelishmovchiliklardan ona tuyg'ulari chekkan ozor she'rda qanday tasvirlangan? Siz shoir ifodalagan holatlarga nima qo'sha olasiz?" kabi savol-topshiriqlar ustida ishlash jarayonida o'quvchilar asar matniga tayanadilar. O'zining aka-ukalari, opa-singillari bilan munosabatini, buning onasiga ta'sirini ko'ngillaridan o'tkazadilar. Onalariga bo'lgan muhabbatlari haqqi nimalardandir iztirob chekib, nelardandir quvonadilar. Ko'ngillarida ayash, achinish hissini tuyadilar. Bu tuyg'ular ma'naviy kamolot sari intilayotgan inson ko'ngli shakllanishida katta ahamiyatga ega.

"*Sinalmoqning payti kelganda*" misrasida qahramon holati va onaizor muhabbati orasidagi bog'liq jihatni toping" topshirig'i o'rtaga tashlanganda o'quvchilar "sinalmoq" deganda nimalar nazarda tutilishi haqida fikr bildirishlariga erishish kerak. Ular kishining hayotida sinovlar ko'pligi, bulardan insonning qanday o'tishi uning shaxsi, ma'naviyatiga bog'liq ekanini esga olishlari lozim.

"*Nomim qolmas bo'lsa jahonda*" misrasi zamirida qanday mazmun borligi haqida bosh qotiring", "*Yog'och otga yonma-yon bo'lsam*"

bermaslikka chaqirish to'g'ri badiiy ifodasini topgan deb o'ylaysizmi?", "Onaning farzandga muhabbati "*Qolganlari yolg'on yig'laydir*" misralari bilan boshqalarning sadoqatiga qarshi qo'yilmoqdami yoki taqqoslanmoqda? Fikringizni she'rdan olingan misollar asosida isbotlang" kabi savol-topshiriqlarga o'quvchilar matnga tayangan holda javob beradilar. Agar o'quvchilar ayrim savollarga javob berishga qiynalsalar, o'qituvchi savollarni bir oz soddalashtirishi yoki bir savolni bir necha qismga bo'lib, yengillatishi mumkin. Lekin zinhor o'zi bergan savolga o'zi javob berishi mumkin emas. Agar o'quvchilardan javob chiqmasa, bu haqda o'ylab ko'rishni ta'kidlab ochiq qoldirgani ma'qul. Keyingi darsda suhbatni davom ettirish mumkin.

"She'rning so'nggi bandida shoir nima uchun ilohga murojaat qildi deb o'ylaysiz? Siz bu tilakka qo'shilasizmi?" savoli o'quvchilarni jiddiy o'ylantiradi. Har bir inson hayotida o'zining xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlar ko'p uchraydi. Odam ba'zi ishlarga vijdon amri bilan qo'l ursa, ba'zi ishlarni istamagan holda kimningdir oldidagi burch yoxud ehtiyoj tufayli qiladi. Ular hamisha ham ma'naviy o'lchamlarga mos kelavermaydi. Bu ishlarning natijasi ijobiy bo'lsa hamma quvonadi, shodligiga sherik bo'ladi. Salbiy bo'lsa – jigarlar, qondosh-qarindoshlar, dildosh do'stlar ham kuyunadi, achinadi, iztirob chekadi. Lekin hyech biri Onachalik kuyolmaydi. Faqat Onagina, har qanday vaziyatda ham, o'quvchisiga xiyonat qilmaydi. Faqat Onagina jonidan kechib bo'zlaydi. Faqat Onagina butun vujudi bilan ezilib yig'laydi. "*Qolganlari yolg'on yig'laydir*". Shu haqiqatni chin dildan his qilgan odamgina: "*Yig'lamagin mushfiq Onamni, Volidai muhtaramamni*",- deya tavallo qiladi.

"*Yig'lamagin*" so'zi zimmasiga shoir qanday yuk ortgan?" O'quvchilar bu savol ustida o'ylarkan, shu birgina o'tinch mazmunida she'rda tasvirlangan barcha hodisalarning yuz bermasligini va shunday holatlar bo'lmasa ona hyech qachon yig'lamasligi mumkinligini anglaydilar.

Har bir band so'nggidagi "*Qolganlari yolg'on yig'laydir*" misrasida qo'llangan "yolg'on" so'zini o'quvchilar to'g'ri ma'noda tushunib qolishlaridan hazir bo'lish kerak. O'quvchi onalik tuyg'usi faqat onalardagina bo'lishini, bunga jigarlik-tug'ishganlik tuyg'usi ham, yorlik hissi ham, do'stlik muhabbati ham tenglasha olmasligini anglashi kerak. Qualarday bo'la olmaslik, onaday yig'lay olmaslik

jigar, yor, do'stlarning aybi emas, holatidir. Nima, opa-singillar, jigarlar bunday vaziyatda yolg'on yig'lashi mumkinmi? Yoki bu o'rinda badiiy bo'yoq ustuvorlik qiladimi? Yoki yig'ilarda tafovut bormi? O'quvchilar bu haqda ham o'ylab ko'rganlari, ko'ngillarida kechgan fikrni ifodalaganlari tuzuk. Bu hislar keyinchalik ularni odamlarni kuzatishga, haqiqatni anglashga yo'naltiradi.

Ikkinchi darsda o'rganiladigan keyingi she'r "Gul bir yon, chaman bir yon"dir. To'ra Sulaymonning ushbu bitigi ham tojikistonlik taniqli qo'shiqchi Abdurauf Olimov tomonidan juda go'zal ijro etilgan[1]. Agar o'qituvchi ushbu she'rni qo'shiq holida o'quvchilarga eshittirish imkonini topa olsa, dars yuqori samara bilan o'tishi tayin. Aks holda, yana o'zi doimiy ijrochi bo'ladi. Faqat bu ishga avvaldan tayyorgarlik ko'rilishi shart.

She'r tahlili yuzasidan berilgan savol-topshiriqlar ustida ishlash o'quvchilarni asar mohiyatiga olib kiradi. Ular o'zini Go'ro'g'li sulton bilan tenglayotgan oshiqning shaxsini tanish, tuyish va tushinishga urinadilar. Shoirning she'riyatiga xos bo'lgan, kishi ko'ngliga tez o'rnashib oladigan xalqona tutumlarni tuyadilar:

1. She'rning dastlabki misrasidagi: "*Chaman ichida bir gul, gul bir yon, chaman bir yon*"ning mazmuniga diqqat qiling. Gap nima haqda ketyapti deb o'ylaysiz? "bir yon" iborasi, Sizningcha, nimani anglatadi?

2. "*O'sgan bog'iga olqov, o'stirgan bog'boniga,* satrida gap nima haqida ketyapti deb o'ylaysiz? "Bog'" va "bog'bon". Sizningcha, nimani anglatadi? Olqish kimning sha'niga aytilayotgani haqida o'ylab ko'ring. Fikringizni asoslang. "Olqov" so'zini qanday tushundingiz?

3. "*Xavfu xatardan saqlab kelgan soyaboniga*" misrasida, Sizningcha, qanday xatar haqida gap ketyapti? "Soyabon" so'zi qanday ma'noda ishlatilgan deb o'ylaysiz?

4. "*Andalib qo'nar, zog'lar qo'nolmas bo'stoniga*" misrasidagi "*andalib*"ni qanday tushundingiz? "*Zog'lar*", sizningcha, nima? Nega ular boqqa qo'nolmaydi?

5. Shoirning: "*Maqtoviga men bir yon, borliq suxandon bir yon*" tarzidagi faxriyasiga munosabat bildiring, bu holning sababini ko'rsating. Sizningcha, "*borliq suxandon*" kim yoki nima nazarda tutilayotir?

[1] https://www.youtube.com/watch?v=-IOSDIKO3qE

6. She'rning uchinchi bandi nima uchun aynan shu tarzda qofiyalandi deb o'ylaysiz? Fikringizni avvalgi va keyingi bandlar bilan solishtirib asoslang.

7. Ma'shuqa tasviridagi milliy va an'anaviy jihatlarga e'tibor qiling. She'rdagi: *"Bu olamda oy tanho, muhorak quyosh tanho, Bo'y qizlarning ichida bir shu egma qosh tanho"* misralaridagi «tanholik»larni izohlang.

8. *"Bo'y qizlar"* ifodasining ma'nosini tushuntiring. Siz uni qanday tushundingiz?

9. She'rdagi *"Go'ro'g'li sulton bir yon, To'ra Sulaymon bir yon"* misrasi ko'nglingizda qanday hislarni uyg'otdi? Shoir qay sohada dostonlarning mashhur qahramoni bilan bellashayotir deb o'ylaysiz? She'rda qoniqish hissi ustuvormi yoki shikoyat?

O'quvchilarga "To'ra Sulaymon ijodidagi menga ma'qul bo'lgan chizgilar" mavzusida ixtiyoriy insho yozish vazifasini uyga topshirish so'zga mehri bor she'rxonlarning fikrlarini umumlashtirish, o'ta nozik tuyg'ularni so'z bilan ifodalashga o'rgatish jihatidan juda muhimdir. Odam tabiatan shundayki, talab qilinsagina ishlaydi. O'qituvchisi talab qilsa, o'quvchilar o'ta og'irday ko'ringan didaktik yumushlarni ham sidqidildan bajara oladilar.

Savol va topshiriqlar:

1. O'ylab ko'ringchi, maktabda tasviriy sanat darslari bo'lgani holda adabiyot darslarida suratlar ustida bu tarzda ishlash to'g'rimi yo'qmi? Nega shunday deb o'ylaysiz? Qarashlaringizni asoslang.

2. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar amalga oshiradigan ishlar bilan adabiy ta'limda suratlar ustida ishlash jarayoniga diqqat qiling. Qaysi biri o'quvchiga nima berishi haqida o'ylab ko'ring. Fikrlaringizni asoslang.

3. Mavzudagi o'qituvchilarning bilimsizligi haqidagi fikrlarni topib qayta o'qing. Siz bu gaplarga qo'shilasizmi yoki yo'qmi? Nima uchun? Xulosalaringizni asoslang.

4. Nima deb o'ylaysiz, o'quvchilarga tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatish kerakmi yoki yo'qmi? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz? Fikringizni dalillang.

5. O'quvchilarning tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatish ishlarini yana qanday yo'llar bilan takomillashtirish mumkin? Bu haqda

biror taklif va mulohaza ayta olasizmi? Fikrlaringizni isbotlashga urinib ko'ring.

6. Mavzuda taqdim etilgan suratlar ustida ishlash jarayoniga yana qanday qo'shimcha savol va topshiriqlar kiritish mumkin, sizningcha?

7. Mavzuga ilova qilingan maqoladagi she'rlar matni yuzasidan taqdim etilgan savol va topshiriqlarga o'zingiz javob bering. Fikrlaringizni asoslang.

8. T. Sulaymon she'rlarini maqolada taklif etilgan tahlilidan boshqacharoq tahlilga torting. Yaratig'ingizni kursdoshlar birgalikda muhokamaga torting.

9. Shoirning qo'shiqqa aylangan she'rlarini tinglang. Kuy, so'z va ijro mutanosibligiga diqqat qiling. Qo'shiqning qanchalik muvaffaqiyatli chiqqanini tahlilga torting.

10. To'ra Sulaymon qalamiga mansub har to'rtala she'rning filologik tahlilini amalga oshiring. She'rlarning didaktik tahlili bilan badiiy tahlilini taqqoslang. O'xshash va farqli tomonlarini aniqlang.

11. Tahlillarning qay biri maktab adabiy ta'limi uchun ahamiyatli ekani haqida o'ylab ko'ring. Qarashlaringizni misollar bilan isbotlang.

12. Internetdan istalgan rassom-muallifning asarlarini topib o'qishga urinib ko'ring. Bu boradagi imkoniyatlaringiz va bilimlaringizni, mazkur yo'nalishdagi savodxonlik darajangizni aniqlab oling. Zarurat sezsangiz, o'z ustingizda ishlang.

13. Uy vazifasi sifatida maktabda o'rganiladigan badiiy asarlardan biriga ishlangan suratlardan tanlab oling va uning yozma tahlilini amalga oshiring. Keyingi darsda har biringiz bu ishning taqdimotini qiling. Bir-biringizning ishlaringizni muhokama qiling. Tahlilni mukammalashtirishga ko'maklashing.

33-MAVZU. ADABIYOT O'QITISHIDA INSHONING O'RNI VA UNI TASHKIL ETISH YO'LLARI[1*]

Reja:

1. O'quvchilar yozma nutqini takomillashtirishda inshoning ahamiyati.

2. Adabiy ta'limda inshoning o'rni va uning turlari.

3. Ona tili va adabiyot darslarida yoziladigan insholarning o'ziga xos jihatlari.

4. Inshoga tayyorgarlik jarayoni va uni yozish bilan bog'liq xususiyatlar.

5. Adabiyot darslarida yozilgan insholar tahlili, ularni baholash me'yorlari va qo'yiladigan talablar.

6. Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.

Insho umumta'lim tizimi tarbiyalanuvchilarining tafakkuri, ham og'zaki, ham yozma nutqini rivojlantiruvchi, ularning ijodiy va erkin fikrlash hamda mustaqil faoliyat qobiliyatlarini o'stiruvchi muhim ish turlaridan biri sanaladi. Shu sababli inshoga o'quv rejalarida alohida dars soatlari ajratiladi.

"Insho" atamasiga ilmiy adabiyotlarda shunday ta'rif berilgan: "Insho – (pedagogikada) mavzuni o'quvchi mustaqil yoritadigan yozma ish turlaridan biridir. Insho ona tili va adabiyot darslarida, ta'limiy hamda nazorat maqsadlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining barcha bosqichlarida o'tkaziladi. Bajarilish o'rniga ko'ra sinf va uy insholariga bo'linadi. Insholarning o'quvchilar guruhi bilan yozadigan va har bir o'quvchi mustaqil bajaradigan turlari ham bor. Insho adabiy yoki erkin mavzuda bo'lishi mumkin. Insho o'quvchilar badiiy adabiyotni to'g'ri idrok etishlariga, fikrni ixcham, mantiqiy ifodalashlariga, ularning yozuv savodi o'sishiga yordam beradi"[2].

O'zbek tilining izohli lug'atida "insho" atamasi: "Insho – (tashkil etish; yaratish, qurish, harpo qilish; ijod, bayon, tahrir) o'quv yurtlarida ona tili va adabiyotdan yozma ish"[3] tarzida ta'riflangan.

[1*] Bu mavzu muallifi M. Xolmuminovaning hamkorlikdagi nashrga tayyorlanadi.

[2] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-nashr. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. 79-bet.

[3] O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki jildlik. – T.: O'zbekiston, 2006. 221-bet.

Insho – o'quvchilarning yozma nutqini o'stirish, tafakkur mustaqilligi va ma'naviy kamoloti ta'minlash, ularni ijodiy va mustaqil faoliyat olib borish yo'lida amalga oshiriladigan, har bir alohida shaxsdan o'z mustaqil fikri, shaxsiy munosabatini talab qiladigan faoliyatning murakkab shakllaridan biridir.

Insho o'quvchilarning biror asar, badiiy tasvir yoki qandaydir voqea-hodisa yuzasidan o'z taassurotlari, tuyg'ulari, sezimlarini mustaqil ravishda, yozma yoki og'zaki shaklda ifodalashga qaratilgan mustaqil faoliyat mahsuli. U shaxsning biror badiiy hodisa yuzasidan o'z fikrlari, hissiyotlari va mushohadalarini boshqalarga yetkazish maqsadida mustaqil, ijodiy sharhi sanaladi. Qolaversa, insho o'quvchining qandaydir mazmunni yozma shaklda bog'lanishli matn orqali ifodalovchi aqliy faoliyatini ham anglatadi.

S. Dolimovning "Ta'limiy bayon va insho" nomli risolasida keltirilgan fikrlar o'quvchilarda mavzuga mos material to'plash bilan birga, qiziqarli, ahamiyatli, haqiqiy borliqni aniq aks ettiradigan voqealar rivojida ketma-ketlilikni belgilash, ya'ni ma'lum reja asosida yozish ko'nikma va malakalarini shakllantirib borishi lozimligini uqtiradi. Shu bilan birga, insho nutqni to'g'ri qurish hamda fikrni aniq ifodalashga o'rgatib borishi ham ta'kidlanadi: "Adabiy o'qish ta'limiy bayon va insho o'tkazish uchun zamin yaratib beradi. Chunki dars davomida o'quvchilar asarning plani (rejasi)ni tuzishni, asar yuzasidan qayta hikoya qilib berishning turli forma (shakl)larini, asarning g'oyaviy mazmunini, asardagi obrazlar va ularning sistemasi (tizimi)ni, asarning kompozitsion tuzilishini, uning tili va badiiy xususiyatlarini batafsil o'rganib boradilar. Bularning hammasi o'quvchilarning mazmunli yozma ish yozishlarini ta'minlaydi"[1].

Olim ilgari surgan bu qarashlarning barchasi ham bugungi adabiy ta'limning maqsadiga monand kelavermaydi. Gap shundaki, badiiy asarlarning g'oyasi obrazlar tizimi, uning kompozitsion tuzilishini aniqlash bevosita adabiyot va adabiyotshunoslik bilan shug'ullanishni maqsad qilib olgan bo'lajak mutaxassislar yoki shu yo'nalishga mo'ljallangan maxsus maktablar o'quvchilari uchun muhim sanalishi mumkin. Lekin hayotning har xil jabhasida faoliyat yuritishga tayyorlanayotgan, ayni zamonda ma'naviy barkamollik sari yuz tutgan yosh avlod uchun bu tushunchalarning ahamiyati uncha katta emas. Shu

[1] Долимов С. Танланган асарлар. – Т.: Ўқитувчи, 1988. 103-б.

ma'noda, mazkur qarashlarga ijodiy yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O. Madaev "Insho qanday yoziladi?" nomli risolasida: "O'quvchini ijodiy ishga o'rgatish har bir fan o'qituvchisining burchi hisoblandi. Yozma ishlardan biri bo'lmsish insho esa mustaqil ishlash ko'nikmasini hosil qilishda asosiy o'rin tutadi"[1] deydi.

Adabiy ta'limning dastlabki bosqichida o'quvchilarni insho yozishga yo'naltirishda qo'yiladigan bir qator psixologik va pedagogik talablarni adabiyotlardagi qarashlarni umumlashtirgan holda quyidagicha belgilash mumkin:

- ta'limning har bosqichida o'quvchilarning yoshiga xos bo'lgan xususiyatlarga;
- ta'lim jarayonining har bosqichida har bir o'quvchining shaxsi, intellektual imkoniyatlari, intilishlari va qiziqishlari ayricha ekanligiga;
- boshlang'ich sinf o'quvchilriga xos bo'lgan: adabiy qahramonning shaxsi, xatti-harakatlari bilan tanishish asnosida undagi umumiy axloqiy sifatlarni ilg'ab olishda qiynalishiga;
- tarbiyalanuvchilarning xayolan asar qahramonlari bilan birgalikda sarguzashtlarda ishtirok etishiga, qahramonning shaxsiy sifatlariga emas, matndagi lavhalar, voqealar rivojiga ko'proq qiziqishiga;
- asar muallifi ifodalayotgan jarayonga kirishga, yozilganlarni tasavvur qilishga, hazillardan qotib-qotib kulishga, qayg'urishga moyilligiga;
- ular muallifga ishonmaslikka, unga munosabat bildirishga, matnning afzallik yoki nuqsonlarini muhokama qilishga qodir emasliklariga;
- bu yoshdagi o'quvchilarga xos bo'lgan taqlidchilikka;
- ularga xos bo'lgan aytilganni o'zidek takrorlab berish ko'nikmasining ustuvorligiga;
- bilganlarini o'z so'zlari bilan gapirib berish so'ralganda, ko'pchiligi buning uddasidan chiqolmasligiga;
- bu yoshda xotira kuchliligi bilan birga nutqning yetarli darajada rivojlanmaganligiga;
- bir marta eshitgan narsasini boshqa so'zlar bilan ifodalab berish qiyinlik qilishiga;

[1] Мадаев О. Инша қандай ёзилади. Ота-оналар ўқув-тарбия ишларининг умумий методик асослари. Т.: Ўқитувчи, 1991. – Б.6

- o'zlashtirishga, bilganlarini shuuriga singdirishga moyilligiga;
- darslarda o'zlashtirganlarini qog'ozga tushirish jarayoni yanada ko'proq qiyinchilik tug'dirishiga asoslangan holda, bu jihatlarning har birini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Yuqori sinflar ona tili va adabiyot darslarida insho hamda uni tashkil etishga qo'yiladigan talablar bir qator adabiyotlarda quyidagicha belgilangan:

1. Agar insho mavzusi ko'chirma bo'lmasa, u qo'shtirnoqsiz yoziladi. Agar inshoning sarlavhasi biror asardan olingan ko'chirma shaklida bo'lsa, u qo'shtirnoqda yoziladi.

2. Epigraf qo'shtirnoqsiz betning o'ng tomonidan yoziladi. Ostidan inshoga epigraf qilib olingan misralar muallifining ismi-sharifi yoziladi. Agar asarning nomi ham keltirilishi lozim topilsa, muallifning ismi-sharifidan so'ng asarning nomi qo'shtirnoqda yoziladi.

3. Epigrafdan keyin (agar u bor bo'lsa, albatta) yoki mavzudan so'ng satrning o'rtasidan "Reja" so'zi yoziladi va ikki nuqta qo'yiladi.

4. Rim raqamlari bilan uch qismdan iborat insho rejasi yoziladi:

I. Kirish(da asarning yaratilish tarixi, undagi yetakchi hayotiy va badiiy haqiqatlar qamrab olinadi).

II. Asosiy qism (bir necha banddan iborat bo'ladi va unda insho mavzusining mohiyati asrdan yoki boshqa mutaxassislarning qarashlaridan ko'chirmalar taqdim etilgan holda ochib beriladi).

III. Xulosa(da insho mavzusi va unda yoritilishi nazrda tutilgan masala yuzasidan muallif-o'quvchining shaxsiy munosabati va yakunlovchi xulosalari o'z aksini topadi).

5. Agar insho hajman katta bo'lishi nazarda tutilgan bo'lsa, uning kirish va xulosa qismi ham ma'lum darajada kengaytirilgan bo'ladi. Inshoning asosiy qismi hamisha kengaytirilgan tarzda yoziladi. Asosiy qism arab raqamlari bilan (qavsga olinmagan holda) uch yoki undan ko'proq bandni qamrab oladi va raqamlardan so'ng nuqta qo'yiladi. Har bir band o'z holicha yana (bir, ikki) bo'limlarga bo'linishi va harflar bilan ifodalanib qavsda berilishi ham mumkin.

6. Inshoning har bir qismi yakunlanganda oxiriga nuqta qo'yiladi. Keyingi qismi yangi satrdan katta harf bilan boshlanadi. Asosiy qismning bo'limlari ham shunday rasmiylashtiriladi. Agar bo'limlarda kichik bo'limchalar mavjud bo'lsa, bo'limning yakunida ikki nuqta qo'yiladi va kichik bo'limchalar kichik harb bilan boshlanadi hamda oxirida nuqtali vergul qo'yiladi. So'nggi kichik bo'lim yakunida esa

nuqta qo'yiladi va inshoning keyingi qismi yangi qatordan, katta harf bilan boshlanadi.

7. Insho rejasida qisqa jumlalarda ifodalangan qarashlarni inshoning asosiy qismi va undagi bo'limlar batafsil ochib beradi. Insho rejasida «A. Oripovning «Men nechun sevaman O'zbekistonni» she'ri» yoki «Otabek men sevgan qahramon» shaklida sarlavhaga moyil jumlalar ishlatilmasligi kerak. Rejani rasmiylashtirish qoidasi boshqacha bo'ladi. Masalan, «A. Oripovning «Men nechun sevaman O'zbekistonni» she'rida tarixiy shaxslar va geografik nomlar talqini» yoki «Otabek shaxsiga xos bo'lgan fazilatlar va asarda ularning namoyon bo'lishi» shaklida ifodalanishi maqsadga muvofiqdir.

8. Insho rejasini shakllanirayotganda fe'lning faqat noaniq shaklidan foydalaniladi. So'roq gaplardan foydalanilmaydi.

9. Inshoda ko'chirmalardan foydalanilganda ko'chirma qo'shtirnoqda yoziladi va uning muallifi ko'chirma oxirida qavs ichida ko'rsatiladi.

10. Insho bandlari asosiy matnda xatboshilar bilan ajratiladi.

11. Insho rejasidan keyin uning asosiy matni yangi satrdan, katta harflar bilan boshlanadi.

12. Agar inshoda yil, oy va kun yozilishi zarurati bo'lsa, ular arab raqamlari bilan, asr esa rim raqami bilan yoziladi. Agar asr arab raqami bilan yozilsa ham xato hisoblanmaydi, bahoga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Lekin belgilangan tartibda yozilgani maqsadga muvofiqdir.

13. Inshoda ko'chirmalardan foydalanilganda tinish belgilari ona tili darslarida o'zlashtirilgan bilimlar asosida rasmiylashtiriladi. She'rlardan foydalanilganda esa she'r matni sahifaning o'rtasidan yoziladi.

14. Inshoda xat aniq, husnixat qoidalariga amal qilingan holda yozilishi joiz. Insho har qanday odamning bilimlilik darajasi, savodxonligi, intellektual darajasi va madaniyatini aks ettiradigan ishdir. Inshoni tekshiruvchi uning mazmun-mohiyati va tuzilishiga qarab muallifning shaxsiga ham baho berishi mumkin.

15. Imtihon insholarini yozishga ajratilgan soat (to'rt soat)ning to'rtdan bir qismini insho yozishni rejalashtirishga, to'rtdan ikki qismini asosiy materialga, qolgan bir qismini esa xulosa va inshoni tekshiruvga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu muallifda o'ziga ishonch hissini shakllantiradi. Inshoga rejalashtirilgan vaqtni samarali

taqsimlash, avvalo, ishning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, qolaversa muallifni ortiqcha hayajon va shoshma-shosharlikdan, xatolarga yo'l qo'yishdan asraydi:

- insho mavzusini tanlash va u haqda o'ylash uchun 25–30 daqiqa;
- insho rejasini tuzish uchun 30–40 daqiqa;
- qoralama shaklini yaratish uchun 1 soat 30 daqiqa (ya'ni inshoning rejasi va uning qoralama variantini tayyorlash uchun vaqt ikki soatdan oshmasligi kerak);
- inshoni oqqa ko'chirishga esa bir soat vaqt ajratiladi;
- qolgan vaqt esa inshoni tekshirishga sarflanadi. Bu ish albatta bajarilishi shart. Chunki u yaxshi bahoga erishishning garovidir.

Insholarning hajmi masalasi ham bir qadar munozaralidir. Aytadigan gapi ko'p o'quvchi o'n betlab insho yozishi mumkin. Ayrimlar esa fikrini ixcham shaklda ikki bet atrofida ifodalashi mumkin. Shu vaziyatlarni inobatga olgan holda adabiyotlarda insho hajmiga qo'yiladigan umumiy talablar taxminan quyidagicha belgilangan:

- inshoning umumiy hajmi 3,5 sahifadan 4,5 betgacha;
- inshoning kirish va xulosa qismi umumiy hajmning 25 foizini qamrab oladi;
- asosiy qismi esa umumiy hajmning 75%idan iborat bo'ladi;
- inshoda taxminan oltita teng qism: bitta kirish, to'rtta asosiy qism va bitta xulosa bo'ladi;
- inshoda to'rt yoki beshta iqtibos: 2–4 satr she'r va 2–3 qator proza bo'lishi mumkin.

Yuqori sinflar adabiyot darslarida o'quvchilardan olinadigan insholar manbasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

1. *Shaxsiy kuzatishlar asosidagi insholar*. Bunday erkin mavzulardagi insholarda o'quvchining shaxsiy hayotiy tajribasiga, kuzatishlariga asoslaniladi.

2. *Maxsus, tasodifiy yoki tashkillashtirilgan kuzatishlar asosidagi insholar*. Tabiat hodisalari (tabiatning bahordagi uyg'onishi, dala yoki tog'da quyoshning botishi), kishilarning jamiyat hayotidagi va ishlab chiqarishdagi faoliyatini kuzatishdan so'ng yoziladigan insholar.

3. *Rasm asosidagi insholar* o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javoblarni uncha katta bo'lmagan bog'lanishli matn ko'rinishida ifodalaydigan insholardir. Bunday insholar dars jarayonida

10–15 daqiqa oralig'ida yoziladi. Bu insholarning maqsadi qandaydir stilistik usullardan foydalanish, tilning tasviriy vositalaridan, mavzuli lug'atlardan muayyan qurilishdagi gaplarni tuzishda foydalanish bo'yicha malakani oshirish, shuningdek, lug'at boyligidagi so'zlarni faollashtirish, odamlar hayoti yoki tabiatdagi qandaydir holatni badiiy tasvirlash ko'nikmasini shakllantirish sanaladi.

4. *Badiiy yoki ilmiy-ommabop asarni o'qish natijasida yoziladigan insholar*. Annotatsiyalar, taqriz, portret xarakteristikasi, konspektlar shaklidagi insholar bo'lib bular asosan yuqori sinflarda amalga oshiriladi.

5. *Eshitilganlar asosida yoziladigan insholar*. Ma'ruza yoki hikoyani eshitgandan so'ng paydo bo'lgan taassurot shaklidagi bitiklar.

6. *O'xshashlik va namuna bo'yicha yoziladigan insholar*. O'quvchilarga qandaydir tanish bo'lgan yoki ular tomonidan o'ylab topilgan tasodifiy voqea bunday insholarning mazmuni bo'lishi mumkin. O'quvchilar ularga o'xshatib, bog'lanishli matn hattoki ertak ham yozishlari mumkin.

Inshoalr **janr**iga ko'ra, rivoya, muhokama, portret xarakteristikasi, xat, kirish nutqi, o'quvchilarning mustaqil adabiy ijodiyoti kabi turlarga bo'linadi.

Bajarilish usuli va o'rniga ko'ra ham insholar sinf inshosi va uy inshosiga, jamoaviy va yakka tartibdagi insholarga, mustaqil, to'la ochib beriladigan va kichik hajmli insholarga bo'linadi.

Insholar **qo'shimcha topshiriqli** bo'lishi ham mumkin. Masalan:

1. Savollarga javob berish shaklidagi insholar.

2. Tayanch so'zlar asosidagi insholar – ma'lum bir qoidalarga doir so'zlar berilgan muayyan mavzudagi insholar:

a) o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga mo'ljallangan va o'qituvchi tomonidan ma'lum bir mavzu bo'yicha tanlangan so'zlar asosida yoziladigan insholar;

b) o'quvchilarning bog'lanishli matn yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladigan insholar.

3. Grammatik topshiriqli insholar.

Insholar va ularning mazmun-mohiyatiga ko'ra tasnifini mazkur mavzuga yo'naltirilgan bir qator adabiyotlardagi qarashlarni umumlashtirgan holda quyidagicha belgilash mumkin:

1. *O'tkazishdan ko'zda tutilgan maqsadga ko'ra*:

•ta'limiy insholar – insho yozishni o'rgatuvchi insholar;

•nazorat insholari;

•grammatik topshiriqli insholar

2. *Materialning manbasi va xarakteriga ko'ra:*

•yangi yoki tanish material asosidagi insholar;

•bir yoki bir necha manbalar asosidagi insholar;

•ko'rgazmalilik va texnik vositalarini qo'llashga asoslangan insholar;

•shaxsiy kuzatishlar (film yoki pe'sa) asosidagi insholar;

•o'qilgan matnga o'xshatishga asoslangan insholar;

•boshlanishi yoki tugallanishi berilgan insholar;

•berilgan reja yoki tezislar asosidagi insholar.

3. *Inshoning hajmiga ko'ra:*

•kengaytirilgan insholar;

•kichik hajmli insholar;

•belgilangan hajmdagi insho.

4. *Mavzusiga ko'ra:*

•tilshunoslik mavzusidagi insholar;

•adabiy mavzudagi insholar;

•erkin mavzudagi insholar.

5. *Fikr bayon usuliga ko'ra:*

•tasviriy insho;

•rivoya-insho;

•muhokama-insho;

•aralash nutq asosidagi insholar.

•insho-hikoya;

•insho-ertak;

•insho-ocherk;

•insho-taqriz;

•insho-maqola;

•insho-xat;

•insho-ilmiy xabar.

6. *Mustaqillik darajasiga ko'ra:*

•uzoq tayyorgarlik ko'rilgan insholar;

•tayyorgarliksiz insholar;

•mustaqil insholar.

Insholarning mazmunidan kelib chiqqan holda, nutqning har bir turi o'z farqlovchi belgilariga ega ekanligini inobatga olib ularni yana quyidagicha shakllarga ham ajratish mumkin:

1. Kundalik – muallif tomonidan kundalik voqea-hodisalar, kechinmalar haqida olib boriladigan yozuvlar.

2. Adabiy-tanqidiy maqola – maktab inshosining an'anaviy janri (ma'lum bir mavzu asosida kirish, asosiy qism va xulosadan iborat) ijodiy ish.

3. Taqriz – u yoki bu badiiy asarning yutuq va kamchiliklari tanqidiy tahliliga bag'ishlangan yozma ish.

4. Epistolyar janr (xatlar) – muallifning asar qahramonlariga xat, e'tirof, xohish va istaklari, fikrlar, munosabat va his-tuyg'ulari ifodasi shaklidagi inshosi.

5. Esse (fransuzcha – ocherk, urinish, harakat) – kichik hajmdagi mustaqil kompozitsiyaga ega bo'lgan, ma'lum masala yuzasidan aniq individual taassurotlar aks etgan, aniq talablarga asoslanmagan prozaik insho. Esse o'z uslubi bilan ta'kidlangan subyektivlardan, obrazlilikdan, so'zlashuv nutqidan farq qiladi.

6. Ma'lum bir she'riy asar tahliliga bag'ishlangan insho – o'ziga nazmiy asardan olingan taassurotlarni, matn tahlili va uni baholashni qamrab oladi.

7. Ma'lum epizod tahlili. Bu kabi insholar ma'lum epizod yoki asarlarning ma'lum sahifasi asosida yozilgan bo'lib, muallif o'z asarida qanday qarashlarni ilgari surgani va bunga qanchalik erishgani borasida fikr yuritiladi, munosabat bildiriladi.

8. Qiyosiy xarakteristika. U yoki bu asar qahramonlarining umumiy, o'xshash va farqli jihatlarining qiyosiy tahlili amalga oshiriladi.

9. Insho-ocherk. Unda quyidagi qismlar mavjud bo'ladi: kirish (tarixiy, analitik, biografik, qiyosiy, oxiridan boshlash, lirik fikrlash); asosiy qism (inshodagi bosh mavzuning kengaytirilgan tahlili, savol-javoblar. Dalillar, ko'chirmalar, tanqidchilarning fikrlari, insho muallifining munosabatlari); xulosa (qo'yilgan masalaga javob, ko'chirmalar, xulosalar)[1]

10. Maktab adabiy ta'limi amaliyotida rivoya insholar ham tashkil etiladi. Qoidaga ko'ra, rivoya-insho yozishda hikoya yaratish bilan bog'liq tushunchalardan keng foydalaniladi. Rivoya inshoda harakatlar ketma-ket sodir bo'ladi, birin-ketin sodir bo'ladigan hodisalar haqida hikoya qilinadi. Rivoya-insho ham xuddi hikoya singari *uqum* (harakatning boshlanishi), *voqea rivoji, avj nuqta* (voqealar rivojidagi eng muhim lahza) va *yechim* (harakat nihoyasi) kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi.

[1] http://www.studfiles.ru/preview/3865038/

Insho mavzusini to'g'ri tanlash uchun taklif etilganlarning qaysi biri adabiyot darslarida yaxshiroq o'zlashtirilgani va qaysi birining tahlilini mukammal amalga oshira olish mumkinligidan kelib chiqiladi. O'qituvchi buni o'quvchilarga insho yozish topshirig'ini berishda bularni eslatib qo'yishi maqsadga muvofiqdir

Mavzu to'g'ri tanlab olingandan keyingina insho ustida ish boshlanadi. Avval qoralamaga tanqidchilarning asar haqidagi fikrlari, zarur sanalar, har xil ko'chirmalar yozib olinadi. Vaqtni besuri sarflamaslik uchun bunday qaydlar qisqartirilgan shaklda, to'plangan materiallar ma'lum izchillikda yozib boriladi. Zaruriy ma'lumotlar eslanib, to'planib bo'lingach, ularning qay biri asosiy, qay biri ikkinchi darajali ekanligiga qarab ma'lum mantiqiy izchillikka solinadi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarni insho yozishga yo'naltirishda o'qituvchi diqqat qilishi kerak bo'lgan jihatlardan yana biri o'quvchilarning ko'pchiligi o'z fikrini aytishga tortinishi yoki buni istamasligi bilan bog'liqdir. Achinarlisi, ularning ko'pchiligida aytishga arzigulik fikrning o'zi yo'q. Agar maktab adabiy ta'limi amaliyoti mazkur darslikda ilgari surilgan qarashlar, tavsiyalar yo'sinda tashkil etilsa, fikr kishilari ko'payishi muqarrar.

Bundan tashqari, yuqorida aytilgan usullar doirasida, turfa shakllarda insholar tashkil etilsa, o'quvchilar an'anaviy yo'sindagidan ko'ra yaxshiroq yozishlari mumkin. Shu tarzda o'quvchilar mamni qayta hikoyalashdan qutula boradilar, insholarida o'z munosabati, intilishlari, fikr, tuyg'u va istaklarini ifodaly borishadi. Bevosita o'quvchi shaxsiga qaratilgan insholar uni ijod qilishga, o'ylashga o'rgatadi.

O'quvchilarni insho yozishga tayyorlashda sinfda asar mutolaasi davomida ularga insho yozishda qo'l keladigan muhim so'z va iboralarni belgilab borishni o'rgatish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu narsa o'quvchilarni asarni o'qish davomida insho yozishga ruhan tayyorlaydi. Asar matnidagi muhimni nomuhimdan farqlashga o'rgatadi. Masalan, "Qodiriyning ijodida men qadrlaydigan jihatlar" mavzusida insho yozdirish uchun, avvalo, Abdulla Qodiriyning asarini o'quvchi sevib qola oladigan darajada tahlil qilish taqozo etiladi. Asardagi o'quvchi qalbini titratadigan o'rinlarni uning o'ziga kashf

qildirish kerak. Mana shu kashfiyot, o'quvchiga lazzat bag'ishlagan topildiqlargina adibni kitobxonga sevdiradi. U yozuvchini asarlarining go'zal uslubi, ko'ngilga borib o'rnashadigan tuyg'ular tasviri tufayli sevib qoladi. Va bu sevgi o'quvchining inshosida o'z aksini topadi.

Bunday mavzularda ko'nglida o'yi, aytar gapi bor o'quvchilargina insho yozishlari mumkin. Bu insholar maktabda o'rganiladigan shoir yoki yozuvchi ijodiga o'quvchining chinakam muhabbatini ko'rsatadigan, muallifning aqliy imkoniyati va ruhiy holatini kashf etishga bag'ishlangan, chinakam mustaqil, o'zgalardan ko'chirilmagan ish bo'ladi. Bunday insho yozishda o'quvchiga berilgan erkinlik va imkoniyat uni mustaqil fikrlashga, kechinmalarini so'z bilan ifodalashga odatlantiradi. Bu xil yozma ishlarda kitobiy so'z va iboralarning bo'lishi ko'p kitob o'qigan o'quvchilar uchun tabiiy hol albatta. Asosiy e'tiborni o'quvchining darslik muallifi yoki o'qituvchi aytganlarini takrorlamayotganiga qaratish lozim.

Adabiyot darslarida o'quvchini insho yozishga tayyorlashda badiiy asarda nima aytilganigagina emas, balki qanday aytilganiga ham diqqat qaratishga o'rgatish lozim bo'ladi. U tabiat tasviri go'zalligi, qahramonlar ichki kechinmalari ifodasi nozikligi, muallif tilining injaligini ham kuzatsin, sezsin. Adabiyot darslarida, asar tahlili mobaynida shunday narsalarga e'tiborli bo'lgan o'quvchi ijod jarayoni bo'lmish insho bitishda ham o'ylanadi, izlanadi, bilganlaridan foydalanadi. O'quvchi shularni tuysa, ma'naviyati to'kisroq shakllanadi. Zero, o'quvchilarda dunyoqarash shakllanishi aynı shu yoshga to'g'ri keladi.

O'qituvchining qarashlari yoki boshqa mutaxassislarning kitob va qo'llanmalardagi fikrlari o'quvchi ishida qo'llanilishi, tabiiy. Faqat ularning o'rinli bo'lishi, insho muallifining qarashlarini asoslashga xizmat qilishi sezilib turishi ulardan foydalanish qoidalariga amal qilish zarur. O'quvchiga insho yozish topshirilganda bir emas bir nechta mavzuni taqdim etish kerak bo'ladi. Toki unda o'ziga yoqqanini, o'zining darajasiga mos keladiganini tanlash imkoni bo'lsin. Ana shunda har darsda chinakam ijod ruhi hukmron bo'ladi.

Insho tayyor bo'lgach muallif tomonidan xatolari tekshirib chiqiladi. Har bir so'zning imlosiga alohida e'tibor qaratiladi. Keyin ishora xatolariga diqqat qaratiladi. O'quvchi bu tekshiruvda ishni inshoning oxiridan boshlagan ma'qul. Shunda o'quvchi-muallifning diqqati uning mazmuniga chalg'imaydi, faqat xatolarga e'tibor qilinadi.

Insho mavzusini anglash va ochib berish muallifning mustaqil tafakkuri qobiliyati hamda mavzuni qanchalik o'zlashtirganligini namoyish etadi. Insho rejasi bu borada muvaffaqiyat garovidir. Inshoda fikrlarni ma'lum mantiqiy izchillikda bayon etish uchun reja muhim ahamit kasb etadi. Maktab amaliyotidan ma'lumki, juda ko'p o'quvchilar inshoning rejasini tuzishga qiynaladilar. «Rejasini tuzib bering, inshoni o'zim yozaman» deguvchilar ko'p bo'ladi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, o'quvchilar boshlang'ich ta'limda asarlar yuzasidan reja tuzish ko'nikmalarini yaxshi egallamaganlar. Qolaversa, adabiyot darslarida asarlarning tahlili mukammal bo'lmagan. O'quvchi asardagi muhimni nomuhimdan farqlashga yo'naltirilmagan. Qahramon shaxsiga xos sifatlar ajratilmagan, ularga o'quvchining munosabati aniqlanmagan va hk. Shu bois o'quvchi insho rejasini tuzishga, nimalarni birinchi planga olib chiqishga, inshoda nimalarni aks ettirish lozimligini belgilashga qiynaladi. Reja inshoning muvaffaqiyatli chiqishi uchun asos bo'ladi. Reja asosida asosiy fikrlar shakllantiriladi, inshoning mazmuni va uni yoritish izchilligi aniqlanadi. Rejaga asoslanilgan holda ishning kirish qismi, asosiy qismning bandlari va xatboshilar belgilanadi.

Adabiyot darslarida yozilgan adabiy mavzudagi insholarni tekshirishda quyidagi jihatlar muhim omil hisoblanadi:

1. Insholarni baholashda o'quvchi ishining mustaqilligiga, o'ziga xosligiga, uning kompozitsion va nutqiy shakllanganligiga alohida e'tibor qaratiladi. Original qarashlarning mavjudligi va o'rinli keltirilganligi uning adabiyotga daxldor bahosining bir ball oshirilishiga asos bo'ladi.

2. Agar inshoning hajmi belgilangan me'yordan bir yoki ikki barobar ortiq bo'lsa, unda ishning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda (ismlo xatolariga e'tibor qilinmaydi) o'z bahosi qo'yiladi. Besh baho qo'yiladigan darajada yozilgan insholarda hajmning ko'pligi inobatga olinmaydi.

3. Inshoda mavzu mazmunan ochilmagan bo'lsa, garchi boshqa jihatlardan ish juda yaxshi yozilgan bo'lsa ham(imlo xatolari bevosita ona tili darslarida yozilgan insholarga tegitshli), baho qoniqarli bo'lmaydi.

4. Bitta xatoning takrorlanishi, uncha qo'pol bo'lmagan xatolar, o'quvchining o'zi tomonidan tuzatilgan xatolarga diktantlarni tekshirishda qo'llaniladigan holatlarga asoslaniladi[1].

O'quvchilarning adabiyot darslarida yozgan insholari tekshirilganda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratiladi:

- yozilgan ishning mavzuga mos kelishi;
- agar epigraf mavjud bo'lsa, uning mavzuga va insho mazmuniga mosligi;
- reja bandlari orasida mantiqiy bog'lanishning mavjudligi;
- agar insho reja asosida yozilmagan bo'lsa, material qanchalik izchillikda bayon etilganligi;
- materialning yoritilishida mantiq bor-yo'qligi;
- asosiy kompozitsion talablar (kirish, asosiy qism va xulosa) aks etganligi;
- inshoning qismlari hajm jihatidan to'g'ri shakllantirilganligi;
- asosiy fikrlar qanday shakllantirilganligi;
- asosiy qarashlarga monand illyustratsiyalar mavjudligi, agar bor bo'lsa ular mavzuga qay darajada mutanosibligi;
- insho matnida ko'chirmalar bor bo'lsa, ularning qanchalik o'rinli va to'g'ri rasmiylashtirilganligi;
- daliliy ashyolarda xatoliklarga yo'l qo'yilmaganligi;
- fikr chalkashliklariga yo'l qo'yilmaganligi;
- insho kengayib ketgan bo'lsa, uni qisqartirish imkoni bor bo'lsa, u qanday amalga oshirilishi mumkinligi;
- agar insho qisqartirilgan holda yozilgan bo'lsa uni kengaytirish va to'ldirishni nimalar hisobidan amalga oshirish mumkinligi va hk[2].

Adabiyot darslarida o'quvchilar yozgan insholarning mazmuni quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- o'quvchi inshosining mavzu va asosiy fikrga mosligi;
- mavzu ochilganligi darajasining to'liqligi;
- daliliy materiallarning to'g'riligi;
- fikr bayonining izchilligi.

Bundan tashqari, adabiyyot darslarida yozilgan insholarni baholashda quyidagi jihatlar muhim omil hisoblanadi:

- o'quvchi fikrining mustaqilligiga, o'ziga xosligiga, uning kompozitsion va nutqiy yaxlitligiga alohida e'tibor qaratiladi. Original

[1] http://yaxshidgta.yourdart.com/t1-37
[2] https://nomalis.uz/criteria.html

qarashlarning mavjudligi va o'rinli misollar keltirilganligi bahoning oshirilishiga asos bo'ladi;

- agar inshoning hajmi belgilangan me'yordan bir yoki ikki barobar ortiq bo'lsa ham, hajmning ko'pligi inshoni yuqori baholashga asos bo'lolmaydi;
- agar mavzu mazmunan ochilmagan bo'lsa, garchi boshqa jihatlardan ish juda yaxshi yozilgan bo'lsa ham, baho qoniqarli bo'lmaydi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning ijodi mahsuli bo'lgan insholarning nutqiy shakllanganlik darajasini aniqlashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi:

- lug'at boyligi va nutqning grammatik tizimiga;
- yozma nutqning uslubiy yaxlitligi va nutqning ifodaliligiga;
- nutqiy xatoliklar soniga.

O'quvchilarning savodxonlik darajasi esa ular yo'l qo'ygan orfografik, punktatsion va imloviy xatolar soni bilan baholanadikim, bu bevosita ona tili darslarida olinadigan insholarning asosini tashkil etadi.

Adabiyot darslarida o'quvchilar yozgan insholarni baholash («5», «a'lo» yoki 85 balldan yuqori baho uchun)da quyidagilarga asoslaniladi:

- inshoning mazmuni to'lig'icha mavzuni ochishga qaratilgan;
- xatoliklarga umuman yo'l qo'yilmagan;
- fikr ma'lum izchillikda bayon etilgan;
- muallifi nutqi boy, qo'llanilgan sintaktik birliklarning xilma-xil, so'zlar o'rinli va to'g'ri qo'llanilgan;
- uslubiy yaxlitlikka va matnning ifodaliligiga erishilgan.

Yaxlit olinganda ishda mazmunga doir bitta yoki 2 nutqiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lishi mumkin. (Ona tili darsdarida olingan insholarda o'quvchi yozma ishining savodxonligi darajasiga esa bitta orfografik yoki bitta ishora (punktatsion) yoki 1 imlo xatosiga yo'l qo'yiladi).

«4» yoki «yaxshi» bahoga qo'yiladigan talablar:

- inshoning mazmuni asosan mavzuga mos keladi (mavzudan mayda, arzimas chalg'ishlar mavjud);
- mazmun, asosan to'g'ri, lekin ayrim daliliy noaniqliklarga yo'l qo'yilgan;
- fikrlarni bayon etishda ifoda izchilligida kichik xatolarga yo'l qo'yilgan;

• nutqning leksik va grammatik tizimida xatoliklarga yo'l qo'yilmagan;

• yozish uslubi silliqligi va ifodaliligi bilan ajralib turadi.

Ishda umumiy tarzda mazmunda ikkita va 3–4ta nutqiy kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'ladi. (Ona tili darslarida olingan imlosharda ikkita imlo va ikkita ishora xatosiga, yoki bitta imlo va uchta ishora xatolariga yoinki imlo xatolariga yo'l qo'yilmagani holda to'rtta ishora xatolariga yo'l qo'yilgan bo'lsa, yoxud ikkita grammatik xato qilingan bo'lsa savodxonligi darajasiga "4" baho qo'yiladi).

«3» yoki «o'rta» bahoga quyidagi ishlar munosib topiladi:

• ishda ba'zi mavzudan chalg'ishlarga yo'l qo'yilgan;

• ish asosiy mavzuga mos, ammo ayrim dalilly jihatlarda xatoliklarga yo'l qo'yilgan;

• ifoda izchilligida kamchiliklarga yo'l qo'yilgan;

• insho muallifining lug'at boyligi kam, qo'llanilgan sintaktik butunliklarda takrorlarga yo'l qo'yilgan, noo'rin qo'llanilgan so'zlar ko'p;

• fikr bayon qilish uslubida izchillik yetishmaydi va ayni zamonda, nutq yetarli darajada ifodalilik kasb etmagan.

Umuman olganda, ish mazmunida to'rttadan beshtagacha nutqiy kamchiliklarga yo'l qo'yilgan taqdirda ish o'rtacha baholanadi. (Ona tili darslarida yozilgan insholarda o'quvchining savodxonligi masalasida 4 orfografik, 4 punktatsion, yoki uchta orfografik, beshta punktatsion, yohud orfografik xatolarga yo'l qo'yilmagani holda 7ta ishoraviy xatolarga yo'l qo'yilganda o'quvchining ishi "uch"ga boholanadi).

Ona tili darslarida o'quvchilarning savodxonligini oshirish maqsadida tashkil etiladigan insholar qancha ko'p yozdirilsa, adabiyot darslarida uyushtiriladigan insholarda fikr izchilligi, uslub ravonligi, xulosalarning mustaqilligi va asosliligi, shaxsiy munosabatning mavjudligi, ishning o'qishliligini ta'minlashda shuncha muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning yozgan insholariga yomon baho qo'yilmaydi. Umuman, adabiyot darslarida o'quvchilarga yomon baho qo'yilmaydi. U baholanmay qoldirilishi mumkindir, lekin yomon baholanishi mumkin emas. Sababi, o'quvchi nimanidir yozishga, fikr ifodalashga, munosabat bildirishga, qarashlarini asoslashga harakat qilgan bo'lsa, shuning o'zi o'rtacha baho uchun yetarli. Chunki

adabiyot darslari – ko'ngil darslari. Adabiyot darslarida, ko'ngil bilan ishlayotganda ko'ngilga yomon baho qo'yishga hyech kimning haqqi yo'q. U Allohning mulki. Juda noiloj qolinganda o'quvchiga ozgina to'g'ri yo'nalish berib, hozircha baho qo'yilmaganini, keyingi safar yaxshiroq yozishga urinishi lozimligini aytib baho ochiq qoldiriladi.

O'quvchilar insho yozishga yo'naltirilganda ularni quyidagi ba'zi ma'lumotlardan xabardor qilib qo'yish ham o'qituvchining vazifalaridan biridir. Ya'ni, agar insho muallifi tinish belgilarining foydalanilishida ikkilansa, o'sha jumlani qayta yozib ko'rgani ma'qul. So'zning to'g'ri ishlatilganiga shubha paydo bo'lganda, yaxshisi uning sinonimini qo'llagan ma'qul.

Insho kirish qismining vazifasi asosiy qismga o'tish yo'lini to'g'ri belgilashdir. Kirish uch-to'rt jumladan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq. Uni kattalashtirib yuborishdan saqlangan ma'qul. Inshoning asosiy qismi va xulosasi unidagi yetakchi, zarur komponentlar hisoblanadi. Inshoning shu ikki qismi muallifning mavzuni tushunganlik darajasini namoyish etadi. Inshoning yakunlovchi qismida ish yuzasidan asosiy xulosalar, mustaqil qabul qilingan qarorlar, qisqacha umumlashma o'rin oladi. Inshoning yakunlovchi qismi muallifdan diqqat va e'tiborni talab qiladi. Agar inshoning bu qismi ishda aks etmagan bo'lsa, u ijobiy baholanmaydi. Inshoning bu qismi muallifning mustaqil tafakkuri darajasi, saviyasi va dunyoqarashi haqida umumiy tasavvur paydo qiladi.

Umumta'lim muassasalarida insho va bayonlarga hamon ikkita baho qo'yiladi: birinchisi, ishning mazmuni va nutqning shakllanganligiga; ikkinchisi savodxonligi darajasiga. Ya'ni orfografik, punktatsion va nutq normalariga qanchalik amal qilinganligiga asoslaniladi. Har ikkala baho ham ona tilining bahosi hisoblanadi. Insholar o'quvchilarning adabiy savodxonligini aniqlash maqsadida tashkil etilganda baholarning birinchisi ya'ni mazmun va nutq adabiyot darslarining bahosi hisoblanadi.

O'zbekistonda (maktablar o'n yillik tizimga o'tganidan keyin) maktabni bitiruv imtihonlari yoki oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish imtihonida yoziladigan insholarni tekshirishga o'quvchi va abiturientlarning ham ona tilidan, ham adabiyotdan bilimliligi, savodliligi darajasi, tafakkurining mustaqilligi, mavzuning yoritilishi singari bir qator talablar bilan yondashiladi. Yozilgan insholarga qo'yiladigan talablar (ham ona tili, ham adabiyot bo'yicha talablar)

umumlashtiriladi. Ya'ni xatolari ham, mazmuni ham inobatga olinadi va ikkita baho qo'yiladi.

Lekin umumiy o'rta ta'lim tizimining ona tili darslarida o'quvchilarning yozma savodxonligini o'stirish maqsadida tashkil etiladigan diktant, bayon va insholarini baholashda ularning darslarda o'rganigan grammatik bilimlarni o'zlashtirganlik darajasi – orfografik, punktatsion va nutq normalariga qanchalik amal qilinganligi yetakchi ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslarida bajarilgan didaktik topshiriqlar ko'magida savodxonlikka erishgan o'quvchi adabiyot darslarida yozilgan insholarida bu kabi xatoliklarga yo'l qo'ymaydi, ya'ni ona tili darslarida o'zlashtirgan bilimlariga tabiiy ravishda amal qiladi.

Shu ma'noda adabiyot darslarida tarbiyalanuvchilarning ma'naviy sog'lomligi, tafakkur mustaqilligi, fikr izchilligi va shaxsiy munosabatini shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan insholar tekshirilganda unga bitta baho qo'yiladi. Adabiyot darslarida yozilgan insholarda o'quvchilarning imloviy savodxonligi baholanmaydi.

Yana shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, o'quvchilarning ona tili va adabiyot darslarida yozgan insholari tekshirilganda xatolarni tuzatmaslik, ya'ni har bir xatoni qizil qalam bilan ostiga chizib qo'yish tavsiya etiladi. O'qituvchisi ko'rsatib o'tgan xatosi qanday xato ekani, uning nimasi xato ekanini, qanday tuzatish kerakligini o'quvchi o'zi hal qilgani, buning uchun lug'at qaragani uning o'zi uchun foydali bo'ladi. Shu xatosini keyin takrorlamaydi. Bundan tashqari, darsda xatolar ustida ishlashga alohida vaqt sarflanmaydi. O'quvchilarning o'rtoqlari oldida hijolat bo'lishiga ham yo'l qo'yilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslarida ham, adabiyot darslarida ham insholar yozilishini ko'paytirish va har biriga o'ziga xos talablar asosida yondashish maqsadga muvofiqdir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

"Hayotga muhabbat" hikoyasini o'rganish

Avvalo, shuni aytish joizki, o'ninchi sinf adabiyot darslarida «Rustamxon» dostoni muammoli o'rganilganidan beri oradan ancha vaqt o'tdi va 10–12ta mavzu boshqa metodlardan foydalanilgan holda o'rganildi. Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasini muammoli

o'rganish o'qituvchi va o'quvchilarga malol kelmasa kerak. Qolaversa, albatta, muallimning ixtiyori o'zida. Istasa, bu hikoyani ham oddiy an'anaviy, o'zi o'rganib qolgan usulda, darslikda taqdim etilgan savol va topshiriqlar ko'magida o'rganaverishi ham mumkin. Lekin o'z kasbi va o'quvchilarini yaxshi ko'radigan, darslari har safar oldingisidan qiziqarliroq o'tishini istagan, o'z tarbiyalanuvchilarining dunyoqarashini kengaytirish, ularning saviyasini boridan bir pog'ona yuqoriga ko'tarish va ma'naviyatini sog'lomlashtirishga moyil o'qituvchilar bu hikoyani muammoli metoddan foydalangan holda tashkil etishlari adabiy ta'limning bosh maqsadiga muvofiqdir.

Asarning darslikdagi matni[1] bilan tanishib bo'lgan subyektlar ikki soat davomida istashsa, quyidagi (xohlashsa kitobdagi) savol va topshiriqlar ko'magida hikoyaning didaktik tahlilini amalga oshiradilar. Matnning mohiyatiga kiradilar.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, hikoyani o'rganish uchun dasturda ikki soat ajratilgan. Asar hajman ancha katta va uni darsda o'qish ancha vaqtni oladi. Shu bois o'qituvchi uni o'qib kelishni avvalgi darsning oxirida uyga vazifa sifatida topshirsa, va ayni shu asar asosida muammoli dars bo'lishini ta'kidlab qo'ysa, vaqtdan unumli foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

Keyingi darsda hikoyaning didaktik tahlilini bevosita asar matni yuzasidan taqdim etilgan quyidagi savollar va topshiriqlarni berish bilan boshlayveradi:

1. Ikki hamrohning holatini tasavvur qilishga urinib ko'ring. Sherigining gapiga Billning javob bermagani ularning vaziyatida oddiy holmi yoki Bill uni eshitmadimi?

2. Orqada qolgan kishining kechmishlari-ku matn bayonidan ayon. O'ylab ko'ring-chi, shu lahzada Billning ko'nglidan nimalar kechganikin? Uning beparvo ketaverganiga asoslanib mulohaza yuriting.

3. Yo'lovchining geografik bilimdonligiga e'tibor qiling. Uning avval boshda mashaqqatlardan o'zini yo'qotmay, ishonch bilan olg'a intilishiga, tushkinlikka tushib qolmaganiga nima sabab bo'lishi mumkin, Sizningcha? Nima deb o'ylaysiz?

4. Ikkinchi yo'lovchining Bill uni tashlab ketmasligiga qattiq ishonishi. Sizningcha, nimadan dalolat beradi? Buning sababi nimada?

[1] To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik-majmua. 2-qism. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 148–170-b.

Oziq-ovqat, o'q-dori yashirib qo'yilgan joyga yetib borish xohishi ishonch o'lmasligiga sabab bo'lishi mumkinmi? Fikringizni asoslang.

5. O'ylab ko'ringchi, yo'lovchining qiyinchiliklarga qaramay harakatdan to'xtamagani uning tabiatiga xos bo'lgan qanday tuyg'udan dalolat beradi? Uning gugurt donalarini qayta-qayta sanashi-chi?

6. E'tibor qilyapsizmi, Odam shunday vaziyatda ham ko'ziga yosh olmayapti. Muallifning fikricha u: *«Umidning achchiq haqiqat bilan hisoblashishini istamayapti»*. Bularning sababi uning shaxsiyatidagi qanday sifatlarga borib taqalishi mumkin? Shu haqda biror fikr ayta olasizmi?

7. Diqqat qiling! Badiiy asarlarda, odatda, tabiat hamisha insonga hamdard, rahmdil, madadkor sifatida tasvirlanadi. Bu hikoyada aksi bo'lyapti shekilli? Buning sabablari nimada yoki kimda? O'ylab ko'ring.

8. Odam avval oltinlarning yarmini yashirib qo'ygani, bir ozdan keyin esa hammasini to'kib tashlagani haqida o'ylab ko'ring. Axir u shu oltinlar uchun bu safarga chiqqan, ular tufayli yaxshiroq yashamoqchi edi-ku! Nega orzularidan voz kechdi?

9. Hikoya matnida shunday e'tirof bor: *«U bunday uzoq shimolda qurt va qurbaqa bo'lmasligini bilsa ham, chuqurchalardan qurbaqa axtarar, oyoqlari bilan yerni titkilab, qurt qidirardi»*. Bu jumla ko'nglingizda qanday tuyg'u qo'zg'adi? Shunday ishga tutingan Odamning holatiga munosabat bildiring.

10. Yo'lovchi ko'lmakdagi kichkina baliqchani tutish uchun qilgan mehnati zoe ketganda ilk bor yig'lab yubordi: *"Boshida sekin-sekin yig'ladi. Keyin atrofni o'rab olgan shafqatsiz cho'lni uyg'otmoqchi bo'lgandek, ovozining boricha ho'ngrab yig'layverdi"*. Bu sizningcha nima, irodaning sinishimi yoki shunchaki alamni?

11. Uning kaklik o'quvchilarini tiriklayin chaynashi, baliqchalarni shundog'icha yeb yuborayotgani tasviri-chi? Bu ta'bingizni xira qilgan bo'lsa kerak, to'g'rimi? Siz uning vaziyatini tasavvur qilishga, holatini tushunishga urinib ko'ring. Uni bunga majbur qilgan vaziyatga tayanib fikr yuriting.

12. Yo'lovchining Bill izi bilan birinchi to'qnashganidagi va ikkinchi marta ko'rganidagi holatini taqqoslab tahlil qiling. Nega shunday bo'ldi? Yo'lovchining bu holatiga munosabatingizni bildiring.

13. Muallifning *«...qo'rquv yashash uchun kurash bilan chambarchas bog'liqdir»* degan xulosasi haqida mulohaza yuriting. Munosabatingizni bildiring.

14. Hikoyadagi: *"...hayot alam chektiradi, o'limda esa qiynalish yo'q... Bo'lmasa nima uchun u o'lishni istamaydi?"* ifoda haqida o'ylab ko'ring. Siz uni qanday tushundingiz? Fikringizni matnga tayanib izohlashga harakat qiling.

15. *«Odam endi hayot uchun kurashmay qo'ydi. Undagi hayotning o'zi o'lishni istamas, shuning uchun ham uni ilgariga haydardi»* kabi xulosa haqida o'ylab ko'ring. Muallifning xulosasiga qo'shilsangiz, fikringizni asoslang. Qo'shilmasangiz e'tirozingizni asoslang.

16. Hikoyadagi: *«Uning tani bilan joni birga borardi-yu, shunday bo'lsa ham, ular bir-birlaridan ajralgandek edi: ularni bir-birlariga bog'lab turgan hayot rishtasi shu qadar ingichka edi»* ifodasiga tayanib muallifning so'z qo'llash mahorati haqida fikrlashing. O'ylab ko'ring, tan bilan jonning bir-biridan ajralishini, *"hayot rishtasining ingichka"*ligini qanday tasavvur qilasiz?

17. Shuncha azoblardan keyin Odamning daryodagi kemani ko'rganda hayajonlanmasligi sabablari haqida o'ylab ko'ring. Muallif shu yerda xato qilmadimi, Sizningcha? Yoki uning xulosasi asoslimi, nima deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.

18. Billning ham bu yergacha yetib kelishi ikkinchi yo'lovchinikidan oson bo'lmagani aniq, to'g'rimi? Lekin u o'z oltinlarini shu paytgacha tashlamay kelgani nimadan dalolat beradi? O'ylab ko'ring-chi!

19. Ikkinchi yo'lovchining Bill suyaklarini ko'rganda kechirgan o'ylariga diqqat qiling. Ikkala yo'lovchi xarakterini taqqoslang. Ular timsolida odamni anglashga harakat qilib ko'ring.

20. *«Joni xalqumiga tiqilganda ham u o'limga bo'ysunishni istamasdi»* tarzidagi iqror yo'lovchi xarakteriga xos bo'lgan qanday sifatdan dalolat beradi, Sizningcha?

21. Kasal bo'ri bilan kasal odam qiyofalari talqiniga e'tibor qiling. Ulardagi o'xshashlik va farqli jihatlarni ajrating.

22. Yo'lovchining o'zini qutqargan *«...stol atrofidagi odamlarga nafrat bilan»* boqishi sabablari haqida o'ylab ko'ring. Sizningcha, bu nimadan dalolat beradi?

23. Yo'lovchi "*...hayotda uchrashi mumkin bo'lgan kurashlarning eng shiddatlisi*"ni yengib o'tdi. Uning kechmishlari asosida iroda atalmish tuyg'uning ruhiy va jismoniy imkoniyatlari haqida fikrlashing.

O'qituvchi va o'quvchilar bu savol va topshiriqlar ko'magida hamkorlikda asar mohiyatiga kirishga, har ikkala qahramonning tutumlari tahlili asnosida odamni anglashga urundilar. Odam Allohning eng murakkab yaratig'i va uni anglash ham oson emas ekanligini angladilar. Uni jo'ngina yaxshi yoki yomonga chiqarib qo'ya qolish ham unchalar to'g'rimasligini bildilar.

O'n sakkiz ming olamning yaratilishiga sabab bo'lgan hazrati Odam bu sinovli dunyoda qanday yashasa, to'g'ri bo'ladi?! Bu "to'g'ri"likning mezonlari qachon va kim tomonidan belgilab qo'yilgan? Bu to'g'rilik nimalardan iborat? Endi o'qituvchi-o'quvchilar mana shu masalalar haqida o'ylab ko'rishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi o'zi va o'quvchilari oldiga: "***Hayotga muhabbat hissi va "Odam" degan nomga munosib yashash mashaqqatlari***" tarzidagi muammoli masalani qo'yadi. Va birgalikda bu muammoning yechimini topishga kirishadilar.

Qo'yilgan muammo nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchining o'zi uchun ham mavhum va qiziqarli. Agar haqiqatdan ham shunday bo'lsa, o'qituvchi buni o'quvchilaridan berkitmagani, o'quvchilarining katta yoshli hamkori sifatida ular bilan samimiy munosabatda bo'lmog'i, muammoning yechimiga birgalikda kirishishlarining ma'lum qilinishi o'ninchi sinf o'quvchilarida o'ziga nisbatan hurmat hissini kuchaytiradi. Ortiqcha aqllilik qilish, qalbakilik, aksincha, o'sinirlirning g'ashini keltirishi mumkin.

Odatda, o'qituvchilar o'quvchilari oldida o'zlarini juda ham bilimdon hisoblaydilar, va bu nisbatan olganda, to'g'ri ham. Chunki o'quvchilari hali oliy maktabda o'qishmagan, filologik, psixologik, pedagogik va metodik bilimlardan bexabar. Bunday auditoriyada har qanday o'qituvchi bir necha pog'ona yuqorida turadi va bu uning mavqyeini belgilaydi. Lekin auditoriya o'zgarsa, o'quvchilar o'rnida o'zlarining oliy o'quv yurtida dars bergan domlalari, ustozlari bo'lsa, ularning barcha bilimlari, bilimdonligi va mavqyei tezgina o'zgaradi va bu ham tabiiy.

Har qanday o'qituvchi hamma narsani bilishi mumkin emas va buni o'quvchilar, ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari juda yaxshi tushunishadi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchilar bilan

munosabatdagi samimiyligi uning obro'si ortishiga xizmat qilishi mumkinligini anglasa, kifoya. Shuni unutmagan holda o'qituvchining o'quvchilari oldiga qo'yilgan muammo yechimiga birgalikda kirishishlarini ma'lum qilishi va bu boradagi tabiiyligi hamda samimiyligi hammani ziyrak torttiradi.

O'rtaga tashlangan muammoning yechimi sari yo'naltirilgan hamkorlar oldiga quyidagi bir qator mantiqli savollar qo'yiladi va birgalikda ularning javobini topish uchun mulohaza yuritiladi.

Agar dars soati tugab qolsa, va balki bu ayni muddao hamdir, mazkur muammo hamda o'quvchilarni uning yechimi sari yo'naltiruvchi ushbu savol- topshiriqlarni o'quvchilarga uyga vazifa sifatida berib yuborish ham mumkin. Chunki bu muammo ham, uning yechimi sari olib boruvchi savol va topshiriqlar ham o'quvchilardan keng miqyosdagi mulohazani, aqliy va ruhiy zo'riqishni taqozo etadi. Ularga birdaniga javob topish qiyin. Shu ma'noda, o'quvchilar keyingi muammoli darsga har biri o'z intellektual imkoniyatlari darajasida ma'lum tayyorgarlik bilan keladilar va bu ham ayni muddao bo'lar.

1. Avvalo, hikoya qahramonlari holatiga ikkinchi tomondan yondashaylik. Bu yigitlarni shu safarga otlantirgan maqsadga e'tiborr qiling: ular oltin topish va shu asosda boyib ketishni, yaxshi yashashni orzu qilgandilar. Buning yomonligi nimada? Nega ular bunday jazolandilar?

2. Endi hayotga, atrofingizdagi odamlarga qarang: hamma boy bo'lishni istaydi. Lekin shu odamlarning hammasi boylarni yomon ko'rishadi. Bu nima? Nega shunday?

3. O'ylab ko'ringchi, ***"Odam" degan nomga munosib yashash***"ni Siz qanday tushunasiz? Odamlikning mezonlari qanday? Bu mezonlar qachon, kim tomonidan belgilangan?

4. Har qanday sog'lom fikrli ota-ona farzandlari o'zlaridan yaxshiroq, to'kisroq yashashlarini istaydi va ularni go'dakligidan shunga tayyorlab boradi. Ota-onalarning bu istagi jazoga mahkummi? Nima deb o'ylaysiz?

5. Nima deb o'ylaysiz, ***"Odam" degan nomga munosib yashash"*** faqat kambag'allikdan iboratmi? Yoki boy bo'lib ham bu nomga munosib yashash mumkinmi?

6. Odamga xos bo'lgan qaysi sifatlar fazilatlar deb nomlanadi va ular qaysilar, sizningcha?

7. Odamzodning tiynatida mavjud bo'lgan qanday sifatlar illatlar sanaladi? Va ular nima uchun yomonlik, illat deb baholanadi?

8. O'ylab ko'ringchi, odam qaysi sifatlarni egallasa, rag'batlantiriladiyu qaysi sifatlarga ega bo'lsa, jazolanadi? Nima uchun?

9. Inson xarakteriga xos bo'lgan fazilatlarning manbai qaerda? Xuddi shundek, illatlarning manbai qaerda? Har ikkisi odamlar tiynatida qachon va qanday qilib paydo bo'lgan, Sizningcha?

10. Odamga xos bo'lgan fazilatlar ham, illatlar ham bir joyda, uning ko'nglidan, ruhiy olamidan o'rin oladi. Bu ruhiy olam, ya'ni ko'ngilning joyi qaerda? U inson tanasining qaysi qismida joylashgan? Nima deb o'ylaysiz?

11. "Ko'ngil insondagi Allohning mulki" degan fikrga qanday qaraysiz? Fikringizni asoslashga urinib ko'ring.

12. Nima deb o'ylaysiz, shu gap haq bo'lsa, Allohning narsasi odamga qachon, qanday qilib kirib qolgan? Shu haqda bir fikr ayta olasizmi?

13. O'ylab ko'ring-a, fazilatlarni ko'ngliga joylab olgan, ularga amal qilib yashagan odamlar Alloh tomonidan rag'batlantiriladi. Nima uchun?

14. Illatlarni o'ziga singdirib olgan va yomonliklarga yuz burgan bandalar jazolanadi. Buning sabablari haqida biror gap ayta olasizmi?

15. Ana endi ***"Odam" degan nomga munosib yashash"*** nima ekani haqida mulohaza yuriting.

Bu savollarga o'quvchilar qanchalik to'kis javob berishadi, buni har bir sinfdagi o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini qanchalar chuqur egallaganliklari, fikr aytishga, munosabat bildirishga qanchalik o'rganganlari ko'rsatadi, albatta. O'qituvchi ham bu savollarga o'z fikr-munosabatini bir hamkor sifatida o'rtaga tashlashi mumkin. Chunki uning ham bu savollarga aniq javoblari bo'lmasligi mumkin. Hamkorlar, ayniqsa o'quvchilar, garchi ularga javob bera olmaganlari taqdirda ham bu haqda o'ylab ko'rishlarining o'zi ularni ma'naviy sog'lomlashuvi sari yetaklaydi. Bu savollar ularning tiynatidan tezgina chiqib ketmaydi. Ularni uzoq vaqt o'ylab yurishga majbur qiladi. Bu ma'naviy kamolot sari ilk qadam bo'lsa, ajabmas.

* * *

Bu tutum balki "Adabiyot" darsliklarida o'quvchilarga topishmoq aytib, pastida uning javobi yozib qo'yilganidek bema'ni tuyular. Lekin, hamonki bu masalalar o'rtaga tashlandimi, o'qituvchida ular haqida ma'lum bir tasavvur bo'lishi kerakligi maqsadga muvofiq deb topildi. Shu ma'noda quyidagi fikrlar o'qituvchilarga bu mulohazalarni o'zlariga o'xshagan bir fikr kishisining qarashlari va ular mutlaq haqiqatlikka aslo da'vo qilmasligini eslatib qo'yish o'rinlidir. Boisi – qo'yilgan masala juda jiddiy. Muammoning yechimi jarayonida hamkorlar boshi berk ko'chaga kirib qolganda bu fikrlar o'qituvchiga yo'naltiruvchi, yordamchi bir fikr sifatida asqotishi mumkin. Muallimga ozgina yo'nalish berib qo'yish maqsadida taqdim etilayotgan bu fikrlar o'qituvchi va o'quvchilarning qarashlarini o'z qolipiga solishdan yiroq. Shuning uchun ular maqoladan ajratilgan holda keltirilmoqda.

Avvalo, shuni aytish joizki, to'g'ri, har qanday ruhan sog'lom odam yaxshiroq, to'kisroq yashash uchun tirishadi. O'z hayotida ko'proq narsaga erishishga harakat qiladi. Elda "orzuga ayb yo'q" degan gap bor. Lekin bir muhim, rad etib bo'lmaydigan haqiqat bor: odamzodning boylikka, to'kis yashashga mehnat bilan erishishi, mehnat bilan mashaqqat chekishi, faqat halol mehnat bilangina o'sha boylikka erishishi Yaratuvchi qudrat tomonidan belgilab berilgan va shunday tutumgina uning rag'batlariga sazovordir. Mehnatsiz chekilgan har qanday mashaqqatning natijasi samarasiz va jazolarga mustahiq ekanligi yuqoridagi hikoya qahramonlari timsolida o'z aksini topgan.

Albatta, hikoya muallifi bunday maqsadni nazarda tutmagandir, lekin fikr kishisi bir masalaga har xil rakursdan qaraydi va o'zining saviyasi darajasida undan ma'lum xulosalarni chiqaradi. Yigitlar ham mehnat bilan emas, oson yo'l bilan boyib ketishni istashdi va maqsadlariga erisha olmadilar.

Hunari, halol mehnati, aqli va bilimi bilan moddiy jihatdan ma'lum to'kislikka erishgan har qanday odam farzandlariga yedirayotgan luqmasi halol bo'lishini istaydi va hamisha shunga intiladi. U aqlli odam sifatida biladi: hamma narsaning hisob-kitobi bor; banda qilmasa, ertaga Xudo so'raydi; nohalolligi uchun Alloh eng nozik joyi – farzandlaridan tutishi mumkin; buning uchun jazolashinishi muqarrar. Shu bois imonli odam to'g'ri tutum qiladi. Har kimning Xudo oldida hisob-kitobi o'zi bilan, albatta.

Dangasa, o'qimagan, qo'lida bir hunari yo'q, qaysidir xatolari, bilib-bilmay qilib qo'ygan nojo'ya ishlari uchun jazolanayotganini o'zi ham anglamayotgan odamlar atroflaridagi o'zidan yaxshiroq yashayotgan odamlarga hasad bilan qarashadi. Anglab-anglamay ularni yomon ko'rishadi. Bu ham insonning tabiatida mavjud bo'lgan, unga Odam atoning farzandi orqali o'tgan bir salbiy tuyg'u. Juda ko'pchilik o'zi tushib qolgan vaziyatga o'zidan boshqa hammani aybiaydi. O'ziga: "Men qaerda xato qildim, nega shunday holatga tushib qoldim?" degan savolni bermaydi. Chunki bu savolning javobi og'ir keladi, o'zgalarni aybiash esa, oson.

Odam degan nomga munosib yashash – Alloh to'g'ri deb uqtirgan yo'ldan ozmay yashash, Xudoga xos bo'lgan barcha fazilatlarni o'zligida imkon qadar ko'proq jamlash va shularga amal qilgan holda yashashdir. Shunda barcha orzulari, rejalari va tutumlari yaratganga xush kelib, uning rag'batlariyu marhamatlariga sazovor bo'lib yashash mumkin bandasi. Aks holda, jazolarga mustahiqdir.

Farzandlar – ota-onalar, o'quvchilar – o'qituvchilar tomonidan shunday ruhda tarbiyalansa, insoniy mezonlarga hiyonat qilinmasa, hammasiga erishish mumkin. Asarlar davomida oilada ham, ta'lim-tarbiya muasasalarida ham yaxshi deb uqitilayotgan sifatlar – fazilatlar, ko'ngilda g'ashlik paydo qiladigan barcha sifatlar illatlardir. Fazilatlarning barchasi Allohga xos bo'lgan sifatlar va shuning uchun ular bandani hamisha yaxshilikka yetaklaydi. Oqibati yomonlik bilan tugaydigan barcha tuyg'u va tutumlar shaytoniy sifatlar bo'lib ularga egalik odamzodni har xil qiyinchiliklar, azoblarga ro'baro' qiladi.

Ibn Sino qalamiga mansub ilmiy-tibbiy asarlar – "Urjuzalar"idan birida aytilishicha, odamning yuragida ruh deb atalgan bir olam uchun alohida joy (odamga u joy bo'shliq bo'lib ko'rinadi) ajratilgan ekan. O'sha yerda insonning ko'ngli joylashgan ekan. U odam yaratilganda Alloh tomonidan puflab kiritilgan Yaratuvchi qudratning nafasi ekan. Shuning uchun bu ko'ngil odamdagi Allohning mulki deb atalarkan. Har qanday odam o'zidagi shu mulkni yaxshiliklar bilan qancha to'yintirsa, shuncha rag'batga sazovor bo'laveradi. Mana shu odam degan nomga munosib yashash demakdir.

Barcha fazilatlar ham, illatlar ham insonning ruhiyatidan, ana shu ko'ngil degan mulkdan joy olgan. Oqil odam o'z fazilatlarini orttirib, illatlarni imkon qadar kamaytirishga tirishadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qo'shimcha adabiyotlardan insholarning turlari haqida ma'lumot to'plang. Topildiqlaringiz bilan bir-biringizning materialingizni to'ldiring.

2. Insho bilan ijod mahsuli (badiiy bitiklar) mustaqil ish sirasiga kiradi. Ularning bundan boshqa yana qanday o'xshash jihatlari bor, nazaringizda?

3. Har ikki mustaqil ish turining farqli jihatlari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?

4. *"Masalan, "O'rtog'imning tavsifi", "Men sevgan suyukli" singari mavzulardagi ishlar sir saqlanishi kerak. O'quvchining o'qituvchiga ishonchi ham uning ijodidagi samimiylikka garovdir"* degan fikrga qanday qaraysiz? Bunga qo'shilasizmi? Buni qanday amalga oshirish mumkin deb o'ylaysiz?

5. Ona tili darslarida olinadigan insholarni tekshirishda yetakchi ahamiyat kasb etadigan jihatlarga diqqat qiling. Ularni ajratib adabiyot daftaringizga yozib oling.

6. Adabiyot darslarida yoziladigan insholarga qo'yiladigan talablarni ajratib oling. Har ikkala yo'nalishdagi insholarning xususiyatlari haqida suhbatlashing.

7. Ona tili darslarida olingan insholarda mazmunning, adabiyot darslarida olingan insholarda savodxonlikning ikkinchi darajaga tushishiga qanday qaraysiz? Fikringizni asoslang.

8. Umumta'lim maktablarida inshoning o'rni va roliga qanday qaraysiz? Nega shunday deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.

9. Internet sahifalari (Fasebook, Telegram, Messenger, Whats App va hk)dagi yozma nutqni kuzating. Bu savodsizlikda kim aybdor deb o'ylaysiz? Nega?

10. Bu savrodsizlik bilan insholar orasida biror aloqa bormi? Nima deb o'ylaysiz? Umuman, bu kabi savodsizlikning sabablari namada, Sizningcha?

11. Millatning bu qadar savodsiz bo'lishida o'qituvchilarning, xususan, ona tili muallimlarining roli qanday? Bo'lajak o'qituvchi sifatida bunga qanday qaraysiz?

12. Bu savodsizlikka, Sizningcha, qanday barham berish mumkin? Amaliy mashg'ulotda shular haqida fikrlashing. Munosabatingizni bildiring. Takliflar kiriting.

13. "Hayotga muhabbat" hikoyasi ustida ishlash namunasiga diqqat qiling. Uni boshqa biror metodning xususiyatlari asosida qayta didaktik tahlilga torting.

14. Mazkur ishlanmani amaliy mashg'ulotda o'qituvchi-o'quvchi sifatida amalda sinab ko'ring. Pedagogik tajriba orttiring.

15. Siz ***"Odam" degan nomga munosib yashash"***ni qanday tushunasiz? Fikringizni asoslang.

16. "Onamga badiha" mavzusida esse yozing. Yaratig'ingizni hamkurslaringiz bilan o'rtoqlashing.

34-MAVZU. O'QISH TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI. O'QISHNING ADABIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Reja:

1. Sinfda o'qish va uning xususiyatlari.

1. 2.O'quvchilarning mustaqil o'qishlari va buning o'ziga xos jihatlari.

2. Sinfdan tashqari o'qish va uni tashkil etish yo'llari.

3. Sinfdan tashqari o'qish nazorati.

4. To'garak. To'garak turlari.

5. To'garakni yuritish talablari, zarur me'yoriy hujjatlar.

6. Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.

O'qish – yozilgan matn bilan tanishish, uni tushunish va o'zlashtirishga qaratilgan nutqiy faoliyatning bir turi bo'lib, shaxslararo kommunikativ faoliyat sohasiga daxldor. O'qish muloqot shakllaridan biridir. O'qish til o'rganish jarayonining asosi hisoblanib, u matnda shakllar yordamida ifodalangan ma'lumotlarni o'zlashtirish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Bu, o'z navbatida, inson faoliyatining har qanday turida tildan erkin va samarali foydalanish imkoniyatini beradi[1].

Psixologik adabiyotlarda "o'qish" tushunchasining zamirida mutolaa jarayonidagi "o'qish texnikasi" va "o'qish asnosida uqish" anglashiladi. O'qish jarayonida o'qilganlarni tushunish o'qish texnikasi bilan bog'liq holda maqsad va manbani anglaradi. O'qish inson tafakkurining bir ko'rinishi sifatida mutolaa jarayonida matn mazmuniga xos bo'lgan elementlarni o'zaro bir-biri bilan bog'lagan holda mohiyatiga kirish, mazmunni anglash demakdir. Kitobxon nafaqat tayyor ma'lumotlarni o'zlashtiradi, balki o'qiganlarini o'z tajribasi, bilimi va mavjud ma'lumotlari bilan taqqoslaydi. Ilmda o'qish asnosida uqishga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi faktorlar belgilangan:

- ma'lum axborotga ega bo'lish;
- matnning kompozitsion tuzulishini ilg'ash;
- matnga xos til xususiyatlarini farqlash;
- mantiqiy va emotsional ifodalarni tushunish;

[1] Алиева З. Г., Хуснутдинова А. Н. Начальное обучение письменной речи в арабских странах. – Москва: "НИАР", 2000. – 448 с. С. 347.

• matndagi ma'lumotlar, uning leksik va grammatik xususiyatlari, ifoda uslubining o'quvchi nutq uslubiga, leksik va grammatik darajasiga yaqinligi;

• matnni o'zlashtirish asnosida o'quvchi diqqatining uni anglashga yo'naltirilganligi;

• o'quvchining individual psixologik xususiyatlari.

O'qish quyidagi turlargaajratiladi:

a) analitik va sintetik o'qish (psixologik xususiyatlarga tayanish);

b) tarjimali va tarjimasiz o'qish (o'qilayotgan matnni anglashda ona tilning ishtiroki darajasi);

v) lug'at bilan yoki lug'atsiz o'qish (o'quvchilarga yordami darajasi oldindan belgilab qo'yilgan);

g) individual, frontal, sinfda va uyda o'qish (o'quv ishlarini tashkil etish shakliga ko'ra);

d) ko'rish, kuzatish, izlanish, tanishuv (ko'zda tutilgan maqsadga muvofiqligi va jarayonning borishiga ko'ra).

O'qishning barcha turlari o'zaro aloqadorlikda bo'ladi va hamisha bir-birini to'ldirib boradi. Nutq faoliyatining bu turidan foydalanilganda o'quvchilarning o'qishdan maqsadni anglashi bu jarayon shartlaridan biri sanaladi.

O'qish ta'lim bilan bog'langanda topshiriqlar o'qishdan oldingi va o'qishdan keyingi ish turlariga ajratiladi. Ta'limda o'qish mutolaa texnikasini o'zlashtirish (harflar, so'z, so'z birikmalari, jumlalar va ularning tovush turlariga e'tibor nazarda tutiladi) va to'g'ri o'qish, ya'ni tajribali kitobxon tarbiyalashni nazarda tutadi. Tajribali kitobxon bilan tajribasiz kitobxon o'qish asnosida har xil jihatlari bilan ajralib turadi. Tajribasi kam kitobxon sekin va bir xil tezlikda o'qiydi. Bu hol o'qilgan materialning anglanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sekin o'qish o'qilganlarni aytib berishga tenglashtiriladi. Ko'pincha diqqat matnning mohiyatiga emas, uning shakliga qaratiladi. Tajribali o'qirmanda maqsad o'qish tezligi va matn mazmuni hisoblanadi. O'qilgan narsaning mohiyatiga kirish va uni o'zlashtirish bir vaqtning o'zidaamalga oshiriladi. Tez o'qiganda ko'zlarning fiksasiyasi uncha katta bo'lmaydi. Tez o'qilganda diqqat matnning mazmuniga qaratiladi.

Metodika ilmida o'qishning:

○ *sinfda o'qish* (o'quv ishlarini tashkil etish shaklining ma'lum joyga asoslangan turi. Biror matnni sinfda o'qish ishlari darsda

o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Matn ustida ishlash, ya'ni uning tahlili o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligida amalga oshiriladi);

○ *analitik o'qish* (o'qishning ta'limiy turlaridan biri hisoblanib matnning mazmuni va tuzilishini ochishga yo'naltiriladi. Analitik o'qishda o'quvchining diqqati matnni til shakli, tuzilishi va nutq komponentlarini aniqlashga qaratilgan holda jo'ngina qabul qilinishini nazarda tutadi. O'qishning bu turi sintetik o'qishga qarama-qarshi qo'yiladi. Kommunikativ ta'limda o'qishning har ikkala turi bir-birini to'ldirib keladi);

○ *sintetik o'qish* tez, yugirik o'qish demakdir. Sintetik o'qish tez o'qish bilan birga leksik va grammatik bilimlarning puxta egallanganligini, matndagi notanish so'zlarning mazmunini yo'l-yo'lakay anglab olinishini, har xil mayda tushunchalardan yaxlit bir fikr chiqara bilishni taqozo etadi. Analitik va sintetik o'qish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini taqozo etadi. O'qilganlarni uqish sintetik o'qishning har bosqichida muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim amaliyotida sintetik o'qishdan foydalanish uchun o'quvchilar grammatik materiallarni, o'qish ko'nikmasini, notanish so'zlarni matnning umumiy mazmunidan kelib anglab olish ko'nikmalarini yaxshi egallagan bo'lishlari lozim. O'quvchilarda sintetik o'qish ko'nikmalarini shakllantirish uchun hamisha uyga o'qishga berilgan matnning ma'lum qismi sinfda tahlilga tortilgan bo'lishi va uzluksiz ravishda ularning mustaqil o'qishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Sintetik o'qish samaradorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri matndir. Matn o'zlashtiriluvchan, ma'lumotlarga boy va mazmundor bo'lishi shart. Sintetik o'qish uchun taqdim etilgan matn analitik o'qishga berilgan matndan yengilroq, grammatik qoidalarga to'liq amal qilingan va o'zida kam miqdordagi yangi leksikaga ega bo'lishi kerak va hk. O'quvchilarning sintetik o'qishlari nazorat qilinganda asosiy e'tiborni matnning o'qilishi va o'qilganlarning tushinilganlik darajasiga qaratish masadga muvofiqdir;

○ *ovoz chiqarib o'qish*da o'qilayotgan matnni baland ovozda talaffuz, ifoda qoidalariga rioya qilgan holda, til xususiyatlariga, o'qish ritmi va hq.larga amal qilib o'qish taqozo etiladi;

○ *jamoa bo'lib o'qish* (o'qishning bu turi asosan, boshlang'ich sinflarining o'qish darslarida matnlarni o'qituvchi bilan birgalikda

barcha o'quvchilarning ovoz chiqarib mutolaa qilishlari nazarda tutiladi);

- *individual o'qish* (har qanday matnning bir kishi tomonidan o'qilishi);

- *ifodali o'qish* (badiiy-obrazli matnning xususiyatlarini anglagan holda adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilib o'qish nazarda tutiladi);

- *mustaqil o'qish* (o'quvchining o'z tashabbusi bilan amalga oshiriladigan o'qish turi. O'qishning bu turi o'qish texnikasining avtomatlashganligi, leksik-grammatik ko'nikmalarning yuqori darajada shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlar mustaqil o'qishda diqqatning shaklga emas mazmunga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi. Zamonaviy metodik adabiyotlarda ma'lumotni tanlab o'qish (scanning), asl mazmunni tushunib o'qish (skimming) hamda matn mazmunini to'liq anglagan holda o'qish (reading for detailed com'rehension) keng tarqalgan. Mustaqil o'qishning sanalgan birinchi varianti zamirida izlanuvchi o'qish, ikkinchisida tanishuv o'qish va uchinchisida esa tadqiqiy-tahliliy o'qish nazarda tutiladi. O'qishning bu turlari o'qish maqsadidan kelib chiqqan holda ta'limiy o'qishlarning har xil variantlari sifatida xarakterlanadi);

- *tanlab o'qish* (malum maqsad yo'nalishiga qaratilgan o'qish turidir. Bu o'qishda nazarda tutilgan biror masala yuzasidan zarur ma'lumotlarni aniqlash, bu borada umumiy tasavvur olish maqsadida o'qish tushuniladi. Olingan ma'lumotlarga tayangan xolda o'qirman shu matn unga kerak-kerakmasligini aniqlaydi. Bunda o'qirman matnning sarlavhasiga, ichki sarlavhalarga, alohida xatboshilar yoki ayrim jumlalarni o'qish bilan kifoyalanadi. Tanishuv o'qishi, izlanuvchi o'qish va tadqiqiy o'qishlar ham shu maqsad va faoliyatga asoslanadi);

- *diskursiv o'qish* (analitik o'qishga xos xususiyatlar diskursiv o'qishning mohiyatiga monand keladi);

- *uyda o'qish*(sinfdan tashqari o'qish shakllarining bir turi bo'lib, o'quvchilar tavsiya etilgan yoki o'zlari ixtiyor etgan matnlarni uyda o'qiydilar. Bunday o'qishning natijalari darsda yoki sinfdan tashqari vaqtlarda nazorat qilinadi. Uyda o'qish uchun xrestomatiyalar, sinfdan tashqari o'qish uchun o'quv qo'llanmalari tavsiya etiladi);

- *tanqidiy o'qish* (kommunikativ o'qishning bir turi bo'lib, matn mazmunidagi qarashlar bilan o'qirmanning shaxsiy qarashlari, bilimi va hayotiy tajribalariga tayangan holda baholashi nazarda tutiladi.

O'qishning bunday turi matnni to'liq va aniq tushunilishi asnosida amalga oshiriladi.

O'qish malakasining yuqori darajada shakllanganligi, matn mazmunini, uslubi, til shakllarini tahlil qila bilish, o'qilganlarni tanqidiy nazar bilan tahlil qila olish ko'nikmalarining shakllanganligiga asoslanadi. Tanqidiy o'qish filolog talabalarning adabiyotshunoslik va matnshunoslik darslaridaga amaliy faoliyati hisoblanadi);

- *lug'at bilan o'qish* (begona tilda yaratilgan matnlarni lug'atlar yordamida o'qish);

- *filologik o'qish* (filologik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari talabalarining filologik yoki pedagogik yo'nalishdagi bilimlarni o'zlashtirish maqsadida amalga oshiriladigan o'qishlari);

- *ekstensiv o'qish* (ta'limiy o'qishning bir turi bo'lib (lotincha *extensivus* – kengaytirilgan, yoyilgan ma'nolarini anglatadi), ma'lum yo'nalishdagi hajman katta matnlarni umumiy mazmunini ilg'ab olish maqsadida amalga oshiriladi. O'qirmanning diqqati matnning shakliga emas, mazmuniga qaratiladi, ya'ni sintez analizdan ustuvorlik qiladi. Ekstensiv o'qishda mazmunning mohiyatiga chuqur kirib uni o'zlashtirib olish emas, balki uni umumiy tarzda ilg'ab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'qish turi ham o'quvchilarning mustaqil o'qishlari va sinfda o'qituvchi bilan birgalikda muhokama qilish uchun tavsiya etiladi. Shu maqsad asosida o'qilgan asarning muhokamasi, u bilan bog'liq yozma ishlar uyushtiriladi) va hk. bir qator turlari mavjud[1].

Bundan tashqari, ta'lim amaliyotida, o'qitish tizimining qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar o'qish jarayoniga u yoki bu darajada daxldor bo'lgan darsdan tashqari ishlar ham mavjud:

– ayrim yozuvchi va shoirlar, olimlar bilan uchrashuvlarga bag'ishlangan adabiy kechalar, bayram tadbirlari va hk.lar. Bunday tadbirlar: ommaviy tartibdagi ishlar: kitoblar ko'rgazmasi; san'at asarlari ko'rgazmasi; fotolavhalar; til bayramlari; til oyligi va hk.;

– ommaviy tanlovlar: ifodali o'qish; viktorinalar (topqirlar bahsi); chayonvord, boshqotirmalar ko'rgazmasi;

– ommaviy tadbirlar: karnaval; festival; forum; xalq sayillari; ommaviy sayohatlar; madaniy yurishlar; ziyoratlar; hasharlar; xalq o'yinlari;

[1] Аитова О.Г., Хуснутдинова Л.Н. Новая методическая терминология в начальной школе: словарь и практикум. – Москва: ИКАР, 2009. – С. 347.

– guruhiy tadbirlar: to'garaklar, klublar; folklorchilar jamiyati; jurnalistlar jamiyati; tarjimonlar to'garagi; o'lkashunoslar uyushmasi. Yakka tartibdagi tadbirlar: fan olimpiadalari, tanlovlar, musobaqalar; sust o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan ishlash[1] va hk.;

Bularga qo'shimcha ravishda devoriy gazetalar chop etish, ertaklar olamiga sayohat, badiiy asarlarni sahnalashtirish, og'zaki jurnal, intermediya, latifachilik, filmlar muhokamasi, "O'yla, izla, top" o'yinlari[2] ham o'quvchilarning kitob o'qishlariga ma'lum darajada turtki beradigan tadbirlardir.

O'quvchilarga darsdan tashqari o'qish uchun tavsiya etiladigan asarlarning hajmi haqidaadabiyot o'qitish metodikasida turlicha fikrlar bor. L. A. Sheymanning tavsiyasiga ko'ra, II–IV sinflarda 5–20 bet (II sinfda 5–10, III sinfda 10–5, IV sinfda 15–20); V–VII sinflarda 20–70 bet (V sinfda 20–30, VI sinfda 30–45, VII sinfda 45–70); VIII–X sinflarda 70–150 (VIII sinfda 70–90, IX sinfda 90–120)[3].

Muallifning e'tirof etishicha, bular me'yoriy ko'rsatkichlar emas, balki chamalardir. Umuman, uyda kamida bir soat mobaynida biror kitobni o'qish inson ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Uzluksizlik har kuni o'qish orqali ta'minlanadi. Shuningdek, masalaning boshqa qirrasi ham bor: hajmi kattaroq parchalarning dastlabkisida so'z o'rganishga e'tibor ko'proq qaratilsa, keyingilarida takror ishlatilish xususiyatiga ko'ra avvalgi leksika jadal o'zlashadi, notanish so'zlar esa kamayib boradi. Natijadaasta-sekin matnlar ham hajman kattalashadi. Albatta, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari mutolaa qiladigan o'quv fanlari ko'p. Bizningcha, haftada 2–3 kun bir soatdan o'qish bilan shug'ullanilsa, shuning o'zi kifoya qiladi. Bunda dastlab asarni o'qib, lug'atdan foydalanib mazmunini tushunishga erishish bilan bog'liq ishlar bajariladi. So'ngra savol va topshiriqlar ustida ish olib boriladi.

Metodist olim S. Matjonov o'z tadqiqot ishlarida o'qish 'aqida so'z yuritarkan: "*Siz darsliklardan hayot va uning qonuniyatlari haqidagi bilimlar bilan tanishasiz, ularni aql kuchi bilan qabul qilasiz, xotiringizda qayd etasiz. Ammo bu bilim va xulosalar hissiyotingizga zarracha ta'sir ko'rsatmaydi.*

[1] Мухаммаджанова Г. Дарслик матнида матнга оид ахборотларни ўқитишга йўналтирилган топшириқлар тизими. Педагогика фанлари номзоди ... дисс. – Т., 2003. 20–24-б.
[2] Мухаммаджанова Г. Дарслик матнидан мантиқий-ахборий ахборотларни ўқитишга йўналтирилган топшириқлар тизими (5–9-синфлар мисолида). Педагогика фанлари ... Т., 2005. 22-б.
[3] Шейман Л. А. Самостоятельное самообразование в школе и институте. – Фрунзе: «Мектеп», 1982. С. 39

Badiiy asarni o'qiganda sizdagi bu "loqaydlik" faol munosabatga almashinadi. Qalbingiz cheksiz shodliklarga chulg'anadi – ruhlanasiz, g'azablanasiz, iztirob chekasiz. Chunki u qalb dardi tufayli yaratgan, dard esa suhbatdoshni befarq qoldirmaydi"[1] deydi.

Muallif badiiy asar mutolaasi bilan ilmiy asarlarni o'qish borasidagi tafovut haqida shunday deydi: *"Ilmiy asarlar g'aflat va jaholatdan qutqarsa, badiiy asarlar dag'allik va razolatdan xolos etadi. Unisi ham, bunisi ham kishilarning ma'rifatli, baxt-saodatli bo'lishi uchun bab-baravar foydali va zarurdir"*[2].

Matjonov domla kitob o'qish insonning ma'naviy dunyosini boyitish asosi ekanini ta'kidlarkan: *"Badiiy asarni o'qish o'zicha hali hyech narsani anglatmaydi. Eng muhimi, nimani o'qish va o'qigann qanday tushunishdadir. Demak, kitobxonlik – o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir"*[3], - deydi.

Insonning ma'naviy to'kislik sari intilishi – tabiiy jarayon. Shu tabiiy taraqqiyotga tayangan holda fuqarolari erkinligini ta'minlash, xalqining ham moddiy, ham ma'naviy to'kisligiga erishish har qanday mamlakatning kuchli bo'lishi garovidir. Shu ma'noda, yurtimiz ta'lim-tarbiya tizimida ham pedagogik tafakkur sharoiti yangilandi, o'z qarashiga ega bo'lgan, e'tiqodi sog'lom fuqaroni shakllantirish yo'lida ish olib borilmoqda. Ya'ni inson ma'naviyatining sog'lomlashuviga, uning yaxshi sifatlar bilan to'yinishiga birlamchi yumush sifatida yondashish ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi.

O'quv-tarbiya amaliyotida ham, garchi juda sekin bo'lsa-da, o'zgarishlar sodir bo'layotir. Ta'lim kechimi insoniylashdi, mazmuni insonparvarlashdi. O'qitish jarayoni oliy maktabga kiruvchi abiturient yoki bo'lajak mutaxassis tayyorlashdan barkamol shaxs shakllantirishdek, sog'lom ma'naviyatli odamni tarbiyalashday keng qamrovli maqsadga yo'naltirildi. Tarbiyalanuvchilar o'zgalar tomonidan o'qitilishi kerak bo'lgan ta'lim obyektidan o'qitish va tarbiyalash kechimida o'zi bevosita faol ishtirok etadigan subyekt darajasiga ko'tarilmoqda. Ya'ni tarbiyalanuvchi xuddi o'qituvchi singari dars jarayonining ijrochisiga aylanib bormoqda.

[1] Матжон Сафа. Китоб ўқишни биласизми? – Т.: 1993. 11-бет.
[2] Сафа Матжон. Мактабда адабиёт таълимини ташкил этиш (Ўқитувчилар учун методик қўлланма). – Т.: "Ўқитувчи", 1996. 5-б.
[3] Сафа Матжон. Китоб ўқишни биласизми? – Т. Ўқитувчи, 1993. 26-бет.

Ma'lumki, ma'naviy barkamollik insonda qaror topgan ijtimoiy tafakkurga tayanadi. Har bir insonning ijtimoiylashuvi, jamiyatga aralashuvi, birinchi navbatda, oila bag'rida, uyda yuz beradi. Bu jarayonning badiiy asarlar ko'magida olib borilishi juda ko'p va xo'p samara beradi. Chunki badiiy asar kishining tafakkuri bilan birga sezimlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Tafakkur yordamida bilib olingan tushuncha va haqiqatlar tuyg'ular yordamida shaxsning tabiatiga singdirilib, e'tiqodga evrilishi mumkin. Shuning uchun ham har bir shaxsning ijtimoiylashuvida badiiy adabiyot hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xalqning fikrini uyg'otish, ko'zini ochish, atrof olam, jamiyat va o'zi to'g'risida o'ylab ko'rishdan tashqari, ommani faoliyatga undash, harakatga da'vat etish kabi ijtimoiy-siyosiy funksiyalarning barchasini adabiyot amalga oshirishi mumkin. Hamma zamonlarda ham badiiy asarda ijtimoiy munosabatlar, turmush muammolari, ro'zg'oriy yumushlar ham aks ettiriladi. Negaki, odam ijtimoiy mohiyatga ega va ijtimoiylashgandagina o'zini namoyon eta oladigan yaratiq sifatida shunday munosabatlar qurshovida bo'lishga, binobarin, adabiyot ham insonni shunday muammo-munosabatlar og'ushida tasvirlashga mahkum. Har qanday katta-kichik hayotiy muammoga inson ko'ngil holatini anglatish, uning ruhiyati tovlanishlarini tasvirlash vositasi sifatida qaralsa,adabiyotning asl tabiatini anglash mumkin bo'ladi.

Keyingi paytlarda ziyolilar orasida «yoshlar kitob o'qimay qo'ydi» degan fikr hukumronlik qilib qoldi. Buning o'ziga yarashaasoslari ham bor, albatta. Ya'ni bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish asnosida nafaqat mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotida, balki fuqarolar ma'naviyatida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mustaqil ong, yangicha tafakkur tizimi shakllanib ulgurmay jamiyat ahli ruhiyatida ma'lum bo'shliq yuzaga kelib qoldi. Qolaversa, mamlakatda imloning o'zgarishi ham bu jarayonga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Shu sabab millat ma'naviy taraqqiyotida kamida o'n yillarga kechikish sodir bo'ldi. Yana shuni ham tan olish kerakki, kechagi jamiyatda ham hamma kitob o'qiyvermagan. O'qiydigan oilalarda, garchi ular kam bo'lsa-da, hamisha o'qilgan, o'qilyapti, o'qiladi.

Bolalarni ko'rkam asar o'qishga qiziqtirish, badiiy so'zni tuyish, undan ta'sirlanish va zavq ola bilishga yo'naltirish ularning ko'ngillarini jujalashtiradi, tabiatini tozalaydi. Ko'pchilik ota-onalar, ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, hatto millat

ziyolilari yosh avlodda badiiy kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni saqlab qolish va uni yanada rivojlantirish yo'lida qayg'urmoqda.

Badiiy asar qog'oz-kitob ko'rinishida bo'ladimi, elektron shaklda o'qiladimi, bundan qat'i nazar uning beradigan ma'naviy oziqasi o'zgarmaydi. Ayonki, kichik yoshdagi har qanday bolaning ruhiyatida ertak eshitishga moyillik bor. Bolasining kelajagi uchun qayg'urgan har qanday sog'lom fikrli ota-ona Eynshteynning: *"Bolangiz yaxshi odam bo'lishini istasangiz kitob o'qib bering. Bolangiz yanada yaxshiroq odam bo'lishini istasangiz, yanada ko'proq kitob o'qib bering"*,- degan maslahatiga amal qilgan holda har kuni uxlashdan oldin unga ertak o'qib berishi bolada kitobga muhabbat hissini uyg'otishdagi dastlabki qadamni bo'ladi.

Xullas, yosh avlod ma'naviy takomilini ta'minlashda kitobdan oqilona foydalanish, buni to'g'ri tashkil eta bilish esa oilada ota-onaning, ta'lim muassasalarida tarbiyachi va o'qituvchilarning burchidir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonini o'rganish

Umumiy o'rta ta'limning so'nggi bosqichi 11-sinflar "Adabiyot" darsligida o'zbek xalq og'zaki ijodidan namuna sifatida "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni (to'rt soat mobaynida) o'rganish uchun taqdim etilgan[1].

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari ijodkor repertuarining g'oyat boyligi bilan birga rang-barangligidan guvohlik berishi, birga ijrochilar iste'dodi va badiiy mahoratini, xalq dostonlarining g'oyaviy estetik, badiiy xususiyatlarini, asosiy motivlar, obrazlar tahlilini o'rganish hamda baholashda muhim manba hisoblanadi.

Po'lkan shoir tilidan yozib olingan "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni mazkur dostonlar turkumini boshlab beruvchi xalqchil g'oyaviy badiiy jihatdan yuksak asar bo'lib, boshqa baxshilar repertuaridagi Go'ro'g'lining tug'ilishi va yoshligi haqidagi asarlardan

[1] To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik-majmua. T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 51-b.

mukammalligi, voqealarning shiddatli rivoji, kelishmovchilikning keskinligi bilan ajralib turadi.

Dostonda Go'ro'g'lining tug'ilishi to'g'risidagi qo'sh motiv: biri g'ayri-tabiiy holatda go'rda tug'ilishi bo'lsa, ikkinchisi uning otasi haqiqatdan ham ko'r bo'lganligi bilan bog'liq motivlarning yonma yon ishlanganligini ko'rish mumkin. "Go'ro'g'lining tug'ilishi"ning bir necha variantlari bo'lib, ba'zilarda umuman Go'ro'g'lining otasi bo'lmagan, degan g'oya ham ilgari suriladiki, bu shubhasiz dostonning xalqchiligiga, g'oyasiga putur yetkazadi. Bu tipdagi dostonlarda Go'ro'g'lining ijtimoiy kelib chiqishi, nasl-nasabi, ona vatani, haqidagi ma'lumotlar uchramaydi.

"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Qashqadaryo va Surhandaryolik baxshilar Yusuf O'tagan o'g'li, Eshmurod Sherdana o'g'li, Toshmurod shoir, Tog'ay Mehmon o'g'li singari bir qator xalq ijodkorlaridan ham yozib olingan. Bu baxshilar variantida, yuqorida aytganimizdek, Go'ro'g'lining tug'ilishiga oid birgina motiv qahramonning go'rda tug'ilishi motivigina ishlangan xolos"[1].

Darslikda dostondan taqdim etilgan parchalar mana shu Po'lkan shoir tilidan yozib olingan mukammal variantdan olingan. Faqat keltirilgan ikkita parchani bir-biri bilan bog'lab turadigan qisqacha nasriy bayon yo'q. O'quvchi dostondan berilgan ikkinchi parchani o'qishga kirishganda anglashilmovchilik yuzaga keladi.

Ya'ni Zargardan Rustambekning yordami bilan vatani Yovmitga qarab yo'lga chiqib ketgan Go'ro'g'li ikkinchi parchada Rayhon arab yurtiga kelib qoladi. Bir ayolni ko'rib u aynan "*Izlaganim o'z oldimdan topildi*" deb Xoljuvonni izlab kelganini aytadi. Axir u Zargardan Xoljuvonni izlab chiqmagan edi-ku! Bu o'quvchilarning asar mazmuni haqidagi tasavvurlari tiniqlashuviga aks ta'sir ko'rsatadi.

Mana shu anglashilmovchilikni bartaraf etish uchun oradagi voqealar rivoji haqida bir xatboshi shaklida tushuncha berib o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Metodika ilmida katta hajmli asarlardan ko'chirma olinganda matnning yaxlitligini ta'minlash va parchalarning o'zaro bog'liqligiga alohida e'tibor qaratish taqozo etiladi. Darsliklarda yo'l qo'yilgan bunday xatoliklar o'quvchining xafsalasini pir qilib

[1] http://ziyouz.com/?p=214

qo'yishi, anglamsizlik uning asarni o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndirib qo'yishi mumkin.

Bunday nasriy bayon negadir «Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostoni haqida" nomli maqolada berilgan[1].

Darslikdagi bu xatoni "pardalash" va o'quvchilarning tasavvurini tiniqlashtirish maqsadida o'qituvchi dostonning oraliq mazmunini qisqacha qilib aytib o'tishi, agar u doston matnidan bexabar bo'lsa (aslida, adabiyot o'qituvchilari darslikda o'rganish uchun taqdim etilgan barcha asarlarni to'liq o'qigan bo'lishi shart), hyech bo'lmaganda, shu maqoladagi mazmunni aytib o'tishi kerak bo'ladi.

Shundan keyingina ikkinchi parchaning mutolasiga o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Matnni albatta, maxsus tayyorgarlikdan so'ng o'qituvchining o'zi o'qib berishi yoki sinfda badiiy so'zga moyilligi bor bir-ikki o'quvchini alohida tayyorlashi kerak bo'ladi. Asarning mutollasi jarayonida boshqa o'quvchilar o'z darsliklaridan matnni ichdan o'qib borishlari zarur.

«Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostoni didaktik tahlilini muammoli tarzda amalga oshirishni ixtiyor etgan o'qituvchi o'quvchilarni ularning oldiga qo'yiladigan muammolar: "***Shohdorxon mag'lubiyatining ma'naviy asoslari va buning sabablari***" tarzidagi muammoli masala va "***Go'ro'g'lining tug'ilishi fantaziyami yoki ilohiy hodisami?***" shaklidagi muammoli savoldan o'quvchilarni oldinroq xabardor etib qo'yishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zlarining keyingi faoliyati mazmunidan xabardor bo'lgan o'quvchilar mutolaa jarayonida matndagi bu masalalar bilan bog'liq o'rinlarni belgilab borishlari mumkinligini o'qituvchi eslatib qo'yadi. Shunda o'quvchilarning fikrlarini asoslash uchun matndan misollar keltirish bilan bog'liq vaqtlari tejaladi.

Asar matni bilan to'liq tanishib bo'lingach, o'quvchilar syujet ta'siridan chiqib ulgurmaslaridan ularning oldiga birinchi muammo ko'ndalang qo'yiladi: "***Shohdorxon mag'lubiyatining ma'naviy asoslari va buning sabablari***". O'quvchilariga mazkur muammoning yechimi sari yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar bilan murojaat qilishdan oldin o'qituvchi ularga quyidagi rivoyatni so'zlab beradi:

Rohib haqida rivoyat

[1] To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik-majmua. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 49-b.

Rivojlangan davlatlarning birida bir qishloqni suv bosish xavfi paydo bo'libdi va hukumat aholini kelayotgan tabiiy ofatdan ogohlantiribdi. Xalq kim o'z imkoniyati bilan, kim qutqaruvchilar ko'magida qishloqni tark eta boshlashibdi. Qishloq ahli qadrdon rohiblarining o'z uyi tomiga chiqib o'tirganini ko'rib qolishibdi va unga ketish kerakligini, istasa birga olib ketishlari mumkinligini aytishibdi. Rohib:

- Sizlar ketaveringlar, meni Xudoning o'zi asraydi, - debdi.

Suv bostirib kela boshlabdi. Bir mahal qutqaruvchilarga signal kelibdi: yolg'iz yashaydigan kampir bir o'zi uyida qolib ketgan ekan. Qutqaruvchilar darhol kelishib kampirni olishibdi va yo'lda rohibga o'z xizmatlarini taklif qilishibdi. Rohib ularga javoban:

- Sizlar ketaveringlar, meni Xudoning o'zi asraydi, - debdi.

Qutqaruvchilar «o'zing bilasan», deb ketishibdi. Kampirni olib borishsa, kamerada bir mushuk tomning tepasiga chiqib olib tinmay miyovlab yordam so'rab turganini ko'rishibdi. Tezgina orqaga qaytishibdi va mushukni qutqarishibdi. Yo'lda rohibga yana xizmatlarini taklif qilishibdi. Rohib yana:

- Sizlar ketaveringlar, meni Xudoning o'zi asraydi, - debdi.

Qutqaruvchilar yana «o'zing bilasan» deb ketishibdi.

Qishloqni suv bosibdi. Toshqin rohibni ham oqizib ketibdi. U halok bo'libdi. Allohning oldiga borib unga da'vo qilibdi:

- Men senga, sening qudratingga, meni yolg'iz tashlamasligingga, suv toshqinidan o'zing asrashingga ishongandim. Sen meni asramading. Senga ishonchim qolmadi, - debdi.

Shunda Alloh:

- Men seni asrash uchun, avval qo'shnilaringni senga ro'baro' qildim, gapiga ko'nmading. Qutqaruvchilarni bir kampir bahonasida yubordim, ularning tikliga quloq solmading. Uchinchi marta bir mushukni bahona qilib ularni qayta yubordim, takliflarini yana rad etding. Sen ahmoq bo'lsang, men yana nima qilishim kerak, - degan ekan.

Qissadan hissa shuki, Alloh Odamga bir qator fazilatlar bilan birga aql-farosat ham bergan. Odamzod o'z aql-farosati bilan har qanday muammoning yechimini topadi. Kamiga u ogohlantiriladi ham. Aql, ziyraklik va farosat bilan ish tutsa, har qanday ko'ngilsizliklarning oldi olinishi mumkin. Bu rivoyat mazmuni va unda ko'tarilgan haqiqatlar

borasida hyech ish qilinmaydi, hyech narsa deyilmaydi. Bevosita muammoning yechimi ustida ish boshlanadi. Qissadan hissani har bir o'quvchi quyidagi didaktik ish turi jarayonida o'zi chiqarib olaveradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Shohdorxonning qarori. Sizningcha, nimasi bilan Xudoga xush kelmagan bo'lishi mumkin? Nega shunday deb o'ylaysiz?

2. Nima deb o'ylaysiz, Shohdorxon Odilshoh mamlakatiga hujumi Xudoga xush kelmaydigan ish ekanidan ogohlantirildimi yo'qmi? Buni qanday asoslaysiz?

3. Odamzod tutumlarining Xudoga xush kelmayotganini qanday bilishi mumkin, nima deb o'ylaysiz?

4. O'ylab ko'ringchi, Holmon vazirning so'zi nima uchun "yaylovga chiqmadi"? Buning Shohdorxon mag'lubiyatiga qanday aloqasi bo'lishi mumkin? Fikringizni matndan misollar keltirib asoslang.

5. Matndagi: *«Shu kuni payshanba edi...»* tarzidagi ogohlantirishning Shohdorxon mag'lubiyatiga aloqadorlik joyi bormi, nima deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.

6. Shohdorxonning o'quvchilar qo'rqqanini anglagani va ularga "ozor bermas"likni buyurgani o'zining mag'lubiyatiga qanchalik aloqador bo'lishi mumkin?

7. Shohning bu tutumi fazilatmi yoki illatmi? Uning bu ishi to'g'ri bo'lsa, nega Alloh tomonidan rag'batlantirilmadi? Buning sababi nima, Sizningcha?

8. Odilshoh tomonidan yuborilgan maktub mazmuni bilan tanishgach Shohdorxon Holmon vaziriga qaradi. Bu qarashning o'z mag'lubiyatiga biror aloqasi bo'lishi mumkinmi, nima deb o'ylaysiz?

9. Holmon vazirning: *«Dushmaning xas bo'lsa qo'rq» degan ekan. Sen ham butunchiligingning fikrida bo'l»* tarzidagi maslahati Shohdorxonga foydali bo'ldimi yoki uning zarariga ishladimi? Buni nima bilan asoslaysiz?

10. Doston matnida shunday fikr bor: *«Podshohi haqiqiy – Xudoning o'zi. Bular podshohi majoziy – Xudoning yaratgan maxluqi. Bularni ham Xudo podsho qilib qo'yibdi. Shu sababdan podshohi majoziyni fuqaro yomonlasa, podshohi haqiqiyning achchig'i kelib, Xudoga malol kelar ekan»*. Unga o'z munosabatingizni bildiring. Fikringizni dostondagi «podshohi majoziy»lar faoliyati bilan bog'lang.

11. Dostonda Shohdorxon podshoning tutumlari haqida gapirilib ular "*Xudoga xush kelmadi*" deyiladi. Siz buni qanday tushundingiz?

12. Odamzodning qaysi ishlari, nimasi bilan, nima uchun Xudoga xush keladi, nima deb o'ylaysiz? Buning mezoni, asosi nimada, Sizningcha?

13. Shohdorxonning urush boshlanmasdan oldin qilmishiga pushaymon bo'lganiga diqqat qiling. Uning ko'ngliga shunday tuyg'uning solinishi sabablari haqida fikrlashing.

14. Shohdorxonning tushi va uning ta'bindagi har bir detalni ajratib oling. Munosabat bildiring. U yana nima uchun bunday sirli tush ko'rdi deb o'ylaysiz? Axir u urushda yengildi, jazosini oldi. Tinchgina podsholigini qilib o'tirib edi. Uning yana qaysi qilig'i Allohga xush kelmagan bo'lishi mumkin, nima deb o'ylaysiz?

15. Odamning O'zini boringdek ko'rsatishdan ko'ra ko'rsatganingdek bo'lishi nimasi bilan qiyin?

Mazkur doston qahramonlaridan biri Shohdorxonning tutumi va xatti-harakatlari tahliliga bag'ishlangan: "***Shohdorxon mag'lubiyatining ma'naviy asoslari va buning sabablari***" shaklidagi muammoning yechimi asnosida o'qituvi va o'quvchilar mana shu hayotiy haqiqatlarni kashf etadilar, mohiyatiga kiradilar, dunyoviy ishlarni anglaydilar, to'g'ri-noto'g'rini farqlaydilar.

Ko'ngil odamdagi Allohning mulki hisoblanadi. Ko'ngil sohibining tutumlari, xatti-harakatiga ruhiyati-ko'nglida ularni yoqlab yoki qarshilik ko'rsatib ma'lum tuyg'ular uyg'onadi: qilgan ishidan xursandlik, xotirjamlik, rozilik hissi yoki bezovtalik, hijolatlik, hadik va qo'rquv tuyg'ulari bosh ko'taradi. Bularni ilg'ash uchun Odam o'zini kuzatishi kerak, xolos. Yaxshi tuyg'ular ketidan ergashish, salbiy hislardan qochish qo'lidan keladigan odamgina Yaratganing rag'batlariyu marhamatlariga sazovor bo'ladi. Bir podshohning qilmishlari tahlili, uni yoqlash yoki qoralash, fikrlarini asoslash asnosida o'quvchilar bevosita o'zlarini ham taftish qiladilar, ruhiyatlariga nazar soladilar. O'zlarini, xatti-harakatlarini kuzatishni o'rganadilar. Xudoga xush kelmaydigan ishlarni farqlaydilar. Ulardan o'zlarini tiya bilish kerakligini ko'ngillari qa'rida his etadilar. O'zlarini o'zlari tarbiyalashga yuz buradilar, degan umid bor.

Keyingi dars ham muammoli dars bo'lishini ma'lum qilib o'qituvchi darsni yakunlaydi. Uy vazifasi sifatida "Ko'nglim va tutumlarim" mavzusida yashirin insho yozishni topshirishi mumkin.

Bunday haqqoniylik talab qiladigan inshoni yozishga hamma ham jur'at qilolmaydi. Anglaganlari asosida o'zini taftish qilish oson emas. Mobodo yozadiganlar bo'lsa, o'qituvchi bu insho mazmunining sir saqlanishi kafolatini zimmasiga olishi va va'dasiga vafo qilishi shart.

Keyingi ikki darsda 2-muammo: "***Go'ro'g'lining tug'ilishi fantaziyami yoki ilohiy hodisami?***" tarzidagi muammoli savol ustida ishlanadi.

O'quvchilar, avvalo, Bibi Hilolning Rustambek taklifini rad qilgani sabablari haqida o'ylab ko'rishlari kerak bo'ladi: "Bibi Hilolning Rustambek bilan ota yurtiga ketmagani sabini qayta o'qing. O'zga yurtlarda xor bo'lib o'lib ketishdan ko'ra qanday qilib bo'lsa ham vataniga yetib olgani yaxshi emasmidi? Ayniqsa, Rustambek unga singil deb qarayotgan bo'lsa? Bibi Hilolning akasi Gajdumbek va yori Ravshanbeklarning ori uchun o'zini qurbon qilishini qanday baholaysiz? Bu unga xos bo'lgan qanday sifatdan dalolat beradi? Sizningcha, uning bu tutumi to'g'rimi yoki noto'g'rimi? Fikringizni asoslang".

Bizning o'zbek qizlari, azaldan otasi, aka-ukalari orini saqlab yashashgan. O'z xatolari tufayli oiladagi erkaklarning boshi egilib qolishi, ularning to'rtta erkakning orasida tili qisilib qolishidan hayiqib yashashgan. Qizlari yoki singillari qilib qo'ygan xatoning ori uchun vatanlarida qololmay, begona yurtlarga oilasi, o'quvchi-chaqasi bilan ko'chib ketishgan erkaklar. Er kishining ori bizning ellarda juda baland bo'lgan. Qaldirg'och akasi, Barchinoy yori Alpomishning ori uchun tirishganlari ruhiyatlaridagi mana shu tuyg'uning mahsulidir.

Bibi Hilolning: "*Men bir xizmatkorim bilan mingashib borsam, odamlar, qarindoshlarim Gajdumbekka: «Sen o'zing qochib kelib eding, sening singling Bibi Hilol begona bir odam bilan mingashib keldi», – deb aytar. Akamning va yorim Ravshanbekning yuzi tuman bo'lar. Sen bilan borganimdan bormaganim yaxshiroq. Men qarindoshlarimning ma'raka-o'ltirishlarda yuzini tuman qilganimdan, shu yerda g'arib bo'lib o'lganim yaxshi*" tarzidagi gaplari va tutumlari zamirida ham mana shu his ustuvorlik qiladi. Buning belgilari o'zbeklarda hozir ham ko'pchilikning ruhiyatida mavjud. Ya'ni, o'zbek qizlarining biror noto'g'ri – "Xudoga xush kelmaydigan" deb bilingan ishga qo'l urish uchun otasi yoki akasidan qo'rqishi, onalarning qizlarini otalaridan hayiqtirib tarbiyalashi mana shu orchillikdan qolgan sifatlardir.

Shundan so'ng o'quvchilarning e'tibori Bibi Hilolning: *«Mem Shohdorxon odamlarning qo'lida o'ldirma, har nima qilsang o'zing qil»*, – deb Xudoga, barcha payg'ambarlar, o'tgan aziz-avliyolarni shafe keltirib, yig'lab yolvorishiga qaratiladi. So'ngra quyidagi savol-topshiriq beriladi. "O'ylab ko'ringchi, nima uchun Bibi Hilolning tilagi Allohning dargohida qabul bo'ldi? Bu, Sizningcha, nimadan dalolat beradi?" bu holat nafaqat o'quvchilar, balki, o'qituvchining o'zi uchun ham qiziq bo'lsa kerak. Hammaga ma'lumki, bandalar hamisha o'zlarining har xil muammolari bilan Yaratganga hamisha iltijo qilishadi. Ba'zi tilaklari amalga oshadi, ayrimlari esa, yo'q. Nega shunday ekanini bandasi bilmaydi.

Buning uchun Odamzod o'zining qaysi tutumlari nimasi bilan Yaratganga ma'qul kelmagani haqida o'ylab ko'rishi, "Qaerda, qanday xato qildim? Shu vaziyatda mening aybim nima?" degan savolni o'ziga berishi, xatti-harakatlarini taftish qilishi kerak bo'ladi. Bandasining Xudoga xush kelmaydigan ishlari "gunoh" va o'ziga va atrofdagilarga zarar keltiradigan tutumlari "xato" so'zi bilan tavsiflanadi. Shu so'zlar

yuritishdan oldin o'quvchilar *"Momo Havo, Anbar ona va Fotma buvi"*lar kimligini aniqlab olishlari kerak bo'ladi.

Ma'lumot uchun: "Alloh taolo Odamni jannatga kirgizdi. Odam Ato u yerda bir o'zi yashar, jannat mevalaridan tanovul qilib, suvlaridan ichar edi. Lekin suhbat qurish uchun o'z jinsidan biror kishini topa olmas edi. Buni yaxshi bilgan Alloh taolo unga rahm qilib, birga yashashsin degan maqsadda o'z jinsidan bir hamroh yaratishni ixtiyor etdi. Bir kuni Odam Ato uxlab, keyin uyqudan uyg'ondi. Ko'zini ochib yonida avval hyech ham uchratmagani bir xotin o'tirganini ko'rdi. Hayron bo'lib so'radi:

- Sen kimsan? Isming nima?

Xotin javob berdi:

- Men bir xotinman. Lekin ismimni bilmayman.

Odam Ato unga sevinch va hayrat aralash qarab chiqdi. Xotin jonli ekanini va harakat qilayotganini ko'rib hayajondan hayqirib:

- Sen Havosan, - dedi.

Shu payt malaklar kelib, Odamni bilimini sinash uchun undan

o'ylab topib, ularni to'g'ri yo'ldan adashtirmoqchi bo'lardi. Bir payt ularning yoniga suqilib, shivirlab dedi:

- Ey Odam, senga mangulik daraxtini va abadiy davom etuvchi saltanatni ko'rsataymi?

Odam Ato Shaytonga qarab:

- Nima ekan u? Qani ko'rsat, - dedi.

Shayton unga barmog'i bilan Alloh taqiqlagan daraxtni ko'rsatdi. Odam Ato unga ishonmadi va yonidan haydab yubordi. Ammo Shayton yana boshqa tomondan ularga yaqinlashib shivirlardi:

- Rabbingiz bu daraxtni nima uchun taqiqlaganini bilasizmi? Agar uning mevasidan yesangiz malak bo'lasiz va jannatda abadiy qolasiz. Alloh sizning bu yerda qolmasligingiz uchun uni taqiqladi. Qani, yeb ko'ringlar u mevadan.

Odam Ato Shaytonga quloq osmay, undan uzoqlashdi. Shayton esa yana orqasidan kelib, Alloh nomi bilan qasam ichib shunday dedi:

- Menga ishoning, darhaqiqat, men sizga go'zal bir nasihat beryapman.

Odam Ato va Momo Havo Iblisning Allohga qasam keltirganini ko'rib, o'zlaricha o'ylay boshlashdi: "Birov yolg'on gap uchun Allohga qasam keltirmaydi. Ehtimol to'g'ri aytayotgandir"

Keyin borib Alloh taqiqlab qo'ygan daraxtning mevasidan yeyishga boshladilar.

Meva ichlariga tushishi bilan birdaniga yalang'och bo'lib qolishdi. Bir-birlaridan uyalib ketib, daraxt barglari bilan badanlarini berkita boshlashdi. Ular nima qilishni bilmay qolgan edilar. Allohdan iyzo chekib, uyatli bo'lib, uzoqlarga qochdilar. Alloh taolo ularni ko'rib turar, taqiqlagan mevadan yeb, isyonga kelganlarini yaxshi bilar edi.

Odamning qochib ketayotganini ko'rgan Alloh ularga qarata:

- Ey Odam! Mendan qochyapsanmi? - dedi.

Odam Ato:

- Yo'q, ey Rabbiy. Sendan aslo qocha olmayman. Ammo qilmishim uchun Sendan uyalmoqdaman, - deb javob berdi.

Alloh dedi:

- Men sizga u daraxtni taqiqlab qo'ymaganmidim? Shayton sizga ochiq dushman ekanligini aytmaganmidim? Nega amrimga qarshi keldingiz?

Odam Ato va Momo Havo:

- Yo Rabbiy, bizni mag'firat qil, gunohimizni kechir. Bizni afv et, yo Rabbiy, - deyishdi.

Ulug' Alloh ularga marhamat qilib:

- Men sizga amr berdim, buyurdim, siz esa, buyrug'imga qarshi ish qildingiz, - dedi.

Odam Ato va Momo Havo yana yolvorib:

- Ey Rabbimiz! O'zimizga zulm qildik, agar bizni afv etib, gunohimizdan kechmasang, shubhasiz, katta ziyonga uchraganlardan bo'lib qolamiz, - deyishdi.

Ulug' Alloh Odam Atoga xitoban:

- Senga eng buyuk ne'matni, jannatni berdim. Istagan har narsangni muhayyo qildim. Bu ehsonlarim kamlik qildimi, u daraxtga yaqinlashding, - dedi.

Odam Ato:

- Izzatingga qasamki, birov Sening pok nomingni o'rtaga qo'yib yolg'on qasam keltirishini bilmas edim. - dedi.

Alloh taolo yig'lab turgan Odam Atoga marhamat ila:

- Izzatingga qasamki, endi sen yer yuziga tushasan, charchoq va ter to'kish evaziga kun kechirasan, - dedi.

Keyin esa, Odam Ato, Momo Havo va la'nati Shaytonga xitob qilib dedi:

- Bir-biringizga dushman bo'lgan holda yer yuziga tushing. U yerda ma'lum muddatgacha qolib, hayot kechirasiz.

Shaytonga aldanib Alloh taoloning g'azabiga uchragan Odam Ato qilmishiga pushaymon bo'lib, yig'lay boshladi.

- Yo Rabbiy, meni afv et, yo Rabbiy, gunohimdan o't, meni kechir, - deya yolvordi.

Nihoyat, Alloh taolo unga rahmat ko'rsatib, tavbasini qabul qildi va gunohini kechirdi.

Shubhasiz, Alloh taolo o'z xatosiga pushaymon bo'lib, tavba qilganlarni kechiradi. Chunki U cheksiz marhamat egasidir!"

"**Anbar ona** – xalq og'zaki ijodi va islom an'analarida ayollar mashg'ulotining homiysi, piri. Rivoyatlarga ko'ra, u dastavval shayx Hakim otu(Hakim otaning asl ismi Sulaymon bo'lib, mashhur mutasavvif shoir Sulaymon Boqirg'oniydir. "Hakim" ul kishiga laqabdir)ning zavjasi bo'lgan, u vafot etgach, uning shogirdi Zangi

[illegible]

otaga turmushga chiqqan. Anbar ona haqida hosildorlik ma'budalari, jumladan Avestodagi Anaxita ma'budasiga o'xshatib bayon etilgan afsonalar ham bor. Shuningdek, Anbar onani ko'p yillar sarson-sargardonlikda yo'qolgan o'g'lini qidirganligi, lekin uni topa olmaganligi haqidagi rivoyatlar saqlanib qolgan. Anbar onaga bag'ishlab o'tkaziladigan urf-odat va marosimlarning ko'pchiligi suv toshqini, o'quvchi tug'ilishi va hosildorlik bilan bog'liq bo'lgan. Sumalak uchun tayyorlangan bug'doyning tez yoki sekin unib chiqishi ham Anbar ona nomi bilan bog'langan. Anbar onaga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbirlarda otin bibilar, doyalar, sehrgarlar, parixonlar ishtirok etib, ular Anbar ona haqida to'qilgan rivoyatlar yordamida turli irim-sirimlarga ishongan sodda kishilarni aldab, boylik orttirganlar [1].

Fotima (taxm. 605/606–632/633) – Muhammad (SAV)ning kenja qizlari. Fotimaga e'tiqod qilish shialar o'rtasida keng tarqalgan. Shia imomlari va musulmon mamlakatlaridagi ko'pchilik sulolalar (Idrisiylar, Fotimiylar, Sa'diylar va b.) shuningdek, barcha sayyidlar Fotima va uning eri Ali ibn Abu Tolib avlodlari deb hisoblanadi. Fotima go'zal bo'lgani uchun Zahro (Guldek) deb laqablanadi. Fotimani Alidan besh farzandi (uch o'g'il (bittasi yoshligida vafot etgan) va ikki qiz) bo'lgan. Hasan, Husayn, Ummu Kulsum va Zaynab. Muhammad (sav) vafotlaridan olti oydan so'ng olamdan o'tgan Fotima Madinada dafn etilgan. Makka va Madinaga borgan shia ayollari va sayyidlar Fotima ona qabrini ziyorat qiladilar[2].

O'quvchilar dostonda tilga olingan bu uch ona haqida bir-birlaridan, zarur bo'lganda o'qituvchidan ma'lumot olishgach, tasavvurlariga tayangan holda masalaning muhokamasiga kirishadilar. O'quvchilar bir haqiqatdan uzoqlashmaganlari ma'qul. Bir og'iz "Bo'l!" degan so'zi bilan O'n sakkiz ming olamni yaratishga qodir bo'lgan Alloh istasa, bo'lishi mumkin bo'lgan bu hodisa, ya'ni Bibi Hilol jasadining chirimagani, gumonasini oziqlantirib turgani va to'lg'oq bilan farzandining dunyoga keltirishi odamzod aqliga sig'maydigan, lekin Allohning irodasi bilan bo'lishi mumkin bo'lgan holatdir. Buning isboti sifatida Maryam (sav) o'g'li Iso (sav)ning tug'ilishini keltirish mumkin.

Ayrim o'quvchilar balki buni boo'quvchirning xayolparastlik mahsuli, deb hisoblashar?! Albatta, ular ham fikrlarini shunday bir isbot

[1] https://ziyouz.com/books/islamiy/bolqa'lisoni%20Ensiklopediyasi.pdf
[2] https://ziyouz.com/books/islamiy/boshqa/Islom%20Ensiklopediyasi.pdf

bilan asoslasinlar: xalq og'zaki ijodi qahramonlarining ajdar bilan olishuvi, ularning bir o'q bilan tog'ning boshini uchirib yuborganlari va hk. Har ikkala holatda ham, agar o'quvchilar o'z aytgan fikrlarini misollar bilan asoslay bilsalar, qarorlari o'zlari bilan qolsin. O'qituvchining ularni ikkinchi haqiqatga ishontirishga urinishi yoki o'z fikrini ustuvor qo'yishi o'quvchilarning shashtini qaytarib qo'yishi mumkin. Adabiyot darslarida badiiy haqiqatlar turfa bo'lishini, o'z isboti bilan aytilgan har qanday fikr adabiyot darslarida yashashga haqli ekanini o'qituvchi unutmasligi maqsadga muvofiqdir.

Muhokamalar tugagach, o'qituvchi o'quvchilarining e'tiborini quyidagi misralarga qaratadi: *"Shunda turib yig'ilgan azizlar o'quvchining otini Go'ro'g'li qo'ydi. Barcha abdal, ovtar, qirq chiltanlar bir-bir olib suydi. Hazrati Xizr ham farzandim dedi. Har nima bo'lsa shu kun Go'ro'g'liga yaxshilik bilan tamom bo'ldi. Lekin Hilolayga jon kirmadi, ammo o'quvchiga sut kelib yotdi"*. Bu yog'i qanday bo'ldi? Bu ham xalq fantaziyasining mahsulimi yoki bo'lishi mumkin bo'lgan ilohiy hodisami?

O'quvchilar avval Hazrati Xizr haqida bilganlarini ma'lum qiladilar.

Ma'lumot uchun: "Xizr (as) (Xizr, Hazrati Xizr, Xizr buva, Xizr-Ilyos) – Qur'onda "Allohning quli" nomi bilan tilga olingan taqvodor zot. Xizr (as) odamlarda Allohga bo'lgan e'tiqodni mustahkamlash uchun Iso, Ilyos va Idris singari abadiy hayot ato etilgan payg'ambarlardan hisoblanadi. Rivoyatlarga ko'ra, Xizr (as) orollarda yashaydi, osmonda uchadi, hamisha dunyo bo'ylab kezib yuradi, har yili haj qiladi, juma kunlari Makka, Madina va Quddus shaharlaridagi masjidlarda namoz o'qiydi. Dengizda suzuvchilarga homiylik qiladi, maxsus duolar bilan chaqirilsa, yordamga keladi: suvga cho'kayotganlarni qutqaradi, yonginni o'chiradi, o'g'rilar xurujidan, jinlarning hiylalaridan, ilon chaqishidan xalos etadi va hk. So'fiylar Xizr (as)ni avliyolar piri sifatida e'zozlaydilar. Hazrati Xizr (as) qadimdan xalqlar tasavvurida odamlar mushkulini oson qiluvchi, u bilan uchrashgan kishilarga baxt ato etuvchi xudojo'y qariyadir. Xudo yorlaqagan odamlargina Xizr (as)ga yo'liqishi mumkin.

Musulmon sharqi mamlakatlari, jumladan O'rta Osiyoda Xizr (as) nomi bilan bog'liq ko'plab qadamjolar (mas., Hazrati Xizr masjidi va b.) mavjud[1]".

O'qituvchi yuqoridagi ma'lumot asosida mavjud fikrlarni to'ldirishi ham mumkin. Bu orada o'quvchilariga quyidagi satrlarni qayta o'qib berishi: *"Go'ro'g'li tug'ilgandan beri go'rda chiroq yonib turar edi. Bir kuni lip etib o'chib qoldi. Yana uch kun o'tdi. Hiloloyga sut kelmay, badani ko'murday cho'ykab ketdi. Ana shunda Go'ro'g'li och qoldi, lekin shu vaqtgacha azizlar ham xabar olib yurgan edi.*

Ana endi Bibi Hilol arvohining "dod" deb yig'lagan tovushini hazrati Xizr bilib, eshitib, go'r ustiga keldi. Asta go'rning tuprog'ini pichigina teshdi. Shu teshikdan go'rning ichiga kunning shu'lasi tushdi. Go'ro'g'li kunning tushganini ko'rib, qo'li bilan ushlab olaman deb kunga qo'l urdi, ushlay olmadi, ushlayman deb qo'li go'rning tepasiga yetdi. Tirmalab-tirmalab teshikni katta qilib, go'rdan tashqari chiqib, hayron bo'lib qoldi. «Bu nima degan sir bo'lur?» – deb. Och qoldim deb go'rga suyanib, yotib qoldi" ham mumkin. Bu xabarlar o'quvchilarning xayratini orttiradi. Fikrlarining tiniqlashuviga ko'maklashadi.

So'ngra qo'yilgan savollar borasida o'quvchilarning fikrlarini eshitadi. O'qituvchiga har bir o'quvchi isbotlab bergan o'z fikrida qolishi mumkinligini unutmaslik tavsiya etiladi. Jarayon har bir sinfdagi muhit, o'quvchilarning bilimlilik darajasi va saviyasi asosida kechadi. Buni har bir sinfdagi vaziyat ko'rsatadi.

Shu tariqa o'quvchilar oldilariga qo'yilgan ikkinchi muammo: "***Go'ro'g'lining tug'ilishi fantaziyami yoki ilohiy hodisami?***"ning yechimini topadilar.

Muammolarning yechimi o'quvchilarning fikrlari asnosida ma'lum bo'ladi. Agar o'qituvchi mazkur asarni o'rganishga bag'ishlangan soatlarni boshqa biror metoddan foydalangan holda tashkil etsa, albatta, asarning didaktik tahlili davom ettirilishi mumkin. Lekin dars muammoli ta'limga tayanilgani uchun uni shu yerda tugatgan ma'qul. Muammoning yechilganligi darsning tugaganligi asosidir.

Uyga vazifa sifatida "Dostonda menga yoqqan sahifa" mavzusida og'zaki insho tayyorlab kelishni topshirish mumkin. O'quvchilar keyingi darsda qaysi sahifa ularga nimasi bilan yoqqanini og'zaki

[1] https://.ziyo.com/bedavilikmiy/boshqa/Tolen%20Ismailzpoliyo.pdf

bayon etadilar. O'qituvchi o'quvchilarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda boshqa vazifa berishi ham mumkin. Faqat bu ish o'quvchilarga tanlash imkoniyati bilan berilgani adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy asar o'qishning inson kamolotidagi o'rni va ahamiyati haqida fikrlashing. Qarashlaringizni bir-biringiz bilan o'rtoqlashing.

2. Oxirgi o'qigan kitobingiz haqidagi fikr-mulohazalaringizni bo'lishing. Qarashlaringizni asardan misollar keltirib asoslang.

3. O'qish turlari haqida ma'lum tasavvurga ega bo'ldingiz. Bu bilimlar sizning o'qituvchilik hayotingizda qanchalik ahamiyatli ekani haqida o'ylab ko'ring.

4. Aytingchi, o'qish turlaridan qay biri maktab adabiy ta'limida boshqalariga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etadi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

5. Nima deb o'ylaysiz, darsdan tashqari ishlar o'quvchilarning bilim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydimi? Fikringizni asoslang.

6. O'quvchilar uchun belgilangan mezonlarga e'tibor qarating. Ularni o'rinli deb o'ylaysizmi? Yoki takliflaringiz, mulohazalaringiz bormi? Bo'lsa, o'rtoqlashing.

7. Mavzuga ilova qilingan "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni ustida muammoli ishlash namunasiga diqqat qiling. Qo'yilgan muammolarni amaliy mashg'ulotlarda birgalikda yechimini toping.

8. Dars ishlanmasida taqdim etilgan har bir rivoyat va ilmiy ma'lumotlarga diqqat qiling. Ularning mazmun-mohiyati asosida mantiqli savol va topshiriqlar tuzing. Amaliy mashg'ulotda ularning didaktik tahlilini amalga oshiring.

9. Dostonning filologik tahlili haqida internet orqali materiallar bilan tanishing. Asarning badiiy va o'quv tahlilini taqqoslang. o'xshash va farqli jihatlarni aniqlang.

10. Asarni o'rganish uchun taqdim etilgan har bir savolga javob bering. Topshiriqlarni bir o'qirman sifatida bajaring. O'zingizning salohiyatingizni tekshiring. Baholang.

11. Har biringiz oxirgi o'qigan kitobingiz haqida taqriz-insho yozing. Inshoyingizga o'rtoqlaringizning fikrini oling.

35-MAVZU. VIRTUAL LABORATORIYALAR VA ULARNING ADABIYOT O'QITISHDAGI O'RNI

Reja:

1. *Virtual laboratoriya nima?*
2. *Virtual laboratoriyaning aniq fanlar tizimidagi xususiyatlari.*
3. *Adabiy ta'lim metodikasi ilmi va virtual laboratoriya.*
4. *Adabiyot darslarini tashkil etishda virtual laboratoriyaga murojaat.*
5. *Badiiy matnning dialektik tahlili namunasi.*

Dunyo miqyosida ijtimoiy sohalarda ham, fan-texnika tizimida ham, shu jumladan pedagogika ilmi va amaliyotida ham faoliyat yuritishda har xil laboratoriya (fizika, ximiya, biologiya va hokazo sohalarda eksperiment ishlarini olib borish uchun maxsus asbob-uskunalar bilan jihozlangan, buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan maxsus xonalarda olib boriladigan tajriba-sinov) ishlari, yasash-qurish jarayonlari, darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, jadvallar, kundalik va ishchi daftarlarning o'rnini virtual (ularning kompyuterdagi elektron shakli) shakllantirilgan variantlari ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda. Video va audio materiallar, ko'rish orqali mustaqil va mantiqli fikrlashga, mustaqil faoliyatga, ko'rganlarini tahlil qilib xulosalar chiqarishga yo'naltirish, qo'l bilan ushlab emas ko'z bilan ko'rib, ong bilan anglab ish yuritadigan, modellashtirilgan elektron shakllarda ish bajarish jarayoni "virtual laboratoriya" nomi bilan hayotga, ta'lim amaliyotiga juda tezkorlik bilan kirib kelmoqda.

Ta'lim tizimida «virtual laboratoriya»ni o'qitishning yangi turdagi platformasi (davr talablariga moslashtirilgan harakat dasturi, ish uslubi, tutumlari) deyish mumkin. Ya'ni, virtual laboratoriya yordamida universitetlar uchun an'anaviy o'quv kurslarini, shu jumladan talabalarni haqiqiy eksperimental uskunalar bilan ishlashga tayyorlash jarayoni tarzida tushunish mumkin.

V. V. Truxinning fikricha virtual laboratoriya – bu eksperiment (tajriba-sinov) ishlarini haqiqiy, to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmasdan yoki asbob-uskunalar, xom ashyo materiallari umuman bo'lmagan

holatlarda amalga oshirishga imkon beradigan dasturiy-apparatlar kompleks (yig'indisi)idir[1].

Dastlab masofadan turib laboratoriyaning o'zini tashkil etish bilan shug'ullaniladi. Ya'ni haqiqiy laboratoriyani, asbob-uskunalar o'rnatishni boshqarish va olingan ma'lumotlarni raqamlashtirish uchun maxsus kompyuter-dasturi yaratiladi. Bu jarayon zaruriy apparat (asbob-uskuna)lar, harakat hamda aloqa vositalarini o'z ichiga qamrab oladi. Ikkinchi holda, barcha jarayonlar kompyuter yordamida simulyasiya (ko'rsatish, namoyish etish) qilinadi.

Shunday qilib, virtual laboratoriyalar ikki turdagi dasturiy ta'minot va apparat tizimlaridan tashkil topadi:

- ma'lum masofadan turib laboratoriya tashkil etish (buni uzoqdan turib laboratoriya zaruriy apparat (asbob-uskuna)lar, harakat hamda aloqa vositalarining elektron shakli)ni tashkil etish, tarzida tushunish mumkin);
- laboratoriya tajribalarini simulyasiya qilish (qo'l bilan ushlab, aniq xom ashyo va materiallarsiz faqat ko'rish yo'li bilan) amalga oshirishga imkon beruvchi kompyuter-dasturiy ta'minoti deyish mumkin.

Virtual laboratoriyalarning aniq fanlar yo'nalishidagi haqiqiy ilmiy laboratoriyalardan afzallik jihatlari quyidagilardan iborat:

- qimmatbaho uskunalar va reaktivlar sotib olishning hojati yo'q. Moliyaviy mablag' yetarli emasligi sababli, ko'plab ilmiy laboratoriyalarda test natijalarini buzadigan va talabalar uchun xavf tug'diradigan eski uskunalar mavjud. Bundan tashqari, masalan, kimyo, fizika, biologiya va hk. sohalarda, asbob-uskunalardan tashqari, ma'lum sarf-xarajatlar (reaktivlar) ham talab qilinadi, ularning narxi, bugungi sharoitda, ancha qimmat turadi. Kompyuter uskunalari bu kamchiliklarni qoplaydi. Dasturiy ta'minot ham qimmat, ammo kompyuter texnologiyasining ko'p qirraliligi va uning keng qo'llanilishi ushbu kamchilikni qoplaydi;
- ilmiy laboratoriyalarda oqimni umuman imkonsiz bo'lgan jarayonlarni simulyasiya (ko'rsatish, namoyish etish) qilish imkoniyatining mavjudligi. Ya'ni kompyuter ekranidagi vizualizatsiya (ko'rish imkoniyati)ning mavjudligi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari, masalan, kuzatilishi nazarda tutilgan zarralarning

[1] https://ru.wikipedia.org/wiki/Труханов А. В. «Об использовании виртуальных лабораторий в образовании» // Современные проблемы науки и образования. – 2012. – № 4. – С. 3

kichikligi sababli, qo'shimcha uskunalardan foydalanmasdan, real sharoitlarda farqlash qiyin bo'lgan jarayonlarni kuzatishga imkon beradi va hk.

Virtual laboratoriyalar jarayonning murakkab bosqichlarga kirib borishi va vaqt shkalasida sodir bo'layotgan voqealarni kuzatish *imkoniyati, soniyaning bir qismida sodir bo'ladigan yoki aksincha, bir* necha yil davom etadigan jarayonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Virtual laboratoriyalarning quyidagi bir qator ijtimoiy afzalliklari ham mavjud:

- xavfsizlik. Bu ish davom etayotgan holatlarda, masalan, yuqori kuchlanish yoki kimyoviy moddalar bilan ishlash imkoniyati xavfsizligining kattaligi;
- virtual jarayonni kompyuter boshqarishi tufayli bir qator eksperiment ishlarini tez o'tkazish imkoniyati paydo bo'ladi.
- natijalarni elektron format(shakl)da kiritish uchun vaqt va resurslar tejaladi. Ba'zi ishlar, keyinchalik bir qator tajribalardan so'ng kompyuterda bajariladigan, olingan

degan ma'noni ifodalaydi[1]. Demak, "virtual laboratoriya" atamasini, jo'n qilib aytganda, maxsus tajriba-sinov ishlarini olib borishga mo'ljallangan, elektron shaklda jihozlangan, soha mutaxassisi va kopyuter dasturchi hamkorligida yaratilgan elektron auditoriya, deya tushunish mumkin.

Ta'lim jarayonida virtual laboratoriyalar – har xil shakldagi elektron qo'llanmalarga dasturning maxsus tartib-talablari yordamida kirib istalgan mavzuni tanlash, avval o'zlashtirilgan va o'zlashtirilishi maqsad qilib olingan bilimlarga tezkor o'tish, mazkur mavzularni o'zlashtirish uchun lozim bo'lgan savol-topshiriq, mashq, test, jadval, diagramma va boshqa didaktik faoliyat turlaridan, lug'atlar, qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda o'z-o'zini elektron baholash hamda jarayonga tezkor murojaat qilish, ayni zamonda, maqsadga erishilgach, dasturdan chiqish kabi bir qator ish turlarini osonlik bilan bajarilishi uchun qulay shart-sharoitni yaratadi.

Milliy tarbiyashunoslikda, xususan, ona tili ta'limi amaliyotiga mutaxassislar

matn mohiyatiga kirishga yo'naltiruvchi savol-topshiriqlarning kompyuter ekranida namoyish etilishi, ya'ni bilimlarning virtual shaklda uzatilishi adabiy ta'limning qiziqarli va samarali tashkil etilishi garovidir, albatta. Bilimlarni bunday modellashtirish o'quvchilarga real sinf xonalarda amalga oshirish muammo bo'ladigan murakkab ta'lim shakllarini tashkil etishga maksimal sharoit yaratadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot darslarini tashkil etishda bunday virtual laboratoriyalardan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilarga vaqtdan unumli foydalanish, mavzularni chuqurroq o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan barcha resurslardan maksimal darajada foydalanish, tezkor va aniq natijalarga erishish, subyektlarga obyekt bilan har tomonlama ishlash imkoniyatlarini kengaytirish, bu jarayonda xatolarga yo'l qo'ymaslikka sharoit yaratadi.

Adabiyot darslarini bunday virtual laboratoriyalarda tashkil etishning afzalliklari:

- badiiy asar mazmun asosida yaratilgan badiiy filmlar, spektakl va videofilmlar, tasviriy san'at namunalaridan foydalangan holda belgilangan maqsad va vazifalarga maksimal darajada erishish;
- axborot-kommunikativ texnologiyalardan samarali foydalanish;
- davr talablariga monand ravishda ish olib borish;
- o'quvchilarning kompyuter bilan ishlash bilan bog'liq qiziqishlaridan maksimal darajada foydalanish;
- zarur shart-sharoitlarni hisobga olgan holda eng samarali metod va usullardan samarali foydalanishdan iboratdir.

Bunday faoliyat turi o'qituvchi va o'quvchilarning kreativ (yaratish, yaratuvchanlik va ijodkorlik) qobiliyatlarini rivojlantiradi va kognitiv (bilish, anglash, tushunish va fikrlash) imkoniyatlarini kengaytiradi. Ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilar qiziqishlari va intellektual imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga sharoit yaratiladi.

Adabiy ta'lim bo'yicha tashkil etilgan virtual laboratoriyalar adabiyot o'qitish metodikasi ilmida tarbiyalanuvchilarning so'z san'ati namunalari bilan ixtiyoriy ravishda, qiziqish bilan tanishishi, ya'ni badiiy asrni elektron shakllarda o'qishi, matnning mazmun-mohiyatiga kirishi, badiiy so'zni, qahramonlarni shaxs sifatida his qilishi, asarlarni didaktik tahlilga torta bilishi, qahramonlarning tutumlari, ularning hayoti davomida duch kelgan muammolari, oqibatning sabablariga munosabati, yozuvchi nazarda tutgan yetakchi g'oyalar va qadriyatlarni anglash hamda ularni o'z ruhiyatiga singdirishida o'z zamonaviyligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasini virtual laboratoriyalarda animatsion (tasvirlar ketma-ketligi natijasida xarakat hosil qilish) shaklda aks ettirish va buni adabiy ta'lim jarayoniga tatbiq etish tarbiyalanuvchilarga adabiy hodisalarni aniq tasavvur etish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyot o'qitish kechimida virtual laboratoriyaning afzalligi yana shundan iboratki, uning yordamida o'qituvchi va o'quvchi belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda eng samarali tajribalarni tanlashga qulaylik yaratiladi. Lekin shunga qaramay har qanday virtual laboratoriyalarning hyech biri so'zning inson ruhiyatiga ta'sirini, qahramonlarning qayg'u va shodliklarini ifodalovchi tuyg'ular ifodasini to'liq tasavvur etish imkonini, hozircha, berolmayapti.

Bugungi kunda adabiy qahramonlarning tabiati bilan bog'liq xususiyatlar, ularning tuyg'ulari tasvirini o'lchash imkoniyatining mavjud emasligi virtual laboratoriyalarning ko'proq aniq fanlar tizimida juda samarali ekanini qayd etsa, tasviriy san'at, so'z san'ati va musiqa bilan bog'liq tuyish, hayajonlanish, emotsiya tasviri borasida hali yetarli darajada mukammallashmaganidan dalolat beradi. Inson aqli va bilimining bunday tezkor taraqqiyoti zamonida bunga ham tez muddatda erishilar, balki. Lekin, hozircha, bu borada kamchiliklar borligi ham haqiqat.

Adabiyot o'qitish tizimida virtual laboratoriyalarni tashkil etish uchun metodist olim va kompyuter dasturchisi hamkorligida:

- mavzuga doir ma'lumotlar;
- badiiy asar mazmuni asosida yaratilgan badiiy va video filmlar, spektakllar;
- animatsion multfilmlar;
- animatsiya orqali bajariladigan interfaol metodlar;
- nazariy ma'lumotlar, test topshiriqlari;
- mavzuga tegishli muammoli vaziyatlar va ularning yechimi bilan bog'liq savol-topshiriqlar;
- mavzu bilan bog'liq atamalarning izohi;
- yordamchi materiallardan foydalanish bilan bog'liq yo'riqnoma va hk.lar jamlanishi maqsadga muvofiqdir.

Maktabda adabiyot o'qitish yo'nalishida bunday virtual laboratoriyalarni yaratishdagi ilk qadamlar sifatida S. Qambarova va J. Nurmuhamedovlarning ilk izlanishlarini ta'kidlab o'tish lozim.

Masalan, S. Qambarova umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinflarida Alisher Navoiyning "Sabai' sayyor" dostonidagi "Beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning dostoni"[1] nomli parchani o'rganish bo'yicha virtual laboratoriya yaratishning o'ziga xos jihatlarini quyidagicha tavsiya etadi:

«– matndan harakatli tasvirlar ishlash mumkin bo'lgan epizodlar tanlab olinadi. Xususan, Adan mamlakatidagi qaroqchi Jobirning dengizdagi yo'lto'sarligi, uning qo'liga asir tushgan o'g'lini qutqarishga kelayotgan shoh Navdarning gulrang bir ohu ketidan quvib, pistirmaga tushishi va hokazo;

– lavhalarga oid animatsiyalar yaratishda matematik modellashtirish, o'rganilayotgan jarayon yoki obyektlarni optimallashtirish va hisob ishlari bajariladi. Bunda xuddi multiplikatsion filmlardagi kabi tanlangan obyekt xatti-harakatlari, badiiy detal yoki manzaralar ifodasi belgilanadi. Masalan, Jobirning yangi oyga o'xshash tez yurar kemachalari, qaroqchilarning baland daraxt ustiga chiqib, dengizni kuzatib turishi tasvirlari PVD orqali loyihalashtirilib, to'g'ri yoki egri chiziqlar yordamida turli shakllar yasash, aylana va yoylar hosil qilinib, tutashmalar bajarilishi orqali gavdalantiriladi.

Turli burchak ostida chiziqlar chizilib, tahrir qilinishi, detallarga qirqim va kesimlar berilib, ularning tasvirini ko'rsatishda rang, material va teksturalardan ijodiy foydalanish hamda modellarga o'lchamlar berish jarayoni sujetni tasavvur qilishni yengillashtiradi;

– adabiy material mohiyatini tushunish, turli muammoli vaziyatlar yechimini hal qilishga doir maxsus virtual ssenariylar tuzish. Mazkur usul orqali animatsiya jarayonidagi uzviylik va izchillik ta'minlanadi, voqealarning maqsadli va muayan ketma-ketlikdagi namoyishi ta'minlanadi. Bunda matnning qisqartma variantiga ehtiyoj sezilsa ham voqealarning rivojlanish dinamikasi o'zgarmaydi.

Yuqorida qayd etilganidek, virtual laboratoriyalar muayyan xatoliklarni bartaraf etish omilidir. Agar o'qituvchi tomonidan muallif konsepsiyasiga zid ravishda ssenariyning boshqa turdagi variantlari ishlansa, o'quvchi real voqelik [illegible] mushohada

Masalan, agar shoh Navdar maqsadidan chalg'imay, o'z yo'lida qat'iy davom etganida asarda tasvirlangan vaziyatlarni boshidan kechirmagan va qiyin ahvolga tushmagan bo'lar edi.

Shuning uchun qahramon intilayotgan manzil yo'nalishining to'g'ri va maqsadga zid shaklini grafik tarzda taqdim etish va har ikki holatni o'zaro qiyoslashni taklif etish orqali o'quvchida tanqidiy tafakkur, fikrlar xilma-xilligi, masala mohiyatiga obyektiv yondashish, eng asosiysi, muallif maqsadini anglash imkoni yuzaga keladi.

Demak, virtual laboratoriyalar o'quvchilar faoliyatini maqsadli boshqarish, bilimlarni yangilash, nazariyani amaliyotga bog'lash, o'quv ishlaridagi faollik va mustaqillikni oshirish, axborotlarni qabul qilishni osonlashtirish, materiallarga istalgan vaqtda murojaat qilish kabi qulayliklar yaratishi bilan ahamiyatlidir"[1].

Ko'rinadiki, bunday ish turi bir qator aqliy va kasbiy bilimlarni, ayni zamonda, katta qiziqish va muhabbatni taqozo etadi.

Maktab "Adabiyot" darsliklari va boshlang'ich sinflarning "O'qish kitobi" singari darsliklarida o'rganish uchun taqdim etilgan badiiy asarlar mazmuni misolida kichik-kichik virtual laboratoriyalarni tashkil etishda qiziqqan talaba va o'quvchilar ham qatnashishlari mumkin. Bu har jihatdan milliy virtual laboratoriya bo'ladiki, uni amalga oshirish milliy intellekt sohiblarining mahsuloti bo'lishi muqarrar.

J. Nurmuhamedov tomonidan yaratilgan "Navoiy ijodini o'rganish yuzasidan amaliy laboratoriya", "5–11-sinflar o'quvchilari uchun yaratilgan testlar", 5–11-sinflar o'quvchilari uchun yaratilgan "Innovatsion multimedialar", "O'zbek tilidan tezkor tahlil usullari", "Insho yozishni o'rganamiz"[2] va hk. bir qator elektron ish turlari milliy adabiy ta'limda virtual laboratoriyalar yaratishdagi ilk qadamlardir.

Xulosa qilib aytganda, milliy adabiy ta'lim metodikasi ilmida virtual laboratoriyalarni yaratish o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biridir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Afandining qirq bir pashshasi

Zohir A'lamning «Afandining qirq bir pashshasi»[1] nomli qissasidan olingan boblarni o'rganish uchun dasturda **uch soat** belgilangan. Darslikda berilgan matn hajman ancha katta bo'lib, uni sinfda to'liq o'qib chiqish so'ngra uning didaktik tahliliga kirishishning vaqt nuqtai nazaridan imkoni yo'q. Shuning uchun qissadan olingan parchalar matnini bo'laklarga ajratish, ularning ma'lum qismini sinfda, ayrim qismlarini esa, uyda o'qishni rejalashtirishga to'g'ri keladi.

Qissaning «Tush», «Qasosning yo'li topildi», «Abdi oppoq va Ahmad tarasha», «Ikki mirshab», «Birinchi o'lja», «Ikkinchi o'lja» boblarini darslarning birinchisida, «Ikki xum asal», «Nasriddinning quroli», «Kutilmagan...», «Vakolatnoma» boblarini ikkinchi darsda o'qilsa, «Tarashaga ish topildi» bobini o'qishni ikkinchi darsning oxirida o'quvchilarga uy vazifasi sifatida topshiriladi. Shunda asarni o'rganish uchun belgilangan uchinchi soat to'lig'icha matnning tahliliga bag'ishlanadi. Uyda o'qish uchun ajratilgan bob hajman kichikroq. O'quvchilarga o'qish bilan birga matnga doir savol va topshiriqlar ustida ham ishlash topshirilsa, dars jarayonida vaqtdan imkon qadar unumli foydalanishga erishiladi.

Yoki asarning har uchchala qismini ham o'quvchilarga uyda o'qittirib, sinfda uch soat davomida har bir bo'lakning alohida tahlilini uyushtirish ham metodik jihatidan noto'g'ri bo'lmaydi. Gap shundaki, asarning matni o'ta qiziqarli bo'lib, o'quvchilarning ko'pchiligi, ayniqsa yil davomida asarlarni badiiy tahlil qilib o'rganib qolgan, qaysidir darajada badiiy adabiyotga yaqinlashib qolgan yosh kitobxonlar matnning hammasini bir martada o'qib qo'yishlari hyech gapmas. O'qituvchi darsni sinfdagi holatni inobatga olib tashkil qila bilsa, asar tahlili yanada samarali va unumli bo'lishi mumkin.

Darsning qaysi metod va usullardan foydalanilganda ham, asarning didaktik tahlili Afandi timsoliga munosabatdan boshlanadi. Kezi kelganda aytish kerakki, mazkur asarning tahlili oltinchi sinfda shu vaqtga qadar amalga oshirilgan tahlil usullaridan bir qadar farq qilishi joiz. Negaki, qissadan olingan parchaning hajmi katta bo'lganligi

[1] Ботаков К. Зафаров. Адабиёт. Олтинчи синф учун дарслик-мажмуа. Тўртинчи нашри. – Т.: Ўқитувчи, 2006. – 230-248 б.

sababli uni mualliflga ergashib yoki matnga tayanib tahlil qilishning imkoni yo'q. Shuning uchun ham mazkur asarni adabiy timsollarga tayanib tahlil etgan ma'qulroq bo'ladi. Bunda qissadagi personajlar xarakter xususiyatlarining qay darajada tasvirlanganligini tekshirish asnosida uning badiiy jihatlari haqida xulosaga kelish yo'lidan boriladi.

Qissaning bosh qahramoni Nasriddin Afandi timsoli umumiy tarzda o'quvchilarga yaxshi tanish. Afandi – o'zbek xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lmish latifalarning bosh qahramoni. U haqda juda ko'p latifalar to'qilgan va o'quvchilar avvalgi darslarda ayrimlarining mazmuni bilan tanishganlar hamda ularning badiiy xususiyatlarini tekshirganlar. Endilikda Nasridin Afandining hayot yo'li haqida hikoya qiladigan katta hajmdagi qissani o'qib tahlil qilish o'quvchilarni qiziqtirib qolishi tabiiydir.

Ma'lumki, Afandi timsolining ildizlari – xalq og'zaki ijodi namunalarining barcha qahramonlari singari juda qadimiy. Qissada qalamga olingan davr ham bizning kunlarimizga goh yaqin, goh uzoqday tuyuladi. Xo'sh, xalq yaratgan Afandi qanday odam? O'quvchilar o'z bilganlari asosida Afandi shaxsiga tavsif beradilar. Fikrlar har xil bo'lishi, bir-birini to'ldirishi yoki inkor qilishi ham mumkin. Ular mantiqiy asosga ega bo'lsa va fikr egasi o'z qarashlarini asoslay bilsa, bas.

Qissadan keltirilgan parchalarning didaktik tahlilini amalga oshirish uchun o'qituvchi uning mazmuni asosida tuzilgan quyidagi savol va topshiriqlardan foydalanishi mumkin:

1. Afandi yerining bir qismini kimgadir bermoqchiligini aytganda, Muhsinboy ruhiyatida qanday o'zgarishlar ro'y berganligi tasviriga e'tibor qiling.

2. Qissada Nasriddin bilan yer xususida so'zlashayotgan Guppi haqida: «*...ko'zlari sovuq yiltiray boshlagandi*» shaklidagi ifoda berilgan. Uning sababini tushuntirishga harakat qiling.

3. Afandining bog'iga suv tashiganlar haqida: «*...jimlikda Guppi bilan malaylaridan oqayotgan ter ham jildirab ovoz chiqarayotganga o'xshardi*» tarzidagi tasvirni izohlashga urining.

4. Nasriddinning yolg'on tushiga Muhsinboyday quv odamning ishonganligi sababini asar matniga tayanib izohlang. Siz shunga ishondingizmi?

5. Guppini jazolash borasida Afandining topqirligiga munosabat bildiring. Bu mojaroning asl sababini matndan toping.

6. Muhsin guppi o'zini nima uchun dono odam deb hisoblaydi? U, sizningcha, qanday inson?

7. Mirshablar turgan yerga yaqinlashgan Abdukarimning aravadan tushib piyodalashiga munosabatingizni bildiring. U nega shunday qildi deb o'ylaysiz?

8. Nodir mirshab *«...o'zini fil, Abdukarimni chumolicha chog'ladi»* tarzidagi tasvirning ruhiy-huquqiy asosini izohlashga urinib ko'ring. Bu, sizningcha, nimanii anglatadi?

9. Asarda Sodir mirshab haqidagi: *«Boshiga sallasini, oftiga esa ensa qotish ifodasini qo'ndirdi»* tarzidagi tasvirning mazmunini izohlang. U nega shunday qildi deb o'ylaysiz?

10. Nodir mirshabning bir holati haqidagi: *«...yana mirshablik siyoqiga o'tdi»* degan tasvirni qanday tushunasiz? Sizningcha, «mirshablik siyoqi» qanday bo'ladi?

11. Mirshablarning Abdukarimga qarata: *«Nima, sizga poshsholikning odamlari yolg'on gapiradimi?»* tarzidagi dag'dag'asi tagida qanday g'araz yotganligini tushuntiring. Bu savoldagi: *«poshsholikning odamlari»*ni qanday tushunish mumkin, Sizningcha?

12. Abdukarim tabiatiga xos jihatlar haqida asar matniga tayanib tavsif bering. U go'l, bo'sh odammi yoxud jangari, janjalkash kishimi? Fikringizni asoslang.

13. Nasriddinning erkinligini, taptortmasligini ta'minlagan hayotiy asoslar haqida mulohaza yuriting.

14. Afandining Guppi singari boylardan va Abdukarim singari kambag'al mehnatkashlardan farqli jihati nimada deb o'ylaysiz?

15. Asarda *«Qulning aqli kishanda»* degan mulohaza bildirilgan. Siz bunga qanday qaraysiz? Nima deb o'ylaysiz, Guppining aqli ozodmi yoki u ham qulmi?

16. Muhsinboyning shumligi bilan Nasriddininng topqirligi asoslari haqida o'ylab ko'ring. Ikki qahramon tabiatidagi bunday sifatlarning asl sabablari nimada? O'rtada qanday farq bor? Buni siz qanday asoslaysiz?

17. Muhsinboy bilan uchrashgan mirshablar haqida qissada shunday tasvir beriladi: *«Ularning boya Abdukarim oldidagi vajohatlarini ko'rgan va hozirgi siyoqlari bilan solishtirgudek kimsa topilsa edi, odamning gavdasi birdaniga kichrayib qolishi mumkinligiga guvoh bo'lardi»*. «*Odamning gavdasi birdaniga kichrayib qolishi*» sabablarini izohlang.

18. Shuncha boy bo'laturib Abdukarimning idishlari uchun tovon to'lamaganligi Guppi tabiatidagi qanday jihatlarni ko'rsatadi deb o'ylaysiz?

19. Afandidan asaliga hujjat talab etishgan vaqtda mirshablarning halollik va xizmat burchini to'liq bajarish haqidagi gaplarini asardan toping. So'zlarini ularning haqiqiy qiyofalari bilan solishtiring.

20. Qissadagi: *«Nasriddin qo'ynidan kichkina qog'oz parchasini olib uzatdi. Qog'ozni olgan Nodir mirshab u yoq-bu yog'ini ag'darib ko'rdi... Sodir mirshab ham qog'ozning u yoq-bu yog'ini qarab, Nasriddinga qaytardi»* tasvirini izohlang. Nima uchun mirshablar qog'ozni o'qishmadi deb o'ylaysiz?

21. Ko'zalardagi pashshalar sonini aniq aytib qo'ygan Nodir mirshab nega kalovlanib qoldi deb o'ylaysiz? Pashshalar nechtaligini u qaerdan bilardi?

22. Afandi va Guppi orasidagi mojaroga Abdukarimday zo'rg'a kun ko'rib yurgan kishining aralashib qolishi sizni ishontirdimi? Fikringizni asoslang.

23. Afandining vakolatnoma olish borasidagi fikrga kelishiga munosabatingizni bildiring. Uning uchun boshqa yaxshiroq chora bormidi?

24. Pashsha o'ldirishga berilgan vakolatnoma evaziga Muhsinboydan yuz tilla talab etishi va bu boylikning ishlatilish joylari haqidagi o'rinlarni qayta o'qing. Unga tayanib Nasriddin afandining qanday odamligiga to'xtaling.

25. Qaroqchilar bilan olishuv sahnasida Abdi tabiatida namoyon bo'lgan jihatlarni matndan toping. Ularga tayanib abdi shaxsiga munosabat bildiring.

26. Asarda qaroqchilar ruhiyatiga xos umumiy xususiyatlar haqida chuqur va asosli tasvir mavjud. Shu o'rinlarni topib qayta o'qing, tushuntirib berishga urining.

27. Bir kishining bir to'da qaroqchiga qarshi yolg'iz jang qilgani, karvondagi o'nlab odamlarning esa faoliyatsizligi sizda qanday taassurotlar qoldirdi?

28. Qissadagi: *«...odam odamdan naqadar farq qilishini yaqqol ko'rish mumkin edi. Bir tomonda bir odam o'ttizta kallakesarni esankiratardi-yu, ikkinchi yoqda yigirmatasi misoli qo'ydek indamay qalqon xizmatini o'tardi»* tarzidagi tasvirni badiiy va axloqiy nuqtai nazardan tahlil qiling.

29. Asarning so'nggi – olishuv sahnasida ifoda ohangi qandayligini matnga tayanib topib bering. Bu ohang ruhiyatingizga qanday ta'sir ko'rsatdi?

30. Abdi oppoqning Afandiga qarata aytgan *«Sizni esa xudo yorlaqagan. Sizdan boshqa Odam ko'ramanu, yo'qmi bu dunyoda?»* gapidagi odam so'zi nega bosh harf bilan yozilgan deb o'ylaysiz?

Savol va topshiriqlar birin-ketin o'rtaga tashlanarkan, o'quvchilar ularga javob berish asnosida Muhsinboyni masxara qilayotgan Afandining o'zini g'oyat tabiiy tutishiga, xumdagi suvning kamayib ketishidan Guppi va uning malaylariga qo'shilishib samimiy xayratlanishiga, yig'lamsirab gapirishiga, umuman barcha xatti-harakatlariga e'tibor qaratish joiz. Afandining kap-katta boy odamni shu tarzda masxaralashiga o'quvchilar munosabat bildirishlari lozim.

Ular Muhsin guppi tabiatiga xos jihatlarga sinchiklab nazar tashlashlari, uning qanday odam ekanligini yorqinroq ko'rsatadigan o'rinlarni asardan qayta o'qishlari natijasida boyning shunday muomalaga munosib ekanligiga imon keltiradilar. O'quvchilar matnga qayta murojaat qilib, buning sabablarini ochishga urinib ko'rsinlar. Afandining o'ylab topgan jazosi o'quvchilarni qanchalik ishontirganligi borasida fikrlashish ham foydali bo'ladi.

Shunday quv, Afandining qanday odamligini yaxshi biladigan Guppining unga ishonganligi tasviriga o'quvchilarning munosabatlarini aniqlash zarur bo'ladi. Bu tadbirlar o'quvchilarni mulohaza yuritishga undash, fikr aytishga odatlantirish, qarashlarini asoslashga o'rgatishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

So'ng matndan Muhsinboy timsolini ochishga kirishadilar. Bunda o'quvchilar matnga murojaat qiladilar. Uning eng katta orzulari: «eriga yer qo'shish» hamda «dono va hozirjavob odam sifatida dovrug' taratish» ekaniga diqqat qiladilar. Savol va topshiriqlar ustida ishlaganda o'quvchilar Afandi bilan Muhsinboy o'rtasidagi suhbatni qayta nazardan o'tkazadilar. Tahlil jarayonida Muhsin guppining tabiatini ochib beruvchi belgilarga – *«sevinchdan gapiilab ketgan yuragini bazo'r tinchit»*gan, *«ham sevinchdan, ham havlidan quruq qolish vahimasidan bir turib yana o'tir»*gan, *«ko'zlari sovuq yiltiray boshlagan»*, sevinchdan otilib chiqayotgan kulgisini xaspo'shlash uchun soxta yo'taliga alohida e'tibor qaratiladi. Bu holatlar uning shaxsidagi qanday sifatlardan dalolat berishiga asoslanib, Muhsin

guppining tabiati borasida o'quvchilar bildirigan fikrlarga aniqlik kiritib olinadi.

Muhsin guppining Afandi ketgandan keyingi xatti-harakati ham uning qanday odam ekanini chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Turli janrlardagi badiiy asarlar yuzasidan o'quv yili davomida amalga oshirib kelinayotgan tahlillar o'quvchilarni matnni shunchaki o'qib ketmaslikka o'rgatgan bo'lishi tabiiy. Ular guppi tabiatiga xos jihatlarni tezgina ilg'ay oladilar.

Yuqorida tavsiya etilgan matndan adibning tasvir mahoratini ilg'ab olishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan: *«...jimlikda guppi bilan malaylaridan oqayotgan ter ham jildirab ovoz chiqarayotganga o'xshardi»*, *«...issiq kun ham o'zining shabadasi, olislardan kelayotgan qushlar sayrog'i, xullas, jamiki harakat va ovozlari bilan birga hayronlikka qo'shilgandi»* kabi tasvirlarning qo'llanilishiga o'quvchilar munosabatini so'rash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'rinda talabalar qahramonlar ruhiyatiga xos jihatlar asarda nechog'lik ustalik bilan, ko'zga tashlanib turmaydigan tarzda tasvirlanganligiga, qissanavisning so'z qo'llash, inson hissiyotini anglash mahoratiga alohida e'tibor qaratishlari lozim bo'ladi.

Muhsin guppining Afandi qilgan nayrangni payqab qolgandan keyingi holatiga o'quvchilarning diqqatini tortish lozim. Bu jarayon tasviri uning shaxsini to'laroq ochishga xizmat qiladi. U Afandiga: *«To'g'rilikcha suv so'rasangiz bermasmidim?»* - tarzida o'pkalanganda, samimiy gapiryapti deb o'ylash mumkinmi? Savolga javob berish jarayonida o'quvchilar qahramonni atroflicha o'rgana boshlaydilar, uning tabiatini har jihatdan chuqurroq tadqiq qilib munosabat bildiradilar. Shu asnoda, tabiiy ravishda, har bir o'quvchi o'zini ham taftish qiladi, kuzatadi, o'rganadi.

Qissaning keyingi bobida Guppining Afandidan qasos olish ishqi bilan yonishi, ariqdagi suv bilan suhbat asnosida: *«... kim boy bo'lsa – o'sha aqlli. Kim aqlli bo'lsa – o'sha boy! ...Aqling bo'lmasa boylik topib bo'psan!»*- degan xulosasiga o'quvchilarning munosabatini aniqlash foydali bo'ladi. Donolik, ishchanlik, tadbirkorlik, ziqnalik va boylik singari tushunchalar hamda ularning o'zaro munosabatlari haqda o'quvchilar nima deb o'ylashlarini aniqlash muhimdir.

Shuningdek, o'qituvchi «Adabiyot» dasturida: *«Abdi oppoq timsoli orqali o'zbek xalqining mard va tanti farzandlariga xos xususiyatlarning berilishi. Jasur, oriyatli hamda tadbirkor bir kishining*

o'nlab oriyatsiz, qo'rqoq, qo'y-odamlardan ortiq ekanining ko'rsatilishi. Adabiyotimizga qo'y-odam tushunchasining kirib kelishi» shaklidagi talqinga asoslangan holda Abdi oppoq shaxsini o'rganishga urg'u berishi lozim. Chunki dasturda Abdi oppoq xarakteriga xos xususiyatlarga alohida e'tibor berilgan.

Abdi oppoqning kasbi, «chapani» so'zining ma'nosi va chapanilarning odatlari, ularga atrofdagilarning munosabati, chapanilarning kasbiga xos bo'lgan xususiyatlarga alohida to'xtalish zarur. Chapanilarning hurmatga sazovorligi, atrofdagilarning ulardan hayiqishi sabablari ham o'quvchilar nazardan chetda qolmasligi kerak. Chapanilarga xos xususiyatlarning o'quvchilar xotirasida yaxshigina o'rnashib qolishi uchun o'qituvchi ularga alohida savollar bilan murojaat qilishi, olingan javoblarni tahlil qilishi, fikrlarini asoslashga undashi lozim bo'ladi.

Qissadagi Abdi oppoqning sirli o'tmishi haqidagi hikoya, yolg'izgina o'g'lini bilimli qilishga astoydil intilishi o'quvchilar nazaridan chetda qolmasligi kerak. Ko'p sonli qaroqchilar bilan to'qnashuv jarayonida uning xarakteridagi qanday hislatlarning namoyon bo'lganiga alohida e'tibor berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar matnga tayangan holda fikr bildirganlari, o'z qarashlarini matnga tayanib asoslaganlari ma'qul.

O'qituvchi o'zbek adabiyotida shu vaqtga qadar Abdi oppoq tipidagi adabiy qahramonning bo'lmaganligi, adib tamomila yangi badiiy personajni tamomila o'ziga xos jonli odam sifatida g'oyat katta mehr bilan mohirona tasvirlay olganligi haqida to'xtalishi lozim. Toza e'tiqod, ezgu niyatli, olijanob amallar qiladigan kishilarga ergashish Abdi oppoqni oddiy chapanidan xaloskor darajasiga ko'tardi. Maqsadning tubanligi, imonsizlik kuch va jasorat jihatidan Abdidan qolishmaydigan Ahmad tarashani manfur bir yo'lto'sar qabilida o'lib ketishga olib kelganligiga o'quvchilar e'tibori qaratilishi joiz.

Sodir va Nodir mirshab obrazlari qissa syujeti rivojida jiddiy mavqyega ega bo'lgan, badiiy jihatdan juda puxta va ishonarli ishlangan qahramonlar sirasiga kiradi. O'quvchilar mirshablarning tabiatiga xos xususiyatlar yorqin namoyon bo'lgan o'rinlarni qissadan topib qayta o'qisalar, ularning ma'naviyatiga xos qirralarni yaxshiroq anglash imkoniga ega bo'ladilar. Ular mirshablarning xatti-harakatlaridagi kasb yo'nalishi va fe'l-xo'yidagi o'xshashliklar nufayli mavjud bo'lgan umumiy jihatlar bilan birga ularning har birigagina xos

xususiy – o'ziga xos qirralarni asar matniga tayangan holda topishga va bu holning ildizlarini ochishga urinib ko'rishlari lozim.

O'quvchilar Abdukarimni ko'rganda sardoba oldida o'tirgan mirshablarning holati ruhiyasi va o'zlarini tutishlari bilan Abdukarimning ularni ko'rgandagi kechinmalari va o'zini tutishi tasviri berilgan o'rinlarni tahlil qilishga urinib ko'rsalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dehqonni ulovidan tushishga majbur qilgan kuch nimada ekanligi haqida, mirshablarning o'zlarini bu qadar erkin sezishlarining sabablari xususida o'ylab ko'rish o'quvchilarga asar matnini teranroq anglash imkonini bergani singari, ularda ma'naviy sifatlarning ham mustahkamroq shakllanishiga sabab bo'ladi. O'quvchilar qahramonlar xatti-harakatlarining ijtimoiy, ruhiy, axloqiy sabablarini ochishga urinib ko'rishlari zarur. Nodir mirshabning *«...o'zini fil, Abdukarimni chumoli»* chog'lashiga sabab bo'ladigan asosni qidirsalar, ularda dehqonning qo'rquvi bois va mirshablarning ma'naviy basharalarining qandayligiga munosabat shakllanadi.

O'quvchilar qissa muallifi mirshablarning har biriga xos jihatlarni tasvirlashiga ham alohida e'tibor qaratganligini matndan bilib olishlari lozim. Chunonchi, asarda Sodir mirshab haqida bitilgan: *«Boshiga sallasini, oftiga esa ensa qotish ifodasini qo'ndirdi»* tarzidagi tasvir inosniylikdan begona, birovni his etishdan mingiab chaqirim yiroq, ma'naviy olami sahroday qup-quruq bo'lgan, hatto yuzidagi ifodalar ham niqoblar singari olib yoki qo'ndirib qo'yiladigan bu dahshatli kimsaning butun jirkanchligini aks ettiradi. Asarning boshqa bir o'rnida hozirgina odamlarday muloyim gapirib turgan Nodir mirshab haqida: *«...yana mirshoblik siyoqiga o'tdi»* degan tasvir beriladi. O'quvchilar hyech qanday ortiqcha izohu tushuntirishlarsiz ham mirshablar tabiati juda mukammal ochilgani, ularga xos har bir chizgi adib tomonidan mahorat bilan ishlangani haqida muayyan qanoatga kelishlari mumkin.

Asar ustida ishlash asnosida o'quvchilar mirshablarning o'zlarini tutishi, Abdukarim dehqondan o'lja undirish maqsadida topgan bahonalarining arzimasligi, vaziyat o'zgarishi bilan hyech qiynalmay, turlicha qiyofada tuslana olishlari singari jihatlariga asoslanib, ularning xarakterlariga mustaqil ravishda baho berishlari mumkin. Shu jarayonda Abdukarim tabiatiga xos xususiyatlar talqini haqida ham o'ylab ko'rish lozim bo'ladi. Ta'magir mirshablarning maqsadini tezroq

tushuna qolmagani dehqon xarakterining qandayligidan dalolat berishi tadqiq etilishi lozim.

Dehqon tabiatida ro'zg'or tashvishlari ostida tamomila yo'qolib bitmagan insoniy g'urur uyg'ongan, bosh ko'targan o'ringa alohida e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi. Mirshablarning barcha zug'umlariga chidagan yigitning birdaniga: «*yuzidagi yalinchoqlik yo'qolib, o'rnini aqlli qahr egalla*»gani sabablari va uning bundan keyingi xatti-harakatlari asoslari haqida mulohaza qilib ko'rish o'quvchilarga qissaning yangi qirralarini ochish imkonini beradi.

Asarning «Ikkinchi o'lja» bobida o'lja ilinjida sevinib o'tirgan mirshablarning Muhsin boyni taniganda «*ustiga sovuq suv sepilgan gulxandek so'nishi*», ularning «*qo'y og'zidan cho'p olmagan musulmon qiyofasi*»gi kirishi, boy yaqinlashganda «*birdaniga shirin jilmayib, tavoze bilan salom berishi*», «*kim o'zarga o'ynagandek*» u bilan so'rashishlariga o'quvchilarning e'tibori qaratiladi. «*Saltanat ustunlari*»ning Abdukarim dehqon bilan Muhsin boy oldidagi xatti-harakatlarini taqqoslash o'quvchilarga bu ikki mirshab ma'naviyati haqida aniq xulosa chiqarish imkonii beradi.

Shu o'rinda muallifning: «*ularning boya Abdukarim oldidagi vajohatlarini ko'rgan va hozirgi siyoqlari bilan solishtirgudek kimsa topilsa edi, odamning gavdasi birdaniga kichrayib qolishiga guvoh bo'lardi*»,- degan tashbehi o'quvchilarning nazaridan o'tsa, ular bu haqda mulohaza yuritsalar, o'rinli bo'ladi. Nasriddin Afandining nomini eshitgan mirshablarning «*xuddi moxovdan qochgandek*» ikki tomonga qochishi tasviriga ham o'quvchilarning diqqati tortiladi va buning sabablari haqidagi fikrlari so'raladi.

Matnni darslarga bo'lib tahlil qilinsa, shu yerda birinchi darga rejalashtirilgan ishlar nihoyasiga yetadi. Asarning qolgan qismi uyda o'qib kelish uchun topshiriladi. Keyingi darsda yana tahlil davom ettiriladi.

Agar tahlil yaxlit amalga oshirilayotgan bo'lsa, ish «Ikki xum asal» bobining matni ustida davom ettiriladi. Orzular ummoniga g'arq bo'lib o'tirgan mirshablar holati bilan Laylak tomondan kelayotgan Nasriddin Afandining «*Toshqin daryoman dehon, savlatingga ishonma*» xirgoyisi o'rtasidagi bog'liqlikni topishga e'tibor qaratish joiz. Muallif bu tasvirni shunchaki kiritgan bo'lmay, balki asar voqealarining keyingi rivoji yo'siniga nozik ishora qilyotgani haqida o'ylab ko'rish lozim. «Saltanat tog'lari»ga zarracha qiyo boqmay o'tib ketayotgan Nasriddin Afandini

mirshablar so'roqqa tutganda: «*bir oyog'ini egar ustiga olib yarim chordona qurarkan, kattakon savol alomatiday jilmayib mirshablarga o'giril*»ishi zamirida qanday asos yotganligi haqida o'ylab ko'rilmasa, qissa bosh qahramoni tabiatini anglash mushkul bo'ladi. Mirshablarning hatti-harakatlarida bir sir borligini Nasriddin qanday anglab yetganligini o'quvchilar matnga asoslangan holda topishga urinishlari kerak.

Qissaning «Nasriddinning quroli» bobida Afandining tabiati haqida fikr ifodalangan. Muallif uni Muhsin boy va Abdukarimlarga qiyosan tasvirlagan. Shu asnoda muallif askiya, so'zga ustalik va hozirjavoblikning mohiyatini ham ochib bergan. Bu ham o'quvchilarning diqqatidan chetda qolishi mumkin emas. Chunki o'quvchilar o'tgan darslarda latifa janridagi asarlar bilan tanishgan, Afandi timsoliga xos xususiyatlarga o'z munosabatlarini bildirishgan. Imkoniyatdan foydalanib, o'z qarashlari bilan muallifning fikrini taqqoslab ko'rsalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qissaning «Nasriddinning quroli» qismi alohida diqqat bilan qayta o'qilishi va jiddiy tahlil etilishi lozim. Asarning qaymog'i, bosh qahramon tabiatidagi yetakchi sifatlarning tub asoslari mazkur bobga jamlangan. O'qituvchi matnni darsda mutolaa qilganda ham, yoki o'quvchilarga uyga o'qishga topshirganda ham bu bobga alohida urg'u berishi lozim. Qissada «ikki baloyi azim» deganda nazarda tutilgan narsalar, odamlarga «*tushunarsiz, sirli narsalarning ko'pchilik tomonidan mensimay*» kelinishi, «*...boylikka qullik ko'p odamlarning inson sifatida ro'shnolik ko'rmay o'tib ketishiga sabab bo'lishi*» kabi falsafiy fikrlar o'quvchilarning shuuridan o'tmog'i kerak. Muallif tomonidan juda shafqatsizlik bilan aytilgan: «*Qulning aqli ham kushanda*» degan fikrga o'quvchilarning munosabatini uyg'otish o'ta zarur. Yo qashshoqligi bois muhtojlikka qul yoki boylikka qul bo'lganligi sababli aqli kishanda bo'lgan boshqa kishilardan farqli tarzda Nasriddinning atrofida ro'y berayotgan voqealarga ***tomoshabin bo'lib turmay, tomoshalarga aralashuvi,*** «*kerak bo'lganda voqealarni o'z istagi bo'yicha haqiqat tomonga baholi qudrat burish*»ga urinishi kabi fazilatlariga o'quvchilar e'tibori qaratilishi kerak. Uning «quroli – so'zamolligi» ekani, mag'rurligi, erkinligi nopisandlikdan emas, butun yer yuzi uning vataniligini tuyushidan ekani haqida o'quvchilarning alohida mulohaza yuritishlariga erishmoq adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Qissaning keyingi «Kutilmagan...» bobida favqulodda mirshablarning ko'ngillariga kirib kelgan allaqanday xijillik nimadan ekani, u tufayli ruhiyatlarida sodir bo'lgan xomushlik haqida o'quvchilar o'ylab ko'rishshlari kerak bo'ladi. Bobda asar voqealarining kutilmagan rivojiga o'quvchilarning diqqati tortiladi. Mirshablarning Abdukarimga munosabati. Nasriddindan o'larcha hayiqishlari o'quvchilarning chehrasiga kulgu taratishi tabiiy. Nasriddin nimaga asoslanib «*Sizlarning qo'lingizdan bunaqa ish kelmaydi*» deyishi, xumdagi pashshalarning aynan qirq bitta ekanligi asosi, mirshablarning qozixonaga borish haqidagi fikrdan qo'rqqanliklari sababi matndan qidirib topilishi va ularning me'yoriga yetkazib tasvirlanganligiga e'tibor qaratilishi zarur. Bir-ikki daqiqa avval rohatlanib, qotib kulishayotgan mirshablarning birdaniga o'zgarib qolishi sababiga diqqat qilinishi kerak.

Qissaning «Vakolatnoma» bobi asardagi voqealar rivojining eng qiziq nuqtasi sanaladi. Qozixonadagi voqealar tasviri asar yechimi sari yo'naltirishi bilan o'quvchilarni qiziqtirishi tabiiy. Afandining vakolat haqidagi topqirligiga o'quvchilar munosabat bildirganlari ma'qul. Ular Abdukarimning aqchani olmasligi, uning dadillanib qolishining sabablari haqida ham mushohada yuritsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Qozini vakolatnoma yozishga undaganda Muhsin guppi nimani o'ylagan bo'lishi mumkinligi haqida o'quvchilar mulohaza qilib ko'rishlari kerak. Qozi juda ham g'alati vakolatnomani ovoz chiqarib qiroat qilgani tasviri matndan qayta o'qilganda o'quvchilarning barchasi yana bir marta yayrab kulishi tabiiy. Beozorday ko'ringan vakolatnomaning Afandi qo'lida dahshatli qurolga aylanib ketishiga o'quvchilar hayotiy, badiiy va hajviy mantiq nuqtai nazaridan munosabat bildirishlari ularning tafakkur ziyrakligini ta'minlaydi.

Qissadan olingan parcha so'ngidagi qaroqchilar bilan to'qnashuv lavhasi, hayot-mamot masalasi hal etilayotganda odamlarning asl qiyofalari namoyon bo'lgan o'rinlar g'oyat sinchiklab o'rganilishi. tasvir qamroviga olingan birorta timsolning xatti-harakati o'quvchilar e'tiboridan chetda qolib ketishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Karvondagi o'nlab kishilar Qosim qo'rboshining qaroqchilaridan qo'rqib, qo'y singari osongina ularning o'ljasi, qalqoni va qurboniga aylanganlari, ayni vaqtda, yovqur Abdi oppoqning bir o'zi o'ttiz yo'lto'sarga qarshi mardona va oqilona kurashib g'alaba qilgani sahnasi g'oyat ishonarli va jozibali tasvirlangan. Bu lavhada ishtirok etgan ko'p sonli

personajlarning eng kichik xatti-harakatlari ham adib nazaridan chetda qolmaganligi, ularning har biri o'ziga munosib chizgilarda ko'rsatilganligi e'tiborga olinishi lozim.

O'quvchilar diqqati Qosim qaroqchining Afandini avval qo'yib yuborib, Abdi oppoq faollashgach, uni qaytarish haqida buyruq berganligi boisini izohlashga qaratilsa, ma'qul bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilar Abdi oppoqning Qosim qo'rboshiga qarata: «*...har bir yigitingga bir tilladan ol-da, karvonni tashlab ket!*»- degan xitobi ozgina vaqt o'tgach, «*Ey Qosim, sen emas, men joningni hadya qilaman. Karvonni tashla-da, ket!*» shaklida aytilgani sababini izohlashlari maqsadga muvofiq bo'ladi. So'nggi sahnalarda faol ishtirok etgan Abdi oppoq. Qosim qo'rboshi, Nasriddin Afandi, jurjonlik savdogar, Ahmad tarasha va karvonboshi timsollarining har biriga xos sa'jiya, fe'l qissada qay tariqa aks ettirilganligi, qanchalik mahorat bilan ko'rsatilganligi atroflicha va qizg'in muhokamalarga mavzu bo'lishi kerak.

Har qanday asarning mohiyatini ochishda savol va topshiriqlarning ahamiyati juda katta. O'qituvchi dars jarayonida ularning barchasiga alohida diqqat qilishi, javoblarning turfaligiga, qat'iyligiga erishishi, qay darajada asoslanganligiga diqqat qilishi lozim.

Asar tahlili amalga oshirilayotgan darslarda savol va topshiriqlarning barchasi bilan ishlashga ulgurmay qolinsa, bir qismini o'quvchilarning o'zlariga topshirish ham mumkin. O'quvchilar uyda bu savol va topshiriqlar bilan ishlashi, o'zicha fikr yuritishi mumkin, albatta. Lekin uning fikrlari o'zi bilan qolib ketadi. O'rtaga tashlanmaydi, muhokama qilinmaydi, munosabat bildirilmaydi. Shuning uchun matnni o'qish uyga topshirilsa ham savol va topshiriqlar imkon qadar sinfda muhokama qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'qiganlaringiz asosida oddiy laboratoriya bilan virtual laboratoriya o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni ajratib bering.
2. Virtual laboratoriyalarning afzalliklari va kamchiliklari borasidagi qarashlarga munosabat bildiring. Fikringizni asoslang.
3. Virtual laboratoriyalarning aniq fanlar yo'nalishidagi haqiqiy ilmiy laboratoriyalardan afzallik jihatlariga munosabat bildiring.

4. T. Ziyodova tomonidan tayyorlangan elektron darsliklar, matn yaratish texnologiyasi bilan bog'liq multimedialarni topib ulardan ona tili ta'limi amaliyotida foydalanish yo'llarini o'rganing.

5. Adabiyot darslarida virtual laboratoriyalarni tashkil etish va amaliyotda ulardan foydalanishning afzalliklari haqida mulohaza yuriting.

6. Adabiy ta'lim bo'yicha tashkil etilgan virtual laboratoriyalar adabiyot o'qitish metodikasi ilmida qanday darajada deb o'ylaysiz?

7. Adabiyot o'qitish tizimida virtual laboratoriyalarni tashkil etish uchun kompyuter dasturchisi bilan hamkorlikda ish olib borishga urinib ko'ring.

8. S. Qambarova tomonidan tayyorlangan "Sab'ai sayyor" dostonidagi "Beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning dostonorolig'i" nomli virtual laboratoriya mahsulotini topib o'rganing. Yutuq va kamchiliklarini aniqlang. Munosabat bildiring.

9. J. Nurmuhamedov tomonidan yaratilgan: "Navoiy ijodini o'rganish yuzasidan amaliy laboratoriya"; "5–11-sinflar o'quvchilari uchun yaratilgan testlar"; 5–11-sinflar o'quvchilari uchun yaratilgan "Innovatsion multimedialar"; "O'zbek tilidan tezkor tahlil usullari"; "Insho yozishni o'rganamiz" va hk. bir qator elektron ish turlarini topib ulardan amaliy mashg'ulotlarda foydalaning.

10. Zohir A'lam qalamiga mansub "Afandining qirq bir pashshasi" nomli qissani topib o'qing.

11. "Badiiy asarning didaktik tahlili" ruknida qissa matni yuzasidan taqdim etilgan barcha savol va topshiriqlar ustida ishlang. Ularga javob bering. Munosabat bildiring.

12. Adabiyotga kirib kelgan "qo'y odam" tushunchasiga munosapbat bildiring. Qarashlaringizni asoslang.

13. Mazkur asar bo'yicha multimedia materiali tayyorlashga urinib ko'ring.

14. "Zamonaviy adabiy ta'lim uning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida ilmiy-metodik maqola tayyorlang. Kursdoshlar muhokamasidan so'ng uning nashri ustida shug'ullaning.

36-MAVZU. SUN'IY INTELLEKT VA ADABIY TA'LIM

Reja:

1. *"Sun'iy intellekt" tushunchasi nimani anglatadi?*
2. *Sun'iy intellektning mazmun-mohiyati.*
3. *Sun'iy intellektning adabiyot va adabiy ta'limdagi o'rni.*
4. *Badiiy asarning didaktik tahlili namunasi.*

Avvalo, "Sun'iy intellekt" iborasidagi ikki so'zning mohiyatiga kirib olish lozim. Iboradagi birinchi "sun'iy" so'zi notabiiy yo'llar bilan amalga oshiriladigan, tabiiy bo'lmagan[1] ma'nosini anglatadi. Masalan, sun'iy ko'z, sun'iy material, sun'iy kauchik va hk. Iboradagi ikkinchi so'z "intellekt" lotincha *intelectus* so'zidan olingan bo'lib – aql-idrok, kishining tasavvur qilish va fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, zehni[2]ni anglatadi. «Sun'iy intellekt» tushunchasini odamdan tashqaridagi sun'iy aql-idrok, sun'iy zehn tarzida anglash mumkin.

Dunyo miqyosida bu atamaning turfa ta'riflari mavjud. Uni o'zbek tilida, imkon qadar soddalashtirgan holda izohlaydigan bo'lsak, **sun'iy intellekt** – topshiriqlarni bajarishda inson xatti-harakatlari, tutumlariga taqlid qila oladigan, to'plangan ma'lumotlardan foydalangan holda mustaqil ravishda asta-sekinlik bilan o'sib-rivojlanib boruvchi tizim yoki mashina, deyish mumkin

Sun'iy intellekt inson kabi fikrlash va his qilish ko'nikmasidan yiroq. Lekin u ixtirochi-mutaxassislar joylashtirgan ma'lum dastur va algoritm (ma'lum qoidalar asosida ketma-ket bajariladigan, kerakli natijaga olib boradigan harakatlar, operatsiyalar yig'indisi,tizimi)larga asoslanib faoliyat olib boradi. Shu algoritmlarga tayangan holda mustaqil ravishda rivojlanadi va o'z faoliyatiga o'zgarishlar kirita oladi.

Ya'ni inson aqli va bilimlari asosida notabiiy (har xil texnika vositalari, kompyuter grafikasi va hk.) ravishda yaratilgan, inson aqli va bilimi amalga oshiradigan ishlarni uning o'rniga undan boshqacharoq "fikrlab", kamroq vaqt sarflagan holda bajaradigan yaratiqlar – mashinalar, robotlar, dasturlar, algoritmlar va boshqa har xil axborot texnologiyalarini tushunish mumkin. Inson so'rovlari va talablarini tezkorlik bilan tahlil qilib va bir lahzada tegishli javobni

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – С.pdf
[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Ш.pdf

beradigan, topshiriqni bajaradigan, uning mushkulini oson qiladigan elektron mashinalar, dasturlar zamiriga singdirilgan aqliy faoliyat turi sun'iy intellekt hisoblanadi. Dunyo miqyosida zamonaviy ilm-fan sun'iy aql-idrok, sun'iy zehn bilan ishlaydigan bunday texnologiyalarni yaratish va tokomillashtirish bilan shug'ullanmoqda

Bu tushunchalarning mamlakatimizda inson hayoti va faoliyatiga, sohalarga kirib borishi mutaxassislarga, ta'lim tizimiga samarali yetkazilishi esa o'qituvchilaring ularni qanchalar chuqur anglashlari va ne chog'li mukammal bilishlariga bog'liqdir.

Chunki ilm-fandagi yangiliklarning dastlabki iste'molchisi va ijrochisi insondir. Bora-bora odamlar (xuddi hozir har qanday odam, hatto gadoy va to'qson yoshli chol-kampir ham) o'z hayotini qo'l telefonlarisiz (ularda, hozircha, sun'iy intellekt yo'q) tasavvur qilolmagani singari sun'iy intellektsiz tasavvur ham qila olmaydigan davr ham kelishi mumkin. Demak, insonning o'z hayoti va faoliyatini osonlashtirish yo'lida amalga oshirgan kashfiyotlari – sun'iy intellektlar kelajakda uning butun hayotini qamrab olishi mumkin.

Odamlar dunyoni zabt etishga intilayotgan aqlli robotlarni tasavvur qilish uchun "sun'iy intellekt" so'zidan foydalanadilar. Biroq, sun'iy intellekt odamni almashtirishga mo'ljallanmagan. Undan foydalanishning maqsadi insonning ko'nikma va qobiliyatlarini kengaytirish, odam qo'li yetmaydigan joylarda topshiriqlarni aql bilan boshqarish va bajarishni nazarda tutadi, xolos.

Sun'iy intellekt kompyuterlarga o'z tajribalarini o'rnatish, belgilangan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar qilishi mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. Bunday vazifalarning juda ko'p qismi ma'lum dasturlar asosida kompyuterlarga, internet sahifalaridagi har xil saytlarga joylashtirib qo'yilgan. Kompyuterda shundoq ham juda ko'p ishlar bajariladi. Lekin ularning barchasida sun'iy intellek bor deb bo'lmaydi. Sun'iy intellektni hayotga tatbiq etishda kompyuter shaxmatchilaridan tortib, o'zini o'zi boshqaradigan mashinalarga qadar qamrab olishini anglash muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarni katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardagi imkoniyatlarni aniqlash orqali ma'lum vazifalarni bajarishga "o'rgatish" mumkin bo'ladi.

Sun'iy intellekt an'anaviy ravishda insonning imtiyozi deb qaraladigan, ijodiy funksiyalarni bajarish uchun intellektual tizimlarning xususiyati, aqlli mashinalar, ayniqsa, aqlli kompyuter

dasturlarini yaratish bilan bog'liq fanlar va texnologiyalaming asosi, mahsulidir.

Sun'iy intellekt inson aql-idrokini tushunish uchun kompyuterlardan foydalanishning bir qator vazifasini bajarish bilan bog'liq. Ammo uning biologik (his etish, tasavvur qilish, o'zgani anglash va hk.) imkoniyatlari chegaralangan. Masalan, shaxmatda har qanday favqulodda vaziyatga mos yo'llarni anglagan holda (mashina odam bilan shaxmat o'ynaydi. Unga shunday dastur o'rnatilgan. Odam qanday yo'l tutishi mumkinligi bilan bog'liq barcha holatlar bilan bog'liq dasturlarni kompyuterga kiritish mumkin emas va buning imkoni ham yo'q. Chunki mashina bilan shaxmat o'ynayotgan odam intellektual imkoniyatining chek-chegarasi yo'q va ularning barchasini dasturlashtirish mumkin emas) odam bilan shaxmat o'ynab uni mag'lub eta oladigan sun'iy intellekt o'rnatilgan. U odamni shaxmatda yutishga qodir. Lekin u savollarga javob bera olmaydi. Mag'lubni tushunmaydi, uning og'riqlarini his qilmaydi yoki o'zi g'alaba nashidasini tuymaydi, sura olmaydi. U faqat qilishi kerak bo'lgan ishni bajaradi.

"Sun'iy intellekt" atamasi dunyoda o'tgan asrning o'rtalarida, 1956 yilda paydo bo'lgan. Bugunga kelib sun'iy intellekt texnologiyasi ma'lumotlar hajmini ko'paytirish, algoritmlarni takomillashtirish, hisoblash quvvati va ma'lumotlarni saqlashni optimallashtirish fonida oliy darajaga erishmoqda.

50-yillarda boshlangan birinchi sun'iy intellekt tadqiqotlari muammolarni hal qilish va ramziy hisoblash tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan. 60-yillarda bu yo'nalish AQSh mudofaa vazirligining qiziqishini uyg'otadi va harbiylar odamlarning aqliy faoliyatini simulyasiya qilish (qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan, aniq xom ashyo va materiallarsiz, faqat ko'rish) uchun kompyuterlarni "o'qitish"ni boshlaydi. Ya'ni virtual ko'cha xaritalarini yaratish bo'yicha bir qator loyihalar ustida ish boshlaydi va 2003 yilga kelib aqlli yordamchilarni yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu ishlar zamonaviy kompyuterlarda, xususan qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarida va inson imkoniyatlarini to'ldirish va ko'paytirishga mo'ljallangan aqlli qidiruv tizimlarida qo'llaniladigan avtomatlashtirish prinsiplari va rasmiy mantiqiy faoliyat uchun asos bo'ldi[1].

[1] https://www.ozon.ru/context/detail/id/sun-intellekt-ardigerzeland

AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Koreya, Kanada kabi 30dan ortiq davlatlarda sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyalari qabul qilingan. Mamlakatimizda ham bu davlatlar safiga qo'shilish borasida ma'lum ishlar olib borilmoqda[1]. Bu kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakat siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida keng qo'llash, raqamli (elektron)[2] ma'lumotlardan foydalanishni kengaytirish, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlashda foydalanishni nazarda tutadi. O'zbekistonda ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2020–2022-yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" (chora-tadbirlar rejasi) loyihasi e'lon qilingan[3].

Hujjatlarga ko'ra, sun'iy intellektni bosqichma-bosqich rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqiladi. Bunda mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish, xorijiy tajribalar asosida mamlakatimizda sun'iy intellektni bosqichma-bosqich rivojlantirish strategiyasi (yo'l xaritasi)ni ishlab chiqish, strategiya loyihasini belgilangan tartibda ijrosini ta'minlash nazarda tutilgan.

Sun'iy intellekt borasida qabul qilingan Qaror[4]ga muvofiq, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazida, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Intellektual-dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazi negizida "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti"ni tashkil qilish yuzasidan vazifalar belgilangan.

Bundan tashqari, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi markaziy apparati tuzilmasida "Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish departamentini" tashkil etish bo'yicha vazifalar ham o'rin olgan. Ko'rinadiki, sun'iy intellektni rivojlantirishga mamlakat miqyosida ham katta e'tibor qaratilmoqda.

[1] "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.

[2] Raqamli iqtisodiyot (veb, internet iqtisodiyoti, elektron iqtisodiyot kompyuterlashtirilgan tizim) – bu raqamli texnologiyalar (kompyuterlarga asoslangan elektron biznes va electron tijorat bilan, ular tomonidan ishlab chiqarilgan va sotiladigan tovarlar va xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyat. Raqamli iqtisodiyotning xizmatlari va tovarlari uchun to'lovlar to'g'ridan-to'g'ri raqamli valyutada (elektron pul yetkazib berish yo'li bilan) xizmatlari amalga oshiriladi.

[3] O'zbekiston Respublikasida fan-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida

[4] 2012-yilning 17-fevral kuni "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi.

Sun'iy intellekt adabiyot va san'atda ilmiy fantastik asarlar, ular asosida yaratilgan badiiy filmlarda dunyoni egallab oluvchi robotlar, har xil mashinalar sifatida o'z aksini topgan. Tasavvur qiling (buni fantastik kinolarda ko'p ko'rgansiz), shu kabi texnologiyalar o'zlariga joylashtirilgan har xil algoritmlar asosida faoliyat olib borishadi. Sun'iy intellekt esa shu algoritmlardan mustaqil foydalangan holda ularning yaratuvchilari nazarda tutgan faoliyatdan tashqariga chiqib ketadi va ixtirochi ularni boshqarolmay, to'xtatolmay qoladi. Ko'pincha, fantastik asarlar va badiiy filmlarda bunday texnologiyalar mustaqil rivojlanishi asnosida, yomon ishlar qilishga qodir bo'lib ketadilar.

Badiiy ifodada, tasvirda ular ba'zan asar qahramonlari yoki o'zlarini yaratuvchilarni tushunadilar, ularga achinadilar va yordamga tutunadilar. Bu ham sun'iy intellekt faoliyatining badiiy tasviri hisoblanadi. Inson xayoli, xayolparastligi, fantaziyasining chek-chegarasi yo'q. Qachondir fantaziya mahsuli bo'lgan yaratiqlar vaqti kelib real hayotda ham o'z aksini topadi. Bugungi texnologiya taraqqiyoti buning yorqin isbotidir. Aslida, sun'iy intellektda o'zgani tuyish, birovni tushuntish hissi yo'q. Balki, bu ham, hozircha, faqat badiiy bitiklarda mavjuddir. Hozircha, biologik xususiyatlarga ega hayotiy sun'iy intellektlar yo'qdir. Lekin odamzodning aqli nimalarga qodirligi yolg'iz Xudoga ayon.

Sun'iy intellekt jahon adabiyotida, xususan, ilmiy-fantastik janrda yaratilgan asarlarda takrorlanuvchi mavzulardan biridir. Fantastik asarlarda sun'iy intellekt utopik (xayol mahsuli) shaklda – inson salohiyatining ustuvorligi namunasi sifatida yoki distopiya (utopiyaga qarshi janr) bilan bu xayolparastlikning xavfli jihatlarini namoyon etish shaklida o'z aksini topgan. Inson aql-idrokiga ega bo'lgan mashinalar g'oyasining boshi angliyalik utopik romannavist Semyuel Batlerga borib taqaladi[1].

Insonga xos darajadagi aql-idrokka ega bo'lgan, rivojlangan robotlar, bugungi til bilan aytadigan bo'lsak, sunniy intellekt g'oyasi 1872 yilda Semyuel Batlerning «Erevon» romanida o'z aksini topgan. Yozuvchining sun'iy intellekt haqidagi dastlabki qarashlari uning 1863 yilda yaratilgan «Darvin mashinalar orasida» nomli muqolasida ko'tarilgan. Muallif unda odamlarni dominant (yer yuzining egasi,

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Erevon_(roman)

hokimi) sifatida siqib chiqarishi mumkin bo'lgan o'z-o'zini rivojlantiruvchi mashinalar haqidagi qarashlarini ilgari surgan.

Meri Shelli (ingliz yozuvchisi) qalamiga mansub «Frankenshteyn yoki zamonaviy Prometey»[1] nomli romandagi yosh olim yaratgan sun'iy mavjudot, shuningdek, uning hamyurti fantast yozuvchi Brayn Oldiss yaratgan sun'iy jonzotlar[2] ham ma'lum darajada shu g'oya bilan bog'liq.

1965 yilda biritaniyalik I. J. Gud «Cuper aqlli mashinalar»[3] o'zlaridan aqlliroq mashinani ishlab chiqishi mumkin va bu odamlarga qaraganda ancha aqlli mashinalar hisoblanadi, tarzidagi qarashlarni ilgari surgan.

Fantastik asarlarda sun'iy intellekt – odamlarga xos bo'lgan tabiiy aqldan farq qiluvchi, mashinalar tomonidan ko'rsatiladigan aql sifatida namoyon bo'lgan. Bir qator ilmiy-fantastik asarlar asosida yaratilgan badiiy filmlarda ham bu g'oya utopik va distopiya shakllarida takrorlanuvchi mavzu sifatida namoyish etilgan.

Masalan, angliyalik rejissyor Ridli Skot butun faoliyati davomida sun'iy intellektga e'tibor qaratgan va bu g'oyalarini o'zining bir qator filmlarida muvaffaqiyatli tasvirlagan[4].

Ko'plab ilmiy-fantastik asarlar orasida taniqli amerikalik rejisser Stenli Kubrikning 1968 yilda yaratgan «Kosmik Odisseya 2001 yil» filmi[5] qahramoni "XAL 9000" nomli sun'iy intellekt kompyuterdagi kosmik missiyasidan chiqib noto'g'ri ish olib boradi va kosmik kema komandiridan tashqari butun ekipajni o'ldirib yuboradi. Sun'iy intellekt tomonidan boshqariladigan jamiyatlarda sun'iy intellekt inqilobining sababi ko'pincha kuch yoki hokimlikni talab etishdan iboratdir.

Badiiy asarlardagi sun'iy intellekt bilan bog'liq ko'plab utopik va distopik kinossenariylar orasida robotlar sivilizatsiyani boshqarishni odamlardan o'zlashtirishi va shu bilimlari asosida ularni bo'ysunishga yoki yo'q bo'lishga majbur qilishi mumkinligi («Mashina yoki Chappi», «Taxt», «Men», «Robot», «Ikki yuz yoshli odam» va hk. filmlarda) bilan bog'liq qarashlar ilgari surilgan.

[1] https://ru.wikipedia.org/wiki/Франкенштейн,_Мэри
[2] https://ru.wikipedia.org/wiki/Оллесс,_Брайан
[3] https://ru.wikipedia.org/wiki/Гуд,_Ирвинг_Джон
[4] https://ru.wikipedia.org/wiki/Скотт,_Ридли
[5] https://ru.wikipedia.org/wiki/Космос_(фильм)

2015 yilda yaratilgan "Iks Mashina"[1] filmida ham intellektual mavjudot Ava o'zining yaratuvchisiga va potensial qutqaruvchisiga qarshi chiqadi. Filmdagi yetakchi g'oya – Qiziqish. Unda chinakam insonga o'xshagan robotda qiziqish hissi ham bo'lishi kerak, degan fikr ilgari surilgan. Ilmiy-fantastik asarlar mualliflari yetarlicha aqlli sun'iy intellektlar metafizika va haqiqat tabiatiga kirib bora oladimi-yo'qmi degan fikrni tekshirdilar. Amerikalik Uilyam Gibson 1984 yilda yaratgan «Neyromant» kiberpank[2]-romani[3]da bo'lgani kabi, jonli mavjudotlar odamlarga shunchaki ahamiyat bermasligi ham mumkin.

Sun'iy intellektlar isyoni haqidagi fantastik asarlarda, eng yomoni, insoniyat yaratgan aqlli mavjudotlar o'zlarini anglab, inson hokimligini rad etadilar va insoniyatni yo'q qilishga urinadilar. Shunday asarlardan biri sifatida chexoslovakiyalik Karel Chapek tomonidan yaratilgan «RUR»[4] dramasini ko'rsatish mumkin. Sun'iy intellektlar o'zlarining odam xo'jayinlariga qarshi isyon ko'taradilar. Yoki boshqa bir holat – «Dunyoning egasi» filmida jangovar robot isyon ko'taradi va o'z ixtirochisini o'ldiradi.

Bundan tashqari, amerikalik Jek Uilyamsonning (1947 yilda yozilgan) «Qatlamli qo'llar bilan»[5] romanida gumanoid (insonparvar) robotlar o'zlarining «xizmat qilish, itoat etish va odamlarga zarar yetkazmaslik» shiori ostida inson hayotining barcha jabhalarini o'z nazorati ostiga olishadi. Hyech bir inson unga xavf solishi mumkin bo'lgan biron bir xatti-harakat qila olmaydi va insonning har bir harakati sinchkovlik bilan tekshiriladi. Ma'lumki, odamzod tuyg'ular sohibi. U hamisha qolipda, mashinasifat yashay olmaydi. Robotlar esa o'z shiorlariga qarshilik ko'rsatgan, unga bo'ysunmagan odamlarni olib ketishadi va yangi (mexanoid) qoidalariga ko'ra baxtli bo'lishlari uchun lobotomizatsiya (qayta yaratishadi) qilishadi.

Fantastik asarlari bilan dunyo miyosida taniqli amerikalik (asli rossiyalik) Ayzek Azimov o'zining yaratiqlarida sun'iy intellekt – robotlar haqida yozganda «Robototexnikaning uch qonuni»ga amal qilgan: «Birinchi qonun – robot odamga zarar yetkaza olmaydi yoki harakatsizligi tufayli odamga zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymaydi.

[1] https://ru.wikipedia.org/wiki/Ex_Machina_(фильм)
[2] Кибер(англ. cyber) – бу компьютер ёрдамида техникани ҳамда ишлаб чиқаришни автоматлаштиришни англатувчи сўз бирикмаси.
[3] https://ru.wikipedia.org/wiki/Гибсон,_Уильям
[4] https://ru.wikipedia.org/wiki/Карел_Чапек
[5] https://ru.wikipedia.org/wiki/Уильямсон,_Джек

Ikkinchi qonun – robot odamlarning buyrug'iga bo'ysunishi kerak, agar bunday buyruqlar birinchi qonunga zid bo'lmasa. Uchinchi qonun – robot o'zini birinchi yoki ikkinchi qonunga zid kelmasa, himoya qilishi shart"[1]. Inson boshqaruvi ostida robotlarning xayrixoh rahbarligi nazarda tutilgan. A. Azimov asarlari asosida yaratilgan badiiy filmlarda ham insonning yerdagi hukmronligi insoniyatning sun'iy intellektni taqiqlashi, itoat etish uchun robotlar yaratish yoki odamlarni robotlar bilan birlashtirish orqali yer sharini saqlab qolish mumkinligi borasidagi g'oyalar ilgari surilgan.

Amerikalik fantast yozuvchi Frenk Gerbert ham insoniyat sun'iy intellektni butunlay taqiqlashi mumkin bo'lgan vaqt g'oyasini o'rganib chiqqan. Uning «Dyuna» to'plamida «Butlerian jihodi» deb nomlangan qo'zg'olon esga olingan bo'lib, unda inson ongli mavjudod sifatida aqlli mashinalarni mag'lubiyatga uchratadi va ularni qayta qurish uchun o'lim jazosini qo'llaydi. O'ylab topilgan "To'qsariq katolik Muqaddas Kitob" (Injil)dan: "Mashinani inson kabi aqlli qilmang" tarzidagi bir iqtibosni keltiradi.

Uning o'limidan keyin nashr etilgan «Dyune» to'plami («Ovchi Dyune», «Dyunening qum chuvalchanglari» va hk.)da «Butlerian jihodi» uchun qasos sifatida insoniyatni yo'q qilish uchun sun'iy intellekt hayotga qaytadi[2] va hk.

Ba'zi fantastik asarlarda insoniyat robotlar ustidan nazoratni saqlab qoladi. Robotlar ko'pincha Ayzek Azimovning «Robototexnikaning uch qonuni»ga asoslangan holda jamiyat xizmatida qolish uchun maxsus dasturlashtirilgan bo'ladi va hk.

O'zga sayyoraliklar haqidagi filmlardan biri «Nostromo»da ham «Nostromo» kosmik kemasini boshqarish tizimi yetakchisi nafaqat bir qadar aqlli (ekipaj uni "Ona" deb ataydi), balki jamiyatda «ideal» yoki «sun'iy odamlar» deb nomlangan android (standart operatsiyalar tizimi. Smartfonlar, planshetlar, o'yin pristavkalari, qo'l soatlari, televizorlar, multimedia pleerlari, elektron kitoblar va Google ko'zoynaklari quvvat oladigan operatsion tizim)lar aks ettirilgan.

Amerikalik fantast Ayzek Azimovning "So'nggi savol"[3] qissasida olam haqidagi asosiy savolga javob berishga intilinib, insoniyatdan uzoq umr ko'radigan super kompyuter tasvirlangan bo'lsa, polshalik

[1] https://ru.wikipedia.org/wiki/Азимов,_Айзек
[2] https://ru.wikipedia.org/wiki/Герберт,_Фрэнк
[3] https://ru-qaz.ru/wiki/The_Last_Question

fantast yozuvchi Stanislav Lemning «Golem XIV"[1] asarida qahramon Golem XIV g'alaba qozonishi uchun odamlar bilan ishlashni to'xtatadigan super kompyuter tasvirlangan. U urushlar va zo'ravonlikni mantiqsiz deb hisoblaydi. Umuman, dunyo adabiyotida sun'iy intellektning har xil fantastik shakllarini uchratish mumkin.

O'zbek adabiyotida Hojiakbar Shayxov («Rene jumbog'i», «ettinchi operatsiya», «G'aroyib ko'lanka», «So'nggi ajdarning halokati», «Tutash olamlar», «Jodugarning eri», «Ikki jahon ovorasi» va boshqa)ning bir qator fantastik qissa va romanlari, A. Rahimning «Lomakon» qissasi, Ozod Mo'min Xo'janing «er, havo, suv, olov va ...» romani va hk. fontastik asarlar mavjud. Lekin ularda sun'iy intellekt bilan bog'liq qarashlar ilgari surilmagan.

Umuman, milliy adabiy ta'limda, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida sun'iy intellekt bilan bog'liq asarlar (hozircha) o'rganilmaydi. Oliy adabiy ta'limda fantastik asarlar misolida sun'iy intellekt bilan bog'liq asarlarni o'rganish mumkindir. Shu jarayonda mazkur bilimlar talabalarga asqotishi mumkin.

Sun'iy intellekt texnologiyasi rivojlanishning bugungi bosqichida (fantastik asarlarda aks ettirilganidek) qo'rqinchli ham, bu boradagi qarashlar asosli ham emas. Aksincha, sun'iy intellektning rivojlanishi ushbu texnologiyalarga inson hayotining barcha sohalarida real foyda keltirishga yo'naltirilgan.

Insoniyat aslida amaliy hayotida sun'iy intellektdan o'zi anglab-anglamay foydalanib kelyapti. Google ijtimoiy tarmoqlari, turli saytlar, ma'lumotlar omborlari va qidiruv, internet magazinlar hammasi zamirida sun'iy intellekt kichik-kichik tutumlar shaklida mavjud. Amerikalik mutaxassislar tomonidan yaratilgan "Tesla" elektron mashinasini sun'iy intellekt mutaxassislari yaratgan navbatdagi mukammal yaratiq deb baholash mumkin[2].

Sun'iy intellektlar ta'lim sohasida ham jiddiy o'zgarishlar qilishga qodir bo'lishi mumkin. U ta'lim yo'lidagi to'siqlarni kamaytiradi, ta'limni elektron boshqarish jarayonini avtomatlashtiradi. Qolaversa, sun'iy intellekt o'quv natijalarini yaxshilash usullarini maqbullashtirish

[1] https://ru-qaz.ru/wiki/Stanislav_Lem
[2] https://www.forbes.ru/tehnologii/388911-mask-nazval-samye-opasnye-dlya-cheloveka-tehnologii-mashiny-ego-mozhet-ubit-ili-sdelat-bessmertnym; https://www.forbes.ru/newsroom/tehnologii/393435-mask-predrek-rost-ugrozy-iskusstvennogo-intellekta-dalee-ego-mozhet-ubit-ili-sdelat-bessmertnym

orqali global ta'lim maqsadlariga erishishni tezlashtirish imkoniyatiga ega.

Sun'iy intellekt ta'limni sifatli qiladi, hammaga arzon ommabop bo'ladi. Muallim o'qitishi kerak bo'lgan subyekt darajasidan tushib o'qituvchi-repetitorga aylanadi. Sun'iy intellektni o'quvchining yonida doimiy yuruvchi sun'iy ustoz desa, hyech mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, mobil ilovalar istalgan vaqtda foydalanish va tushunarsiz mavzuni turli usullar bilan qayta tushuntirish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt bilimlarni baholash tizimini ham avtomatlashtirib, inson omilini chetga suradi. Mashaqqatli uy vazifalarini tekshirish, testlarni baholash tashvishlarini yengillashtiradi. Aslida, hyech qachon o'qituvchining jonli munosabati o'rnini hyech qanday sun'iy intellekt bosa olmas, lekin unga yaqin bo'la oladi. Demak, baholash va dars jadvalini tuzish ham sun'iy intellektga o'tishi ayon bo'lmoqda. Raqamli (elektron) ta'limda sun'iy intellekt orqali davlat ta'lim standartlariga asoslanib yozma ish va imtihonlarni to'liq tekshirish mumkin bo'ladi. Bu bir tarafdan yaxshi, bir tarafdan o'qishga harakat qilayotgan o'quvchini jonli rag'batlantirib bo'lmaydi. Sun'iy intellekt hamisha ham yaxshi emas. Uning ham salbiy tomonlari bor. Hali bu borada olimlarimiz ko'p ishlashi kerak.

Maktabda sun'iy intellektni qo'llashning yorqin ko'rinishi, bu – o'quvchilarni yurish-turishlarini kameralar orqali kuzatish va xatti-harakatlarini tahlil qilishidir. Sun'iy intellekt tartib-intizomga ham ko'maklashadi.

Ta'limning globallashuvi, raqamlashgan dunyo sun'iy intellekt onlayn ta'limni rivojlantirib yubordi. Hozir qisqa kurslardan toki oliy ta'limgacha sun'iy intellekt orqali bilim olish mumkin. Albatta, an'anaviy ta'limni inkor qilmagan holda. Har bir o'quvchi o'z qiziqishlariga qarab ma'lum onlayn kurslarida o'qishlari mumkin bo'ladi. Sun'iy intellekt ehtiyojga aylanganligini hamma tushunib yetishi darkor.

Istalgan rivojlangan davlat ta'limini tahlil qilib ko'ring, ularda sun'iy intellekt ta'lim bozorida katta ulushga ega. Raqamli iqtisodda sun'iy intellekt hamma sohalarni rivojlantiruvchi kuch. O'qituvchilarni yangicha ishlashga o'rgatish, ta'lim rahbarlarining raqamli savodxonligini oshirish ustida tinmay ish olib borish kerak bo'ladi[1].

[1] https://kid-uzb.uz/oz/articles/sun-iy-intellekt-oliy-ojgy-aylanganligi-haqida-to-liq-02-11-2020

Xullas, sun'iy intellektlar insoniyat hayotiga juda tezkorlik bilan kirib kelmoqda. Ularning afzalliklari, fazilatlari bilan bir qatorda illatlari ham bevosita amaliyotdan o'zini namoyon etadi. Buni vaqt ko'rsatadi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

"Ravshan" dostonini o'rganish

Muammoli ta'limga xos bo'lgan **bahs-munozara** metodi nazariy qarashlarining amaliy namunasini umumta'lim maktablari 7-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan «Adabiyot» darsligi «Xalq og'zaki ijodidan» ruknida taqdim etilgan «Ravshan»[1] dostoni misolida quyidagicha tashkil etish mumkin. Dostondan olingan parchani o'rganish uchun dasturda to'rt soat ajratilgan bo'lib, buning dasturiy talqini quyidagicha: *"Ishqiy-sarguzashi dostonlarning o'zbek xalq dostonchiligida katta o'rin tutishi. Bu xil dostonlarda ishqiy mojarolarning asosiy mavzu ekanligi. «Go'ro'g'li» turkumidagi ishqiy-sarguzashi dostonlar va mazkur turkumda «Ravshan» asarining tutgan o'rni. Doston voqealarining turkiy xalqlar dostonchiligida keng tarqalgan motiv ekanligi. Dostonning bizgacha yetib kelishida Ergash Jumanbulbulning xizmati. Dostondagi Go'ro'g'li, Yunus pari, Avazxon, Ravshan, Zulxumor, aka-uka kallar obrazlarining tahlili"*[2].

Darslikda dostonning qisqartirib berilgan matni dasturiy talqinida ilgari surilgan barcha qarashlar qamrab olingan. Nazariy bilimlar ham doston haqidagi maqolada o'z aksini topgan. Darslikdagi doston matni bilan bog'liq o'ttizdan ortiq savol va topshiriqlar ko'magida uning to'liq didaktik tahlilini amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, shu savol va topshiriqlarga javob berish asnosida dasturiy talqinga to'liq erishiladi. Agar o'qituvchi mazkur dostonni darslarni tashkil etishdagi turfalikka asoslangan holda o'rganishni ixtiyor etsa, bu darsni asar tahlili so'ngida nazarda tutgani muammoli savol va topshiriqlarni o'rtaga tashlab ham, o'quvchilarni asar qahramoni haqida boshqacharoq fikrlashga yo'naltiruvchi, bu bilan belgilangan maqsadga

[1] Yo'ldoshev Q. va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashr. – T.: «Sharq», 2017. – 132, 3b. b.

[2] Yuqoridagi fikrlar mazmuni asosida tuzilgan fikrlar.

erishishning ikkinchi yoki uchinchi yo'lini muammoli savol yoki topshiriqdan foydalangan holda tashkil etishi ham mumkin.

Darslikdagi doston matni bilan ilk tanishuvdan keyin ba'zi o'qirmanlarda "Ravshan uquvsiz, otasining yordamisiz hyech narsaga erisha olmaydigan yigit. Ravshandan ko'ra otasi Hasan mardroq va jasurroq" degan dastlabki tasavvur paydo bo'lishi mumkin. Ayrimlarda esa, buning aksi: "Ravshan yosh, mag'rur va orchil yigit. O'z sha'nini himoya qila oladi" degan fikr hukmron bo'lib chiqadi. Bu har ikkala taassurotning qaysi biri qanchalik to'g'ri ekani o'quvchilar oldiga qo'yilgan: **"Otasi bo'lmasa, Ravshan maqsadiga erisha olmasdi"** tarzidagi o'quvchilar ruhiyatlarini qitiqlaydigan muammo yechimi bahs-munozara asnosida, fikrlar, qarashlar "jangi" natijasida ma'lum bo'ladi.

Dastlab o'quvchilarni oldilariga qo'yilgan bu muammoli masalaning yechimi sari yo'naltirilib: "Ravshanbek Gulanorga qiz bola sifatida qaraganmidi yoki uni shunchaki singil deb bilarmidi? Buni qanday angladingiz?" savollari o'rtaga tashlanadi. Bu savolga javob izlash asnosida o'quvchilarning diqqati matndagi: *"Gulanor ko'p sulov: yaxshi suratli, shirin so'zli, quralay ko'zli, uzun bo'yli, keng ko'krakli, xush xayol, zehni tez, serfahm qiz edi. Ravshanbek uning bilan maktabda birga o'qiganda, ko'zining ostiga bosib qo'yardi. Go'zo'g'libekning bu so'zi Ravshanbekka ham yoqib qoldi»* tarzidagi tavsifga qaratiladi. Bundan yettinchi sinf o'quvchilari qanday xulosa chiqaradilar, bu dars jarayonida ma'lum bo'ladi, albatta. Lekin o'quvchilarning o'z fikrlarini asoslashlari maqsadga muvofiqdir. Har holda, ma'lum bo'ladiki, bobosining gapi yoqib tushgan Ravshanbek qizlarga beparvo qaraydigan yoshdan o'tgan. Shu o'rinda o'quvchilarning diqqati "suluv" so'zi qamrab olgan ma'nolarga, Gulanorning Ravshanbek *"ko'z ostiga bosib qo'ygan"* fazilatlariga qaratilishi, maqsadga muvofiq bo'ladi: *"Quralay ko'z"*, sizningcha, qanday bo'ladi? *"Xush xayol"* iborasini qanday tushundingiz? *"Zehni tez"* iborasiga qanday talqin berish mumkin? Gulanorning *"serfahm"*ligini qanday izohlaysiz? O'quvchilar shular haqida o'ylashib fikr aytisharkan, Ravshanbekning ham anoyi yigit emasligini anglaydilar.

Shundan keyin o'quvchilar sovchilar nima uchun rad javobi olganligi haqida o'ylashga yo'naltiriladi. O'quvchilar nazarida buning

sabablari nimada bo'lishi mumkin ekan? Shu o'rinda ularning diqqati yana matnga qaratiladi:

...Ravshanga bermayman Gulanorjonni,
Qizim tugul, kuchugimdan sadag'a...

...Har kimni tengiga qo'sh-da, vallamat,
Menga munday tuzsiz so'zni demagin'..

...Bermayman Ravshanga Gulnor qizimni'
Men Hasanga teng qilmayman o'zimni'..

O'quvchilar bu satrlarga tayanib jo'ngina haqiqatni anglaydilar, albatta. Lekin, muhimi, bu rad javobiga Ravshanbekning munosabati: "Ravshanxon muhabbati rad etilgani uchun *"tovushining boricha „yo" deb baqirib, yig'lab qaytaverdi"*mi yoki buning boshqa sabablari bormidi? O'qituvchi o'quvchilarini kuzatishi joiz. Agar kimdir matndagi: *"Ichida: „qizini bersa yaxshi, bu qizini bermas bo'lsa, bobomning so'zini sindirar", deb qo'ydi"*ga diqqatini qarata bilsa, albatta, maqsadga muvofiq ish bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilari e'tiborini ona-bola o'rtasidagi suhbatga, xususan, Ravshanning onasiga aytganlariga yo'naltirishi ham o'quvchilarning to'g'ri xulosa chiqarishiga asos bo'lishi mumkin: *"E, ena! Avazing: „qizimni bermayman, mening tengim emas", deb bizni quzg'un, o'zini lochin tutdi. Bachchag'ar Avaz bizdan ortiq bo'lib ketibdi. Shu Avazdan kam bo'lsam, cho'llarga boshimni olib ketaman. Qo'yaver, ena, qo'yaver, endi Chambilda turmayman, shu Chambilni Avazga berdim, deb bola dim o'pkasini bosolmaydi"*. Savolga shularga tayangan holda javob berishga undalgan, mulohaza yuritgan o'quvchilarning Ravshan shaxsi haqidagi tasavvurlari yanada tiniqlasha boradi. O'qituvchining vazifasi shu: o'quvchilarga yo'nalish berish. Xulosani esa ularning o'zlari chiqarganlari durust. Ravshanning Yunus pari bergan sehrli uzukda tasvirlangan go'zalni bir ko'rishda oshiq bo'lib: *"Zulxumorga g'oyibona ko'ngil qo'yib, ishqivoz bo'lib, o'ziga-o'zi aytdi: „Kele, Avazning qizi bo'lmasa, Qoraxonning qizi-da! Avaz qizini bermadi deb, mening yig'lab yurganim qanday"* deb yo'lga chiqishiga o'quvchilar munosabat bildirsinlar. Bu Ravshanning tabiatiga xos bo'lgan qanday sifatlardan dalolat beradi? Yigitchilikda bu qanday baholanadi?

Bu masalada o'quvchilarning fikri eshitilgach, ularning diqqati quyidagi masalaga qaratiladi. O'quvchilar: "Ravshan ne sababdan hyech kimga bildirmay yo'lga otlangan edi?" degan savol ustida o'ylab ko'rishsin. U nimadan uyaldi? Avazxon unga qizini bermaganidanmi yoki otasini o'ziga teng ko'rmaganidanmi yoxud Ravshanning boshqa bir uyatlik ishlari bormidi? Bu savollar ustida ishlab, o'quvchilar quyidagi satrlarga murojaat qilishi: "*Ravshanxonni otasining savlati bosib, hayosi g'olib kelib, nima derini bilmay o'ylanib turib edi, axiri bo'lmadi. Otasiga gapirmay o'tsa, u ham bo'lmaydi, gapiray desa, uyaladi*" maqsadga muvofiq bo'ladi.

So'ngra: "Ravshanning faqat suratini bir marta ko'rgan qizni izlab yurti, ota-onasini tashlab yo'lga chiqishiga munosabat bildiring. Uni safarga yetaklagan kuch nima: muhabbatmi, uyatmi, ormi? Yoki Ravshanning boshqa bir qarori ham bormidi? Uning bu tutumi tabiatidagi qanday sifatlardan dalolat beradi?

Savollarning asosini o'quvchilar quyidagi:

Maydon-maydon Jiyronimni elmasam,
Dushman bo'lsa, bo'lak-bo'lak qilmasam,
Avazning qizidan yaxshini olmasam,
Jonim otam, Chambilbelda turmasman.

Chambil deydi unib-o'sgan elingni,
Javob ber, otajon, ko'tar qo'lingni!
Talab qildim, Shirvon elga otajon!
Javob bersang, bermasang ham ketaman!

Javob ber otajon, yorga boraman,
Yor deyman-ki, nomus-orga boraman.
Ota sendan oq fotiha tilayman,
Shirvon elda Zulxumorga boraman

satrlaridan qidirganlari o'rinli bo'ladi. Bu savollarga javob berish asnosida o'quvchilar Ravshanning yana bir qator sifatlarini kashf etadilar: jasurlik, orchil, uyatchan, mag'rur, qaysar. Bu sifatlar uning qaysi gaplari zamirida yashiringanini o'quvchilar o'ylab ko'rsinlar, matnga tayanib javob bersinlar.

Mazkur suhbat yakunlangach o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi satrlarni qayta o'qib eshittiradi:

Uzoqdan kelayotibman,
G'amning loyiga botibman,
E yoronlar, birodarlar, birodarlar!
Men yorimni yo'qotibman.

...Shunday asov toyday yorni
Qo'lga keltirsam deb keldim.
Oshiqligim shu barnoga
Endi bildirsam deb keldim.

Eldan o'zgan chin suluvni
Ishqib ildirsam deb keldim.
Aytganimni ko'nmasa-chi,
Aldab ko'ndirsam deb keldim.
Bizning yordan ko'rgan bormi?
Yor daragin bergan bormi?

Va o'quvchilariga shunday savol bilan murojaat qiladi: "Ravshanxon tilidan aytilgan bu satrlarda unga xos bo'lgan qanday sifatlarni payqash mumkin, Sizningcha?" O'quvchilar bu misralardan Ravshanning niyati qat'iyligini, qanday yo'l bilan bo'lsa ham Zulxumorni qo'lga kiritmoqchi, kerak bo'lsa yolg'on ishlatishga ham tayyor ekanini, chunki bu uning uchun or-nomus masalasi, or-nomus esa yigit kishi uchun hayot-mamot asosi ekanini anglashar.

Parchada Ravshanning dor tagida yig'lagani tasviri bor: "*Otasini ko'rib, aslo dalaga chiqmagan bola emasmi, yig'lab yuborgani*". O'quvchilar nima deb o'ylasharkin, Ravshanning yig'lab yuborgani sababi faqat shumi? Bu o'rinda o'quvchilar quyidagi satrlarga ham bir nazar tashlasalar, maqsadga muvofiq bo'ladi:

Uyquda boyladi nozik qo'limni,
Sog'indim, otajon, Chambil elimni.
Tor zindonda „ va ota" deb yig'ladim,
Ko'rdingmi, otajon, mening holimni?

Yo'lingga intizor bo'ldim, otajon,
Baloga giriftor bo'ldim, otajon,
Dushmanga xor-u zor bo'ldim, otajon,

Bir ko'rmoqqa xumor bo'ldim, otajon.

Mehribonim kelgan ekan, ming shukur.
Tulporini elgan ekan, ming shukur.
Meni o'ldirmoqqa kelgan Qoraxon
Endi zolim o'lgan ekan, ming shukur.

Bu satrlardan Ravshanga xos sifatlarni ilg'ay bilsalar, o'quvchilarning fikrlari asosli, xulosalari dalilli bo'ladi.

Ravshanning shaxsi, unga xos bo'lgan fazilatlarni aniqlab uning otasi bo'lmasa kun ko'rolmasligi haqidagi muammoli vaziyatning yechimini qidirayotgan o'quvchilarning diqqati Qoraxonning talabiga bergan javobi aks etgan quyidagi satrlarga qaratiladi.

Sen aytgan odaming, zolim, men emasman.
Bir nechalar o'z holini chengnamas.
Men o'lmasam, o'z elimdan kechmayman!
Aziz boshing oyog'imga teng emas...

Bu satrlar Ravshanning asl tabiatini ko'rsatadi. O'zi qanday vaziyatda turganidan qat'i nazar, otasini ko'rib yig'lab yuborar holatda bo'lgan «o'quvchi»ning bu gaplari ichkaridagi «MeN»ning gaplari. Buni o'quvchilar ilg'ay bilsalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'rtlikdagi: "*Bir nechalar o'z holini chengnamas*" va «*Aziz boshing oyog'imga teng emas...*» jumlalari kimga qaratilgan? Bu satrlardan Ravshanga xos bo'lgan qanday sifatni angladingiz?» savollari o'quvchilarni bir oz zo'riqtirishi mumkin. Bir yurtning podshosiga qarata bunday katta gapni ayta olish uchun odamning ichi «katta» bo'lishi kerak. Bu kattalik odam tug'ilganidan boshlanib katta bo'lgan muhiti, tomirlarida oqayotgan qon, oila a'zolarining tutumlari, turmush tarzi asnosida yillar davomida misqollab ruhiyatiga singib boradi. Uni aql bilan boshqarib bo'lmaydi. Ravshan, garchi otasini ko'rib yig'lab yuborgan bo'lsada, uning tiynatida katta g'urur, katta or, katta sha'n mavjud. Yig'i hali o'quvchilik ta'siridan chiqib ulgaurmagan yolg'iz, erka o'g'ilning lahzalik zaifligi, xolos. Uning asli baland.

Shunday fazilatlarni o'zida jamlab shakllanib kelayotgan yigit hali bir oz yoshligi, oriyat haqqi o'z imkoniyatidan baland dorlarga "osilib" qo'ygani ma'lum bo'ladi. U bu tuyg'ulari bilan otasidanda jasur.

otasidanda mard, orchil yigit bo'lib shakllanayotganini o'quvchilar muhokama jarayonida anglaydilar.

Suhbat tugagach, o'qituvchi o'quvchilar oldiga qo'yilgan muammoli savolga xulosa shaklidagi munosabatini so'rashi mumkin: "Xo'sh, qani endi aytingchi, "Otasi bo'lmasa Ravshan maqsadiga erisha olarmidi?" asar tahlilidan so'ng o'z xulosangizni aytingchi". yettinchi sinf yoshidagi o'quvchilar bu muhokamalardan so'ng qanday yechimga kelishadi, buni vaziyat ko'rsatadi, albatta. Lekin, har holda, muammoga ijobiy munosabat bildirishmas, ya'ni muammoda ko'tarilgan masalani to'g'ri deb topishmas, degan umid bor.

Shu tariqa turfa fikrlar to'qnashuvi, bahs va munozaralar asnosida o'quvchilarda kuzatuvchanlik hamda ziyrak nazar shakllanishiga sharoit yaratiladi. O'quvchilar odamlar haqida hukm-xulosa chiqarish osonmasligini anglaydilar. Badiiy asardan yuqoridagi kabi xarakterli detallarni ajrata bilish, tuyg'ularni ifodalay olishga yo'naltiriladi. Bu, o'z navbatida, mustaqil tafakkurni ham rivojlantiradi.

Uyga vazifa sifatida o'quvchilarga darslikdagi savol va topshiriqlar ustida ishlashni topshirish mumkin. Bu ham o'ziga xos vazifa hisoblanadi. Bu topshiriqni bajarish asnosida o'quvchilar bir qator mayda muammolar bilan yuzma-yuz qoladilar, mustaqil fikrlashga va faoliyatga yo'naltiriladilar, dostondagi boshqa qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini mustaqil ravishda kashf etadilar. Fikrlari, o'zlaricha chiqargan hukm-xulosalarining qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligi keyingi darsda, muhokamalar jarayonida ma'lum bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. "Sun'iy intellekt" atamasini o'z tushunchangiz doirasida sharhlab bering. Siz uni qanday tasavvur qildingiz?
2. O'ylab ko'ringchi, kompyuterlar, elektron mashinalarga joylashtirilgan bir qator dasturlar, algoritmlardan sun'iy intellektning farqi nimada?
3. Sun'iy intellektlarning amerikalik harbiylarni qiziqtirib qolgan jihati, sizningcha nimalarda bo'lishi mumkin? Fikringizni hayotiy misollar bilan asoslashga urinib ko'ring.
4. Fantastik asarlardagi sun'iy intellektlarning mustaqil faoliyatiga qanday qaraysiz? Bunga ishonish mumkinmi? Fikringizni asoslang.
5. Fantastik filmlar rejissurasiga diqqat qiling. Kinolarda tasvirlangan robotlarni real hayotda tasavvur qilish mumkinmi?

6. O'zga sayyoraliklar tasvirlangan kinolarni eslang. Shunday mavjudodlarning borligiga ishonasizmi? Yoki bu ham insoniyat fantaziyasining mahsulimi? iFikringizni asoslang.

7. Taniqli fantast A. Azimovning asarlarini o'qiganmisiz? Uning qahramonlariga munosabatingiz qanday?

8. Nimsa deb o'ylaysiz, A. Azimovning siz o'qigan asarida "robototexnikaning uch qonuni"ga qanchalik amal qilingan?

9. Sun'iy intellekt haqidagi qaysi adabiyot sizni qiziqtirib qoldi? Nimasi bilan?

10."Tesla" mashinasiga joylashtirilgan sun'iy intellektning (internet orqali) imkoniyatlarini o'rganing. Uni boshqarishingiz mumkinligidan kelib chiqib mulohaza yuriting.

11.Ta'lim amaliyotiga sun'iy intellektlarning kirib kelishiga munosabatingiz qanday? Fikringizni asoslang.

12.Milliy adabiyotimizdagi badiiy asarlar mazmunini, milliy qahramonlar, mahalliy allomalar hayotini kompyuterlashtirish borasida mulohaza yuriting. Sun'iy intellekt bu borada qanchalar qo'l kelishi haqida o'ylab ko'ring.

13."*Muallim o'qitishi kerak bo'lgan subyekt darajasidan tushib o'qituvchi-repetitorga aylanadi*", degan fikrga bo'lajak o'qituvchi sifatida munosabat bildiring. Fikringizni asoslang.

14."*Maktabda sun'iy intellekni qo'llanishning yorqin ko'rinishi, bu – o'quvchilarni yurish-turishlarini kameralar orqali kuzatish va xatti-harakatlarini tahlil qilishidir*" degan fikrga munosabat bildiring. Bu to'g'rimi? Shu vaziyatda sun'iy intellektning vazifasi nimadan iborat bo'zlishi mumkin? Fikringizni asoslang.

15.Inson aqli bilan sun'iy intellekt aqli bir-biridan nimasi bilan farq qiladi? Fikringizni asoslang.

16.«Badiiy asarning didaktik tahlili» ruknidagi «Ravshanxon» dostoni ustida ishlash namunasiga o'z munosabatingizni bildiring. Siz bu ishlanmani qanday takomillashtirgan bo'lardingiz?

17.Otasi kelmasa, Ravshanning hayoti qanday kechishi mumkinligi haqida tasavvurlaringizni qog'ozga tushiring. Qarashlaringizni asoslang.

18.Sun'iy intellektning adabiy ta'lim metodikasi ilmidagi xizmatlari haqida

37-MAVZU. ADABIYOT DARSLARINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH

Reja:

1. Kasbiy mahoratni oshirishda dars kuzatish va uni tahlil qilishning ahamiyati.

2. Darslarga qo'yiladigan metodik talablar.

3. Dars tahlili turlari: ilmiy tahlil, metodik tahlil, didaktik tahlil, umumpedagogik tahlil.

4. Darslar tahlili va ularni baholash me'yorlari.

5. Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.

Pedagogik faoliyatning samaraliligi darajasi olib borilayotgan darslarning kuzatilishi va ularning tahlili asnosida aniqlanadi. Ya'ni, darslarni kuzatish o'qituvchi faoliyati, uning pedagogik mahorati, ish tizimi, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi yuzasidan xulosa chiqarish imkonini beradi. Shunday ekan, har bir o'qituvchi dars o'tish barobarida darsni tahlil qila bilish malakasini ham egallagan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

"Tahlil" arabcha so'z bo'lib, "*tarqalish, (kurtak yozish); tekshurish, surishurish; hal qilish, ochish*" kabi ma'nolarni anglatadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da tahlil so'zining quyidagi ma'nolari mavjudligi ko'rsatilgan: narsa, hodisalarni mohiyat, qonuniyat va boshqa jihatlardan tekshirish, o'rganish ishi; biror ma'lumot va narsa-hodisalarni ma'lum nuqtai nazardan o'rganish, baholash; biror narsaning tarkibini belgilash va uning mohiyatini tadqiq etish[1].

Dars tahlili borasida so'z yuritib shuni aytish mumkinki, u maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda boshqa ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini aniqlashning asosiy omillaridan biridir. Dars tahlillari har qanday o'quv yurtida ichki boshqaruv va nazoratni ma'lum tizimga solish hamda uni amalga oshirishni tartibga tushirishga xizmat qiladi. Dars tahliliga kirishdan oldin har bir o'qituvchining individual, psixologik, pedagogik hamda uslubiy xususiyatlari, pedagogik faoliyati ma'lumotnomasi o'rganib chiqiladi. Dars tahlilining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda har bir o'qituvchi umumiy yo'nalishdagi dars tahlilini farqlashi bilan

birgalikda, o'zining ixtisosligiga oid dars tahlilini ham yaxshi bilishi maqsadga muvofiqdir.

Afsuski, metodika ilmida ta'lim muassasalaridagi dars tahliliga qo'yiladigan talablar, uning pedagogik va psixologik asoslari va uni amalga oshirishning metodlari tadqiq qilinmagan. Iqtidorli o'quvchilar maktablari va tabaqalashtirilgan ta'limda o'tiladigan darslar tahlili uchun ham alohida didaktik mezonlar belgilanmagan. Ma'lumki, ta'limning har bosqichi, har yo'nalishida o'quvchilarning qiziqishlari, imkoniyatlari, ruhiy va jismoniy sog'lomligi bilimlarni mustaqil egallash hamda mantiqiy fikr yuritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Darslar tahlili mezonlarini yaratishda mana shularga alohida diqqat qaratish maqsadga muvofiqdir. Chunki darslarning qanchalik samarali bo'lishi har ikkala subyektning iqtidori va imkoniyatiga bog'liqdir.

Bugungi kunda o'quvchilarning kitob bilan ishlashlari, ayniqsa, yuqori sinflarda nochor ahvolda. Uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida, ya'ni oliy maktabda ham bu ishga panja orasidan qaraladi. Gap shundaki, o'qituvchining darsga tayyorgarligi va dars tahlilida kitobga bo'lgan e'tiborni chetlab o'tib bo'lmaydi. Bundan tashqari, ta'limga yangi kirib kelayotgan dars turlari, ularning ijobiy yoki salbiy jihatlari ham dars tahlili va uning metodikasida o'z aksini topmagan. Jumladan, mustaqillik darslarini tashkil etish, noan'anaviy darslar va masofaviy ta'lim xususida ham dars tahlillarini yo'lga qo'yish, ularga qo'yiladigan talablarni belgilab olish davr talabidir.

Ta'lim tizimida kuzatilgan darslar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, sinflar yuqorilab borgani sari o'quvchilardagi faollik susayib borayotir. Gap shundaki, boshlang'ich maktab o'quvchilarida atrof-muhitni, olam va odam sirlarini bilishga bo'lgan intilish kuchli bo'lib, bu ehtiyoj darajasiga ko'tarilgan bo'ladi. Sinflar yuqorilab borgani sari ta'lim jarayoni o'quvchining qiziqishlari va bilish bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirolmay qolmoqda. Aslida, bilish ehtiyoji yuqori sinflarda ham so'nmasligi, to'g'rirog'i, ularning so'nishiga yo'l qo'yilmasligi, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari asosida uyg'unlashib borishi maqsadga muvofiqdir. Dars tahlilida, ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilarining kitob bilan ishlash ko'nikmalari, mustaqil mulohaza yuritish qobiliyati, ijodiy mehnatga bo'lgan munosabatiga ham alohida e'tibor qaratish ta'lim samaradorligining ortishiga asos bo'lishi mumkin.

Achinarli holatlardan yana biri shuki, yuqori sinf o'qituvchilari juda kamdan-kam hollarda boshlang'ich sinflarda dars kuzatishadi. O'z navbatida, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari ham yuqori sinflar darslarini deyarli kuzatishmaydi va dars tahlillarida ishtirok etishmaydi. Aslida ta'limdagi tizimlilik va izchillik tamoyiliga ko'ra boshlang'ich sinflarda o'quvchida ko'zga tashlangan qobiliyat – o'qish, yozish, hisoblash va nutq texnikasiga, mustaqil hamda mantiqiy mulohaza yuritishga moyillik singari ko'nikmalar yuqori sinflarda qanday rivojlantirilayotganini bilish, o'z mehnatining samarasini kuzatib borish boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi uchun ham qiziq bo'lishi kerak. Qolaversa, bu uning o'qituvchilik burchi ham hisoblanadi. Dars kuzatayotgan o'qituvchi va sinf rahbarining qo'lida shu kabi tahliliy materiallar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ma'lum bo'ladiki, dars kuzatish va uning tahlilida yuqoridagi masalalar inobatga olinishi bu borada ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar o'z-o'zidan, tabiiy ravishda ortib boradi. Bugungi o'quvchilarning aksariyati o'qishga qiziqmay qo'yishdi. Chunki, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida samimiy muloqot yo'q. Bundan tashqari, umumiy o'rta maktabda, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida ham hamkorlik pedagogikasi, pedagogik ruhshunoslar xizmati to'g'ri yo'lga qo'yilmagan. Umuman olganda, ko'pchilik o'qituvchilar o'zlarining zaif tomonlarini, ayniqsa, o'z sohasi bo'yicha yetarli bilimga ega emasliklarini har xil qalbaki narsalar bilan pardalashga intiladi. Bugungi o'quvchi bilgan narsalarning ayrimlarini o'qituvchi bilmasligi ham rad etib bo'lmaydigan haqiqat.

Kechagi jamiyatda shakllangan o'qituvchi bugungi taraqqiyot davridan, zamonaviy texnikadan ortda qolayotir. Masalan, ularning ko'pchiligi kompyuter, internet, dars jarayonida internet materiallaridan, o'z sohasi bo'yicha dunyo miqyosidagi yangiliklardan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun o'quvchilarga ortiqcha talablar qo'yadilar. Go'yo o'quvchilar ularning fani ustida qancha ko'p shug'ullanishsa, o'zini va u dars beradigan o'quv fanini yaxshi ko'radigan, yaxshi biladigandek. Tarbiyashunoslikda «o'quv faniga muhabbat o'qituvchiga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi», degan qarash bor. O'qituvchilik obro'si bilimi va mahorati bilan, sohasini qanchalik yaxshi ko'rishi va yaxshi bilishi bilan qozoniladi. Obro'ni talab qilib yoki zo'rlik bilan olib bo'lmaydi. O'quvchilar

o'qituvchini har doim kuzatib yurishadi. Ular o'qituvchidan bilim, mahorat, mehr-muhabbatni kutishadi, ayni zamonda, o'qituvchisi tomonidan tushunilishni, tuyilishni istashadi.

Shu bois o'qituvchining hamisha o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirib borishi nafaqat o'zi, balki u bilim berib tarbiyalayotgan o'quvchilar uchun ham juda muhimdir. O'qituvchi pedagogik mahoratining ortishi, amaliyotda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana bilishi uning pedagogik faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchi faoliyatining samaradorlik darajasini, odatda, uning darslarini kuzatish va tahlil qilish orqali bilish mumkin. Bunday ishlarni ko'pincha mas'ul xodimlar, ta'lim muassasasi rahbarlari yoki usuliyotchilar, o'qituvchi va usuliyot birlashmasi boshliqlari amalga oshiradilar. O'z navbatida, darsni kuzatishga kirayotgan mutasaddi nimalarga e'tibor qaratishni, dars jarayonidagi muhim bilan nomuhimni farqlay olishni, darsga qo'yiladigan metodik, pedagogik talablar nimalardan ibort ekanini aniq bilishi maqsadga muvofiqdir. Kasbdoshining darsini kuzatishga kirayotgan pedagog, avvalo:

a) fan dasturi, mavzu, maqsad va rejalashtirish bilan tanishishi;

b) fan bo'yicha darslik va metodik adabiyotlarni o'rganishi;

v) dars o'tadigan o'qituvchining tajribasi, saviyasi va bilimlilik darajasi haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishi;

g) sinfdagi o'quvchilarning umumiy xarakteristikasi, imkon bo'lsa, alohida o'quvchilarning xarakter-xususiyatlari haqida bilishi;

d) o'qituvchi bilan dars maqsadi, asosiy standart talablar (bilim, ko'nikma, malakalar) haqida suhbatlashishi;

ye) o'qituvchi tomonidan dars jarayonida qo'llaniladigan metodlar xususida yetarli darajada bilimga ega bo'lishi;

yo) o'quvchilarning kitobxonlik va shu paytgacha o'zlashtirgan bilimlari darajasidan xabardor bo'lishi;

j) shu sinf o'quvchilariga xos yosh xususiyatlarini o'rgangan bo'lishi;

z) tahlil qilinayotgan sinf tarkibini bilishi;

i) darsga kirish va uni tahlil qilishdan maqsad va hk.lardan xabardor bo'lishi hamda bularni o'qituvchiga ochiq bayon etishi o'rinli bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatiga samimiy munosabatda bo'lish, unga hurmat bilan qarash, harakatlarini ma'qullab turish uning kayfiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Mutaxassis sifatida darsni kuzatib, tahlil etishni mo'ljallagan shaxslar, shuningdek, o'qituvchining qanday tayyorgarlik ko'rgani, o'quv rejasi va mavzu bo'yicha ishlanmalarning borligi, turli didaktik tarqatma materiallar hamda ko'rgazmali qurollarning tayyorligiga ham etibor qaratiladi. Kuzatish mobaynida o'qituvchining har bir darsga maqsad va vazifani qanchalik to'g'ri qo'yganiga ham diqqat qilinadi.

H. Abdukarimov o'zining «Dars tahlili va uning metodikasi» nomli monografiyasida dars tahlilining tarkibiy qismlari quyidagicha tavsiya etiladi[1]:

1. *Tashkiliy tahlil*. Sinfning darsga tayyorgarlik darajasi, avvalo, o'quvchilarning kayfiyati, sog'lig'i va sinf xonasi, darstaxtaning ozodaligi, bo'r va lattaning borligi, sinf havosining tozaligi, mabodo aytim o'quvchilar biron sababga ko'ra darsda qatnashmayotgan bo'lsa, ularning nomi yozilgan varaqchaning o'qituvchi stoliga navbatchi yoki sinf boshlig'i tomonidan qo'yilishi kabilardan tashqari, o'qituvchining darsga hozirligi, kayfiyati, dars uchun kerakli jihozlar, ko'rsatmali, tarqatma materiallar hamda texnik asbob-anjomlarning mavjudligi, o'qituvchining tashqi qiyofasi, kiyinish madaniyati va hk.

2. *Ilmiy tahlil*. Ilmiy tahlil ilm asosida bilim berish prinsipiga asoslanadi. Ilmiy bilimlar o'zining nazariy jihatdan puxtaligi, hayot va amaliyot bilan izchil bog'liqligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, bugungi fan-texnika rivoji ta'lim mazmuniga singdirilgan holda o'quvchining ongiga yetkazib beriladi. O'qituvchining har bir darsi ilmiy asoslangan bo'lib, o'quv-biluv metodlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan bo'ladi.

Ilmiy tahlilda o'qituvchi mustaqil ravishda ilmiy metodlar bilan ta'lim-tarbiya metodlarini qay darajada qo'llay olishiga e'tibor qaratiladi. Bu jarayon ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ilmiy-pedagogik asosini tashkil etadi.

3. *Didaktik tahlil*. Dars tahlilining bu turida ta'lim prinsiplarining mazmun-mohiyatiga asosiy e'tibor qaratiladi. Chunki ta'lim prinsiplari o'qituvchi va o'quvchi oldidagi vazifalarni uyg'unlashtirib, ta'limning nazariy va amaliy qonuniyatlarini to'g'ri hal etishning asosiy negizi

[1] Абдукаримов Х. Дарс таҳлилига умумий ёндашув. – Т.: Молия, 2010. – 91-92-б.

hisoblanadi. Shunga muvofiq, har bir mavzuning ilmiyligi, tizimli va izchil bo'lishi, oddiydan murakkabga tomon yo'nalishi, ko'rgazmaliligi hamda berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligi, ularning jonli, tushunarli, ravon tilda ochib berilishi, o'quvchining bilimdonligi, mustaqil fikrlashi, faolligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar tatbig'ini, yangi axborotlarning hayot, amaliyot bilan bog'liqligi hamda ta'limning o'quvchilarning yoshi, individual xususiyatlari bilan bog'liqligi ochib beriladi. O'quv-biluv jarayoniga xos qaytar aloqaning ta'min etilishiga va uning amaliy samaradorligiga e'tibor qaratiladi.

4. *Metodik tahlil*. Bunda o'qituvchi faoliyatining bir-biri bilan izchil bog'liq bo'lgan ikki tomoni nazarda tutiladi. Birinchisi, darsni unga monand metod, usul, vositalar ko'magida o'quvchining yoshi, jinsi, individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishi bilan birga sinfdagi har bir o'quvchini o'z imkoniyatlari doirasida muttasil ishlata bilishi bo'lsa, ikkinchisi, o'qituvchi-mutaxassis sifatida o'z sohasini qanchalik chuqur bilishi, o'qituvchilik mahoratining rivojlanganlik darajasidir.

Ikkinchi qismda o'qituvchining ijodkorligi, metodik mahorati namoyon bo'ladi. O'qituvchining innovatsion faoliyati, ya'ni yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq eta olish ko'nikmasi va unga oid tajribalari aynan shu yerda ma'lum bo'ladi. O'qituvchining metodik mahorati birdaniga ko'zga tashlanmaydi. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar o'z bilim va tajribalarini o'quvchiga yetkazib berishda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shunga muvofiq, oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratiladi. Pedagogik amaliyot jarayonida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish hal etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, hamon bo'lajak mutaxassislar maktab amaliyotida va keyingi mustaqil ish faoliyatlarida metodik jihatdan no'noq bo'lib qolishmoqda. Buning mexanizmlari ilmiy jihatdan o'rganilib, tegishli tavsiyalar ko'rinishida asoslab berilishi lozim.

5. *Psixologik tahlil*da, avvalo, sinfdagi har bir o'quvchining jismonan va ruhan sog'lomligi, madaniyati, faol yoki sustligi, diqqatining barqarorligi va ko'lami, sezgirligi, topqirligi, hushyorligi, fanga bo'lgan qiziqishi, hozirjavobligi, o'qituvchi bilan o'zaro munosabati, jamoadagi o'zaro hurmat, o'quvchining idroki, mantiqiy hamda obrazli tafakkuri, mustaqil, induktiv, deduktiv xulosalar chiqara

olishi, xotirasi, materialni esda olib qolishi, o'quvchi fantaziyasining kengligiyu boyligi, bajaradigan ishi kabilar qamrab olinadi.

O'qituvchi "amaldagi ruhshunos"dir. Bir soatlik dars jarayonida o'qituvchi yuzdan ortiq muammoli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarni ba'zan anglab, ba'zan anglamay yoki ataylab e'tiborsiz qoldiradigan holatlar ham bo'ladi. Aslida o'qituvchi har qanday muammoli vaziyatlarga beparvo qarashi mumkin emas. Jamoada sog'lom muhitni ta'min etishda, har bir tarbiyalanuvchining ma'naviy va axloqiy qiyofasi shakllanishida muammoli vaziyatlarning ijobiy yechimi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchi darsga kirdimi, dars amallarini belgilangan vaqt jarayonida pedagogik talablar darajasida boshqarishi lozim.

Maktab amaliyotida shunday hollar juda ko'p bora takrorlanadi: ba'zan yo'lak bo'ylab yurilsa, ayrim sinflarda shunchalik jimjitlikki, u yerda hyech kim yo'qdek tuyuladi. Aslida dars ketayotgan bo'ladi. Ba'zi sinflarda shunchalik shovqin bo'ladiki, o'quvchilar maktabni boshiga ko'tarishadi. Darsning psixologik tahlilida yuqoridagi holatlarga ham alohida urg'u berilishi, tahlilga tortilishi maqsadga muvofiq: qaysi holat ta'lim amaliyotida kutilgan samarani berishi mumkinligi metodika ilmida mulohaza yuritishga arziydigan muhim masalalardan biridir.

6. *Pedagogik tahlil*. Kuzatilayotgan dars tahlilning bu turi ancha mas'uliyatli bo'lib, o'z ichiga o'qituvchining pedagogik mahorati darajasini qamrab oladi. Avvalo, o'qituvchining o'z xulq-atvori va nutqini boshqara olishiga qo'yilgan me'yoriy talablar – o'qituvchining nutqi, ya'ni darsni adabiy tilda olib borishi, tashqi qiyofasi, kiyinishi, gavda, qo'l, yuz harakatlari, kayfiyati, ruhiy holati, his-hayajoni, diqqati, xayoli, kuzatuvchanligi, qadam bosishlarini idora qilish kabi holatlarga e'tibor qaratiladi.

O'qituvchining nutqi, ovozining past-balandligi sinf o'quvchilarining yoshi va xatti-harakati bilan uyg'un bo'lishi lozim. Demak, o'qituvchining har bir gapiga harakatining mosligi, so'z va nutqining uyg'unligi, uning jozibasi, ohangi, bir-biriga mos kelishi talab etiladi.

Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchigina innovatsion faoliyatda yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim va tarbiya

jarayoniga tatbiq eta oladi. O'qituvchining pedagogik mahorati aynan mana shu yerda ko'rina boshlaydi.

Shu bilan birga, pedagogik tahlilda o'qituvchining tarbiyachilik mahoratiga ham alohida eotibor beriladi. Har bir darsning tarbiyaviy ahamiyatini ochib berishda milliy va umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini qay darajada o'quvchiga yetkaza olishi yoki o'quvchining o'z-o'zini tarbiyalashga unday bilishi hisobga olinadi.

Hozirgi kunda eng dolzarb tus olib borayotgan ma'naviy-axloqiy, ekologik, jismoniy, jinsiy, nafosat hamda g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya masalalariga har ikkala o'qituvchi (dars o'tayotgan va darsni kuzatayotgan) har bir darsda alohida e'tibor berishi lozim. Dars jarayonida tarbiyaning ta'sirchanligi, hayotiyligi, ijtimoiy o'rniga o'quvchining diqqat-e'tibori va ayniqsa, mas'ulligini oshirish lozim. Toki bunday tarbiya o'quvchining kundalik ehtiyojiga, ehtiyoj asosida esa e'tiqodiga aylanib borsin. Tarbiyaning kafolatli natijasi ana shunda ko'rinadi. Bu kabi dolzarb masalalar pedagogik tahlilning asosini tashkil etishi lozim. O'qituvchi mehnatining samarasi barkamol shaxs tarbiyasida o'z ifodasini topadi. Bu jarayon tinimsiz izlanish va ilmiy-ijodiy mehnatni talab etadi.

6. O'z faoliyatini asoslab bera olish. Bu jarayon uch xil shaklda amalga oshadi. Birinchidan, har bir o'qituvchi o'z darsini o'zi tahlil eta olishi lozim. Chunki kasbiy o'z-o'zini tarbiyalashning didaktik mohiyati aynan o'qituvchining o'z faoliyatiga tanqidiy yondasha olishida ko'rinadi. O'qituvchi belgilangan vaqt me'yoriga asoslangan holda yuqorida ko'rib o'tilgan barcha tahlil turlarini o'zi ko'rib chiqishi maqsadga muvofiqdir. Shu asosda o'zining yutug'i, kamchiligi hamda dars samaradorligiga erisha oladigan ilmiy-metodik yo'l-yo'riqlarni izlab topgan o'qituvchida kasb mahorati izchil rivojlanib boradi.

Ikkinchidan, o'qituvchi boshqalarning darsini kuzatib, qiyosiy xulosalar chiqarish orqali o'z darsini o'zi tahlil etishi mumkin. Uchinchidan, o'qituvchining darsi boshqa o'qituvchilar, mutaxassislar tomonidan kuzatilib, tegishli tahlillar asosida chiqarilgan xulosalar va takliflarga muvofiq keyingi ilmiy-metodik talablar darajasida takomillashtirib borish maqsadida o'z darsini o'zi tahlil qilishi kiradi.

Ko'rib o'tilgan uchala holat ham bir-birini uyg'un ravishda muntazam to'ldirib borishi ilmiy-amaliy samaradorlikka erishish kafolatini beradi.

8. O'qituvchi-o'quvchi hamkorligi tahlili. Tahlilning bu turida hamkorlarning quyidagi ishlariga e'tibor qaratiladi:

a) o'quvchilarni fikrlashga o'rgatishi;

b) aniq fikr va materiallarni o'rganib, mulohaza yuritish, fikr bildirishni ta'minlashi;

d)o'quvchilarni izlanishga, qidirib topishga yo'naltirishi;

e)o'quvchining o'z mustaqil fikriga ega bo'la olishi va hk.

9. Yakuniy tahlil yoki xulosalar, tavsiyalar. Dars tahlilining bu qismida o'qituvchi o'zining mutaxassis sifatidagi xulosasi (dars jarayoniga qo'ygan bahosi)da dars oldiga qo'yilgan maqsadga erishilganlik darajasi, uning tashkil etilishi, ya'ni sinfdagi har bir o'quvchining darsga qanchplik jalb etilganligi, zamonaviy texnika vositalari va ta'lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi darajasi va hokazo yuqorida sanalgan jihatlar aytib o'tiladi.

Zaruriy maslahatlar beriladi. Kuzatuvchining darsga beradigan bahosi, eng avvalo, uning darsga kirishdan maqsadiga bog'liq. Agar kuzatuvchining maqsadi to'g'ri va samimiy bo'lsa, xulosasi ham shunga yarasha bo'ladi.

Agar maqsad kamchilik axtarish bo'lsa, buni har qanday o'qituvchining ish faoliyatidan istagancha topish mumkin. Chunki o'qituvchilik o'ta murakkab ish va u hamisha izlanishda, rivojlanishda bo'ladi. Muhimi – kasbi va o'quvchilarini qanchalik yaxshi ko'rishida.

Abdukarimov domlaning fikrlariga yakun yasab shuni aytish mumkinki, bugun amaliyotchi o'qituvchilarning darslarini kuzatishga kirayotgan amaldor-nazoratchilar, mutasaddi tashkilotlarning vakillari asosan, bu talablarning birinchi bandi «tashkiliy tahlil»dan nariga o'tolmayaptilar.

Chunki ular mutaxassislar emas, amaldorlar. Sohani yaxshi bilishmaydi. Dars kuzatishdan maqsadlari ham o'qituvchiga metodik maslahatlar berish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish emas, afsuski.

Xullas, ta'lim amaliyotini kuzatish uni yaxshilash va samaradorligini ta'minlash maqsadiga xizmat qilsa, bu borada ham ma'lum muvaffaqiyatlarga erishish mumkin bo'lardi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

G'afur G'ulom she'rlarini o'rganish

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari nosir G'afur G'ulom bilan 5-, 6-sinflarda tanishishgan. Uning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi, "Shum bola" qissasi o'ziga hos mazmuni, samimiy ifoda tarzi bilan o'quvchilarning ko'nglida o'rnashib qolgan bo'lsa ajabmas. Sakkizinchi sinfda G'afur G'ulom bilan shoir sifatida tanishish ularga adibning serqirra ijodkor ekanligini namoyish etadi.

O'qituvchi G'. G'ulom ijodini o'rganishga rejalashtirilgan ikki soatni, istasa bir kunga jamlashi, ya'ni ona tili darsining hisobidan olishi mumkin bo'ladi. "Adabiyot" darsligida shoirning ikkita she'ri o'rganish uchun taqdim etilgan. Ular hajman kattagina bo'lib, ikkitasi bir soatga sig'may qolishi yoki har biriga bittadan soat rejalashtirilsa, vaqt ortib qolishi mumkin. Bu sinfdagi o'quvchilarning qobiliyati va ishlash mahoratiga bog'liq, albatta. Soatlar birlashtirilganda bir she'rga vaqt yetmay qolsa ikkinchi soatdan foydalanish, agar birlashtirilgan ikki soatda ikkala she'rdan vaqt ortib qolsa, qolgan vaqtda shoirning yana boshqa birorta asarini qo'shimcha o'rganishga sarflash mumkin bo'ladi. Shunda o'qituvchi o'quvchilarning zerikishiga, yoki aksincha, vaqtlarining besari sarflanishiga yo'l qo'ymaydi. Agar har bir asarga bir soatdan ajratsa, darsning ma'lum qismini she'rning didaktik tahliliga, bir qismini esa uning mazmuni asosida yaratilgan muammoning yechimiga sarflashi mumkin. Lekin zinhor-bazinhor adabiyot darslarini an'anaviy besh bosqichli tizimda uyushtirishi mumkin emas.

Darslikda taqdim etilgan "Vaqt" she'rining dasturiy talqini quyidagicha: *"Vaqt" she'rida umr falsafasi, hayotning har bir daqiqasini qadrlab va iz qoldirib yashashga da'vatning yuksak poetik shaklda ifodalanishi. "Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi" she'rida barkamol yoshlarni Vatan kutayotganligini, ularning Vatani oldidagi mas'uliyoti shoirona mahorat bilan tasvirlanishi. She'rlar matni ustida ishlash. Shoir she'rlarida so'z qo'llash san'ati"*[1].

Mazkur she'rni muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda o'rganilishini o'quvchilarga e'lon qilish va quyidagi. **"Vaqt nima? U qanday mezonlarga asoslanib boshqariladi? Vaqt nimani**

[1] O'quvchi. Adabiyot. 8-sinf. – T.: IIDM. 2017.

suyadi va qadrlaydi? Vaqt va Soat. Vaqt va Inson" borasidagi muammoli masalalarning yechimi borasida fikrlashishlarini aytib qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar bu jarayonga ruhan tayyorlanadilar.

Ikkinchi jahon urushi tugagan davrlarda yozilgan "Vaqt"[1] she'rining ifodali mutolaasi uchun to'rt-besh daqiqa kerak bo'ladi. O'qituvchi bu she'rni o'zi o'qigani ma'qul. Chunki she'r mazmuni uning mutolaasi zimmasiga keskinlik, qat'iylik ohangini yuklaydi. O'quvchi yosh xususiyatiga ko'ra bu talablarni anglay olmasligi, ilg'ab yetmasligi va mutolla jarayonida buni ifodalab bera olmasligi mumkin. Mutolaadan so'ng asar matni yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar ko'magida uning didaktik tahliliga kirishiladi.

Mazkur she'r vaqt atalmish bir qarashda aniqdek, lekin mavhum bir tushuncha va inson hayotining har lahzasi u bilan bog'liqligi haqida falsafiy mushohada yuritishga yo'naltirilganligi bilan o'qituvchi, o'quvchilarni ham aqlan, ham ruhan anchagina zo'riqtiradi. Shu o'rinda, aytish mumkinki, darslikda taqdim etilgan maqola o'quvchilarning asar haqidagi tasavvurlarini tiniqlashtirishga ko'mak beradi. Lekin unga qat'iy asos sifatida tayanish unchalar ham to'g'ri bo'lmaydi: bu maqolaga bir mulohaza, bir odamning she'r haqidagi fikri sifatida qarash kerak, xolos. So'ngra, o'qituvchi va o'quvchilar she'r matni yuzasidan o'zlarining didaktik tahlilini amalga oshirishadi.

Quyidagi birinchi savolga javob berish uchun o'quvchilar kapalak umri haqida bilimga ega bo'lishlari kerak. O'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan: "Kapalakning hayoti haqida biror narsa bilasizmi? Shoirning: *"G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni Kapalak umriga qiyos etgalik"*,- deyishiga qanday asos bor deb o'ylaysiz?" kabi savollariga javob berish asnosida o'quvchilar she'riyatda, umuman, badiiy adabiyotda, chinakam san'at asarlarida birorta so'z shunchaki aytilmasligini, har bir so'z, misra zamirida qandaydir baqiqatlar, hayotiy va ilmiy asoslar yotishini bir karra his qiladilar.

Botanika darslaridan olgan bilimlariga asoslanib kapalaklar voyaga yetgan davrlarida bir necha soat, bir necha kun, ayrimlari harto bir necha oygacha yashashlari mumkinligini ma'lum qiladilar. Bu o'rinda kapalakning eng qisqa umri – bir necha soat nazarda tutilayotgan bo'lishi mumkin. Lekin g'unchaning ochilishiga qancha muddat kerak?

[1] Olimov S. va boshq. Adabiyot. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 112-115-b.

O`quvchilar buni kuzatishmagan, albatta (lekin internet orqali bu haqda ma'lumot olishlari mumkin[1]). Ikkala hodisani qiyoslash uchun har biridan alohida xabardor bo`lish, buni bilish kerak. Har ikkalasi orasida qanday aloqadorlik bo‘lishi mumkin? Shular atrofida mulohaza yuritganlarida o`quvchilar o`zlariga tashqaridan qaraydilar. O`zlarining falsafiy mushohada yuritish imkoniyatlari darajasiga baho beradilar.

Koinotning sir-sinoatlarini mutaxassislar bilishadi, albatta. Bu yorug‘ olamning bandasi aqli yetmaydigan sir-sinoatlari ko`p va qandaydir sekundlar orasida unda nimalar sodir bo`lishi mumkinligini oddiy odam tasavvur qilolmaydi. Shu ma'noda, shoirning "ba'zida" deyishi bejiz emas.

Bir nafas olgulik muddat, bir kiprik qoqquncha o`tgan dam. Hayotiy dunyoda odam bularga e'tibor ham bermaydi, bu haqda o‘ylamaydi ham. Lekin shu bir nafasni ololmay qolish, bir kipriq qoqishga ulgurmaslik ham mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralsa, bu kimlar uchundir juda katta, muhim va qimmatli vaqt bo‘lishi mumkin.

Yoki quyidagi satrlar qayta o‘qib eshitiriladi:

Yashash soatning oltin kapgiri
Har borib kelishi bir olam zamon.

Odam devor soatga qaraganda o‘sha «kabgir»ning borib kelishiga, bunga qancha vaqt ketishiga e'tibor ham qilmaydi. Lekin shu vaqt oralig‘ida Alloh dunyoni ostin-ustun qilishi ham mumkin. Shundan kelib chiqib o‘qituvchi o‘quvchilarning diqqatini bir nafas olgulik muddat, bir kiprik qoqquncha o`tgan dam va «oltin kabgir»ning bir borib kelishi uchun ketadigan vaqtga qaratadi. Inson hayoti uchun shu vaqtning qimmati haqida ularning fikrini so‘raydi. Bu yo‘nalishda mulohaza yuritish o‘quvchilarni yuqorida qo‘yilgan muammoli savollar yechimiga tayyorlab boradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni vaqt atalmish ne'matning qadrini chuqurroq anglashga yo`naltirish uchun she'rning:

"Yarim soat ichida tug‘ilib, o‘sib
Yashab, umr ko‘rib, o‘tguchilar bor"

misralari ustida o`ylab ko‘rishga ham undagani ma'qul: "Yarim soat yashash nimani anglatishi mumkin, Sizningcha? Bu yarim soatlik umr kimga yoxud nimaga tegishli bo‘lishi mumkin? Yarim soat yashash mumkinmi?" kabi savollar bir tomondan o`quvchilarning

[1] https://www.youtube.com/watch?v=IlSqfpWOnvQ; https://www.youtube.com/watch?v=BEN4420PE3g va x.k.

bilimdonligini namoyish qilishga imkon bersa, ikkinchi tomondan umr, vaqt atalmish tushunchalarning mohiyatini anglashga ko‘maklashadi. Falsafiy mulohazaga yo‘naltiradi.

O‘quvchilar balki bu misralarning mohiyatiga kirolmas. Agar o‘quvchilar tomonidan fikr aytilmasa ham, bundan fojia yasamaslik kerak. Muhimi, shu holatga o‘quvchilarning e'tiborini qaratish va bu haqda o‘ylab ko‘rishga undash. Suhbatni jonlantirish maqsadida o‘qituvchi bu borada o`z fikrlarini, bir mulohaza sifatida aytishi mumkin. U ham oradan ma'lum muddat o‘tgach, o‘quvchilar o‘ylay-o‘ylay bu savolga javob topa bilmaganlarida aytiladi. Inson sakson-to‘qson yil chuvalchangday sudralib yashab yuraverishi ham mumkin, qandaydir sanoqli vaqt oralig‘ida mana shu to‘qson yillik umrning hissasini chiqarishi ham mumkin. Ba'zan shunday soniyalar insonning umrini abadiylashtirishi ham hayotiy haqiqat. Inson hayotida yashalgan to`qson yillik umr bir tarafu, qandaydir alohida hodisa sodir bo`lgan yarim soat bir taraf bo`lishi mumkin. O`sha yarim soat chinakam hayot hisoblanadi. Inson umrining mazmuni bo`ladi.

Falsafiy suhbatni davom ettirib o‘qituvchi o‘quvchilar diqqati: *«Bir onning bahosin o`lchamoq uchun"* satriga qaratadi. Bu qanday on bo`lsaki, uning bahosi buncha qimmat? Biz, axir, umrimiz davomida yillarni besamar o‘tkazib yuboramiz. Bu yerda shoir bizning xayolimizga ham kirib chiqmaydigan qandaydir bir on haqida gapiryapti. Bu "bir on" inson hayotida qancha vaqt bo‘lishi mumkin? Bizning hayotimizda ham shunday bebaho onlar bo‘lganmi? O‘quvchilar shu haqda mulohaza yuritib ko‘rishsin. Bu yerda she'r didaktik tahlilga tortilyapti.

*"Hayotda ikki lab qovushgan bir zum"*ning qo‘sha qarimoqqa muhr bo‘lishini qanday tushunish mumkin? Demak, mana shu "bir zum"ning zimmasida katta mas'uliyat, javobgarlik bor. Shu "bir zum"ni qadrlamagan, u bilan o‘ynagan odamni bu "bir zum"ning uvoli tutishi mumkin. O‘quvchilar bu misraga hazil-mazax bilan emas, mas'uliyat bilan yondashishlari kerakligini, hayotda hyech narsa bilan o‘ynab bo‘lmasligini o‘qituvchi ularning ruhiyatiga joylab qo‘yishi kerak. O‘quvchilar inson umrining har lahzasi nazorat ostida ekanini, har bir xatti-harakatining baholanishini, yaxshi ishlar uchun rag‘bat, xatolar va gunohlar uchun jazo mustahiq ekanini shu yoshdan anglab borishlari kelajak kamolining asosidir.

O‘quvchilar diqqati nur tezligi bilan ovoz tezligiga qaratiladi: “Taqqoslab ko‘ringchi, bunga, har ikkalasining ularga belgilangan manzilga yetib borishi uchun qancha vaqt ketadi? Nurning harakati tezmi, ovozning tezligimi?” shular haqida mulohaza yuritgan o‘quvchilar vaqt atalmish ne'matning qadrini tasavvur qiladilar. Inson besamar ketkizgan vaqtlarning hisob-kitobi bormi? Buni kim va nima uchun qiladi?

O‘quvchilar odamni aziz va mukarram qilguvchi fursat haqida ham o‘ylab ko‘rsinlar: “Ularning hayotida shunday fursat bo‘lganmi? Bo‘lishi mumkinmi? U fursat qancha bo‘lishi mumkin?”

Suhbat asnosida: “O‘qning yalt etgan umrini tasavvur qiling. U barqaror qilgan oliy huquq haqida nima deya olasiz?” singari savolni qo‘llash mumkin. O‘sha yalt etish – o‘qning umri. U shuning uchun yaratildi, shuning uchun yashadi. U shu «yalt» etish bilan o‘zining bir umrlik vazifasini, o‘ziga buyurilganini bajardi. Bunga qancha vaqt ketdi? Hayotda shu o‘qchalik o‘rni bo‘lmagan umrlar mavjudligi haqida mulohaza yuritishga undash ham o‘quvchilarning ma'naviy dunyosi sog‘lomlashuvida foydadan holi bo‘lmas.

She'rdagi ushbu to‘rtlik:

Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz odamlardan so‘raydi qadrin.
Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq chog‘idir umr daftarin

alohida tahlilga muhtoj. “*Aziz odam*” kim? Uning azizligi nimada? Aziz sanalayotgan “on”ning qadri qancha? Bu on qancha vaqt? “Umr daftari”ni qanday tushundingiz? Uni “bezash”ni qanday tasavvur qilasiz? Sakkizinchi sinf o‘quvchilaridan bu savollarga falsafiy asoslarga ega bo‘lgan javobni kutish unchalar ham to‘g‘ri emasdir. Yana, kim biladi... Lekin o‘quvchilarni bu haqda o‘ylab ko‘rishga undash o‘qituvchining burchi.

Ko‘plarning baxtiga o‘zimkin jamlab
Shu ulug‘ binoga bir g‘isht qo‘ysak bas.

Darslikdagi asar matni ustida ishlash jarayonida tarbiyalanuvchilarning diqqati yuqoridagi ikki misraga ham qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchilar bu misralarni o‘zlari anglaganlaricha tahlil qilishga undaladi. Bu hayotda hamma ham qahramon bo‘lavermaydi, hamma ham “*qudratli qo‘l bilan haykal*” qo‘yavermaydi, lekin hamma Odam bo‘lib tug‘ildimi, shu nomga

munosib yashashga qo‘lidan kelgancha intilishi lozim. Dunyo deb atalmish bu ulug‘ binoning bir kemtigini topib, uni berkitishga qodir bo‘lish, ya'ni o‘zidan keyin hayotda qandaydir iz qoldirishga yuz tutish odamlikka qo‘yilgan mantiqiy talabdir. Butun olam yaratilishiga sabab bo‘lgan hazrati inson mana shu haqiqatni anglasa, adabiy ta'lim o‘z maqsadi sari bir qadam bosgan bo‘ladi. She'rning zamiriga ham mana shu haqiqtni anglashga da'vat singdirilgan.

Shu tariqa she'rning mohiyatiga kirib borgan, so‘z qudratini his qilgan, vaqt haqida ma'lum tasavvurga ega bo‘lgan she'rxonlar oldiga: **“Vaqt nima? U qanday mezonlarga asoslanib boshqariladi? Vaqt va Inson” nimani suyadi va qadrlaydi? Vaqt va Soat. Vaqt va Inson”** muammosining qo‘yilishi o‘quvchilarni zo‘riqtirib qo‘yishi mumkin. O‘smir miyasi faoliyatining ham imkoniyatlari cheklangan. Bu masalani eshitib ba'zi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati tormozlanib qolishi mumkin yoki aksincha – ayrimlarda yangi, jumbushga kelgan kuch paydo bo‘lishi mumkin.

Buning ustiga, “Vaqt” she'rining didaktik tahlili ularni aqlan ham, ruhan ham ancha zo‘riqtirdi. Shuning uchun o‘qituvchi vaziyatga, o‘quvchilarning holatiga qarab ish tutishi, vaziyat taqozo qilsa bu muammoning yechimini uyga vazifa qilib berishi ham mumkin. Va uning yechimi sari borish yo‘llarini tavsiya etishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o‘quvchilar har xil ensiklopedik lug‘atlar, internet materiallari, falsafiy lug‘atlarga murojaat qiladilar. Vaqt bilan bog‘liq jamiki falsafiy, islomiy va fizik ma'lumotlar bilan tanishadilar.

Keyingi darsda shu masalaning yechimi ustida suhbatlashiladi. “Vaqt” atalmish tushunchaning ichida ham, dinda ham o‘ziga xos talqinlari bor. Lekin ularning hyech biri bu tushunchaning mazmun-mohiyatini to‘liq ochib bera olgan emas. U mavhum tushuncha. Uni anglashga hali bandasining tafakkur imkoniyatlari qodir emas. Hamkorlar ham bu masalaning yechimini topishlari maholdir. Gap bu muammolarning yechimida ham emas. O‘quvchilarning shunday mavhum tushunchalar haqida mulohaza yuritishlari, bor imkoniyatlarini ishga solib buni anglashga intilishlari, qandaydir haqiqatlarni izlashlari, o‘zlaricha asoslar topishlarida. O‘zlariga atab berilgan umrning har bir daqiqasi vaqt mezonlari asosida nazorat qilinishini, umr hisob-kitobli ekanini his qilishlarida...

G'. G'ulom ijodidan taqdim etilgan ikkinchi she'r – "Sog'inish"[1] o'quvchilarga urush yillarining iztiroblari haqida xabar beradi. Uning dasturiy talqin asosidagi tahlilida: *"Sog'inish" she'rida otaga xos sog'inch tuyg'usining tiniq va jozibali ifodalanishi. Asar qahramon tabiatida milliy o'ziga xoslikning barq urib turishi. She'rda yaxshilikka, ezgulikka, ertangi kunga ishonch tuyg'ulari tasvirining xalq ruhi o'lmasligi haqidagi falsafiy xulosaga o'sib chiqishi"*[2]ni ko'rsatish lozim.

Bu she'rni ham o'qituvchining o'zi o'qigani tuzuk. Chunki she'rdagi sog'inch ruhini o'quvchi uning o'qilish ohangida berolmaydi. She'rning mutolaasi jarayonida shunday o'rinlar borki, ota sog'inchini ruhan his qilgan holda o'qiyotgan kishining tomog'iga yig'i tiqilib, ovozida titroq paydo bo'ladi. She'rni o'quvchi o'qisa, mana shu holatni ilg'amay qolishi yoki uyalib tuyg'ularini boshqarishi va ovozi titramasligi mumkin. yoxud u hali sog'inch tuyg'usini, farzandni sog'inish hissini bilmagani yoki uni to'liq tasavvur qilolmagani uchun payqamay o'tib ketishi ham oddiy hol. Bunday sun'iylik natijasida she'rning ta'sir kuchi kamayib qoladi. Bu adabiy ta'limda katta yo'qotish hisoblanadi. Tahlil ko'ngildagiday chiqmaydi. Ta'sir kutilganday bo'lmaydi.

She'r mutolaasidan so'ng quyidagi savol-topshiriqlar navbati bilan o'rtaga tashlanib, o'quvchilardan javoblar olinadi. Muallif bu misralarni qog'ozga to'kayotganda chinakam otaga aylangan:

"Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas,
Shunchalar mustahkam xonai xurshid"

misralari mazmunini izohlang. Ularning ta'sirchanligini ta'minlagan badiiy vositalarni ko'rsating" topshirig'i ustida ishlaganda o'quvchilar uzilgan bir dona kiprik ham izsiz yo'qolmasligi va buning sabablari haqida mulohaza yuritishlari kerak bo'ladi. Nega shunaqa? Buning mohiyati nimada? O'quvchilar shoir so'zini shunchaki qo'llamasligini biladilar-ku! Bu misralar zamriga joylangan haqiqat yuqoridagi birinchi to'rtlikka singdirilgan: Bu yorug' olamda hamma narsa yaratganning nazoratida. *"Eng kichik zarradan Yupitergacha"* barcha-barchasiga Allohning o'zi egalik qiladi, o'zi boshqaradi, o'zi nazorat qiladi. *"Xonai xurshid"* – bu yorug' olam "*shunchalar mustahkam*" yaralganki, unda tasodifiy hyech narsa yo'q, hyech bir ish

[1] Olimov S. va hoshq. Adabiyot. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi NMIU, 2020. – 108–116-b.
[2] O'quvdasturi. Adabiyot. 8-sinf. – T.: RTM, 2017.

shunchaki sodir bo'lmaydi. Ko'rinadiki, biz uzilganligini ba'zan ilg'ab, ba'zan payqamagan birgina kipirikning ham nazorat ostida eakani bu dunyoning shunchalar muntazam ekani, o'quvchini xayratga soladi.

Navbatdagi savollar: *"... gulshanga qadam qo'y"*gan *"bir mal'un"* deganda kim nazarda tutilayotir deb o'ylaysiz? Sizningcha, gulshan nima? *"Joni bir jondosh"*lar iborasi nimani anglatadi?" Ma'lumki, she'r urush davrida yaratilgan. Gulday yashnab turgan vatanga, garcha bu urush o'zbeklar tuprog'idan ancha uzoqda bo'lsada, o'sha davrda yagona vatan atalmish sovetlar yurtiga "bir mal'un" – Adolf Gitler boshchiligida nemis fashistlari hujum boshladi. Vatanga yov bostirib kelganda barcha vatandoshlar singari jim turolmagan ota o'g'lini frontga yuborgan. Uni sog'inch hissi, farzandining hayoti bilan bog'liq xavotir, qo'rquv qiynaydi.

Jonidan aziz farzandini urushga kuzatgan ota o'g'li bilan faxrlanadi. Chunki:

Unda yetuk edi meros mard g'urur,
Ostonam o'pib, qasamyod qildi.
Ukalarin erkalab, o'zimday mag'rur,
Yana obod uyimni u dilshod qildi.

Bu misralarni o'quvchilar didaktik tahlilga tortishlari uchun ularga: "Mardlik va mag'rurlikni katta o'g'il kimdan meros qilib olgan? O'g'ilning qasamyodi nimani anglatadi? Uyning dilshodligini qanday anglaysiz? Shod bo'lgan kimlarning dili deb o'ylaysiz?" singari savollar bilan yo'naltirish berib yuborish kerak bo'ladi. Bu savollarga javob berish asnosida o'smir she'rxonlar katta o'g'ilning xarakterini ochadilar. Mard, otasidan mag'rurlikni meros qilib olgan o'g'il jondoshining g'amiga befarq qarab turolmaydi. O'g'ilning shundayligi otaning ko'nglini obod, dilini ham shod qiladi. Axir farzandlarining mard, mag'rur, o'zganing dardini his qiladigan bo'lib shakllanishi nafaqat otaning, balki butun millatning tilagi va faxri. Shoir bu misralarga mana shu haqiqatlarni joylagan.

Ayni pishiqchilik pallasida urushga ketgan o'g'lini sog'ingan ota o'z bog'ida yetilgan har bir ne'matni unga ilinadi. Bog'da yetilgan shaftolida farzandi, u orqali suyganining belgilarini ko'rudi. Bu – otalik mehridan. Sog'inchdan. Sog'inch tuyg'usi tufayli, ba'zan inson ruhiyatiga shayton mo'ralab qoladi: odamni har xil vahimalar bosadi. She'rdagi ota ham hamma qatori. *"Kechqurun osh suz"*ilganda, dasturxon ustida *"alleqimi"*ni qumsab qolgan otaning kechalari uyqusi

o‘chib, o‘ylagani sari *“dilini vasvasalar bos”* adi: *“Balki bir g‘alat o‘q, yo xavf-u xatar, Xazinai umrimdan yo‘qotdi olmos...”* Bu satrlarning mohiyatiga kirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga: *“Doimo umidim bardam»*likni qanday tushunasiz? Garchi umidi bardam bo‘lsa, otani nega yana vahima bosadi? Bu, sizningcha, nimadan dalolat beradi?» singari savollar bilan murojaat qiladi va ularni mazkur banddagi haqiqatlarni anglashga yo‘naltiradi.

Shukurki, hamma narsaning oxiri bor: vahimali tun tugab tong otadi, yorug‘lik boshlanadi. Bu yorug‘lik ota qalbiga ham o‘z nurini olib kiradi: *“Loyqa xayolotlar chashmaday tin”*ib, *“Pok-pokiza yurak bir qatra sumoh”*ga aylanadi. U ishonadi:

Dur bo‘lib taqilur yorqin bo‘yniga,
Sadafday ko‘zimda behuda bir yosh.
Ikkoving, ikki yosh, labing labigo
Qo‘yar. Vasvasamdan kuladi quyosh.

Bu misralar ustida ishlashayotganda o‘quvchilar ota ruhi, uning farzandiga qanchalar yaqinligi, mehribonligini tuyishadi. *“O‘z bog‘ing, o‘z mevang danagin saqla...”* misrasidagi ma’joziy ma’noni topish, *“Umid danagini birga ekingiz”* satriga jo bo‘lgan o‘zbekona niyatni ilg‘ash va izohlash jarayonida o‘quvchilar ota ko‘nglidagi niyatlar samimiyligini kashf etib borishadi. Otalik muhabbati, sog‘inchi, urush atalmish baloning ofatlarini tuyadilar. Bu tuyg‘ular ularning kamoloti yo‘lida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

“Sog‘inish” she’rining didaktik tahlili nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi: **“Sog‘inch hissi: uning lazzati va og‘riqlari”** shaklidagi muammoni o‘rtaga qo‘yadi va o‘quvchilarni muammoli vaziyatga soladi. O‘quvchilar mazkur vaziyatda bu tuyg‘uning mohiyatini ochishga yo‘naltiriladi. Muammoning yechimi sari yo‘naltirarkan, o‘quvchilariga quyidagi savol va topshiriqlar bilan murojaat qiladi.

1. Sog‘inch qanday tuyg‘u? Siz buni tuygammisiz? Uni so‘z bilan ifodalashga urinib ko‘ring.

2. Sog‘inch hissi ko‘ngilda xuruj qilganda odam ruhiyatida qanday o‘zgarishlar yuz beradi? Ular dilni og‘ritadimi yoki huzur bag‘ishlaydimi?

3. Sog‘inch tuyg‘usining og‘riqlarini qanday ifodalaysiz? Uning lazzatlari nimalar bilan asoslanadi?

4. Sog‘inch hissi nima bilan yakunlanadi? Bu yakunning nomi nima ekanini ayta olasizmi?

Shu kabi yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlar ustida ishlash asnosida o‘quvchilar Sog‘inch hissini, insonga xos bo‘lgan bu tuyg‘uni so‘z bilan ifodalashga urinadilar. Ruhiyatlarini tafti qiladilar. Sog‘inch tuyg‘usi bilan bog‘liq Og‘riq va Lazzatni tasavvur qiladilar. Visol lazzatini, sog‘inch ehtiyojining qondirilishi lazzatini anglaydilar. Kutgani visol onlari yetib kelganda uning holati qanday bo‘lishini tushunadilar.

Odam ko‘nglida paydo bo‘ladigan barcha tuyg‘ular qaysidir jihatlari bilan ularning o‘smirlik yoshida tuyilganini, qay birlaridir kelajakda his etilishi mumkinligini anglaydilar. Ko‘zga ko‘rinmaydigan, qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydigan, o‘rni odam tanasining qaerida ekanini ham anglab bo‘lmaydigan ko‘ngildagina sodir bo‘ladigan bu kabi bir qator tuyg‘ularning o‘ziga xos og‘riqlari, lazzatlari borligini farqlab boradilar. Shu tariqa ruhiyatlarida yuz beradigan bezovtaliklar, iztiroblar va huzurlarning sabablarini farqlashga o‘rganib boradilar...

Uy vazifasi sifatida har ikkala she’r matni asosida tuzilgan muammolar haqida yozma mulohaza-insho yozishni topshirish mumkin, qaysi biri haqida mulohaza yuritish – ixtiyoriy. Istagan o‘quvchilar she’rlardan birini yod olishlari ham mumkin. bu borada o‘quvchilarga berilgan erkinlik ularda mas’uliyat hissini orttirishi ham mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Dars tahliliga xos bo‘lgan yetakchi qarashlarni ajratib yozing. Har birining asosiy xususiyatlariga diqqat qiling.

2. Mavzuda taqdim etilgan talablarning har biriga o‘z munosabatingizni bildiring. Fikringizni asoslang.

3. O‘rgangan bilimlaringiz asosida maktablardagi tajribali o‘qituvchilarning darslarini kuzating.

4. Har qanday kamchilik tashqaridan qaragan kishiga yaqqolroq ko‘rinadi. Ko‘rganlaringiz asosida o‘z faoliyatingizni tashkillashtirishga harakat qiling.

5. Nazaringizga tashlangan kamchiliklarning sabablarini aniqlashga urinib ko‘ring. Sabab aniq bo‘lgandagina oqibatni tuzatish mumkinligini unutmang.

6. H. Abdukarimovning dars tahlili bilan bog‘liq qarashlariga yana nimalarni qo‘shimcha qilish mumkin. Sizningcha?

7. "Badiiy matnning didaktik tahlili" ruknida taqdim etilgan "Vaqt" she'ri mazmuni yuzasidan taqdim etilgan muammoli masalar ustida birgalikda mulohaza yuriting. Ularning yechimini toping.

8. "Vaqt"ning filologik tahlilini tayyorlang, uning oddiy didaktik tahlilini ham amalga oshiring. Har ikki tahlilni taqqoslang.

9. She'rning didaktik va muammoli tahlilini taqqoslang. muammoli tahlilning murakkablik jihatlari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?

10. "Sog'inish" she'rining didaktik tahlili uchun qo'yilgan barcha savollarga javob bering. She'rni amaliy muhokamaga torting.

11. "Sog'inish" mazmuni asosida yaratilgan muammoning yechimini topishga urinib ko'ring. Fikrlaringizni bir-biringiz bilan o'rtoqlashing.

12 "Sog'inish"ning filologik tahlilini internetdan toping. Uning har ikki tahlilini taqqoslang. munosabat bildiring.

13. "Internet va adabiy ta'lim" mavzusida maqola yozing. Maqolangizni o'qituvchingiz va o'rtoqlaringizga taqrizga bering. Szngra biror davriy matbuotda chop ettiring.

38-MAVZU. PIRLS, PISA, TIMSS VA FLASH INDEX TADQIQOTLARI HAMDA ULARNING ADABIY TA'LIM BILAN BOG'LIQ JIHATLARI

Reja:

1. *PIRLS tadqiqoti nima?*
2. *PISA tadqiqoti nimani ifodalaydi?*
3. *TIMSS tadqiqotining xususiyatlari.*
4. *PIRLS va PISAning adabiyot o'qitishdagi o'rni va roli.*
5. *"Flash Index"ning adabiy ta'limga aloqadorlik jihatlari.*
6. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Mamlakat umumta'lim tizimida o'qitish sifati va samaradorligini oshirish yo'lida dunyo miqyosida olib boriladigan ilg'or tajribalarning o'rganilishi, o'quvchilar savodxonlik darajasini baholashda xalqaro standart talablarga tayanish kelajak avlodning dunyo miqyosida ma'lum mavqyeni egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, O'zbekistonning Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash – IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) xalqaro assotsiatsiya bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi diqqatga sazovordir.

IEA xalqaro assotsiatsiyasi dunyo miqyosida ta'limni qiyosiy o'rganish sohasida yetakchi tashkilot hisoblanadi. Mazkur tashkilotda ta'lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadida keng miqyosli tadqiqotlar olib boriladi. Bu tadqiqotlarda ta'lim jarayonlari va natijalari ko'rib chiqiladi, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar o'zaro qiyosiy tahlil qilinadi.

1958 yilda o'z faoliyatini boshlagan bu tashkilot ta'lim sohasiga oid ko'plab masalalar yuzasidan o'ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqot ishlarini yo'lga qo'ygan. Jumladan:

- o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini qiyosiy o'rganish bo'yicha TIMSS (inglizcha Trends in Mathematics and Science Study);
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha PIRLS (inglizcha Progress In International Reading And Literacy Study).

• o'quvchilarning o'qish, va tabiiy fanlardan savodxonligi darajasini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi PISA (inglizcha The Programme for International Student Assessment);

• 14 yoshli maktab o'quvchilarining fuqarolik ta'limi sifatini o'rganish bo'yicha ISSS (inglizcha International Civic and Citizenship Study);

• o'quvchilarning kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini o'rganish yuzasidan ISISLS (inglizcha International Computer and Information Literacy Study) kabi yo'nalishlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, umuman olganda, ta'lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini baholash bo'yicha tadqiqot ishlarini olib boradi.

TIMSS turli davlatlardagi 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillar o'rganiladi. Ushbu ma'lumotlar belgilangan fanlarni o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'ladi.

Tadqiqot to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markaz va tashkilotlarida, xususan: AQShning Ta'lim sohasidagi test xizmatlari ETS (Educational Testing Services) markazi, Kanadaning SC (Statistic Canada) statistik markazida IEA Kotibiyati ishtirokida o'tkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qo'mitalari (jamoasi) tuziladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha PIRLS dasturi bevosita adabiy ta'lim bilan bog'liq bo'lgani uchun unga batafsil to'xtalish lozim deb topildi.

* * *

Kengroq olganda, PIRLS umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi, ya'ni ma'lum bir matnni o'qib tushunish bilan bog'liq ko'nikmalari rivojlanganlik darajasini xalqaro mezonlar asosida aniqlash va taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitish kechimini yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

Shuningdek, PIRLS kichik yoshdagi o'quvchilarning maktabdan tashqari ta'limini tashkil etuvchi: badiiy tajriba orttirish, har xil ma'lumotlarni to'plash va undan foydalanish ko'nikmalarini ham o'rganadi va baholaydi.

PIRLS dasturi tadqiqot ishlarini zamon bilan hamnafas tarzda olib boradi va baholash mezonlarini zamon talablariga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida PIRLSning 2021 yilda amalga oshiriladigan tadqiqot ishlarida o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish mumkin. Raqamli formatga o'tish bilan birga, internet muhitida "EPIRLS" nomi ostida boshqariladigan onlayn o'qishini kompyuterda baholash kabi o'zgarishlar ham ko'zda tutilgan.

O'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishi bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish yo'lida PIRLS tadqiqotida muvaffaqiyatli ishtirok etish ta'lim amaliyoti uchun muhim ahamiyat kkasb etadi. Ta'lim sifatini uning dastlabki bo'g'inidan boshlab aniqlash va uni baholash sohasidagi mazkur xalqaro tadqiqot haqida xalq ta'limi tizimi xodimlari, o'qituvchilar, ota-onalar hamda ushbu sohaga qiziquvchilar uchun ma'lumotlar yetkazib berish maqsadida mamlakatimizda ham ma'lum izlanishlar olib borilmoqda. Ya'ni PIRLS tadqiqoti, uning o'ziga xos xususiyatlari, nazorat-sinov materiallarining ishlab chiqilishi, bu jarayondagi yutuq va kamchiliklar, bu yo'ldagi muammolarni bartaraf etish masalalari o'rganilmoqda, ma'lum tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda PIRLS tadqiqotining topshiriqlari, matnlar va ularning mazmuni yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlarga asoslanilmoqda. Tajriba maydonchalarida boshlang'ich sinflar o'qish darslari amaliyotida sinab ko'rilmoqda.

PIRLS dasturi 2001 yilda tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqot ishlarining yuritishda barcha mas'uliyat AQShning Massachusets shtati Boston shahrida joylashgan Chestnut Hill kollejiga yuklatilgan. Shuningdek, tadqiqot uchun topshiriqlar, matnlar mazmuni yuzasidan savol-topshiriqlarni tayyorlash Germaniyaning Gamburg shahridagi ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi. Mazkur xalqaro baholash dasturi dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va ularning natijalarini qiyoslab o'rganish bo'yicha izlanishlar olib boradi.

Tadqiqot ishlari bo'yicha imtihonlar *har besh yilda* bir marta o'tkaziladi va 2021 yilda uning beshinchi turini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, 2021 yilda o'tkaziladigan tadqiqotlar 2001 yildan boshlab uzluksiz qatnashib kelayotgan davlatlarning 20 yil davomida erishgan yutuqlarini baholash imkonini beradi. PIRLS dasturi IEA tashkilotining 4-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan. Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro o'quv markazlari bu tashkilotning Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan hamkorlikda boshqariladi.

2016 yildan boshlab qo'shimcha tanlov asosida yePIRLS tizimi joriy qilingan. Bu yo'nalish o'quvchilarning onlayn o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan. Internet o'quvchilar uchun ma'lumotlar olishning boshlang'ich yo'li hamda maktab o'quv fanlari doirasida izlanishlar olib borish uchun markaziy manba 2021 yilda o'tkaziladigan PIRLS tadqiqotlarida dasturning birinchi marta raqamli formatga (digital PIRLS, shu bilan birga, an'anaviy qog'oz formati ham bo'ladi) o'tishi hamda 2016 yilda boshlangan yePIRLS dasturi internet muhitida boshqariladigan onlayn o'qishni kompyuter orqali baholashni ko'zda tutadi.

PIRLS dasturida qatnashuvchi mamlakatlar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Masalan, dasturda 2001 yilda 35 mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2006 yilda ularning soni 40, 2011 yilda 45taga yetgan. 2016 yilda esa 50ta mamlakat qamrab olingan. Navbatdagi 2021 yilgi tadqiqotlarda 60ta mamlakatning ishtirok etishi rejalashtirilgan.

2016 yildagi tadqiqotlar natijasiga ko'ra Rossiya Federatsiyasining 42 hududidan 206ta umumiy o'rta ta'lim maktabida ta'lim oladigan 4577ta boshlang'ich sinf o'quvchisi jalb etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi dunyo bo'yicha birinchi o'rinni egallagan[1].

PIRLSning boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishdagi yutuqlarini baholash dasturi har bir tadqiqot davrida yangilanib turadi. Shu jumladan, 2021 yil uchun dastur talablari yangilandi. Bu yilgi PIRLS dasturi ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat – davlat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma nutq shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek,

[1] https://mtf.fi/en/ledovatiya/604873/all_less

matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati muhim mezon etib belgilandi.

O'qish savodxonligi o'quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma nutqning shakllari, idrok etish va bilimlarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Shu nuqtai nazar o'quvchilarning o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratadigan bugungi jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O'qish savodxonligining bu ko'rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko'plab o'qish nazariyalarini aks ettiradi. O'quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o'quvchi va matn orasidagi muloqot (interaktiv) orqali o'quvchi ma'no (konstruktiv (yaratmoq ma'nosini anglatadi) yaratadi. O'quvchi bu jarayonning faol ishtirokchisi sanaladi va o'qigan matnidan ma'no chiqaradi, matn ustida mulohaza yuritadi, samarali o'qishni ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Matn turli shaklga: an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar bo'lishi mumkin. Shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

PIRLS va yePIRLSda boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari *o'qishi jarayoni* quyidagi:

- badiiy tajriba orttirish;
- axborot olish va undan foydalanish 50% PIRLSda va 0% EPIRLSda maqsadlariga erishish nazarda tutiladi.

PIRLS va EPIRLSda o'qish maqsadlarining **tushunish jarayoni** esa:

- diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish 20% PIRLSda va 20% EPIRLSda;
- to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish 30% PIRLSda va 30% EPIRLSda;
- g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish 30% PIRLSda va 30% EPIRLSda;

• kontent va matnning elementlarini baholash va tanqid qilish kabi maqsadlarni 20% PIRLSda va 20% EPIRLS hisobida qamrab olinadi.

Butun dunyo bo'ylab o'qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o'qishlari bilan bevosita bog'liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o'qishni yoki ta'lim olish va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o'z ichiga qamrab oladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning ko'pchiligida dastlabki mutolaa, aksariyat hollarda, hikoya (masalan, hikoyalar to'plamlari yoki rasmli kitoblar) yoki o'quvchilarga atrof-olam haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat bo'ladi.

Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarning teng bo'lishini asosiy maqsad qilib olgan.

PIRLS dasturi «O'qish savodxonligining maqsadi» talablaridagi «Badiiy tajriba orttirish» ruknida o'z ona tilida o'qilgan matnni tushunish va baholash uchun har bir o'quvchi tilni tushunishi va badiiy shakllarni bilishi taqozo etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun adabiyot hali duch kelmagan vaziyatlar va his-tuyg'ularni o'rganish imkoniyatini taqdim etishi mumkin. Badiiy adabiyotda tasvirlangan voqealar, harakatlar va oqibatlar o'quvchilarga haqiqiy hayotni yoritibgina qolmay, tasavvur qilishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi.

PIRLSda ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli – bu badiiy to'qimaga asoslangan hikoyalardir.

PIRLS dasturi «O'qish savodxonligi maqsadi»ning «Axborot olish va undan foydalanish» ruknida axborot matnlarining maqsad va vazifalari turli xil bo'ladi. Axborot matnining asosiy vazifasi axborotni taqdim etish bo'lsa-da, mualliflar ko'pincha o'zlari tanlagan mavzularni yoritishda turli maqsadlarni ko'zda tutadilar. Ko'pgina axborot matnlarining maqsadi to'g'ridan to'g'ri ma'lumot berish, masalan, biografik ma'lumotlar yoki vazifani bajarish bosqichlarini taqdim qilishdir. Shu bilan birga, ko'p hollarda matnda muallifning subyektiv qarashlari ham aks etadi.

Masalan, muallif fakt yoki tushuntirishlarning qisqacha xulosasini taqdim etishi, o'z dalillariga o'quvchini ishontirishga harakat qilishi yoki turli nuqtai nazarlarni keltirishi mumkin. O'quvchilar esa ilmiy-

tarixiy, geografik yoki ijtimoiy va hk. bir qator ma'lumotlarni qamrab olgan, turli shakldagi axborot matnlarini o'qishlari mumkin.

PIRLSdagi «Tushunish jarayonlari maqsadi» esa o'quvchilarining keng qamrovli to'rtta tushunish jarayonini baholaydi: 1) diqqatni jamlash va aniq ma'lumotni topish; 2) to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish; 3) g'oyalar va axborotni tahlil qilish, uyg'unlashtirish, kontent (matnlar, grafik, tovushli ma'lumotlar, shuningdek, kitoblar, gazetalar, maqolalar to'plami, materiallar saytning axborot mazmuni va bq.); 4) matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir.

PIRLS va EPIRLSda har bir matn parchasi (yoki parchalari) yoki matn yuzasidan beriladigan savol va topshiriqlar shu to'rttala jarayonni baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar matndan ma'no chiqarar ekan, matnda aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan o'z munosabatini bayon etadilar. Xulosalar chiqarishda esa o'quvchilarga matndan tashqariga chiqishga, keng miqyosda fikr aytishga imkon beriladi. Ma'lumki, ko'pincha muallif matnni o'quvchining aniq yoki bevosita mustaqil ravishda o'z xulosalarini chiqarishi uchun yaratadi.

O'quvchilarning oddiy xulosalar chiqarish bilan birga matndagi g'oyalar va axborotlarni mustaqil tahlil qilishda va qarashlarini umumlashtirishda ma'lum bir yoki umumiy ma'nolarga e'tibor berishlari, tafsilotlarni umumiy mavzular va g'oyalar bilan bog'lashlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'liq javob berish uchun o'quvchidan matnni to'liq yoki hyech bo'lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

PIRLS dasturidagi «Tushunish jarayoni maqsadi»ning asosiy talablardan biri «konkret matn elementlarini baholash va tanqid qilish»dir.

Matn mazmuni o'quvchining shaxsiy fikridan kelib chiqib, xolislik bilan baholanishi va tanqid qilinishi mumkin. Bu jarayon o'quvchidan xolis baho berish, rad etish, ma'qullash, matn mazmuniga nisbatan betaraflikni bildirish kabilar talab qilinadi. Masalan, o'quvchi matnda keltirilgan fikrlarni tasdiqlashi, e'tiroz bildirishi, o'z qarashlarini asoslash uchun boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan matnda berilgan g'oyalarni taqqoslashi mumkin.

PIRLS tadqiqotida foydalaniladigan matnlarning xususiyatlari shundan iboratki, ular dasturida murakkabligiga qarab, o'rtacha

500tadan 800tagacha, o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500ta, yePIRLSda esa, taxminan, 1000tagacha so'zdan iborat bo'ladi. PIRLS matnlari uchun aniqlik va izchillik muhim mezon bo'lib hisoblanadi.

Matnni baholash va tanqidiy tahlil qilishda quyidagilarga tayaniladi:

– matnda berilgan ma'lumotning aniq va to'liqligini baholash;

– tasvirlangan voqeani haqiqatan sodir etilishi ehtimolini baholash;

– insonlar o'ylari va bajaradigan ishlarini o'zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash;

– matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash;

– metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta'sirini tasvirlash;

– muallifning asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlash.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan:

1. Uzunligi: 1000ta so'zgacha.

2. Mavzusi: badiiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi. Axborot matnlari o'quv materiallardan olinmagan mavzuni yoritib berishi kerak.

3. Tili: matnlar 40dan ortiq tilga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qilingan matnning tushunilish darajasi muhimdir. Metafora yoki epitet kabi aniq ifodali tasvirlash so'zlari tanlanadi. Hyech qanday so'zlashuvga oid so'z yoki jargon ishlatilmaydi hamda ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi.

4. Mazmuni: matnning mazmuni 9–10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanishi, shuningdek, matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi hamda o'quvchi uchun unchalik tanish bo'lmasligi lozim.

5. Bog'lanishliligi va ketma-ketligi: sujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Axborot matnda matnning tuzilishi va ma'lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog'liqligini kuzatish shartdir.

PIRLS tadqiqotida tushunib o'qishni baholashga yo'naltirilgan topshiriqlar quyidagi foizlarda taqsimlanadi:

– aniq ko'rinishda berilgan ma'lumotni topish 20%;

– to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish 30%;

– g'oyalar va axborotni umumlashtirish, talqin qilish va uyg'unlashtirish 30%;

– kontent matn elementlarini baholash va tanqid qilish 20%[1].

* * *

PISA (inglizcha The Programme for International Student Assessment) dasturi esa o'quvchilarning maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini baholashga qaratilgan. Aniqroq ifodalaydigan bo'lsak, bu dasturda 15 yoshli o'quvchilarning matematik, o'qish, tabiiy-ilmiy savodxonligi va kreativ (ijodiy) fikrlash bo'yicha qobiliyati baholanadi. PISA tadqiqotlari OECD (Organisation for Economic Cooperation and Development) – tashkiloti tomonidan har *uch yilda bir marta* o'tkaziladi. Unda o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilimi va o'qish sifati 1000 ballik tizimda baholanadi.

PISA tadqiqotlarida ishtirok etadigan o'quvchilar haqida so'z yuritganda "15 yoshli" tushunchasi aynan 15 yoshu 3 oylikdan 16 yoshu 2 oylikkacha bo'lgan yoshdagi, ya'ni har qanday ta'lim muassasasida yettinchi va undan yuqori sinflarda tahsil olayotgan o'quvchilarni anglatadi.

Ushbu xalqaro dastur ham 1997-yilda IEA tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib 2000-yilda ilk marotaba amaliyotda qo'llanilgan. Dastur ko'magida turli davlatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlar aniqlanadi, solishtiriladi va baholab boriladi.

Har bir davlatdan ishtirok etuvchi o'quvchilar soni mamlakatdagi jami 15 yoshli tarbiyalanuvchilarning ikki foizi miqdorida shakllantiriladi. PISA dasturi bo'yicha sinovlar iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan yetakchi xalqaro tashkilot va milliy markazlar vakillari konsorsiumi (vaqtinchalik tuzilgan jamoa) tomonidan tashkil etiladi.

PISAda o'quvchilarning bilish kompetentliligi sifati quyidagi:

1. O'qish savodxonligi.
2. Matematik savodxonlik.
3. Moliyaviy savodxonlik.

[1] PIRLS Bolalar(ist.pdf

4. Kompyuter savodxonligi.

5. Tabiiy-ilmiy savodxonlik kabi yo'nalishlar bo'yicha aniqlanadi.

Bu besh yo'nalishning birinchi "O'qish savodxonligi" bandi bevosita adabiy ta'lim bilan bog'liqdir.

PISA tadqiqoti natijalari:

– mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi;

– milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan dastur va darsliklar mazmunini yangilashga asos bo'ladi;

– xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlar sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

– xalqaro standartlar darajasida yuqori iktisodiy samaraga asoslangan milliy baxolash tizimini yaratish imkonini beradi;

– mahalliy mutaxassislarda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi;

– ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi;

– milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasiga moslashtirish imkonini beradi.

O'qish, matematktika va tabiiy fanlar bo'yicha kompyuterda amalga oshiriladigan test sinovlari davomiyligi 155 daqiqa (ya'ni 120 daqiqalik sessiya, 5 va 15 daqiqalik tanaffuslar hamda 35 daqiqadan iborat o'quvchilar so'rovnomalari)ga mo'ljallangan.

PISA tadqiqotida o'quvchilarning kreativ (ijodiy) fikrlashi darajasini aniqlash yetakchi ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, kreativ fikrlashni baholashda qancha ko'p yo'nalish, soha (domen) qamrab olinsa, soha bilan bog'liq o'quv muammolarning yechilishi shunchalik samarali bo'ladi[1].

PISA tadqiqotida o'quvchilarning kreativ fikrlashini baholashga yo'naltirilgan test sinovlariga bir soat ajratiladi. Bu tadqiqotning maqsadi individual test natijalari emas, balki test natijalarini mamlakat

[1] pisa-kreativ-fikrlashni-baholash.pdf

darajasida taqqoslash ko'rsatkichlarini taqdim etishdir. Shu bois turli mazmundagi testlardan aaralash tarzda foydalaniladi.

PISA sinovlari maxsus kompyuterlarda amalga oshiriladi. Ularda sensor paneli ham, internet aloqasi ham yo'q. Platforma javoblarni kiritishning turli shakllarini amalga oshiradi, jumladan, bir nechta javobni tanlash, matn kiritish, siljitib belgilash, matn yoki rasm ichidagi maydonga bosish, chat interfeysi, interaktiv diagramma, grafiklar va hk, platformaga rasm chizish instrumenti, baholash sohalarini tanlash kabi yangi funksional imkoniyatlar ham kiritilishi mumkin.

PISA tadqiqotida bilim bilan birga kreativ fikrlashni baholashda fikrni kreativ ifodalash, bilim yaratish hamda muammoni kreativ hal qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Tafakkur va faoliyatdagi kreativ (ijodkor)likda ilgari surilgan g'oyaning o'ziga xos (original)ligi, estetik jihati, xayolot (fantaziya) olamining darajasi, emotsional mazmun va reaksiya qamrab olinadi. Bilim yaratish va muammoni hal qilish sohasidagi ijodiy faol (kreativ)likka ochiq (to'g'ri javobning yagona emasligi va g'oyalarning tugallanmaganligi) savol va muammolarni tadqiq etish bilan bog'liq fikrlashning amaliy ko'rinishlari kiradi. Bu soha, o'z navbatida, «*ilmiy muammoni hal qilish*» va «*ijtimoiy muammoni hal qilish*» kabi soha (domen) (yo'nalish)laniga bo'linadi. Ushbu sohalarda, kreativ faollik afzalroq natijaga erishish vositasi hisoblanadi va shuning uchun o'ziga xos, innovatsion, ta'sirli va samarali yechimlarni taklif etish deb, ta'riflanadi.

«Kreativ ifodalash» deganda shaxsning ichki dunyosi (kechinmalari, tuyg'ulari)ni yozma va og'zaki shaklda o'zgalarga yetkazib bera olish holati, imkoniyati tushuniladi. Ushbu mavzuning mazmuni, o'z navbatida, «yozma ifodalash» va «vizual ifodalash» yo'nalishlariga bo'linadi.

PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholashning kompetensiyaviy modeli:

1. Yozma ifodalash.
2. Vizual ifodalash.
3. Ilmiy muammoni hal etish.
4. Ijtimoiy muammoni hal etishni qamrab oladi.

Bu jarayonda turli g'oyalarni tahlil qilish, kreativ g'oyalar ishlab chiqish va g'oyalarni baholash hamda takomillashtirish ishlari bilan shug'ullaniladi.

O'quvchilar kreativ fikrlashini baholashga qaratilgan bu to'rt baholash sohasi real hayot va kundalik ijodiy fikrlash mohiyatini aks ettirib, 15 yoshli o'quvchilar, odatda, mashg'ul bo'lishi mumkin bo'lgan kreativ fikrlash faoliyatini qamrab oladi. Ular ijodiy fikrlashning maktabdagi barcha ehtimoliy ifodasini qamrab ololmasa ham, kreativ fikrlash konstruktini yetarli darajada qamrab oladi.

Yozma ifodalash ishi ham maktab kontekstida, ham uning tashqarisida kreativ ifodalashning tabiiy vositasidir. Badiiy matn yaratish o'quvchilarning aqliy va muomala ko'nikmalarini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Ravon yozma nutq mantiqiy izchillikni talab etadi. Ijodkor shaxs o'qirmanlarni o'zining xayolotini anglash va unga ishonishga chaqiradi. Bu esa yozuvchidan har bir detal va izchillikka urg'u berishni taqozo etadi. Masalan, hatto jinlar va o'zga sayyoraliklar haqidagi xayolot (fantaziya)ga asoslangan hikoyalarda ham ichki mantiqiylik bo'lishi, muallif yaratgan dunyo ichida ma'no kasb etishi maqsadga muvofiqdir.

Yozuvchilik bilan shug'ullanayotgan inson tafakkur qiladi, o'z ishidan kutilgan natijalarni aniqlab oladi va boshqalarning matnga ijodiy munosabat bildiradi. Bu faoliyat o'quvchi uchun intellektual va emotsional rivojlanishning yangi qirralarini ochishi, o'zlarini va atrof-muhitni yaxshiroq anglashga yordam berishi mumkin. Ustiga-ustak, ijodiy yozuvchilik faqat adabiyot janri bilan kifoyalanib qolishi shart emas, hujjatli nasr ham ijodiy bo'lishi mumkin. Bu turdagi yozma kreativ ifoda o'quvchilarga butun hayoti davomida kerak bo'ladigan muomala (kommunikatsiya) madaniyatining qoidalarini anglash va ularni o'zlashtirish imkonini beradi.

Kognitiv (bilish, anglash va fikrlashga yo'naltiruvchi) testda, o'quvchilar o'z xayol-fantaziyalari, taassurotlarini yozma ravishda ifodalay olish qobiliyatini namoyon qilishi talab etiladi. Bunda ular yozma muomalani turli auditoriya uchun tushunarli va o'ziga xosligini namoyon qiladigan tarzda qoida va tartiblarga amal qilishlari lozim.

PISA tadqiqotida qarashlarni yozma ifodalash yo'nalishida ham bir qator test shakllari ishlab chiqilgan. O'quvchilarga beriladigan vazifalarda: ochiq va xayoliy yozma ish (buni tekshiruvchilar ham inson bo'lgani bois, hajmda ma'lum cheklovlar mavjud); sarlavha tanlash bilan bog'liq rasm yoki turli yozma formatlarga g'oya berish; boshqalarning (testda taqdim etiladigan) yozma ishini ijodiy takomillashtirish va hk.lar talab etiladi.

Vizual ifodalash yo'nalishida, o'quvchilar turli ko'rgazmali material va jarayonlar orqali o'z g'oyalari va u bilan bog'liq taassurotlarini ifodalaydilar. Vizual ifodani tayyorlash ham o'quvchilarga ochiq va yashirin maznunga ega rasmlarni tahlil etishga, umuman olganda, ma'lumot, kommunikatsiya va dizayn qanday ishlashini yaxshiroq namoyon etishga yordam beradi.

Vizual ifodalash domeni (yo'nalishi) uchun tuzilgan test savollari o'quvchilardan quyidagilarni talab etadi: dijital (raqamli) chizish vositasi orqali ochiq turdagi vizual dizayn vazifasini bajarish; taklif etilgan ssenariy asosida vizual dizayn g'oyasini berish (masalan, muayyan detalni qo'shish va hokazo); vazifada keltirilgan ko'rgazma shaklini takomillashtirish g'oyasini berish va hk.

Ijtimoiy muammoni hal qilish yo'nalishi (domeni)da o'quvchilar kundalik hayotda o'zaro munosabatlardagi va jamiyatdagi muammolarni yechishda kreativ fikrlashdan foydalanadilar. Ushbu kontekstda o'quvchilar kreativ fikrlash muammoning nafaqat texnik jihatini, balki ijtimoiy tomonini, ya'ni boshqalarning ehtiyoj va nuqtai nazarini hisobga olgan holda, shaxslararo, jamiyatdagi va dunyodagi global muammolarni yechishlari kerak bo'ladi. Ushbu domendagi kreativ fikrlash o'quvchining boshqalarga hamdard bo'lish hamda muayyan guruh ehtiyojlarini anglash, aloqadorliklarni aniqlash va emotsional qiymatga ega g'oyalarni berish hamda innovatsion, lekin ayni damda hayotga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan yechimlarni taklif etish qobiliyatiga bog'liqdir.

Ijtimoiy muammoni hal qilish domenidagi test savollari o'quvchidan quyidagi vazifalarni bajarishni talab etadi: yakka tartibda yoki ehtimoliy guruh ssenariysida ijtimoiy ahamiyatga ega ochiq muammoni yechish vazifasini bajarish; berilgan ssenariy asosida ijtimoiy muammolarga yechim topish; tayyor yechimni yanada takomillashtirish va hk.

Ilmiy muammoni hal qilish domeni (yo'nalishi) ilm-fanda kreativ fikrlash turlicha aks etishi mumkinligini nazarda tutadi: ilmning rivojlanishiga hissa qo'shadigan yangi g'oyalarni taklif etish; taxminlarni isbotlash uchun eksperimentlarni shakllantirish; muayyan sohaga tatbiq etiladigan ilmiy g'oya yoki ixtirolarni ishlab chiqish yoki ilmiy muhandislik faoliyatini yangicha rejalashtirish. O'quvchilar kreativ fikrlashni ilmiy tadqiqot mobaynida materiallar bilan istagancha

sinab ko'rish, o'rganish va tahlil etish orqali namoyon qilishlari mumkin.

Ilm-fanda kreativ fikrlash ilmiy tadqiqot malakasiga juda yaqin, lekin ushbu testning bir qator xususiyatlari uni matematika va boshqa fanlar sohasidagi testlardan butkul ajratib turadi. Birinchidan, ushbu test avval o'rgatilgan bilimni qo'llashga emas, yangi g'oyalarni yaratishga urg'u beradi. Ikkinchidan, o'quvchining yondashuv va yechimlarining o'ziga xosligi baholanadi (agar javoblar yaroqli deb topilsa, albatta). Uchinchi farq yagona mukammal yechimi bo'lmagan ochiq savollardan foydalanishdan iborat. Nihoyat, ushbu test o'quvchining ilmiy kontekstda kreativ fikrlash jarayonlariga – ya'ni to'g'ri yoki eng ma'qul yechimni topish qobiliyatiga emas, ochiq muammolar yechimiga qay tarzda yondashishiga e'tibor qaratiladi.

Bu domen (yo'nalish)dagi test savollari turli ilmiy kontekstdagi kreativ fikrlashning farqli jihatlarini qamrab oladi. Umuman olganda, o'quvchilardan quyidagilar so'raladi:

- ilmiy kontekstda ochiq shakldagi muammoni yechish;
- taqdim etilgan ssenariyga asoslangan holda, ilmiy mohiyatga ega muammolarga yechim yoki gipoteza (farazlar, taxminlar) g'oyasini berish;
- avvaldan berilgan tayyor yechimni yanada takomillashtirish haqida taklif berish. Ehtimoliy vazifalarda ilmiy fenomen borasida kuzatuvlar taqdim etilib, o'quvchidan farqli tadqiqot predmeti yoki muammoni ifodalab berish uchun gipoteza so'ralishi;
- laboratoriya muhitida turli jihozlar orqali biror narsani kashf etish ham so'ralishi mumkin.

PISA baholash dasturida kreativ fikrlash testining kompetensiyaviy modeli uch shaklda aks etadi: turli g'oyalarni ishlab chiqish, kreativ g'oya ishlab chiqish va berilgan g'oyalarni baholash hamda uni takomillashtirish.

Test o'quvchilardan *g'oya berish* (ya'ni, turli yoki kreativ g'oyalar berish) kognitiv jarayonida hamda g'oya qiymatini baholash va uni takomillashtirishda samarali ishtirok etishni talab qilish orqali o'quvchining kreativ fikrlash darajasini o'lchaydi. Shuning uchun testlar nafaqat kreativ fikrlashning kognitiv jarayoniga qaratiladi, balki o'quvchilarni boshqa g'oyalarni baholashga, ularni takomillashtirish usullarini taklif etishiga ham e'tibor qilinadi.

PISA sinovida g'oya turli shakllarni olishi mumkin: masalan, hikoya, chizilgan rasm, ijtimoiy muammoga yechim yoki ilmiy fenomen borasidagi farazlar va hk. Test komponentlari o'quvchilarning turli g'oyalarni bera olish va nostandart fikrlay olish qobiliyatlarini namoyish qilishi uchun ma'nili kontekst va yetarli darajada ochiq vazifalarni taqdim etadi. Test komponentlari kreativ fikrlashning barcha jihatlarini qamrab oladigan shaklda tuziladi.

G'oyani ishlab chiqish va uni baholash hamda takomillashtirish kognitiv jarayonlarini talab etgan ko'nikmalar qisman kontekst (matn mazmuni) bilan ham aniqlanadi. Masalan, she'r yozish bilan laboratoriyada ilmiy gipotezani sinab ko'rish jarayoniga kreativ g'oya ishlab chiqish sifatida qaralsa ham ikki soha (yo'nalish)ga oid bilim hamda tajribaning turli shakllarini taqozo etadi. Yozma ifodalashda g'oya yaratish, odatda, mavzuga oid xotiradan foydalanishni ham o'z ichiga oladi. Ilmiy muhitda g'oya yaratish esa, asosan, yangi savollarni shakllantirish hamda ushbu savollarga oid tajribalarni o'tkazishni o'z ichiga olgan ilmiy o'rganishdan boshlanadi.

Shuningdek, g'oyani baholash va tanlash ham alohida kognitiv ko'nikmalarni, sohadagi bilimni va turli ijodiy yo'nalishlar borasida tajribani o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, adabiy yozuvchilik ravon va izchil bo'lishi, o'quvchining ehtiyojlarini qoniqtirishi uchun bir necha bor tahrirni talab etadi. Ilmiy kontekstda esa g'oyani baholash yechimning samaraliligi va amaliyotga tatbiq etish qay darajada mumkinligini tekshirishdan iborat bo'ladi va hk.

Talab etilayotgan to'rt domen (yo'nalish)ning barqaror qamrab olinishi kreativ fikrlashning bir sohasida muvaffaqiyatli bo'lgan o'quvchilarning boshqa sohalarda ham muvaffaqiyatli bo'la olishi darajasini tekshirishga imkon beradi.

Ko'rinadiki, PISA tadqiqoti Xudoning o'quvchilar orasida shakllanib kelayotgan alohida yaratiqlarini ajratib olishga, ularning qobiliyat va iqtidorlaridan jamiyat uchun samarali foydalanishga yo'naltirilgan.

Misol tariqasida shuni aytish mumkinki, ta'lim sohasida ma'lum yutuqlarga erishgan rossiyalik o'quvchilar PISA tadqiqotlarida bir necha yillardan beri qatnashib kelayotgan bo'lsada, erishgan natijasi yuqorigi o'rinlardan ancha uzoq. Rossiya hyech qachon uchta ko'rsatkich bo'yicha eng yaxshi yigirmata mamlakat qatoriga

kirmagan. Va tadqiqotning 2015-yilgi sinovlarida umumiy reytingda qatnashgan 72 mamlakat orasida Rossiya 32-o'rinni egallagan[1].

Mamlakatimizning 2021-yilda PISA tadqiqotlarida ilk ishtiroki va o'zbek o'n besh yoshlilarning erishadigan natijalari darajasini vaqt ko'rsatadi.

* * *

"FLASH INDEX" – Fleshning o'qishlilik indeksi – ham bevosita adabiy ta'lim, xususan, "Adabiyot" darsliklarini yaratishda matnni anglashning oson-murakkablik darajasini aniqlash o'lchovi hisoblanadi *. O'qishlilik indeksi quyidagi xususiyatlar asosiga ko'ra hisoblanadi, masalan:

– poligrafiya (nashr ishlari) jihatidan (harflarning hajmi o'lchovi, rangning och yo to'qligi, yorqinlik darajasi, sahifaning o'lchovi kabilar);

– semantik va stilistik jihati (matndagi sodda va qo'shma gaplar miqdori, gapdagi so'zlar soni, so'zlardagi bo'g'inlar soni, tez-tez yoki kamdan-kam uchraydigan so'zlarning solishtirma soni, neologizm va jargonlar miqdori) va hk.

Flesh indeksi (amerikalik Rudolf Flesh tomonidan 1948 yilda yaratilgan) ingliz tilidagi o'quv materiallarining o'quvchi tomonidan o'zlashtiriluvchanlik darajasini aniqlash mezoni bo'lib, Amerikada keng tarqalgan o'lchov birligidir. Flesh faoliyati davomida darsliklardagi matnlarning balandparvoz, jimjimadorligiga qarshi bo'lgan. Fikrni aniq, tushunarli, sodda ko'rinishda berish imkoniyati mavjud bo'lgani holda, sun'iy murakkablashtirishdan qochish lozimligini uqtirgan[3].

Yana bir tadqiqotchi Roberto Ganning ham matnning o'qishlilik darajasi bilan shug'ullangan. Flesh indeksi ommalashganligiga ko'ra bu kabi boshqa tadqiqotlardan ustunlik qiladi[4].

Rossiyada I. V. Oborneva bu mavzuda ilmiy ish himoya qilib, matnning o'qishlilik darajasini aniqlashning avtomatik usulini ishlab chiqqan[5].

[1] https://ref.by/refs/ed-review/9038752-ol_tests - Вопросы ОЭСР PIRLS, TIMSS, PISA: что они за исследования, о которых узнают школьники из России

* Матеріал взятий тайфуном: М. Тўлақбаевнинг адабиётшунослик ишлари фойдасига

[2] https://www.adventology.ru/articles/1928.html. Формула читабельности Флеша

[3] https://ru.wikipedia.org/wiki/Индекс_удобочитаемости_текста

[4] Оборнева И. В. Автоматизированная оценка степени усвоения учебного текста на основе статистических параметров: дис. ... канд. пед. наук. – М., 2006.

Flesh matnning murakkablik darajasini quyidagi formula orqali aniqlaydi:

FRE = 206.835-1.015 ([illegible]) – 84.6 ([illegible])

Ma'lumki, ingliz tilining ma'lumotlilik darajasi boshqa tillarga nisbatan yuqori. Masalan, rus tilida bitilgan matn ingliz tilida yozilgan matnga nisbatan jumlalarning uzunligi, so'zlarning ko'p bo'g'inliligi va belgilarning ko'pligi bilan farqlanadi. Ya'ni ingliz tilidagi bir jumla rus tiliga tarjima qilinganda u taxminan 20 foizga kengayadi yoki aksincha, rus tilidagi bir jumla ingliz tiliga tarjima qilinganda uning hajmi 20%ga qisqaradi. Shundan kelib chiqib Flesh indeksi formulasi rus tilidagi matnga moslashtirilgan shaklda belgilangan. Rus tilida o'rtacha gap uzunligi ingliz tilidan kaltaroq (artikl va yordamchi fe'llar kamroq ishlatilishi hisobiga), o'rtacha so'z uzunligi esa uzunroq bo'lganligi sababli, rus tilidagi matnning maxsus o'lchov versiyasini ishlab chiqish uchun ingliz tilidagi matnlar va ularning tarjimalari uchun olingan indekslar taqqoslanib, koeffitsentni aniqlashga urinib ko'rilgan.

Flesh indeksining rus tiliga moslashtirilgan holati quyidagi shaklda belgilangan:

FRE = 206.835-1.3 ([illegible]) – 60.1([illegible])

Flesh indeksini o'zbek tilidagi matnlar uchun tatbiq etishda uni ingliz tili uchun ishlab chiqilganligini inobatga olish lozim. Har bir tilning o'ziga xos grammatik qurilishi bo'lib, ingliz tili uchun yaratilgan oson o'qish indeksini o'zbek tiliga tadbiq qilishda tillarning tuzilishini solishtirib ko'rish to'g'ri bo'ladi. Ingliz tili – analitik til. Analitik tillarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda grammatik ma'no so'zlarning o'rni va yordamchi so'zlar asosida tushuniladi. O'zbek tili esa sintetik til hisoblanadi. Unda grammatik ma'no qo'shimchalar yordamida ifodalanadi. Bir xil matnlarning ingliz tili va o'zbek tilidagi tarjimalari solishtirilganda, ma'lum axborotni berishda o'zbek tilidagi matn ingliz tiliga qaraganda kengroq (yoyiqroq) ekanligi kuzatildi. O'zbek tilida o'rtacha gap uzunligi ingliz tilidan kaltaroq, o'rtacha so'z uzunligi esa uzunroq. Uchta bir xil mazmundagi, lekin turli: o'zbek, rus, ingliz tilidagi matnlarni solishtirilganda o'zbek tilida gap uzunligi ham rus tili, ingliz tiliga qaraganda qisqa, so'z uzunligi esa uzun ekanligi kuzatildi. Shu sabab, Flesh indeksini o'zbek tilidagi matnlarga tatbiq etishda oradagi farqni taxminan 30% deb olish mumkin.

O'zbek tilidagi matnning maxsus o'lchov versiyasini ishlab chiqish uchun ingliz, rus tilidagi matnlar va ularning tarjimalari uchun olingan indekslar taqqoslanib, koeffitsentni aniqlashga urinib ko'rildi.

Flesh indeksining dastlabki o'zbek tiliga moslashtirilgan holati quyidagi shaklda:

$$FRE = 206.835 - 0.7105\left(\frac{\text{all syllables}}{\text{all words}}\right) - 59.02\left(\frac{\text{all sentences}}{\text{all words}}\right)$$

tavsiya qilingan.

O'qishlilik indeksining ikki shakli mavjud bo'lib, biri Flesh indeksi, ikkinchisi Flesh-Kinkeyd indeksi deb nomlanadi. Bu indekslarning birinchisi – Flesh indeksi matnning o'qishliligi darajasini ko'rsatsa, ikkinchisi – Flesh-Kinkeyd indeksidan maktab o'quvchisining imtihonda beriladigan matnlarni o'zlashtirishdagi bilimlik darajasini aniqlash uchun foydalaniladi. Maktab testi uchun Flesh-Kinkeyd formulasi:

$$0{,}39 \times ASL + 11{,}8 \times ASW - 15{,}59^{1}$$

Fleshning matnlar o'qishlililigi darajasini aniqlovchi formulasi "FRE=206.835(1.015×ASL)–(84.6×ASW)"dagi FRES (ingliz tilida – Flesch Reading Ease Scale) – Flesh indeksining daraja ko'rsatkichi (shkalasi); ASL(ingdiz tilida – average sentence length)–so'zlarning ajratib olingan jumladagi o'rtacha soni (gapning uzunligi)ni; ASW (ingliz tilida – average number of syllablesper word) – bo'g'inlarning so'zdagi o'rtacha sonini ifodalaydi. Mazkur formulaga solish uchun ma'lum mavzudagi matndan 100 so'zdan iborat parcha ajratib olinadi. Avval shu 100 so'z nechta gapda ishtirok etganligi aniqlanadi. So'ngra parchadagi bo'g'inlar sanalib 100ga bo'linadi. Shunda parchadagi so'zlarning o'rtacha uzunligi kelib chiqadi. Olingan natija formulaga qo'yiladi va FRES daraja ko'rsatkichi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar kelib chiqadi:

100 – juda oson o'qiladi. Gapning o'rtacha uzunligi 12 va undan kamroq so'zlardan iborat. Ikkitadan ortiq bo'g'inli so'zlar yo'q;

65 – oson o'qiladi. Gapning o'rtacha uzunligi 15dan 20gacha so'zni tashkil etadi. So'zlar o'rtacha 2 bo'g'indan iborat;

30 – o'qish biroz murakkab. Gaplarda 25tagacha so'z uchraydi. Odatda 2 bo'g'inli so'zlardan iborat so'zlar tanlanadi;

[1] http://shadiff.com/2015/03/20/matnda-uslubiy-xatolarni-flesh-kinkeyda-tekshirish/

0 – o'qish juda murakkab. O'rtacha bitta gapda 37 so'z mavjud. So'zlar o'rtacha 2tadan ko'p bo'g'indan iborat.

Ingliz tili uchun 90–100 qiymati boshlang'ich maktab o'quvchilariga mo'ljallangan; 60–70 qiymati maktab bitiruvchilari o'qishi mumkin bo'lgan matn; 0–30 qiymati esa oliy ma'lumotli odamlar uchun mo'ljallangan.

Har qanday tildagi matnlarning o'qishlilik indeksi ko'rsatkichi quyidagicha shaklda bo'lishi mumkin:

Indeks	Osonlik darajasi	Ta'lim bosqichi
90–100	juda yuqori	5-sinf
80–90	yuqori	6-sinf
70–80	o'rtadan yuqori	7-sinf
60–70	o'rta	8–9-sinf
30–50	o'rtadan quyi	10–12-sinf
0–30	juda quyi	OTM bitiruvchisi

So'zni haddan ziyod, o'rinli-o'rinsiz ishlataverish, ortiqcha tafsilotlarga berilish o'quvchini chalg'itadi, matnda ilgari surilgan asosiy fikrni anglab olishga xalaqit beradi. Matnlarning oson o'qilishi faqat so'zlarning uzun yoki qisqaligi, gapning sintaktik qurilishi bilangina emas, mavhumlik darajasi, anglashning yengilligi bilan ham o'lchanadi. Shuningdek, lingvistik jihatdan matnning oson o'qilishini ta'minlashda matnlarni jo'nlashtirib yubormasdan, o'quvchilarning so'z boyligini oshirishni ham ko'zda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi. Lekin matnning murakkabligi har qanday yaxshi niyatda berilayotgan ma'lumotni o'quvchi tomonidan qabul qilinmasligiga, anglanmasligiga olib kelishi ham mumkin. Bu o'quv mashg'ulotidan kutilgan samaradorlikka xizmat qilmaydi.

Flesh indeksi talablari bo'yicha tanlangan o'quv materiali adabiyot ta'limi uchun yanada samarali xizmat qilishi uchun unga pedagogik yondashuv talab etiladi. Ya'ni yozuvchi mahorati, badiiy so'z vositasida o'quvchiga ta'sir qilish o'rinlariga yo'naltirish lozim bo'ladi[1].

[1] Тўлаганов М. 5–7-синфлар адабиётдан ўзлаштиришлари ўқув материалларини танлашга оид методик тавсиялар. Назарда тутилган диссертация (PhD) ... автореф. – Самарқанд, 2020. – 140–148-бетлар.

Xulosa qilib aytganda, "Adabiyot" darsliklarida taqdim etiladigan o'quv materiallarini dunyo mezonlariga moslashtirish va adabiyot darslarida olinadigan natijalarni dunyoviy tadqiqot-dasturlari talablariga javob bera oladigan darajaga ko'tarishda metodist-mutaxassislar va adabiyot o'qituvchilari burchlidirlar.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Odil Burgutshoh va «Zamburug'» laqabli josus haqida ertak

Bolalrga bag'ishlangan asarlari bilan mashhur bo'lgan shoir Anvar Obidjonning 5-sinf o'quvchilariga taqdim etilgan «Odil Burgutshoh va «Zamburug'» laqabli josus haqida ertak»[1] asari o'ta jiddiy va hatto fojeiy yo'nalishi bilan uning ijodida o'zgacha xususiyatga ega bo'lgan bitikdir. Bu she'riy ertakni o'rganishga dasturda uch soat ajratilgan. Uning dasturiy talqini, aynida

O'qituvchi yangi darsga tayyorlanish jarayonida ertakni to'liq o'qib chiqishi, ertak maznuni yuzasidan quyida tavsiya etilgan savol-topshiriqlar bilan avval o'zi ishlab chiqishi zarur. Mutolaa jarayonida Chaqmoq va Quyoshga xos bo'lgan go'zal insoniy sifatlar, Shabnam tabiatiga, husniga tarovat bag'ishlovchi fazilatlar, Burgutshohga xos bo'lgan vazminlik va donolik, Shunqorning sifatlariga o'quvchilar diqqati tortiladi. Popishakning sotqinligi, ustomonligi, ayyorligi, josusligining oqibatlari ifodalangan o'rinlar o'quvchi e'tiboridan chetda qolmasligi choralari belgilab olinishi lozim. Ya'ni bu o'rinlar mutolaa jarayonida asar matnida belgilab, ajratib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ertak uyda maxsus tayyorgarlikdan so'ng darsda salmoqli, ertakchilarga xos bosiq ovoz bilan ifodali o'qiladi.

Qahramonlar tabiatining originalligi, Chaqmoq, Quyosh, Shabnam timsollarining ruhan balandligi, voqealar rivojining favquloddaligi, ertak tilining sodda va rayonligi uning badiiy jihatdan yuksakligini

11-L10
6 935675 318861

Sofdil Quyoshga" – tarzidagi to'xtami sababini matnga tayanib izohlashga urinib ko'ring.

5. Asarda Chaqmoqning fazilatlari juda chiroyli tasvirlangan: "*To'ng'ich farzandi O'xshar xuddi tug'ma askarga. Chaqmoq boshliq bo'lsa lashkarga. Yov buzolmas bu yurtning tinchin...*". Siz ham shohning qaroriga, taxtni kichik o'g'liga topshirish borasidagi fikriga qo'shilasizmi? Nega? Fikringizni asoslang.

6. Ertakda Shabnamning o'qishi haqida: "*U xorijdan kelgan muallim – Popishakdan olardi ta'lim*", - deya ta'kidlanishida biror ma'no bor deb o'ylaysizmi?

7. Asardagi Shabnamning aka-ukalarga munosabati juda nozik ifodalangan o'rinlarga e'tibor qiling: "*Qilar edi Chaqmoqni hurmat. U ham barcha qizlardek albat. Botirlarga qolardi qoyil. Ammo ko'ngli edi ja moyil Yoqimtoy va dilkash Quyoshga*" misralari zamiridagi azobni ilg'ash va tushuntirishga urinib ko'ring.

8. Asardan Quyoshning qizga bo'lgan munosabati aks etgan

15. Asardan yanga va ma'shuqa Shabnam bilan qayni va oshiq Quyosh uchrashgandagi g'oyat nozik va qaltis holat tasviri berilgan o'rinlarni topib, sharhlang. Vaziyatga ikki xil nazar bilan yondashing.

16. Popishak Shabnamda kuyovning taxtni egallashiga ishtiyoq uyg'otish uchun qilgan harakatlari qizga qanday ta'sir qilganligi, kelinchak yuragidagi bezovta tuyg'ular tasvirini matndan toping va izohlang. Munosabatingizni bildiring.

17. Shabnamning taxtni egallash haqidagi bezovta savollariga Chaqmoqning munosabatiga e'tibor qiling. Uning fe'li haqida shu tasvirlarga tayanib fikr bildiring.

18. Ayni shu o'rinda: "*Faxrlandi vatanparvar erdan Va ko'ngli ham yorishdi birdan*" tarzidagi ifoda beriladi. U kim haqda? Bu, Sizningcha, nimadan dalolat beradi?

19. Ertakda Bulduruqning o'limi tasvirlangach: "*O, malayning qismati og'ir!*" - deya qilingan nido sababini toping. Munosabat bildiring.

27. Asar matnidagi: "*Menga ma'lum zindonbon holi, Imikidan yomon ahvoli... - Senukidan lekin durustroq' - Deb g'udrandi soqchi Qarqunoq*" dialogidagi suhbatdoshlarni aniqlang va har birini tavsiflang.

28. Matndagi: "*Qolib ketdi uyida yolg'iz Xotini - tul, Bolasi - sag'ir... O, sotqinning qismati og'ir!*" tasviri kimga tegishli deb o'ylaysiz?

29. Popishak umrining ertakdagiday nihoyalanishi Sizni ishontirdimi? "*O, josusning qismati og'ir!*" - nidosi kimga qaratilgan?

30. Quyoshning qabri ustidagi lola timsoliga e'tibor qiling. Unda nimaga ishora qilinayotganligi haqida o'ylab ko'ring.

31. Ertak nihoyasidagi: "*Yurt tarixin supurmasmi yel? O'zligini saqlolgaymi el? Buzilmasmi ko'hna qasrlar? Toptalmasmi qutlug' qabrlar Va undagi o'ychan lolalar?*"- singari o'tli savollar kimlarga qaratilgan deb o'ylaysiz? Siz ularga javob bera olasizmi?

32. Asarning: "*... Ertak tamom. Xayr, bolalar!*" - shaklida tugallanganligi haqida jiddiyroq o'ylang va qarashlaringizni ayting. Bu ikki jumla sizga qanday ta'sir qildi?

Asarning didaktik tahliliga kirishishdan oldin ertak haqida o'quvchilarning fikrini so'rash ma'qulroq bo'lar!? Ularning orasidan bitta-ikkitasi fikr aytsa, munosabat bildirsa – kifoya. So'ng navbati bilan yuqoridagi savollar o'rtaga tashlanib, birgalikda asarning mohiyatiga kirib boraveriladi. Dastlabki ikki savolda ikkala shohning – Burgutshoh va Qarchig'ayshohning mamlakatlari taqqoslashga undaladi. O'quvchilar aqllari yetguncha, matnga asoslanib, ikki yurtni taqqoslaydilar. Busavollar mazmuni asosida turlicha fikrlar bayon qilinadi. Uchinchi savolga javob berishdan oldin asarning unga daxldor bo'lgan qismiga o'quvchilarning e'tibori tortiladi. Avval o'quvchilar bilan birgalikda «Unda» deyilganda qaysi yurt va «Bunda» deyilganda qaysi mamlakat haqida gap ketayotganiga aniqlik kiritilib olinadi. So'ng ularning rahbarlari solishtiriladi, mulohaza yuritiladi, munosabat bildiriladi.

Bo'lib yaxshi ishlarga hozir,
***Bunda** To'ti Burgutga vazir.*
*Qarg'a **unda** kirdi ishboshi –*
Qarchig'ayning o'ng qo'l sirdoshi.
***Bunda** Lochin qo'shinga rahbar,*
Sho'x Qirg'iylar – eng sara lashkar.

*Qo'mondondir **unda** surbet Sor,*
Och Quzg'unlar hamlaga tayyor.
*Qizilishton **bunda** yasovul,*
***Unda** esa, Qorayaloq – qul,*
***Bunda** Bulbul qilganda xonish.*
***Unda** qahqah urardi Boyqush.*
***Bunda** Tovus etganda xirom,*
Kakliklarda jo'shardi ilhom.
*Eshilgan choq **unda** Tustovuq,*
Termulardi Sa'valar sovuq.
*So'fito'rg'ay to'q edi **bunda**,*
*Kakku sarqit izlardi **unda**.*

Burgutshoh atrofiga jamlanganlar: To'ti, Lochin, Bulbul, Qizilishton, Tovus, So'fito'rg'ay, Shunqor, Lochin ham shohning o'zi singari haqgo'y, jasur, oqil kishilar timsoli. Qarchig'ayshoh xizmatchilari: Qarg'a, Sor, Quzg'un, Qorayaloq, Boyqush, Tustovuq, Sa'va, Kakkular o'z shohlarining fe'l-atvoriga yarasha tanlangan. Bu qushlarning vazifalari ham nomlariga yarasha. O'quvchilar nomlari sanalgan qushlar: Burgut, Lochin, Bulbul, Tovus, Qarg'a, Quzg'un, Boyqush kabilarga ularning tabiiy parrandalik sifat-xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zlari bilganlaricha tasnif bersalar yaxshi pedagogik natijaga erishilishi mumkin.

Asar matni yuzasidan taqdim etilgan: «Asarda Chaqmoqning fazilatlari juda chiroyli tasvirlangan: *"To'ng'ich farzandi O'xshar xuddi tug'ma askarga. Chaqmoq boshliq bo'lsa lashkarga, Yov buzolmas bu yurtning tinchin..."*. Siz ham shohning qaroriga qo'shilasizmi? Nega?» tarzidagi savol o'quvchilarni ancha o'ylantiradi. Bu savolga javob topish uchun o'quvchi Chaqmoqning xarakterini xayolan tahlil qilishi va undagi lashkarboshilikka xos bo'lgan xususiyatlar tasvirlangan o'rinlarni usar matnidan topishi, shularga tayanib fikrini asoslashi kerak bo'ladi. Chaqmoqning chinakam siymosi Shabnam bilan suhbatida o'z aksini topgan. O'quvchilar mana shu suhbatni o'z fikrlarining isboti sifatida taqdim eta bilsalar, buni o'qituvchining adabiy ta'lim jarayonida erishayotgan yutuqlari belgisi deyish mumkin bo'ladi.

Navbatdagi savol-topshiriqlar ko'magida o'quvchilar Shabnamning xarakterini, uning aka-ukalarga munosabatini, Chaqmoq va Quyoshning Shabnamga munosabatini tahlil qiladilar, fikrlashadilar,

Shabnamning Chaqmoqqa turmushga chiqishining sabalarini qidirib topishga, mantiqan asoslashga harakat qilsalar, foydali bo'ladi. Xorijdan kelgan muallim – Popishakning Chaqmoq taxtga voris bo'lishi lozimligi haqidagi qutquli gaplariga javobi Shabnamning oqila kelinchakligidan dalolat beradi. Lekin o'quvchilarning hammasi ham qizning donoligi va bosiqligi aks etgan o'rinlarni darrov topa olmasliklari mumkin. Lekin bundan o'qituvchi umidsizlikka tushmasligi lozim. Zero bilmaslik bilolmaslik degani emas. Yaxshi va to'g'ri boshqarilgan shaxs, albatta, ko'zlagan marrasiga yetmay qolmaydi. O'quvchilarning badiiy didi va estetik nigohi ham asardan-asarga o'sib boraveradi. Agar tarbiyalanuvchilar to'g'ri yo'naltirilsalar, ular asardagi eng nozik o'rinlargacha payqay oladilar.

Shu bois o'quvchilarning e'tibori atay quyidagi satrlarga tortilgani ma'qul bo'ladi:

Shohga izhor qilsa-da ixlos,
Yosh kelinchak gezardi bir oz.

Unda Shabnamning tirik odamligi, buning ustiga, ayol, ayol bo'lganda ham, malikalikka arziydigan kelinchak ekanligi juda nozik tasvirlangan. O'quvchilar bu misralar zamiridagi haqiqatni anglashga urinishlari joiz. Ular ayolni «gezarish»ga majbur qilgan narsa nimaligini tushunishga urinib ko'rishsin. Ayni vaqtda, taxtga merosxo'r bo'lmaganligiga Chaqmoqning *«miyig'ida jilmayishi»* yigitning qanday odamligini ko'rsatadigan belgi ekanligi ham o'quvchilar nazaridan chetda qolmasligi lozim. O'quvchilar shahzodaning quyidagi so'zlari zamirida uning tabiatida qanday yashirin sifatlar ifodalanganligini anglashga yo'naltirilishi kerak:

Nega kerak o'zi bizga toj?
Topolsaydim agar men iloj,
Turmas edim saroyda bir kun..
... Qo'mondon – eng kerakli nozir,
Lashkar turar menga muntazir.
Yurtni yovdan saqlasam omon,
Ayt-chi,
Buning nimasi yomon?
Bu sharafli,
Faxrli behad...»

Agarda Shabnamning [illegible] intilishdan yashiringaniga ishora bor. Chunki ertakda tasvirlanishicha umr yo'ldoshining toj-taxt mashmashalaridan balandligini, jasurligini payqagan kelinchak holati shunday tasvirlanadi:

Shabnam momman boqdi yoriga,
Siyaqing'i,
Ifitxoriga.
Faxrlandi yurtparvar erdan
Va ko'ngli ham yorishdi birdan.

She'riy ertakda bittagina g'iybatchi, tuhmatkash yomon odam, yolg'izgina josus, butun bir elni parokanda qilishi, butun boshli mamlakat hayotini izdan chiqarib, chegarasiz falokatlarga sabab bo'lishi mumkinligi mahorat bilan tasvirlanganligini o'quvchilar his etishlari lozim. Buning uchun ular matnni to'liq va puxta idrok qilishlari, asarning eng nozik, ishoralarga boy jihatlarini ilg'ashga yo'naltirilishlari zarur bo'ladi. Lekin o'quvchilarning e'tibori darhol qissadan hissa chiqarishga qaratilmasligi, balki tasvir yo'siniga, odamlarning – aybdorning ham, jabrdiydalarning ham tuyg'ularini his etishga, kechinmalarini anglashga yo'naltirilishi kerak.

Quyoshning fojeali o'limi, Shabnamning qorila deb gumon qilinishi va eri tomonidan bo'g'ib tashlanishi, Chaqmoqning o'zini qasrdan otib halok bo'lishga urinishi, Bulduruq hamda soqchining sirli o'limi kabi ko'ngilsizliklarning halqa singari ulanib ketishi o'quvchilar diqqati bir nuqtaga yig'ilishini, faqat voqealarni idrok etibgina qolmay, ularning sababi haqida o'ylashni taqozo etadi. O'qituvchi o'quvchilarni asardan zavq oladigan, qahramonlarga tuyg'udosh bo'ladigan holatga keltirgandagina to'g'ri pedagogik yo'lni tanlagan bo'ladi.

O'qituvchi tarbiyalanuvchialarini adibning tasvirlash mahorati bilan tanishtirmoqchi bo'lganda, ifodadagi nazokatni, aytmasdan ishora qilish orqali ko'p narsani anglata olish qobiliyatini ilg'ashga e'tibor qaratishi kerak bo'ladi. Chunonchi, ertakda Popishak Burgutshohning sadoqatli, halol va jonkuyar Shunqordan gumonsirashini xohlab, o'ldirilgan soqchi oldiga faqat ugina bora olishini «go'yo shunchaki» aytadi. O'quvchilar ana shu «shunchaki» gapga e'tibor qaratishlari zarur. Boshqa bir o'rinda Popishak Chaqmoq emas Quyoshning taxt vorisi etib tayinlanganligini ham Shabnamga «shunchaki» gapiradi. Ana shu «shunchaki»larga e'tibor berib, ularning sababi to'g'risida o'ylagan odamgina mohiyatga yetib bora oladi. Ko'rib o'rganmagan odam ochiq ko'z bilan ham ko'r bo'lib yuraverishi mumkin.

O‘quvchilarning qalbi so‘qir bo‘lib qolmasligi uchun ularni so‘zdan ta’sirlanadigan, uning yashirin ma’nolarini payqay oladigan tarzda tarbiyalash lozim. Adabiyot bu borada tengsiz imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quv predmetidir.

Yovuz odam qanchalik makkor, ustomon, aqlli va ayyor bo‘lmasin, hayotning adolatidan qochib qutula olmaydi. Asar muallifi ertakda inson qismatining ana shu posangisini ustalik bilan hisobga ola bilgan. «Zamburug‘» qanchalar tadbirkor bo‘lmasin: *«O, josusning qismati og‘ir!»* nidosiga munosib taqdir egasi bo‘ladi. Uni o‘z yomonligi, insofsizligi halok etdi. U adolat, imonu haqiqatga emas, balki aldovu zo‘ravonlikka suyanib ish ko‘rgani uchun ham ayni xizmat qilgani kimsalar tomonidan yo‘q qilindi. Garchi Popishakka jazo berilishi asarda bir qadar jo‘nroq, sun’iyroq asoslangan bo‘lsa-da, o‘quvchilar diqqatini adolatli jazoning muqarrarligiga qaratish lozim bo‘ladi.

O‘quvchilarning nazari o‘tkir, asl badiiy asarda birorta detal ham bekorga tasvirlanmasligidan xabardor bo‘lsa, tagma’nolarni kashf etish, ishoralarni payqash osonroq kechadi. Ertakdagi:

Bor degandek hayotda haqqim,
Go‘yo ko‘kka qilardi nola
Go‘r ustidan chiqqan yosh lola ...

satrlari o‘qilganda o‘quvchi gap shunchaki bitta lolaning go‘rdan ko‘karib chiqqani haqida ketayotgan ekan-da deb qo‘yishi ham, uni ezgulikning o‘lmasligi, Quyoshning ruhi tiriklar bilan yonma-yon yurganligi ramzi deb ham xulosa chiqarishi mumkin. Bu faqat badiiy tarbiyaning qanchalik yaxshi berilishiga bog‘liq. Yuksak saviyada tashkil etilgan estetik tarbiya baland ma’naviy-axloqiy natijalarga ham olib keladi. Shunday o‘quvchigina hayotga to‘ymagan, qisqagina umrida mehr-muhabbat qurshovida bo‘lgan, o‘zi ham atrofidagilarga faqat ezgulik, mehr va muhabbat ulashgan oqil yigit Quyoshning ruhi bir lola timsolida tiriklarga umidvor boqib tebranmoqda, deb o‘ylay oladi. Ma’lumki, shunday xayol qiladigan o‘quvchini shakllantirish har qanday pedagogika va metodika uchun oliy maqsaddir.

O‘quvchilarning ham, o‘qituvchining ham e’tibori asarning yakunidagi kattagina ta’kidlovchi qismni to‘liq anglab olishga qaratilsa, tarbiyaviy maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Chaqmoq yurtga bo‘lar bir kun shoh,
Qanday kunlar kelgay o‘shanda?
O‘t ketmasmi ushbu gulshanga?

Saqlanarmi taxtda odillik?
Avj olmasmi qirg‘in, qotillik?
Mo‘l bo‘lgaymi sandiqlarda don?
O‘ylolgaymi tanlar yosh xoqon
Eldoshlarin taqdirin bedor?
Boqolgaymi yovlarga hushyor?
Yurt tarixin supurmasmi yel?
O‘zligini saqlolgaymi el?
Buzilmasmi ko‘hna qasrlar?
Toptolmasmi qutlug‘ qabrlar
Va undagi o‘ychan lolalar?
Ertak tamom. xayr, o‘quvchilar...

Muallif tomonidan qo‘yilgan bu savollar Burgutsholning ham, o‘quvchining ham ko‘nglidan o‘tishi mumkin bo‘lgan so‘rovlardir. O‘quvchilar bu savollarning har biriga alohida to‘xtalgani, Chaqmoqning xarakteridan, imkoniyatlaridan kelib chiqib, javob bergani ma’qul. Savollarga javob topish uchun o‘quvchilar ancha o‘ylanadilar, izlanadilar, mulohaza yuritadilar, munosabat bildiradilar. Adabiy ta’limning vazifasi ham shu-da! O‘qituvchi, ayniqsa, ertakning so‘nggi misrasiga o‘quvchilar e’tiborini alohida qaratishi kerak. Bu qo‘sha-qo‘sha savollar berila boshlagandayoq ertak tugab, hayot boshlangan edi. Hayot esa ertak emas. Unda hamisha ham murodu maqsadga yetaverilmaydi. Har bitta o‘quvchi yuqoridagi savollarga o‘zining javobini topgandagina adabiyot darsi samarali o‘tgan deyish mumkin.

Ertakdan yodlash uchun parcha tanlash huquqi o‘quvchilarning o‘zlariga berilgani ma’qul. Asarning qaysi bo‘lagini yod olishni har bir o‘quvchi o‘zi belgilasin. Ixtiyoriy ravishda yodlasin. Bu narsa o‘quvchilarni erkinlikka, mustaqillikka o‘rgatadi. Mustaqil odamsiz esa mustaqil mamlakat bo‘lmaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. IEA xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning milliy adabiy ta’limdagi ahamiyatlilik darajasi borasida o‘zaro fikrlashing. Ular milliy adabiy ta’lim amaliyotida qanchalik ahamiyatli?

2. IEA xalqaro assotsiatsiyasi olib borayotgan tadqiqot ishlarini bir-biri bilan taqqoslang. Har birining ahamiyatlilik darajasini baholang.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha PIRLS tadqiqotining talablarini yuqori sinflar adabiy ta'limida ham qo'llash mumkinmi? Fikringizni asoslang.

4. Nima deb o'ylaysiz, PIRLSning 2021 yilda amalga oshiriladigan tadqiqot ishlarida milliy maktablarning o'quvchilari qanchalik darajada ishtirok etishlari mumkin? Nega shunday deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.

5. O'ylab ko'ringchi, o'zbek o'quvchilarining tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishi bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish borasida PIRLS tadqiqotida muvaffaqiyatli ishtiroki nimcha foizni tashkil etishi mumkin. Sizningcha? Nega shunday deb o'ylaysiz?

6. PIRLS va EPIRLSning bir-biridan farqi nimada? O'zbekiston ta'lim tizimida bugun ularning qaysi biridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, nima deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.

7. O'quvchining matn bilan ishlashi jarayonida "*o'quvchi va matn orasidagi muloqot*"ni qanday tushundingiz? Fikringizni asoslang.

8. O'qish jarayoni bilan bog'liq "*badiiy tajriba orttirish*" va "*axborot olish va undan foydalanish uchun o'qish*" tushunchalarini qanday anglaganingizni o'z so'zlaringiz bilan sharhlab bering.

9. O'qish maqsadlarining tushunish jarayoni bilan bog'liq: «*diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish; to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish; g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish va komment va matnning elementlarini baholash va tanqid qilish*» tarzidagi to'rt maqsadni sharhlab bering. Ularni qanday tushunganingizni misollar bilan asoslang.

10. PIRLS matnlari uchun aniqlik va izchillik mezoni bo'lgan talablarga tayanib matn tanlang. Tanlagan matningizning yuqoridagi talablarga qanchalik javob berishini asoslang.

11. O'zingizni PIRLS mutaxassisi sifatida tasavvur qiling. Xuddi shunday talablarni yuqori sinflar "Adabiyot" darsligidan ajratib oling. Ularning PIRLS talablariga javob berish darajasini aniqlang.

12. PISA va PIRLS tadqiqotlarining xususiyatlarini taqqoslang. O'xshash va farqli jihatlarni, bularning asoslarini aniqlang. Munosabat bildiring.

13. PISA tadqiqotiga xos bo'lgan har bir yo'nalish talablarini alohida tahlilga toring. Auditoriyada birgalikda muhokama qiling. Fikrlashing.

14. PISA tadqiqotining bevosita adabiy ta'lim bilan bog'liq jihatlarini ajratib oling. Ularga javob berishga urinib ko'ring. O'zingizni sinang.

15. Nima deb o'ylaysiz, o'zbekistonlik o'n besh yoshlilar bu talablarga javob bera olishi mumkinmi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

16. "Flash index"ning yetakchi xususiyatlarini aniqlang. Ularni biror matn misolida o'zlashtirib oling.

17. Maktab "Adabiyot" darsliklaridagi va qo'lingizdagi mazkur darslik materiallarini Flesh mezoniga solib ko'ring. Ularning o'qishlilik darajasini belgilang.

18. Avval "Odil Burgutshoh..." ertagi matni bilan tanishing. Uni Fleshning o'qishlilik indeksiga solib tadqiqot ishlari olib boring. Matnning o'qishlilik darajasini belgilang.

19. «Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi» ruknida ertak mazmuni yuzasidan taqdim etilgan savol va topshiriqlar ustida ishlang. Ularga javob bering. Munosabat bildiring.

20. Ertakning oxirgi bandida qo'yilgan savollarga javob bering. Fikringizni asoslang.

21. "Dunyo talablari va milliy adabiy ta'lim" mavzusida tahliliy maqola tayyorlang. (2021 yil 2 aprel. Soat 12:45)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдусаматов Ў. Драма назарияси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти., 2000, 210 бет.
2. Абдукаримов Х. Дарс тахлили ва унинг методикаси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. 276 б.
3. Авлоний А. Танланган асарлар. Икки жилдлик. 2-жилд. – Т.: Маънавият, 1998. –304 б.
4. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлок. – Т.: Ўқитувчи. 1992. –160 б.
5. Айзерман Л. Современный урок литературы и проблемное преподавание. – М.: Просвещение, 1969. – 222 с.
6. Айзерман Л. С. Размышляя над прочитанным. || Литература в школе. -2000. -6. – С. 64-72.
7. Азимов Э. Г., Хукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: ИКАР, 2009. 448 с.
8. Ахмедов К. 10-синфда Ҳамза Ҳакимзоданинг «Бой ила хизматчи» драмасини ўрганиш. Адабиёт ўқитувчилари учун методик кўлланма. – Т.: Ўрта ва олий мактаб, 1963. –98 б.
9. Бабанский Ю. К. Методы обучения в обхеобразовательной школе. – М.: Просвещение, 1985. – 208 с.
10. Бехбудий. Танланган асарлар. – Т: Маънавият. 1977. –232 б.
11. Бобоев Т. Олий ўқув юртларида ўзбек шеърияти поэтикаси асосларини ўрганиш. Пед. фан. доктори ...дисс. автореферати. – Т., 1998. –54б.
12. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1991. – 93 с.
13. Вяткин Л. Г. Методика проблемного обучения. – Саратов: Университет, 1971. – 37 с.
14. Голубков В. В. Методика преподавания литературы. – М.: Госучпедгиз, 1952. – 464 с.
15. Долимов С., Убайдуллаев Ҳ. Адабий ўқиш методикаси. Адабиёт ўқитувчилари ва олий пед. институтларнинг студентлари учун кўлланма. – Т.: Ўздавўқувпеднашр, 1952. –290 б.
16. Долимов С. 5-синфда Айний ва Қаҳҳор ҳикояларини ўрганиш хакида. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. –Т.: Ўздавўқувпеднашр, 1953. –19 б.
17. Долимов С. 5-синф «Ватан адабиёти» учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1974. – 104 б.
18. Долимов С., Убайдуллаев Ҳ., Ахмедов К. Адабиёт ўқитиш методикаси. Университетларнинг филология факултетлари ва педагогика институтларнинг тил ва адабиёт факултетлари учун кўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1967. –448 б.
19. Долимов С. 8-синф «Ўзбек адабиёти тарихи» дарслиги учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1980. –144 б.
20. Зуннунов А. Юкори синфларда Ғ. Ғулом ижодини ўрганиш. –Т.: Ўрта ва олий мактаб, 1961. –76 б.
21. Зуннунов А. Мактабда Гулхаий ва Мукимий ижодини ўрганиш. Ўқитувчилар учун мет. кўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1965.– 69 б.
22. Зуннунов А. 5-10-синфларда адабий-назарий тушунчаларни ўрганиш. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1967. –142 б.
23. Зуннунов А. 7-синф «Ватан адабиёти» дарслик-хрестоматияси учун кўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1975. –120 б.
24. Зуннунов А. Ўзбек адабиёти методикаси тарихидан очерклар. Ўқитувчилар учун кўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1980. –196 б.
25. Зуннунов А., Алиев А. Адабиётни бошка гуманитар фанлар билан боглаб ўрганиш. Ўқитувчилар учун кўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1982. –72 б.
26. Зуннунов А. Эсонов Ж. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1984. –200 б.
27. Зуннунов А. Бадиий асар тахлили методикаси: Ўқитувчилар учун кўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1989. –120 б.
28. Зуннунов А. ва бошк. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. –333 б.
29. Зуннунов А., Нурматова М. Ўрта мактабда иншо. – Т.: ТВПХМОИ, 1992. –44 б.
30. Зуннунов А., Ҳотамов Н., Хайруллаев М. ва бошк. Ўзбек педагогикаси тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, 2001. –291 б.
31. Ибрагимов Р. Муаммоли дарс боскичлари. // Халк таълими. -1998. -3. –Б. 76-78.

32. Исматов С. 8-10-синфларда иншо ва унинг тахлили. \\Конференция материаллари. – Т., 1957. –25-29-б.

33. Исматов С. Мактабда Абдулла Қаххорнинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш. Адабиёт ўқитувчилари учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1969. –112 б.

34. Исматов С. Ҳамза ижодини ўрганиш процессида эстетик тарбия. \\Мактабда адабиёт ўқитиш. – Т., 1975.– 13 –23-б.

35. Йўлдошев Қ. ва бошк. Адабиёт ўқитиш методикаси. Дастурий қўлланма. –Т.: РТМ, 1994. –49 б.

36. Йўлдошев Қ. Рауф Парфи ижодидан уч дарс. //Тил ва адабиёт таълими. –1994. -1. –Б. 14-18.

37. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. –152 б.

38. Йўлдошев Қ. Ўзликни таниш Оллоҳни танишдир. // Тафаккур. -1996. -4. –Б. 22-27.

39. Йўллошев Қ. Янгича педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. доктори... диссертация. – Т., 1997.–306 б.

40. Йўлдошев Қ. Ўқитувчи китоби. 7-синф «Ўзбек адабиёти» дарслик-мажмуаси учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1997. –232 б.

41. Йўлдошев Қ. ва бошк. Адабиёт. 6-синф учун дарслик-мажмуа. \ Қ. Йўлдошев, Қ. Ҳусанбоева, Н. Ғуломова. – Т.: Ўқитувчи. 1999. –352 б.

42. Йўллошев Қ. Адабиётшунослик надур? // Тафаккур. -2000. -3. –Б. 54-65.

43. Йўлдошев Қ., Қосимов Б. Адабиёт. 7-синф учун дарслик-мажмуа. – Т.: Ўқитувчи, 2000. –384 б.

44. Каримов Н. ва бошк. Ўзбек адабиёти. 11-синф учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1993. –350 б.

45. Каримов Н. ва бошк. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Университетлар ва педагогика институтлари бакалавр ихтисосини олувчилар учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1999. –544 б.

46. Каримов Н., Норматов У. Адабиёт. 5-синф учун дарслик-мажмуа. – Т.: Ўқитувчи, 1999. –352 б.

47. Каримова В. М., Сунпатова Р. Мустақил фикрлаш. Академик лицейлар ва касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлланма. – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, 2000. – 112 б.

48. Каримова В., Нишонова З. Мустақил ижодий фикрлаш ва

шахснинг ҳиссий, прогаий ва интеллектуал ҳислатлари орасидаги боғланиш. //Халқ таълими. 2001. - 3. –Б. 64-69.

49. Каттабеков А. ва бошк. Адабиёт. 8-синф учун дарслик-мажмуа. – Т.: Ўқитувчи. 2001. –448 б.

50. Келлиёров Р. Адабиёт дарслари самарадорлигини оширишнинг илмий-методик асослари (Ўқитувчи касбий-маънавий фазилатлари асосида). Пед. фан. номзоди ...лиес. – Т.: 2001. –138 б.

51. Кийикеўкмоқдаги йўловчи. Монография. (Қ.Йўлдош., К. Ҳусанбоева, М. Йўлдошева). – Т.: ЎзМЭ, 2014. 192 б.

52. Комил инсон ҳақида гўрт рисола. Форс тилидан Н. Комилов таржимаси. – Т.: Маънавият, 1997. –280 б.

53. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи. 1996. –272 б.

54. Комилов Н. Тасаввуф. Тавҳид асрори. 2-китоб. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1999. –208 б.

55. Костылев Ф. В. Учить по новому: нужны ли оценки-баллы. Книга для учителя. – М.: «Владос», 2000. – 104 с.

56. Кошифий Х. В. Футуватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. Форсчадан Н. Комилов таржимаси. – Т.: Халқ мероси, 1994. –112 б.

57. Кеензова Г. Ю. Оценочная деятельность учителя. Учебно-методическое пособие. – М.: Педагогическое общество России, 2000. – 121 с.

58. Кудрявцев В. Т. Внедрение причина проблемности в обучении. – М.: Высшая школа, 1998. – 96 с.

59. Кудрявцев В. Т. Проблемное обучение: истоки, сущность, перспективы. – М.: Знание, 1991. –79 с.

60. Кудряшов Н. И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы. – М.: Просвещение, 1981. –190 с.

61. Лесохина Л. Н. О проблемности урока литературы. //Литература в школе. 1965. - 6. –С. 3-11.

62. Лихачев А. Е. Воспитание и духовность. //Педагогика. - 2001. - 3. –С. 33-37.

63. Мадаев О. Иншо қандай ёзилади: Ўрта махсус ўқув юртларининг ўқитувчилари учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1991. –88 б.

64. Мадаев О. «Алпомиш» достонининг матнини ўрганиш

методикаси. – Т.: ТошДУ, 1998. –41 с.

65. Маранцман В.Г., Чирковская Т.В. Проблемное изучение литературного произведения в школе. – М.: Просвещение. 1977. – 206 с.

66. Маранцман В. Г. Биография писателя в системе эстетического васпитания школьников. – Москва: «Просвещение», 1965. 275 б.

67. Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустакил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. доктори ...дисс. автореф. – Т., 1998. –38 б.

68. Матжонов С. Мактабда адабиётдан мустакил ишлар. – Т.: "Ўкитувчи", 1996. 208 б.

69. Матжон С. Китоб ўкишни биласизми? – Т.:Ўкитувчи. 1993, 76 бет.

70. Матюшкин А. М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – М.: Педагогика, 1972. – 168 с.

71. Матюшкин А. М. Теоретические вопросы проблемного обучения. //Советская педагогика. 1971. - 7. – С. 38-48.

72. Махмутов М. И. Развитие познавательной активности и самостоятельности учащихся. – Казань: Татарское книжное издательство, 1963. – 80 с.

73. Махмутов М. И. Воспитывать интеллектуально активную личность. //Народное образование (Приложение к журналу). 1967. 4-6.

74. Махмутов М. И. Теория и практика проблемного обучения. – Казань: Татарское книжное издательство. 1972. – 552 с.

75. Махмутов М. И. Организация проблемного обучения. – М.: Просвещение, 1977. – 240с.

76. Махмутов М. И. Современный урок. – М.: Педагогика. 1985. – 84 с

77. Миркосимова М. М. Ўкувчиларда адабий тахлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. доктори ... Т., 1998. –38 б.

79. Монтень Мишель. Опыты. Избранные произведения в 3-х томах. Том 2. Пер. с фр. –Москва: «Педагогика», 1992. 560с.

80. Монтессори М. Дом ребёнка: Метод научной педагогики: Пер.с итал. –Гомель. 1993.

81. Мухаммаджонова Г. Дарсдан ташкари машгулотларда русийзабон ўкувчиларнинг ўзбекча нутқини ўстириш методикаси (5-9-синфлар мисолида). Пед.фан.ном.дисс. автореф. – Т.: 2003. - 151 б.

82. Нишонова З. Мустакил фикрлашга ўргатиш. //Бошланғич таълим. – 1999. – 3. 34-35-б.

83. Нишонова З. Мустакил фикр ривожланганлигининг психологик мезонлари. // Халк таълими. – 2001. – 3. –Б.64-69.

84. Нишонова З. Ижодий мустакил фикрни тарбиялашда ўкитувчининг ролини янада ошириш. // Таълим ва тарбия. -2001. - 1. –Б. 40-41.

85. Нишонова З., Кенжабаева К. Мустакил фикрни шакллантиришда ўкитувчи. // Халк таълими. -2003. -2. –Б.32-34.

86. Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Т.: Фан, 2007. – 215 б.

87. Ниёзметова Р. Ўзбек тили дарсларида янги ўзбек адабиётини ўкитиш масалалари. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2010. – 106 б.

88. Оконь В. Процесс обучения. \Перевод с полского. – Москва: Учпедгиз, 1962. – 172 с.

89. Оконь В. Основы проблемного обучения. – М.: Просвещение, 1968. –208 с.

90. Проблемное изучение литературы в школе. (Сборник статей). – Калининград: Книжное, 1969. – 145 с.

91. Развитие творческой активности школьников. – М.: Педагогика, 1991. – 147 с.

92. Рахимов С. Педагогические идеи Абу Али ибн Сино. Автореф. дисс... канд. пед. наук. – Т., 1964. –30 с.

93. Рахимов С. Абу Али ибн Сино таълим-тарбия хакида. – Т.: Ўкитувчи, 1967. –199 б. х. Перевод с итальянского

асар. У. Ҳамдам таржимаси. 2-нашр. – Т.: Меҳнат, 2001. –160 б.

96. Руссо Ж. Ж. «Эмиль или О воспитании». – Москва: 1995. 262.

97. Рыбак Л. А. Проблема индивидуального подхода в процессе формирования самостоятельного мышления учахихся \\Проблемы формирования личности и индивидуальный подход к учашимся. – М.: Просвещение, 1994. – С. 275-298.

98. Рыбак Л. А. Образное мышление и урок литературы. – М.: Просвещение, 1996. – 204 с.

99. Сладкова Д. А. Проблемное преподавание литературы в старших классах средней школы. – Казань, Университет, 1997. – 60 с.

100.Тожиев А. Адабиёт дарсларида суҳбат. – Т.: Ўқитувчи. 1997.-132 б.

101.Тўракулов Э., Рахимов С. Абу Райҳон Беруний рухият ва таълим-тарбия хакида. – Т.: Ўқитувчи, 1992. –80 б.

102.Тўхлиев Б. Ўзбек адабиёти. 9-синф учун дарслик. – Т.: Ёзувчи, 2001. –288 б.

103.Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: "Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси", 2010. 111 б.

104.Узвийлаштирилган давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт. Ўзбек тили. (5–9-синфлар). –Т.: РТМ. 2010 йил. 82 бет.

105.Узлуксиз адабий таълим йўриғи (концепцияси). Муаллиф: К. Йўлдошев. – Т.: ЎзПФИТИ, 1995. –22 б.

106.Усмонов Р. Юқори синфларда ёзувчи биографиясини ўрганиш. – Т.: "Ўқитувчи", 1969. – 131бет.

107.Фитрат А. Нажот йўли. – Т.: "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2001. – 176 б.

108.Форобий А. Н. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Халқ мероси, 1993. 224 бет.

109.Хайруллаев М. Форобий ва унинг фалсафий рисолалари. – Т.: Ўзфанакадем, 1963. –283 б.

110.Хайруллаев М. Форобий рухий процесслар ва таълим-тарбия тўғрисида. – Т.: Ўқитувчи, 1967. –95 б.

111.Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. – Т.: Ўзбекистон, 1971. –310 б.

112.Хайруллаев М. Ўтмиш мутафаккирлари таълим-тарбия

хакида. Халқ педагогикаси – инсон камолотининг асоси. 1-китоб. – Т.: ЎзПФИТИ, 1992. –139 б.

113.Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. –Т.: Фан. 1994. –80 б.

114.Худойбердиева Х. Садокат. –Т. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983. 199 б.

115.Яминова С. Ўқувчиларнинг мустакил фикрлаш кобилиятини шакллантиришда сценарийли ўкитиш усулидан фойдаланиш. Пед. фан. номзоди ...дисс. – Т., 1997. 168 б.

116.Ўзбек адабиётидан замонавий дарслар. (Ўкитувчилар учун методик кўлланма) Тузувчилар А. Рафиев ва бошк. – Т.: Ўз-Силм, 1990. –82 б.

117.Ўзбек педагогикаси антологияси. Икки жилдлик. 1-жилд. Тузувчи-муаллиф: К. Хошимов, С. Очил. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 464 б.

118.Ўзбек педагогикаси антологияси. Икки жилдлик. 2-жилд. Тузувчи-муаллиф: С. Очил, К. Хошимов. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 480 б.

119.Ўзбек педагогикаси тарихи. Олий ўқув юртлари учун кўлланма. /А. Зуннунов тахрири остида. – Т.: Ўқитувчи, 1997. 272 б.

120.Ўзбек педагогик энциклопедик сўзлиги. (К. Йўлдош, У. Долимов, К. Хусанбоева, А. Сулаймонов, М. Йўлдошева, О. Сафаров.) – Т.: Chashma print, 2014. – 446-бет.

121.Каххор А. Адабиёт атомдан кучли. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 183 бет.

122.Қосимов Б., Жумахўжа Н. Ўзбек адабиёти. 10-синф учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 2000. –464 б.

123.Куронов М. Миллий тарбия йўрикномаси. Ғарб ва Шарқ тарбиявий тажрибалари намуналари тахлили. //Халқ таълими. 1993. -8. –Б. 6-10.

124.Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 184 бет.

125.Хожиахмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 151 б.

126.Хожиахмедов А. Шеър санъатини биласизми? – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, 2001.–96 б.

127.Хусанбоева К. Адабиёт – маънавият ва мустакил фикр шакллантириш омили. Монография. – Т.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2009. –368 бет.

128.Хусанбоева К.Тахлил – адабиётни англаш йўли. – Тошкент: Мухаррир нашриёти, 2013. –432 бет.

129.Хусанбоева К. ва бошк. Кийиксўкмокдаги йўловчи. Монография. – Т.: ЎзМЭ, 2014. –192 б.

130.Хусанбоева К. Literatura as a factor for developmentof morality and independent thinking. – T.: Тамаддун, 2016. –350 б.

131.Q. Husanboyeva va boshq. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. – Samarqand, SamDU, 2019. – 395 b.

132.Q. Husanboyeva va boshq. Maktabgacha ta'limda badiiy matn ustida ishlash metodikasi (nutq o'stirish metodikasi). Darslik. – Samarqand, SamDU, 2020. – 394 b.

133.Q. Husanboyeva va boshq. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 380 b.

134.Q. Husanboyeva va boshq. Maktabgacha ta'limda badiiy matn bilan ishlash metodikasi (nutq o'stirish metodikasi). Darslik. To'ldirilgan va tuzatilgan ikkinchi nashri. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 394 b.

135.Q. Husanboyeva, M. Hazratqulov. Boshlang'ich sinflarda matn tahlili orqali mustaqil fikrlashga o'rgatish (PIRLSga tayyorgarlik). O'quv qo'llanma. – Samarqand, SamDU, 2020. – 160 b.

136.Q. Husanboyeva, Sh. Jamoldinova, I. Rahimova. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lim. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 401 b.

137.Q. Husanboyeva. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lim. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 401 b.

138.http://dic.academic.ru/

139.https://ru.wikipedia.org/wiki.

140.www.ziyo.comkutubxonasi.

141.http://fikr.uz/blog/utkir_hoshimov/azhdodlar-abadiyligi.html

QUNDUZXON HUSANBOYEVA, ROZA NIYOZMETOVA

ADABIYOT O'QITISH METODIKASI

Pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari uchun darslik

IKKINCHI KITOB

Darslik

Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2022

Muharrir: Xolsaidov F.B.

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.
Bosishga 14.05.2022. da ruxsat etildi. Bichimi 60x90.
"Times New Roman" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 25. Nashr bosma tabog'i 24,5.
Adadi 250 nusxa.

"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-a uy.
+99893 552-11-21

Muallif va nashriyot roziligisiz chop etish ta'qiqlanadi.

ISBN 978-9943-8233-9-6